


@tarixchi_kutubxonasi

O'ZBEKISTON TARIXI

I



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI,
O'ZFA TARIX INSTITUTI, O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI, O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
HUZURIDAGI DAVLAT BOSHQARUVI AKADEMIYASI

@tarixchi_kutubxonasiga

O'ZBEKISTON TARIXI

(Eng qadimgi davrlardan
bugungi kungacha)

1 jild

(O'zbekiston tarixi va manbalari)

TOSHKENT
«MA'NAVIYAT»
2023

UO'K 94(575.1)
KBK 63.3(50')
O' 17

@tarixchi_kutubxonasiga

O' 17 O'zbekiston tarixi. (Eng qadimgi davrlardan bugungi kungacha) I jild [Matn] / A.Asqarov [va boshq.]. – T.: «Ma'naviyat», 2023. – 456 b.

ISBN 978-9943-04-458-6

Tahrir hay'ati:

Ahmadali Asqarov – hay'at raisi, tarix fanlari doktori, akademik,
Azamat Ziyov, Bahrom Abduhalimov, Anatoliy Sagdullayev, Akbar Hakimov, Gulchehra A'zamova, Ashraf Ahmedov, G'aybulla Boboyorov, Dono Ziyoyeva, Muhayyo Isoqova, Farhod Maqsudov, Shokir Pidayev, Qahramon Rajabov, Rustam Sulaymonov, Sherzod Abdullayev, Dilorom Yusupova, Halim To'rayev

Mualliflar:

A.Asqarov, Azamat Ziyov, F.A.Maqsudov, Sh.R.Pidayev, G'.B.Boboyorov,
A.M.Otaxo'jayev, I.I.Bekmurodov, H.M.Mamadaliyev, Z.M.Qodirov, G.M.Ochilova,
G.A.A'zamova, N.A.Allayeva, Sh.Y.Mahmudov, D.H.Ziyoyeva, M.S.Isoqova, Q.K.Rajabov,
M.A.Raximov, Sh.O.Mamadaliyev, K.V.Djvakova, Sh.M.Raxmatullayev, Z.Munavvarov,
R.R.Nazarov, B.A.Abduhalimov, F.X.Usarova, M.M.Yuldashev, S.Shodmonova,
S.A.Po'latova, A.A.Hakimov, N.G.Karimova, R.Y.Tursunova, O.B.Abdimo'minov

Ko'p jildlik «O'zbekiston tarixi va manbalari» turkumida nashr qilinayotgan jamlanmaning qo'lingizdagi birinchi jildida O'zbekiston deb atalmish yurtimiz tarixining eng qadimgi davrlardan hozirgacha bosib o'tilgan yo'l, xalq turmushi, madaniyati, ilm-fani, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti real va qisqa fakt raqamlar, yuz bergan va sodir etilgan voqealar yoritildi. Kitobda ilk bor eski mustamlaka tuzumidan qolgan va xorijda eski maktablar ta'siri ostida shakllangan dunyoqarashdan voz kechilgan holda O'zbekiston tarixi obyektiv tarzda, yangicha yondashuv, milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda qisqacha bayon etildi. Eng muhimi, ushbu asar yaqin o'tmishda tarix fani konsepsiyasiga zo'rlik bilan singdirilgan va hali ham o'z salbiy ta'sirini saqlab qolayotgan formatsiyaviy qarashlardan xoli bo'lib, o'tmishni o'rganish va yoritishda butunlay yangicha munosabat – sivilizatsiyaviy-sulolaviy yondashuv asosida yozilgani bilan ajralib turadi.

Kitob keng kitobxonlar ommasiga uchun mo'ljallangan.

ISBN 978-9943-04-458-6

© «Ma'naviyat», 2023



Ma'lumki, el-yurtimiz o'zining qadimiy o'tmishi davomida qancha-qancha unutilmas voqealarni, turli sinov va qiyinchiliklarni, zafarli davrlar bilan birga, fojiali kunlarni ham boshidan kechirgan. Lekin bir haqiqatni ta'kidlash kerakki, Vatanimiz hududida mavjud bo'lgan har bir davlatchilik tuzumi, har qanday ijtimoiy jarayon-u g'alaba yoki mag'lubiyat bo'ladimi, yuksalish yoki tanazzul bo'ladi-mi – barcha-barchasi xalqimiz bosib o'tgan murakkab tarixiy yo'lning uzviy va ajralmas qismidir. Shuning uchun ham biz tariximizning barcha bosqichlarini yaxlit holda qabul qilib, har tomonlama chuqur o'rganishimiz zarur.

O'tmishdagi yutuq va g'alabalaridan kuch-quvvat olib, xato va mag'lubiyatlaridan xulosa va saboq chiqarib yashaydigan xalq o'zining taraqqiyot yo'li va kelajagini to'g'ri belgilay oladi.

**Shavkat Mirziyoyev,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti**



SO'ZBOSHI

Insoniyat sivilizatsiyasining eng qadimgi o'choqlaridan sanalmish O'zbekistonning jahon umumtaraqqiyotiga qo'shgan ulkan va tengsiz hissasi dunyo hamjamiyati tomonidan munosib ravishda e'tirof etiladi. Har bir yurt va xalqning o'ziga xos kelib chiqish tarixi, rivojlanish yo'li bor. Turli sabablarga ko'ra chegaralar o'zgarib, hududlar kengayib yoki torayib borishi mumkin. Biroq turmush bir yerda to'xtab qolmaganidek, barcha millatlar va xalqlarning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayoti oldinga qarab ildamlayveradi, hayotda o'tgan har bir soniya, daqiqa, soat, yil, asr ortda qolaveradi, ya'ni tarixga aylanadi. Mazkur vaqt ichida yuz bergan har qanday voqea, inson aql-u zakovati va qo'li bilan yaratilgan inson faoliyatining har qanday mahsuli manba bo'lib qoladi. Tarix fani aynan ularga suyanib, ularni o'rganib ish tutadi. Shu tariqa katta-kichik ilmiy, ilmiy-ommabop asarlar tug'iladi.

Yurt va o'zi mansub bo'lgan xalq o'tmishiga qiziqish fazilati insongagina xosdir. O'zining tarixiy kelib chiqishi, ota-bobolarining turmushi, millat va xalq bosib o'tgan yo'l, insoniyat sivilizatsiyasida tutgan o'rni, qo'shgan hissasini bilish insonni shaxs sifatida takomilga olib boruvchi muhim omillardandir. Shu bois, o'zligini tanigan va intellektual jihatdan o'sishga intilgan inson o'zi tug'ilib o'sgan makon – mahalla, qishloq, shahar, voha, yurt tarixi haqida tegishli bilimlarga ega bo'lishni istaydi. Ilm-fan va texnologiyalar shiddat bilan rivojlanib, ma'naviy-ma'rifiy ozuqa olish, madaniy tarbiyaning kundalik ahamiyati kuchayib borayotgan hozirgi davr – XXI asr talablaridan kelib chiqilsa, bu tabiiy ehtiyojning ahamiyati yanada oshadi.

Mustaqil taraqqiyotimizning 2016-yil kuzida ochilgan yangi sahifasi – davlat va jamiyat turmushining barcha yo'nalishlarini tubdan va sifat jihatdan yangilash bosqichida inson omili, uning bilim darajasi, ma'naviy-ma'rifiy saviyasi har qanchogidan ko'ra ko'lamliroq ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Ma'naviyat va ma'rifat kengashining 2021-yil 19-yanvarda bo'lib o'tgan yig'ilishida «Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi – ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishda ana shu ikkita mustahkam ustunga, ya'ni bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyotga hamda ajdodlarimizning boy merosi, milliy

va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyatga tayanamiz» deya ta'kidladi. Oldinga surilgan bu g'oyani taraqqiyotga intilgan jamiyat hayotiga yangicha qarash, erkin va farovon hayot qurishga olib boruvchi o'ziga xos formula deya baholash to'g'ri bo'ladi. Zero, jamiyatda qanchalik to'kin-sochkinlik bo'lmasin, agar turmush ma'naviyatdan yiroq bo'lsa, u xuddi qonsiz tomin, suvsiz soyga o'xshaydi va bunday jamiyat, albatta, tanazzulga uchraydi.

Bugungi kunda Respublikamizda milliy g'oya va jamiyatning mafkuraviy negizlarini puxta ishlab chiqish, yosh avlodni bolalikdan milliy g'urur va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni davlat siyosati darajasiga ko'tarib, davlat va jamiyatning mavjud imkonlari ushbu muhim ishga safarbar etilayotgani ham mamlakat taraqqiyotini barqaror ta'minlashga qaratilgan pragmatik maqsadlar bilan bog'liqdir. Bu borada oldimizda ko'pdan-ko'p, asrlar, o'n yillar davomida hechilmay kelayotgan muammolar turgani ham ayni haqiqatdir. Ularni tizimli hal etib borishda tarix ilmining o'z o'rnini va mas'uliyati bo'lishi tabiiy va zarur.

Deyarli, 130 yillik mustamlaka davridan so'ng erishilgan Mustaqillik yillarida jamiyat hayotining barcha sohalarida bo'lganidek, ilm-fan, xususan, milliy tarixchilik maktabining butunlay o'zgacha sharoitda oyoqqa turishi bilan bog'liq jarayon oson kechmadi. O'tgan yillar davomida tarixga yangicha, xolis munosabatni shakllantirish, yangi tarixni yaratish borasida muayyan ishlar qilindi. Biroq sohaning maqsad va vazifalari, ilmiy uslub va yondashuvlarni zamon talablari asosida, milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda to'g'ri belgilab olish, davlat va jamiyat hayotining barcha bo'g'inlariga uning ijobiy ta'sir ko'rsatishiga erishish uchun yangicha dunyoqarash, bilimga suyangan samarali va zamonaviy tizim yaratishda oqsash borligini tan olish lozim.

So'nggi besh yilda ilm-fan, jumladan, uning ijtimoiy yo'nalishlariga munosabat tubdan yangilandi. Bugun ularda yuz berayotgan jonlanish va o'zgarishlar jarayonini sezmaslik mumkin emas. Ayniqsa, yoshlarda tarix faniga bo'lgan qiziqish keskin oshgani, yurt va bu yerda yashab o'tgan xalqlar tarixini o'rganish, ilmiy izlanishga nisbatan intilish kuchaygani e'tiborga loyiq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga asosan mamlakatimizda 2019-yil 1-sentabrdan «O'zbekiston tarixi» telekanali o'z ishini boshlagani ham tarix ilmining jamiyat taraqqiyoti, kundalik turmushida alohida o'rnini borligidan dalolatdir, albatta. Telekanal oldiga qo'yilgan maqsad ham aniq va ulug': Vatanimizning qadimiy va boy tarixini chuqur o'rganish, ushbu yo'nalishdagi ilmiy-tadqiqot ishlarini faollashtirish, yosh avlodni milliy qadriyatlar va ajdodlarning bebaho merosi asosida tarbiyalash, fuqaroda vatanparvarlik va o'z xalqi bilan g'ururlanish tuyg'usini kuchaytirish asosida milliy o'zlikni anglash hissini mustahkamlash va aholi dunyoqarashini kengaytirish hayotiy masala.

Mazkur muddaoni ro'yobga chiqarish oson ish emas, albatta. Buning uchun, jumladan, milliy tarixchilik ilmiy maktabini ham yaratish lozim. Shu ma'noda, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining yuqorida tilga olingan yig'ilishida davlatimiz rahbari tomonidan bildirilgan mana bu juda qimmatli fikrga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiqdir: **«Bir haqiqatni barchamiz chuqur anglab olishimiz kerak: milliy tarixni xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimizga milliy ruhda yetkazish, ularning qalbiga, shuuriga singdirish kerak. Aks holda, uning tarbiyaviy ta'siri bo'lmaydi. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o'rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur».**

O'zbekiston Davlat mustaqilligining 30 yilligiga bag'ishlab hukmingizga havola etilayotgan «O'zbekiston tarixi va manbalari» turkumidagi yangi asarlar to'plami aynan shu yo'nalishda qo'yilgan ilk qadamlardandir. Bu kitoblar ilgari, jumladan, mustaqillik yillarida ham yaratilgan ilmiy ishlardan farqli ravishda, tarixga qandaydir yot mafkura, formatsiyalar almashuviga asoslangan yondashuv, uzoq-yaqinlarda shakllangan xorijiy maktablar, markazlar nuqtayi nazaridan emas, balki o'zbek xalqi boshidan kechirgan, o'zbek davlati faoliyati doirasida kechgan tarixiy voqelikni xolis o'rganish, tahlil etish va yoritish natijasida vujudga keldi.

Ko'p jildlik «O'zbekiston tarixi va manbalari» eng qadimdan hozirgacha bo'lgan asosiy tarixiy bosqichlar va yo'nalishlarda yuz bergan muhim voqealarni birlamchi manbalar negizida yangicha yondashuv asosida qamrab olishga qaratilgan ilk ommabop to'plam. Eng muhimi, ushbu asar mustamlakachilik zamonida tarix faniga zo'rlik bilan singdirilgan va hali ham o'z salbiy ta'sirini saqlab qolayotgan formatsiyaviy qarashlardan xoli bo'lib, o'tmishni o'rganish va yoritishda butunlay yangicha sanalmish sivilizatsiyaviy-sulolaviy yondashuv asosida yozilgani bilan ajralib turadi. Jamlanmada turonzamin-da davlatchilik ildizlarining shakllanishi va rivojlanishi, taraqqiyot va tanazul jarayonlari, ularning tahlili, kun kechirishning ibtidoiy usullaridan tortib, ilk mehnat va himoya qurollarining yaratilishi, qadimgi texnika va texnologiyalarning paydo bo'lishi, adabiyot, san'at, madaniyat, fan-ta'lim, iqtisodiyot va xalqaro munosabatlarning tarixiy ildizlarini yangicha yondashuv asosida yoritishga jazm qilindi. Yuqorida ta'kidlanganidek, xorijiy maktab va markazlar tomonidan oldinga surilgan «Bu hududga islom sivilizatsiyasi taraqqiyotni olib keldi», «Bu zaminga makedoniyalik Iskandar madaniyatini olib kirdi», «O'zbek xalqi XVI asrda paydo bo'lgan» kabi xato, bir yoqlama g'arbona qarashlarni rad etishga qaratilgan real tarixiy voqeliklar, faktlar asosida yoritildi. Aslida, dunyodagi har bir xalqning o'z tarixi, o'ziga xos tafakkuri, madaniyati,

turmush tarzi mavjud. Har bir xalq hayotining bu jihatlari tarixan shakllangan va ularni bir-biridan ustun qo'yib bo'lmaydi.

Insoniyat sivilizatsiyasining ilk davrlaridan boshlab turli xalqlarning turmush tarzlari u yoki bu shaklda, ko'proq yoxud kamroq darajada bir-biriga ijobiy yoki salbiy ta'sirini o'tkazib kelgan. Urushlar, fath etishlar orqali kuchliroq salohiyatga ega bir xalq ikkinchi xalqqa o'z madaniyatini majburiy singdirgan holatlaridan ham ko'z yumib bo'lmaydi. Bu jarayonga ikki xil yondashuv bilan baho berish mumkin: ijobiy yoki salbiy. Bir madaniyat ikkinchi madaniyatni tabiiy boyitishi – bu ijobiy hodisa, ammo zo'ravonlik, qirg'inbarot va minglab jonlarning yakson qilinishi orqali ta'sir o'tkazishni hech bir zamonada oqlab bo'lmaydi. Jumladan, Arab istilosi mahalliy xalqlar hayot tarziga begona madaniyatni singdirgan bo'lsa-da, ma'lum darajada ijobiy natijalarni ham keltirib chiqardi.

Ammo Turonda tarixan mavjud bo'lgan qadimgi madaniyat va ilmiy salohiyat arablarning o'zidan ko'ra yuqori darajada yuksak rivojlangan mahalliy madaniyat islomiy qarashlarni, insonlar hayot tarzini tolerantlik va yuqori insonparvarlikning ilmiy asoslari bilan boyitdi. Agarda Turon xalqlarida yetarlicha intellektual salohiyat, o'ziga xos kuchli hayotiy madaniyat bo'lmaganida, bu hodisa sodir bo'lishi mumkin emas edi. Zero, xalqning «Uyg'onish davri» (Birinchi va Ikkinchi renessanslar)dagidek kuchli ilmiy yuksalishni ta'minlash salohiyatiga ega bo'lishi uchun yuz, ikki yuz yil emas, balki ming yillar kerak bo'ladi. Bilakning zo'rligi aql va salohiyatning ustun ekanligini isbotlovchi omil sifatida qabul qilinmaydi.

Tarixga siyosatdan xoli obyektiv yondashuv orqali qandaydir tarixiy kashfiyot qilinmoqda, degan fikrdan yiroqmiz. Balki dunyo va xalqlar tarixiga real ko'z bilan qarovchi progressiv dunyoqarashga ega bo'lgan olimlarda bunday xulosalar azaldan mavjud. Ushbu obyektiv qarashlar doirasida o'zbek xalqi va davlatchiligining ko'p ming yillik tarixi haqqoniy ravishda, ajdodlarning turli yo'nalishlarda kechgan turmushi, erishgan yutuqlari, insoniyat tamadduni taraqqiyotiga qo'shgan tengsiz hissasi, shu bilan birga, boy berilgan imkoniyat, yo'l qo'yilgan xatolar ro'yirost ko'rsatib berilmoqda. Jumladan, tarixiy tanazzul davrlarining asl sabablari, xalqning stixiyali hayot tarzi jamiyatning a'zoyi badaniga chirmovuqdek yoyilib, ilm-fan, texnika taraqqiyotini chetga surib qo'yilganligi, o'zaro urushlarning avj olgani, dunyoviylik va diniylik orasidagi sog'lom muvozanatning buzilishi, artodoksal qarashlar va oqimlar jamiyat yuqori qatlamini egallab olishi va davlatchilikning izdan chiqishi, real hayotdan chekinish kabi salbiy jarayonlar baholi qudrat ochib berildi.

Ma'lumki, o'tmishdagi tarixiy tanazzul sabablaridan biri, Turonda davlatlar o'z armiyalari saflariga urushlar davomida asir olingan qullar yoki mahalliy aholidan qullikka tushgan shaxslarni pul evaziga askarlikka yollaganlaridir. O'z vatanidan judo bo'lgan yoki vatanida qullikka muhtalo qilingan, insoniy baxtni tatimagan, haq-huquqlaridan mutlaqo mahrum bo'lgan qulda vatanparvarlik, vatandan g'ururlanish tuyg'usi, yurtni dushmandan himoya qilishda shijoat bo'lmaydi.

To'g'ri, jamlanmaga kiritilgan asarlar, tarixiy manbalar nuqsonlardan xoli emas. Tarixni mukammal yoritish uchun hali ko'p mehnat qilishga to'g'ri keladi. Xalqimizda «O'zbekiston tarixi»ni milliy manfaatlar doirasida obyektiv shakllantirish borasidagi orzu uyg'onganiga ko'p yillar bo'ldi. Biroq tarixchi olimlarimizda hamkorlik va hamfikrlilikning sustligi, ba'zan tarixga yondashuvning o'ta subyektiv siyosiylashgan ko'rinishlarining namoyon bo'lishi, obyektivlikdan goh o'ng, goh so'l tomonga og'ishlar, o'zaro tortishuvlar bu orzuning amalga oshishiga to'siq bo'lib keldi.

Yuqoridagilarga qaramay, bir qator olimlarimizning ko'p yillik mashaqqatli izlanishlari, mehnatlari evaziga qo'lingizdagi jamlanma shakllantirildi. Zamanimiz tarixi keng ko'lamlı, boy, u olis ming yilliklarga borib taqaladi, jamlanmaning birinchi jildi nega bu qadar qisqa, degan savol tug'ilishi tabiiy. Bu savolga javob shundan iboratki, tariximizning qadimgi zamonlaridan bugungi kungacha bo'lgan davrlarini aniq manbalar asosida qisqa, tezis tarzda bir ipga tizildi va bunda zamonaviy, yangicha munosabatning asosiy parametrlarini belgilab olishga harakat qilindi. Aslida, birgina jildda ulkan va olis yo'l bosib o'tilgan tarixning barcha jihatlarini qamrab olish mumkin emas. Ilmiy rejalarimizda jamlamaning birinchi jildini to'laroq, noyob birlamchi arxeologik materiallar asosida yoritish niyatimiz yo'q emas. Ayniqsa, birlamchi sivilizatsiyalar davridan to' o'zbek davlatchiligining islom sivilizatsiyasi davriga qadar tarixiy jarayonlarini keng qamrovli yoritish bu masalaga yana qaytishni taqozo etadi. Chunki tariximizning fundamental asoslari, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy, ma'rifiy, mafkuraviy ildizlari o'sha davrlarda yaratilgan.


Jamlanmaning ikkinchi-oltinchi jildlari tariximizning eng muhim sana va voqealari, manba sifatida qimmatli bo'lgan ma'lumotlar to'plamidir. Yettinchi jildi milliy diplomatiya tarixiga bag'ishlandi. Sakkizinchi jildda esa o'zbek harbiy san'ati tarixi ilk bor o'quvchilarga taqdim etilmoqda. To'qqiz-o'n birinchi jildlardan tegishli Samarqand, Buxoro va Xorazm tarixlari o'rin olgan.

Yuqoridagilar O'zbekistonning, bu hududda yashagan xalqlar tarixini yangi ko'z bilan shakllantirishning dastlabki qadamidir. Kelgusida «O'zbekiston tarixi» jamlanmasini mukammallashtirish ishlari tizimli ravishda davom ettiriladi.

Ilmiy izlanishlar orqali tariximizda muhim rol o'ynagan har bir davr, dinastiyalar faoliyati, kelajak uchun foydali xulosalar chiqarish uchun har tomonlama – erishilgan yutuqlar, yo'l qo'ygan kamchilik va nuqsonlar haqqoniy, adolatli, ro'yirost ochib berilishi kerak. Tarixchilar oldida jamiyat taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etgan har bir tarixiy davr, renessanslar tarixi, Qoraqalpog'iston Respublikasi va barcha hududlar, shaharlarimiz tarixi, muhim tarmoqlar – qishloq xo'jaligi, sug'orish tizimi, ko'p tarmoqli hunarmandchilik, sanoatchilik, madaniyat, ilm-fan, shaharsozlik, adabiyot, til taraqqiyoti va boshqa sohalar tarixi yangicha nigoh bilan yozilishi zarur va keyingi jildlarda o'z aksini topadi. Bu – ulkan va uzluksiz, katta ilmiy salohiyat va mehnatni talab qiladigan jaryon. Ushbu maqsadga erishish uchun tarixchi olimlarimizda yakdillik, hamfikrlik, maqsadlar mushtarakligi bo'lishi lozim.

Kimdir tarixga yondashuvning eski maktabiga yopishib olsa, boshqasi haddan ortiq modernizatsiyaga berilib ketsa, tarixiy reallik chekinadi, umumiy maqsadga erishish qiyin kechadi. Shu bois, olimlarimizdan turkumni yanada kengaytirish va takomillashtirish bo'yicha asoslangan taklif hamda mulohazalarni, amaliy izlanishlarni kutib qolamiz.

A.Asqarov,
tarix fanlari doktori, akademik



Dinozavrlarning dunyoga kelishi

shi, ustuvorlik kasb etishi va keyinchalik qirilib ketishi bilan xarakterlanadi. Yer yuzida nina bargli o'rmonlar, qirqquloqlar va ochiq urug'li o'simliklar keng tarqaladi.

Biroq bundan 66 million yil oldin Yer yuzida ro'y bergan ulkan tabiiy ofat hayvonot va o'simlik olamining 75 foizi qirilib ketishiga olib keladi. Sayyora-mizga ulkan asteroidning tushishi oqibatida atmosferaga ko'tarilgan chang-to'zon tufayli bir necha yil davomida Yer yuziga quyosh nurlari yetib kelmaydi. Natijada, ko'plab hayvon va o'simliklar qatorida qanotsiz dinozavrlarning barcha turlari qirilib ketadi.

Shundan so'ng boshlangan va bugungi kungacha davom etayotgan kaynozoy davri¹ deb atalgan geologik bosqich Yer yuzida sut emizuvchilar, hasharotlar va gulli o'simliklarning ustuvorlik qilishi bilan tavsiflanadi. Shu tariqa qit'alarning shakli va joylashuvi bugungi qiyofani kasb etadi.

Kaynozoy davrining so'nggi bosqichi bo'lgan to'rtlamchi davr² yerda insonlarning paydo bo'lishi davri bo'lib, iqlimning keskin o'zgarishiga qarab muzlik³ va muzlikning chekinishi⁴ deb ataluvchi ikki bosqichga bo'linadi.

Mazkur davrda qutblardagi muzliklar vaqti-vaqti bilan qit'alarga bostirib kelib, chekinib turgan. Iqlim va tevarak muhit tez-tez o'zgarib borgan. Muzlik davrida shimoliy qutb muzliklari Yevroosiyoning 40-paralleli – bugungi Turon tekisliklarigacha tushib keladi. O'rta Osiyo iqlimi esa bugungi tundra iqlimi singari bo'lib, bu yerda shimol hayvonlari va o'simliklari keng tarqalgan.

¹ Kaynozoy – 66 million yil oldin boshlanib, bugungacha davom etayotgan geologik davr.

² To'rtlamchi davr – 2,58 million yil oldin boshlanib, bugungacha davom etayotgan kaynozoy davrining so'nggi bosqichi.

³ Muzlik davri yoki pleystotsen – 2,5 million yil oldin boshlanib – 12 ming yil oldingacha davom etgan bosqich.

⁴ Muzlikning chekinishi davri yoki golotsen – 12 ming yil oldin boshlanib, bugungacha davom etayotgan geologik bosqich.



Muzlik davri

Ilmiy tomondan sababi haligacha aniqlanmagan yuqori muzlanishlarda Yer yuzining 30 foiz maydoni muzliklar bilan qoplangan edi, deb sanaladi. Shuningdek, muzliklarning yuzlab chaqirim tevarigidagi yillik o'rtacha issiqlik suv muzlash darajasida qolgani uchun, bu yerlar ming yillar davomida surunkali muzlab yotadigan, erimaydigan *mangu muzliklar*¹ bilan qoplangan. Bugungi kunda bunday muzliklar qutblarning tevarigidagina saqlangan bo'lib, ular muzlik davri qoldiqlaridir.

Bu davrda okean suvlarining qit'alarni qoplagan muzliklarga singishi oqibatida ularning qalinligi ikki-uch chaqiringacha yetadi. Natijada, dengiz sathi 100 metrdan quyiroqqacha pasayib, ayrim qit'alar o'rtasidagi suvlar quruqlikka aylanib, hayvon, o'simlik va ilk insonlarning qit'alararo ko'chishi va tarqalishiga imkon yaratiladi. Chunki ushbu davrdagi yuqori muzlanishlar oraliqlarida iliq iqlim ustuvorlik qilgan. Bunday bosqichlarda ayrim hayvonlar, o'simliklar va ilk insonlar keng maydonlarga tarqalishga ulgurgan, biroq keyingi muzlik davrida ular tang holatga tushib, yana qirilib ketgan. Muzlik davrida 11 marta shunday yuqori muzlanish to'liqini yuz bergani aniqlangan.

Bu davrning quruqlik hayvonlari bugungilarga o'xshash, biroq yirikroq sut emizuvchi, qush va sudralib yuruvchilardan iborat bo'lgan. Jumladan, qilich tishli yirik mushuksimonlar (g'or arsloni, yo'lbarasi va boshqalar), g'or ayiqlari, mamontlar, mastodonlar, bizonlar, yovvoyi buqalar, yungli karkidonlar, yirik shoxli yovvoyi qo'ylar, fil-qushlar va yog'och sichqonlari kabi qadimgi jonivorlar edi. Muzlik davrining yirik hayvonlari² iliq iqlimning shiddatli yoyilishi davrida butunlay qirilib ketgan.

Geologik jihatdan bugungi kunda davom etayotgan muzlik chekinishi davri 11700 yil oldin, ya'ni so'nggi muzlik davridan keyin boshlanib, «golotsen muzlik chekinishi» deb ham ataladi. Iliq iqlim ustuvor bo'lgan golotsen bosqichida Yer yuzi iqlimi, hayvonot va o'simlik olami bugungi kundagi ko'rinishiga ega bo'lgan. Shu bosqichda Yer yuzida odamlar soni ortib, keng tarqalib, tabiatda ustun biologik turga aylangan.

¹ *Mangu muzliklar* – bugungi kunda qutblar tevarigida saqlanib qolgan hududlar.

² *Yirik hayvonlar* – paleontologiyada og'irligi 40-45 kg dan yirik bo'lgan hayvon va qushlar.

Turon¹ kengliklarida mezozoy davrida Tetis² deb atalgan dengiz bo'lgan. Ushbu dengizning 5 million yil oldin qurib ketishi natijasida mazkur mintaqa hozirgi tabiiy-jo'g'rofiy ko'rinishni kasb etgan. Uni o'rab turgan tog'oldi hududida toshga aylangan dengiz chig'anoqlarining ko'plab topilishi buning yorqin dalili bo'lib, qadimiy dengiz qirg'oqlari mintaqamizning hozirgi tog'oldi hududlariga to'g'ri keladi.

Tetisning qurishi davridan boshlab Turon tabiati quruqlikda uzluksiz davom etgan. Muzlik davrining ikkinchi yarmida Turon tekisliklariga ilk insonlarning kelib o'rnavi kuzatiladi. O'sha kezlarda shimoliy o'rmon va arktik cho'llar iqlimi hukmron bo'lib, dala-qirlarda megafauna keng tarqalgan edi. So'nggi muzlanishning tugashi bilan yoyilgan iliq iqlim natijasida Turon bugungi tabiiy-ekologik ko'rinishga ega bo'lgan. U tog' va tekisliklardan iborat bo'lib, g'arbda Kaspiy dengizi, sharqda Pomir va Tangritog' tizmalari, janubda Hindukush-Kopetdog' tizmalari, shimolda Markaziy Qozog'iston dala-qirlarigacha bo'lgan kengliklarni qamrab oladi.

Baland tog'lardagi doimiy muzlik va qorlardan hosil bo'lgan Amu, Sir va Zarafshon daryolari ko'proq sharqdan g'arb tomon yo'nalib, mintaqaning shimoli-g'arbiy chekkasidagi tabiiy botiqda o'rnavgan Orol dengizi, deb ataluvchi yirik ko'lga quyiladi. Turon tabiati va iqlimi xilma-xil. Bu yerda mavjud birlamchi ovchilik, termachilik, dehqonchilik va chorvachilik xo'jaliklari uchun mos tabiiy sharoitlar qadimdan kishilar diqqatini torta boshlaydi. Shu tariqa Turon o'lkasi tosh asridan boshlab insonlar tomonidan o'zlashtiriladi.

Umuman olganda, Turonning tabiiy-ekologik sharoiti bu yerda iqtisodiy o'sishning tub yo'nalishlari uchun doim qulay bo'lgan. Ovchilik-termachilikdan so'ng dehqonchilik va chorvachilik xo'jaliklarining yuzaga kelishi bilan



TRIAS DAVRI
200 million yil oldin
Tetis dengizi

¹ Turon – tarixiy-jo'g'rofiy adabiyotlarda «Turkiston» deb ham yuritiladigan va jo'g'rofiy markazida O'zbekiston o'rnavgan, taxminan, hozirgi O'rta Osiyoga to'g'ri keladigan tarixiy o'lka.

² Tetis – 1 milliard yil oldin yuzaga kelib, 5 million yil oldin qurib qolgan okcan; bugungi O'rta dengiz, Qora dengiz va Kaspiy dengizi Tetisning qoldiqlari sanaladi.




Eron va Turon xaritasi (asli)

birga shaharsozlikka ham o'tila boshlagan. Ilk shaharlar o'sha kezlardayoq jamiyatning boshqaruv, ijtimoiy va iqtisodiy o'choqlariga aylangan.

Kishilik o'tmishining ilk davrlarida yuzaga kelgan manzilgohlar eng qadimiy jamoalarning ajralmas qismiga aylanadi. Ular kengaygani sari turmushdagi o'rni ham ortib boradi. Qadimiy qo'nalg'alar insonlar bir yerga yig'ildigan, birga ish yuritadigan turar-joylardir. Bu yerda, birinchi galda, odamlar o'rtasida mehnat taqsimoti yuzaga kelib, oziq-ovqat mahsulotlari topishning unumliroq usullari ustida bosh qotirilib, tajriba almashilgan. Ilg'or g'oyalarning bir yerda to'planishi bilan aynan qo'nalg'alarda yangi usullar, diniy qarashlar, ilk falsafiy tushunchalar ilgari surilib, jamoalarning turli urug'dosh yoki hunardosh vakillari uyusha boshlagan.

Ilk insonlar. Bugungi kun biologiya va antropologiya bilimlarida qabul qilingan tasniflarga ko'ra, inson *Odamlar (Homo)*¹ urug'iga tegishli biologik tur sanaladi. Ushbu urug' anatomik tomondan zamonaviy insonlarning ajdodlarini va yo'q bo'lib ketgan *ilk insonlar*² turini o'z ichida qamrab oladi. Ilk insonlar deganda chamasi ikki yarim million yil oldin yashagan eng qadimgi inson turlaridan zamonaviy insonlargacha Yer yuzida yashab o'tgan 20 ga yaqin inson turi tushuniladi. Bular ichida keng tarqalgan negiz turlarga Uquvli odam (*Homo habilis*), Tikyurar odam (*Homo erectus*), Neandertal odam (*Homo neanderthalensis*) va Ongli odam (*Homo sapiens*) kiradi.



Insonsimonlar

O'ZBEKISTON VA YAQIN HUDUDLARNING QADIMGI TARIXI JADVALI

Muzlik davri (Pleystosen)				Muzlik chakinish davri (Golosen)					
T o s h d a v r i				Orta losh (Mozol)	Yangi losh (Neolit)	Mis-losh davri (Neolit)	Jez davri	Taru davri	
Qadimgi losh (Paleolit)	D'ria	Yuqori (So'nggi)	So'nggi jez-ik tarix					Ik tarix	
Qo'y (ilk)									
2,6-1,7 (1,5) mln. yil oldin	1,7 (1,5) - 300 (150) ming yil oldin	350 (150)-50 (40) ming yil oldin	50 (40)-11,7 ming yil oldin	Eral. IX-VIII ming yillik	Eral. VI-IV ming yillik	Eral. IV ming yillik	Eral. III-II ming yillik	Eral. XII-X asr	Eral. X-IV asr
<p><i>Homo sapiens</i> "Ongli odam" - Zamonaviy ko'rinish va fali-sivorga ega odam <i>Homo habilis</i> "Uquvli odam" <i>Homo erectus</i> "Tikyurar odam" <i>Neandertal odam</i> Qirilib ketgan yoki assimillatsiyaga uchragan turlar</p>									
<p>Tashlandiq oshiq to'plavchilik</p> <p>O'ychilik va tarmachilik (O'zlashtiruvchi xo'jalik)</p> <p>Dahqonchilik va chorvachilik (Ishlab chiqaruvchi xo'jalik)</p>									
Qadimgi losh qo'pol qumi	Ashel Makzolit Qo'l cho'qmon	Levskua "Prenukius" (o'zak) Muxta Yalpoq uchiradi	Mikroitashuv Yirik qo'nalg'alar	Qo'ndog' qumi Geometrik mikroit	Qashoq xo'jaligi to'ntarshi Ik sopal	Ik metallar Ik qashoqlar	Ik shaharlik Sivilizatsiya	So'nggi jez davri Inqizol	Ik davranchilik
Afrika qit'asi	Ko'kbuloq Selungur Ko'kdere Tangirguz'gan	Ko'kbuloq Obrahmat Tashko'ch Omonqo'lon	Ko'kbuloq Samarqand qo'long'asi	Mechay Otshir Qo'shlosh	Kattaminor Sazag'on M. Farg'ona Ustyurt	Namozgoh, Saruzm	Sopoli Zamonaboli Tozaba g'yob	Kuchuk Chusi Burganlik	Baqhiya Sug'd Xoruzm Farg'ona
T a r i x o l d i (y o z m a m a n b a l a r d a n o l d i n g i d a v r)									Tarix - yozma manba

¹ *Odam turi* - lot. Homo.

² *Ilk insonlar* - arxantrop, deb ham yuritiladi.



Ongli odam, neandertal odam, tikiyurar odamning yer yuzida tarqalishi

Uquvli odam Yer yuzida chamasi 2,4 – 1,5 million yil oldin muzlik davri-ning boshlarida yashagan ilk inson turlaridan biri bo'lgan. Uquvli odamning qoldiqlari ilk bor Afrikadagi Tanzaniya o'lkasining Olduvay g'oridan¹ topilgan. Uning miya hajmi zamonaviy insonnikiga qaraganda ikki baravar kichikroq, bo'yi 130 sm, qo'llari uzun, biroq yuzi bugungi insonlarnikiga o'xshash yapaloq bo'lgan.

Afrika bo'ylab bu turga tegishli suyak qoldiqlari yonida ko'pincha toshdan yasalgan qurollar uchraydi. Uquvli odam toshdan ov qurollari yasagan, o'zidan oldingi turlarga qaraganda ancha chaqqonroq, o'zidan keyingi turlardan esa ancha epsiz edi. Bu tur vakillari o'z kundalik turmushida chamasi ko'proq o'laksa yeyishgan, qurollarini esa et-go'sht parchalashda va o'zini qo'riqlashda ishlatgan ko'rinadi. Uquvli odam o'zidan kuchsizroq yirtqichlar – chiyabo'ri va shoqollardan tortib olgan o'ljani bo'laklarga bo'lishda o'zi yasagan tosh qurollarni ishlatishni bilgan.

Kishilik o'tmishining boshlang'ichida muzlik davri yirtqichlari bilan yashash uchun ayovsiz kurash ketayotganida ilk insonlar tabiat resurslariga ega bo'lishning eng unumli yo'li – toshlardan yasalgan qurollarni ishlatishga bog'liq ekanini tushunib yetgan. Inson qo'li bilan yasalgan bi-

¹ Olduvay – Sharqiy Afrika (Kenya Respublikasi) hududidagi dara.

rinchi tosh qurollar bundan 2,6 million yil oldin boshlanib, antropologik tomondan Uquvli odamga tegishli ekani aniqlangan¹. Bu tosh qurollar soy o'zanlaridan terib olingan silliq qayroqtosh va shag'altoshlarni bir-biriga chaqish yo'li bilan o'tkir qirrali bo'laklar olingan. Shuning uchun, geologik davrlashtirish bo'yicha muzlik davri arxeologik tomondan *qadimgi tosh davri*² deb ataladi va u kishilik o'tmishida tosh qurollarning ishlatilishi bilan bog'liq (jadval).

Bu o'tkir qirrali qo'pol qayroqtosh va shag'altosh qurollar et-go'sht, teri, yung kabi turli ozuqani kesish, chopish va qirish uchun ishlatilgan. Ularning yig'indisi birinchi bo'lib Afrikada Viktoriya ko'lining yonidagi (Tanzaniya) Olduvay g'oridan topilgani uchun bu usul Olduvay tosh yo'nish usuli deb ataladi va Uquvli odam bu texnologiyani birinchi bo'lib qo'llagan tur sanaladi. Bu ko'nikma 2,6 million yil oldin boshlanib, 1,7 million yil oldin Uquvli odamning boshqa turga aylangunigacha, deyarli bir million yilcha cho'zilgan.

Olduvay usuli *tarixoldi*³ davrida Afrikaning yirik qis-miga, Old Osiyo va Janubiy Osiyoga hamda Yevropaga keng tarqalgan bo'lsa-da, ilk insonlar tomonidan qo'llanilgan birdan-bir qurol bo'lma-gan. Bundan oldin suyak, yog'och va boshqa materiallardan turli qurollar



Olduvay tosh
yo'nish usuli

¹ Biroq so'nggi izlanishlarda eng oddiy tosh qurollarini yasash va ulardan foydalanish birinchi bo'lib «Avstralopitek Geri» turi tomonidan 3,4 – 2,6 million yil oldin amalga oshirilgani aniqlangan. Qizig'i shundaki, paleontologik va arxeologik tomondan Avstralopitek turi (*Australopithecus* – lot. «Janub maymoni») Sharqiy Afrikada 4,2 million yil oldin o'rta-ga chiqib, butun qit'ada ikki million yil davomida hukmronlik qilgan va inson turiga aylanishga ulgurmagan jonivor bo'lgan. Avstralopiteklar yasagan tosh qurollarning Olduvay texnologiyasi tosh qurollariga o'xshashligi ularning Uquvli odamlar bilan bog'liqligini ko'rsatadi.

² *Qadimgi tosh davri (yoki paleolit)* – bundan 2,6 million yil oldin boshlanib, 12 ming yil oldin tugagan. Bu davr o'z o'rnida quyi, o'rta va yuqori deb atalgan bosqichlarga bo'linadi.

³ *Tarixoldi* – yozma manbalargacha bo'lgan davr (prehistory). Turon o'lkasi uchun «tarixoldi davri» eng qadimdan jez asri so'ngigacha bo'lgan vaqtni qamrab oladi. Undan keyin «tarixiy davr» keladi (er.ol. I ming yillikdan bugungacha).

ishlatilgan bo'lishi ehtimoli yuqori. Ayrim o'lkalarda Olduvay tosh yo'nish usuli 300 ming yil oldingacha saqlanib qolgan¹.

Bu bosqichda termachilik qiluvchi va o'laksa qidiruvchi boshqa ilk inson turlarining ko'plab guruhlari kezib yurgan. O'zini qo'riqlay olishi esa Uquvli odamning boshqa ilk inson turlariga ko'ra naslini davom ettirishda imkoni ko'proq bo'lganini bildiradi. Bu tur vakillari meva-cheva, ko'kat va qattiq etli ozuqalarni kunlik yemishiga aylantirib, bora-bora o'txo'r² turdan *hammaxo'r*³ turga aylanib borgan.

Uquvli odam o'zining ijtimoiy tuzilishiga ko'ra ham o'zidan oldingi turlardan⁴ ustunroq turardi. Uning uzun oyoqlari uzoq yo'llarni bosib o'tishga ko'nikkanini ko'rsatadi. Muzlik davri yirik yirtqichlari bo'lgan qilich tishli arslon va qoplonlar, g'or ayiqlari, bo'rilar va timsohlarning Uquvli odamni ovlaganiga qaramay, u o'z turini saqlab qola olgan. O'tmishda bir million yil yashagan Uquvli odam, bu vaqt ichida Yer yuzi bo'ylab keng yoyilishga ulgurgan. Turli hududdagi tabiiy sharoitlarga ko'nikib, o'zgara borgan.

2,6 million yil oldin Afrikada yuzaga kelgan Uquvli odam bu qit'adan tashqariga chiqmagan holda 1,7 million yil oldingacha yashagan. Biroq Uquvli odam ishlab chiqqan Olduvay usuli yangi inson turlari, ayniqsa, Tikiyurar odam boshlab bergan ilk Afrikadan chiqish jarayonida Yevropada – Gruziya, Bolgariya, Rossiya, Ispaniya va Fransiyaga, Osiyoda – Xitoy, Pokiston, Suriya, Eron va Isroilga yoyilgan. Bu o'lkalardagi tarixoldi qo'nalg'alaridan aniqlangan topilmalarning eng qadimgilari 1,8 million yil oldin yasalgan bo'lsa, eng so'nggilari 300 ming yil oldingi davr bilan sanalashtirilgan. Bunday tosh qurollar keng tarqalgan bo'lsa-da, Olduvay usuli Turongacha yetib kelmagan.

Afrikada yashagan Uquvli odamlarning bir guruhi 2 million yil oldin Tikiyurar odam deb ataluvchi yangi inson turiga aylangani kuzatiladi. Ilk insonlarning evrilish tarixidagi bu yangi tur o'zining ong darajasi va tik yurish kabi jismoniy xususiyatlari bilan o'zgarib qolgan boshqa Uquvli odam guruhlariga qaraganda ustunroq bo'lgan. Bora-bora ular tarix sahnasidan siqib chiqarilib, endilikda tabiatning yangidan-yangi, qiyin chaqiriqlari qarshisida kasalliklarga

¹ Turon o'lkasida Selungur g'orining madaniy qatlamlaridan topilgan tosh qurollar Olduvay yoki undan keyingi quyi paleolit jamoalariga tegishli bo'lishi mumkin. Biroq davrlashtirishdagi yirik farqlar (1,5 million yil – 300 ming yil oldingi davr oralig'ida) yuzasidan hozircha bu yodgorlik to'g'risida aniq bir to'xtamga kelish imkoni yo'q.

² *Herbivore* – lot. «o'simlik yeydigan».

³ *Omnivore* – lot. «barcha ozuqa turini yeydigan».

⁴ Xususan, Uquvli odamning ajdodi sanalgan Avstralopitek turi.

chidamli, ildam harakat qiladigan, qo'llari bilan tosh qurollarni yaxshi tuta oladigan, kundalik turmushida olovni ishlata oladigan Tikyurar odam o'z ekologik o'mini topgan edi. U yashagan yerda Uquvli odam o'z naslini davom ettira olmay, butkul qirilib ketdi. Uquvli odamlarning ayrimlarigina Tikyurar odam yuzaga kelgandan keyin bir sira yonma-yon yashab kelgani kuzatiladi. Biroq ko'p o'tmay, eski nasl yangi tabiiy sharoitlarga chiday olmay yo'q bo'lib ketadi.

Shunday qilib, Tikyurar odam ikki million yil oldin muzlik davrida yuzaga kelgan ilk odam turlaridan biri bo'lib, o'zidan keyinroq kelib chiqqan barcha odam turlarining, jumladan, zamonaviy insonning ham ota-bobosi sanaladi. U o'zidan oldingi turlarga ko'ra tik yura olishi, tana tuzilishi, bo'yi va miya hajmi bilan zamonaviy odamlarga ancha yaqinroq bo'lgan. Izlanuvchilar Tikyurar odamni u o'ylab topgan Ashel' tosh yo'nish usuliga ega, boshqariladigan guruhlar ko'rinishida ovchilik-termachilik bilan shug'ullangan, olovni boshqara oladigan, so'zlasha olgan, kasal va kuchsiz urug'doshlarini boqishni o'rgangan va san'at asarlarini yarata olgan ilk inson turi deb biladilar. Tikyurar odamning eng eski qoldiqlari Afrika va Osiyodan topilgan bo'lsa-da, uning ilk shakllangan geografiyasi haligacha aniqlanmagan. Afrikadagi Uquvli odamning birinchi bo'lib Yaqin Sharqqa yetib borgani, u yerda evrilib Tikyurar odamga aylangani va bu yangi turning Sharqiy¹ va Janubi-sharqiy Osiyoga², qayta Afrikaga³ va Yevropaga⁴ tarqalgani, so'nggida esa zamonaviy odamga aylangani to'g'risida ma'lumotlar bor.

Olduvay usuli negizida kelib chiqqan Ashel' usuli Tikyurar odam tomonidan kiritilgan yangilik bo'lib, uning eng yorqin tomoni – bu toshdan yasalgan ilk qo'l cho'qmorlaridir. Bu cho'qmorlar yirikroq, o'tkirroq va qirraliroq bo'lib, o'ljani bo'laklarga ajratishda ishlatilgan. Ularni yasash uchun Tikyurar odam yanada ustunroq – o'zining old tomonidagi narsalarni qamrovli ko'ra olish va qo'l cho'qmorining bo'lajak ko'rinishini oldindan rejalashtira olish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak edi. Ilk Ashel' tosh qurollari Afrikada topilgan bo'lib 1,7 million yil oldingi davr bilan sanalashtiriladi. Afrikadan tashqarida topilgan Ashel' usuliga tegishli topilmalarning yoshi 1 million yilga yetmay, bu Tikyurar odamning boshqa qit'alarga ancha kech yoyilgani kuzatiladi.

Tikyurar odamning idish-tovoq ishlatgani to'g'risida ma'lumot yo'q, biroq uning chamasi bir million yil oldin, birinchilardan bo'lib Osiyodan Yevropaga

¹ Pekin odami.

² Yava odami.

³ Homo Ergaster.

⁴ Haydelberg odami.

Turkiyadagi suv bo'g'ozlari orqali o'tishda sollardan foydalangani aniqlangan. Afrikada olib borilgan arxeologik qazishmalarda Tikiyurar odamning o'z kundalik turmushida 1,4 million yil oldin olovni ishlatganligi, 1 million yil oldin esa ozuqani o'tda pishirganligi to'g'risida ma'lumot olingan. Tikiyurar odam buloq va soylarga yaqin g'or va ochiq makonlarda o't yoqib, hududda yashaganligi va 500 ming yil oldin san'at o'rnamaklarini yasay boshlagani kuzatiladi. Xususan, Janubi-sharqiy Osiyodagi Yava orolida dengiz chig'anog'i ustiga o'yilgan geometrik chiziqlar ko'rinishida Tikiyurar odamga tegishli ilk san'at o'rnamagi topilgan. Tikiyurar odam ilk ovchi-termachi jamiyatining vakili bo'lib, kichik guruhlar holida yashagan va zamonaviy odamlardek tovush chiqara olgan, shuningdek, miya hajmiga ko'ra, shakllangan ilk jo'n tilga ega bo'lgan.

Olduvay usulini meros qilib olgan va undan yangi Ashel' usulini keltirib chiqargan Tikiyurar odam endilikda dunyoning yurib boriladigan barcha o'lkaloriga – Afrikadan tashqari Osiyo va Yevropaga keng tarqalgandi. Turonda Ashel' usuli quyi paleolitga tegishli turli g'or va qo'nalg'alardan topilgan bo'lib, bularning ichida salmoqlilari Qirg'izistondagi Selungur, Tojikistondagi Ko'ldara, Qozog'istondagi Tangirqazg'an va Bo'riqazg'andir.

Selungur g'ori – Janubiy Farg'onada, Pomir-Oloy tog'lari va Turkiston tizmasining shimoliy etaklarida, Farg'ona viloyati So'x tumaniga chegara-dosh Qirg'iziston Respublikasining Botken viloyati Qadamjoy tumanida dengiz sathidan 2000 metr yuqorida o'rnatilgan quyi paleolit yodgorligidir. Bu g'or og'zining yuksakligi 25 metr, eni 34 metr, chuqurligi 120 metr bo'lib, ichkariga kirgan sari g'or zamini ko'tariladi. Selungurda o'tgan asr o'rtalaridan beri arxeologik izlanishlar olib borilgan bo'lib, ko'proq qayroqtoshdan yasalgan qo'l cho'qmorlari, hayvon, ilk inson qoldiqlari va minglab boshqa topilmalarni o'z ichiga olgan Ashel' usuliga tegishli arxeologik topilmalar qo'lga kiritilgan. Bosh chanoq bo'laklari, yelka suyagi va 6 ta tishni o'z ichiga olgan inson qoldiqlari Tikiyurar odamga tegishlilik aniqlangan va 126 ming yil oldingi davr bilan sanalashtirilgan. Selungurning boshqa topilmalari va qatlamlari bo'yicha turli sanalar ilgari surilgan (ular 1,5 million yil bilan 300 ming yil oldingi davr o'rtasida o'zgaradi). Qisqasi, yodgorlik Ashel' usuliga tegishli bo'lmasa-da, quyi paleolitning qayroqtosh yo'nish usuliga tegishli ekani ko'pchilik izlanuvchilar tomonidan tan olingan.

Ko'ldara qo'nalg'asi – Amudaryoning yuqori oqimidagi Tojik botig'ida qadimiy soz tuproq yotqiziqlari orasida topilgan quyi paleolit qatlamlaridan qo'lga kiritilgan tosh qurollar yig'indisi. Bu yerda 750–850 ming yil oldin to'planib qolgan tuproq yotqiziqlari orasidan qo'lda yasalgan 40 ta tosh qurol

bo'lagi chiqqan. Arxeologlar bu yig'indini Qoratorv qayroqtosh texnologik majmuasi deb belgilagan.


Bundan 400 ming yil oldin Afrikada Tikiyurar odam guruhlaridan biri Neandertal odamga aylanib, Afro-Yevroosiyoda 40 ming yil oldingacha yashagan inson turlaridan biri bo'lgan. So'nggi izlanishlarda Ongli odam deb ataluvchi zamonaviy inson turi ham o'sha chog'da shakllana boshlagani aniqlangan. Qizig'i shundaki, genetik izlanishlarga ko'ra, Neandertal va Ongli odam chamasi yarim million yil oldin Afrikada har biri alohida Tikiyurar odamdan mustaqil ajrab chiqqan ekan. Biroq neandertalliklar Afrika qit'asidan Yaqin Sharq, Yevropa va Turonga ertaroq tarqalib ketgan bo'lsa, Ongli odam bu o'lkalarga kechroq yoyila boshlagan.

Neandertalliklarning yo'q bo'lib ketishi bo'yicha turli qarashlar ilgari surilgan bo'lib, ularning Ongli odam tomonidan qirib yuborilgani, iqlim o'zgarishiga dosh bera olmagan, turli epidemik kasalliklarga chalingani yoki yopasiga bir necha omil ostida yo'q bo'lib ketgani aytiladi. Neandertalliklarga tegishli eng eski suyak qoldig'i 430 ming yil oldinga borib taqaladi, 130 ming yil oldingi davrdan boshlab esa ularning qoldiqlari ko'plab uchray boshlaydi. Izlanuvchilar tomonidan neandertalliklarning ongi ancha yuqori darajada o'sgani tan olingan bo'lsa-da, xalq orasida ular o'ta sodda, ongsiz va ayovsiz bo'lgani tushunchasi keng yoyilgan.

Zamonaviy odamlarga qaraganda neandertalliklar pastroq, oyoq-qo'llari kaltaroq, ko'kragi va burunlari yirikroq bo'lib, ular Yevroosiyoning sovuq o'rmonli hududlarida yashashga ko'nikkan. Miya hajmi bo'yicha bugungi odamlarnikiga teng neandertalliklarning o'rtacha bo'yi 165 sm (erkaklar) bilan 153 sm (ayollar) orasida bo'lgan. Neandertalliklar ancha murakkab sanalgan Must'e tosh yo'nish usuliga ega bo'lib, olovni o'zlari yoqa olgan, o'choq qura olgan, hayvon terisidan yopinchiq qila olgan va qayin qobig'idan yelim olishni bilgan. Must'e usulining yangiligi tosh bo'lagini yo'nib ishlov bergandan so'ng, bir urib o'tkir qirrali uchirindini – yangicha tosh qurolni ajratib olish edi¹. Neandertalliklar kaftining narsalarni ushlashga epchilligi oshgani uchun ancha kichik o'lchamdagi o'tkir tosh uchirindilardan qurol yasay olgan.

Bundan tashqari, arxeologik izlanishlarga ko'ra, ular dengiz bo'ylab sollarda suzish, dorivor o'simliklardan foydalanish, yaralanganlarni davolash, ozuqani qovurish va dudlashni bilganlar. Neandertalliklar ko'p turli ozuqa mahsulotlaridan – megafauna, kichik tuyoqli va sut emizuvchilar, turli o'simliklar va dengiz mahsulotlaridan keng foydalanganlar.

¹ Ushbu tosh yo'nish usuli Levaltua deb atalib, o'z davri uchun yangi qadam sanaladi.



Muste tosh yo'nish usuli

Biologik tizimda eng ushun yirtqichlar bo'lishiga qaramay, neandertalliklar g'or yirtqichlari – ayiq, arslon va chiyabo'rilar bilan olishganlar. Eski tosh davri san'ati o'rnaklaridan Ispaniyadan topilgan 65 ming yil oldingi g'or rasmlari va Sloveniyadan topilgan 43 ming yil oldingi g'or ayig'i suyagidan yasalgan nay neandertalliklarga tegishli ekani tan olinadi. Ko'plab topilmalar solishti-

rib, neandertalliklarning tili va diniy qarashlari bo'lgani to'g'risidagi qarash ham ilgari surilgan.

Neandertalliklarning to'p-to'p bo'lib yashagani, o'zgalar bilan unchalik bordi-keldi qilmagani aniqlangan; bu o'z o'mida ularda bir urug'dan urchishning ko'payishiga va natijada zararli genlarning to'planishiga olib kelgan. Shuningdek, neandertalliklar doim tuyoqli hayvonlarni ovlash, yirik yirtqich hayvonlar bilan to'qnashish va natijada jarohat olish darajasi yuqori bo'lgan sharoitlarda yashagani uchun ko'pchiligi 40 yoshga yetmay o'lib ketgan. Ularning anatomik tomondan zamonaviy inson ajdodlari bilan o'zaro chatishishlari arxeogenetik izlanishlarga ko'ra, birinchi bor 300 ming yil, so'ngra 100 ming yil va 65 ming yil oldin bir necha marta yuz bergan bo'lib, Yevroosiyo va Amerika qit'alarida yashovchi zamonaviy aholi genomida 1–4 foizgacha Neandertal genomi uchraydi. Shunday qilib, Neandertal genomining 20 foizi bugungi kungacha saqlanib qolgan.

Ko'lbuloq qo'nalg'asi – Toshkent viloyati Angren shahri yaqinida Shimoli-g'arbiy Tangritog'ning Chotqol tizmasi etaklarida dengiz sathidan 1000 metr yuksaklikda o'mashgan ko'p qatlamli paleolit arxeologik yodgorligi. Bu yerda uzoq yillik qazishmalar davomida qo'lga kiritilgan ko'plab hayvon suyaklari va 70 000 dan ortiq topilmalar ichida asosan Must'e usuli bilan ishlangan tosh qurollar yig'indisi to'plangan, ular 46 ta madaniy qatlamlardan olingan. Bular ichida kertib va o'yib ishlangan qurollar, qirg'ichlar va yaproqsimon uchlar bor. Ko'lbuloqning quyi (eng qadimgi) qatlamlaridan topilgan qo'l cho'qmori ham Must'ega tegishliligi va bu yodgorlikda hayotning boshlanishi Obirahmat texnologik majmuasining ilk bosqichi – 80–70 ming yil oldinga to'g'ri kelishi so'nggi izlanishlarda oydinlashgan.

Obirahmat g'ori – Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanida, Shimoli-g'arbiy Tangritog' etaklarida, Chirchiq daryosining irmoqlari – Chotqol va Pskem

soylari quyilishiga yaqin yerda, dengiz sathidan 1200 metr yuksaklikda oʻrnatilgan paleolit arxeologik yodgorligi. Bu yerda koʻp yillik qazishmalar natijasida 30 mingdan ortiq tosh qurollari yigʻindisi qoʻlga kiritilgan boʻlib, uning tosh yoʻnishdagi asosiy yoʻnalishi uzunchoq, oʻtkir qirrali, tekis uchirindisimon tosh qurol olish boʻlgani aniqlangan. Izlanuvchilarning fikriga koʻra, gʻorda 80–70 ming yil oldindan 40–35 ming yil oldingacha uzoq vaqt uzluksiz yashagan paleolit odamlarining moddiy madaniyatida oʻrta paleolit (Must'e) usulidan sekinlik bilan yangicha yuqori paleolit usuliga oʻtish kuzatiladi. Ushbu oʻrta paleolitdan yuqori paleolitga texnologik oʻtishning Obirahmat varianti va uning uzluksiz amalga oshganini koʻrsatuvchi evolyutsion ketma-ketlik boshqa yerlardagi moddiy madaniyat yuksalishining davriy jadvalarini ishlab chiqishda oʻmak qilib olinadi.

Soʻnggi yillarning eng muhim topilmalaridan biri – 2003 yilda Obirahmat gʻorida inson qoldiqlarining qoʻlga kiritilishi boʻldi. Antropologik tahlillarga koʻra, bu qoldiqlar bir tomondan ilk inson turiga, ikkinchi tomondan zamonaviy qiyofadagi insonga tegishli ekani oydinlashdi. Gʻorning yuqori madaniy qatlamlaridan hayvon ilik suyagi siniqlaridan yasalgan, uchi sayqallangan bigizlar ham qoʻlga kiritilgan boʻlib, ular hayvon terisidan kiyim tikishda ishlatilgan boʻlishi mumkin. Bu yerda togʻ echkisi, arxar, bugʻu va boshqa hayvonlarning suyak boʻlaklari, oʻchoqdan qolgan kul va koʻmirmga aylangan choʻgʻ qoldiqlari topilgan.

Teshiktosh gʻori – Surxondaryo viloyati Hisor togʻlari Boysuntov tizmasining shimoli-gʻarbiy etaklarida, dengiz sathidan 1800 metr yuksaklikda Machay soyining yuqori oqimida oʻrnatilgan paleolit arxeologik yodgorligidir. Gʻor ogʻzining yuksakligi 7 metr, eni 20 metr, chuqurligi 21 metrga teng boʻlib, u 1938-yilda topilgan. Qazishmalar davomida bu yerda olov qoldiqlari, koʻplab hayvon suyaklari va 2000 dan ortiq tosh qurollar topilgan boʻlib, ular asosan Must'e usuli bilan yasalgan. Topilmalar ichida eng muhimi esa – gʻordan topilgan chamasi 10 yoshli neandertal qizning qabri boʻldi. Qabrning aylanasi togʻ echkisi muguzlari bilan oʻrab qoʻyilgan qizning maxsus koʻmilganini koʻrsatadi. Koʻmishdan oldin suyaklar etidan tozalangan boʻlib, qiz suyaklarida tosh qurol izlari saqlanib qolgan. Ushbu topilma neandertalliklarning birgina Yevropa, balki Turongacha yoyilganini koʻrsatib, ilk insonlarning turmush tarzi toʻgʻrisidagi bilimlarni ancha kengaytirgan.

Ongli odam bugungi kungacha saqlanib qolgan inson turi boʻlib, 500 ming yil oldin Afrikada Tikiyurar odam turidan kelib chiqqani arxeogenetik izlanishlarda aniqlangan. Ongli odamning eng qadimgi suyak qoldiqlari Afrikadan¹ topilgan boʻlib, 350–280 ming yillik tarixga ega. Bundan 200 ming yil oldingi

¹ Marokashdagi Jabal Iroʻd qoʻnalgʻasi.

davrga kelib, Ongli odam anatomik tomondan zamonaviy insonga yaqinlashgan bo'lsa, 50 ming yil oldin esa zamonaviy inson fe'l-atvoriga ega bo'lgan.

Paleoantropologik izlanishlarda aniqlanishicha, muzlik davrida ilk inson turlarining ko'p qismi Afrikada yashagan, yangi turlarning kelib chiqishi ham ko'pincha shu qit'a bilan bog'liq. Eng qadimgi Uquvli odamlarning bir qismi Tikiyurar odamlarga aylangan bo'lsa, boshqa qismi o'zgarmay turavergan. Natijada, Uquvli odam va Tikiyurar odam bir sira yonma-yon yashagan. Shuningdek, Tikiyurar odamdan ham bir necha yangi tur kelib chiqqan bo'lib, bularning ichida keng yoyilib, uzoq vaqt yashashda davom eta olganlari Neandertal va Ongli odamdir¹. Eng so'nggilardan bo'lgan bu ikki inson turi farqli bosqichlarda Afrikadan chiqib, *yuqori paleolit*² bosqichida Yevroosiyoda yuzma-yuz to'qnashgani va bu to'qnashuvlar ba'zan tinch, ba'zan esa tajovuzkor holda kechgani aniqlangan.

Bugungi kunda Yer yuzida yashayotgan barcha inson ajdodlari 300–200 ming yil oldin Afrikada shakllanib, 70–50 ming yil oldin *Janubiy yo'l*³ orqali boshqa qit'alarga tarqalgan. Janubiy yo'l bilan insonlar Shimoli-sharqiy Afrikadan tez orada Janubiy va Janubi-sharqiy Osiyoning dengiz qirg'oqlari bo'ylab 65–50 ming yil oldin Avstraliyaga yetib borishgan. Shimol va g'arbga qarab yoyilgan guruhlar ham 55 ming yil oldin Yaqin Sharq va Yevropaga borgan. Shimoli-sharqqa qarab yurganlari esa Shimoliy Amerikaga 16 ming yil oldin yetib borgan. Ushbu eng so'nggi *Afrikadan chiqish*⁴ tufayli bugungi kunda dunyoda yashayotgan barcha insonlarning ajdodlari kelib chiqqan.

Arxeologik izlanishlarga ko'ra, bu so'nggi ulkan ko'chishdan oldin ham kichik ko'lamdagi Afrikadan chiqishlar bo'lgan, biroq u oldingi chiqishlar natijasida Yevroosiyoga bo'ylab tarqalgan ilk inson turlari, qator sabablarga ko'ra, yo qirilib ketgan yoki eng so'nggi chiqishda tarqalgan zamonaviy inson turi tomonidan assimilyatsiyaga uchragan. Ko'p bor yuz bergan bunday as-

¹ Masalan, zamonaviy inson ajdodlari Yevroosiyoga tarqalgunigacha, bu yerda neandertalliklardan farqli yana bir tur – «Denisov odami» bo'lgan. Denisov odami qoldiqlari Oltoy tog'laridagi Denisov g'oridan topilib, neandertalliklardan kelib chiqqani, biroq zamonaviy insonlarning bu yerga yoyilishi bilan tez orada yo'q bo'lib ketgani aniqlangan.

² *Yuqori paleolit* – 40–12 ming yil oldin davom etgan tarixiy-arxeologik davr, qadimgi tosh (paleolit) davrining eng so'nggi bosqichi.


³ *Janubiy yo'l* – Shimoli-sharqiy Afrikadan Arabiston yarim oroliga, so'ngra Hind okeani qirg'og'i bo'ylab Hindiston, Hindixitoy, Okeaniya va Avstraliyaga olib boradigan yo'l.

⁴ «*Afrikadan chiqish*» («*Out of Africa*») nazariyasi – ilk inson turlarining muzlik davrida Afrikada shakllanib, muzliklar chekinishi bosqichlarida Yevroosiyoga bir necha «to'lqin» bo'lib yoyilishi hodisasi.

similyatsiyalar jarayonida Yevroosiyo bo'ylab oldinroq tarqalgan kichik sonli ilk inson turlari yangi kelgan yirik sonli zamonaviy insonlar bilan o'zaro chatishib, aralashib jismoniy tomondan ularga o'xshab qolgan. Bu chatishuvlar natijasida zamonaviy inson ajdodlari genetik tomondan yangi xususiyatlarga ega bo'lgani kuzatiladi. Masalan, bugungi insonning sovuq va yuksak tog'larga chidamliligi neandertalliklar bilan chatishuvi natijasida qo'lga kiritilgan xususiyat sanaladi.

Bundan 40 ming yil oldin Ongli odamning jismoniy tuzilishigina emas, balki muomalasi va ruhiy xususiyatlari, fe'l-atvori va qiliqlari ham zamonaviy insonlarnikiga o'xshay boshladi. Zamonaviy fe'l-atvor – mavhum tushunchalarni tushuntirib bera oladigan to'laqonli til, badiiy ifoda, ilk diniy qarashlar, urug'doshlar o'rtasida ish birligi, yirik ko'lamda qo'nalg'alarni tashkil etish, tosh, suyak va hayvon muguzlaridan aniq maqsadli qurollarni yasash kabi xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Yuqori paleolitdagi bu o'zgarishlar zamonaviy insonning Yevroosiyo bo'ylab tez yoyilishi, neandertalliklarning yo'q bo'lishi, qizil tusli mineral bo'yoq (oxra) bilan bo'yalgan g'or rasmlari, suyak va toshdan mitti inson va hayvon haykalchalari¹ kabi tosh davri san'atining yuzaga kelishi hamda sanchqi otadigan sopqonlarning o'ylab topilishi, zahar bilan ishlov berilgan suyakdan o'q uchlarining yasalishi, tuyaqush tuxumi qo'big'ining idish o'rnida ishlatilishi kabi yangiliklarda kuzatiladi.

O'ta kichik o'lchamdagi tosh qurollar (mikrolit tig'lar)dan murakkab qo'ndoqli ov qurollari yasash usuli yuqori paleolitda keng tarqalib, inson tomonidan tabiat resurslarini qo'lga kiritishda ulkan qadam sanaladi. Qo'ndoqli qurollar yog'och yoki suyakdan tayyorlangan sopda uzunasiga chuqur o'yib, bu o'yiqqa toshdan yasalgan tig'larni qatorasiga tabiiy yelim bilan yopishtirish yo'li orqali yasalgan va o'ta o'tkir tishli qurol (garpun) sifatida ishlatilgan. Bu tig'lar o'tmaslashganda ular osonlik bilan almashtirilgan. Shunday qilib, ovchi yonida oldindan tayyorlangan bir hovuch tosh tig'chalar bilan uzoq masofalarga borib ov qila olgan. Qo'ndoqli qurollar oldingi



Mikrolitlar mayda quroli

¹ «Venera» deb ataluvchi bu haykalchalar Yevroosiyoning yuqori paleolit davriga tegishli qo'nalg'alarida topilgan.



Mikrolitlarning
qo'ndoqli
quoli

yirik tosh qurollardan ushbu texnik xususiyatlari bilan ustun bo'lgani va ulardan foydalanish tez orada keng yoyilib ketgani kuzatiladi hamda arxeologiyada mikrolitlashuv jarayoni deb ataladi.

Mikrolitlashuv birinchi bo'lib 70 ming yil oldin Janubiy Afrikada¹ yashagan Ongli inson qo'nalg'alarida kuzatiladi. Tosh yo'nishning bu usulini o'ylab topgungacha Afrikadagi ajdodlarimiz yirik chaqmoqtoshlarni olovda qizdirib, ularning yupqa yalpoq bo'laklar – uchirindilar ko'rinishida sinish xususiyatini kuchaytirishga uringan. Birgalashib yirik hayvon ovlash, baliq tutish, suv ostidan chig'anoqli qisqichbaqasimonlarni terish va ayrim obsidian kabi oz uchraydigan tosh xomashyosini uzoq masofalarga eltish kabi faoliyatning turlicha bo'lishi bu bosqichda yashagan insonning zamonaviy fe'l-atvorga ega bo'lganini yaqqol ko'rsatadi.

Zamonaviy inson o'zi uchun ochgan yangi qit'a, dengiz, o'rmon va cho'llardagi sharoitlarga uzoq muddat davomida ko'nikishi natijasida o'zgarib boradi. Bu hodisa uzluksiz bo'lib, bugungi kunda ham davom etayotgan tabiiy-biologik jarayondir. Yuqori paleolitda shakllangan zamonaviy inson keyingi bosqichlarda ham yangi jismoniy xususiyatlarni qo'lga kiritdi.

Bunday tabiiy tanlanish va yangi muhitga ko'nikishning eng yorqin misoli insonlardagi laktaza davomiyligidir. Sut emizuvchilarning oshqozonida ishlab chiqariladigan laktaza fermentining asosiy vazifasi ona sutini hazm qilish bo'lgani uchun, ko'p sut emizuvchilarda bu fermentni ishlab chiqarish organizmning ona sutidan chiqishi bilan to'xtaydi. Natijada, ona sutidan chiqqan organizm sutni hazm qila olmaydi. Bugungi kunda Sharqiy Osiyo va Amerikaning ona sutidan chiqqan aholisida sutni hazm qiluvchi laktaza fermenti yo'q. Biroq Yevropa va Turonda ulg'aygan aholining ko'pchiligi har qanday sutni bemalol hazm qila oladi. Chunki ularning turmush tarzi so'nggi 4–5 ming yil davomida hayvon boqish bilan bog'liqligidan hayvon sutini ko'p iste'mol qilgani natijasida ularda sutni hazm qiluvchi laktaza fermenti qayta tiklangan.

Samarqand qo'nalg'asi – Samarqand shahridagi Chashmasiyob soyi bo'yida o'mashgan paleolit arxeologik yodgorligidir. 1939-yildan beri qo'nalg'ada keng ko'lamlı qazishmalar olib borilib, 1000 kv.metr maydonda hayvon suyaklari, cho'g' qoldiqlari, mineral bo'yoq bo'laklari, olov o'rinlari va

¹ Janubiy Afrikadagi Pinnakl Poynt (Pinnacle Point) arxeologik qo'nalg'asi.

2,5 mingdan ortiq tosh qurol bo'laklari topilgan. Texnologik tomondan Samarqand qo'nalg'asi tosh qurollari yuqori paleolitga to'g'ri kelishi va barcha yig'indilarning Must'edan keyingi bosqich bilan sanalashtirilishi izlanuvchilar tomonidan tan olinadi. Ochiq ko'rinishdagi yodgorlikda yovvoyi ot, kiyik, tuya, qo'y ovlaydigan ovchilarning qo'nalg'asi bo'lgan. Bu yerda ko'plab uchraydigan olov o'rirlari tevaragida madaniy topilmalar to'planganiga qarab, qadimgi ovchilar tomonidan qurol yasash, et-go'shtni bo'laklarga ajratish kabi ishlar amalga oshirilgan ko'rinadi. Bu yerdagi qurollar chaqmoqtosh, qayroqtosh, kvartsit, xaltседon kabi tog' jinslaridan yasalgan. Qo'nalg'ada chayla, chodir, kapa usulida uylar bo'lib, ulardan birining maydoni 100 kv. metrlik to'rtburchak ko'rinishda edi. Samarqand qo'nalg'asidan zamonaviy ko'rinishdagi insonning pastki jag' suyagi, to'qqizta tishi va qo'l suyaklari topilgan.

Shunday qilib, insonning yuzaga kelishi chamasi ikki yarim million yillik uzoq vaqtni qamrab olgan bo'lib, geologik tomondan muzlik davri, arxeologik tomondan qadimgi tosh davri deb ataladi. O'tmishda yashagan ilk insonlar turli toshlarning uchli tomonini teshish, qirrali tomonini kesish va tekis tomonini qoqish uchun ishlata boshlagan. Tabiiy toshlarning bunday xususiyatlariga qoniqmay qolganda toshlarni bir-biriga urib, yo'nib va bo'laklarga ajratib, kerakli qurol yasashga o'tishgan. Bu uzun bosqich ilk metaldan foydalanish boshlangunigacha, ya'ni eramizdan oldingi 5 ming yillikkacha davom etgan.

Kishilik o'tmishi arxeologlar tomonidan shartli o'laroq qabul qilingan uch davrli tizim an'anasiga ko'ra tosh asri, jez asri va temir asrlarining har biri o'z o'rnida yana ost bosqichlarga bo'lib o'rganiladi: masalan, tosh asri – qadimgi (paleolit), o'rta (mezolit) va yangi (neolit) davrlarga bo'linsa, qadimgi tosh (paleolit) davrining o'zi ilk, o'rta va so'nggi degan ost bosqichlarga ajratiladi.

Ilk qishloq xo'jaligi. Muzlik davrida insonning yuzaga kelishi bilan muzlikning chekinishi davrida chorvachilik bilan shug'ullanishigacha uning iqtisodiyoti ovchilik-termachilikka, ya'ni oziq o'zlashtiruvchi xo'jalikka tayanar edi. Muzlikning chekinishi bilan boshlangan mezolit va neolitda kishilik bosqichma-bosqich oziq ishlab chiqaruvchi iqtisodiyotga o'ta boshladi. Muzlik davridagi ko'plab ilk inson turlaridan Ongli odam jamoalarigina 12 ming yil oldin boshlangan mezolitgacha yashab qola olgandi. Biroq Ongli odam bu davrga kelib, million yillar davomida qo'llab kelgan va uning yashash tarzini belgilab turgan iqtisodiyot – ovchilik-termachilikdan uzoqlasha boshlagandi.

Shunday sharoitlarda eradan oldingi IX ming yillikda Janubi-sharqiy Anadolianing Shonli Urfa shahridan 8 chaqirim shimoli-sharqda Go'baklitepa¹

¹ Go'baklitepa (turk. «qorinli tepa») – Turkiyada joylashgan dunyodagi eng qadimgi megalitik qurilma.

deb atalgan dunyoning ilk megalitik¹ ibodatxonasi qurilgan. Bu ulkan majmua-
da yumaloq ko'rinishda 20 ta alohida topinish uyi aniqlangan bo'lib, ular jami
200 tosh ustundan tiklangan. Har ustunning og'irligi 10 tonna bo'lib, ular te-
varakdagi tog'lardan olib kelingan va ularga turli hayvonlar ko'rinishida o'yma
naqshlar solgan. Qizig'i shundaki, Go'baklitepa qurilgan davrda hali insoniyat
ovchilik-termachilik bilan shug'ullanardi, o'troq turmush tarziga o'tmagandi
va qo'lida metaldan qurol yasash usuli yo'q edi. Go'baklilar tevarak tog'dagi
qoyalardan uzunligi 8–10 metrlik ustunlarni o'yib, ularni yormay-sindirmay
vodiya tashib kelib, mohirlik bilan bezab, bir nechtasini doira ko'rinishida
tik o'rnatgan. Buning uchun ularda anchayin chuqurlashgan ijtimoiy tuzilish,
yuzlab insonni bir markazdan boshqarish, barchaga so'zi o'tadigan yetakchilar
va eng muhimi, to'laqonli diniy qarashlar tizimi bo'lishi kerak edi. Go'bak-
litepa millionlab yil davomida hukmron bo'lgan ovchi-termachilar yaratgan
madaniyatning eng yuqori cho'qqisi bo'lib, ayni chog'da ovchilik-termachi-
lik xo'jaligining butunlay tugashining belgisi ham edi. Go'baklilardan so'ng
Yaqin Sharqda yangi turmush tarzi, yangi bosqich boshlangandi.

Dehqonchilik va chorvachilikni qamrab olgan bu yangi iqtisodiyot turi
kishilikning o'tmish yo'nalishini tubdan o'zgartirgan edi. Shu davrdan boshlab
sivilizatsiyaning yuzaga chiqishiga olib kelgan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy
turmushning barcha yo'nalishlarida qizg'in yuksalish kuzatiladi. Oziqni tabiat-
dan o'zlashtirish emas, uni ishlab chiqarish xo'jaligi, ya'ni ovchilik o'rniga



Yovvoyi
bug'doy

Madaniylashtirilgan
bug'doy turlari

chorvachilik, termachilik o'rniga
dehqonchilik xo'jaligi yuritish kabi
yangi xo'jalik turiga o'tish masala-
si doim izlanuvchilarni qiziqtirib
kelgan. Ilmiy izlanishlar Afrika va
Yevroosiyoning turli mintaqalari-
da ushbu hodisaning yuzaga chi-
qish sabablari, xronologiyasi, geo-
grafiyasi va xususiyatlarini tushu-
nishga qaratilgan. Shuning uchun,
bu masala tarix fanining eng mu-
him vazifalaridan biri sanaladi.

Ovchilik-termachilik
xo'jaligidan dehqonchilik va chorvachilik xo'jaligiga o'tish davri «qishloq
xo'jaligi to'ntarishi» deb ataladi, chunki neolitda bu jarayonga tortilgan bar-

¹ Ulkan, yirik toshlardan qurilgan tarixoldi davri qurilmalari, masalan, Angliyadagi Stounhenj.

cha jamoalarning turmush tarzi keskin o'zgargan edi. Bu to'ntarish dunyoning barcha mintaqalarida bir vaqtda yuz bermagan, biroq asosan neolitda – bundan 9–7 ming yil oldingi davrga kelib Yevroosiyodagi yirik o'troq jamoalar yangi xo'jalik turiga o'tib bo'lgandi. Qishloq xo'jaligi to'ntarishi ayrim o'simliklarni madaniylashtirish va hayvon turlarini qo'lga o'rgatish orqali dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanishga o'tishni anglatadi. Bu xo'jalik turi qadimgi jamoalarni o'troq yashashga, turli ish qurollari yasashga, dalaga ishlov berish usullarini yanada yaxshilashga va yillik xirmonlarda qo'lga kiritilgan ortiqcha oziq mahsulotini keyingi yilgacha saqlash uchun ilk omborlar qurishga undagan. Dehqonchilik va chorvachilik iqtisodiy tomondan ertangi kunga ishonch uyg'otgani uchun, borgan sari aholining ko'pchiligi bu xo'jalikka o'tib, ko'chmanchi ovchi-termachi guruhlari sonining ozayishiga olib kelgan.

Qishloq xo'jaligiga o'tish chuqur ijtimoiy o'zgarishlarni ham keltirib chiqargan. Dalada ekiladigan ekinning, yaylovda boqiladigan suruvning kimga tegishli ekanini bilish uchun jamiyatda mulk egaligi tushunchasi yuzaga kelgan. Shunday qilib, jamiyatda ijtimoiy tabaqalanish vujudga kelib, omborlardagi oziq va yaylovlardagi suruv endilikda ayirboshlanadigan bo'ldi va savdo-sotiq munosabatlari yuksala boshladi. Qo'lga o'rgatilgan it, qo'y, echki, sigir va arpa-bug'doy inson jamiyatini tubdan o'zgartirgan. Kishilarning oziq qidirib doim uzoq masofalarni bosib o'tishi shart bo'lmay qolgan. Shu davrdan boshlab ularning kundalik yemak-ichmagida ovlanadigan hayvon et-go'shti, teriladigan meva-cheva va ildizmevalar ozayib, o'miga qo'lga o'rgatilgan uy hayvonlari va madaniylashtirilgan o'simlik mahsulotlari – go'sht, tuxum, sut, don va dukaklilar kabilar keskin ko'payganidan odamlarning fiziologik xususiyatlari ham o'zgarib borgan. Yangi turmush tarzi insonga xirmonda qo'lga kiritilgan barcha o'simlik mahsulotini birdaniga iste'mol qilmay, bir bo'lagini keyingi yil ekin urug'i uchun saqlab qo'yish, omborda va qo'rada saqlanayotgan don va hayvonni qo'riqlash, kelasi yil uchun dalani tayyorlash, uy qurish, uning atrofini o'rash hamda ortgan mahsulotni boshqasiga almashtirish uchun maxsus to'planadigan nuqta – bozor tashkil etish kabi ko'plab yangi vazifalarni yuklagan.

Bu o'zgarishlar, dunyoning barcha mintaqalarida mustaqil yuz bergan bo'lib, barcha yerda bir yo'sinda kechmagan. Misol uchun, ilk qishloq xo'jaligiga o'tgan Yaqin Sharq jamiyati sopol idish yasashni bilmagan bo'lsa, Qadimgi Yaponiyada buning teskarisi bo'lgan – bu yerdagi jamoalar sopol idish yasashni bilgani holda uzoq vaqtgacha ovchilik-termachilikni yuritgan.

¹ Madaniylashtirish, xonakilashtirish.

Osiyoning yirik tarixiy-madaniy mintaqasi bo'lgan Turonda eng qadimdan oziq ishlab chiqaruvchi xo'jalikning yuzaga kelishi va yuksalishi uchun qulay tabiiy-ekologik sharoitlar bor edi. Bu yerda neolit davridanoq Jaytun va Kaltaminor yodgorliklaridagi kabi oziq ishlab chiqaruvchi xo'jalikka ega jamoalar shakllanib, ular dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanardi hamda mintaqaning turli ekologik burchaklarini to'ldirardi. Bu davrdan boshlab sivilizatsiyalarning uzluksizligi o'rnatiladi. Biroq oziq ishlab chiqaruvchi xo'jalikning kelib chiqishi muammosi hanuz tortishuvligicha qolmoqda. Masalan, ayrim izlanuvchilarga ko'ra, Jaytun, Hisor va Kaltaminor yodgorliklarida kuzatilgan turmush tarzining kelib chiqishi va Turon o'lkasining qishloq xo'jaligiga o'tishi Eron, Hindiston va Ikkidaryo oralig'i (Mesopotamiya) kabi janubiy sivilizatsiyalar ta'sirida yuzaga kelgan. Turon o'lkasida ming yillar davomida hukmron bo'lgan ovchilik-termachilik xo'jaliklari birdaniga sahnadan chekilib, o'rninga qishloq xo'jaligining yuksalgani kuzatiladiki, buning ekologik, biologik, jo'g'rofiy va ijtimoiy kabi bir qancha sabablari bor.

Yaqin Sharqda muzlik davrining tugashi va iliq iqlimning boshlanishi 12 ming yil oldin boshlangan bo'lsa, Turon o'lkasida bu jarayon ancha kechroq, ya'ni 10 ming yil oldin yuzaga kelgan. Yangi iliq va nam dala-qir iqlimi hukmronlik qila boshlagan bu davrda Turonning tekislik va tog'oldi hududlarida ko'plab daryo, ko'l, botqoqlik, o'tloq va o'rmonlar yuzaga kelgan. Bu bosqich 5 ming yil davom etgan va eradan oldingi III ming yillikda tugagan. Keyingi bosqichda uch yarim ming yil davom etgan issiq va quruq iqlim eramizning I ming yilligi o'rtasigacha hukmron bo'lgan (er.ol. III – er. I m.y. o'rtasi).

Arxeologik izlanishlarga ko'ra, Yevroosiyoda Yaqin Sharq mintaqasidagi *Unumli yarimoy*¹ deb atalgan ulkan o'lka birinchi bo'lib qishloq xo'jaligiga tortilgan. Bu yer Dajla va Firotdaryolari oralig'ini, janubi-sharqiy Anatoliya va Levant tarixiy o'lkalarini qamrab olib, atalishi xaritada yarimoy ko'rinishida bo'lgani bilan bog'liq. Unumli yarimoyda bu yerga tegishli tub o'simliklardan bug'doy, arpa, no'xat, yasmiq va zig'irning, tub hayvonlardan esa echki, qo'y va cho'chqalarning yovvoyi turlari tarqalgan bo'lib, bu mintaqada 12 ming yil oldin dunyoda birinchi bo'lib oziq ishlab chiqaruvchi xo'jalikka, ya'ni qishloq xo'jaligiga o'tgan. Bu to'ntarish darajasidagi o'tish oqibatida kishilik kelajagi belgilab berilgandi.

O'simlik va hayvonlarni qo'lga o'rgatish va bu bilan bog'liq neolit jamoalarining yangi turmush tarzi ularni uzluksiz oziq, yirtqichlardan qo'riq va yomon havodan boshpana bilan ta'minlagandi. Ovchilik-termachilikka qara-

¹ *Unumli yarimoy* – Ikkidaryo oralig'i, Levant va Qadimgi Mismi qamragan va xaritada yarimoy ko'rinishida bo'lgan hudud.

ganda ilk dehqonchilik va chorvachilik ko'payib borayotgan jamoalarga kerakli oziq mahsulotlarini yetkazib bera olardi.

Kishilik o'tmishidagi eng birinchi qurilishlar mezolitda Yaqin Sharqdagi Zagros tog'lari etaklaridagi don saqlash uchun mo'ljallangan omborlar sanaladi. So'ngra tosh va guvalalardan ilk uylar qurila boshlab, birinchi qishloqlar ning yuzaga kelishi kuzatiladi. Qulay sharoitlar ayrim ekologik burchaklarda ovchi-termachilarni bir tabiiy resurs turidan, masalan, biror tog' etagida doim o'sadigan yovvoyi arpadan foydalanishga undagan. Natijada, bu jamoalar keyinchalik shu resursga o'rganib qolib, uning atrofida o'troq yashay boshlagan. O'z o'rnida bu hodisa o'sha tog' etagining termachilar tomonidan qo'riqlanishiga olib kelgan, keyinchalik ular bu yerlarni o'rab olishga uringan. Ular mo'l arpali bunday tog' etaklarini tashlab ketolmay, qo'riqlash uchun ko'chmanchi turmush tarzini tashlab, tevarakda o'troq yashay boshlagan. Bu yer ularni yuz yillar davomida uzluksiz boqqani uchun, jamoalar soni borgan sari ko'payib boravergan. O'sib borayotgan avlodni boqish uchun yanada kengroq yalangliklarni arpa dalasiga aylantirgan termachilar endilikda o'zlari arpa ekishni boshlagan. Xirmonda to'plangan arpa ichidan eng yirik boshhoqlar ekish uchun ajratilib, maydalari ishlatib yuborilgan. Ko'p bor qaytalangan bu jarayon natijasida yangi arpa yovvoyisidan yirikroq hosil bera boshlagan.

Boshqa tomondan, o'rib olingan arpa don saqlanadigan yerga olib borilguncha yo'lda boshhoqlaridan osonlikcha to'kilib-sochilib ketavergan. Omborga faqat boshhoqda qolgan donlar kelib tushgach, kelgusi ekin yilida shu qattiq tutiladigan donlardan ekilgan. Bu hodisa ham bir necha yuz yil davom etgach, inson qo'lidagi arpa yovvoyi arpadan farqli xususiyatlarga ega bo'lib borgan. Endilikda bu arpa yirik, to'kilmaydigan, biroq inson tomonidan e'tibor talab qiladigan yangi arpa turiga aylangan. Shu tariqa o'simliklarning bir necha turi inson qaramog'iga moslashgan.

Ovchilar tomonidan ushlab kelingan yovvoyi echki, qo'y va to'ng'izlar yoki ularning qo'zilar ham oldin boqilgan, keyinchalik ularning soni ko'paytirilgan. Hayvonlarni inson o'zi istagan holda urchitishga harakat qilgan, chunki unga semizroq, yuvoshroq, yungi yumshoqroq, bo'yi pastroq, muguzi o'tmasroq, ko'p sut beradigan, ko'p tug'adigan hayvon kerak edi. Qo'li ostidagi hayvonlar orasidan o'ziga kerakli xususiyatlarga ega bo'lganlaridan yangi nasl istagan va oqibatda yuz yillar davomida yirik, qaysar, vahshiy, suzong'ich buqa o'rniga semiz, yuvosh, qo'lga o'rgangan ho'kiz kelib chiqqan.

Bunday jarayonlar birinchi bo'lib Unumli yarimoydagi kichik ko'lamdagi ekologik burchaklarda yuz bergani va 10 ming yil oldingi davrga kelib aholi soni to'xtamay ortgani uchun ilk dehqon va chorvador jiddiy oziq yetishmovchiligi-

ga uchray boshlagan. Shunday qilib, tevarakdagi barcha o'xshash ekologik burchaklar tez orada egallangan. Biroq endilikda aholining o'sishi to'xtatib bo'lmaz jarayonga aylanib bo'lgan edi va doim tabiiy resurslarning o'tkir yetishmasligi sezilardi. Bundan kelib chiqib, qadimiy dehqon va chorvador jamoalari taqdirning bu chaqirig'iga eng uyg'un javob qaytargan – ular o'z turgan qo'nalig'alaridan boshqa yerlarga ko'chib ketishga qaror qilgan. Neolitda yuz bergan bu migratsiya natijasida qishloq xo'jaligi butun dunyo bo'ylab yoyila boshlagan.

Unumli yarimoydan chiqqan ilk dehqon va chorvador jo'g'rofiy kengliklar yo'nalishida – kunchiqar va kunbotar tomon yoyilganlar, chunki shimol va janubda iqlim farqli bo'lgani uchun bu yo'nalishlarda kerakli tabiiy sharoitlarga ega ekologik burchaklar yo'q edi. Ular uzluksiz kunchiqar va kunbotar yo'nalishida yurgandagina o'xshash tabiiy sharoitga ega hududlarni topa olardi. Bir so'z bilan aytganda, Unumli yarimoydan kunbotarda Anatoliya va Misrda, kunchiqarda esa Eron, Janubiy Turon, Hind vodiysi, Hindixitoy yarim oroli, Yantszi va Sariq daryolari vodiylarida bundan 10–5 ming yil oldin ilk sivilizatsiyalar yuzaga kela boshlagan. Yaqin Sharqdan chiqqan ilk dehqon va chorvador jamoalari Janubiy Turonga 8 ming yil oldin yetib kelib, bu yerda *Jaytun turidagi qishloqlarni*¹ yaratgan.

Biroq so'nggi yillarda qishloq xo'jaligi bir o'choqdan tarqalgani yoki bu jarayon ko'p negizli bo'lgani masalasi ko'ndalang qo'yildi. So'nggi izlanishlarda ish qurollarining texnologik yevrilishi, ayrim o'simlik va hayvon turlarining madaniylashtirilishi va qo'lga o'rgatilishi mezolit-neolitda Yevroosiyaning turli hududlarida mustaqil yuz bergani to'g'risidagi yangi ma'lumotlar qo'lga kiritildi. Qishloq xo'jaligiga o'tish jarayoni oldin tushunilganidek emas, balki ancha murakkab jarayon bo'lgani oydinlashmoqda.

Muzlikning chekinishi davrida yoyilgan iliq iqlim Yevroosiyaning barcha kengliklarini qamrab olib, global ko'lamdagi qishloq xo'jaligining bir markazdan kelib chiqqani to'g'risidagi qarashga to'g'ri kelmaydi. Ayrim izlanuvchilarning fikriga ko'ra, o'simlik va hayvon turlarini madaniylashtirish va qo'lga o'rgatish bir-biriga bog'liq bo'lmagan holda Yer yuzining turli nuqtalarida amalga oshgan bo'lib, ko'p markazli xarakterda bo'lgan ko'rinadi. Bunga dalil qilib yovvoyi o'simlik va hayvon turlarining Yevroosiyo bo'ylab keng tarqalish hududlari ko'rsatiladi.

Bu masalada yovvoyi bug'doy va arpaning Turon tog'oldi hududlarida qadimdan tarqalgani to'g'risidagi ma'lumot qiziqarlidir. Xususan, *Turkiston arpasi*² deb ataladigan arpa turi Pomir-Tangritog' va Jung'or-Tarbag'atoy

¹ *Jaytun* – Janubiy O'rta Osiyoda (Janubi-g'arbiy Turkmaniston) er.ol. VII–VI ming yillikda shakllangan ilk neolit davri dehqonlari qishlog'i.

² *Hordeum turkestanicum*.

etaklarida, *yovvoyi arpa*¹ degan turi Qizilqum, Qoraqum va Mirzacho'l tekisliklarida, ikki *yovvoyi bug'doy*² turining esa butun Turon bo'ylab tarqalgani aniqlangan. Shunday qilib, neolitga kelib Turon o'lkasida ovchilik-termaxilikning faollashuvi, tabiiy sharoitlarning qulayligi, tub yovvoyi o'simlik va ayrim hayvon turlarining tarqalgani kabi dehqonchilik kelib chiqishi uchun kerakli sharoitlar kuzatiladi. Turonning yuqori paleolitdan uzluksiz o'zlashtirib kelingani, global iqlim isishi bilan bu yerda yovvoyi o'simlik va hayvonlarning keng tarqalgani, bu o'lkadagi tog'oldi hududlarning mezolit-neolitdayoq qishloq xo'jaligiga mustaqil o'tish amalga oshirilgan hududlarga aylangan.

Izlanishlarga ko'ra, qishloq xo'jaligining ilk bosqichi Yevroosiyoning janubiy mintaqalaridagi tog'oldi hududlar bo'lgan, chunki aynan bu yerlarda ko'plab yovvoyi boshqoli o'simliklar tarqalgan edi. Boshida, qadimgi jamoalar yovvoyi boshqoli o'simliklar o'sadigan hududlarni qo'riqlagan holda bu yerga yaqin hududlarga o'rnatilib olishgan. Bora-bora bu o'simliklarni o'stirish, ajriqlardan tozalash, tuprog'ini yumshatish bo'yicha ko'nikmaga ega bo'lib, ularni bajarish uchun toshdan ketmoncha, yog'och qazg'ich, qo'ndiq o'roq va pichoq kabi ish qurollarini yasay boshlaganlar. Bu davrda sug'orish to'g'risida ma'lumotlar yo'q, shuning uchun, ilk ekinchilik chamasilalmi yerlarda olib borilgan ko'rinadi. Bunday ilk o'choqlarning Zagros tog'lari etaklari va janubi-sharqiy Anatóliyada yuzaga kelganini ko'rsatuvchi ko'plab yangi topilmalar bor.

Turon o'lkasida bu davrga tegishli ayrim arxeologik topilmalar o'ta qiziqarli ma'lumot beradi. Birinchisi, Surxondaryoning Sherobod tumanidagi Zarautsoy qoya rasmlari bo'lsa, ikkinchisi ayni shu yerga yaqin hududda o'rnatilgan Machay mezolit g'oridir.

Zarautsoy qoya rasmlari – Surxondaryo viloyati Sherobod tumani janubi-g'arbiy Hisor tog'larining Ko'hitang tizmasida dengiz sathidan 2000 metr yuksaklikda o'rnatilgan qoya kamarida chizilgan qadimiy qoya rasmlar yig'indisidir. Bu hududda turli darajada saqlangan o'nlab rasm-



Zarautsoy qoya rasmlari

¹ *Hordeum spontaneum*.

² *Triticum turgidum* va *Triticum aestivum*.

lar 1940-yillarda topib o'rganilgan. Badiiy sahnalarga ega yaxshi saqlangan rasmlar esa Zarautsoy qoya kamari rasmlari sanaladi. Soy o'zidan 9 metr yuqorida o'mashgan va kunchiqar tomonga qaragan qoya ayvoni o'zining yuksakligi 3–4 metr, eni 3–5 metr, chuqurligi 3 metr. Ayvonning ichki yuzasiga rasmlar va yozuvlar chizilgan. Shimol va g'arb tomondagi ohaktoshli sarg'ish yuzasining yuqori qismida to'q qizil rangda uch badiiy sahna rasmlari solingan bo'lib, barchasi tuyoqli hayvon ovi bilan bog'liq. Shimoliy yuzadagi birinchi sahnada 19 ta odamsimon shakl va yovvoyi yirik muguzli buqa tasviri kuzatiladi. Zarautsoy qoya rasmlarida ishlatilgan bo'yoqlar, rasm solish usuli, badiiy sahnalar manzarasining tahliliga ko'ra, ularning neolitga tegishli ekanini ko'pchilik olimlar tan olgan.

Odamsimon shakllar ikki turga bo'linadi – biri uzunchoq tanali, beliga yerga tegib turgan uzun qurol bog'lab olgan va qo'lida buqa tomon yoydan o'q uzayotgan 4 ta ovchi shakllari bo'lsa, ikkinchisi esa keng etakli kiyim kiygan, qo'lida to'g'ri burchakli egilgan qurol tutgan 15 ta qandaydir odamsimon shakllardir. Qolgan ikki sahnada ham ov manzarasi aniq berilgan bo'lib, ularda yoydan o'q uzayotgan ovchilardan qochayotgan yovvoyi buqalar, tog' echkilari tasvirlangan.

O'sha qandaydir shakllarning o'q-yoysiz, sokin va ov manzarasiga teskari qarab turgan holda chizilganlari bu sahnaning ov bilan bog'liq manzara emasligini ko'rsatadi. Izlanuvchilar qator turgan bu odamchalarning qo'lida shubhali tarzda o'roq yoki ketmonchaga o'xshash qurol tasvirlangan bo'lishi ehtimolini ilgari surgan. Neolitda Yevroosiyo bo'ylab bunday o'roq va ketmoncha (qazg'ich)lar yog'och yo kiyik muguzidan yasalgan bo'lib, boshqoli o'simlikni o'rish va tuproqni yumshatish uchun ishlatilgan. Kelgusida Zarautsoy qoya rasmlarida shunday jarayon tasvirlangani aniq izlanish usullari bilan o'z tasdig'ini topsa, Janubiy O'zbekistonda ilk dehqonchilikning yuzaga kelishi to'g'risidagi tushunchalar qayta ko'rib chiqilishi kerak bo'ladi.

Bu masalada yana shu yerga yaqin mezolit-neolit Machay g'ori arxeologik yodgorligi diqqatni tortadi. Bu g'orda o'lib borilgan qazishmalarda hayvon suyagidan yasalgan va tosh tig'lar yopishtirib o'rnatiladigan qo'ndoqli o'rish pichog'i topilgan. Ushbu qurol tashqi ko'rinishidan Yaqin Sharqdagi mezolit-neolit qo'ndoqli o'rish pichoqlariga anchayin o'xshashligi bilan ajralib turadi.

Mezolit-neolit termachilari ayrisi bor daraxt shoxlari yoki kiyik muguzlaridan yasalgan egik qazg'ichlar bilan dalalarni yovvoyi o'tlardan tozalagan va ildizmevalilarni qazib olgan. Bu qurollar qishloq xo'jaligiga o'tishdagi bosh

qurol sanaladi. Zarautsoy birinchi sahnasidagi odamchalarning qo'liga xuddi shunday ilk qazg'ich yo o'roqlar tasvirlangan bo'lsa kerak.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Zarautsoy qoyatosh rasmlarini Turon o'lkasi o'tmishining ilk bosqichlarini yoritishda yangicha talqin qilish imkonini beradi. Xususan, yodgorlikning dengiz sathidan 2000 metr yuksaklikda o'rnatilgan Turonda ham Yaqin Sharqdagidek ilk qishloq xo'jaligi tog'oldi hududlarda boshlanganini ko'rsatadi.

Zarautsoy tevaragida yana bir muhim sahna – bu odamchalar tanasining uchburchak ko'rinishda chizilgan bo'lib, izlanuvchilar tomonidan keng va uzun choponsimon yopinchiqlarga o'xshatiladi. Bu qarash ilmiy tomondan tasdiqlansa, Turonda eng qadimgi kiyim tasvirining Zarautsoyda chizilgan o'rtaga chiqadi. Bu kiyimning qanday matodan tayyorlangani bilinmasa-da, soddalashtirilgan siluetli rasmda uchburchak qilib chizilgan va yelkadan tashlanadigan po'stinni eslatadi.

O'tmishda kiyim kiyish qachon boshlanganini aniqlash muhim sanaladi, buni ko'rsatadigan arxeologik topilmalar esa Turonda haligacha qo'lga kiritilmagan. Sharqiy Yevropada yuqori paleolitga tegishli uzun qopga o'xshash, bosh va qo'llar uchun qoldirilgan teshiklardan kiyilgan oddiy, yengsiz po'stinga o'xshash yopinchiq topilgan. Sungir qo'nalg'asida 23 ming yil oldin qabrga ko'milgan bir erkak kishining egnida hayvon terisi va junidan tikilgan, boshdan kiyilib yelkadan pastga tashlab qo'yiladigan po'stin bo'lgani aniqlangan. Ko'rinishidan shunga o'xshash, biroq echki terisidan tikilgan yopinchiq-chopon Avstriya va Italiya chegarasidagi Alp tog'larida bundan 5300 yil oldin muzlab qolgan va izlanuvchilar tomonidan O'tzi muzlik odami deb atalgan bir ovchining egnida bo'lgan. Zarautsoyliklar ham shunday boshdan kiyiladigan, oldi va orqasi yopiq po'stin kiygan ko'rinadi.

Qadimgi jamoalarda jins negizida ishning ijtimoiy bo'linishi uzoq o'tmishda erkaklarning ovchilik bilan, ayollarning esa termachilik bilan shug'ullana boshlagani bilan bog'liq. Zarautsoy manzaralarida qadimgi rassom ham o'z jamiyatining gender farqlarini toshga muhrlab qo'yganga o'xshaydi, chunki bu rasmlarda ovchilar o'q-yoy otayotgan erkaklarni, termachilik qilayotganlar esa egniga chopon tashlab qo'llarida o'roq ushlagan ayollarni eslatadi. Bu qarash tasdiqlansa, Zarautsoy qoya rasmlari butun Turon ko'lamidagi eng muhim yodgorliklar qatoriga qo'yiladi.

Machay g'ori – Surxondaryo viloyati Boysun tumani Ko'hitang tizmasi etaklarida Machay daryosining o'ng qirg'og'ida o'rnatilgan mezolit-neolit arxeologik yodgorligidir. Machay g'ori og'zining yuksakligi 4 metr, eni 10 metr va chuqurligi 8 metrga teng. Bu yerda olib borilgan qazishmalarda ikki madaniy

qatlam o'rganilib, ost qatlam mezolitga, ust qatlam esa ilk neolitga tegishli ekanini oydinlashgan. Madaniy qatlamlarning yarim metr gacha bo'lgan qalinligi machayliklarning bu g'orda uzoq yashaganini ko'rsatadi. Machay g'oridan toshdan yasalgan ish qurollari, ko'plab hayvon suyaklari va muhimi, odam suyagi bo'laklari topilgan. Erkak, ayol va ikki bolaga tegishli suyaklar bu davr kishilarining tashqi qiyofasini o'rganishda alohida o'rin tutadi. Ish qurollari ham tosh va suyaklardan yasalgan bo'lib, teshgich (bigiz), kesgich, igna, toshdan o'q uchlari, tig'li qurollarni o'z ichiga oladi. Machay usulining ajratilishi tog'li hududlarda xo'jalik yuritishning o'ziga xosligi, masalan, qoramol va qo'y-echkilarni qo'lga o'rgatish, oziq ishlab chiqarish xo'jaligiga o'tish hamda tosh qurollarga ishlov berish texnikasi eskicha, paleolit texnikasiga yaqinligi bilan tushuntiriladi. Machay g'ori topilmalari eradan oldingi 6-ming yillikning o'rtalari bilan belgilangan va Jaytun qishloqlari gullab-yashnagan davrga to'g'ri keladi.

Keyingi bosqichda tog' soylarining tekislikka yetganda hosil qiladigan keng yoyilmalarning quyi qismida, suv oqimi so'nib borayotgan hududlarda ilk sug'orish boshlanadi. Janubiy Turon Kopetdog' tizmasi shimoliy etaklaridagi «so'niq oqim yoyilmalari»da ilk sug'orish hududlari bo'lgani aniqlangan. Bunday hududlarda soy oqimi o'ta susaygani uchun suvning bir qismi yer ostiga singib ketadi, qolgani esa ko'lmak bo'lib to'planib qoladi. Ko'klamdagi suv toshqinlari paytida soyni eng quyisida sekinlashgan oqim yo'nalishini qiyinchiliksiz o'zgartirib, kerakli yerga oqizish va to'plash mumkin. Bu esa suv oqimini boshqarishning eng oddiy yo'li bo'lib, sun'iy sug'orishning ilk bosqichi sanaladi. Qadimgi sug'orma yerlarining tog'oldi hududdan tekislikka oqayotgan soylarning yoyilmalariga to'g'ri kelishi yoki yirik daryolar tekislikda yoyilib ko'lmaklar hosil qilgan yerlarda bo'lgani aniqlangan.

Eradan oldingi 6-5-ming yilliklarda Jaytun jamoalari boy, o'troq moddiy va ma'naviy madaniyatga ega bo'lib, yoyilma sug'orma dehqonchiligi bilan shug'ullanardi. Kopetdog' tizmasining shimoliy etaklari Qoraqum cho'li tomon yo'nalgan va bu yerdagi ko'plab soylar tekislikka yetib borgach, oqimlari susayadi va «so'niq oqim yoyilmasi»ni hosil qiladi. Aynan shu yerda, Qoraqumning qumtepallari qatori boshlangan hududda Jaytun kabi qadimiy qishloqlar yuzaga keladi.

Jaytun qishlog'i – Turan o'lkasining neolitga tegishli ilk o'troq dehqonchilik madaniyati o'choqlaridan biri. Jaytun madaniyati Janubiy Turkmanistondagi Kopetdog' tizmasining shimoliy etaklarida Qoraqum cho'li hududda o'mashgan bir necha qadimiy qishloq qoldiqlaridan tashkil topadi. Bu qishloqlarning kelib chiqishi Yaqin Sharqdagi ilk dehqonchilik madaniyatlari o'chog'i sanalgan Jarmo va Chatal-Ho'yuk qishloqlari bilan bog'liq. Eradan

oldingi 6–5-ming yilliklarda gullab-yashnagan Jaytun qishlog'ida somonli guvaladan qurilgan 30 ta bir xonali uyda 150 kishi yashagan. Har bir uyda o'choq, g'alla o'rasi va o'tiradigan supa bo'lgan. Qishloqda ombor, sopol idish pishiradigan maydonchalar bo'lgan. Qazishmalarda tosh boltalar, chaqmoqtoshli tig'lar o'rnatilgan qo'ndoqli o'roqlar, qizg'ish bo'yoqli sopol idishlarning boy yig'indisi, loydan yasalgan hayvon va inson haykalchalari hamda sopqon topilgan. Jaytunliklar bug'doy va arpa ekib, echki, qo'y va yirik muguqli hayvon yetishtirish bilan shug'ullangan. Jaytun tevaragida 1952-yildan boshlab Turkmaniston kompleks arxeologik ekspeditsiyasi qazishmalar olib borib, 10 dan ortiq ayni davr qishloq qoldiqlarini topgan. Jaytunliklar kekxa urug'doshlarini tashqariga, bolalarni esa ichkariga ko'mganlar.

Qizilqum, Mirzacho'l va Markaziy Farg'ona cho'llarida ham Jaytun qishloqlari o'rnamshagan yerlardagi singari tabiiy sharoitlar kuzatiladi.

Ulardagi yillik issiqliq, yog'ingarchilik, tuproq va o'simlik qoplami ko'rsatkichlari bir-biriga yaqin. Yirik maydonlarni egallaganiga qaramay, bu yerlarda Jaytunga o'xshash neolit davri ilk dehqonchilik madaniyati izlari topilmaganidan, Jaytun qishlog'i neolitdagi Yaqin Sharq ilk dehqonchilik sivilizatsiyasining eng shimoli-sharqiy chekkasi sanaladi. Biroq Qizilqum cho'li-da neolit davri Kaltaminor jamoalari xo'jaligi va moddiy madaniyatining ko'chmanchi xaraktyerdaligini hamda ularning ovchilik va termachilik bilan bir qatorda qo'lga o'rgatilgan hayvon suruvlarini boqish bilan ham shug'ullanganini esdan chiqarmaslik kerak. Chorvachilik ham qishloq xo'jaligining bir turi bo'lib, oziq ishlab chiqarish o'zaklaridan biridir.

Kaltaminor turidagi qo'nalg'alar – neolitda Amudaryoning quyi oqimlari Qizilqum va Orolbo'yi hududlarida ovchilik, termachilik, baliqchilik va chorvachilik bilan kun kechirgan jamoalar qo'nalg'alari.

Kaltaminorliklarning taqinchoqlari Qizilqumda ko'plab uchraydigan dengiz chig'anoqlaridan yasalgan munchoqlar bo'lgan. Ular chaqmoqtoshdan bolta va o'q uchi, loydan charxsiz usulda sopol idish tayyorlagan. Kaltaminorliklar maydoni 24x17 metr, yuksakligi 10 metrlik yirik uylarda 100–120 kishi bo'lib yashaganlar. Kaltaminor turidagi qo'nalg'alar eradan oldingi 7–3-ming yilliklarda keng tarqalgan bo'lib, Buxoro tevaragidan Kaspiy dengizi qirg'oqlarigacha yoyilgan. Bunday ulkan kengliklarda bir til oilasida so'zlashuvchi jamoalar yashamagani aniq, shuning uchun kaltaminorliklar shartli birlashtirilib o'rganiladi.

Kaltaminor qo'nalg'alarini davrlarga ajratishda sopol idishlarni ishlash va bezatish usullariga tayaniladi. Barcha kaltaminorliklar yasagan sopol yig'indilari qo'lda ishlangan bo'lib, qurimay turib o'yiqlar ko'rinishida bezatil-

gan. Bu o'yiqlik bezaklar ichida keng tarqalganlari dengiz to'liqlari va archa ignasidir. Sopol idishlarda ovqatini olovda pishirgan kaltaminorliklar, ulkan chaylalarda o'choqlar qurib yashagan. Shuningdek, tikuvchilik va qayiqsozlik kabi yangi hunar turlarining ham yuksalishi kuzatiladi.

Shunday qilib, uzoq vaqt davomida kishilik jamiyati tosh qurol yasash usuliga tayanib, janubiy hududlarda yashagan ayrim jamoalar muzlik davri tugashi bilan qishloq xo'jaligiga o'ta boshlagan. U chog'larda ilk dehqonchilik toshdan yasalgan ish qurollari bilan bajarilar edi. Bu yangi tosh davri deb ataluvchi tarixiy bosqichning so'nggida ko'pchilik jamoalar qurol yasash uchun misni ishlatishni o'rganib olgan edi. Misni eritish va undan qurol yasash usuliga o'tish ko'plab sinovlar, yutuqlar va yutqiziqnlarni qamragan qisqa jarayon bo'lib, so'nggida misdan o'ta qattiq, uncha-munchaga zanglamas yangi metall qorishmasi – jez topilgandi. Jez topilgunigacha bo'lgan o'tish bosqichi *mis-tosh davri (eneolit)*¹ deb yuritiladi.

Mis-tosh davrida yuz bergan chuqur ijtimoiy va madaniy o'zgarishlarga o'sha bosqichda yashagan jamoalar bir yo'sinda tortilmagandi. Ularning ayrimlari metalni ishlatish bosqichiga umuman o'tmagan bo'lsa, O'rtayer dengizining sharqiy qismidagi jamoalar eradan oldingi 5-ming yillik so'nggidayoq kundalik turmushlariga misni olib kirganlar. Bu davrga kelib iqlim qurg'oqchilashib borayotgandi, natijada ilk qishloq xo'jaligiga o'tish bo'sag'asidagi ko'p jamoalar sharoit og'irlashganidan ovchilik va termachilik yuritishga qaytgandi. Qo'lga o'rgatilgan suruvlarga ega jamoalar esa qishloq xo'jaligini tashlab, ko'chmanchi chorvachilik xo'jaligi yuritishga majbur bo'lgan jamoalar o'rtasida tabiiy resurslarga egalik qilish uchun keskin tortishuvni keltirib chiqargandi. Bu tortishuvda ilg'orroq qurol yasash usuli, toshdan ustunroq xususiyatlari bo'lgan yangi materiallarga ega jamoalargina yengib chiqqan.

Ikki yangi metall – oltin va mis insonlar diqqatini tortgan. Oltin o'ta yumshoq bo'lgani uchun qurol yasashga yaramagan, u taqinchoqlarga ishlatilgan. Mis ham oltindek oson erigan, biroq sovuganda oltinga ko'ra ancha qattiq bo'lgani uchun undan qurol yasala boshlagan. Metallarning bu xususiyatlarini o'rganish bilan o'troq dehqon jamoalar shug'ullangan, ko'chmanchi qishloq xo'jaligiga o'tganlar esa uzoq davr o'zlarida bor tosh qurol yasash usulini ishlatib, metall yasash usuliga ehtiyoj sezmagani.

So'nggi arxeologik izlanishlar mis eritish birinchi bo'lib bugungi Serbiya yurtida eradan oldingi 5-ming yillik o'rtalarida boshlanganini

¹ *Mis-tosh davri (eneolit)* – yangi tosh (neolit) davridan jez davriga o'tish bosqichi (er.ol. 5–4-ming yilliklar).

ko'rsatadi¹. Eski dunyoda² Unumli yarimoy, Qadimgi Hindiston va Qadimgi Xitoy, Yangi dunyoda³ esa Qadimgi Peru (Norte Chiko) va Mezoamerika tarixiy o'lkalari birinchilardan bo'lib metaldan qurol yasashga o'tgan. Mis-tosh davri eradan oldingi 5–4-ming yillikka to'g'ri kelgan va yangi tosh davrining so'nggidan ilk jez asriga o'tishni qamrab olgan. Turon o'lkasida mis-tosh bosqichiga tegishli ilk dehqonlarning qishloq qoldiqlari Kopetdog' etaklarida (Turkmaniston) va Yuqori Zarafshon vohasida (Tojikiston) topib o'rganilgan.

Namozgoh qishlog'i – eradan oldingi 5-ming yillik o'rtasidan 3-ming yillik boshlarigacha Kopetdog' tizmasining etaklarida yoyilgan ilk dehqonchilik turmush tarziga ega jamoalar yashagan qishloq qoldig'i. Bunday qishloqlarda dehqonchilik va qisman chorvachilik (sigir, qo'y, cho'chqa boqish) bilan shug'ullangan, bug'doy va arpa yetishtirgan jamoalar yashagan. Namozgohliklar bir xonali uylarini o'zlari ilk bor ishlatishni boshlagan xom g'ishtlardan qurib, misdan taqinchoq, pichoq va bigizlar yasagan, biroq misni Erondan keltirgan. Ular sopol idishlarini to'q qizg'ish tuslarda bezab, ayol haykalchalarini tangrichalarga atagan. Qishloqlarning o'rtasida don saqlanadigan ombor va sig'inadigan yer bo'lgan. Namozgohliklar misdan tashqari oltin va kumushga ishlov berishni, mayda tosh tig'lar o'rnatiladigan qo'ndoqli o'roq va o'rish pichoqlari hamda toshdan qo'ltegirmon yasashni ham bilganlar. Ushbu davr so'nggida mis-tosh jamoalari turmushiga ilk sug'orish kanallari, to'g'on va g'ildirak kabi yangiliklar kirib kelib, endilikda ular qishloqdoshlarini qabrisonlarga ko'mishni va hayvonlarda yuk tashishni boshlagan edi.

Sarazm qishlog'i – yuqori Zarafshon vodiysida Tojikiston hududida o'rnatilgan ilk dehqon jamoalarining qishlog'i bo'lib, maydoni 100 gektarga yaqin. Izlanishlarga ko'ra, bu yerda ilk dehqonlar eradan oldingi 4–3-ming yilliklarda yashagan. Tevaragi devor bilan o'ralgan qishloqdagi bir xonali uylardagi qazishmalarda qizg'ish bo'yalgan sopol idishlar, mis, oltin va kumushdan taqinchoqlar, ish qurollari, to'qimachilik uskunasi bo'laklari, urchuq toshlar, pichoq, xanjar, qarmoq, igna va bigizlar qo'lga kiritilgan. Shuningdek, bu yerda olovga sig'inish topinog'i ham ochilgan. Sarazm va Namozgoh moddiy madaniyatidagi o'xshashlik sarazmliklarning bu erga Janubiy Turkmanistondan ko'chib kelganini ko'rsatadi. Biroq eradan oldingi 3-ming yillikka kelib

¹ Serbiyaning Belovode va Plochnik arxeologik yodgorliklarida eradan oldingi 5500–5000 yillarda dunyoda birinchi bo'lib konchilik bilan shug'ullanilgani va mis eritilgani aniqlangan.

² Eski dunyo (Sharqiy yarimkurra) – Afrika, Yevropa va Osiyo.

³ Yangi dunyo (G'arbli yarimkurra) – Shimoliy va Janubiy Amerika hamda Okeaniya.

Sarazm qishlog'i qurg'oqchilik va aholining ko'payishi bilan tushkunlikka uchrab, uning aholisi Zarafshon vodiysi bo'ylab tarqab ketadi.

Kishilik o'tmishida madaniyat va sivilizatsiyalarning yuzaga kelishi va yuksalishi uzoq va murakkab jarayon bo'lib, doim inson qo'lidagi texnologiya darajasiga bog'liq bo'lgan. Insonlar bir ming yillikdan boshqasiga o'tarkan, ish qurollari yasash texnologiyalarini yanada yaxshilab, yangi ko'nikmalarni o'zlashtirib, yangi tushunchalarga ega bo'lib bordi. Muzlik chekinishi davrida yuzaga kelgan yangicha turmush tarzi talablariga javob bermay qolgan tosh qurollar endilikda misdan yasalgan qurollarga o'z o'rmini bo'shatib berdi.

Ming yildan ortiq davom etgan mis-tosh davri so'nggida ustalar misni qalay yoki margimush bilan aralashtirib, yangi qorishmani qo'lga kiritgan. Jez deb ataluvchi bu metall qorishmasi misdan ko'ra ancha qattiq bo'lgani uchun undan yasalgan qurollar o'ta keskir va chidamli bo'lib, tez orada ko'pchilikning diqqatini tortgan. Jez qurollariga ega jamoalar texnologik tomondan boshqalardan ustunroq bo'lgan va bu yangi metall bilan tanishgan jamoalar imkon boricha uni qo'lga kiritishga uringan.

Qalay va misning uncha yuqori bo'lmagan erish issiqligi jez qorishmasini neolit so'nggida keng qo'llanilgan sopol xumdonlarda eritishga imkon bergan. Biroq mis-qalayli yoki mis-margimushli xomashyo konlari tabiiy holda oz uchragani uchun jez davrida Yevroosiyo bo'ylab uzoq masofali uzluksiz savdo-sotiqning yo'lga qo'yilishiga va tog'-konchilikning keng yoyilishiga olib keldi. Neolit jamoalari qurol xomashyosi uchun kerakli toshlarni uzoqqa bormay ham topa olgani ularning vaqt o'tib turg'un bo'lib qolishiga olib kelgan bo'lsa, jez davri jamoalarining turmush tarzi esa buning teskarisi edi.

Jez qurol-yarog'lari tez orada kuch va hokimiyat belgisiga aylanib, urug' va jamoa boshliqlarining yaqqol ajralib chiqishiga olib kelgan.

Jezni tizimli qo'llashga erta o'tgan jamoalarning qishloqlarida ortiqcha mahsulot to'plana boshlagan va bu yerdagi ayrim guruhlarining dehqonchilik bilan shug'ullanmasdan ham kun kechirishiga imkon yaratgan. Aholisi zichlashib borayotgan qishloqlarda borgan sari ko'pchilik, kulolchilik, misgarlik kabi ko'plab hunarmandchilik turlariga ehtiyoj ortib borardi va bu ijtimoiy-iqtisodiy bo'shliqni to'ldirgan guruhlar endilikda oziq ishlab chiqarishda qatnashmay ham yashay olardi. Bu jarayonda jamiyatda ish bo'linishi va ijtimoiy tabalaqalashuv yuzaga kelib, oldingi ovchi-termachilarning sodda tizimli jamiyati endilikda murakkab tizimli jamiyatga o'sib chiqqandi.

Bu yangicha jamiyatlarda ishlab chiqarish, savdo-sotiq va aholining yanada o'sishi ilk sivilizatsiyalarni yuzaga keltirgan. Ilk sivilizatsiyalar dehqonchi-

lik yuksalishi uchun tabiiy sharoitlari eng qulay yerlarda – Umumiy yarimoy, Qadimgi Hindiston va Qadimgi Xitoy kabi tarixiy o'lkalarda gullab-yashnab, keyingi bosqichlarda boshqa yerlarda ham yuzaga kelgan. Ilk sivilizatsiyalar – bu dehqonchilikni yuritish orqali ortiqcha mahsulotni, ish bo'linishini, ijtimoiy tabaqalashuvni va shaharlarni yarata oladigan murakkab tizimli jamiyatlar bo'lgan. Umuman olganda, ilk sivilizatsiyalarni belgilovchi bosh omillar sirasiga markazlashgan siyosiy tuzum, tizimli diniy qarashlar, ish bo'linishi va ijtimoiy tabaqalashuv, mahobatli me'morchilik va yozuv kiritilgan.

Ilk shaharchilik. Ilk sivilizatsiyalar ilk shaharlarga tayangan bo'lib, bu yerga turli yumushlar bilan tevarak aholisi tortilgandi. Odamlar shaharga qo'lidagi mahsulotni ayirboshlash, yollanma ishchi bo'lib ishlash yoki yaxshiroq yashash uchun kelardi. Natijada, shaharlar bir-birini tanimaydigan, turli tushuncha va qadriyatlarga ega kishilar o'rtasida munosabatlar o'rnatiladigan yirik ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va siyosiy o'choqlarga aylana bordi. Bunday sharoitda hokimiyat, din va til insonlar o'rtasida birlik tushunchasini va barcha tomondan qabul qilingan ixtisoslashgan kasblarni yuzaga keltirgandi. Bu kasb egalari shahar boshqaruvchilari, ruhoniylar va soqchi-asparlar o'laroq ish yuritardi. Bir so'z bilan aytganda, shaharlar siyosiy, diniy va ijtimoiy institutlarni o'zida birlashtirgan markaz ko'rinishida gullab-yashnagandi. Tashqaridan keluvchi barchaga bag'rini ochgan shaharlardagina mahsulot ishlab chiqaruvchi va sotib oluvchi, xizmat taklif qiluvchi va foydalanuvchi, usta va shogird, ulamo va talaba, g'oya egasi va homiylarning bir nuqtada to'planib, bu munosabatlarni yuritishda yo'l xarajatlari ozaygan «yirik ko'lam iqtisodiyoti» yuzaga kelgandi.

Ilk shaharlar dunyoning turli mintaqalarida yuzaga kelib, birinchilardan Ikkidaryo oralig'idagi qadimgi Shumer sivilizatsiyasining shaharlashuv o'choqlari bo'lgan Yeridu, Uruq va Ur shaharlari sanaladi. Qadimgi dunyoning eng ulkan kenti bo'lmish Hind vodiysidagi Mohenjo-Daro aholisi eradan oldingi 2600 yildayoq (er.ol. III ming yillik o'rtasida) 30–40 ming kishini tashkil etardi. Bundan tashqari, qadimgi Xitoyning Luoyang, Janubiy Amerikaning Karal va Mezoamerikaning Teotihuakan kabi ilk shaharlari eradan oldingi 3–2-ming yilliklarda gullab-yashnagani kuzatiladi.

So'nggi yillarda ilk shaharchilik madaniyatini o'rganish chuqurlashgani sayin, ilk sivilizatsiyalarning kelib chiqishi muammolari ham ko'ndalang bo'lmoqda. Izlanuvchilar oldida qanday qadimiy aholi maskani shahar deb belgilanishi, uning asosiy xususiyatlari va yuzaga kelishidagi omillar, nega ilk shaharlar tevarak aholisini ohanrabo kabi tinmay o'ziga tortgani, shahar-

ning o'sishida dinning o'rni kabi ko'plab so'roqlarga javob topish masalasi turadi. Bosh muammolar shaharlarning kelib chiqishida qishloq xo'jaligining qizg'in o'sishini, uzoq masofali tijoratni va urushlarning o'rni aniqlashdir. Ilk sivilizatsiyalarning bu xususiyatlarini aniqlash orqali ular to'g'risida aniq tushunchaga ega bo'lish mumkin. Ilk shaharchilik bo'yicha olib borilgan ko'p yillik izlanishlarda shahar jamiyatini belgilashda – aholining zichligi, mehnat taqsimoti va yirik ko'lamdagi hunarmandchilik, diniy, siyosiy va harbiy vazifalarni bajaruvchi boshqaruv sinflari kelib chiqqan ijtimoiy tabaqalashuv, ortiqcha kirimni markazlashgan nazorat ostida to'plash uchun joriy qilingan soliq yoki boj tizimi, aniq belgilangan davlat chegarasi, topinoq, saroy, markaziy ombor yoki sug'orish tizimi kabi ulkan qurilishlarning bo'lishi, o'rnashgan qadriyatlarni, estetik va ishorat tizimini ifoda qiluvchi san'at, uzoq masofali tijorat, yozuv, aniq fanlar (oddiy arifmetika, geometriya va astronomiya) kabi unsurlarning o'rni yuqoriligi aniqlangan.

Arxeologlar qadimiy shaharlarni aniqlashda ushbu unsurlarga alohida e'tibor qaratadilar. Bu ro'yxat izlanishlar yangi bosqichlarga ko'tarilgani sari to'g'rilanishi yoki to'ldirilishi mumkin, biroq umumiy olganda, barcha izlanuvchilar unga qo'shiladilar. Bugungi kunda ilk shahar deb tan olingan qadimiy maskanlarda bu unsurlarning barchasi bor. Faqat yozuvning kashf qilinib, ishlatilgan bo'lishi har doim ham ilk shahar ta'rifiga to'g'ri kelmagani uchun yozuv qoldig'i topilmagan ayrim qadimiy shaharchilik maskanlar istisno tariqasida ilk shaharlarga kiritilaveradi. Bunga qadimgi Amerikaning yozuvsiz shaharchilik sivilizatsiyalari o'choqlari – Karal va Teotihuakan shaharlarini o'rnak qilib ko'rsatsa bo'ladi.

Ilk shaharchilik sivilizatsiyalarining xususiyatlarini aniqlash izlanuvchilar uchun birinchi odim edi. Endilikda ularning oldida yanada muhimroq masala – ilk shahar nima sababdan yuzaga kelgani muammosi turardi. Bu muammo-ning echimi esa ancha qiyin ko'rinadi. So'nggi yillar davomida bu mavzuda ko'plab munozaralar bo'lib, bir guruh izlanuvchilar ilk shaharlarning kelib chiqishida iqtisodiy omillar o'rning yuqori bo'lgani to'g'risidagi qarashni ilgari surdi. Bu qarashga ko'ra, qishloq xo'jaligidagi yuksalish ayirboshlash uchun taklif qilinishi mumkin bo'lgan ortiqcha oziq ta'minotini yaratgandi. Natijada, ushbu iqtisodiy almashinuvlarga makon o'laroq qishloqlarda bozorlar yuzaga kelgandi va shaharlar bu asosga tayangan holda kelib chiqqandi.

Boshqa guruh izlanuvchilar esa qadimgi dunyoda qishloq xo'jaligini kengaytirish uchun kerakli bo'lgan keng ko'lamli sug'orish tizimlari ilk shaharlarning o'sishidagi bosh omil bo'lgani g'oyasini qo'llab chiqdi. Ushbu mu-

rakkab sug'orish tarmoqlarini qurish va saqlash uchun ulkan ish-kuchi talab qilinardi. Ko'p sonli ishchilarni boshqara oladigan kuchga ega bo'lgan jamiyat a'zolari esa boshqaruv elitasi bo'lib shakllangandi.

So'nggi, uchinchi guruh izlanuvchilari esa ilk shaharlarning o'sib kelayotgan tijorat va ayirboshlash tarmoqlari kesishmasida yuzaga kelganini ilgari suradi. Sug'orish tizimlarini kengaytirish va oziq mahsulotlarini ishlab chiqarishda ixtisoslashish tijorat va ayirboshlash qilinadigan ortiqcha oziq mahsulotlarini keltirib chiqargandi. Bu izlanuvchilarning fikriga ko'ra, shahar elitasi, shu jumladan, bosh topinoqlar bilan bog'liq bo'lgan ruhoniylar ortiqcha mahsulotni saqlash va qayta taqsimlashni tashkil qilgandi. Demak, barcha ilk shaharlar boshida topinoqlar tevaragida kelib chiqqan, ularda jamoalarning diniy marosimlarini o'z bo'yniga olgan ruhoniylar xizmat qilardi. İlk shaharlarning kelib chiqishida dinning o'zmi eng diqqatni tortuvchi xususiyat bo'lib, ilk shaharlar aslida qadimgi xalqlarning diniy qarashlarini tubdan aks ettiruvchi marosim markazlari bo'lgan deb aytiladi.

Ilk shaharlar kishilik o'tmishida yana bir ulkan sakrashni ko'rsatgan holda texnologiyalar, yozma til, huquq, siyosat va iqtisodiyotdagi yangiliklarning barchasi ilk shaharlar sharoitida ishlab chiqarilgan dinamik madaniyatdan kelib chiqqanini anglatadi. Boshqa tomondan, ilk shaharlarning barchasi ijtimoiy tengsizlikni keltirib chiqargani va ularda yashagan turli tabaqalarning turlicha turmush darajasiga ega bo'lganini ham unutmazlik kerak. Bu yerda boylar va yo'qsillar, imtiyozlilar va imtiyozsizlar bor edi. Bir tomondan kishilik jamiyati o'tmishida yuksalish, ikkinchi tomondan esa ijtimoiy tengsizlikni keltirib chiqargan ilk shaharchilik sivilizatsiyasi aslida qiziqarli paradoksdir, bu esa uni sinchkovlik bilan o'rganishga chorlaydi.

Demak, ilk shaharlar kishilik jamiyatida oziq ishlab chiqarishni tubdan qayta qurish so'nggida yuzaga kelgan. Qadimgi jamoalar shaharlardan oldin qarindosh-urug' to'plaridan tashkil topgan qishloqlarda yashab, ovchilik va termachilik xo'jaligiga asoslangan munosabatlarda bo'lishgan. Vaqt o'tib, bu qishloqlar aholisi o'zlari yashagan yerdagi yovvoyi o'simliklar va hayvonlarni yetishtirish bo'yicha ko'p ko'nikmalarga ega bo'lib, ularni qo'lga o'rgatishgan. Inson tomonidan boshqariladigan suruv va dalalar ko'paygani sari oziq-ovqat ham ortib qola boshlagan. Bu esa aholi sonining ortishiga yetaklagan, chunki qadimgi jamoa endilikda ko'proq aholini boqa olardi. Oziq ishlab chiqarish va aholi sonining ortishi o'rtasida o'zaro bir-birini kuchaytiruvchi, sabab-oqibat yo'sindagi munosabatlar natijasida qarindosh-urug'lardan tashkil topgan kichik qishloqlar shaharcha va so'nggida shaharlarga aylangandi.

Arxeologik izlanishlarda Turon o'lkasining turli hududlarida jez asriga tegishli dehqonchilik jamoalarining qishloq va shahar qoldiqlari hamda chorvachilik bilan shug'ullangan guruhlarning mozor-qo'rg'onlari ochilgan. Janubiy Turonda jez asrida gullab-yashnagan Amudaryo sivilizatsiyasi bugungi kunda Janubiy Turkmaniston, Janubiy O'zbekiston, Janubiy Tojikiston va Shimoliy Afg'onistongacha yoyilib, uning eradan oldingi 3-ming yillikdagi (er.ol. 2400–2000-yillar) ilk shaharchilik bosqichiga tegishli Oltintepa, Namozgoh, Qo'ng'ir (Gonur) kabi arxeologik qoldiqlari ko'p yillar davomida qazib o'rganilgan.

Janubiy O'zbekistonning Surxondaryo viloyatida esa eradan oldingi 2-ming yillikning birinchi yarmida (er.ol. 2000–1500-yillar) ilk shaharchilik madaniyatiga asos solingani Sopollitepa, Jarqo'ton, Bo'ston, Molalitepa kabi arxeologik qoldiqlarning 1970-yillarda keng ko'lamda tadqiq etilishi bilan fanga kiritilgan. Sopollitepa majmuasi Turon o'lkasi ilk shaharchiligining yorqin ko'rinishi bo'lib, kelib chiqishi Kopetdog' etaklaridagi Namozgoh majmualariga bog'liq.

Sopollitepa arxeologik yodgorligi Amudaryo yaqinida, Ko'hitang tog'laridagi Pashxurt vohasidan Sherobod cho'liga olib chiquvchi daralardan birida o'rin olgan. Bu yerda Qaynarbuloq negizida yuzaga kelgan Ulanbuloq soyi oqib o'tadi. Ana shu soy suvlarga tayangan holda eradan oldingi 2-ming yillikning 2-choragida qadimgi dehqonlarning qishlog'i qad ko'taradi. Bu qishloq xarobalari mahalliy aholi orasida Sopollitepa deb nom olgan. Hozirda uning markaziy qal'a qismigina saqlanib qolgan. Qal'a atrofidagi yodgorlik maydonida sochilib yotgan sopol parchalari, tosh yorg'uchoqlar, urchuqtosh va hayvon suyaklari, turli mehnat qurollariga qaraganda, Sopollitepaning umumiy maydoni o'z davrida 4–5 gektardan kam bo'lmagan. Yodgorlikning favqulodda noyobligi va uy-joy majmualarining me'moriy qurilishi hamda mudofaa inshootlarining mukammalligi ajdodlarimiz muhandislik ilmi yuksak darajada bo'lganidan dalolat beradi.

Yodgorlikning qal'a qismi kvadrat shaklida bo'lib, maydoni 82x82 m, atrofi uch qator mudofaa devorlari bilan o'rab olingan. Devorlarning qalinligi 2 metrdan ortiq. Devorlar murakkab me'moriy reja asosida qurilgan. Qadimgi muhandislarning g'oyasiga ko'ra, dastlab mudofaa tizimi tuzoq usulida ishlangan bo'lib, aniq o'lchamdagi dahlizsimon hovlilarga bo'lingan. Tashqi hovlilar dahliz turidagi xonalar orqali qal'a ichidagi uy-joy majmualari bilan birlashtirilgan. Ichki hovlilar mudofaa tizimida qalqon vazifasini o'taganlar. Tashqaridan qaraganda, ular qal'a ichiga olib kiruvchi darvozalarni eslatadi va qal'aning har tomonida bittadan joylashgan. Aslida qal'aning birdan-bir darvozasi uning janubiy tomonida o'rnatilgan.

Uy-joy majmualari uch qurilish bosqichini boshdan kechirgan. Mudofaa tizimini tashkil etgan ichki va tashqi hovlilar aslida maxsus mudofaa maqsadida qurilgan bo'lsa-da, mintaqada hech bir tashqi xavfning yo'qligi tufayli har xil maqsadlarda (urug' xilxonasi, yashash xonalari, kulolchilik ustaxonalari) foydalanishga olib kelgan.

Rejaga ko'ra, qal'aning ichki maydoni bir-biridan tor ko'chalar bilan ajratilgan 8 ta uy-joy majmuasidan iborat bo'lgan. Dastlab uy-joy majmualari qal'a ichki devoriga yopishtirib qurilib, kuzatilgan uchta qurilish bosqichi davomida ular markaziy maydon bilan bog'langan tor ko'chalar bo'ylab kengayib borgan.

Qal'a markaziy maydonida hayvon suyaklari, sopol parchalari va qalin kul qatlami uyumi hosil bo'lgani, keyinroq qalin madaniy qatlam uyumi tekislanib, uning usti qalin somonli loy bilan suvalib, keng supaga aylantirilgan. Bu maydon, har qalay, jamoa yig'inlarini o'tkazadigan majlis hudud bo'lishi mumkin.

Sopollitepa aholisi Janubiy O'zbekiston hududining eng qadimgi dehqonlari edi. Bu yerdan topilgan juda boy va xilma-xil ashyolar tahlili, ularni boshqa o'lka va tarixiy madaniy viloyat yodgorliklari bilan qiyosiy o'rganish Sopollitepa aholisining qadimgi Boxtarga qo'shni Marg'iyonadan dehqonchilikka qulay yangi yerlar qidirib kelib o'mashgan urug'lar ekanini ko'rsatadi.

Sopollitepada aniqlangan xom g'ishtdan qurilgan ko'p xonali uy-joy qoldiqlari, toshdan, jezdan, suyakdan yasalgan turli shakl va ko'rinishdagi mehnat va harbiy qurollari, uy-ro'zg'or asbob-uskunalari, xo'jalikda, kundalik hayotda, ov vaqtida, dehqonchilik va hunarmandchilikda ishlatiladigan qurollar, nafis, xushbichim, ikki qavatli xumdonida yaxshi pishirilgan turli sopol idishlar, taqinchoq va bezaklar, urug' va qabila muhrlari, luh, qamish va qo'g'a, bug'doy va arpa poyasidan to'qilgan savatchalar, terini ishlash mehnat qurollari, tosh va jezdan yasalgan idishlarning ishlanishiga qarab, Sopollitepa aholisining o'z davrida qanchalar yuksak madaniy-xo'jalik rivojiga, san'at darajasida yuksaklikka erishgani, ixtisoslashgan hunarmandchilik tarmoqlari egalari bo'lgani ma'lum bo'ladi. Sopollitepa dehqonlari paxta ekkanlar, ipakchilik va bog'dorchilik bilan shug'ullanganlar. Takroriy sug'orma dehqonchilik iqtisodiy xo'jalikning asosini tashkil etgan.

Sopollitepa aholisi dastlab hayotdan ko'z yumgan urug'doshlarini o'zlari yashagan uy-joy xonalari sathi ostiga, ayollarni ko'p hollarda o'choq qarshisiga, erkaklarni esa xonaga kirish eshigi ostonasi oldi, mudofaa va xona devorlari ostiga ko'mganlar. Keyinroq har bir daha doirasida jamoa xilxonalari paydo bo'lgan. Sopollitepada topilgan 138 ta qabrga o'z davrida nima qo'yilgan bo'lsa, barchasi to'laligicha saqlangan.

Qabrlar asosan ayvonli lahad tuzilishida bo'lib, qabrlarning ayvoni doimo sharqda, uning g'arbiy devori ostida lahadga kiruvchi eshigi bo'lgan. Qabr to'riga murdalar yotqizilgan. Lahadning ayvon tomoniga esa sopol idishlarda turli ovqatlar, marhum va marhumaga tegishli shaxsiy buyumlar, mehnat va uy-ro'zg'or asboblari, aniqrog'i, hayotlik davridagi kasb-koriga, jinsiga tegishli buyumlar qo'yilgan. Chunki ular abadiy o'limga ishonmaganlar, «narigi dunyo» tushunchasi ularda kuchli bo'lgan ko'rinadi. Shuning uchun bo'lsa kerak, qabrga vafot etgan kishini o'z shaxsiy mulki va urug'doshlari keltirgan idish-tovoqlardagi ovqatlar bilan kuzatganlar. Qablardagi ashyo-viy dalillarning tarkibiga qarab, marhumning duradgor usta, mato to'quvchi, kulol, podachi, ovchi, dehqon, jangchi, tabib, chilangar, doya, mubod (kohin), boy va kambag'alligini aniqlash mumkin. Ba'zi qabrlarda bedarak yo'qolgan jamoa a'zosining ruhi ko'milgan. U holda qabrga uning loy, matodan yasalgan haykalchasi yoki, boyroq bo'lsa, uning o'rniga qo'y yoki echki ko'milgan. Bunday qabrlar fanda «kenotaf» deb ataladi. Kenotaf qabrlarda lahadga faqat dafn marosimida qatnashgan urug'doshlar tomonidan sopol idishlarda keltirilgan ovqatlar qo'yilgan. Shu bois, kenotaf qabrlarda sopol idishlardan boshqa hech bir ashyo deyarli uchramaydi.

Qabrda erkaklar o'ng tomoni, ayollar esa chap tomoni bilan, ona qornida yotgan holatda, oyoq-qo'llari bukilgan, boshlari shimolga, shimoli-g'arbiga qaratilib ko'milgan. Qablardan topilgan ashyo-viy dalillarning boyligi yoki kamligi, ularning hayotlik davridagi jamoada tutgan o'mi va mavqeyidan kelib chiqqan.

Sopollitepada hayot taxminan, ikki yuz yil davom etgan. Aholi yildan-yilga ko'payib borgani sayin yer va ekinzorlar uchun suv tanqisligi sezila boshlagach, uning bir qismi yangi yerlar qidirib, hozirgi Sherobod daryosi quyi havzalariga kelib joylashadi. Bu joy tog' daralaridan oqizib kelingan unumdor tuproq hisobiga hosil bo'lgan keng va tekis, ekinbop qoq yerlardan tarkib topgan edi. Bu joylarni Sherobod daryosining quyi irmog'i – Bo'stonsoy suvlari orqali sug'orish mumkin bo'lgan. Hozirgi kunda mahalliy aholi bu joyni Jarqo'ton deb ataydi.

Jarqo'ton – Sopollitepa yodgorligiga yaqin joyda, Bo'stonsoyning chap sohilida bundan 3,5 ming yil avval qad ko'targan qishloq. Uning kichiqroq qismi Bo'stonsoy sohili bo'ylab, jarliklar tufayli saqlanib qolgan.

U mudofaa devorlari bilan o'ralgan Ko'handiz va unga tutashib ketgan «Shahriston» maydonidan iborat bo'lgan. Ularning janubida, qadimgi ariq izining orqa tomonida, bir necha tabiiy tepaliklarga joylashgan qabriston joylashgan. Shahriston maydonida 20 gektarga yaqin katta va kichik hajmdagi tepaliklar kuzatiladi. Ular ustida yotgan sopol parchalari, tosh yorg'uchoq va boshqa mehnat qurollarining sochilib yotishiga qaraganda, ularning har

biri bir urug' jamoasiga tegishli uy-joy qoldiqlari yoki ishlab chiqarish joylari ekanidan guvohlik beradi.

Yodgorlikda hayot 500–600 yildan kam kechmagan. Jarqo'ton oddiy qishloq jamoasining makonidan O'zbekiston hududidagi eng qadimgi ilk shahar darajasiga o'sib borganini alohida urg'ulash lozim. Uning 3 gektardan kam bo'lmagan Ko'handiz maydonidan shahar hokimining mahobatli saroyi qoldiqlari, metall eritish, metaldan mehnat va harbiy qurollar ishlab chiqarish ustaxonasi (chilangarlik ustaxonasi), xom g'ishtdan ko'tarilgan tagkursi ustida qurilgan uy-joy majmualari topilgan. Uning qalin mudofaa devori, qal'aga kirish darvozasi ham bo'lgan.



Jez davri ilk shahri

Zamonbobo makoni va qabristoni – Quyi Zarafshon vohasida qurigan Moxondaryo o'zaniga yaqin yerda joylashgan, miloddan oldingi 3-ming yillikning birinchi yarmida yashagan aholiga tegishli manzilgoh. Zamonboboliklar osti yerto'la, usti chayla va o'tov ko'rinishidagi yirik turar-joylarda istiqomat qilganlar. Yerto'lalarda gulxan va o'choqlar, don saqlanadigan o'ralar, qo'lda yasalgan sopol idish siniqlari, chaqmoqtoshdan yasalgan qurollar – yaproqsimon paykon, pichoqsimon parraklar, surmatoshlar, jezdan yasalgan ko'zgu, qimmatbaho toshlardan (lojuvard, aqiq, firuza, jilvir) yasalgan munchoqlar, oltin va marjon taqinchoqlar topilgan. Qo'ndoqli o'roqlar, yorg'uchoq, o'g'ircha va ko'mirga aylangan bug'doy, arpa donlari, sigir, qo'y, echki suyaklarining topilishi esa zamonboboliklar dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanganini anglatadi. Mayitlarini yolg'iz, ikki kishilik va ayrim holda uch kishilik (ayol, erkak va bola) qabrlarda yonboshlatib dafn etganlar.

Jez asri Yevroosiyo dala-qirlari ko'chmanchi chorvachilari – miloddan oldingi 2-ming yillikda Turon o'lkasining 90 foiz maydonini egallagan tog', dala-qir va cho'l hududlarida ishlab chiqaruvchi xo'jalik – yaylov chorvadorligi va qisman o'troq dehqonchilik bilan kun kechirgan. Ular Yevroosiyoning keng dala-qirlari – Janubi-sharqiy Urol, Janubiy Sibir, Shimoliy Qozog'iston va Turon hududlarida yoyilgan, turli til va madaniyatga ega, biroq turmush tarzi o'xshash, kelib chiqishiga ko'ra qorishiq aholi vakillaridir. Bu jamoalar ilmiy adabiyotlarda Andronovo madaniy-tarixiy jamoalari, deb yuritilib, ularga tegishli yodgorliklar Sintashta-



Andronovo madaniyatiga mansub ayol

Arkaim¹, Olako², Fedorovo³ kabi majmualarni o'z ichiga oladi. Ularning Farg'ona vodiysiga kelib o'mashgan guruhi Qayroqqum majmuasi nomi bilan ataladi.

Kelib chiqishi Urolning janubidagi dala-qirlarga taqaluvchi Andronovo jamoalari miloddan oldingi 3-ming yillik so'nggidan boshlab Turon va Oltoy tomonga siljib, miloddan oldingi 2-ming yillik o'rtalarida bu yerdagi o'troq dehqon jamoalar bilan to'qnashganlar. Buning natijasida Tozabog'yob, Beshkent va Vaxsh kabi yangi majmualar kelib chiqqani aytiladi. Andronovo jamoalari yaylov-qishlov va yengil dehqonchilik xo'jaligiga ega bo'lib, 2–20 tadan 80–100 tagacha yog'och uydan iborat kichik qishloqlarda istiqomat qilganlar.

Qishloq tevaragi handaq, tuproq uyumi yoki yog'och to'siq bilan o'ralgan. Bir urug'dan iborat oilaga tegishli yirik uylar 80–300 kv.metr maydonni egallagan.

Andronovoliklarda ko'chmanchi turmush tarzi ustuvor bo'lib, sigir, ot, qo'y, echki va tuya boqilgan. Otlardan minish va yuk tashishda foydalanilgan. Konchilik va metalchilik taraqqiy etgan. Konlardan mis va qalay qazib olganlar. Andronovo jamiyatida jezdan yasalgan yuqori sifatli ish va urush qurollari mo'l bo'lgan.

Mayitlar yer ostida toshdan terilgan yumaloq yoki to'rtburchak «uychalar»ga ko'milib, qabr ichiga uy hayvoni, arava, ot yugani, qayishi, jang qurollari, sopol idish va taqinchoqlar qo'yilgan. Bulardan eng mashhurlari miloddan oldingi 2000-yillarga tegishli jang aravalari bo'lib, ular otli va otsiz ko'milgan. Bunday odat dala-qirlarda yashagan hind-yevropa va turkiy tilli aholi madaniyatida hamda qisman ko'chmanchilar bilan yaqin aloqada bo'lgan qadimgi Xitoy jamoalarida kuzatiladi. Andronovoliklarda ikki mayitni bir qabrga – ikki ulg'aygan yoki bir ulg'aygan va bir bolani birga ko'mish udumi ham bo'lgan.

Ilk davlatchilik. Amudaryo sivilizatsiyasi Turonda keng ko'lamli va tizimli sug'orma dehqonchilikni, olis o'lkalalar bilan yo'lga qo'yilgan tijoratni,

¹ Janubiy Urol, Shimoliy Qozog'iston.

² Janubi-sharqiy Urol.

³ Janubiy Sibir, Tangritog', Yettisuv, Sharqiy Turkiston.

davlatchilikning ilk ko'inishlari unib-o'sayotgan yangi jamiyat va shaharchilik madaniyatini keltirib chiqargan. Shu bilan birga, bir necha yirik ilk shaharlarning yuzaga kelishiga ham turtki bergan. Biroq bugungacha oydinlashmagan sabablarga ko'ra, jez asrining so'nggida, chamasi eradan oldingi XIII asrlarda Amudaryo sivilizatsiyasi birdan tushkunlikka uchraydi.

Bunga o'xshash holat butun Sharqiy O'rtayer dengizi mintaqasidagi so'nggi jez asri sivilizatsiyalarida ham kuzatiladi va Yaqin Sharq tarixchilari buni so'nggi jez asri tushkunligi deb ataydi. Bu davrda Yaqin Sharq sivilizatsiyalari ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy tushkunlikka uchrab, shimoli-g'arbdan bostirib kelgan, madaniy tomondan shaharchilik bosqichiga ko'tarilmagan ko'plab Yevropa qavmlari hujumlari ostida qoladi. Keng maydonlarda yozuv madaniyatining yo'q bo'lishi, yirik davlatlarning qulashi, ko'plab shaharlarning vayron bo'lishi kabi voqealar bilan o'sha davr tarixchilarining so'zicha, qorong'i asrlar boshlangandi. Mintaqaviy ko'lamda yuz bergan bu tushkunlik Anatoliya, Kipr, Suriya, Levant, Yunoniston, Misr va Ikkidaryo oralig'ini qamrab olgandi.

O'sha chog'larda Yaqin Sharqda yuz bergan tushkunlik Turonda ham ko'zga tashlanadi. Mintaqamizning janubida jez asri ilk shaharchilik madaniyati o'choqlari eradan oldingi XIII asrga kelib birdaniga so'ngani va uning o'miga Yoz arxeologik majmuasini tashuvchi yangi elatlarning yuzaga kelishi kuzatiladi. Ular tevaragi devorlar bilan o'ralgan qishloqlarda yashab, sug'orma dehqonchilikni bilgan, biroq oldingi madaniyatlar kabi sopolni charxda emas, qo'lda yasagan va birorta o'ligini yerga ko'mmagan jamoalar edilar. Yozliklar ko'chmanchi, yarim-ko'chmanchi yoki o'troqlashuv jarayoniga tortilgan elatlar bo'lganlar.

Yoz madaniyatiga mansub jamoalar madaniyatining muhim xususiyatlari quyidagilar bo'lgan – ular o'z o'liklarini qabristonlarda ko'mmaganlar, Yevroosiyo dala-qirlari metallurgiyasi ko'nikmasiga ega bo'lganlar hamda dehqonchilik bilan shug'ullanganlar.

Yoz madaniyatiga mansub elatlarga tegishli o'lik qoldiqlarining oz uchrashiga sabab, ularning zardushtiylik (o'likni daxmaga olib chiqib, etidan tozalash kabi) ko'rsatmalariga amal qilganidir. Ular so'nggi jez asri Amudaryo sivilizatsiyasi kabi ulkan me'morchilik qurilmalarini qurishni bilmas edilar, biroq tez orada kulol charxi qo'llashni o'rganib olganlar. Yoz yodgorliklari qazishmalarida temirdan yasalgan o'q uchlari va o'roqlarning topilishi ularning qo'lida o'z davri uchun eng ustuvor uslub – temirdan qurol yasash ko'nikmasi borligini ko'rsatadi.

Bu davrda Turon aholisi to'g'risida ilk ma'lumotlar yozma manbalarda ham uchray boshlaydi. Bular orasida zardushtiylikning muqaddas kitobi **Avestoning** o'zgacha o'rni bor. Uning eng eski qismlari chamasi eradan oldingi

X asrda¹, yangilari esa eradan oldingi VI asrda yozilgan. Bugungi kungacha saqlanib qolgan barcha nusxalari esa IX–X asrlarda ko'chirilgan.

Shimoliy Buxtarda (Yoz davrida) Kuchuk arxeologik majmuasi keng tarqalib, ushbu aholi oldingi Sopolli majmuasi aholisi o'zlashtirgan vohalarga kelib o'rmasgan. Kuchukliklarning qishloqlari tagkursi ustida qad ko'targan bo'lib, hovllari qishloqning ichki devori bo'ylab qurilgan. Sopollari charxsiz, qo'lda yasaliq, yuqori qismi odatda qizil tusda bo'yalgan. O'z turmushlarida toshdan yasalgan o'roq, yorg'uchoq, o'g'ircha, qayroqtoshlarni keng ishlatganlar.

Farg'ona vodiysining sharqiy va shimoli-sharqiy chekkalarida ayni shu davrda tarqalgan Chust arxeologik majmuasiga tegishli 80 dan ortiq arxeologik yodgorlik qayd etilgan. Chustliklar maydoni 10-20 gektargacha borgan qishloqlarda yashab, ayrimlari adimning tepasiga, boshqalari esa mudofaa tizimi bilan kuchaytirib tekislikka qurilgan. Uylarining rejalari aniq bo'lmas-da, xom g'isht ishlatilgani aniqlangan. Ko'plab chuqur o'ralarda bug'doy, arpa, tariq kabi donlar saqlangan. Uy hayvonlaridan tuya, eshak, ot, sigir, qo'y, echki boqilgan. Yovvoyi hayvonlardan qulon, ohu va sayg'oqlarning qoldiqlari topilgan. Sopollari qo'lda yasalgan bo'lib, jez va temirdan qurol va buyum yasashni bilganlar. Nayza boshloqlari (paykonlari) va pichoqlarni faqat jezdan yasaganlar, qabrlarni qishloq chetida qaziganlar. Chustliklarning bo'yoqli sopoli va toshdan yasalgan o'roq va pichoqlari o'sha davrda Sharqiy Turkistonda tarqalgan o'xshash arxeologik majmualarda ham uchraydi.

Toshkent viloyati va uning keng tevaragida Yoz davrida tarqalgan Burgalik arxeologik majmuasi qoldiqlari ko'proq quyi Ohangaron daryosi vodiysida Tuyabo'g'iz suv ombori o'rnidan topib o'rganilgan. Eng yirik Burgalik qishloqlarida 10 ta turar-joy bo'lib, ular to'rtburchak yoki cho'ziq dumaloq ko'rinishda, maydoni 4–25 kv. metrlik va ko'pincha bitta yirik xonali yerto'lalar edi. Yerto'lalarda isinish va oshxona o'choqlari, metall eritish uchun kichik o'choqlar, devor yoqalab yasalgan supalar, xo'jalik o'ralari topilgan. Yerto'lalarning ustki qismi shox-shabba bilan yopilgan. Burgalik qishloqlari qazishmalarida qo'lda yasalgan sopol idishlar, jez buyumlar, tosh qurollar va ko'plab hayvon suyaklari qo'lga kiritilgan. Jez buyumlari yaproqsimon o'q uchlari, tutqichi teshikli qayrilgan o'roqlar, pichoqlar va bigizlardan iborat. Burgalik aholisi xo'jaligida tosh va jez o'roqlar, qo'l tegirmonlar, yorg'uchoqlar, don saqlaydigan yirik xum va o'ralar borligidan ularning dehqonchilik bilan shug'ullangani tushuniladi. Yirik muguzli hayvon, ot va qo'y suyakla-

¹ Yoki «payg'ambar» Zardushtning yashagan davri – chamasi er. old. 1200–800 yillar.

² Ulanbuloqsoy (Kuchuktepa), Bo'stonsoy (Jarqo'ton), Bandixonsoy (Bandixon I), Mirshodi (Qiziltepa), Zarabog' (Burguttepa, Qayrittepa) o'zanlari.

ining ko'plab uchrashi esa Burgalik aholisining dehqonchilikka ham alohida e'tibor berganini ko'rsatadi. Burgalik arxeologik majmuasining yettisivdan (Almati) Samarqand tevaragigacha (Ko'ktepa) cho'zilgan kengliklarda tarqalgani izlanishlarda qayd etiladi.

Yuqorida tilga olingan Yoz majmuasining birinchi bosqichi eradan oldingi XIII–X asrlarda ilk temir asriga o'tish davri bo'lib, butun Turon bo'ylab dehqonchilik vohalarining moddiy madaniyatida turli darajada bo'lsa-da, o'xshashligi bilan ajralib turadi. Izlanishlar natijalariga ko'ra, bu bosqichda mintaqadagi jamoalar ijtimoiy-iqtisodiy o'sishida shaharchilik va davlatchilik darajasiga chiqmagani kuzatiladi.

Oradan ko'p vaqt o'tmay, birinchi bo'lib janubiy viloyatlarda, xususan, Amudaryoning yuqori va o'rta oqimida shakllangan tarixiy-madaniy o'lka Buxtarning shimoliy qismi – Shimoliy Buxtarda shaharchilikning qayta yuksalishi aniqlangan. Endilikda hunarmandchilikda oldingi Amudaryo sivilizatsiyasi an'analari tiklanib, kulolchilik charxida yuqori sifatli sopol mahsulotining yasalishi va keng tarqalishini ko'rish mumkin. Eski Yoz qishloqlari o'rnida shaharlashgan aholi makonlari gullab-yashnay boshlagan. Bu davr Janubiy Turkmanistonda Yoz II, Janubiy O'zbekistonda esa Kuchuk II bosqichi deb yuritiladi va eradan oldingi X–IV asrlarga to'g'ri keladi. Keyinchalik bu jarayon Sug'd, Xorazm va Farg'onaga ham yoyilgani kuzatiladi.

Ilk davlatchilik va davlatlarning yuzaga kelishi kishilik o'tmishida tub buri-lishlardan biri sanalib, keng ko'lamli, zich aholiga ega, siyosiy tomondan markazlashgan va ijtimoiy tabaqalashgan unsurlarni kuchli yetakchilar tomonidan boshqarilishi bilan amalga oshgan. Tarixchilar tomonidan birlamchi va ikkilamchi davlatlar bir-biridan farqlanib, birlamchi davlatlarga o'z ichki yuksalish jarayonlari orqali mustaqil kelib chiqqan davlatlar kiritiladi. Oldindan bor bo'lgan davlatlar ta'sirida yuzaga kelganlari esa ikkilamchi davlatlar deb ataladi.

Qadimgi dunyodagi ilk davlatlar Ikkidaryo oralig'ida (er.ol. IV m.y.), Misrda (er.ol. IV m.y.), Hind vodiysida (er.ol. III m.y.) va Xitoyda (er.ol. II m.y.) yuzaga kelgan. Ilk davlatlar o'z tevaragidagi davlatchilikka ega bo'lmagan jamiyatlar bilan tijorat, urushlar, ko'chishlar va yangi g'oyalar bilan yo'g'rilgan aloqalarni olib borishlari natijasida to'g'ridan-to'g'ri yoki ayrim omillar ta'sirida qo'shnilarida ikkilamchi davlatlarning yuzaga kelishiga sababchi bo'lgan.

So'nggi yillardagi arxeologik izlanishlar Turon o'lkasining ilk shaharlari va davlatlari to'g'risidagi bilimlarimizni yanada kengaytirdi. Shu orqali, Turon o'lkasini (er.ol. I m.y.) ham qadimgi dunyo birlamchi davlatchilik kelib chiqqan o'choqlar qatoriga qo'shish asosi tug'ildi.

Ilk temir asrining boshlang'ich bosqichida, eradan oldingi I-ming yillikning birinchi yarmida Shimoliy Buxtarning uch yirik dehqonchilik vohasi –

Sherobod, Boysun va Surxon vohalarining har birida yirik markaziy shaharlarning (Jondavlattepa, Qiziltepa, Hayitobodtepa) yuzaga kelishi kuzatiladi. Bu ilk shaharlarning har biri tevaragida ko'plab qishloq, qo'rg'on va harbiy qo'rg'onlarning qatorasiga o'mashuvi, ular o'rtasida bir-biriga bog'liqligini ko'rsatuvchi gullab-yashnagan qadimiy yo'llar tarmog'i, iqtisodiy tomondan sug'orish tizimining bir butunligi, strategik tomondan ham har vohadagi aholi turar-joylarining bir butun ajralmas tizimga bo'ysunishi – ularning uch siyosiy uyushma – voha davlatlari bo'lib shakllanganini ko'rsatadi.

Sug'd tarixiy-madaniy o'lkasi Zarafshon va Qashqadaryo vodiylarini qamrab, shartli o'laroq uch qismga bo'linadi – Markaziy Sug'd (Yuqori va O'rta Zarafshon), G'arbiy Sug'd (Quyi Zarafshon) va Janubiy Sug'd (Qashqadaryo vohasi).

Janubiy Sug'dda eradan oldingi I ming yillikning birinchi yarmida shaharchilik ahamiyatiga ega ilk yirik shahar tizimi – Uzunqir, Sangirtepa va Podayotoqtepa o'rganilgan (Qashqadaryo viloyati Kitob tumani). Uzunqir zardushtiylikning muqaddas kitobi Avestoda tilga olingan G'ava-Sug'da deb atalgan qadimiy o'lkaning ma'muriy markazi bo'lgan 70 gektar maydonga ega shahar qoldig'i bo'lishi mumkin. Qadimgi shahar mudofaa devorining uzunligi 650 metr, eni 20 metrga teng. Bu devor birinchi bo'lib eradan oldingi X–IX asrda guvalasimon xom g'ishtlardan solingan bo'lib, Markaziy Sug'dning Ko'ktepa va Afrosiyob singari qadimgi shaharlari devorlariga xos. Shahar Taxtaqoracha va Oqrabod dovoni orqali Buxtardan Marg'ushga olib boruvchi bosh yo'lni qo'riqlab turgan. Podayotoqtepa burjli mudofaa devori va tevaragida handaq bilan o'ralgan qurilish bo'lib, Uzunqirni qo'riqlash uchun oldinga chiqarilgan va harbiy tomondan o'ta kuchaytirilgan qo'rg'on yoki hukmdor o'rdasidir. Sangirtepa esa Uzunqir shaharchilik tizimiga kiruvchi va shaharning bosh zardushtiylik topinog'i vazifasini bajargan me'moriy qurilmadir. Qazishmalarda bu yodgorlikning o'rtada otashgoh turadigan yirik bo'lmadan tashkil topgani va Turonda eng qadimgi zardushtiyalar sajdagohi bo'lgani aniqlangan.

Yerqo'rg'on Janubiy Sug'dning qadimgi bosh shaharlaridan biri Naxshabning xarobasi bo'lib, Qarshi shahri yaqinida o'rnatilgan. Ichki qismining maydoni 40 gektar bo'lib, bu yerda o'rda va hukmdor saroyi, shahar topinog'i, zardushtiylik ko'mish marosimi o'tkaziladigan daxma, shahar yuqori tabaqasiga tegishli qabriston, kulollar va metalurglar mahallasi hamda eradan oldingi VIII–VII asrlar mudofaa tizimi bo'laklari ochilgan.

Markaziy Sug'dda ilk shahar va davlatchilikni ko'rsatib beradigan ikki yirik yodgorlik – Ko'ktepa va Afrosiyob xarobalari bor. Samarqand viloyati Payariq tumanidagi umumiy maydoni 100 gektarga teng Ko'ktepa yodgorligi ikki qator mudofaa devori bilan o'ralgan. Eradan oldingi 2-ming yillikning

so'nggidagi Burgalik majmuasiga tegishli kichik qishloqda turmush to'xtagandan so'ng, bu yerda eradan oldingi VII asrga kelib guvalasimon xom g'ishtlardan ulkan me'moriy qurilmalar qurila boshlaydi. Tez orada shaharchilik mazmuniga ega bo'lgan Ko'ktepaning qoq o'rtasida yirik olov sajdagohi ko'tariladi. Bu yerda «shahar hokimi qarorgohi» deb atalgan ikki qavatli va 200 kvadrat metr maydonga ega yana bir ulkan me'moriy qurilma bo'lgan. Ko'ktepani aylanasiga o'rab turgan mudofaa devorlari ham guvalasimon xom g'ishtlardan qurilgan bo'lib, eni 12 metrga teng.

Afrosiyob Markaziy Sug'dning eng eski bosh shaharlaridan biri bo'lib, bugungi kunda 200 gektardan ortiq maydonga ega xarobasi bor. Samarqand shahridagi bu yodgorlikda hayot eradan oldingi VII asrda boshlanib, xuddi Ko'ktepadagidek guvalasimon xom g'ishtdan mudofaa devori ko'tarilgan.

Amudaryoning quyi oqimida o'r mashgan Xorazm tarixiy-madaniy o'lkasi ilk temir asriga kelib shaharchilik negizida davlatchilik kelib chiqqan o'choqlardan biridir. Xorazm sivilizatsiyasining ilk izlari Ko'zaliqir, Hazorasp, Xumbuztepa kabi ilk shahar xarobalari va ularning tevaraklarida o'z davrida gullab-yashnagan vohalar bo'lgan. Ko'zaliqir hozirgi Turkmanistonning Toshhovuz shahridan 60 chaqirim g'arbda o'r mashgan, maydoni 25 gektarga teng, ikki qator mudofaa devorlari bilan o'ralgan va eradan oldingi VII–V asrlarda gullab-yashnagan qadimgi Xorazmning ilk shaharlaridan birining qoldig'idir. Bu yerdan hukmdor saroyi, ko'plab sopol idish siniqlari, jezdan yasalgan o'q uchlari, ot yugani bo'laklari, ayol taqinchoqlari qo'lga kiritilgan. Ko'zaliqirliklar dehqonchilik bilan shug'ullanganlar, biroq ko'proq vaqtini yaylov suruvchiligi bilan ham o'tkazganlar.

Xumbuztepa yodgorligi Amudaryo bo'yida o'r mashgan va endilikda 4 gektari saqlanib qolgan ilk shaharlaridan biridir. VII–VI asrlarga tegishli topilmalar ilk shaharchilik va davlatchilik Xorazmning janubida yuz berganini ko'rsatmoqda. Izlanishlarda xumbuztepaliklarning boshdanoq charxda ishlangan yuqori sifatli kulolchilik mahsulotlarini ishlab chiqarganlari va Turonda eng qadimgilardan biri bo'lgan olov topinog'iga ega bo'lganlari aniqlangan.

Farg'ona vodiysida ilk temir asriga tegishli eng qadimgi shaharchilik ko'rinishga ega yodgorlik Eylaton shahar xarobasidir. Bu shahar Andijon viloyati Izboskan tumanida o'r mashgan bo'lib, o'z davrida mudofaa devori ichkarisidagi maydoni 200 gektarga teng bo'lgan. Shaharning 20 gektarlik hukmdor o'rdasi ham kuchli mudofaalangani ma'lum. Qalinligi 4 metrga teng mudofaa devorlari guvala va xom g'ishtdan ko'tarilgan. Eradan oldingi VII–III asrlarda yashagan eylatonliklar Farg'ona vodiysi bo'ylab 40 dan ortiq qishloq va shahar qurib, kulolchilik, temirchilik va to'quvchilik bilan shug'ullanganlar.

Shunday qilib, dunyoning boshqa mintaqalaridan mustaqil o'laroq Turonda shaharchilik va davlatchilik uyg'unlikda ilk bor eradan oldingi I ming yillikning birinchi yarmida Shimoliy Boxtar, Sug'd, Xorazm va Farg'onada shakllangan bo'lib, uning boshqa hududlarida ushbu jarayon kechroq boshlangan. Biroq ushbu holatning o'ziyoq O'zbekiston hududida davlatchilikning 3000 yillik tarixga ega ekanligini tasdiqlaydi.

№	SANA	SODIR BO'LGAN VOQEELIK
1	13,8 milliard yil oldin	Koinotning yuzaga kelishi. <i>Bugungi kunda qabul qilingan nazariyaga ko'ra, "Buyuk portali" sodir etilishi natijasida koinotimiz yuzaga kelgan.</i>
2	4,5 milliard yil oldin	Quyosh, Quyosh tizimi va Yer sayyorasining yuzaga kelishi. <i>Bu davrda nebula (tumanlik) deb ataluvchi yulduzlararo to'zondan markazida Quyosh, tevaragida Quyosh tizimi sayyoralari, jumladan, Yer sayyorasi yuzaga kelgan.</i>
3	4,5 – 4 milliard yil oldin	Katarxey (yoki Aid) eoni geologik bosqichi. <i>Yerning geologik tarixida hayotsiz, vulqonli, o'ta issiq bosqich. Ilk suyuq suvning yuzaga kelgani taxmin qilinadi. Yerga tutilishi natijasida uning tevaragida Oy tabiiy yo'ldoshi yuzaga keladi. Bu davrda Yerning atmosferasi yulduzlararo to'zon gazlaridan iborat bo'lgan.</i>
4	4 – 2,5 milliard yil oldin	Arxey eoni geologik bosqichi. <i>Yerda abiogenezis jarayoni hayotining yuzaga kelishi. Bu davrda Yerda Ur, Vaalbara va Kenortland deb ataluvchi uchta superqit'a shakllangan bo'lib, atmosfera vulqonli va issiqxona gazlaridan iborat bo'lgan.</i>
5	2,5 milliard – 541 million yil oldin	Proterzoy eoni gologik bosqichi. <i>Yerda eukariotlar deb ataluvchi ilk ko'p hujayrali mikroorganizmlarning o'rta chiqib, Yer atmosferasini kistorod bilan to'ldirib boradi. Ilk o'simliklar, so'ngra ilk hayvonlar va zamburug'lar yuzaga keladi. Kolumbiya, Rodiniya va Pannotiya superqit'alari shakllandi.</i>
6	541 million yil oldindan – bugungi kungacha	Fenerezoy eoni geologik davri. <i>Yer okeani va quruqliklarida "Kembiriy davri portlashi" jarayoni natijasida umurtqalilar, o'simliklar, zamburug'lar, xashorotlar va sudralib yuruvchilarni qamrogan qorishiq hayot rivojlangan. Bu davrda Pangeya superqit'asi Lavraziya va Gondvana kabi qit'alarga bo'linib, bu ikki qit'a bugungi qit'alarga aylangan. Fanarezoy eoni o'z o'rnida paleozoy, mezozoy va kaynozoy kabi uch eraga bo'linadi.</i>
7	541 – 252 million yil oldin	Paleozoy geologik erasi. <i>Yer tarixida o'ta keskin tektonik, ilqim va evolyutsion o'zgarishlar sodir bo'lgan. Okeandagi mollyusk, baliq va amfibiyalar evrilib quruqlikka chiqq boshlagan. Yer yuzini ulkan o'rmonlar qoplagan. Era so'ngida Yer tarixida "Perm davri yoppa qirg'in" deb ataluvchi eng yirik biosfera ofati sodir bo'lib, okeandagi 98% va quruqlikdagi 73% tirik organizm qirilib ketgan.</i>

8	252 – 66 million yil oldin	Mezozoy geologik erasi. "Sudralib yuruvchilar davri" va "Ignabarglilar davri" deb ham ataluvchi bosqich bo'lib, o'z o'rnida Trias, Yura va Bo'r davrlariga bo'linadi. Bu davrda sudralib yuruvchilar oilasiga tegishli bo'lmish dinosavrlar 150 million yil davomida Yer yuzasida hukmronlik qilgan. Teropod dinosavrlaridan qushlar o'rta qo'ng'irga chiqqan. Sut emizuvchilar yuzaga kelgan, biroq uzoq davr o'ta kichik (15 kg ostida) o'lchamda rivojlangan. Davr so'ngida ikkinchi (Bo'r davri qirg'in) yoppa qirg'in kelib, barcha tirik organizmlarning 75% jumladan, qanotsiz dinosavrlar Yer yuzasidan yo'q bo'lib ketgan.
9	66 million yil oldindan – bugungi kungacha	Kaynazoy geologik erasi. "Sut emizuvchilar davri" deb ham ataluvchi bu bosqich o'z o'rnida paleogen, neogen va to'rtlamchi kabi davrlarga bo'linib, dinosavrlar va ignabargli daraxtlar tarix sahnasidan chekilgandan so'ng sut emizuvchilar, qushlar va gulli o'simliklar Yer yuzasida hukmronlik qila boshlagan va bu holat bugungi kungacha davom etmoqda.
10	66 – 23 million yil oldin	Paleogen geologik bosqichi. Qit'alar bugungi ko'rinishga ega bo'la boshlagan, biroq barchasi bir-biridan suv bilan ajralgan edi, jumladan, Afrika va Yevroosiyo hamuz qadimiy Tetis dengizi bilan ajrab turgan (O'rta Osiyoning yirik bo'lak ham Tetis dengizi ostida edi).
11	23 – 2,6 million yil oldin	Neogen geologik bosqichi. Bu davrning ilk bosqichi miosen (23–5,3 million yil oldin) zich o'rmonlar o'rniga o'tloq savannalar kengayib borgan. Tetis dengizi qurib, Afrika va Yevroosiyo birlashgan. Bugungi kundagi o'simliklarning 95% bu davrda yuzaga kelgan. Maymunlar 30 turga bo'linib ketgan. Neogenning ikkinchi bosqichi pliosen davrida esa (5,3–2,6 million yil oldin) qurg'oqchilik boshlanib, bugungi kungi flora va fauna shakllangan.
12	2,6 million yil oldin – bugungi kungacha	To'rtlamchi geologik davri. O'z o'rnida pleystosen va holosen deb ataluvchi ikki bosqichga bo'lingan bu davr "Muzlik davri" yoki "Insonlar davri" deb ham yuritiladi.
13	2,6 million – 11700 yil oldin	Pleystosen geologik bosqichi. "Muzlik davri" yoki "Qadimgi tosh asri – paleolit" deb ham ataluvchi bu bosqichda megafauna, ya'ni yirik hayvonlar va ilk insonlar hukmronlik qilib, bosqich so'ngiga yaqin, ko'pi, jumladan, Neandertal odamlar qirilib ketgan.
14	11700 yil oldin – bugungi kungacha	Xolosen geologik bosqichi. "Muzlik chekilishi davri" deb ham ataluvchi iliq, qurg'oqchilik zamonaviy davr bo'lib, Yer yuzasida insonlarning sivilizatsiyalari hukmronlik qiladi. Hayvonot va o'simlik olamining inson tomonidan qirilib kuzatilib, XVII–XIX asrlarda sodir etilgan sanoat to'ntarishi davridan beri 500 tur umurtqalarning nasli inson tomonidan tugatilgan.

15	2,6 (2,4) – 1,7 (1,5) million yil oldin	Homo habilis (Homo habilis) "Uquvli odam" turining yuzaga kelishi, rivojlanishi va yoq bo'lishi.
16	1,7 (1,5) million yil – 300 (150) ming yil oldin	Homo erectus (Homo erectus) "Tikyurar odam" turining yuzaga kelishi, rivojlanishi va yoq bo'lishi.
17	300 (150) – 50 (40) ming yil oldin	Homo neandertal (Homo neardenthalensis) "Neandertal odam" turining yuzaga kelishi, rivojlanishi va yoq bo'lishi.
18	300 (150) – 50 (40) ming – bugungi kungacha	Homo sapiens (Homo sapiens) "Ongli odam" turining yuzaga kelishi, rivojlanishi.
19	2,6 ming yil oldin eradan oldingi IV ming yillikgacha	Tosh davri. <i>O'z o'rnida bu Qadimgi tosh (paleolit), O'rta tosh (mezolit) va Yangi tosh (neolit) bosqichlariga bo'linadi.</i>
20	2,6 million – 11700 yil oldin	Qadimgi tosh asri yoki paleolit arxeologik davri. <i>O'z o'rnida Quyi (ilk), O'rta va Yuqori (so'nggi) paleolit bosqichlariga bo'linadi.</i>
21	2,6 million yil – 300 (150) ming yil oldin	Quyi (ilk) paleolit. <i>"Uquvli odam" turi va uning "Olduvay tosh yo'nish texnologiyasi" rivojlangan. Tashlandiq oziqqa to'plovchilik bilan kam kechirilgan hamda qayroqtoshdan qo'pol qurol yasalgan. Yodgorliklar asosan Afrikadan. "Tikyurar odam" turi va uning cho'qmori kabi tosh yo'nish texnologiyasi hamda makrolit qo'l cho'qmori kabi tosh yo'nish texnologiyasi rivojlangan. O'rta Osiyoda Ko'lbuloq, Selungur, Kuldara, Tangirqazg'an yodgorliklari o'rganilgan. Keyinroq ovchilik va termachilik kabi xo'jalik turi rivojlangan.</i>
22	300 (150) – 50 (40) ming yil oldin	O'rta paleolit. <i>Neandertal odam va Ongli odamning "Levallua", "Prenukleus" (o'zak), Muste, yalpoq uchirindi tosh yo'nish texnologiyasi yuzaga kelgan. O'zbekistonda Ko'lbuloq, Obirahmat, Teshiktosh, Omongo'ton kabi yodgorliklar o'rganilgan.</i>
23	50 (40) – 11,7 ming yil oldin	Yuqori (so'nggi) paleolit. <i>Ongli odamning "mikrolitli qurollar yasash texnologiyasi" yuzaga kelgan. Odamlar yirik qo'nalg'alarda yashagan.</i>
24	Eradan oldingi IX–VII ming yilliklar	O'rta tosh (mezolit). <i>Qo'ndoqli tosh qurollar, geometrik mikrolitlar rivojlangan. O'zbekistonda Machay, Obishir, Qo'shilish qo'nalg'alari o'rganilgan.</i>
25	Eradan oldingi VII–IV ming yilliklar	Yangi tosh (neolit). <i>Qishloq xo'jaligi to'ntarishi sodir etilib, dehqonchilik va chorvachilik xo'jalik turiga o'tilgan. Ilk sopol idish yuzaga kelgan. O'zbekistonda Kaltaminor, Sazag'on, Markaziy Mis-tosh (eneolit) davri.</i>
26	Eradan oldingi IV ming yillik	Mis-tosh (eneolit) davri. <i>Ilk metallardan foydalanishga o'tilib, ilk qishloqlar yuzaga kelgan. O'rta Osiyoda Namozgoh va Sarazm kabi yodgorliklar o'rganilgan.</i>

27	Eradan oldingi III–II ming yillik	Jez davri. <i>Ilk shaharsozlik va sivilizatsiyalar yuzaga keladi. O'zbekistonda Sopolli, Zamonbobo va Tozabag'yob kabi yodgorliklar o'rganilgan.</i>
28	Eradan oldingi XII–VI asrlar	Temir davri. <i>O'z o'rnida So'nggi jez – ilk temir va ilk temir bosqichlariga shartli ravishda bo'linadi.</i>
29	Eradan oldingi XIII–X	So'nggi jez – ilk temir davri. <i>So'nggi jez davri inqirozi sodir etiladi. O'zbekistonda Kuchuk, Chust va Burganlik kabi yodgorliklar o'rganilgan.</i>
30	Eradan oldingi X–VI asrlar	Ilk temir davri. <i>Ilk davlatchilik va rivojlangan shaharlar. O'zbekistonda Baqtriya, Sug'd, Xorazm, Farg'ona shaharlari o'rganilgan. Bu davrdan boshlab yozuv ishlab chiqilgan, shuning uchun oldingi barcha yozuvsiz davrlar "Tarixoldi" davri deb atalib, bundan keyingi bosqich uchun "Tarixiy davr", O'rta Osiyo uchun Turon atamasi qo'llanila boshlaydi.</i>

II. AHAMONIYLAR ISTILOSII

Milodga qadar o'tgan asrlarda o'zbek davlatchiligi taraqqiyotida Yer yuzida ilk davlatchilik o'choqlaridan bo'lmish Yaqin va O'rta Sharq, Hindiston, Xitoy, Yunonistonda ham kechganidek jarayon yuz bergan. Ya'ni davlatchilik munosabatlari alohida viloyat, ichki mintaqa, hatto, shahar doirasida yuz berib borgan. Ular sirasida Xorazm, Boxtar, Farg'ona alohida diqqatga sazovordir.

Moddiy va yozma manbalar, ya'ni qadimgi shaharlardagi mudofaa istehkomlari, hukmdor saroylari, faqat ko'pchilikni uyushtirish, jiddiy xarajatlar orqaligina bajaralishi mumkin bo'lgan katta qurilish, ulkan suv inshootlari, Avestodagi davlat va jamiyat munosabatlariga oid guvohliklar miloddan oldingi VII asrda Xorazm vohasida ko'hna davrga xos davlatchilik asoslari uzil-kesil shakllanib bo'lganidan dalolat beradi.

Miloddan oldingi IV asr ikkinchi yarmida faoliyat yuritgan xorazmlik hukmdor Farasman bilan bog'liq qimmatli yozma ma'lumot voha siyosiy hayotida sulolaviy munosabatlarning paydo bo'lganini va ular bir necha yuz yillik o'tmishga ega ekanligini ko'rsatadi, albatta.

Avestoda Boxtar (Bahdi) «bayroqlari (doim) baland hilpirab turadigan», ya'ni shon-shavkat o'lkasi sifatida tilga olinadi. Uni boshqargan qadimgi siyosiy sulolalar to'g'risida hozircha biron-bir ilmiy xulosa qilish qiyin bo'lsa-da, bu boradagi mavjud afsonalardan boxtarlik hukmdorlar, ularning kuch-qudrati o'z zamonasidayoq mashhur va ma'ruf bo'lganini bilib olish mumkin. Chunonchi, Ktesiyning¹ ashshuriyalik podshoh Ninning² Buxtarga 1 700 000 piyoda, 210 000 otliq, 10 000 dan ortiq jang aravasi bilan harbiy yurishi va u yerlik ayol Semiramidaga³ uylanishi, boxtarlik podsho Oksiartning qarshilik ko'rsatishi, o'lka egallangach, u yerdagi xazinadan ko'plab oltin va kumushning qo'lga kiritilishi bilan bog'liq to'qimasifat ma'lumotlar ushbu hududdagi davlatchilik munosabatlari ham 1-ming yillikning birinchi yarmi o'rtalaridayoq shakllanib bo'lganini bilvosita tasdiqlaydi.

¹ *Ktesiy* (taxminan, miloddan oldingi 441 yil – IV asr boshlari) – yunon tarixchisi.

² *Nin* – yunon afsonalarida Babil hukmdori, Heraklning nabirasi.

³ *Semiramida* – taxminan, miloddan oldingi 811–805 yillarda Ashshuriyani boshqargan malika Shomuromat.

Miloddan oldingi II asrga tegishli ilk yozma manbalar ushbu pallada vodiydagi davlatchilik munosabatlari to'liq shakllanib bo'lganidan darak berishdan tashqari, ularning o'tmishiga ham ko'z tashlash imkonini beradi. Arxeologiya faniga esa Farg'onada miloddan oldingi VIII–VII asrlarda vohalari davlatlari paydo bo'lganini tasdiqlamoqda.

Miloddan oldingi I-ming yillikning o'rtalari kishilik tarixida ahamoniylar saltanati¹ barpo bo'lishi bilan ajralib turadi. Kuch ishlatish orqali turli xalqlar va mamlakatlarni yagona siyosiy markaz ostida birlashtirish hollari ilgari ham yuz berib turgan. Biroq eronlik ushbu sulola ilk bor Osiyo, Yevropa va Afrika qit'alaridagi qator hududlarni bosib olish va ularni o'z boshqaruv tizimiga solishga erisha olgan. Mazkur jarayonning biz uchun ahamiyati uning o'zbek davlatchiligi o'zining izchil rivojlanish yo'liga tushib olgan tarixiy pallada yuz bergani bilan belgilanadi.

Miloddan oldingi I-ming yillikning ikkinchi choragida Eron yurti Midiya podshohligi² tasarrufida bo'lgan. Miloddan oldingi 550-yili fors urug'laridan bo'lmish Kurush II³ Astiagni⁴ yengib, o'zi taxtni egallagach, qisqa vaqt ichida Old Osiyodagi qator davlatlarni bo'ysundirgan. Miloddan oldingi 538-yili u Bobilni⁵ egallagan. Kurush II o'z saltanati hududlarini kengaytirish maqsadida harbiy yurishlar uyushtirib, birin-ketin qo'shni davlatlarni bosib oladi va shu tariqa O'rta dengizdan Hindistongacha bo'lgan o'lkalarni bo'ysundiradi.

Girkaniya va Parfiya⁶ egallangach, uning qo'shinlari Turon o'lkasining janubi bo'lmish Boxtar ostonasida paydo bo'ladi. Boxtarliklar va ahamoniylar o'rtasidagi urush-talashlarda goh bir tomon, goh ikkinchi tomonning qo'li baland kelib turgani bilan, oxir-oqibat, oldiniga boxtarliklar, so'ng Marg'iyona⁷ va Sug'd⁸ ahli ham dushmanga taslim bo'ladi. Yozma man-

¹ *Ahamoniylar saltanati* – ahamoniylar sulolasi tomonidan asos solinib, miloddan oldingi 550–329 yillarda hozirgi Yunoniston va Liviyadan Hindistongacha bo'lgan ulkan hududda faoliyat ko'rsatgan qadimgi davlat.

² *Midiya* – hozirgi Eronning g'arbida joylashgan, 670–550 yillar oralig'ida mavjud bo'lgan qadimgi davlat.

³ *Kurush II* (Kir II, Kayxusrav) – miloddan oldingi 558–530 yillarda ahamoniylar sulolasi yetakchisi.

⁴ *Astiag* – Midiyaning miloddan oldingi 585–550 yillarda hukmronlik qilgan so'nggi podshosi.

⁵ *Bobil* – Ikkidaryo oralig'ining janubidagi tarixiy o'lka.

⁶ Kaspiy dengizi janubi va sharqidagi hududlar.

⁷ *Marg'iyona* – Turkmanistonning Marv viloyati hududlari.

⁸ *Sug'd* – O'zbekistonning Zarafshon vodiysi va Qashqadaryo vohalari, hamda Tojikistonning yuqori Zarafshon hududlarida mavjud bo'lgan qadimiy tarixiy madaniy o'lka.

balarga qaraganda, Kurush II o'z qo'shinlari bilan Sirdaryogacha borgan va u yerda Kurushkada¹ shahrini bunyod etgan.

Shundan keyin Kurush II Buxtarning shimoli-sharqida yashaydigan saklarga² qarshi qo'shin tortgan va ularning shohi Amorgni³ asir olgan. Bundan xabar topgan malika Sparetra⁴ katta qo'shin to'plab, ahamoniylar qo'shiniga hujum qiladi va ularga katta talafot yetkazishi natijasida Kurush II ni sulh tuzishga majbur etadi, Amorg ozod etiladi.

Mintaqaning shimoli-g'arbiy hududlarida yashaydigan massaget⁵ qavmini ham bo'ysundirish istagi Kurush II ga o'ta qimmatga tushgan. Kaspiy dengizidan sharqda, Xorazm vohasiga yaqin va Sug'dning g'arbida joylashgan katta va qudratli urug'lar siyosiy uyushmasi bo'lgan massagetlarni bo'ysundirish ahamoniylar hukmdori uchun ikki jihatdan muhim edi. Birinchidan, saltanatning sharqiy chegaralarini kengaytirish orqali o'z mavqeyini yanada yuksaltirib, shimoldagi boshqa sak urug'lariga bosim o'tkazish imkoni tug'ilardi. Ikkinchidan, massagetlarni bo'ysundirib, ko'ngli xotirjam bo'lgachgina, Misrga mo'ljallab qo'ygan muhim harbiy yurishni bexavotir amalga oshira olar edi.

O'z niyatiga erishish uchun Kurush II ning massagetlar malikasi Tomir xotun⁶ qoshiga elchi qo'yib, unga uylanish niyati borligini bildirganida ham bo'lajak Misr yurishi omilining ehtimoli baland tuyuladi. Negaki, u shu tariqa bir o'q bilan ikki nishonni urgan bo'lar edi – ham massagetlarni bo'ysundirardi, ham qo'shinida yo'qotishlarga yo'l qo'yilmasdi. Mazkur «sovchilik»

¹ *Kurushkade (eski yunonchada Kxspertlyt)* – Kurush II tomonidan qurilgan tarixiy shahar; hozirgi Tojikistondagi Istravshan (O'ratepa) shahri hududidagi Havotog'da joylashgan Nurtepa yodgorligi.

² *Saklar (shaklar)* – miloddan oldingi I ming yillikda Turon yerlarida yashagan yarim ko'chmanchi va ko'chmanchi aholi; mashhur arshakiylar sulolasi asoschisi Arshakning nomi Er + shak, ya'ni shaklar hukmdori ma'nosini bergan.

³ *Amorg* – miloddan oldingi VI–V asrlarda saka-xaumavarka qabilalari lashkarboshchisi.

⁴ *Sparetra* – Kurush II ga qarshi kurashgan saka-xaumavarkalarning malikasi.

⁵ *Massagetlar* – Dastlab Volga bo'ylaridan to Oltoy etaklarigacha yashagan, so'ng Amudaryo bo'ylarida o'troqlashgan yirik qabilalar uyushmasi.

⁶ *Tomir xotun (miloddan oldingi 570–520 yillar)* – Tomir xotun haqida guvohlik bergan yunon manbalarida Τόμρις shaklida yozilgan va keyinchalik boshqa tillarga Tomiris ko'rinishida o'tgan; yevropalik olimlar o'ylashlaricha, mazkur ism eski avestochadagi Tahma-Rayis atoli otidan yunonchalatib olingan; turkiyalik izlanuvchilar esa, Τόμρις dan eski yunonchadagi iç qo'shimchasini chiqarib tashlash orqali Τόμρις ni «temir» atamasi bilan bog'lab keladilar; mashhur o'zbek olimi, eski turkiy tillar bilimdoni, tarix fanlari doktori Qozoqboy Mahmudov xulosasiga ko'ra, massagetlar malikasining ismi aslida Tomir bo'lgan, eski yunoncha iç qo'shimchasi tirkalishi bilan Τόμρις ga aylangan.

ostida qanday maqsad borligini, ya'ni Kurush II ga o'zi emas, balki yurti kerakligini tushungan oqila ayol tabiiy ravishda rad javobini bergan.

Bu hiylasi ish bermagan fors hukmdori boshqasini qo'llagan: Amudaryoni kechib, bir kunlik yo'lni bosib o'tgan va harbiy qarorgoh tiklab, u yerda oz-roq qo'shin, ancha-muncha may qoldirib, ortga – daryo bo'yiga yolg'ondan chekingan. Massagetlar shahzodasi Spargapis¹ buning qopqonligidan bexabar, mazkur o'rdaga hujum qiladi va u yerdagilarning barchasini qirib tashlaydi. Keyin esa, o'sha erning o'zida askarlari bilan ziyofat uyushtirgan va aftidan, ko'p ichilgan may ta'sirida barchasi uxlab qolgan. Shuni kutib turgan Kurush II qo'qqisdan hamla qilib, massagetlar qo'shinining bir qismini o'ldirgan, bir qismini, jumladan, Spargapisni ham asir olgan. Hushiga kelgan shahzoda chuv tushganini anglashi bilanoq oriyati qo'zib, o'zini o'zi o'ldiradi.

Bundan xabar topgan Tomir xotun katta qo'shin to'playdi va: «Quyosh nomi bilan ont ichamanki, sen yeb to'ymasni qonga to'ydiraman», deb yovga qarshi o'tlanadi hamda «yengilmas» nomini qozongan ahamoniylarni tor-mor keltiradi. Miloddan oldingi 530-yili yuz bergan ushbu jangda kishilik tarixida birinchi saltanat asoschisi bo'lmish Kurush II ham o'ldirilgan. Tomir xotun so'zining ustidan chiqqan: uning jasadini toptirib, boshini oldirgan va qon bilan to'ldirilgan meshga soldirib, quyidagi so'zlarni aytgan: «Sen ustingdan g'alaba qozongan mening o'g'limni hiyla bilan qo'lga olib, nobud etding. Men esa aytganimdek, seni qonga to'ydiraman».

Kurush II dan keyin taxtga o'tirgan Kambiz II² hukmronligi davrida ham ahamoniylarga qarshi qo'zg'olonlar bo'lib turgan. Bosqinchilarga qarshi isyon tug'lari Doro I³ zamonida ham tinmagani ma'lum. Chunonchi, miloddan oldingi 522-yilning 10 dekabrda Marg'iyonada Frada boshchiligida qo'zg'olon boshlangan. Doro I ning buyrug'iga binoan mazkur viloyatga yetib kelgan Dadarshish⁴ qo'zg'olonchilarning qattiq qarshiligiga qaramay, uni shafqatsizlarcha bostirishga muvaffaq bo'lgan. Qo'zg'olonchilardan 55 mingdan ortiq kishi o'ldirilgan. Asir olinganlar soni 6 500 dan oshgan. Qo'zg'olonchilar sardori Frada ham asir olingan va bir yildan so'ng qatl etilgan. O'ldirilgan va asir olinganlarning soniga qaraganda, Marg'iyona qo'zg'oloni tom ma'noda xalq isyoni bo'lgan.

¹ *Spargapis* – Tomir xotunning o'g'li.

² *Kambiz II* – miloddan oldingi 530–522-yillarda ahamoniylar sulolasi yetakchisi; Kurush II ning to'ng'ich o'g'li.

³ *Doryush I (Doro I)* – miloddan oldingi 522–486-yillarda ahamoniylar sulolasi yetakchisi.

⁴ *Dadarshish* – ahamoniylarning Buxtardagi voliyisi; Doryush I ning qarindoshi bo'lgani haqida taxminlar bor.

Bihustun qoyatoshidagi bitiklar¹ bosqinchilarga qarshi kurash keyinchalik ham tinmaganidan guvohlik beradi. Shu o'rinda, Doryush I ning miloddan oldingi 518 yili o'tkir uchli qalpoq kiyadigan saklarga² qarshi uyushtirgan yurishlariga oid mana bu ma'lumot diqqatga sazovor. «Doryush shoh aytadi: So'ngra men qo'shin bilan saklar o'lkasi tomon yo'l oldim. So'ng o'tkir uchli qalpoq kiyadigan saklar (menga qarshi) urush qilish uchun oyoqqa tushdilar. So'ng men daryoga yetib bordim va butun qo'shinim bilan uni kechib o'tdim. So'ng men saklarning bir qismini o'ldirdim, bir qismini esa asir oldim. Ularning Skunxa³ ismli sardorini qo'lga tushirib, huzurimga keltirdilar. Men o'zim istagan boshqa bir (sakni) ularga boshliq qilib qo'ydim. Shu tariqa mamlakat meniki bo'ldi».

Hujjatli tilda hamda ahamoniylar hukmdori foydasiga bitilgan mazkur voqeani Polien⁴ ancha yorqin bayon etgan. Chunonchi, kelib chiqishi saklardan bo'lmish, otboqar Shiroq sak urug'lari boshliqlari Saksfar⁵, O'marg⁶ qoshiga keladi va agar uning bolalari, umuman, yetti pushtini uy hamda mol-dunyo bilan ta'minlashga so'z bersalar, fors qo'shinini qirib tashlashini aytadi. Saklar yetakchilari unga bu borada ont ichishlari bilanoq, u qo'ynidan pichoq olib, burni va quloqlarini kesib tashlaydi, badanining boshqa joylarini ham tilib, Doro I huzuriga sak hukmdorlari uni shu ahvolga solganlaridan arz qilib boradi. Shiroqning ahvolini ko'rgan ahamoniy arbob uning, ayniqsa, saklar erta tunda yo'lga tushadilar, men yilqi boqaman, bu yerlarni besh barmog'imdek bilaman, sizlarni qisqa yo'ldan boshlab, ular mo'ljalidagi makonga oldinroq etib olamiz va ularni qo'lga tushiramiz, qabilidagi so'zlariga ishonishadi.

Shu tariqa fors qo'shini yetti kecha-kunduz yo'l yurib, suvsiz va kimsasiz cho'lning o'rtasiga borib qolganida, mingboshi Ranosbat chuv tushilganini payqagan va Shiroqdan «Buyuk shohni aldab, forslarning ko'p sonli qo'shinini bunday suvsiz, qush uchmaydigan, tirik jon ko'rinmaydigan, na oldinga yurish va na ortga qaytish mumkin bo'lmagan cho'lga etaklab kelishingning sababi ni-

¹ *Bihustun bitiklari* – miloddan oldingi 523–521-yillarda Doryush I farmoni bilan qadimgi fors, elam, akkad tillarida mixxat bilan yozilgan yodgorlik.

² *Uchli qalpoq kiyadigan saklar (sakatigraxuda)* – Sug'dning shimoli-g'arbida, Orol dengizigacha bo'lgan hududlarda yashagan sak qabilalari.

³ *Skunxa* – saklarning ahamoniylarga asir tushgan podshosi; siymosi Bihustun yodgorligi bo'rtmasida aks ettirilgan.

⁴ *Polien* (miloddan oldingi II asr) – yunon tarixchisi.

⁵ *Saksfar* – sak qabilasi sardori.

⁶ *O'marg* – sak qabilasi sardori.

mada?» – deb so‘ragan. Shiroq esa qarsak chalib va baland ovozda kulib, mana bu javobni bergan ekan: «Men g‘alaba qozondim, chunki yurtdoshlarim saklarni asrab qolish uchun forslarni suvsizlik va ochlikdan halok qilmoqdaman».

Xuddi Kurush II bilan bo‘lgan jangdagi kabi bu safar ham ahamoniylar qo‘shini botir va erksevar saklardan katta talafot ko‘rgan. Doryush I ning o‘zi esa baxtli tasodif sabab o‘limdan qutulib qolib, ne-ne qiyinchiliklar bilan bo‘lsa-da, poytaxtiga yetib olgan.

Turon ahlida ahamoniylarga bo‘ysunmaslik ruhi keyin ham so‘nmaganiga oid dalillar yetarlidir. Buni biz boxtarliklar va saklarning o‘z otalariga qarshi isyon ko‘targan Ariamen va Masistani qo‘llab-quvvatlaganlarida ham ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek, miloddan oldingi 465-yili Artakserksning¹ taxt uchun kurashida boxtarliklar o‘z hukmdori Gistaspni qo‘llaganlar.

Miloddan oldingi IV asrda ahamoniylar davlatidagi siyosiy beqarorlik va saltanatning uzoq bir chekkasida joylashganligidan foydalanib, Xorazm o‘z mustaqilligini tiklashga erishadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy hayot. So‘z yuritilayotgan davr ijtimoiy turmushi haqidagi ma‘lumotlar ham juda kam. Avestoga ko‘ra, yer alohida oilalardan (nmanya) iborat urug‘ jamoasiga tegishli bo‘lgan va ular yerga birgalikda egalik qilganlar. Urug‘lar jamoasi asosida qabilalar (zantu) tashkil topgan. O‘z navbatida, qabilalar uyushmasi o‘lka-viloyatni tashkil etgan. Ularning nomlari – jami 16 ta o‘lka Avestoda tilga olinadi, jumladan, odamlar uchun ilk muqaddas makon go‘zal Aryanam Vaejo‘, go‘zal va farovon sug‘diylar yashaydigan Gava, go‘zal, qudratli va pokiza Mauri (Marg‘iyona), go‘zal, farovon, tug‘lari baland Baxdi (Boxtar)... Mazkur kitobda Xorazm, Sug‘d, Marg‘iyona va Boxtar birinchilar qatorida qayd qilingani e‘tiborga molik.

Hujjatlarda davlat xazinasiga soliq majburiyati sifatida dehqonchilik mahsulotlarini topshirgan aholi vakillarining ro‘yxati, ibodatxonalar xo‘jaligidan chorva, un, hunarmandchilik buyumlari alohida shaxslarga berilganligi haqidagi ma‘lumotlar, xonadonlar ro‘yxati va shaxslar ismlari qayd etilgan hamda Avestodan ma‘lum xudolar nomlari, Amudaryoning homiysi, ilohiy «Vaxshu» va boshqa ma‘lumotlar keltirilgan. Xorazm aholisining asosiy qismini dehqonlar, hunarmandlar, binokorlar, savdogarlar va turli ishlar bilan band bo‘lgan xizmatchilar tashkil etgan. Tuproqqal‘ada topilgan hujjatlarda xonadonda yashovchi oila a‘zolari tilga olinib, ularga tegishli qullarning ismlari ham keltirilgan. Uy egasi, uning xotini, onasi, o‘g‘li va kuyovining

¹ Artakserks – miloddan oldingi 465–442 yillarda ahamoniylar sulolasi yetakchisi; Kserks I ning kichik o‘g‘li.

shaxsiy qullari sanab o'tilgan. Hujjatlarga ko'ra, ba'zi xonadonlarda ozodlar bilan birga 20 dan ortiq qullar yashagan. Mazkur hujjatlarni aholining ro'yxatga olinishi jarayoni bilan bog'lash mumkin, ikkinchidan jang qilishga qobil erkaklarni aniqlash jarayoni ham ehtimoldan xoli emas.

Xorazmda ibodatxonalar mavqei baland edi. Ular jamoasi kohinlar va xizmatchilardan iborat bo'lib, o'z yer mulklari, chorva podalari va hunarmandchilik ustaxonalariga egalik qilgan. Kohinlar o'qimishli bo'lib, ularsiz biron-bir jiddiy ish boshlash mushkul edi. Kohinlar dehqonchilik ishlarini boshlash, hosilni yig'ishtirib olish muddatini aniq bilganlar. Diniy marosimlar jarayonlarini kohinlarsiz tasavvur qilish qiyin, shuningdek, ular davlat boshqaruvida faol ishtirok etganlar.

Tuproqqal'adagi saroyning xorazm tilida bitilgan hujjatlarida aholidan olingan soliq tushumlari ro'yxati ifodalangan. Soliq g'alla, un, yog', chorva, hunarmandchilik buyumlari va chog'ir bilan to'langan.

Ahamoniylar o'zlari bosib olgan yerlarni ma'muriy-harbiy birlik – satraplikka bo'lib boshqarganlar. Satraplikka noib shoh tomonidan va hukmron sulolaga mansub kishilar orasidan tayinlangan. Ular ham harbiy, ham fuqarolik hokimiyatini boshqarganlar. Boshqacha aytganda, mutlaq hokimiyat egasi sanalganlar. Noib zimmasiga birinchi galda aholidan o'z vaqtida soliqlar undirish va qo'shin to'plash vazifasi yuklatilgan.

Boxtar 12-satraplik hisoblanib, ahamoniylar g'aznasiga yiliga 360 talant¹ soliq to'lagan. 15-satraplikka kirgan sak va kaspiylar bo'ynida 250 talant bo'lgan. Parfiyaliklar, xorazmiylar, sug'diylar va oriylar 16-satraplikni tashkil etganlar va 300 talant to'lashlari kerak edi. Soliqlar to'lovini tizimli qilish maqsadida Doro I oltin tanga (darik) zarb qilishni yo'lga qo'ygan. Bir darik (8,4 gramm) 20 ta kumush tangaga teng bo'lgan. Bir kumush tanga (sikl) 5,6 gramm og'irlikka ega bo'lgan. Oltin tangani faqat shoh zarb qilishi mumkin edi. Kumush tangalarni esa satraplik noiblari ham bosa olganlar.

Ko'rinib turganidek, Turondagi boshqa satrapliklarga qaraganda, Boxtar satrapligi saltanat g'aznasiga eng ko'p soliq to'lagan. Demak, uning iqtisodiy salohiyati ham ancha yuqori bo'lgan. Forslar soliqlardan ozod etilganlari va o'lkalardan keladigan soliqlar evaziga yashaganlariga hamda ahamoniylar hukmronligi davrida Turonda o'ziga xos yana bir soliq turi – suv omborlaridagi suvdan foydalanganlik uchun to'lov kiritilganiga ham urg'u berish lozim. Umuman aytganda, bosqinchilar qaram o'lkalardagi har qanday boylikni o'zlashtirishdan toymaganlar. O'z yurtlarida qurdirgan ko'plab hashamatli saroylar, ibodatxonalar, maqbaralar va boshqa ma'muriy binolarni be-

¹ Talant – 25,2 kg oltin yoki 33,65 kg kumushga teng og'irlik o'lchovi.

zash uchun Boxtar, Sug'd va Xorazmdan oltin, lojuvard, haqiq, firuza va qizil temirtosh kabi qimmatli toshlarni tashib ketganlar.

Dehqonchilik va sug'orish tizimi. Turonning miloddan oldingi VI–IV asrlar iqtisodiy hayotining asosi dehqonchilik bilan bog'liq bo'lgan. Aholi shu vaqtgacha o'z dalalarini sug'orish uchun asosan katta-kichik soylardan chiqarilgan ariqlar va buloq suvlaridan foydalanib kelgan. Bir tomondan, bevosita dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi aholining ko'payishi, ikkinchi tomondan, chorvador urug'lar ma'lum qismining o'troqlashuvi suvga bo'lgan ehtiyojni yanada orttirgan. Shu munosabat bilan tug'ilgan muammoning yagona yechimi esa katta soy va daryolardan katta-kichik ariqlar chiqarish orqali sun'iy sug'orish tizimini joriy qilishni taqozo etgan.

Albatta, bunday sug'orish tizimini yaratish katta ishchi kuchidan tashqari, ulkan moliyaviy mablag'ni ham taqozo etgan. Qazilayotgan ariqning katta-kichikligiga qarab bunday inshootlar mahalliy yer egalari, noiblar tomondan moliyalashtirilganini taxmin qilish mumkin. Tabiiyki, noiblar bunday inshootlar qurilishidan manfaatdor bo'lganlar. Chunonchi, ariqlar suvidan foydalanganlik uchun soliq undirganlar. Herodotning¹ guvohligiga ko'ra, Murg'ob daryosining beshta irmog'i oqib o'tadigan tog'li daralarda ahamoniylar yetakchisi buyrug'iga ko'ra to'g'onlar qurilgan va suv yo'li to'silishi oqibatida tog'lar o'rab turgan vodiya sun'iy ko'llar paydo bo'lgan. To'g'on eshiklari faqat bosqinchi hukmdor buyrug'iga binoangina ochilgani sabab yozning qattiq issiq kunlari dehqonlar bola-chaqalari bilan Eronga borib, shoh saroyi oldida dod-voy solganlaridan keyingina, oliy farmonga ko'ra to'g'on eshiklari ochilgan va dalalarga suv borgan. Biroq buning uchun ahamoniylar g'aznasiga kattagina pul undirilgan. Boshqacha aytganda, yillik to'lanadigan soliqlardan tashqari, suvni sotib pul qilganlar.

Tadqiqotlarga qaraganda, eng katta ariqlar Amudaryo va Sirdaryoning quyi oqimlarida, qadimgi Xorazm vohasida bunyod etilgan. Mana shunday ariqlardan biri Ko'zaliqir shahri yaqinida qazilgan bo'lib, kengligi 40 metrga yaqin edi. Vohadagi eng katta ariq izlari Kunyauazda (Ko'hna hovuz) aniqlangan bo'lib, uning uzunligi 50 km gacha cho'zilgan. Ariqning bosh qismida murakkab tuzilishdagi to'g'onlar qurilgan va qadimgi suvchilar shu yerdan turib ariqdagi suv hajmini nazorat qilganlar.

Zarur suv miqdori bilan yil mobaynida serhosillikni ta'minlash, ariq o'zamlari oqib turishi uchun bahor mavsumidagi sug'orish inshootlarini tozalash ishlari jamoalarning muhim hayotiy vazifasiga aylangan. U qadimgi davrdan boshlab davlat va jamoatchilikning burchi hisoblangan.

¹ Herodot – miloddan oldingi 484–425-yillarda yashagan yunon tarixchisi.

Yirik ariqlar Sug'dda ham qazilgan. Jumladan, Bulung'ur arig'ining bosh inshooti Zarafshon daryosining o'ng qirg'og'ida joylashgan. Bulung'ur arig'i bo'yidagi eng yirik shahar xarobasi yuqorida tilga olingan Ko'ktepa sanaladi.

Sug'ddagi bu davrlarga oid yirik ariqlardan yana biri Darg'om arig'idir. V asrda qazilib, Samarqand va unga tutash hududlarni sug'organ bunday yirik ariqlarni barpo etish, ularning loyihasini tayyorlagan odamlardan bir qancha fan yo'nalishlari, xususan, geologiya, geografiya, matematika va boshqalar bo'yicha chuqur bilimlarni talab etgan. Demak, bunday loyihalar mualliflari o'z zamonasining beruniylari, xorazmiylari bo'lganlari shubhasiz.

Daryolardan chiqarilgan mayda ariqlar esa hamma viloyatlarda mavjud bo'lgan. Surxon vohasidagi Hayitobodtepa o'rnidagi shahar Surxondaryodan chiqarilgan ariq tufayli gullab-yashnagan. Shuningdek, Qubodiyon vohasi Kofimihon daryosidan, Vaxsh vohasi esa Vaxsh daryosidan chiqarilgan Balday arig'i orqali sug'orilganini ta'kidlash joiz.

Ekin maydonlarining kengayishi, o'z navbatida, yerga ishlov beruvchi qurollarning ham ko'payishini taqozo etgan. Bu davr yodgorliklaridan temir o'roqlarning ko'plab topilishi buning yorqin dalilidir. Dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi aholi turli boshqali o'simliklarni yetishtirishdan tashqari, bog'dorchilik bilan ham shug'ullangan. Xo'jalikda uzum yetishtirish alohida o'rin tutib, undan may ham tayyorlangan. Yozma manbalarda shohlarga to'lanadigan soliqlarning ma'lum qismi chog'irdan iborat bo'lgani aytiladi. Niso¹ shahridan topilgan, miloddan oldingi I asrlarga oid hujjatlardagi ma'lumotlar shundan dalolat beradi.

Turon dehqonlari turmushida chorvachilikning o'rnini ham ancha katta bo'lgan. Ayniqsa, qoramollar yetishtirish, zotdor otlarni ko'paytirish, naslchilikka katta e'tibor qaratilgan. Qolaversa, turkiy xalqlar orasida ot hamisha e'zozlanib, hukmdor, amaldor, chet ellik nozik shaxslarga eng ulug' va qimmatli sovg'a sifatida ot tortiq qilinganligi shundan. Farg'onaning mashhur «uchar» otlari butun dunyoga mashhur bo'lganligi manbalarda qayd etilgan.

Hunarmandchilik. Miloddan oldingi VI–IV asrlarda Turonning iqtisodiy hayotida hunarmandchilik tez sur'atlar bilan rivojlanib borganini ko'zga tashlanadi. Xususan, bu davrga xos sopol idishlarning asosiy qismi kulolchilik charxida tayyorlangan bo'lib, ular maxsus xumdonlarda pishirilgan. Mazkur idishlar o'zining bejirim shakli va yuqori sifati bilan ajralib turadi: ularning yuqori qismi silindrsimon, pastki qismi konussimon shaklga ega. Bunday

¹ Niso – Turkmaniston poytaxti Ashxobod shahridan 18 km shimoli-g'arbda joylashgan shahar xarobasi.

sopol idishlar butun Turon bo'ylab keng tarqalgan. Ular Afrosiyob, Ko'ktepa, Yerqo'rg'on, Balx, Qiziltepa, Taloshkontepa, Hayitobodtepa, Jondavlattepa, Qubodiyon, Qo'rg'onliqir, Ko'zaliqir, Dingilja, Yoztepa, Erkqo'rg'on, Gyayurqo'rg'on kabi qator shahar va qishloqlarda ko'plab topilganligi buning dalilidir.

Bu davrda hunarmandchilikning toshyo'narlik, konchilik, qurolsozlik va zargarlik sohalari ham yaxshi rivojlangan. Amudaryo xazinasidan¹ topilgan buyumlarga qaraganda, metalga badiiy ishlov berish yuqori saviyada bo'lgan.

Xorazm hunarmandchiligi (kulolchilik, to'qimachilik, metalga ishlov berish, taqachilik, qurol-yarog'lar ishlab chiqarish, zargarlik va boshqalar) ichki va tashqi savdo-sotiq ehtiyojlarini qoniqtirgan. Shaharlarda mahsulot ayirboshlashning hunarmandchilik va dehqon xo'jaligi o'rtasida, dehqonlar va chorvachilar o'rtasida hamda viloyatlararo mahsulot ayirboshlash rivojlangan. Iqtisodiy voaha-tumanlardan olib kelingan tovar mahsulotlari savdo markazlarida to'planib, ulardan karvon yo'llariga olib chiqilgan.

Xorazmdagi qadimiy uy-qo'rg'onlarning atroflaridagi bog'lar, tokzorlar va dala-sug'orish yerlari keng maydonlarga ega bo'lgan. Xorazmliklar bug'doy, arpa va tariq ekib, bog'dorchilik bilan ham shug'ullanganlar. Manzilgohtar atrofida ekin maydonlari 200–250 gektarni tashkil etib, tokzorlar ham keng dalalarni egallagan, chog'ir ishlab chiqarishga katta ahamiyat berilgan. Ayrim qishloq xo'jalik omborxonalaridagi katta xumlarda ko'p miqdorda vino saqlangan. Uning asosiy qismi tashqi savdoga mo'ljallangan. Shuningdek, alohida qo'rg'onlar dehqonchilik mahsulotlarini saqlash omborxonalari vazifasini bajargan.

Xorazm vohasida o'troq aholi va chorvador-ko'chmanchilar o'rtasidagi o'zaro savdo muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Dashtlardan dehqonlar vohalariga chorva, go'sht, teri va jun mahsulotlari olib kelingan. Ko'chmanchilar bilan savdo aloqalari ta'sirida ayrim joylarda, odatda voaha va dasht hududlari chegaralarida mavsumiy bozorlar tashkillashtirilgan.

Shaharlar va shaharchilik. Dehqonchilik, hunarmandchilik va tovar ayirboshlashning taraqqiy topishi ko'plab shahar, qo'rg'on, qishloqlarning paydo bo'lishi va gurkirashiga mustahkam asos yaratgani tabiiy. Buxtarning

¹ Amudaryo xazinasini 1877-yili Buxoro amirligining Qubodiyonida topilgan bo'lib, Buxoro savdogarlari ularni Hindistonda sotish maqsadida mahalliy aholidan sotib olganlar; hozir ular Londonning Britaniya muzeyida saqlanadi.

poytaxti Bixtar, Sug'dning markazi Afrosiyob, Marg'iyonaning poytaxti Erkqo'rg'on, Xorazmning markazi Qo'rg'onliqir o'z zamonining yirik shaharlari hisoblangan.

Bixtar shahrining maydoni 120 gektarga yaqin, Afrosiyob shahrining maydoni esa 200 gektardan ortiq bo'lgan. Bu shaharlar mahobatli mudofaa devorlari bilan o'ralib, ikki qismdan, ya'ni shahar qo'rg'oni va shahristondan tashkil topgan. Ma'lum masofada mudofaa devorlari maxsus burjlar bilan mustahkamlangan. Odatda, shahar qo'rg'onida hukmdor saroyi joylashgan. Poytaxt shaharlardan tashqari muayyan vohalarning bosh shahri va ularning ma'muriy markazi vazifasini bajargan o'rta va kichik shaharlar ham bo'lgan. Samarqand vohasidagi Ko'ktepa, Qashqadaryoning yuqori oqimidagi Uzunqir, quyi oqimidagi Erqo'rg'on, Buxoro vohasidagi Buxoro va Bixtar o'lkasidagi Bixtar shunday shaharlar jumlasiga mansub.

Shaharchilikning yuqori darajada rivojlangani Surxondaryo viloyati misolida yaqqol o'z ifodasini topgan. Surxondaryoning yuqori qismidagi Qiziltepa yodgorligi, o'rta oqimida joylashgan Hayitobodtepa, Sherobod vohasidagi Jondavlattepa va Bandixon II shular jumlasidandir.

Qiziltepaning umumiy maydoni 20 gektardan ortiq bo'lib, u uch qism – qo'rg'on, shahriston va rabotdan iborat. Shahar atrofida boy dehqonlarning qo'rg'onlari va oddiy uy-joylar joylashgan. Qiziltepa makedoniyalik Aleksandr¹ bosqiniga qadar Shimoliy Bixtarning eng katta shahri hisoblanib, u siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy markaz vazifasini bajargan.

Hayitobodtepa qo'rg'on va shahristondan iborat bo'lib, 7 gektarga yaqin maydonni egallagan va mustahkam mudofaa devorlari bilan o'ralgan. Hayitobodtepa va Jondavlattepa uncha katta bo'lmagan dehqonchilik vohalarining ma'muriy va iqtisodiy markazi vazifasini bajargan. E'tiborli tomoni shundaki, agar Qiziltepa makedoniyalik Aleksandr yurishlaridan keyin qayta tiklanmagan bo'lsa, Hayitobodtepa va Jondavlattepa o'rtidagi shaharlar Yunon-makedon va kushoniylar² davrlarida ham yuksalishda davom etgan.

Surxon vohasida yuqorida qayd qilingan katta-kichik shaharlardan tashqari, alohida qo'rg'onlar ham mavjud bo'lgan. Shulardan biri Talashkontepa qo'rg'oni Amudaryo kechuvi va Jondavlattepa o'rtida joylashgan shahar ostonasida qurilgan harbiy istehkom vazifasini o'tagan. Bunday harbiy qo'rg'onlar tog'li o'lkalarda ham mavjud bo'lgan. Shulardan Yunon-Rim manbalarida

¹ Aleksandr (miloddan oldingi 356 – 323) – qator o'lkalarga, jumladan, Turonga bosqinchilik yurishlarini amalga oshirgan makedoniyalik sarkarda va hukmdor.

² Kushoniylar bo'yicha IV bo'limga qarang.

qayd qilingan Sisimifr, Xorien (Hisor tog'larida) va Gava Sug'da qo'rg'onlari e'tiborga molik. Tog'li o'lkalarda joylashgan bu qo'rg'onlar odatda Buxtarda va Sug'da aslzodalarining qarorgohlari vazifasini bajargan.

Surxon vohasidagi miloddan oldingi V–IV asrlarga oid Kuchuktepa va Pishaktepa yodgorliklari bu davrda Buxtarda shaharlar va shaharchilik madaniyati jadal sur'atlar bilan rivojlanganligidan guvohlik beradi.

Miloddan oldingi VI–V asrlarda xorazmliklar voha binokorligida paxsa va xom g'ishtdan foydalanganlar. Antik davrda odamlar o'rnatilgan joylar paxsa devorlar bilan o'ralgan hovli, uch-to'rt xonali uylar hamda yirik uy-qo'rg'onlardan iborat bo'lgan. Misol tariqasida, Angqaqal'a uy-qo'rg'onining tomonlari 75 metrga teng bo'lib, u baland mudofaa devor, to'g'ri burchakli burjlar va devor ichidagi o'q otish uchun mo'ljallangan yo'lak bilan mustahkamlangan.

Madaniyat va tasviriy san'at. Turonning miloddan oldingi VI–IV asrlarga oid san'at namunalarining tahlili bu davrda ikkita asosiy yo'nalish keng tarqalganidan dalolat beradi. Birinchisi – dehqonlar san'ati bilan bog'liq bo'lib, Amudaryo xazinasi va Taxtisangin yodgorligida¹ aniqlangan topilmalarda o'z ifodasini topadi.

Amudaryo xazinasi va Taxtisangin topilmalari orasida oltin yalpoqlar alohida o'rin egallaydi. Ularda kohinlar, sarkardalar, sovg'a etuvchilar tasvirlangan. Mazkur tasvirlar o'yma va chiziqli uslubda ishlangan. Ifoda etilgan qiyofalar nisbatan sodda ko'rinishda tasvirlangan bo'lsa ham, anchayin ta'sirchan. Qadimgi zargarlar har bir qiyofaning o'ziga xos shaklini mohirona ifoda eta olganlar. Qiyofalar qo'llarida gul, qurol yoki ibodatxonaga taqdim etilayotgan hayvonni ushlab turgan holda tasvirlangan. Bu tasvirlar ahamoniylar san'ati uslubida bajarilgan bo'lsa ham, ularda mahalliy buxtarda san'atiga xos xususiyatlar ko'zga tashlanadi. Oltin yalpoqlar bilan bir qatorda, Amudaryo topilmalari orasida oltin arava alohida o'rin tutadi. Topilmada odamlar va otlar sodda ko'rinishda tasvirlangan bo'lsa-da, ularning ifodaviyligi diqqatga sazovor.

Ikkinchi yo'nalish – «hayvonlar tasviri» bilan bog'liq bo'lib, ko'chmanchi qavmlarning hayot tarzi va diniy tasavvurlarini o'zida ifoda etadi. San'atdagi bu yo'nalish Yevroosiyo qit'asining bepoyon dasht va cho'llarida, shu jumladan, Turon mintaqasida ko'chib yurgan turli ko'chmanchi qavmlar orasida keng tarqalgan. Qadimgi o'ymakorlar turli hayvonlar qiyofasini yuksak ma-

¹ Taxtisangin – Shimoliy Buxtarda, Vaxsh daryosining o'ng qirg'og'ida, Panj daryosiga quyilishida joylashgan yodgorlik.

horat bilan aks ettirganlar. Tasvirlanayotgan qiyofalar umumiy manzara hosil qilsa-da, ulardagi har bir qiyofa o'ziga xos ko'rinishga ega bo'lib, harakatda ifoda etilgan bunday qiyofalar o'zining badiiy barkamolligi bilan ajralib turadi. Odatda bunday tasvirlar bilan xanjarlarning baldoqlari, qinlari, oltarning egar-jabduqlari, katta manqamchroblarning yuqori qismi va qozonlarning girdlari bezatilgan. Mana shunday qozonlardan biri Katta Farg'ona kanalini qazish davrida topilgan. Uning girdida to'rta tog' echkisi tasvirlangan. Bu odat qozonda tayyorlanayotgan ovqatni «yomon ko'zlardan saqlash» e'tiqodi bilan bog'liq ekanligi aytiladi. Mazkur uslubda ishlangan noyob topilmalar Amudaryo xazinasi tarkibida ham ko'plab mavjud. Mazkur noyob va betakror san'at durdonalari uzoq o'tmishda bu o'lkalarda yashagan xalqlarning etnik qiyofasi, kiyim-kechagi, urf-odatlar va e'tiqodi haqida muhim tasavvur beradi.

Ahamoniylar bosqini jarayonida Turondagi rivojlangan dehqonchilik madaniyatiga ega aholining cho'l hududlarida yashovchi ko'chmanchi urug'lar bilan o'zaro aloqalari yanada uzviylashdi va mustahkamlandi. Ular birgalikda bosqinchilarga qarshi kurash olib bordilar.

So'z ketayotgan davr Turon o'lkasiga oromiy yozuvning kirib kelishi va ular negizida xorazmcha, sug'dcha, boxtarcha yozuvlarning paydo bo'lishi bilan ahamiyatlidir. Zardushtiylik ta'limotining Eronga yoyilishi ham ayni shu bosqichda yuz bergan. Eng muhimi, ahamoniylar uni o'zlarining davlat dini maqomiga ko'tardilar. Shu tariqa, zardushtiylarning muqaddas kitobi Avesto ahamoniylar qo'l ostidagi yurtlarda keng tarqaladi. Turon xalqlari orasida keng tarqalgan xalq dostonlari esa O'rta Sharqdan o'tib Yunonistongacha yetib borgan.

Xorazm o'ziga xos xususiyatlarga ega badiiy madaniyat obidalari bilan ajralib turadi. Miloddan oldingi V-IV asrlar chegarasiga oid Elxaras ibodatxonasi devorlarida o'simlik va geometrik tasvirli naqshlar aniqlangan. Shuningdek, yodgorlikda loydan ishlangan haykallarning parchalari topilgan. Oqshaxonqal'a ibodatxonasining yo'lak devorlari rang-barang suratlar bilan bezatilgan, jumladan, alohida kishilarning portretlari diqqatga sazovordir. Ularning ayrimlarini boshida toj tasviri tushirilgan. Shu bois, mazkur portretlar «Xorazm noma'lum hukmdorlarning suratlar» deb atalgan.

Tuproqqal'a saroyining «Shohlar o'tog'i», «Jangchilar o'tog'i», «G'alabalar o'tog'i», «Bug'ular o'tog'i» deb atalgan alohida yirik xonalarida loy haykallar va devorlardagi kishilar, hayvonlar va qushlarning rangli suratlar bor. Tasviriy san'at namunalari diniy va dunyoviy manzaralar ifodalanib, ular jonli, yuksak badiiy madaniyat uslubida bajarilgan.

Tasviriy san'at obidalari ichida ko'p miqdorda uchraydigan sopol haykallari, odam yuzi tasviri aks etgan sopol niqoblar va sopol idishlar sirtida-

gi turli bo'rtma tasvirlar e'tiborga molik. Shuningdek, faqat Xorazm madaniyatiga oid tik turgan ayol haykali sifatida sopolan ishlangan suyak idishlar, sopol qutilarga o'xshash suyak idishlarning qopqog'ida o'tirgan holatda tasvirlangan ayol va erkaklarning haykallari hamda otni yoki tuyani minib o'tirgan chavandoz haykali shaklida yasalgan suyak idishlar betakror badiiy madaniyat namunalari hisoblanadi.

Dehqonchilik va hunarmandchilik, sug'orish tizimi hamda me'morchilikning keng miqyosda rivojlanishi amaliy bilimlar, yangi usullarni hayotga tatbiq qilishni talab etardi. Shu bois, Xorazmda astronomiya, geometriya, matematika kabi aniq fanlar asoslari taraqqiy topgan. Ikki qavatli baland Qo'yqirilgan qo'rg'on ibodatxonasidan koinot jismlarining harakatlari kuzatilgan. Astronomiya vazifalariga oid kuzatuv natijalari dehqonlar uchun katta ahamiyat kasb etgan. Ma'lumki, dehqonchilik ishlari, ekin ekish, ko'chat o'tkazish va hosil yig'ish mavsumlar yil fasllari almashuvi bilan uzviy bog'langan. Xorazmlik kohin-astronomlar, Misr kohinlari Nil toshqini vaqtini bilganlari singari, Amudaryo suv sathining ko'tarilishi vaqtini belgilab berganlar.

Samoviy hodisalarni tabiat hodisalari bilan bog'lash va qiyoslash natijasida Turonda dastlab zardushtiylik taqvimi vujudga kelgan. Uning asosida Sug'd va Xorazm taqvimlari tuzilgan. Taqvim yili 365 kun va 12 ta oydan iborat bo'lgan.

Miloddan oldingi V–IV asrlarda oromiy alifbosi harflari tizimiga asoslangan xorazm yozuvi shakllanadi. U 20 ta harfdan iborat bo'lib, sopol sirti, charm va yog'och taxtachalarga bitilgan. Xorazm yozuvi orqali muhim ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni, moddiy va ma'naviy madaniyatga oid tarixiy muammolarni o'rganish mumkin.

Xorazmda saroy va ibodatxonalar qoshida boshlang'ich maktablar mavjud bo'lishini taxmin qilish mumkin. Bu maktablarda bolalarni yozish va hisobga o'rgatganlar. Ikkinchi bosqichda o'spirinlardan xo'jalik va ma'muriy ish yurituvchi xattotlar tayyorlangani ehtimoldan xoli emas.

Xorazm vohasida zardushtiylik ta'limoti keng yoyiladi. Turli ma'lumotlar shundan dalolat beradi. Bular ichida zardushtiylarning dafn marosimlari bilan bog'liq suyak idishlar alohida ahamiyatga ega. Turonda eng qadimgi suyak idishlar Xorazmda topilgan.

Xorazmliklar yer, suv, havo va olovga sajda qilib, mazkur muqaddas unsurlarni qadrlaganlar. Vohada hosildorlik va otashparastlik marosimlariga oid yirik ibodatxonalar va olovgohlar topilgan. Ular shaharlar va alohida voha-tumanlar hududlarida joylashib, diniy marosimlarni amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega bo'lganlar.

III. YUNON-MAKEDON ISTILOSII

Yunon-makedonlar bosqini. Miloddan avvalgi 331-yil 1-oktabrda Gavgamel¹ yaqinida yuz bergan qonli jangda Doryush III² qo'shinlari makedoniyalik Aleksandr lashkari tomonidan tor-mor etiladi. Eron hukmdori urush maydonini tashlab qochadi. Bunday sharoitda uning yaqinlari mag'lub shohdan qutulish payiga tushadilar. Fitnaga saroy ahli o'rtasida obro'si ancha katta bo'lgan Bess³ rahbarlik qiladi. Qisqasi, eronlik g'alamislar Doryush III ni asir olib, so'ng qatl etadilar⁴. Bess Artakserks IV nomi bilan o'zini shoh, deb e'lon qiladi va qo'shin to'plash maqsadida o'zi noiblik qilib kelgan Boxtar o'lkasi tomon yo'l oladi.

Aleksandr ketma-ket Girkaniya va Parfiya viloyatlarini bosib olib, Ariyaga⁵ yaqinlashgach, uning noibi Satibarzan⁶ hali urushga tayyor emasligi bois Aleksandrga taslim bo'ladi. Makedoniyalik bosqinchi uni noib lavozimida qoldirib, o'zi Boxtarga jo'naydi. Fursatni g'animat topgan Satibarzan Artakoanda⁷ qoldirilgan makedoniyalik askarlarni qirib tashlaydi va Bess bilan birlashish taraddudiga tushadi. Ushbu vaziyatda Aleksandr sharq tomon yurishini to'xtatib, qo'zg'olonni bostirish uchun orqaga qaytishga majbur bo'ladi. Ariyaliklarning 3000 qo'shinini qurshab olib, ularning bir qismini qirib tashlab, qolganini qul qiladi.

Ariya va unga tutash hududlardagi isyonlarni bostirgan Aleksandr uchun nihoyat Boxtar o'lkasi bilan rosmana shug'ullanish imkoni tug'iladi. Bundan xabar topgan Bess Aleksandr qo'shinini ikkiga bo'lish maqsadida Sati-

¹ *Gavgamel* – hozirgi Iroqdagi Arbil shahridan shimoli-sharqda joylashgan qishloq.

² *Doryush III* – miloddan oldingi 336–300-yillarda ahamoniylar sulolasi yetakchisi.

³ *Bess* – Boxtar noibi.

⁴ Aniqrog'i, ular Doryush III tanasiga nayzalarni sanchib, qochib qolganlar. Makedoniyaliklar yetib kelganlarida, u hali tirik bo'lgan va ular qo'lida jon bergan. Aleksandr buyrug'iga ko'ra, ahamoniylarning so'nggi hukmdori izzat-ikrom bilan ko'milgan.

⁵ *Ariya* – hozirgi Afg'onistonning g'arbiga to'g'ri keladigan, markazi Hirot shahri bo'lgan tarixiy viloyat.

⁶ *Satibarzan* – Ariya noibi.

⁷ *Artakoanda* – Satibarzan o'miga Ariyani boshqargan noib.

barzanni 2000 otliq bilan Ariyaga jo'natadi. Shu tariqa, ariyaliklar yana yunon-makedonlarga qarshi bosh ko'taradilar. Qo'zg'olonni bostirish uchun kichik qo'shin yuborgan Aleksandr qishning sovuq kunlariga qaramay, asosiy qo'shini bilan Hindukush tog'laridan o'tib, Drapsak¹ qal'asini egallaydi.

Harbiy kuchi Aleksandrikiga qaraganda ikki marta kam (7000 va 14000) bo'lgan Bess ochiq maydonda jang qilishga jur'at etolmay, Amudaryodan o'tib Sug'dga chekinishga majbur bo'ladi.

Buni ko'rgan boxtarlik askarlar Bessni tashlab, uy-uylariga tarqab ketadilar. Negaki, Bess ham Boxtar o'lkasi ahli uchun



Aleksandr

asli begona edi. Natijada, Aleksandr miloddan oldingi 329-yilning bahorida katta qarshiliksiz avval Aorn qo'rg'oni², so'ngra Boxtar shahrini egallaydi.

Bessning Aleksandrga qarshi kurashlari deyarli hech qanday ijobiy natija bermagan bo'lsa ham, bu Turon yerlari bosib olinishini yarim yilga kechiktirdi. Qolaversa, ahamoniyalar qo'shini tarkibida bo'lgan turonliklar yunon-makedonlar qurol-yarog'i va hujum usullari bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo'ldilar. Bu esa keyinchalik, Sug'dda bo'lgan janglarda ularga qo'l keladi.

Fors Artabazni Boxtar voliyasi etib tayinlagan Aleksandr Amudaryo bo'yiga yetib keladi va besh kun ichida uni kechib o'tadi. Bess yunon-makedonlarga ushbu tabiiy to'siqchalik ham qarshilik qilolmagani bois uning safdoshlari orasida norozilik yuzaga keladi. Oqibatda, Spitaman³, Datafarn⁴ va Katan⁵ uni tutib, Ptolemey Lagga⁶ topshirganlar, o'zlari esa Nautaka⁷ tomon yo'l olganlar. Bessni shafqatsizlarcha jazolashni buyurgan⁸ Aleksandr ham Nautaka sari oshiqadi.

Nautakadan keyin Aleksandr o'z qo'shinlari bilan Samarqandga yo'l oladi va to'rt kun deganda Jom orqali u yerga yetib boradi. Samarqand qanday egallangani

¹ *Drapsak* – Afg'onistonning Qunduz shahri yaqinidagi qadimgi shahar.

² *Aorn* – Qadimgi Boxtardagi shahar-qo'rg'onlardan biri.

³ *Spitaman* – Turonda makedoniyalik Aleksandrga qarshi qo'zg'olon yetakchisi.

⁴ *Datafarn* – Spitamanni tutib bergan mahalliy aslzodalardan biri.

⁵ *Katan* – Spitamanni tutib bergan mahalliy aslzodalardan biri.

⁶ *Ptolemey Lag* – yunon-makedon qo'shini lashkarboshilaridan biri.

⁷ *Nautaka* – Qarshi va Kitob oralig'ida joylashgan qadimgi o'lka.

⁸ Aleksandr buyrug'iga ko'ra, oldiniga Bessning quloq, burni kesib olingan, so'ng qiynoqqa solib, o'ldirilgan (u Doryush III qiynoqqa solingan yerga olib borilib, o'sha yerda xochoqqa qoqib qo'yilgani, Ekbatanda boshi olingani, Boxtaming o'zida tanasini egilgan ikki uzun daraxtga bog'lab, keyin qo'yib yuborish orqali burda-burda qilganiga oid turli talqinlar bor).

to'g'risida yozma ma'lumotlar mavjud emas. Aleksandr «atrofdagi qishloqlarning kulini ko'kka sovurib, o't qo'ygani» manbalarda muhrlangan. Shundan samarqandliklar dushmanga qattiq qarshilik ko'rsatganlarini tasavvur qilish qiyin emas.

Aleksandr Samarqandda ming kishilik qo'shin qoldirib, o'zi Sirdaryo tomon yo'l oladi. Ular yo'l-yo'lakay talon-taroj va zo'ravonlikka qo'l urganlari ma'lum. Bunga javoban turonliklar qo'lga qurol olib, o'zlari, oila va uylarini himoya qilishga otlanganlar, yem-xashak yig'ib yurgan dushman askarlarini o'ldirib, o'ch olganlar. Aleksandr bunga qarshi keskin choralar ko'rgan. Aks holda 30 000 ga yaqin aholi Turkiston tog' tizmalari, Baxmal va Zomin tog'lariga qochmagan bo'lardi. Ularga qarshi harakatga shaxsan Aleksandrning o'zi bosh bo'lgan. Lekin tog'larni yaxshi bilgan mahalliy aholi yovga qashqatqich zarba bergan, to'qnashuvlardan birida Aleksandrning o'zi ham qattiq yaralangan. Bundan g'azabga minib, quturib ketgan yunon-makedonlar tog'larga chiqib, yurt himoyachilarini qirishga kirishib 22 000 turonlikning yostig'ini quritganlar. Aholining bir qismi esa dushman qo'lga tushmaslik uchun o'zlarini qoyalardan tashlab halok bo'lganlari ham manbalarda aytiladi.



Aleksandr va Turon
askarlarining to'qnashuvi

Manbalarda yozilishicha, Aleksandr Sirdaryo tomon yurishda davom etar ekan, daryo bo'yalarida joylashgan yettita shaharni bosib olib, ularda kam sonli harbiylarni joylashtirgan. Aslida, ular shahar emas, balki daryo bo'yida joylashgan va devorlar bilan o'ralgan aholi maskanlari edi. Sirdaryoning

o'ng qirg'og'ida yashovchi saklar bunday holatga chidab turolmaganlar va qo'zg'olonchilarga yordam berish maqsadida daryoni kechib o'tib, bosqinchilarga zarba berish uchun qulay vaziyatni poylaganlar. Bu vaqtda Boxtar va Sug'dda qo'zg'olonlar davom etardi. Qiyin vaziyatdan chiqish maqsadida Aleksandr dastlab Sirdaryo bo'yidagi mavqeyini mustahkamlashga qaror qiladi va Krater¹ rahbarligidagi katta qo'shinni bu joylardagi eng katta shaharlardan biri bo'lgan Kurushkadaga yuboradi. O'zi esa ikki kunda daryo bo'yida joylashgan beshta shaharni bosib oladi. Chunonchi, Aleksandr birinchi bo'lib Gaza² shahriga qo'shin tortadi va u yerdagi barcha erkaklarni qirib tashlashga buyruq beradi, ayollar, bolalar va qo'lga tushgan buyumlarni askarlariga o'lja

¹ Krater – Aleksandrning tan soqchisi va lashkarboshchisi.

² Gaza – Sirdaryo bo'yidagi qadimgi qo'rg'onlardan biri.

qilib beradi. Keyingi ikki shaharni ham vayron etib, aholisini qiradi va qul qiladi. Qolgan ikki shahar ahli qisman berkinishga muvaffaq bo'lgan, ulgur-maganlari yunon-makedon otliqlari tomonidan chopib tashlangan.

Bu xunrezliklardan keyin Aleksandr Kurushkada shahriga shoshiladi. Baland va mustahkam mudofaa devorlari bilan o'ralgan ushbu shaharda uning aholisidan tashqari yaqin atrofdagi qishloqlar ahli va ko'plab bahodir o'g'lonlar to'plangan edi. Shaharni osonlikcha egallay olmasligini anglagan bosqinchi uni manjanaqlardan¹ muntazam o'qqa tutish va devorlar ostidan kovaklar kavlashni buyuradi. Shahar ichidan oqib o'tuvchi daryoning qurib qolgan o'zani dushmanga qo'l kelmaganida, qamal uzoqqa cho'zilishi turgan gap edi. Daryo o'zanidan xabar topgan Aleksandr xos soqchilari hamda bir guruh jangchilar bilan o'zan orqali shaharga kirib, shu yaqindagi shahar darvozasini ochishga muvaffaq bo'ladi. Shu tariqa bosqinchilar shaharga bostirib kiradilar va ko'chalarda qaqshatqich janglar boshlanadi. Krater va bir qancha yunon-makedon sarkardalari og'ir yaralanadilar, Aleksandring o'zi ham boshi va bo'ynidan jarohatlanadi. Jangning birinchi kuniyoq shahar mudofaachilaridan 8 ming kishi halok bo'ladi. Shahar qo'rg'oniga chekinishga majbur bo'lgan 15 mingga yaqin jangchi tashnalik sabab, oxir-oqibat, dushmanga taslim bo'ladi. Qo'zg'olonchilarning oxirgi tayanchi bo'lgan Kurushkada shahri Aleksandr tomonidan bosib olinadi. Taslim bo'lgan jangchilarning bir qismi o'ldirilib, qolganlari esa Aleksandr jangchilariga qul qilib bo'lib beriladi.

Sirdaryo bo'yidagi yettinchi shahar dushmanga jangsiz taslim bo'lsa-da, Aleksandr daryo bo'yi xalqlarining matonatini butunlay sindira olmagan. Daryo ortida yashovchi saklar qo'shin to'play boshlagan bir paytda Samarqand Spitanan tomonidan qamal qilingani to'g'risida xabar keladi. Ishonchli sarkardalaridan bir nechtasini qo'shinga bosh qilib jo'natgan Aleksandr, o'zi saklarga qarshi tayyorgarlik bilan mashg'ul bo'ladi. Buning uchun esa avvalo daryo bo'yida mustahkam qo'rg'on qurish lozim edi. Yigirma kunda uzunligi 60 stadiyga² teng mudofaa devorlari bunyod etilib, shahardagi uylarning tomi 17 kunda yopiladi. Shaharga yollanma yunonlar, urushga yaroqsiz yunon-makedon askarlari, bu yerda yashashni istagan tub aholi vakillari joylashtiriladi.

Aleksandriya Esxata³ deb nomlangan mazkur shaharning bu yerda bunyod etilishi Sirdaryo qirg'oqlarida yashab kelayotgan turonliklarning noroziligini yanada kuchaytiradi. Saklar yetakchisining: «Daryo bo'yida

¹ *Manjanaq* – qo'rg'on devorlarini buzishga mo'ljallangan tosh otar qurilma.

² *Stadiy* – taxminan, 172–194 metrga teng uzunlik birligi.

³ *Aleksandriya Esxata* – Sirdaryo bo'yida joylashgan, hozirgi Xo'jand shahri yaqinidagi qadimgi shahar.

qurilgan bu shahar mening bo'ynimdagi bo'yinturiqdir» — degan so'zlari buning dalilidir. Shu boisdan u lashkarboshisiga otliqlarni olib, yunon-makedon qo'shinlarini daryo bo'yidan haydashni buyuradi. Sak otliqlari daryo ortidan turib dushmanni yoylardan o'qqa tutganlar. Aleksandr manjabaqlar yordamida ularni daryo bo'yidan chekinishga majbur etib, yunon-makedonlar tezlik bilan sollarda daryodan kechib o'tganlar va saklarni cho'l ichkarisiga quvganlar. Lekin jazirama issiq va saklarning chekina turib birdan yana hujumga o'tish taktikasini e'tiborga olib, orqaga qaytishni lozim topganlar. Bu Aleksandrning butun harbiy yurishlari davomidagi birinchi ortga chekinishi edi.

Sirdaryo bo'yidagi aholining bosqinchilarga qarshi kurashi Turon xalqlarining Aleksandr boshchiligidagi yunon-makedon bosqinchilariga qurolli qarshiligining ajralmas bir qismi bo'lib, u bir markazdan, Spitaman va uning safdoshlari tomonidan boshqarib turilgan. Buni Sirdaryo bo'ylaridagi aholi Aleksandr bosqiniga qarshi qo'zg'olon ko'targan bir vaqtda, Spitaman tomonidan Samarqandning qamal qilinishi misolida ham ko'rish mumkin. Bu o'ziga xos harbiy taktika bo'lib, shu tariqa Spitaman Aleksandrni o'z qo'shinlarining bir qismini Samarqanddagi qo'zg'olonni bostirish uchun yuborishga majbur etadi. Oqibatda, Aleksandr o'zining Sirdaryodagi harbiy harakatlari ko'lamini cheklashga majbur bo'lgan. Holbuki, makedoniyalik bosqinchining Sirdaryo bo'ylarida harbiy istehkomlar qurish, u yerlik saklarga qarshi urush olib borishdan muddaosi ularning Spitaman bilan birlashib ketishlariga yo'l qo'ymaslik edi.

Sug'dda ko'tarilgan qo'zg'olonning qanchalik keng tus olganidan bexabar Aleksandr Samarqandda qamalda qolgan yunon-makedonlarga yordam berish uchun chog'roq qo'shin yuboradi. Bundan xabar topgan Spitaman qamalni to'xtatib, o'zini chekinayotganga solib, Sug'd chegaralari tomon ketadi. Yunon-makedon qo'shinlari ta'qibni boshlagach, qulay fursat kelishi bilan Spitaman birdan hujumga o'tadi va sarosimada qolgan dushman Zarafshon daryosi tomon chekinadi. Turonliklar dushmanni qurshovga ola boshlaydilar. Ariyan¹ bergan xabarga ko'ra, «makedonlar mushkul vaziyatga tushib, daryo o'rtasidagi orolcha tomon chekinadilar. Saklar va Spitaman jangchilari ularni o'rab olib, yoylardan o'qqa tutadilar, bir nechtasini asir olib, so'ngra ularni ham o'ldirdilar».

¹ Ariyan (miloddan oldingi, taxminan, 86–160-yillar) — qadimgi yunon tarixchisi va geografi, Aleksandrning harbiy yurishlari haqida «Anabasis Aleksandra» asarini yozgan.

Mazkur jang yunon-makedon askarlarining yengilmasligi to'g'risidagi afsonani yana bir bor yo'qqa chiqardi. Bu esa turonliklarning dahiyatini ko'tarib, dushmanga qarshi ilhomlantirdi.

Spitaman yana Samarqand ostonasiga qaytib, qamalni davom ettiradi. Bu orada, uch kunda 1500 stadiy yo'lni bosib o'tib Aleksandr ham yetib keladi. Kuchlar teng emasligini ko'rgan Spitaman endi rosmana cho'lga chekinishga majbur bo'ladi. Aleksandr uni ta'qib qilmaydi. Ammo ortga qaytayotganida Sug'ddagi qishloq va qo'rg'onlarni vayron qilib, aholini qilichdan o'tkazadi. Yunon tarixchilari qoldirgan ma'lumotlarga ko'ra, Zarafshon vodiysining o'zida bosqinchilar 120 mingga yaqin turonlikni qirib tashlab, ko'plab kishilarni asirga olib qul qiladilar. Biroq erksevar xalq shunda ham bo'yin egmagan va o'limga tik boqqani manbalarda keltiriladi.

Miloddan oldingi 329-yili Aleksandr asosiy qo'shinlari bilan Sirdaryo bo'ylaridagi shahar va qishloqlarni zabt etib yurgan bir vaqtda Spitaman yana Samarqand ostonasida paydo bo'ladi. Unga bosqinchilar zulmidan qattiq aziyat chekkan mahalliy aholining bir qismi qo'shiladi va birgalikda shaharda qoldirilgan yunon-makedonlarning ko'pini tig'dan o'tkazadilar. Qutulib qolganlari shahar qo'rg'oniga berkinadilar.

O'ziga ortiqcha bino qo'ygan Aleksandr va uning gumashtalari Turon o'lkasida juda ko'p askarlarini yo'qotgach, ularning o'rnini to'ldirish hamda qishni tinchroq yerda o'tkazish niyatida Boxtar shahri tomon yo'lga tushadilar.

Aleksandr Buxtarga qaytganda, uning huzuriga Xorazm hukmdori Farasman 1500 otliq bilan tashrif buyuradi. Mintaqada o'ziga ittifoqchi qidirib yurgan Aleksandr uni yaxshi kutib oladi. Farasman agarda Aleksandr kolxlar va amazonlarga¹ qarshi qo'shin tortsa, unga yordam berishga tayyor ekanligini ma'lum qiladi.

Bu vaqtda viloyat noibi Sisimifr² odamlarini qurollantirib, viloyatga el-tuvchi tor yo'lni mustahkam istehkom bilan to'sgan edi. Aleksandr Sisimifr oldiga odam yuborib, unga taslim bo'lishni taklif etadi. Kursiy Ruf³ yozishi-cha: «Sisimifrning o'zi taslim bo'lishga tayyor edi, ammo uning oilasi (va xotini) kimgadir bo'ysunishdan ko'ra halok bo'lishni afzal ko'rishini e'lon qilgan». Oqibatda Sisimifrning erlari o'ziga qoldirildi, lekin evaziga u o'z

¹ Amazonlar – jangari ayollar.

² Sisimifr – Sug'ddagi viloyatlardan birining hokimi.

³ Kursiy Ruf (miloddan oldingi I va milodiy I asrlar) – qadimgi rim tarixchisi; «Buyuk Aleksandr Maqduniyning yurishlari» asari muallifi.

o'g'illarini Aleksandrga harbiy xizmatga berishga majbur bo'ladi. Aslida bu ehtiyot chorasi bo'lib, yangi qo'zg'olonning oldini oluvchi garov edi. Shundan so'ng Spitamanning daxlar¹ bilan birgaligidan xabar topgan Aleksandr boshqa isyonkor qabilalarga qarshi qo'shin yuborib, o'zi dax qavmiga qarshi yurishni davom ettiradi.

Jangu jadal uncha naf bermasligiga ko'zi etgan Aleksandr «parchalab yub» siyosatini qo'llab, Turon o'lkasining ichki birligini buzishga qattiq kirishadi. Farasman bilan ittifoqchilik aloqalarini o'rnatib olgach, Boxtar va Sug'd o'rtasini buzishga bel bog'laydi. Uning ushbu makkorligi ish beradi. Gap shundaki, miloddan oldingi 328-yilning kuzida massagetlarga suyangan Spitaman 3 ming otliq qo'shin bilan Samarqand tomon yo'lga chiqadi. Ariyaning yozishicha: «Spitaman va uning otliqlari yaqinlashayotganini eshitgach, Ken qo'shini bilan unga qarshi yuradi. Qirg'inbarot jang boshlanadi». Ushbu jangda ikkala tomon ham katta talafot ko'rgan bo'lsa-da, yunon-makedonlarning qo'li baland kelib, Spitaman qolgan-qutgan odamlari bilan cho'lga chekinishga majbur bo'ladi.

Aleksandr ularni ta'qib etib, cho'lga kirmoqchi ekanligidan xabar topgan bir guruh massagetlar Spitamanning boshini tanasidan judo qilib, Aleksandrga yuboradilar.

Spitamanning o'limi bilan bosqinchilarga qarshi kurash to'xtagani yo'q. O'lkaning, ayniqsa, tog'li hududlarida bosqinchilarga qarshilik davom etdi. Shu boisdan Aleksandr miloddan oldingi 328–327-yilning qishini Sug'dda, aniqrog'i, Nautakada o'tkazgan. Bahor kelishi bilan u qo'zg'olonchilar to'plangan birinchi qo'rg'on – Sug'd qoyasi² sari yo'lga tushadi. Bu qo'rg'on chiqish qiyin bo'lgan tik qoyalar ustiga qurilgan. Aleksandr buyrug'i bilan tunda 300 ga yaqin jangchi qoyaning yuqorisiga chiqishga muvaffaq bo'ladi. Ularni ko'rgan himoyachilar, qoya to'liq ishg'ol etilgan, degan o'yda dushmanga taslim bo'ladilar. Asirlar orasida qo'rg'on hokimining xotini, qizlari, jumladan, bo'yi etgan Ruxshona³ ismli qizi ham bo'lgan. Aleksandr unga oshiq bo'lib qoladi. Ariyaning yozishicha: «Aleksandr jangchilari, Osiyoda Doroning xotinidan keyin bunday go'zal ayolni ko'rmaganmiz, der edilar».

¹ *Daxlar* – Sug'dning shimoli-sharqiy tomonidagi Sirdaryo etaklarida yashagan qabilalar guruhi.

² *Sug'd qoyasi* – Qashqadaryo va Surxondaryo o'rtalig'idagi tog'li hududda joylashgan manzil.

³ *Ruxshona (sug'd. Ravshanak)* – sug'd aslzodasi Oksiratning qizi, Aleksandrning xotini.

Sug'd qoyasini zabt etgandan keyin Aleksandr paretaklar¹ o'lkasi tomon qo'shin tortadi. Bu yerda qo'zg'olonchilarning katta qismi Xorien² rahbarligida qo'rg'onda to'plangan yedi. Ariyan ma'lumotlariga ko'ra, qo'rg'on 20 stadiy balandlikda joylashgan, aylanasi 60 stadiy, atrofi tik chuqur jarlik bilan o'ralgan bo'lib, u yerga faqat bir tor yo'lak orqali ko'tarilish mumkin edi. Shunga qarabmasdan, Sug'd qoyasining taslim bo'lgani xabarini eshitib vahimaga tushgan Xorien Aleksandrqa elchi yuborib, Vaxshordni uning oldiga vakil qilib yuborishni so'raydi va uning vositachiligida qo'rg'onni dushmanga topshiradi.

Aleksandr Sug'd tog'laridagi qo'rg'onlarni ishg'ol etgandan keyin Buxtarga qaytib, Kraterni Katan va Avstang³ boshchiligidagi qo'zg'olonni bostirish uchun Paretaykena o'lkasiga⁴ yuboradi. Kraterning qo'li baland kelib, qo'zg'olonchilardan 120 otliq, bir yarim mingga yaqin piyoda hamda sarkarda Katan halok bo'ladi, Avstang esa asir olinadi. O'lkadagi qator shahar va qishloqlarni vayron qilgan Krater Buxtarga Aleksandr huzuriga yo'l oladi.

Aleksandr hokimiyatining qulashi va salavkiylar hukmronligining o'rnatilishi. Miloddan oldingi 327-yilning bahorida Aleksandr Hindiston tomon yo'l oladi. Uning katta qismini egallagach, miloddan oldingi 324-yili Bobilga qaytadi va uni o'z saltanatining poytaxti, deb e'lon qiladi.

Saltanatining birligini saqlab qolishga tinmay intilgan yunonlik bosqinchi turli o'lkalarda o'z nomi bilan ataluvchi shaharlarga asos solgan. Birgina Buxtara va Sug'dda 8–10 ta shunday shahar bo'lgan. Aholisi qirib tashlangan shaharlarni chetdan odam olib kelib to'ldirishga harakat qilgan. Saltanatning harbiy salohiyatini yanada ko'tarish maqsadida miloddan oldingi 324-yildan boshlab asosiy qo'shin tarkibiga boshqa xalq vakillari ham xizmatga olinib boshlaydi. Lekin o'z erki uchun kurashgan xalqlarning daryodek oqqan qonlari, talon-tarojlar va vayronalar evaziga tashkil topgan bu saltanat nechog'lik mo'rt ekanligi Aleksandrning miloddan oldingi 323-yili yuz bergan o'limidan keyin darrov ma'lum bo'ldi.

Poytaxtda siyosiy vaziyat ancha notinch bo'lib, Aleksandrning yaqin sarkardalari o'rtasida taxt uchun kurash avj olib boshlaydi. Miloddan oldingi 312-yili Salavk⁵ Bobil satrapligiga erishadi va sharqda ham, g'arbda ham harbiy harakatlar olib borib, o'z mavqeyini mustahkamlashga intiladi. Natijada, Parfiya, Buxtara va Sug'd uning tasarrufiga o'tadi.

¹ Paretaklar – janubiy O'zbekiston hududida yashagan qadimgi aholi.

² Xorien – Aleksandrqa qarshi kurashgan qo'zg'olonchilar yetakchisi.

³ Katan va Avstang – Aleksandrning harbiy sarkardalari.

⁴ Paretaykena – Surxondaryo va Qubodiyon viloyatlari hududlari; yunon-makedon bosqinlarining qonli izlari bu hududda joylashgan arxeologiya yodgorliklarida o'zining yorqin ifodasini topgan.

⁵ Salavk I (miloddan oldingi 358–281-yillar) – Aleksandr qo'mondonlaridan biri.

Miloddan oldingi 301-yil yozida Ipsda¹ Aleksandr satrapdalarining taxt uchun o'zaro to'qnashuvi sodir bo'ladi. Ushbu ayovsiz jang natijasida Aleksandr saltanati uchta mustaqil podshohlikka bo'linib ketadi. Misr taxtini Ptolemey Lag egallaydi, Yunoniston va Makedoniya Antipatrga² tegadi. Bu podshohliklar orasida eng yirigi bo'lgan Old Osiyo va Turondan iborat saltanat esa Salavk qo'liga o'tadi. Bunday katta hududni boshqarish ancha qiyin ekanligi bois u miloddan oldingi 293-yili o'g'li Antioxni³ sharqiy o'lkalar ustidan hukmdor etib tayinlaydi.

Bu vaqtda Turon, jumladan, Sug'd, Boxtar va ko'chmanchilar yerlarida siyosiy vaziyat hali-hanuz jiddiyligicha qolayotgan edi. Ular imkon tug'ilishi bilan bosqinchilarga qarshi qo'zg'olon ko'tarishga tayyor edilar. Ustiga-ustak Aleksandr tomonidan sharqiy o'lkalarga tayinlangan satraplar fursatdan foydalanib, mustaqil bo'lib olish niyatida edilar. Qisqasi, Antioxga Ikkidaryo oralig'i, Eron, Afg'oniston va Turon o'lkalari bo'ysungan. U Salavkiya⁴ shahrini poytaxti etib tanlagan. Antioxning sharqiy o'lkalarda yuritgan siyosatidan guvohlik beruvchi ma'lumotlar ko'p emas. Xususan, daxlarning Marg'iyonadagi Aleksandriya⁵ shahrini vayron etganlari, Antiox bu shaharni qayta tiklab, butun vohani uzunligi 250 km.ga yaqin yangi mudofaa devorlari bilan o'ragani ma'lum.

Taxminan, miloddan oldingi III asrning boshlarida ko'chmanchi saklar Sirdaryo bo'yidagi Aleksandriya Esxata shahrini vayron etganlar. Ularni bostirish uchun Antiox katta miqdordagi jazo qo'shinini Sug'dga yuboradi. U yo'l-yo'lakay qator shahar va qishloqlarni vayron etib, Sirdaryodan kechib o'tgan va saklarga katta talafot yetkazgan.

Miloddan oldingi 280-yili Salavk vafot etgach, taxtni uning o'g'li Antiox I egallagan. U va undan keyingi salavkiy hukmdorlar davrida saltanatning sekin-asta yemirilishi kuzatiladi. Miloddan oldingi III asr o'rtalarida avval Parfiya, so'ng Boxtar satrapliklarining ajralib ketishi ham aynan shu jarayon natijasidir.

O'z navbatida, Sug'd aholisi ham yunon-makedonlar zulmidan qutulish uchun qulay vaziyatni kutib turgan bir pallada mintaqa siyosiy sahnasiga yangi kuch – qang'lar chiqadilar.

¹ Ips – Kichik Osiyo g'arbida joylashgan, hozirda yo'q bo'lib ketgan shahar.

² Salavk I (miloddan oldingi 358–281-yillar) – Aleksandrning qo'mondonlaridan biri, taxt vorisi sifatida Aleksandrning o'limidan so'ng Salavkiylar davlatiga asos solgan shaxs.

³ Antiox I (280–260) – Salavkning Spitaman qizi Apama nikohidan tug'ilgan o'g'li.

⁴ Salavkiya – hozirgi Iroq poytaxti Bag'doddan janubda joylashgan qadimgi shahar.

⁵ Mavr yaqinida joylashgan bu shaharga u Antioxiya deb nom bergan.

Qang¹. Qadimgi rivoyat va dostonlarda bayon qilinishicha, turlar qabilasining sardori Afrosiyob Qang¹ urug'idan bo'lib, u Qang¹ o'lkasida poytaxt qilgan. Tadqiqotchilar fikricha, turlar yunon manbalarida massagetlar nomi bilan qayd qilingan va ularning ilk vatani Orol dengizi yaqinidagi Tagiskenda¹ bo'lgan. U yerdagi miloddan oldingi IX–VIII asrlarga oid mahobatli maqbaralarda kuchli yong'in izlari saqlangan bo'lib, bu Siyovushning Turon eliga qilgan yurishi izlari bo'lishi mumkinligiga ishora beradi.

Qang¹ning shakllanishi miloddan oldingi III asrning oxirlari – II asrning birinchi yarmiga to'g'ri keladi, uning kuchayishi esa Turonning tabiiy, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotidagi o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lgan. Mazkur davrda iqlimning keskin quruq kelishi oqibatida katta daryolardagi suvlar kamayib ketgan. Oqibatda Sirdaryo etaklari va Orol dengizi atrofida yashagan ko'chmanchi qabilalar daryoning ikki qirg'og'i bo'ylab yangi yaylovlar va ekinzorlar izlab yuqori oqim tomon ko'chishga majbur bo'lganlar.

Qang¹ siyosiy uyushmasi janubi-sharqda Farg'ona, shimoli-sharqda usunlar, shimoli-g'arbda Orol dengizi, janubi-g'arbda Parfiya, janubda o'g'uzlar, sharqda esa hunlar bilan chegaradosh bo'lgan. Miloddan oldingi 128-yili Qang¹da bo'lgan Chjan Szyan qayd qilishicha, u erlik aholining urf-odatlarini o'g'uzlarnikiga o'xshash bo'lgan. Xitoylik elchining so'zlariga ko'ra, Qang¹ hukmdorining qishki qarorgohlari Beytyan² va Sushieda³ bo'lgan.

Xitoy yozma manbalariga ko'ra, Qang¹ga beshta viloyat bo'ysungan: Sukeyek (Kesh), Bivuomak (Zarafshon daryosining o'rta oqimi), Kiangni (Toshkent vohasi), Kiat (Buxoro), Eukkiyan (Ko'hna Urganch).

Qang¹ siyosiy uyushmasi 120 ming oiladan iborat bo'lib, aholisi 600 ming kishini tashkil etgan. Uning qo'shini 120 ming kishiga teng bo'lgan. Qang¹ otliqlari kichik temir yaproqchalardan iborat sovut kiyganlar. Ularning otlari usti ham shunday zirhlar bilan yopilgan. Askarlar odatda yoy, nayza, xanjar, ikki tomoni o'tkir uzun qilich bilan qurollanganlar.

Qang¹ning eng rivojlangan davri miloddan oldingi II asrning oxirlari – I asrning birinchi yarmiga to'g'ri keladi. Bu, bir tomondan, hunlarning Xitoy bilan olib borgan uzluksiz harbiy harakatlari natijasida kuchsizlangani va o'g'uzlarning Boxtar hududlari tomon ko'chishi bilan bog'liq bo'lgan. Shu tariqa, qang¹lilar hunlar va o'g'uzlarga tobelikdan qutulibgina qolmay, Sug¹d va Xorazm o'lkalarini ham bo'ysundirishga erishganlar. Har tomonla-

¹ *Tagisken* – hozirgi Qozog'istonning Qizil O'rda viloyatidagi tarixiy makon.

² *Bityan* – Toshkent viloyati Oqqo'rg'on tumanidagi Qang'a yodgorligi.

³ *Sushiye* – Toshkent viloyati Parkent tumanidagi So'qqoq hududi.

ma rivojlangan Sug'd va Xorazmning Qang' ixtiyoriga o'tishi uning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va harbiy salohiyati yanada ko'tarilishiga katta turtki bo'lgan. Buni miloddan oldingi 101-yili Qang'ni Xitoy va Farg'onadagi urushga aralashgani misolida ham ko'rish mumkin.

Qang' hukmdori o'z qo'shinlarining bir qismini Yersh shahrini qamal qilayotgan xitoy qo'shinlariga qarshi yuboradi. Natijada, ular qamalni to'xtatib, farg'onaliklar bilan tinchlik kelishuvi tuzishga majbur bo'ladilar.

Qang' hukmdori miloddan oldingi 47–46-yillarda Xitoyning hunlar bilan ziddiyatini bila turib, hunlar hukmdorini o'z himoyasiga oladi. Qang'ning bu davrlardagi mustaqil siyosati ifodasini xitoy manbalaridagi quyidagi ma'lumotlardan ham ko'rish mumkin. «Qang' mag'rur va jasur. (Xan sulolasi)ning elchilari oldida tiz cho'kmaydi. Vakolatchining elchilari mazkur davlatga borganida, ularni usun va boshqa mamlakatlar elchilaridan ham pastroqqa o'tqazadi... bu bilan (Qang') boshqa davlatlar oldida o'zini ko'rsatmoqchi bo'ladi». Shunday bo'lsa-da, xan sulolasi hukmdorlari hunlarga qarshi kurashda Qang'ning betarafligini saqlab qolish maqsadida u bilan aloqalarni uzmagalar va o'z elchilarini bu yerga jo'natib turganlar.

Shunday qilib, salavkiylar saltanatida yuz bergan siyosiy beqarorlikdan foydalangan Diodot I¹ Buxtarda o'zini mustaqil hukmdor deb e'lon qiladi. Mazkur jarayon ikki bosqichda yuz bergan. Diodot I tomonidan miloddan oldingi 256-yilda zarb etilgan tangalarning old tomonida Diodot I ning, orqa tomonida esa salavkiy Antiox II Teos² ismi qayd qilingani bu davrda Diodot hali to'liq mustaqillikka erishmaganini anglatadi. 247–246-yillardan keyingi tangalarning orqa tomonida «Shoh Diodot» deb qayd etilishi esa u Antiox II Teos o'limidan keyingina rosmana mustaqil bo'lganini anglatadi. Biroq bu Buxtarda o'lkasi ozod bo'ldi degani emasdi. Yunonliklar hukmronligi mahalliy darajada davom etavergan. Ammo ular Turonning yuqori hududlari, masalan, Sug'd, Xorazm, Farg'onaga zug'um qilishga botinolmaganlar.

Shu bilan birga, Diodot I ning Andragor³ bilan munosabati yaxshi bo'lgani ma'lum. Diodot I ning arshakiylar⁴ bilan aloqalari keskinlashuvining sababi miloddan oldingi 238–236-yillar orasida Andragorning Arshak⁵ tomonidan o'ldirilishi bilan bog'lanishi ham bejiz emas. Mazkur voqeadan so'ng Diodot

¹ Diodot I – salavkiylarning Buxtardagi noibi.

² Antiox II Teos (miloddan oldingi 261–246-yillar) – salavkiylar davlati hukmdori.

³ Andragor – salavkiylarning Parfiya va Girkaniyada taxminan, mil.avv. 270-yillarda hukmronlik qilgan so'nggi noibi.

⁴ Arshakiylar (ashkoniyalar) – Parfiya podsholari sulolasi (miloddan oldingi 250 – milodiy 224 yillar).

⁵ Arshak – arshakiylar sulolasining asoschisi.

qasos olish maqsadida qo'shin tortishidan xavotirga tushgan Andragor ko'p sonli qo'shin to'plashga kirishgan. Lekin ish urushgacha borib o'tmagan. Aksincha, taxminan, miloddan oldingi 230-yili otasining o'rmini egallagan Diodot II¹ Arshak bilan tinchlik sulhini tuzgan.

Taxminan, miloddan oldingi 220-yili Evtidem² Diodot II va uning yaqin qarindoshlarini o'ldirib, o'zini shoh deb e'lon qiladi. Boxtar tepasiga yana bir kelgindi, asl nasabi shubhali shaxs chiqadi. Turonning janubiy qismida bundan buyon kechgan siyosiy vaziyat o'z paytida Aleksandrdan qolgan «meros» uchun kurash hali ham tugamaganini ko'rsatadi.

Gap shundaki, salavkiy Antiox III³ miloddan oldingi 209-yili 100 ming piyoda va 20 ming otliqdan iborat qo'shinga bosh bo'lib, bir paytlar ajralib chiqqan satrapliklarni bo'ysundirish maqsadida katta yurish boshlagan. Parfiyani egallagach, Boxtarning g'arbiy chegaralariga yetib keladi. Evtidem Harirud⁴ daryosidan o'tuvchi kechuvlarni saqlab qolishga qanchalik urinmasin, Antiox III qattiq qarshiliksiz o'z qo'shinlari bilan daryodan kechib o'tadi va Boxtar poytaxtini qamalga oladi.

Qamal ikki yil davom etganiga qaramay, salavkiylar maqsadlariga yeta olmaganlar. Evtidemning joniga esa Turon ahlining ahamoniylar va Aleksandrga qarshi ko'rsatgan qarshiligi va jasorati to'g'risidagi asosli hamda to'qima rivoyatlar oro kirgan. Antiox III ga tinchlik bitimini taklif etgan Evtidem uni aynan shimolda to'plangan katta harbiy kuch bilan qo'rqitgan va agar ular chegaradan o'tib, hujum boshlasalar, Boxtargina emas, balki hozircha yunonlar nazoratida bo'lgan boshqa yerlar ham qo'ldan ketishidan ogohlantirgan.

Muzokarada Evtidemning o'g'li Demetriy ham qatnashgan. Antiox III uni katta hurmat va ehtirom bilan kutib olib, hatto, qizlaridan birini nikohlab bergan hamda otasining shohlik rutbasini saqlab qolishga rozi bo'lgan. Shu tariqa Boxtardan ko'ngli tinchib, Hindiston sari yurishni davom ettirgan.

Parfiya bilan munosabatlarni izga solib olgan Evtidem qo'shni viloyatlarga ko'z olaytira boshlaydi. Uning Marg'iyona, Ariya, Aspian⁵, Turiva⁶, hatto, Sug'dning ayrim bo'laklarini bo'ysundirgani ma'lum. Otasining bosqinchilik siyosatini Demetriy I ham davom ettirgan. Xususan, u Hindiston tomon qo'shin tortib, Hind daryosi vodiysiga bostirib kiradi va miloddan oldingi 180-yillarda Xaraxvati⁷ va Panjobni egallaydi.

¹ *Diodot II* – Diodot I ning o'g'li.

² *Yevtidem I* – yevtidemiylar sulolasi asoschisi.

³ *Antiox III (miloddan oldingi 223–187-yil)* – salavkiylar davlati hukmdori.

⁴ *Harirud* – hozirgi Afg'oniston g'arbidagi daryo.

⁵ *Aspian* – Turondagi tarixiy madaniy o'lka.

⁶ *Turiva* – Turondagi tarixiy madaniy o'lka.

⁷ *Xaraxvati* – Hindiston yarim orolidagi tarixiy-madaniy o'lka.

Demetriy I shimoli-g'arbiy Hindistonni zabt etib yurgan bir vaqtda, taxminan, miloddan oldingi 171-yili Buxtarda Evkratid I¹ tomonidan davlat to'ntarishi sodir etiladi. Uning hukmronligi davri ham ichki va tashqi ziddiyatlarga boyligi bilan ajralib turadi. U avvaliga Demetriy I ni uzil-kesil boshqaruvdan chetlatgan bo'lsa-da, biroq bu bilan tinchlikka erisha olmagan. Evtidem paytida g'arbda egallangan hududlardan Marv va Hirot yerlarini arshakiylar tortib olganlar. Turonning Buxtardan shimol va g'arbiy yo'nalishdagi hududlarida yashovchi o'troq va ko'chmanchi qavmlar bilan doimiy to'qnashuv Evkratid I ni ancha holdan toydirgan.

Garchi shimoli-g'arbiy Hindistonga qilingan yurishlar uning harbiy-iqtisodiy qudratidan dalolat bersa-da, biroq Evkratid I aynan mazkur yurtga uyushtirilgan harbiy safardan qaytishda fojiali o'lim topadi. U o'z o'g'li padarkush shahzoda tomonidan o'ldirilgan.

Evkratid I ning o'limi yunonliklarning Buxtardagi siyosiy inqirozini tezlashtiradi. Padarkush Geliokl² hukmronligi, asosan Buxtar bilan cheklanib, qolgan hududlarni esa Diodot va Evtidemning avlodlari boshqargan. Tez orada, makedoniyalik Aleksandr bosqini tufayli olis Bolqondan Turon yerlarigacha kelib qolgan yunonliklarning salkam ikki yuz yillik hukmronligiga chek qo'yiladi. Bu tarixiy ishni ruzielar amalga oshiradilar.

Farg'ona ilk temir asri – miloddan oldingi I-ming yillikning birinchi yarmida Turonning shaharchilik va davlatchilik shakllana boshlagan o'lkalaridan biri ekani yuqorida aytib o'tildi.

Farg'ona hukmdori boshqaruvni ikki maslahatchisi orqali bajarganligi siyosiy hayotda «Oqsoqollar kengashi» katta rol o'ynaganligini ko'rsatadi. Kengashda urush e'lon qilish, tinchlik muzokaralarini olib borish va hatto, hukmdor taqdirini hal qilish masalalari ham ko'rilgan. Bu davrda Farg'onada hukmdor mutlaq hokimiyat egasi bo'lmagan, Oqsoqollar kengashi uni nazorat qilib turgan. Kimni taxtga o'tqazish masalasi ham kengashda hal qilingan.

Garchi, hukmdor mamlakatni boshqarishda muayyan mustaqillikka ega bo'lsa-da, u to'ra-tuzuklarga amal qilishi, xalq va mamlakat manfaatlariga muvofiq yo'l tutishi zarur edi. Basharti, u o'z faoliyatida mavjud qoidalardan chekinadigan bo'lsa, Oqsoqollar kengashi qarori bilan taxtdan tushirilgan. Masalan, xitoyliklar bilan yuz bergan urush so'nggida Oqsoqollar kengashi qaroriga ko'ra hukmdor Mugua urushning bosh aybdori sifatida qatl etiladi. Shartnomaga ko'ra, xitoyliklar bir necha o'n arg'umoq, 3000 ot va biya

¹ *Yevkratid I* – taxminan, miloddan oldingi 171–145-yillarda Buxtar hukmdori.

² *Geliokl* – miloddan oldingi 145–130-yillarda Buxtar hukmdori.

olishadi hamda fargʻonalik zodagon Motsayni taxtga oʻtqazib, Xitoyga qaytadilar. Biroq Oqsoqollar kengashining umumiy qarori bilan Motsay taxtdan chetlatilib, Muguaning ukasi Chan Finni taxtga oʻtqaziladi.

Shaharchilik madaniyati. Miloddan oldingi IV–III asrlarda Xorazmda mudofaa inshootlarining barpo etilishi sabablari tashqi bosqinlardan himoyalash zaruriyati bilan bogʻliq. Soʻz ketayotgan yuz yilliklarda vohaning bir qator shaharlarida (Xiva, Hazorasp, Qozoqliyotgan-Oqshaxonqalʼa, Katta Oyboʻyirqoʻrgʻon) yirik binokorlik ishlari amalga oshirildi. Bir vaqtning oʻzida keng tarmoqli sugʻorish tizimi yaratildi. Shaharlar alohida dehqonchlik vohta-tumanlari markazlariga aylandi.

Meʼmorchilik loyihalari boʻyicha shaharlarda binokorlik ishlarini amalga oshirish, mudofaa tizimi va eski binolarni taʼmirlash, yangilarini bunyod etish, qurilish usullarini takomillashtirishni taqozo etgan. Qudratli mudofaa inshootlari, yirik ibodatxona va saroylarni bino qilish uchun millionlab xom gʻisht kerak boʻlgan. Davlatning barcha vohta-tumanlari aholisi xom gʻisht tayyorlash bilan mashgʻul boʻlib, ularni zarur yangi qurilish joylariga yetkazib bergan. Keng miqyosda bunday ishlarni tashkillashtirish va amalga oshirishni, koʻhna Xorazmda ommaviy ravishda yirik sugʻorish inshootlar – ariqlarni barpo etish jarayoni bilan qiyoslash mumkin.

Turonning janubiy viloyatlaridagi ahvol jon saqlash, egallangan hududlarni qoʻriqlash uchun bosqinchi yunon-makedonlarga mustahkam harbiy istehkomlar zarur boʻlgani bilan bogʻliqdir. Shuning uchun ham, Aleksandr-dan boshlab keyingi yunonlik qator hukmdorlar qoʻrgʻonlar qurishga qattiq bel bogʻlaganlar. Qolaversa, ular nomi bilan yuritilgan koʻpdan-koʻp shaharlar yunonlik bosqinchilarning shuhratparastligi timsolidir. Shu bilan birga, yunon, lotin manbalarida Boxtarga berilgan «ming shaharli oʻlka» taʼrifida ushbu oʻlkada avvaldan mavjud shaharlarning ulushi katta boʻlganini ham alohida urgʻulash lozim.

Viloyat markazi Boxtar shahrining umumiy maydoni 120 gektarni tashkil etgan boʻlib, mudofaa devorining qalinligi va balandligi insonni hayratga soladi. Qalinligi 31 metrga teng boʻlgan devorga bir necha qator nayzasimon shinaklar joylashtirilgan.

Oyxonim yodgorligining¹ tarxi uchburchak koʻrinishida boʻlib, uning eng uzun joyi 2 ming metrga yaqin. Shahar ikki qismdan – yuqori va quyi shahardan iborat boʻlib, mustahkam mudofaa devorlari bilan oʻralgan. Yunon dunyosiga

¹ *Oyxonim yodgorligi* – Afgʻonistonning shimoli-sharqiy hududida, Koʻkcha daryosining Panj daryosiga quyilgan yerda joylashgan qadimgi shahar.

xos bo'lgan ushbu haqiqiy shahar-davlatdagi binolar tizimli joylashtirilgan. Quyi shahardagi shoh ko'chani ikki tomonida mahobatli ustun va ayvonlar bilan bezatilgan jamoat binolari, xususan, shahar aholisi uchun ibodatxona, gimnaziya, bozor va boshqa mahobatli binolar qad ko'targan. Ularni bunyod etishda tosh, xom va pishiq g'ishtlardan keng foydalanilgan. Ularni bezashda ishlatilgan me'moriy bezaklar shakli va yechimlariga ko'ra yunon dunyosida keng tarqalgan uslublar, poyustunlarga o'xshashlik kasb etadi.

Shahar aholisining asosiy qismi yunon-makedonlardan tashkil topgan bo'lib, ular shaharning ma'muriy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotida yetakchi o'rin egallaganlar. Yodgorlikdan topilgan ashyoviy dalillar miloddan oldingi III–II asrlarda shahar hayoti gullab-yashnaganidan guvohlik beradi.

Xolchayon, Dalvarzintepa, Eski Termiz, Kampirtepa¹, Jondavlattepa, Hayitobodtepa, Taloshkontepa va Uzundara² kabi yodgorliklar shahar madaniyati Surxondaryo vohasida ham qizg'in rivojlanganidan dalolat beradi. Jondavlattepa va Hayitobodtepa o'rnida qad ko'targan maskanlarga miloddan oldingi I ming yillikning birinchi yarmida asos solingan bo'lib, makedoniyalik Aleksandrning harbiy yurishlari vaqtida qisman vayron etilgan. Keyinchalik ular qayta tiklanib, hayot tez sur'atlar bilan rivojlangan va kichik dehqonchilik vohalarining markaziga aylangan.

Eski Termiz qo'rg'onida uylar xom g'ishtdan bunyod etilgan bo'lib, shu davrga oid turli-tuman sopol idishlar, fil suyagidan yasalgan haykalcha va yunonlik hukmdorlar tomonidan zarb qilingan tangalar topilgan.

Shahriston va qo'rg'onidan iborat Kampirtepa 4 gektar maydonni egallagan. Shahar mustahkam mudofaa devorlari va burjlar bilan o'ralgan. Qo'rg'onning o'lchami 80x80 m bo'lib, shaharning janubida joylashgan. Bu yerda miloddan oldingi III asrga oid kichik qo'rg'on, uy, turli shakldagi sopol idishlar, xumdon, sopolga bitilgan yunon yozuvi namunalari, haykalchalar, muhrlar va yunonlik hukmdorlar tomonidan zarb qilingan tangalar topilgan. Bu ashyoviy dalillar Kampirtepa o'rnida bo'lgan shaharda miloddan oldingi III–II asrlarda hayot tez sur'atlar bilan rivojlanganidan guvohlik beradi.

Uzundara yodgorligining tarxi «romb» shakliga o'xshash bo'lib, uning janubi-g'arbiy qismi devorlari oldinga chiqarilgan va bu yerda uchta burj bilan mustahkamlangan qo'rg'on joylashgan. Mudofaa devorlarining uzun-

¹ *Kampirtepa yodgorligi* – Surxondaryo viloyati Muzrabot tumanida, Qorasuv daryosining Amudaryoga quyilishi yaqinida joylashgan qadimgi shahar.

² *Uzundara* – Susiztog' tizmalaridagi Sayrob qishlog'i yaqinida joylashgan qadimgi shahar.

ligi bir kilometr ga yaqin. Umumiy maydoni 2 gektar atrofida. Uzunlikning mudofaa inshootlari ikki qator devordan iborat bo'lib, o'rtasida uzun yo'lakimon xonalar bo'lgan. Quruvchilar mudofaa devorlarini kuchaytirish maqsadida muayyan uzunlikda va joyning past-balandligidan kelib chiqqan holda burjlar o'rnatganlar. Mudofaa devorlari va burjlarda ma'lum masofada shinalar o'rnatilgan.

Antiox I nomi bilan bog'lanuvchi ushbu qo'rg'on miloddan oldingi III asr boshlarida qurilgan. Qo'rg'onning o'rtasida uzunligi 17 metr, eni 14 metrga teng bo'lgan mahobatli bino joylashgan. Binoning ikkita xonasi qoyatoshni tarab ishlangan. Inshootning hamma devorlari toshdan terilgan.

Chorvachilik, dehqonchilik va hunarmandchilik. Xorazm vohasining g'arbiy va shimoli-g'arbiy chegaralarida ko'p sonli chorvachi urug'lar Orol dengizi va Kaspiy dengizi oralig'idagi dashtlarda istiqomat qilganlar. Shuningdek, Sharqiy Orolbo'yidagi Quyi Sirdaryo havzasida joylashgan chorvachilarning iqtisodiy ahvoli yaxshilanib borib, qudratli harbiy kuchga aylanganlar. Xususan, aynan ular makedoniyalik Aleksandrning Buxoro vohasi orqali foydali qazilmalar, xomashyoga boy Qizilqum ichkarisiga yo'l olishiga to'siq bo'lib turganlar. Ular dehqonchilik bilan ham shug'ullanib, shaharlar va qo'rg'onlar bunyod etish ko'nikmalariga ega edilar.

Miloddan oldingi III asrda Sirdaryoning qadimiy quyi o'zanlarida suv ta'minotining to'xtab qolishi va daryoning zamonaviy o'zani paydo bo'lishi natijasida, tub joyli aholi avval o'zlashtirgan yerlarni tark etishga majbur bo'ldi.

Boxtarning tabiiy-jo'g'rofiy o'rni, boy hayvonot dunyosi va serunum tuprog'i qadimdan inson e'tiborini o'ziga maftun etgan. Uning o'rtasidan sharqdan shimoli-g'arbiy tomon Amudaryo oqib o'tgan. Janubiy qismida joylashgan Hindukush va shimoldagi Hisor tog'laridan oqib kelayotgan qator katta-kichik daryo va soylar dehqonchilik bilan shug'ullanishga qulay imkoniyat yaratgan. Aholi turli-tuman dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirgan. Yunonlik tarixchilar ta'biri bilan aytganda, «Boxtar zaytun yog'idan boshqa barcha mahsulotlarni ishlab chiqargan». Boshqoqli o'simliklar, xususan, bug'doy, arpa, suli va sholi yetishtirishga ko'proq e'tibor qaratilgan. Bug'doy donlari yirikligi bilan ajralib turgan. Bog'dorchilik ham taraqqiy etib, uzumning turli navlari yetishtirilgan.

Iqtisodiy hayotda chorvachilik ham muhim o'rin tutgan. Ular qo'y, echki, sigir va tuya boqqanlar. Boxtarning ikki o'rkachli tuyalari qadimgi zamonlarda ham alohida e'zozlangan.

Makedoniyalik Aleksandr yurishlari davomida Boxtar va Sug'dning hunarmandchilik markazlari bo'lgan ko'plab shaharlar vayronaga aylangan. Salavkiylar davrida shahar va qishloqlardagi hayot asta-sekin o'z iziga tusha boshlaydi. Eski shaharlar tez sur'atlar bilan rivojlanishi barobarida ko'plab yangi shaharlarga asos solinadi. Shaharlarning iqtisodiy salohiyati oshib borishi jarayonida hunarmandchilikning o'rni yanada yuksalgan. Ayniqsa, qurilish, kulolchilik, temirchilik, qurolsozlik va zargarlik sohalari, shaharliklarning bu mahsulotlarga bo'lgan katta ehtiyoji bois, shiddat bilan rivojlandi.

Bozorlarda milliy hunarmandchilik mahsulotlaridan tashqari yunon-makedon ustalari tomonidan tayyorlangan mahsulotlarni ham xarid qilish mumkin bo'lgan. Bunda tub va kelgindi madaniyatlarning o'zaro ta'sirini kuzatish mumkin. Xususan, kulolchilik sohasida milliy va yunon-makedon madaniyatining o'zaro uyg'unlashuvi natijasida sopol idishlarning o'ziga xos shakllari paydo bo'ldi. Biroq Boxtar va Sug'dda yunon dunyosida keng tarqalgan manzarali va naqshli idishlar uchramasligi, Turonning ushbu hududlari kulolchiligi o'z yo'lidan borganini ko'rsatadi.

Ichki va tashqi savdo. Boxtar va Sug'd bosib olingani sharoitida pul munosabatlari, xususan, tanga zarb etish ishi bosqinchilar qo'lga o'tishi turgan gap edi. O'lchovini ham o'zlari belgilagani natijasida bir tanga yunonlarning oltin o'lchov birligida 8 gramm oltinga teng bo'lgan.

Yunonlik hukmdorlar oltin, kumush va mis tangalar zarb qilganlar. Bozorda, asosan turli qiymatdagi kumush va mis tangalar muomalada bo'lgan. Odatda tangalarning old tomonida hukmdorning bosh qiyofasi, orqa tomonida esa yunonlarning ma'bud va ma'budalari (Afina, Dioskurlar, Gelios, Gerakl, Zevs va boshqalar) tasvirlangan. Bundan tashqari, tangalarning orqa tomonida har bir hukmdorning tang'asi va yunon harflari bilan ismi hamda hukmdorlik rutbasi bitilgan.

Evktratid I tangalarida ilk bor ikki tilda, ya'ni yunon va kxaroshtida bitilgan yozuvlar paydo bo'lgan va ular Hindiston zabt etilgandan so'ng zarb qilina boshlangan. Tangalar, asosan, Boxtar shahridagi zarbxonada bosilgan. Bu vaqtda Boxtar bozorlarida haqiqiy tangalar bilan bir qatorda, ularga taqlidan chiqarilganlari ham keng muomalada bo'lgan. Ularning qayerda zarb qilinishi hozircha ma'lum emas. Har bir shaharda savdo maydonchalari – bozorlar mavjud bo'lgan va ular ancha katta maydonni egallagan. Odatda o'zaro savdo-sotiq ishlari oddiy rastalarda amalga oshirilgan. Bozorlarda maxsus qurilgan do'konlar deyarli bo'lmagan. Shahar hududida bozorlar bo'lgani yozma

manbalarda ham uchraydi. Xususan, Xitoy manbalarida Boxtar shahrida katta bozor bo'lgani qayd qilingan.

Yunon-makedonlarga qaramlik davrida tashqi savdo ham jadal suratlar bilan rivojlangan. Masalan, Boxtarda hind hunarmandlari tomonidan fil suyagidan yasalgan buyumlarning bozori chaqqon bo'lgan.

Madaniyat va san'at. Yunonlar hukmronligi davrida Turon xalqlarining madaniyati bilan bog'liq yozma ma'lumotlar juda kam. Shunday ekan, ko'proq arxeologiya ma'lumotlariga tayanib xulosa qilish mumkin. Bu borada Kampirtepa, Eski Termiz, Xolchayon, Oyxonim, Taxtisangin va boshqa yodgorliklardan topilgan, toshdan tarashlangan, loy-ganchdan ishlangan mahobatli haykallar, rangli va manzarali devoriy suratlar, me'morchilik bezaklari alohida o'rin tutadi. Ular ishlanish uslubi, o'ziga xosligi, ta'sirchanligi, betakrorligi bilan ajralib turadi. Buni haykallar misolida ham ko'rish mumkin. Mazkur haykallarning birida yunon dunyosi an'analari yorqin ifodalangan bo'lsa, boshqalarida Boxtar an'analari, yana birlarida esa hind-gandhar madaniyati an'analari ta'sirini kuzatish mumkin. Haykallarda mahalliy ma'bud va ma'budalar, shohlar va sarkardalar qiyofasi tasvirlangan.

So'z ketayotgan davr Boxtar va Sug'dda tayyorlangan sopol idishlar yuqori sifati va bejirim shakli bilan ajralib turadi. Kulollar idishlarga bejirim shakl berib, ularni amaliy san'at asari darajasiga ko'tara olganlar. Boxtarda o'z zamonasining mashhur me'morlari, haykaltaroshlari, hunarmandlari, jumladan, o'ymakorlari, zargarlari faoliyat yuritganlar. Ular orasida tub aholi vakillaridan tashqari, kelgindi yunon-makedonlar ham bo'lgani shubhasiz.

IV. KUSHONIYLAR BOSHQARUVI DAVRI



Kushoniylar boshqargan hudud xaritasi

Tarim daryosi havzasida yashab kelgan ruziyelarning¹ bir necha qabilasi miloddan oldingi 176-yili Botir Tangriqutdan² zarba yeb, Ili vodiysi va Yettisuvga ko'chib ketishga majbur bo'lgan. Bir muddat o'tib esa ular Amudaryo bo'ylariga qarab harakatga tushganlar va ichki qarama-qarshiliklar girdobida qolgan yunon-makedonlarni quvib yuborganlar. Taxminan, miloddan oldingi 130-yillarda yuz bergan mazkur jarayon ta'sirida bosqinchilarning salkam ikki yuz yillik hukmronligiga chek qo'yilgan. O'g'uzlar tez orada Amudaryodan janubdagi yerlarni ham bo'ysundirishga erishganlar va butun hududni beshta *yobg'ulik*³ bo'lgan holda boshqara boshlaganlar. Har bir mahalliy boshqaruv te-

¹ Ruziyelar – Tangritog'ning (Tyanshan) sharqiy tomonlarida, tarixiy Sharqiy Turkistonning Urumchi va Qorashar viloyatlarining Xuanxe daryosi boshlanishigacha bo'lgan yerlarda yashagan o'g'uz urug'lari; xitoy manbalarida ular yuechji nomida tilga olinganlari bois, oldiniga ilmiy adabiyotlar, so'ngra kundalik tushunchada ko'proq mazkur atama o'rtnashib qolgan; holbuki yuechji atamasi miloddan oldingi III-II asrlardagina muomalaga kiritilgan bo'lib, ruziye (ruzie) o'qilgan; undan oldingi 700 yil ichida bitilgan asarlarda u ngiwo-zie, ngiwot-zie, ngiwo-chie, ngeu-chie, ngiwo-icie, ngo-icie, ngeu-icie deb talaffuz etilgan va har xil iyerogliflar bilan yozilgan; shundan kelib chiqib, yueji (ruzie/ruzie) o'g'uz yer, qisqacha o'g'uziya so'zining qadimgi xitoycha yozilishidan kelib chiqqan o'zgarishdir xulosasini qilish mumkin.

² Botir Tangriqut – miloddan oldingi 210–174-yillarda hunlar yetakchisi.

³ Xitoy manbalarida ularning xitoycha atalishi quyidagicha keltirilgan: Xyumi, Shuanmi, Sidun, Dumu va Guyshuan.

pasida yobg'u turgan va ularning barchasi oliy hukmdorga bo'ysungan. Milod boshiga qadar o'g'uzlar hozirgi shimoliy Pokistongacha bo'lgan yerlarni ham o'z nazoratlariga olishga muvaffaq bo'lganlar. Miloddan oldingi II asr oxirlaridan Xorazm hukmdorlari tomonidan zarb etilgan kumush tangalardagi podsho-chavandoz surati o'sha paytlari vohaga kirib kelgan ruziye sardorlari bilan bog'liqligini ham aytib o'tish lozim.

Ruziyelar mahalliy xalq yutuqlarini tasarruf etishdan tortinmaganlar. Bu, xususan, tanga bosishda yaqqol ko'rinadi. Ularning old tomonida noma'lum shohning bosh qiyofasi, orqa tomonida yunonlar xudosi Zevsning haykali tasvirlangan. Bu turdagi tangalarning asosiy qismi hozirgi Surxondaryo viloyatidan topilganini ta'kidlash joiz. Bu ularning shu hududda zarb qilinganidan dalolat beradi. Tangani faqat bosh hukmdor zarb qilishi mumkin bo'lgan. Vaqt o'tishi bilan tanganing orqa tomoniga Zevs o'miga ot tasviri tushiriladigan bo'lgan. Ma'lumki, turkiy xalqlarda ot ulug'langan. Ot tasviri tushirilgan bunday tangalar hozircha, asosan Dalvarzintepa va Xolchayon atrofidan topilmoqda. Shunga ko'ra, poytaxt ham dastlab Dalvarzintepa o'mida bo'lgani ehtimoldan xoli emas.

E'tiborlisi, borib-borib tangalarning old tomonidagi tasvir ham o'zgargan. Unda shohning haykali tasvirlangan bo'lib, uning yuz qiyofasi Xolchayonda topilgan haykallarga o'xshaydi. Tangalarning orqa tomonida o'tliq kishi tasvirlangan va yunon harflarida to'rtta so'z ham bitilgan. Birinchi so'z «hukmron», ikkinchi so'z «Geray», uchinchi so'z haligacha o'qilmagan, to'rtinchi so'z esa «kushon» deb o'qiladi. Gerayning qachon hukmronlik qilgani esa noma'lum. Biroq yuqorida tilga olingan besh yobg'ulikdan birining yetakchisi sanalmish Kushon (Guyshuan) nomi sulolaga asos bo'lgan.



Devoriy suratlar

Shu bilan birga, uning o'g'li yoki nabirasi bo'lgani taxmin qilinadigan Kujula Kadfiz¹ qolgan to'rt yobg'uni mag'lubiyatga uchratgani va o'zini birdan-bir hukmdor deb e'lon qilgani haqida ma'lumotlar bor. Nima bo'lganda ham, Kujula Kadfiz ruzie qabilalarini birlashtirib, o'zbek davlatchiligi tarixida kushoniylar sulolasi hukmronligi ostida kechgan yangi bosqichni boshlab bergan.

Ichki muammolarni yo'qotgan kushoniy hukmdor Parfiyaga qarshi urush boshlab, undan Kobulni tortib oladi. U tezda Aroxosiya² va Kashmirni ham

¹ Kujula Kadfiz – taxminan, 30–80-yillar kushoniylar sulolasining boshlig'i.

² Aroxosiya – hozirgi Afg'onistonning janubi-sharqi, Pokistonning shimolidagi tarixiy viloyat.

bo'ysundirishga erishadi. Shunday qilib, o'zbek davlatchiligi tarixida saltanatchilikka asos solinadi. U 80 yil umr ko'rgan. Afsuski, bu shohning nechanchi yillarda hukmronlik qilganligi bizga ma'lum emas, qolgan hukmdorlar haqida ham shuni aytish mumkin.

Kujula Kadfiz vafotidan so'ng taxtga uning o'g'li Vima Takto¹ o'tiradi. U o'zining qariyb 30 yillik hukmronligi davrida otasining siyosatini davom ettirib, saltanat tarkibiga Hindistonning shimoli-g'arbiy bo'laklarini qo'shib oladi. Iqtisodiyotni barqarorlashtirish niyatida pul islohoti o'tkazadi. Natijada, mamlakatda mis tangalar qatori oltin tangalar ham muomalaga kiritiladi. Oltin tangalarning qiymati ularning vazniga qarab belgilangan. Mamlakatda qo'sh dinorlar, dinor, yarim dinor va chorak dinor muomalada bo'lgan. Bir dinor 8 gramm oltinga teng bo'lgan.



Kushoniylar davri
san'at asari

Kushoniylar davri ma'muriy tuzilishi yozma manbalarda juda kam yoritilgan. Boxtar ham kushoniylar saltanati tarkibidagi bir viloyat bo'lib, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan mazkur hudud mamlakat hayotida alohida o'rin tutgan. Vima Takto vafot etgach, uning o'rini Vima Kadfiz² egallaydi. Uning zamonida poytaxt hozirgi Peshavor shahri yaqinida bo'lgan.

Vima Kadfiz vafotidan keyin uning o'rini o'g'li Kanishka I³ egallaydi. Kanishka I hukmronligi davrida saltanat o'z taraqqiyotining eng yuqori cho'qqisiga ko'tariladi. Xususan, hozirgi Panjob, Sind, Uttar Pradesh viloyatlaridagi yerlar qo'shib olinadi. Saltanat chegarasi sharqda Banorasgacha yetadi. Kanishka I Xitoy bilan urush olib borib, undan Sharqiy Turkistonni tortib oladi. Parfiya bilan bo'lib o'tgan janglarda ham bir qator g'alabalarni qo'lga kiritadi.

Milodiy I asrda Xorazmda yangi mahalliy sulolaning hukmronligi boshlangani, I–III asr boshlariga oid mis tangalaridagi yozuvlarda uning ikki vakili – Artav va Artamush ismlari tilga olinishi bilan bog'liq guvohliklar voha kushoniylar ta'sir doirasiga tortilmaganini ko'rsatadi.

Kanishka I saltanat hududlarini kengaytirish bilan birga davlatni ichdan mustahkamlashga ham katta e'tibor berib, bir necha islohotlar o'tkazgan.

¹ Vima Takto – 80–95-yillar kushoniylar sulolasining boshlig'i.

² Vima Kadfiz – taxminan, 95–127-yillarda kushoniylar sulolasining boshlig'i.

³ Kanishka I – 127–150-yillarda kushoniylar sulolasining boshlig'i.

Bunday islohotlarning eng muhimlaridan biri budda dinining davlat dini, deb e'lon qilinishidir. Buddaviylikni qabul qilgan Kanishka I buddaviylarning birinchi homiysiga aylanadi. Uning davrida juda ko'p budda ibodatxonalari qurilgan.

E'tiborga molik islohotlardan yana biri saltanat hududida boxtar tilining nu fuzi oshishi bilan bog'liqdir. Kanishka I tomonidan zarb qilingan tangalarda yunoncha yozuvlar o'rninga boxtar tilida so'zlar bitilishi shundan dalolat beradi.

Kanishka I 23 yil shohlik qilgach, taxtni Xuvishka¹ egallaydi. Uning hukmronligi davrida saltanat siyosiy inqirozga uchray boshlaydi. Xuvishka 30 yilcha shohlik qilgan. Uning o'limidan keyin taxtga Vasudeva I² o'tiradi. Uning hukmronligi 40 yildan ortiqroqqa cho'zilgan.

Ijtimoiy-iqtisodiy hayot. Miloddan oldingi IV–II asrlarda Xorazm vohasining turli joylarida ibodatxonalar barpo qilindi. Janubiy Xorazmda Elxaras, shimoli-g'arbda Katta Oybo'yirqal'a markazidagi ibodatxona, Quyi Amudaryoning so'l va o'ng sohil yerlarida Qal'aliqir 2, Govur va Qo'yqirilganqal'a shular jumlasiga kiradi. Ular mamlakat miqyosida bosh ibodatxonalar vazifasini bajarganlar. Oybo'yirqal'a ibodatxonasidan tashqari ular me'morchilik jihatdan doira shaklga ega bo'lib, mudofaa devorlar bilan o'ralgan.

O'lkada kushoniylar davriga oid yodgorliklar ahamoniylar, yunonlar bosqini va hukmronligi zamonlariga qaraganda bir necha marta ko'pligi bu boradagi taraqqiyotning sur'ati katta bo'lganidan guvohlik beradi. Shaharlar muayyan dehqonchilik vohasining ma'muriy, iqtisodiy va madaniy markazi vazifasini bajargan.

Milodiy II–III asrlarda qurilgan Tuproqqal'a (maydoni 17 ga), Xorazm hukmdorlarining sulolaviy markazi hisoblanadi. Shahar to'g'ri burchakli bo'lib, xom g'ishtdan tiklangan va qalin mudofaa devor bilan o'ralgan. Devorlarda shinaklar hamda burjlar mavjud. Tuproqqal'aning markaziy ko'chasi shaharni ikkiga bo'lib, uning shimoliy qismidan janubga – shahar darvozasiga yo'nalgan. Kichik ko'chalar guzarlarning turar joylarini bir-biridan ajratgan. Tuproqqal'a shahrining asosiy inshooti ulkan ichki qo'rg'oni bo'lib, u Xorazm hukmdorlarining qarorgohi edi. Saroyda turli maqsadlarda foydalanilgan yuzdan ortiq xona va haykallar bilan bezatilgan «shohlar koshonasi» ham bo'lgan. Saroyning bir qismi ikki qavatli edi. Shaharda taxminan, 2500 kishi yashagan. Ularning asosiy qismi Xorazm hukmdorlari qarorgohini muhofaza qilish va shohlarga xizmat ko'rsatish bilan band bo'lgan. Ko'p jihat-

¹ Xuvishka – taxminan, 150–180-yillarda kushoniylar sulolasining boshlig'i.

² Vasudeva I – milodiy 191–232-yillarda kushoniylar sulolasining boshlig'i.

larga ko'ra, Tuproqqal'a Qadimgi Sharq tarixida ma'lum «yopiq» shaharga o'xshab ketadi, chunki «shohlar shahri»ga kirishga ko'pchilikning imkoniyati bo'lmagan.

Abu Rayhon Beruniyning ma'lumot berishicha, shoh Afrig' Kat shahri yonidagi Fir degan joyda yangi qarorgoh barpo etadi. Milodiy IV asr boshlarida Tuproqqal'a saroyi huvillab qoladi. O'rta asrlar geograflarining yozishicha, Xorazmning qadim poytaxti Darjash deb atalgan, u Kat shahridan avval bunyod etilgan. Hozirgi kunda Darjash shahri Amudaryoning o'ng sohilida, Xorazm vohasida joylashgan Oqshaxonqal'a bilan bog'lanmoqda. Shahar to'rtburchak shaklda bo'lib, qalin mudofaa devorlari bilan o'ralgan. Devorlarning tashqi tomonida va burchaklarida burjlar joylashgan, devorlarning balandligi taxminan, 12–13 metrdan iborat bo'lgan. Shahar hududining shimoliy qismi yana bir qo'rg'on devori bilan o'ralgan. Oqshaxonqal'aning o'ta mustahkamlangan bu qismi, maxsus muhofaza qilinadigan «muqaddas shahar» hisoblangan, uning shimoliy burchagida yirik ibodatxona joylashgan. Ibodatxona atrofidagi yo'lak devorlari rangli suratlar bilan bezatilgan.

Vohalarda dehqonchilik Surxondaryo va Sheroboddaryodan chiqarilgan katta-kichik ariqlar faoliyati bilan bog'liq bo'lgan. Shu bilan birga, dehqonchilik madaniyatining tez sur'atlarda rivojlanishida yirik ariqlarning bunyod etilishi alohida o'rin egallagan. Hozirgi Amuzang kanali barpo etilishida qadimgi ariq o'zanidan foydalanilgan. Qadimgi ariqning bosh to'g'oni Surxondaryoning o'ng qirg'og'i bo'yida barpo etilgan va ariq qazilishi Angor hududidagi katta dehqonchilik vohasining qaror topishiga olib kelgan. Uning bo'yida qator qishloqlarga, Zartepa o'rnida esa shaharga asos solingan. Uni barpo etish jarayonida Turon qurilishi tarixida ilk bor bir vohadan ikkinchi vohaga suv o'tkazish amaliyoti qo'llangan. Surxondaryoning Amudaryoga quyilishi yaqinida yana bir ariq o'tkazilgan. Uning bosh to'g'oni Tollitog'ora yodgorligi yaqinida joylashgan bo'lib, bu ariq Termiz shahri va uning atrofidagi qishloqlarni suv bilan ta'minlagan.

Qishloq aholisi o'z dalalarida, asosan turli boshoqli o'simliklar, xususan, bug'doy, arpa, suli yetishtirib, ulardan un tayyorlab, shahar aholisiga sotganlar. Dalalarda turli sabzavotlar, shuningdek, chorva mahsulotlari ham yetishtirilgan. Bog'dorchilik keng yo'lga qo'yilib, ayniqsa, uzumchilikka alohida e'tibor qaratilgan.

Oqqo'rg'onda ochilgan uylar tarxining tahlili bu yerda ko'p oilali qishloq jamoasi yashaganini ko'rsatadi. Ular asosan dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish bilan shug'ullanganlar. Bu yerda maxsus tegirmon toshi tayyor-

laydigan ustaxona ham topilgan. Jamoa oqsoqolining uyi o'zining mahobati va ichki ko'rinishi bilan boshqa uylardan ajralib turadi.

Shaharlar va hunarmandchilik. Kushoniylar davrida saltanatning barcha hududlarida shaharlashuv jarayoni tez sur'atlar bilan rivojlangan. Bu davrda ilgarigi shaharlar o'z taraqqiyotida yanada yuqori bosqichga ko'tarilishi barobarida ko'plab yangi shaharlar ham qad rostlagan. Shaharlar jamiyat taraqqiyotining rivojini belgilovchi omilga aylanadi. Ular yirik o'lkalar, viloyatlar, vohalar va tumanlarning siyosiy-ma'muriy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va diniy markazlari vazifasini o'tagan. Bu voqelik kushoniylar sulolasining vatanlaridan biri bo'lgan Boxtarda ham o'z ifodasini topdi. Boxtar saltanat shimoli-g'arbidagi muhim strategik ahamiyatga molik siyosiy-iqtisodiy tayanch vazifasini bajargan. Shu boisdan kushoniy hukmdorlar uning yuksalishiga alohida e'tibor qaratganlar.

«Ming shaharli o'lka» deb atalgan Boxtarda hayot yanada yuksaldi. O'nlab katta-kichik yangi shaharlar, saroylar va mahobatli ibodatxonalarga asos solindi va tom ma'nodagi shahar madaniyati qaror topdi. Boxtar o'lkasining poytaxti Boxtar, Qalanzol, Dilbarjin, Chaqaloqtepa, Jigartepa, Surxko'tal, Kayqubodshoh, Yovon, Kalanmir, Shahrinav, Saksonoxur kabi qator yodgorliklar o'rnida qad rostlagan shaharlar buning yorqin dalilidir.

Surxon o'lkasining o'sha davrga oid eng katta shahri – o'lka markazi Termizdir. Termiz Amudaryoning o'ng sohilida, qulay daryo kechuvi ro'parasida joylashgani uning tarixdagi o'rnini belgilab bergan. Bu yerda shimolni janub, sharqni g'arb bilan bog'lovchi qadimgi savdo yo'llari kesishgan.

Termiz shahar qo'rg'oni shahriston, Chingiztepa, Qoratepa va shahar atrofida joylashgan Fayoztepa, Zurmala kabi yodgorliklardan iborat bo'lib, uning umumiy maydoni 350 gektardan ortiq bo'lgan. Daryo bo'yida joylashgan shahar qo'rg'oni 10 gektar maydonni egallagan bo'lib, u uch tomondan mahobatli mudofaa devorlari bilan o'ralgan. Shahar qo'rg'onida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar va topilgan ashyolar bu yerda kushoniylar davrida ko'plab mahobatli inshootlar bo'lganligidan va hayot jadal rivojlanganligidan guvohlik beradi. Binolar kvadrat shakldagi xom g'ishtlardan barpo etilgan. Ma'muriy binolarni bezashda turli me'moriy bezaklardan, xususan, oq ohaktoshdan tarashlangan ustun taglari va korinf uslubiga xos ustun qoshlaridan foydalanilgan. Mazkur bezaklar yunon me'morchiligi an'analari kushoniylar davrida keng qo'llanganidan guvohlik beradi.

Kushoniylar davrida Termizning diniy va mafkuraviy markaz sifatidagi ahamiyati yanada kuchaygan. Buni qadimgi Termizdagi Qoratepa, Chingiz-

tepa, Fayoztepa va Zurmala kabi buddaviylik markazlari misolida ham ko'rish mumkin. Xususan, Qoratepa buddaviylik markazi 8 gektardan ortiq maydonni egallagan bo'lib, bu yerda 20 ga yaqin mahobatli budda ibodatxonalari joylashgan. Termiz shahri ham kushoniylar davrida saltanatning g'arbdagi yirik buddaviylik markazlaridan biri bo'lib, buddaviylik dini hamda badiiy madaniyatining Marg'iyonada va Xitoyda tarqalishida muhim ahamiyat kasb etgan.

Kushoniylar davrida Termiz shahrining nafaqat Surxon vohasi, balki Boxtar o'lkasi iqtisodiy hayotidagi o'rni yanada yuksaldi va mustahkamlandi. Shahar iqtisodiy hayotida hunarmandchilikning o'rni katta bo'lgan. Kulolchilik, to'qimachilik, zargarlik, temirchilik, toshtaroshlik kabi sohalar jadal rivojlangan. Kushoniylar davriga oid shaharlardan Zartepa, Dalvarzintepa, Kampirtepa va Xolchayonning ham alohida o'rni borligini ta'kidlash joiz.

Kushoniylar davrida shaharlar o'lka, viloyat va tumanlarning siyosiy hamda ma'muriy markazlari bo'lishi barobarida, o'z davrining muhim hunarmandchilik markazlari vazifasini ham bajargan. Bu davrda hunarmandchilikning barcha turlari yanada yuqori bosqichga ko'tarilgan. Maxsus xumdondlarda pishirilgan sopol idishlarning asosiy qismi kulolchilik charxida tayyorlanib, ular o'zining yuqori sifati, bejirimligi, shaklan xilma-xilligi, turli bo'yoq va naqshlar bilan bezatilganligi bilan ajralib turadi. Kulollar mahalliy aholi orasida juda e'zozlangan ma'bud va ma'budalar haykallarini ham mohirona yasaganlar. Shu davrda to'qimachilik ham keng rivojlangan. Tadqiqotlar davomida mato parchalari, sopol va oq ohaktoshdan yasalgan urchiqboshilarning ko'plab topilishi hamda tasviriy san'at namunalari aks etgan turli liboslar shundan dalolat beradi.

Kushoniylar davrida toshtaroshlik ham yuqori darajada rivojlangan. Bu davrda oq ohaktoshdan taroshlangan me'morchilik unsurlari bilan bir qatorda toshdan odamlar va hayvonlar haykallarini tayyorlash san'ati shaharda keng tarqalgan. Toshdan yasalgan me'moriy unsurlar va haykallar odatda mahobatli saroy va ibodatxonalarini bezatishda qo'llanilgan. Toshtaroshlik san'atining yorqin va betakror namunalari Qadimgi Termiz, Ayritom va Surxko'tal yodgorligida ko'plab topilgan.

Suyakdan tayyorlangan va sochlarni turmaklashga mo'ljallangan ko'plab to'g'nog'ichlar, taroqlar va shaxmat donalarining topilishi kushoniylar davrida suyaktaroshlikning ham yuqori taraqqiy etganidan dalolat beradi. Xususan, Zartepada suyakdan turli to'g'nog'ichlar tayyorlanadigan ustaxona, Dalvarzintepada esa shaxmat donalari va taroq topilgan.

Shaharning iqtisodiy va madaniy hayotida temirchilik va zargarlik alohida o'rin tutgan. Ustalar temirdan qaychi, qisqich, kalit, katta-kichik pichoqlar yasab,

bozorga chiqarganlar. O'ymakorlar jezdan likopcha, cho'mich, uzuk, turli taqinchoqlar tayyorlaganlar. Bu borada kushoniylar shahanshoi Xuvishka tasvirlangan, Zartepadan topilgan jez alohida e'tiborga molik. Temir va jezdan tayyorlangan buyumlarga nafaqat shahar, balki qishloq aholisi orasida ham ehtiyoj katta bo'lgan. Kushoniylar davrida zargarlar jez, kumush, oltin va turli qimmatbaho toshlardan uzuk, bilakuzuk, sirg'a, zanjir, turunjlar va boshqa turli-tuman taqinchoqlar yasab, bozorga chiqarganlar. Zargarlik buyumlariga aholining ehtiyoji katta bo'lgan. Qazishmalar davomida zargarlik buyumlarining ko'plab topilishi shuni ko'rsatadi. Kushoniylar davrida zargarlik san'ati misli ko'rilmagan yuqori bosqichga ko'tarilgani kuzatiladi. Buni mashhur «Dalvarzintepa xazinasini» va Tillatepa yodgorligidan¹ topilgan nafis va betakror zargarlik buyumlari misolida ham ko'rish mumkin.

Ichki va tashqi savdo. Miloddan oldingi 128-yili Buxtarda bo'lgan va u yerda bir yildan ortiq yashagan xitoylik elchi Chjan Szyanning yozishicha, Buxtarda «...savdo ishlariga chaqqon», «...o'lka poytaxti Lyanshi (Buxtarda) bozorlarida har xil mollar sotiladi». Bundan o'lkaning iqtisodiy hayotida bozorlarning o'rni katta bo'lgani anglashiladi va bu munosabatlarni muvofiqlashtirish bozorga yangi tangalarni muomalaga chiqarishni taqozo etgan.

Tadqiqotlar «Sater Megas», Vima Kadfiz, Kanishka I, Vasishka, Xuvishka, Vasudeva tomonidan zarb qilingan tangalarni yuzaga chiqargan. Vima Kadfiz hukmronligi davrida esa pul islohoti o'tkazilgani ma'lum.

Shundan e'tiboran saltanat hududida tovar-pul munosabatlari turli qiymatdagi oltin o'lchoviga asoslanib, mis tangalarning qiymati ham o'zgargan. Oltin tangalar zarb qilishning yo'lga qo'yilishi birinchi galda kushoniylar saltanatining xalqaro savdodagi o'rning ko'tarilganidan va ichki savdoning tez sur'atlar bilan rivojlanganidan dalolat beradi. Oltin tangalarning saltanat hududidagi shaharlardan topilishi buning yorqin isbotidir. Kushoniylarning oltin tangalari Buxtarda shaharlarida, xususan, Surxondaryo yodgorliklarida ham uchraydi. Saltanatning ichki bozorlaridagi tovar-pul munosabatlari, asosan mis tangalarga asoslangan bo'lib, buni Surxondaryo shahar va qishloqlarida topilgan turli qiymatdagi tangalar misolida ko'rish mumkin.

Oltin asoslangan tovar ayirboshlash savdogarlar uchun ancha qulaylik yaratgan. Saltanat hududiga kirgan qadimgi shaharlarda topilgan arxeologik ashyolar bu davrda kushoniylar Rim saltanati shaharlari va Xitoy bilan yaxshi savdo aloqalari o'rnatganlaridan dalolat beradi. Xususan, Rimdan turli rangli

¹ Tillatepa yodgorligi – Shimoliy Afg'onistondagi Shibirg'on yaqinida joylashgan qadimiy shahar.

shisha idishlar, taqinchoqlar, jezdan ishlangan ma'bud haykallari, Xitoydan esa ipak gazlamalar va loklangan idishlar, ko'zgulalar olib kelingan. O'z navbatida, kushoniylar saltanatida fil suyagidan tayyorlangan turli buyumlar, temir va qimmatbaho toshlar o'zga davlatlarga olib borilgan.

Dehqonchilikning jadal rivojlanishi, shahar va qishloqlarning gullab-yashnashi, hunarmandchilik taraqqiyoti, ichki va xalqaro savdoning uzviylashuvi kushoniylar davrida madaniyatning yanada rivojlanishi, uning yangi bosqichga ko'tarilishiga keng zamin yaratgan.



Diniy e'tiqod, madaniyat va san'at. Kushoniylar asos solgan saltanat taraqqiyotning turli bosqichlarida bo'lgan xalqlar va elatlar yashaydigan o'lka va viloyatlarni birlashtirgan edi. Ular turli tillarda so'zlashganlar, ularning yozuvi, madaniy an'analari va diniy tasavvurlari turlicha bo'lgan. Moddiy madaniyati ham bir-biridan anchayin farq qilgan. Kushoniylar davrida joylardagi madaniy an'analar ma'lum darajada o'zaro bir-biri bilan uzviylashdi va umumiy ko'rinishga ega bo'ldi. O'zaro o'xshashlik madaniy hayotning ma'lum yo'nalishlarida, xusu-

san, tasviriy va amaliy san'atda o'z ifodasini topdi. Shunday bo'lsa-da, har bir tarixiy-madaniy o'lka o'ziga xos an'analarini saqlab qoldi va uni zamon talabiga moslashtirib rivojlantirdi. Ilk pallalarda kushoniy shohlar saroyida yunonlarga xos marosim namunalari qabul qilingan bo'lsa, buyuk kushoniy shahanshohlar hukmronligi davrida saroy ahlining hayoti va ish yuritilishida mahalliy ko'rinishlar keng tus ola boshlagan. Albatta, bu jarayonda kushoniy hukmdorlarning rasm-rusumlar, boshqaruv, madaniy hayotda olib borgan siyosatlari hal qiluvchi o'rin tutgan. Bu borada Vima Kadfiz va Kanishka I tomonidan saltanatning diniy va madaniy hayoti bilan bog'liq olib borilgan siyosatni qayd qilish mumkin. Vima Kadfiz o'z hukmronligi davrida, asosan hindlarga tayangan va shu sababli hind madaniyati rivojiga alohida e'tibor qaratgan. Buni Vima Kadfiz tomonidan zarb qilingan tangalar misolida ham ko'rish mumkin. Tangalarning old tomonida muqaddas olovgoh yonida tik turgan shohning tasviri, ularning orqa tomonida muqaddas ho'kiz Nandi oldida hind ma'budlaridan biri Shivaning tasviri tushirilgan. Vaholanki, bungacha tangalarning old tomonida shohlar qiyofasi, orqa tomonida esa yunon ma'budlaridan birining tasvirini tushirish odat bo'lgan. Ilk kushoniy hukmdor

Geray tangasining old tomonida shohning qiyofasi, orqa tomonida esa otda o'tirgan shoh tasvirlangan. Shu uslubda bajarilgan tasvirlar «Sater Megas» tangalarida ham uchraydi.

Kanishka I hokimiyat tepasiga kelgach, otasi Vima Kadfiz olib borgan siyosatga mos ravishda turonlik xalqlarga suyangan va ularning madaniy hayotini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratgan hamda bu borada qator islohotlarni amalga oshirgan. Xususan, Kanishka I boxtar tilini davlatning rasmiy tili sifatida qabul qilgan. Uni ifoda etishda



Devoriy haykallar

yunonlar alifbosidan foydalanilgan. Kanishka I tomonidan zarb qilingan tangalarda Turon xalqlari orasida keng tarqalgan va alohida e'zozlangan ma'bud va ma'budalarning tasvirlari o'rin olgan. Ular orasida olov ma'budi Otash, Quyosh ma'budi Mitra, Oy ma'budi Max, suv ma'budi Vaxsh, shamol ma'budi Vado, g'alaba ma'budi Orlagno, hosildorlik va shohlik ma'budi Farro, Nano va Xvaninda kabi qator ma'budalar tasviri mavjud. Kanishka I hukmronligi davrida ko'chmanchi qabilalarda e'zozlangan va ilohiylashtirilgan ajdodlarga sig'inish odati yangi bosqichga ko'tarildi. Saltanatning turli o'lkalarida ularga bag'ishlab qator mahobatli ibodatxonalar bunyod etilgan. Mana shunday ibodatxonalardan biri Mat¹ qishlog'i yaqinida, ikkinchisi esa Boxtardagi Surxko'tal tog'ida qurilgan. Kanishka tomonidan otasi Vima Kadfiz II sharafiga bunyod etilgan Mat ibodatxonasi hind me'morchiligi an'analari uslubida qurilgan. Ibodatxonada o'rnatilgan haykallar Boxtar haykaltaroshligi an'analariga xos uslubda yaratilgan. Haykallarning birida shahanshoh Kanishka I ning ismi bitilgan.

Surxko'tal ibodatxonasi Bag'lon viloyatida² topilgan. Ibodatxona o'lchami 35x27 metrga teng bo'lib, u tog'ning yuqori qismida joylashgan. Ibodatxonaga maxsus tosh zinapoyalar orqali chiqilgan. Ibodatxonaning markazida uch tomondan yo'laksimon xonalar bilan o'ralgan kvadrat shaklidagi ziyoratxona joylashgan. Ziyoratxonada kushoniy shohlar xotirasiga bag'ishlab olov yoqiladigan chiroqjoy topilgan. Qoyatoshda bitilgan boxtar yozuviga qaraganda,

¹ Mat – hozirgi Tojikiston hududida, Zarafshon daryosining boshlanishida joylashgan qishloq.

² Bag'lon viloyati – hozirgi Afg'onistonning shimoli-sharqidagi viloyat.

bu «G'olib Kanishka ibodatxonasi» bo'lgan. Ibodatxona atrofi maxsus devorlar bilan o'ralgan va to'g'ri burchak shaklidagi burjlar bilan mustahkamlangan. Ichkari tomondan mudofaa devorlari bo'ylab ayvon joylashtirilgan. O'z davrida bu ayvonlarda loy-ganchdan va toshdan yasalgan haykallar o'rnatilgan bo'lib, ulardan birida shahanshoh Kanishka I tasvirlangan.



Devoriy haykallar

Mashhur ajdodlarga topinish, aholi ongiga ularni ulug'lash ruhini singdirish yo'lida Buxtarda bunyod etilgan eng qadimgi mahobatli inshootlar sirasiga Xolchayon saroyini kiritish mumkin. Saroy miloddan avvalgi I – milodiy I asrlarga oid bo'lib, uning ayvoni va qabulxona devorlarining pastki qismi devoriy suratlar bilan, yuqori

qismi esa loydan yasalgan haykallar bilan bezatilgan. Saroy qabulxonasining bir devorida hokim va uning oilasi, qarindoshlari, boy zodagonlar va ayollardan iborat kompozitsiya tasvirlangan. Qabulxonaning boshqa bir devorida esa dushmanga hujum qilayotgan otliqlar tasviri aks etgan. Haykaltaroshlar yaratilayotgan har bir siymoning o'ziga xos ko'rinishlarini mohirona ifoda etganlar. Bu yerda yunon madaniyati bilan bog'liq siymolarning haykallari ham keng o'rin olgan. Saroyni bunday bezatish orqali kushoniy hukmdorlar mazkur davlat asoschilaridan biri Gerayning nomini ulug'laganlar. Shu nuqtayi nazardan Xolchayonda topilgan haykallardan birining yuz qiyofasi Geray tomonidan zarb qilingan tangalardagi surat bilan o'xshashlik kasb etishi e'tiborga molik.

Sulolaga topinish bilan bog'liq yana bir ibodatxona Bag'lon viloyatida kashf etilgan Rabotok ibodatxonasidir. Mavjud bitiklar tahliliga ko'ra, bu ibodatxona shahanshoh Kanishka I buyrug'iga binoan avval o'tgan kushoniy hukmdorlar xotirasiga bag'ishlab bunyod etilgan bo'lib, u Kanishka I amalga oshirayotgan buyuk ishlarini ulug'lashga qaratilgan.

Kushoniylarning sulolaviy ibodatxonalari Shimoliy Buxtarda hududlarida, xususan, Surxondaryo viloyatida ham ma'lum. Mana shunday ibodatxonalaridan biri Termiz shahridan 18 km sharqda Amudaryoning o'ng qirg'og'ida joylashgan Ayritom yodgorligida topilgan. Ibodatxonada oq ohaktoshdan yasalgan ikki odam tasvirlangan haykalning tag qismi topilgan. Unda olti qatordan iborat buxtar yozuvi saqlanib qolgan. Yozuvda qayd qilinishicha, bu ibodatxona shahanshoh Xuvishka hukmronligining to'rtinchi yilida qurilgan. Xuddi shu yili qo'rg'on mudofaa devorlari ham ta'mirlangan.

Kushoniylar saltanati hukmronligi davrida buddaviylik dini va badiiy madaniyati o'z taraqqiyotida yangi bosqichga ko'tarildi. Juda katta tarixiy-madaniy o'lkalarning bir davlat tasarrufiga o'tishi va buning natijasida yuzaga kelgan siyosiy barqarorlik budda dini rohiblari va targ'ibotchilarining butun saltanat hududlarida bo'lib, mahalliy xalq orasida uni keng targ'ib qilishlari uchun imkoniyatlar yaratdi. Kushoniy shahanshohlar ham mazkur ta'limot va badiiy madaniyatning saltanat hududida keng tarqalishiga alohida e'tibor qaratganlar. Ular o'zlari ham saltanatning hamma o'lkalarida budda ibodatxonalari, stupalar va boshqa inshootlar bunyod etilishida homiylik qilganlar. Buddaviy rivoyatlarga ko'ra, bu borada shahanshoh Kanishka I alohida o'rin tutgan. Ularda Kanishka I buddaviylikning chin ixlosmandi va buddaviylarning 78 yildagi uchinchi katta xalqaro yig'ilishi tashkilotchisi sifatida tilga olinadi. Mazkur yig'ilishda buddaviylarning shimoliy yo'nalishi aqidalari ishlab chiqilgan. Bu yo'nalish keyinchalik Xitoy, Tibet, Mo'g'uliston, Yaponiya va Koreyada keng tarqalgan. Saltanat poytaxti Purushapurda balandligi 30 qavatli binoga teng bo'lgan mahobatli suvarga – budda uyining barpo etilishi ham Kanishka I nomi bilan bog'liq. Suvarganing mahobati va uni bezashda ishlatilgan yog'och o'ymakorligi namunalari milodiy VII asrda Peshavorda bo'lgan Xitoy sayyohi Syuan Szyanni hayratga solgan hamda u bu suvargani «dunyo mo'jizalaridan biri» sifatida qayd qilgan. Peshavorda Kanishka I tomonidan mahobatli buddaviy ibodatxona ham barpo etilgan. Kushon shahanshohlari buddaviylik diniga alohida e'tibor qaratgan bo'lsalarda, mazkur ta'limot saltanatning rasmiy davlat dini sifatida qabul qilinmagan. Shuning uchun bo'lsa kerak, kushoniy shahanshohlar tomonidan zarb qilingan tangalarda Buddha tasviri uchramaydi. Hatto, Kanishka tangalarida ham Buddha tasviri sanoqlidir.

Boxtarda buddaviylik dini va badiiy madaniyatining keng tarqalishi ham kushoniylar saltanati bilan bog'liqdir. Boxtarliklar Buddha ta'limoti bilan miloddan avvalgi II asrning ikkinchi yarmi – I asrlardayoq tanish bo'lganlar. Buddha dini va madaniyatining Boxtarga kirib kelishi va tarqalishi Vima Takto davriga to'g'ri keladi.

Buddaviy inshootlar Boxtarning ko'p joylarida aniqlangan. Ularning eng mahobatli lari poytaxt Boxtar va Termiz shaharlarida joylashgan. Boxtar shahridagi Tepayi Rustam suvargasi, Sharqi Falak va Navbahor ibodatxonalari kushoniylar davriga oiddir. Buddaviylik madaniyati bilan bog'liq qator yodgorliklar Shimoliy Boxtarda, xususan, Surxondaryo viloyatida aniqlangan. Bu borada Termizdagi buddaviylik majmualari alohida o'rin egallaydi.

Termiz shahri kushoniylar davrida Shimoliy Boxtarning ma'muriy va madaniy markazi vazifasini bajarish bilan bir qatorda nafaqat vohaning, balki kushoniylar saltanatining g'arbdagi eng yirik budda dini va badiiy madaniyatining markaziga aylangan. Shahardagi Qoratepa buddaviylik markazi dunyoga mashhur. Termiz shahar qo'rg'oni va Qoratepa o'rtasida joylashgan Chingiztepa ham kushoniylar davrida buddaviylarning o'ziga xos markaziga aylangan. Bu yerda oltin suvi bilan hallangan Buddha haykalining boshi topilgan.

Fayoztepa ibodatxonasida oq ohaktoshdan yasalgan muqaddas bodxi daraxti tagida o'tirgan Buddha va uning ikki yonida o'tirgan rohiblar haykallari majmuasi topilgan. Termizdagi buddaviylik madaniyati bilan bog'liq yana bir yirik inshoot bu Zurmaladir. Bu yodgorlik qadimgi Termizdan sharqda, shahar mudofaa devorlari tashqarisida joylashgan.

Kushoniylar davri Boxtar buddaviylik ibodatxonalari o'zining nafaqat mahobati va me'moriy echimlari bilan, balki ichki qiyofasining bezakdorligi bilan ham ajralib turadi. Odatda ularning devorlari oq va qizil rangga bo'yalgan. Ayrim xonalarning devorlari esa rangli manzarali suratlar bilan bezalgan.

Devoriy suratlar, haykallar va me'moriy bezaklar kushoniylar davrida Boxtarda o'ziga xos an'analarga ega buddaviy badiiy madaniyat qaror topganidan va rivojlanganidan guvohlik beradi. Mazkur madaniyatning shakllanishida bir tomondan yunon, ikkinchi tomondan gandxara buddaviy madaniyati ta'siri ancha sezilarli bo'lganligi ko'zga tashlanadi.

Qoratepa va Fayoztepa yodgorliklarida 400 dan ortiq kxaroshtxi, braxma, boxtar yozuvi va noma'lum yozuvda sopol idishlarga qora siyoh bilan bitilgan bitiklar topilgan. Ba'zan bitta sopolida ikki yoki uch xil yozuvda bitilgan so'zlar uchraydi. Yozuvlarda Qoratepada yashagan va buddaviy aqidalarni yaxshi bilgan hind hamda mahalliy xalq vakillaridan bo'lgan Buddashira¹ va Buddamirta² kabi mashhur rohiblarning nomlari qayd qilingan. Bu yerda ijtimoiy turmushning ma'lum jihatlarini ifoda etuvchi yozuvlar ham ko'plab topilgan. Qoratepa va Fayoztepadan topilgan kushoniylar davriga oid madaniyat namunalari Termizda yozuv madaniyati, xattotlik san'ati va tarjimonlikning yuqori darajada rivojlanganini ko'rsatadi.

Boxtar o'lkasining biror-bir shahrida buddaviylik bilan bog'liq bunchalik ko'p ibodatxonalar ma'lum emas. Bu ham Termiz buddaviylikning Boxtardagi eng yirik markazi bo'lganligini ko'rsatadi. Bunda shaharning strategik o'rni, daryo kechuvi bo'yida, shimolni janub, sharqni g'arb bilan bog'lovchi

¹ *Buddashira* – buddaviy rohib.

² *Buddamirta* – buddaviy rohib.

savdo yo'li chorrahasida joylashganligi belgilovchi omil bo'lgan. Bu markaz budda dini va badiiy madaniyatining Buyuk ipak yo'li orqali Xitoyda keng tarqalishida alohida o'rin tutgan.

Mahobatli budda ibodatxonasi Dalvarzintepada ham bo'lgan. Ibodatxona va haykallar milodiy III asrning ikkinchi yarmi – IV asrning boshlariga mansub. Xuddi shu davrga oid buddaviy inshootlar Zartepa yodgorligida¹ ham topilgan. Ibodatxonalarning birida hinduviylar va buddaviylarda e'zozlangan Garuda – oltin qanotli burgutning mahobatli rangli tasviri, ikkinchisida esa Buddaning oltin suvi bilan hallangan boshi topilgan. Zartepada so'nggi kushoniylar davriga oid 500 ga yaqin tanga topilgan.

Mahobatli buddaviy inshootlar qurilishi katta mablag' talab qilgan. Bu ishga shohlarning joylardagi noiblari, shahar hokimlari, saroy ahli, savdogarlar va shaharliklar homiylik qilganlar. Bunga javoban minnatdorlik ramzi sifatida barpo etilgan ibodatxonalarda ularning surat va haykallari o'rnatilgan. Termiz va Dalvarzintepa ibodatxonalarida homiyilar surat va haykallarining topilishi buning yorqin ifodasidir.

Kushoniylar davrida buddaviylik dini va badiiy madaniyatining Boxtar ijtimoiy-madaniy hayotidagi o'rni yanada mustahkamlanganligini kulolchilik buyumlari misolida ham kuzatish mumkin. Bu davrda qizil tusli sopol idishlarning aksariyati kulolchilik charxida tayyorlangan bo'lib, ular o'zining yuqori sifati va bejirim shakli bilan ajralib turgan. Milodiy III–IV asrlar boshlaridan bu idishlarni bezashda buddaviy unsurlar qo'llana boshlangan. «Budda g'ildiragi», «Budda tovoni», shering boshi va turli uyurma tasvirlar shular jumlasidandir. Bu idishlarning ko'pchiligi o'z zamonasining noyob amaliy san'ati namunalari hisoblangan.

Kushoniylar davrida Buxtarning ijtimoiy hayotida zardushtiylik va mahalliy diniy tasavvurlarning o'rni ham yanada ko'tarilgan. Mahalliy diniy tasavvur ixlosmandlari shaharlar va ayniqsa, qishloqlar aholisi orasida keng tarqalgan. Turon va xususan, Boxtar aholisi orasida e'zozlanib, ulug'langan ma'bud va ma'budalarning jamiyat hayotidagi o'rni Kanishka I tomonidan o'tkazilgan islohotdan keyin yanada oshdi. Mahalliy ma'bud va ma'budalarning tasvirlari shahanshohlar tangalarida o'z ifodasini topishi buning yorqin isbotidir. Ularning tasvirlari saroy, ibodatxonalar devoriy suratlarida, haykallarda, o'ymakorlik buyumlarida, uzuk ko'zlarida ham keng tarqaldi. Boxtar aholisi orasida Mitra, Mao, Farro, Jana, Oxsho, Ordaxsha, Xvaninda kabi ilohlar e'zozlangan. Ularning aksariyati zardushtiylik ilohlari qatoriga

¹ Zartepa yodgorligi – Surxondaryodagi buddaviy yodgorlik.

kirgan. Joylarda ayniqsa, ayol ma'budalarga topinish keng tarqalgan. Ularning terrakotaga muhrlangan qiyofalari har bir xonada saqlangan.

Boxtar aholisi orasida ot va chavandoz siymolari ham chuqur e'zozlangan. Ot va otliq siymolar turkiy xalqlar, shuningdek, chorvachilar orasida ulug'lanib, unga topinganlar.

Ekin-tikinchi aholining dafn marosimlari bilan bog'liq yodgorliklar Buxtarning shimoliy hududlarida ham aniqlangan. Zardushtiylilik aqidalariga ko'ra yer, suv va olov muqaddas hisoblangan. Suyak idishlar, asosan, Xorazm, Sug'd va Chochda keng tarqalgan. Buxtarda mayit suyaklarini suyak idishlarga solish urf bo'lmagan. Bu yerda kata, daxma va naus shaklidagi dafn inshootlari keng tarqalgan. Katalar kichik xonachalar shaklida bo'lgan. Nauslar esa katalarga nisbatan mahobatli bo'lib, ularda mayit yotqizilgan holda dafn etilib, yoniga sopol idishlar va taqinchoqlar qo'yilgan. Dalvarzintepada sopol-dan yasalgan tobutlar ham topilgan.

Kushoniylar davrida Buxtarda yorma va lahad shaklidagi qabrlardan iborat qabristonlar bo'lgan. Mahalliy aholining ma'lum qismi va ko'chmanchi qabilalar vakillari dafn etilgan bunday qabrlarda mayitlar yoniga turli sopol idishlar, taqinchoqlar, ko'zgul, qurol-yarog'lar, ko'pincha mayitning og'zi yoki ko'krak qismiga kumush tanga yoki oltin taxtacha qo'yilgan. Ko'chmanchilarga tegishli bunday qabrlarning ayrimlari o'zining boy dafn ashyolari bilan ajralib turadi. Tillatepa qabrlarida topilgan zeb-u ziynatlar bunga dalil bo'la oladi. Bu yerda ochib o'rganilgan miloddan avvalgi I–milodiy I asrlarga oid oltita qabrdagi mayitlarning barchasi shohona – oltin liboslarda, turli zeb-u ziynatlar og'ushida dafn etilgan. Mazkur topilmalarning har biri noyob va betakror san'at asari hisoblanadi.

V. EFTALIYLAR BOSHQARUVI DAVRI

Eftaliylarning o'zbek davlatchiligi tarixidagi o'mi kushoniylarnikiga o'xshab ketadi. Har holda, boshlang'ich pallada shunday bo'lgani kuzatiladi. Chunonchi, ular IV asrning ikkinchi yarmida Oltoy tog'larining janubi-g'arbiy – Tangritog'ning shimoli-sharqidagi yerlarni tashlab, Sharqiy Turkiston orqali Pomir – Badaxshon tog'lariga, bir oz keyinroq esa Toxaristonga¹ kelib joylashganlar. Kushoniylardan farqli o'laroq, ularning bu yurtlarga ko'chishi sabablari aniq emas. Biroq Qora dengiz bo'ylaridan Xitoy devori va Uzoq Sharqqacha yastangan ulkan kenglikda o'troq va ko'chmanchi turmush kechirib kelayotgan ko'pdan-ko'p turkiy el, elat, urug'lar uchun u yerdan bu yerga ko'chib o'tish tabiiy sanalgan.

Kelib chiqishi bo'yicha bir-biriga u yoki bu darajada bog'lanib ketuvchi ushbu el-uluslarning ko'pchiligi xitoy yilnomalarida «syunnu» (hunnu), negizida esa «hun» so'zi yotuvchi yirik elatning biror urug'i bo'lib, keyinchalik ular «xioniy», «oq hun», «qizil hun», «tuyuhun», «avar» singari tarmoq nomlari bilan yuritila boshladi. Bunday tarmoqlanishning negizida turonlik qadimiy el-uluslarga xos tizim – biror tus nomi orqali o'zlarining yerlashuv o'rmini belgilash yotar edi. Eski turkiylar tushunchasi bo'yicha «oq» – g'arb, «qizil» – janub, «ko'k» – sharq va «qora» shimol tomonlarni anglatardi.

«Eftaliy» atamasi ilmiy muomalaga odatdagidek yunon negizida kirib kelgan va G'arb dunyosida mustahkam o'rinish olgan, Sharq, xususan, musulmon olamida ularni ko'proq «haytallar» deb atash rasm bo'lgan. Ko'pchilik manbalarda ular hun yoki hunlarning bir urug'i sifatida keltirilgan bo'lib, bu lotin, yunon, fors manbalarida ular uchun qo'llangan hyon, huni, hunni, khuni, unnoi, ounnoi, hyaona, chionitai, hyoni kabi atamalarda o'z tasdig'ini topadi. Eftaliylar hukmdorlaridan ayrimlari tomonidan zarb etilgan tangalardagi ol hun atamasini «qizil hun», «oq hun»² qabilida tushuntirishga urinishlar, xitoy

¹ *Toxariston* – IV asrdan boshlab muomalaga kiritilgan va aslida tarixiy Buxtarni bildirgan, Janubiy O'zbekiston (Surxondaryo viloyati), Janubiy Tojikiston va Shimoliy Afg'onistonni o'z ichiga olgan tarixiy-jo'g'rofiy hudud.

² Xitoycha «bay syunnu» oq hun ma'nosida bo'lib, yunoncha Leukoi Hunnoy atamasi negizida ham shu so'z yotadi.

va yunon manbalaridagi «g'arbiy hun», «oq hun»dan qat'i nazar eftaliylar yoki oq hunlar turkiy sulolalardan biri ekani shubhasiz.

Eftaliylar tili turkiylarning ogur (o'g'ur) tarmog'i tiliga yaqin bo'lgan deyish mumkin. Yozma manbalarda eftaliylarning ko'pincha hunlarning bir tarmog'i sifatida tilga olinishi ham bu taxminni kuchaytiradi.

IV asrdanoq sustlashish jarayonini boshdan kechirib kelayotgan kushoniylar dastlab yuksalish sari intilayotgan yangi siyosiy kuch – hunlarga (xioniylarga), keyinchalik esa ularning boshqa bir tarmog'i bo'lgan eftaliylarga qarshi turolmaganlar. Shu tariqa, V asrdan umuman Turon tarixida, xususan, o'zbek davlatchiligi tarixida yangi bosqich – eftaliylar hukmronligi davri (420–565) boshlanadi.

Taxminan, 457-yili eftaliylar yetakchisi Vaxshunvor (Axshunvor, Oq shunqor) Chag'oniyon, Toxariston, Badaxshonda hokimiyatni qo'lga oladi. Keyingi yillarda kunchiqarda Qorashahargacha¹, g'arbda Hirot va uning atroflari, janubda Shimoliy Hindistongacha bo'lgan ulkan hudud ular qo'li ostida qayta birlashtirilgani e'tiborga olinsa, eftaliylar boshqaruvi, asosan, kushoniylar idora qilgan mintaqaga to'g'ri kelishi ayon bo'ladi.

Tashqi munosabatlarga xos masalalar ham eskicha edi. Ular ham g'arbiy chegaralarni sosoniylardan² qo'riqlashlari lozim edi. Garchi ikki tomon o'rtasidagi dastlabki to'qnashuvlar V asr 30-yillaridayoq sodir bo'lgan bo'lsa-da, ammo hal qiluvchi kurashlar sosoniy hukmdor Piruz I³ davriga to'g'ri keladi. U ham Eron taxtiga deyarli Vaxshunvor davlat boshqaruviga kelgan paytda – 459-yili chiqqan. Nafaqat Piruz, balki uning akasi Ho'rmaz⁴ ham eftaliylar yordamida taxtni qo'lga kiritgani ma'lum. Eftaliylar va sosoniylar o'rtasidagi bu kabi munosabatlar sababini anglash qiyin emas. Chunki Ho'rmaz va Piruzlar o'z vaqtida taxt vorisi sifatida sosoniylar davlatining sharqiy viloyatlarini (Seyistondan⁵ Marg'iyonagacha bo'lgan hudud) boshqarganlar (Ho'rmaz 420–457-yillari; Piruz 457–459-yillari). Shu munosabat bilan ular qo'shni o'lka siyosiy, savdo doiralari bilan yaqin munosabatda bo'lganlar. Bu yaqinlik qay daraja bo'lganini shundan ham bilib olish mumkinki, sosoniylarning ushbu hududlarini boshqargan taxt vorislari «Kushon hukmdori» unvoniga

¹ *Qorashahr* – ilk o'rta asrlarda Sharqiy Turkistondagi Koshg'ar va Turfon vohalari orasida joylashgan voha hukmdorliklaridan biri.

² *Sosoniylar* – 224–651-yillarda Eronni boshqargan sulola.

³ *Piruz I (Firuz I)* – 459–482-yillarda sosoniylar hukmdori.

⁴ *Ho'rmaz (Hurmuz, Ormuzd, Hurmuzd)* – 457–459-yillarda sosoniylar hukmdori.

⁵ *Seyiston* – hozirgi Afg'onistonning janubi-g'arbi va Eronning janubi-sharqidagi tarixiy viloyat; ushbu atama Turondan janubga ko'chgan sak urug'lari bilan bog'lanadi.

ega bo'lganlar. Bu ma'lum vaqt muqaddam kushoniylar egalik qilgan viloyatlar ustidan hukmronlik va qolganlariga da'vogarlik, degani edi. Shu yerda xitoy manbalarida sosoniylarning kelib chiqishi «yuechjilar» bilan bog'lanishini eslab o'tish foydadan xoli emas. Ushbu xabarlar, hatto, rivoyat bo'lgan taqdirda ham, sosoniylarning Turkiston bilan yaqinligini rad etmaydi. Buning isbotini Ho'rmaz va Piruzning Eron taxtiga chiqishlarida eftaliylar ko'rsatgan yordam orqali ham ko'rish mumkin. Albatta, bu siyosiy tadbirdan nafaqat eftaliylar, balki mintaqa savdo-iqtisodiy doiralari ham manfaatdor bo'lgan. Aftidan, Sharqiy Turkistondan Rim saltanatigacha bo'lgan ulkan hududni yaxlit iqtisodiy-savdo makoniga aylantirish asosiy maqsad bo'lgan ko'rinadi. O'z o'rnida Piruz eftaliylarning yuksalishini o'tkinchi sanab, ular kuchidan Eron taxtiga kelish yo'lida foydalangan deyish ham mumkin. Ammo eftaliylarning qudrati oshib, tez orada ular sosoniylarga ham qarshi turishlarini anglagan Piruz eftaliylarga qarshi jangga kiradi. Dastlabki to'qnashuvdayoq eftaliylar tomonidan asirga olingan Piruzni Vizantiya hukmdori o'rtaga tushib, tutqunlikdan ozod qilishga erishadi. Shunga qaramay, Piruz yana eftaliylarga qarshi qo'shin tortadi. Bu gal qo'lga tushgan Piruz o'ttiz xachir kumush dirham evaziga qo'yib yuboriladi.

Davlat boshqaruvi. Kushoniylar davridagi kabi eftaliylar zamonida ham saltanat yakka hukmdor tomonidan boshqarilgan. Xitoy manbalariga ko'ra, taxt otadan bolaga meros qolmay, shu suloladan kim loyiq deb topilsa, o'sha taxtga o'tirgan. Demak, ana shu nomzodni aniqlab taqdim etadigan qandaydir bir kengash ham mavjud bo'lgan. Bu kengash sulolaning mo'tabar namoyandalari hamda saltanat arkonlaridan iborat bo'lganligi aniq. Eng muhimi, eftaliylar davrida davlat qonunlar asosida boshqarilganini alohida ta'kidlash lozim. Rumlik Prokopiyy (VI asr) «Eftaliylar davlatni qonunlar asosida boshqaradilar», deb yozarkan, ushbu qonunlar turkiy tuzuklar bo'lgani shubhasiz.

Albatta, bunday ulkan saltanatni boshqarishda yuksak darajada faoliyat ko'rsatuvchi markaziy hokimiyatga erishish murakkab masala. Shu boisdan Shimoliy Hindiston hududlarida va ehtimol, boshqa ba'zi viloyatlarda ham boshqaruv mahalliy xonadonlar (sulolalar) tomonidan olib borilgan. Shuningdek, eftaliylarning tayanch boshqaruv markazlari Chag'oniyon (Denov), Naxshab va Boykent shaharlari bo'lishi bilan birga, Shimoliy Hindiston va Kobul o'lkalarida tegin unvoniga ega eftaliy shahzodalar yashaydigan qarorgohlar bo'lgan. Ular bu yerda turib qaram o'lkalardagi mahalliy hokimlarni nazorat qilganlar.

Eftaliylar davri siyosiy hayotida Burqut, Kunxon, Axshunvor, Fag'anish, Varz, G'atfar, To'raman, Mihragul kabi boshqaruvchilarning o'rni katta bo'lgan. Ularning ko'pchiligi qadimgi turkiy, eroniy va hind madaniyati o'zaro qorishgan muhitda yashaganlari uchun ushbu tillarga xos ism va unvonlarga ega bo'lganlar. Shimoliy Hindistonni boshqargan eftaliy hukmdorlardan To'raman va uning o'g'li Mihragul ismlari turkiy negizda – to'ra «qonun, tuzuk» + man «eski turkcha ism va sifat yasovchi qo'shimcha», mihra – eski eroniycha «mitra» (quyosh, quyosh xudosi) va turkiy «qul» (banda) so'zlaridan yasalgan.

Eftaliylarning yabg'u, tegin, tarxon, chabish singari turkiy, xutav, buzurg, farmondor, hazoraxta kabi sug'dcha va boxtarcha tillarga xos katta-kichik unvonlari bo'lgani ma'lum.

Eftaliylar davrida bosh poytaxt qayerda bo'lgani haqida ham aniq ma'lumotlar yo'q. Ba'zilar Boykentni¹ ko'rsatsa, boshqalari Badaxshonda deb biladilar. Shu o'rinda tarixiy an'analarga murojaat qiladigan bo'lsak, kushoniylar poytaxti ilk yillarda bir muddat Boxtarda joylashgan va keyinchalik hind va afg'on o'lkalarini qo'lga kiritgach, Peshovarga ko'chirilgan. Shunga o'xshash eftaliylar markazi ham avval Boxtarda, so'ngra sosoniylar xavfi uzilkesil bartaraf etilgach hamda saltanat chegaralari Sharqiy Turkiston hisobiga kengaygach, poytaxt Boykentga ko'chirilgan bo'lishi mumkin.

Manbalarda keltirilgan eftaliylar «shaharli sulola» ekanligi va aksincha, «ular ko'chmanchi, yozda salqin, qishda iliq yerlarda» turishlariga oid qarar-qarshi ma'lumotlardan kelib chiqib aytish mumkinki, dastlabki yillarda butun mintaqa uzra qat'iy siyosat o'rnatgunga qadar ham an'anaviy yashash tarzi, ham sharoit taqozosiga ko'ra, markazdan chetda turgan holda boshqaruv ishlarini olib borganlar. Borib-borib esa ular markaziy va katta shaharlarda ham o'z qarorgohlariga ega bo'la boshlaganlar. Har holda Vizantiya hukmdori Yustin II ning «Eftaliylar shaharda yashaydilar mi yo qishloqdami» degan savoliga ashinaliylar elchisining «A'lo hazrat, ular shaharlik sulolalardan», deya bergan javobini shu orqali izohlash mumkin.

Ajdodlarimizning so'nggi ming yillik harbiy mahorat bobidagi tajribasi eftaliylar davrida ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Ular lashkarining asosini otliqlar tashkil etib, o'z davrining eng qudratli harbiy kuchlaridan hisoblangan. Sosoniylarning Vizantiya bilan birga eftaliylarga qarshi chiqishi va mag'lubiyatga uchrashi hamda ashinaliylarning sosoniylar bilan birgalikda eftaliylarni yengishlariga doir ma'lumotlar bunga dalil bo'la oladi.

¹ *Boykent* – xarobalari Buxorodan 40 km g'arbda saqlanib qolgan qadimgi shahar, boylar, savdogarlar shahri nomi bilan dovruq taratgan.

Ijtimoiy-iqtisodiy hayot. Mintaqa shaharlari tarixida V asr oxiri – VI asr boshlari katta jonlanish yillari bo'lgani ma'lum. Ayniqsa, kichik shaharlarning tezlik bilan o'sib borishi, hashamatli binolari bo'lgan alohida alohida qo'rg'onlarning yuzaga kelishi va ko'payishi Xorazm, Sug'd, Shosh va Toxariston viloyatlarida aniq kuzatiladi. Bunda iqtisodiy savdo munosabatlarning izchil yo'lga qo'yilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatgan. Mintaqaning an'anaviy iqtisodiy imkoniyatlari (dehqonchilik, sun'iy sug'orish, chorvachilik, bog'dorchilik, hunarmandchilik va boshqalar) bu davrda ham ravnaq topishdan to'xtamagan. Manbalar ma'lumotlari ham buni inkor etmaydi.

Ayniqsa, savdo-sotiq gurkirab rivoj topgan. Bir tomondan, ulkan mintaqaning siyosiy jihatdan yaxlitligi, ikkinchi tomondan, Sharq va G'arb o'lkalararo iqtisodiy savdo munosabatlari oralig'ida bo'lib kelish ichki va tashqi savdo ishlarining yanada taraqqiy etishiga qulay sharoit yaratgan. Bu esa o'z o'rnida yo'l, qatnov, ta'minot, xizmat ko'rsatish tarmoqlarining kengayib borishiga zamin yaratgan. Tashqi savdoda ipak, lok, bo'yoqlar, rangli shishalar, qimmatbaho toshlar, arg'umoqlar, matolar, shirinliklar, qurol-yarog' kabi noyob mahsulotlarning bozori chaqqon bo'lgan. Bu borada Buyuk ipak yo'lining eftaliylar saltanati hududidan o'tishi ham muhim ahamiyat kasb etgani tabiiy.

Madaniy hayot. Iqtisodiy taraqqiyot o'z-o'zidan madaniy hayotda ijobiy o'zgarishlarga olib kelishi turgan gap. Buni me'morchilik sohasida turar joylarni bir necha qavat qilib qurish, uy devorlarini naqqoshlik va suratlashlik san'ati namunalari bilan bezashda ham ko'rish mumkin. Ilk o'rta asrlar tasviriy san'atining yuksak namunalari bo'lmish Varaxsha (Buxoro) va Bolaliktepa (Surxondaryo) saroy devoriy suratlari buning dalilidir. Diniy inshootlar qurilishiga ham alohida e'tibor berilib, ichki bezak ishlarida qimmatbaho toshlar, xususan, oltindan keng foydalanilgani ma'lum.

Eftaliylar davrida mintaqada sug'diycha, xorazmcha, «noma'lum yozuv» (ehtimol, qadimgi turkiy), kxaroshti, eftaliycha yozuvlar mavjud bo'lganini qayd etish lozim. Eftaliy yozuvi haqida xitoylik Syuan Szyan shunday yozadi: «Yozuvlaridagi asosiy harflar soni yigirma beshta bo'lib, ular yordamida iboralar, so'zlar yasaydilar. Sahifaga xatni eniga tushiradilar, so'ldan o'ngga qarab o'qiydilar».

Diniy e'tiqodlar borasida ham xilma-xillikni ko'rish mumkin. Ulkan saltanat ahli zardushtiylik, qadimiy e'tiqodlardan Siyovush, Anaxita, Mitraga, buddaviylik (asosan, Shimoliy Hindistonda) kabi dinlarga topingan. Shu bilan birga, o'lkada Moniy va Mazdak ta'limotlari ham yoyilgan. Eftaliylar Oltoy-

dan ko'chib kelish arafasida ularda tangriyorlikka o'xshash inonch tizimi qator topganligi ham ehtimoldan xoli emas.

Tashqi siyosat. Eftaliylarning tashqi aloqalari Eron bilan g'oyatda keskin kechgan. Buning sabablaridan biri sosoniylarning ham G'arb va Sharq o'rtasidagi savdo aloqalarida yetakchi o'rinni egallashga intilishlari bilan izohlanadi. Sosoniylarning eftaliylarga o'lpon to'lashi Qubod¹ hukmronligi yillarida ham davom etadi. Shu bilan birga, qulay sharoit tug'ildi deguncha, eftaliylar sosoniylarning ichki ishlariga aralashishga harakat qilganlar. Masalan, 496-yili taxtdan ag'darilib, qamoqqa tashlangan Qubod qochib, eftaliylar oldiga boradi va hokimiyatni qo'lga olishda lashkar bilan qo'llab-quvvatlashini eftaliylar hukmdoridan har kuni zorlanib so'raydi. Haqiqatan, eftaliylar yordamida Qubod 499-yili yana Eron taxtiga o'tiradi. Eftaliylar sosoniylarni o'zlariga qaram qilib olganlaridan so'ng, ularning imkoniyatlaridan Vizantiyaga qarshi kurashda foydalanmoqchi ham bo'ladilar. Chunonchi, eftaliylarning Vizantiyaga qarshi 502-yildagi yurishi sosoniylar ishtirokida amalga oshirilgan.

Eftaliylarning Xitoy bilan munosabatlari, asosan, savdo-sotiq orqali amalga oshirilib, bunda Buyuk ipak yo'lining shimoliy va janubiy yo'nalishlari mintaqamiz orqali o'tishi katta ahamiyat kasb etgan. Eftaliylarning Markaziy Hindiston, Yevropaning chekka sharqiy viloyatlari bilan ham yaqin aloqalarda bo'lgani ma'lum.

Shunday qilib, V–VI asrlarda yurtimizda, umuman, mintaqada yuz yildan ortiq eftaliylar sulolasi hukmronlik qildi. Davlatni boshqarishda ular o'tmishdagi dongdor sulolalardan qolishmaganlar. Aksincha, so'nggi kushoniylar zamonida boshboshdoqlikka yuz tutgan mamlakatni qaytadan birlashtirib, siyosiy, iqtisodiy, madaniy munosabatlar va tashqi aloqalar taraqqiyotini yuksak darajada tutib turish ishiga bosh-qosh bo'lganlar.

¹ Qubod – 488 – 496 va 499 – 531-yillarda sosoniylar hukmdori.

VI. ASHINALIYLAR BOSHQARUVI DAVRI

Umuman, Turon, xususan, o'zbek xalqining VI asrdan arablar bosqiniga cha bo'lgan davrdagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy turmushi ashinaliylar sulolasi bilan bog'liqdir. Tarixiy adabiyotlarda ko'pincha «Turk xoqonligi», «G'arbiy Turk xoqonligi» nomlari bilan tilga olinadigan saltanat asoschilari ashinaliylarning siyosiy yuksalish yo'li oltin vodiy nomi bilan mashhur Oltoyning janubiy hududlarida boshlangan. Urug' boshlig'i Ashina nomi bilan mashhur mazkur sulola Bumin¹ yetakchiligi vaqtida katta siyosat sahnasiga qadam qo'yadi. Uddaburon siyosatchi sifatida u ham siyosat, ham zo'ravonlik yo'lini tutadi. Masalan, Bumin Nirun ulusi² bilan ochiqdan-ochiq aloqani uzib, 551-yili Vey xonadoni³ bilan quda-andachilik munosabatlariga kirishadi. 552-yili esa Jujan xonligiga qarshi kurashga o'tlanib, ularni tor-mor qiladi. Oradan ko'p o'tmay vafot etgach, 553-yili uning o'miga taxtga o'tirgan o'g'li Qora Issiqxoqon⁴ uzoq hukmdorlik qilmay, shu yiliyoq vafot etadi. Lekin u ham o'z hukmronligi davomida jujanlarga yana bir bor qattiq zarba berishga ulguradi.

Bumin xoqonning ikkinchi o'g'li Mug'anxoqon⁵ davrida ashinaliylar «Koreya qo'ltig'idan G'arbiy dengizgacha⁶, Xitoy devoridan Shimoliy dengizgacha» bo'lgan yerlarni o'z siyosiy boshqaruviga olishga muvaffaq bo'lganlar. Mug'anxoqon xuddi otasi Bumin kabi ham siyosat, ham zo'ravonlik usulidan ustalik bilan foydalangan. Chunonchi, eftaliylarga qarshi kurashda u, avvalo, ularning janubi-g'arbidagi dushmanlari sosoniylar bilan yaqin aloqalarga

¹ *Bumin (552-yili vafot etgan)* – 542–552-yillarda ashinaliylar yetakchisi, Turk xoqonligi asoschisi.

² *Nirun ulusi (Juan-juan)* – IV–VI asrlarda, hozirgi Mo'g'uliston va Shimoliy Xitoy yerlarida faoliyat yuritgan, turk-mo'g'ul-tungus tilli elatlar tomonidan boshqarilgan davlat.

³ *Vey sulolasi (Shimoliy Vey sulolasi)* – 385–556-yillarda Xitoyni boshqargan, kelib chiqishiga ko'ra turkiylarning toba (tabg'ach) urug'idan bo'lgan xonadon.

⁴ *Qora Issiqxoqon* – 552–553-yillarda ashinaliylar yetakchisi.

⁵ *Mug'anxoqon* – 553–572-yillarda xoqonlikni boshqarib, uni yirik saltanatga aylantirgan hukmdor.

⁶ *G'arbiy dengiz* – xitoyliklar ushbu atama bilan ko'pincha Kaspiy yoki Qora dengizni atashgan.

kirishadi. Buning uchun Mug'anxoqon 554-yili Eronga elchi yuborib, ikki tomonlama ishonchni mustahkamlash yuzasidan Ashinabekani (Kayin)¹ sosoniy Xisrav I ga² turmushga berishini bildiradi. Shu yili Turk xoqonligiga yetib kelgan sosoniy elchilar, ashinaliylarni eftaliylarga qarshi kelishishga undaganlar. Taklif qabul qilinib, ittifoq quda-andachilik bilan mustahkamlangan: Xisrav I Ashinabekaga uylangan.

Eftaliylar qarshiligiga qaramay, ashinaliylar va sosoniylar o'rtasidagi o'zaro kelishuvga putur yetmagan. Lekin bu yaqinlashuv vaqtinchalik edi. Zero, Mug'anxoqon eftaliylardan so'ng, albatta, sosoniylarni ham bir yoqli qilishni mo'ljallab qo'ygani aniq edi. Shunday bo'lgan ham:

565-yili Mug'anxoqonning amakisi Istami³ eftaliylar qo'shiniga qaqshatqich zarba bergan. 567-yili esa Shimoliy Toxariston va umuman, eftaliylar qo'li ostida bo'lib kelgan yerlarni zabt etishga erishgach, VI asming so'nggi choragi arafasida mintaqada navbatdagi sulola – ashinaliylar hukmronligi o'tatiladi.

O'sha davr siyosiy voqeligi nuqtayi nazaridan ashinaliylarning Turonni egallashi ehtimoli yuqori edi. Chunki so'nggi yillarga kelib eftaliylar o'z siyosiy faoliyatida zaiflashish yo'liga kirgan va buni ular qo'li ostidagi yerlarning sosoniylar va ashinaliylar ixtiyoriga o'ta borishidan ham bilsa bo'ladi. Chunonchi, keyingi vaqtlarda Eron yillik o'lpon to'lashdan bosh tortganidan tashqari, 554-yili Toxaristonni bosib olgan, eronliklarning Turonga da'vosi nihoyatda jiddiy edi. 555-yili esa ashinaliylar Toshkent, Sirdaryo bo'ylari va Xorazmni bo'ysundirganlar. Shu tariqa, eftaliylarning taqdiri hal bo'lgan edi. Bundan tashqari, ashinaliylar eftaliylar va sosoniylardan farqli o'laroq, endi qudratga to'lib kelayotgan yosh siyosiy kuch hisoblanardi. Shu bilan birga, aynan ular Sharq va G'arb o'rtasidagi savdo aloqalari barqaror olib borilishining siyosiy kafolatini ta'minlashlari mumkin edi. Ashinaliylar va eftaliylar o'rtasida 565-yili yuz bergan hal qiluvchi jangga sug'dlik sarmoyador savdo ahli betaraf munosabatda bo'lganining sababi ham shu omil bilan izohlanadi. Chunki bu vaqtga kelib Vizantiya sustlik bilan bo'lsa-da, o'zida ipak yetishtirish ishini boshlab yuborgan hamda 564-yilgi ahdlashuvga binoan, Mug'anxoqon Bey-Chjou sulolasidan⁴ o'lpon sifatida yiliga 100 000 parcha ipak mato olishi kerak edi. Ushbu hajmdagi ipak mato o'z davri uchun juda katta miqdor ekani qanchalik tabiiy bo'lsa, bu «o'lpon»ni G'arbgga olib borib sotib, foyda

¹ *Ashinabeka* – Mug'anxoqonning amakisi Istaming qizi.

² *Xisrav I (501–579)* – 531–579-yillarda sosoniylar hukmdori.

³ *Istami* – 568–576-yillarda G'arbiy xoqonlikni boshqargan ashinaliy yetakchi.

⁴ *Bey-Chjou sulolasi* – 557–583-yillarda Xitoyni boshqargan Shimoliy Chjou xonadoni.

olish va bu sohada doimo birinchi bo'lish sug'dlik savdogarlar uchun ham shunchalik oson edi.

Mug'anxoqon va uning avlodlari harbiy yutuqlarni davom ettirib, 20 yil davomida Qora dengizdan Tinch okeanigacha bo'lgan ulkan kenglikdagi saltanatga asos solishga erishadilar. Lekin shu bilan birga, qator obyektiv va subyektiv sabablarga ko'ra (masalan, saltanat maydonining haddan tashqari kattaligi va uni boshqarishdagi murakkabliklar, tadbirkor, donishmand hukmdorlarning taqchilligi, Vizantiya, Eron, Xitoy kabi qudratli davlatlar bilan doimiy raqobat va boshqalar), avvaliga, (VI asr oxiri) saltanat g'arbiy va sharqiy xoqonliklarga bo'linib, birinchisi VII asrning ikkinchi yarmida, ikkinchisi esa VIII asr o'rtalarida butunlay yo'qlik sari yuz tutadi.

Ashinaliylarning yangi o'lkalarni qo'lga kiritishga bo'lgan intilishi Kavkaz bo'ylab davom ettirila boshlaydi. Bu vaqtda Ozarbayjon va Armaniston sosoniylar qo'li ostidagi mahalliy sulolalar tomonidan boshqarilayotgan edi. Sosoniylarga qarshi Vizantiya va ashinaliylar aloqalari Tun yabg'uxoqon davriga kelib yana jonlana boshlaydi. 626-yilda Vizantiya imperatori Irakliy sosoniylarga qarshi ittifoqni yanada kuchaytirish maqsadida Andrey boshchiligida turklarga navbatdagi elchilik hay'atini yuboradi. Elchi G'arbiy turk xoqoni Jebuxoqon bilan uchrashib, uning roziligini olgach, 1000 ga yaqin turk jangchi bilan birgalikda poytaxt Konstantinopol (Istanbul)ga qaytadi. Unga yo'ldosh bo'lgan «1000 kishidan iborat jangchi»ning hammasi ham harbiy bo'lmay, ularning bir qismi tujjorlar edi.

Vizantiya qo'shinlari bilan birga Eronga qarshi jang qilish uchun ashinaliylar shahzoda Shad boshchiligida katta qo'shin yuboradi. Shahzoda sosoniylarning Shimoliy Kavkazdagi tayanchi Darbandni egallab, so'ngra Ozarbayjonga bostirib kiradi.

626-yilda Tiflis yaqinida Irakliy Ziebil (Tun yabg'uxoqon) bilan uchrashadi. Tarixchi Nikofor va Feofanlar bu uchrashuvni shu tariqa bayon qilishadi: «Ziebil va yonidagilar imperatorning oldida egildilar (ta'zim qildilar), imperator esa tojini o'z boshidan olib, Ziebilning boshiga qo'ydi».

Tun yabg'uxoqon 627-yili katta qo'shinga boshchilik qilib Tiflisga yaqinlashadi va shiddatli janglardan keyin shahar qo'lga kiritiladi. Iber (gurji) hukmdori va fors sarkardasi asir olinadi. Bu muvaffaqiyatlaridan yanada ruhlangan Tun yabg'uxoqon Tiflisdan chiqib o'z poytaxtiga qaytar ekan, bu yerda o'g'li – Shadni qoldiradi va unga Agvaniya, Armaniston kabi Kavkaz o'lkalarini to'laligicha zabt qilishni tayinlaydi.

¹ *Tun yabg'uxoqon* – 619–630-yillarda G'arbiy xoqonlikni boshqargan, Xuroson va Afg'oniston, shuningdek, Shimoliy Hindistonning bir qismini egallagan ashinaliy yetakchi.

Endi ashinaliyar hukmronligi yillaridagi boshqaruv masalasiga kelsak, butun saltanat ustidan oliy hukmronlikni xoqon olib borgan. Xoqonlik g'arbiy va sharqiy qismlarga bo'linishidan so'ng har ikki tomon o'z xoqoniga ega bo'lgan. Xoqon, aslida, turkiy qag'an unvonining arabiy talaffuzidan tpsil bo'lgan. Xoqonlik, ya'ni oliy hukmdorlik merosiy bo'lib, taxt otadan bolaga o'tishi qat'iy talab etilmagan. Taxt otadan bolaga, akadan ukaga yo bo'lmasa, biron-bir «qarindosh»ga nasib etishi mumkin edi. Xoqonni «ulus oqsoqollari» tayinlagan kezlari ham bo'lganini ta'kidlash lozim.

Oliy hukmdorni taxtga o'tqazish marosimining aniq bir tartib va doirada amalga oshirilishi bu tadbirning uzoq vaqtdan buyon qo'llanib kelayotganidan dalolat beradi. Marosim esa quyidagicha kechgan: urug' oqsoqollari taxt vorisini oq kigizga o'tqizib, quyosh harakati yo'nalishida, ya'ni sharqdan g'arbga tomon to'qqiz marta aylantirib chiqqanlar. To'qqiz soni turkiy xalqlarda muqaddas sanaladi va har bir aylanishda marosimda ishtirok etuvchilar xoqonga ta'zim qilganlar va bu bilan o'z itoatkorliklarini izhor etganlar. Shundan so'ng uni otga mindirib, bo'yni uzra ipak mato tashlab, qattiq siqqanlaru darhol bo'shatib, undan necha yil hukmdor bo'lishini so'raganlar. Uning bergan javobi hukm o'rinda amal qilgan.

Davlat boshqaruvi. Ashinaliyar davri o'lkamiz boshqaruvi haqida so'z ketganda, ikki jihatga e'tibor qaratish lozim. Birinchidan, o'lka ham tobe bo'lgan xoqonlik boshqaruvi tizimi va ikkinchidan, mahalliy (an'anaviy) boshqaruv uslubining saqlangani. Shu jihatdan xitoylik mualliflarning quyidagi guvohliklari e'tiborga molik: «(G'arbiy xoqonlikda) eltabar va tudun (mansabidagi) amaldorlar davlat ishlarini boshqarganlar; qolganlar esa (qolgan mansab va amallar) xuddi sharqiy mulklardagidek (ya'ni sharqiy xoqonlikdagidek)» edi.

Qadimgi mansablardan shad va tudunni qayd etish mumkin. Tudun ham merosiy hisoblangan. Tudun oliy hukmdorning joylardagi noibi, vakili, nazoratchisi vazifasini ado etgan (tudun – tutmoq, ya'ni nazoratda tutib turmoq). Tudunlar mahalliy hokimlar faoliyati ustidan nazorat olib borishlari barobarida, soliq yig'ish tadbirlarida ham ko'z-quloq bo'lib turganlar. Xoqonning o'g'illari – «tegin» deb atalib, o'n ming qo'shinga ega bo'lsa va biror tobe o'lkani boshqarsa, «shad» masnadiga erishganlar. Shad eng oliy mansablardan hisoblanib, shunga yarasha unga saroy marosimlarida hukmdorning o'ng tomonidan joy ajratilgan.

Qadimgi turkiy yozuvlar va xitoylik mualliflar guvohliklari shunday xulosa-ga olib keladiki, shad va jabg'u (yabg'u) mazmunan bir-biriga g'oyatda yaqin mansab (unvon) hisoblangan. Bu har ikki unvon hukmdorning eng yaqinlariga

berilgan. Masalan, Qutluq Eltarish¹ o'zini xoqon deb e'lon qilgach, ukalaridan Bekcho'rga² shad, Tuzilbekka esa jabg'u unvonlarini beradi. Bilgaxoqon³ ham taxtga o'tirgunga qadar «kichik shad» unvonida bo'lgan. Ko'rinib turganidek, xoqonlik o'z davri uchun murakkab boshqaruv tizimiga ega bo'lgan.

Xoqonlik tarkibidagi ko'plab mahalliy mulklar (viloyatlar)dagi ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyot darajasi turlicha bo'lib, ulardagi boshqaruv xoqonlik markazidan farq qilishi tabiiy edi. Zero, ko'chmanchi madaniyat vakillari bo'lmish ashinaliylar o'z qo'l ostidagi o'troq xalqlar turmush tarzi, ichki an'anaviy boshqaruvi masalalariga moslasha olmaganidek, aralashmagan ham ko'rinadi. Bundan tashqari, xoqonlik markaziy boshqaruv tizimi, asosan, yirik siyosiy tadbirlar (saltanat osoyishtaligini saqlash, himoya qilish va saltanat hududini kengaytirish, soliqlar oqimining muntazamligiga erishish, ichki va tashqi savdo aloqalarini tegishli darajada ta'minlash, davlatlararo siyosiy-elchilik munosabatlarini olib borish va boshqalar) bilan mashg'ul bo'lib, mahalliy darajadagi jarayonlar uchun nisbiy erkinlikka yo'l qo'yilgan. Albatta, bunda joylardagi xususiy jihatlar ham inobatga olingan. Shuning uchun ham Farg'ona, Sug'd, Choch, Xorazm, Toxariston, Shimoliy Hindiston kabi tarixiy-jo'g'rofiy viloyatlarning ko'pchiligida boshqaruv ishi, asosan, ashinaliylar sulolasi vakillari tomonidan, ayrimlarida esa mahalliy siyosiy kuchlar (sulolalar) tomonidan amalga oshirilgan. Lekin markaz tomonidan nazorat aslo susaymagan. Yuqorida tilga olingan tudunlar xuddi shu vazifa bilan mashg'ul bo'lganlar.

Xoqonlar o'z qizlarini vassal – tobe hukmdorlarga uzatish orqali, boshqaruv nazoratini kuchaytirganlar. Samarqand, Buxoro, Marv, Turfon, Qoshg'ar hokimlari xoqonlarning kuyoviga aylanib, ashinaliylar xonadonidan bo'lgan malika – «xotun»lar boshqaruvda faol qatnasha boshlaydilar. Hatto, turkiy malikalar o'z unvoni va tasviri tushirilgan tangalar zarb ettiradilar. «Xotun» nomi bilan ataluvchi shahar va qo'rg'onlar qad ko'taradi. Shulardan biri Choch vohasidagi Xotunkat shahri edi.

Sug'd hukmdori ixshid unvoniga, tobe sakkiz hokimlik boshliqlari ham o'z unvonlariga ega bo'lganlar (masalan, Kesh hokimi ixrid unvoni bilan mashhur

¹ *Qutlug' Eltarishxoqon* – 630-yillarda Xitoy asoratiga tushib qolgan sharqiy ashinaliylar mustaqilligini 680-yillarda tiklab, 682–691-yillarda Sharqiy xoqonlikni boshqargan ashinaliy yetakchi.

² *Bekcho'r yoki Bo'guchor* – 691–716-yillarda Sharqiy xoqonlikni Qapag'an laqabi bilan boshqargan ashinaliy yetakchi.

³ *Bilgaxoqon* – Qutlug' Eltarish xoqonning to'ng'ich o'g'li, 716–734-yillarda Sharqiy xoqonlikni boshqargan ashinaliy yetakchi, bir qator turkiy bitiklarni yozishga buyurgan mashhur hukmdor.

bo'lgan). Boshqaruvni uch amaldor amalga oshirgan. Toxaristondagi ahvol ham xuddi shu kabi bo'lgan. Toxaristonning bosh hukmdori jabg'u unvoni bilan, unga tobe hokimlar (Xuttalon, Qubodiyon, Shug'onon, Chag'oniyon va boshqa mulklar boshliqlari) esa eltabar, tudun, tarxon kabi turkiy va xudot, sher, shoh singari sharqiy eroniy tillarga xos mahalliy unvonlari bilan tanilganlar. Masalan, Chag'oniyonni chag'onxudotlar boshqargan. Chochdagi ahvol ham 605-yilga qadar xuddi shunday kechgan bo'lsa-da, ammo shu yili Sheguy xoqon¹ bu yerni boshqarishni shahzodalardan Tyanchji teginga topshiradi. Shu tariqa bu yerda Choch teginlari deb atalgan sulola qaror topib, 750-yillargacha hukm suradi. Ular o'z nomidan sug'diy yozuvda «Choch hukmdori Tegin» bitikli tangalar chiqargani ham buni tasdiqlaydi. Farg'onada ham Chochdagi kabi ashinaliyning bir tarmog'i hukm surgan va 630–750 yillar orasida vodiyni boshqarib, «xoqon» unvoni bilan tangalar zarb etgan. Buxoro vohasida buxorxudotlar nomi bilan tanilgan turkiy-sug'diy aralash sulola hukm surib, bir qator tadqiqotchilar fikricha, ushbu sulolaga Istaming nevarasi El Arslon (Shiri Kishvar) asos solgan. Ustrushona, Samarqand, Panch (Panjikent), Naxshab mulklarida ham turkiy-sug'diy aralash sulolalar hokimiyati qaror topgan. Xorazmga kelsak, bu yerda xoqonlik vakillari kuzatuvida mahalliy afrig'iylar sulolasi namoyandalari hokimlik qilardilar. Kobul va uning atroflarida esa ashinaliy shahzodalar asos solib, qariyb 200 yil davomida butun Afg'oniston va Shimoliy Hindistonni boshqargan Kobul teginshohlari sulolasi (643–843) boshqaruvi amal qilgan.

Ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda ibodatxonada saqlanadigan turkiy tuzuklar to'plami katta o'rin tutgan. Biron-bir jazo belgilashda ushbu tuzuklarga suyanib ish ko'rilgan, hukm chiqarilgan. Turkiy tuzuklar yo to'rolar mavjud bo'lganini qadimgi turkiy bitiklar ham tasdiqlaydi (turk to'rosi, el to'rosi). Chunonchi, tuzuklarda quyidagi jazo turlari belgilangan: eng og'ir jinoyat sodir qilinganda jinoyatchi butun urug'aymog'i bilan yo'q qilingan. Aftidan, isyonchi va xoinlarga nisbatan shunday jazo qo'llangan. Birovni o'ldirgani, o'zganing ayoli bilan ishrat qilgani, adashgan otni o'zlashtirib olgani uchun ham o'lim jazosi tayinlangan. Agar birovga shikast yetkazilsa, buyum yo biror-bir mol-mulk bilan tovon to'langan.

Tuzukchilik kundalik turish-turmush bilan uzviy shakllanib borganini shundan ham bilsa bo'ladiki, masalan, jinoyatchi biron kimsaning ko'ziga shikast yetkazgan taqdirda, aybdor jabrlanuvchiga o'z qizini, qizi bo'lmasa, ayolining mol-mulkini berishi shart bo'lgan. Xullas, jamiyat va davlatni qonunlar asosida boshqarish an'anasi o'z davriga xos ravishda davom etgan.

¹ *Sheguy xoqon* – 611–618-yillarda G'arbiy xoqonlikni boshqargan ashinaliy yetakchi.

Bu davrda davlatchilik an'analari taraqqiy etib, ashinaliylar o'sha davrda dunyodagi to'rtta yirik (Xitoy, Vizantiya va Eron) saltanatdan birini boshqarganlar va ular bilan diplomatik aloqalar o'rnatganlar. Xoqonlikning dastlabki yillari – 560 yillarda sosoniylar bilan ittifoqchilikda eftaliylarga zarba berilgan bo'lsa, keyinchalik Eronga ipak mahsulotlari sotish uchun elchilar yuboriladi. Yuqorida aytib o'tilganidek, Istaming qizi Eron shahanshohiga uzatiladi, xoqon qizlaridan tug'ilgan sosoniy shahzodalar «turkzod», «turonduxt» rutbalari bilan Eron taxtiga o'tiradilar. 628-yilda Eron hukmdori shahanshoh Xusrav Parviz¹ o'ldirilib, Eron taxtiga uning o'g'li Sheruya o'tiradi. Xusrav fojiasi bilan bog'liq voqealar uzoq Xitoygacha yetib boradi. Xitoylik mualliflar G'arbiy turk hukmdori Yabg'uxoqonning Eronga bostirib kirgani va hukmdori Xusravni o'ldirib, o'rniga uning o'g'li Sheruyani tayinlagani, bu yerga nazorat qilish uchun o'z noibini yuborganini qayd etishadi. Xoqonlik qo'shinlari sosoniylarga Amudaryo yo'nalishi bo'ylab janubi-g'arbdan hujum qilgan va Eron ichkarisigacha kirib borib, hokimiyat ishlariga aralashgan va hatto, shahanshohlarni o'zlari tayinlagan paytlar ham bo'lgan.

Ashinaliylar sulolasi davrida Buyuk ipak yo'lining har ikkala yirik tarmog'i – Sharqiy Yevropadan Oltoy tog'lari va Uzoq Sharqqa boruvchi «Shimoliy yo'nalish» va O'rta Yer dengizidan Amudaryo orqali Xitoyga eltuvchi «Janubiy yo'nalish»ning katta qismi xoqonlik nazoratida bo'lib, karvon yo'llarining xavfsizligi ta'minlanadi. Ayniqsa, Ipak yo'lining shimoliy tarmog'iga katta e'tibor qaratgan ashinaliy sulolasining qarorgohlaridan biri Choch vohasida joylashgan. Ashinaliylar Choch vohasining mintaqa iqtisodiy va madaniy hayotida tutgan o'rnidan kelib chiqib, deyarli 150-yil davom etgan tanga zarb etish ishini aynan shu yerda yo'lga qo'yadi. Chochda zarb qilingan tangalarda Tardu xoqon², Tun yabg'uxoqon, Jabg'uxoqon kabi hukmdor ism va unvonlari bilan birga etnosiyosiy atama sifatida «Turkxoqon» iborasi ham joy olgani diqqatga sazovor. Shuningdek, ashinaliylar sulolasi bilan bog'liq ravishda, Farg'ona, Sug'd va Shimoliy Toxaristonda «xoqon» unvonli tangalar zarb qilingan. Samarqand tangalarida sug'diy yozuvda «Turon hukmdori xoqon» jumlasining bitilishi esa ashinaliylar sulolasining davlatchilik mafkurasini aks ettirar edi.

Bu davrda Choch teginlari (605–750), Farg'ona ashinaliylari (630–760), Toxariston yabg'ulari (620–750) va Kobuliston teginshohlari (640–870) kabi kelib chiqishi xoqonlikning asoschi xonadoni – ashina sulolasiga borib taqa-

¹ *Xisrav Parviz (Xisrav II)* – 531–579-yillarda sosoniylar hukmdori.

² *Tardu xoqon* – Istami o'g'li; 576–603-yillarda G'arbiy xoqonlikni boshqargan ashinaliy yetakchi.

lulchi sulolalar boshqaruvi mavjud bo'lib, ular ham o'z nomidan tangalar zarb qildirgan. Iqtisodiy jihatdan o'sish kuzatilib, Sirdaryoning o'rta oqimlari, Choch, Farg'ona va Yettisuvda o'nlab shaharlar qad ko'taradi.

Ijtimoiy-iqtisodiy hayot. Ashinaliylar davrida o'lkada dehqonchilik, hunarmandchilik, binokorlik, savdo-sotiq, konchilik kabi sohalar taraqqiyoti yanada yuksalgan. Dehqonlar mavjud suv resurslari hamda lalmi yerlar imkoniyatidan foydalanib, bug'doy, arpa, sholi, mosh, tariq, no'xat, qovun, tarvuz kabi ekinlardan yuqori hosil olganlar. Paxtachilik, pillachilik, bog'dorchilik, uzumchilik kabi sohalar ham munosib tarzda o'sib borgan. Masalan, manbalar ma'lumotlarida bir yerda o'lkada yetishtiriladigan paxtaning yuqori sifat darajasi ta'kidlansa, boshqa bir yerda uzumchilik, xususan, chog'irchilik tajribasiga urg'u beriladi. Bog'dorchilikka munosabat ham xuddi shu qabilida bo'lgan. Shaftoli, o'rik, olchanning bir necha turlari, yong'oq, pista, bodom va boshqa qator meva navlaridan ham sifatli, ham yuqori hosil olingan yoxud manba tili bilan aytganda, «(mevali) daraxtlar savlat to'kib turgan». Chunonchi, ajnabiylarni Samarqandning «tilla shaftolisi» lol qoldirgan. Shifobaxsh giyohlardan ham keng foydalanilgan.

Qadimdan qazilma boyliklari bilan mashhur o'lkamizda bu davrda ham konchilikdagi faoliyat susaymagan. Oltin, temir, navshadil, kumush, qo'rg'oshin, mis, margimush, tuzning bir necha xili, turli qimmatbaho toshlar, shifobaxsh qotishmalar Sug'd, Choch, Farg'ona, Toxariston kabi viloyatlarda qazib olingani manbalarda aniq ko'rsatilgan.

Dehqonchilik va konchilikdagi taraqqiyot ko'lami va sifati o'z-o'zidan keyingi uch tarmoq: hunarmandchilik, qurilish, savdo-sotiq ravnaqi uchun katta turtki bo'lishi tabiiy edi. Shuning uchun ham bu vaqtda temirchilik, zargarlik, kulolchilik, duradgorlik, qurolsozlik, to'qimachilik kabi kasb-korlar keng quloch yoygan. Ularning rivojiga oid misollar ham juda ko'p. Zargarlarning nafis taqinchoqlari, temirchilarning dehqon, quruvchi, ro'zg'or ehtiyojlari uchun yasagan buyumlari (bolta, o'roq, mix, qaychi, zanjir, kalit va boshqalar), qurolsozlarning harbiylar, zodagonlar, havaskorlarga yasab bergan puxta va noyob qurol-aslahalari, turli hajm va maqsadda ishlov berilgan sopol idishlar, paxta, jun, ipak matolar, qog'oz o'mida ishlatilgan darajada sayqallangan charmlar va boshqa ko'plab mahsulotlarni sanab adog'iga yetish qiyin.

Yuqoridagi sohalar jonlanishi bilan quruvchilik ham kengayib boravergan. Ustaxonalar, diniy va ma'muriy binolar barpo etish, ularni munosib tarzda sayqallash, bezash kabi ishlar quruvchilar zimmasida bo'lgan. Arxeologiya qazishmalari shaharlarning o'sishi, yangi qo'rg'onlarning bunyod etilishi,

ibodatxonalar, saroylar, uy-joylar qurilishiga doir ko'plab yangi ma'lumotlarni yuzaga chiqarmoqda.

Sharq va G'arb o'rtasidagi ko'prik vazifasini o'tab kelgan o'lkamiz savdo ahli siyosiy makonning kengayishidan unumli foydalanib, o'z faoliyatlarini yanada jonlantirib yuboradilar. Ilgari xalqaro savdo, asosan Xitoy – Turkiston Eron orqali olib borilgan bo'lsa, endilikda Kaspiy dengizi hamda Shimoliy Kavkaz yo'lidan ham unumli foydalana boshlangan.

O'lkaning asosiy savdo hamkorlari Xitoy, Eron, Hindiston, Vizantiya kabi mamlakatlar edi. Bu mamlakatlarga to'qimachilik, ipakchilik mahsulotlari, qimmatbaho toshlar, ulardan ishlangan buyumlar, taqinchoqlar, dorivorlar, zotdor arg'umoqlar, bir necha xil tuz navlari, chog'ir, bog'dorchilik mahsulotlari, qazilma boyliklarning bir qancha turlari olib borilgan.

Savdo-sotiq ishlarida Sug'd savdogarlari dong chiqargani tabiiy.

Bu borada xitoylik mualliflarning quyidagi guvohligi diqqatga sazovor: «(Sug'dlik) erkaklar yigirma yoshga to'lishlari bilan qo'shni mamlakatlarga oshiqadilar va (savdo-sotiqda) qayerda (qulaylik) manfaat bo'lsa (albatta), u yerga qadam ranjida etadilar». Demak, ular, avvalo, shu yoshga yetgunga qadar ma'lum bir tayyorgarlik bosqichini o'tganlar (xat-savod chiqarganlar, savdogarchilik hunarini o'rganganlar) va shundan keyingina dunyoning boy o'lkalari bo'ylab tijorat safariga otlanganlar.

Madaniy hayot. Siyosiy, iqtisodiy-savdo, xalqaro munosabatlarning yuksak saviyaga ko'tarilishi mintaqa madaniy-ma'naviy hayotining yanada boyishiga sabab bo'lishi turgan gap edi. Xorazm, Sug'd, Toxariston kabi tarixiy o'lkalarda olib borilgan arxeologiya qazishmalari mazkur davrda haykaltaroshlik, o'ymakorlik, ganchkorlik, naqqoshlikda yuksak san'at darajasidagi ishlar amalga oshirilganini yaqqol namoyon etmoqda.

Yozma manbalar ma'lumotlari va devoriy suratlarda aks etgan manzaralar bu vaqtda o'lkamizda cholg'uchilik, raqqoslik, teatr san'ati singari sohalar taraqqiy etganini tasdiqlaydi. Bu oldingi asrlardan kelayotgan an'analarning davomi bo'lib, «katta va kichik chirmanda, besh torli ud, do'mbira, nay, turli ruboblar» kabi o'nlab musiqa asboblarining nomlarini keltirish mumkin. Raqqoslarning mahorati shu darajada yuksak bo'lganki, hatto, xorijiy davlatlarda, masalan, Xitoy saroylarida ham ularni g'oyatda qadrlashgan. O'lkamiz qo'g'irchoq teatri ustalarining san'atidan lol bo'lgan xitoyliklar o'zlari uchun yangilik bo'lmish qo'g'irchoq teatrini Xitoyga o'zbek madaniyati namunasi sifatida olib kirganlar.

O'lkada amalda bo'lgan xat-yozuvlar ham ajdodlarimizning ushbu davrdagi hayoti qanchalik rang-barang kechganining dalilidir. Chunonchi, aholi orasida turkiy, sug'dcha, xorazmcha, buxorocha yozuvlar keng tarqalgan. Shunga o'xshash

xilma-xillikni diniy e'tiqodlar borasida ham kuzatish mumkin: o'tparastlik, budaviylik, masihiylik, tabiat kuchlariga topinish va boshqalar shular jumlasidandir.

Tashqi siyosat. Xalqaro munosabatlar doirasida ham jo'g'rofiy, ham siyosiy jihatdan markaziy o'rinni egallab turgan ashinaliylar o'z davrining uch yirik saltanati – Xitoy, Eron, Vizantiya bilan raqobat qilishlariga to'g'ri kelgan. Bu raqobat mohiyatan mazkur to'rt davlatning har biri va ular joylashgan, O'rta dengizdan Tinch okeanigacha, Hind okeanidan Shimoliy Muz okeanigacha bo'lgan ulkan siyosiy, iqtisodiy, madaniy, jo'g'rofiy makon imkoniyatlaridan kelib chiqib belgilanar edi. Ulardan birortasi yakka holda mazkur makon «beshigini tebratishga» qodir emasdi. Shuning uchun ham, ashinaliylar nozik diplomatiya yo'lini harbiy kuch ishlatish usuli bilan uyg'unlashtirgan holda, o'z raqiblarining ichki siyosiy, iqtisodiy va tashqi munosabatlarini uzluksiz o'rganib, voqif bo'lib turish orqali faoliyat ko'rsatganlar.

Masalan, ashinaliylar sulolasi endigina kuchga kirib kelayotgan ilk davrda birinchi vazifa yon-atrofni mustahkamlash bo'lgan. Shuning uchun ham, nasl-nasabi betayin jujanlardan voz kechib, qavman yaqin veylar bilan yaqinlashiladi. Bu ashinaliylarning sharqiy yo'nalishda mavqelarini mustahkamlamay turib, g'arb tomon odimlash qiyin kechishini yaxshi anglaganlaridan dalolat beradi. Bundan tashqari, Sharq va G'arb munosabatlarida o'sha asrlarda eng muhim omillardan biri bu ipak savdosi bo'lgani uchun xomashyoni ishlab chiqarishda asosiy o'rin egallagan Xitoyni jilovlash bilan xalqaro iqtisodiy aloqalarga qat'iy ta'sir o'tkazish siyosati ham ko'zda tutilgani aniq. Ana shu vazifalar amalga oshirilib bo'lgandan keyingina (masalan, xitoyliklarga yiliga 100 000 parcha ipak miqdorida o'lpon solinishi) navbatdagi maqsad – eftaliylar sulolasi faoliyatiga chek qo'yishga kirishiladi. Bunda Eron omilidan ustalik bilan foydalaniladi. Bu vaqtda Eron ham, Vizantiya ham eftaliylar bilan teskari edi. Shu sababdan ham sosoniylar va ashinaliylar o'rtasida eftaliylarga qarshi ittifoqqa erishish shu qadar yengil kechadiki, ish hatto, eronlik hukmdorlarning turkistonlik malikalardan biriga uylanishigacha borib, ashinaliylar endi Eron saroyida o'z kishilariga ega bo'lib oladilar.

Eftaliylar hukmronligiga chek qo'ygan ashinaliylar Vizantiya bilan harbiy ittifoqda Eronni siquvga olib, hatto, ular eftaliylarga to'lab kelgan yillik o'lponni bundan buyon bizga to'laysizlar, qabilidagi shart ham qo'yadilar. Shart-sharoit etilganda xoqonlikning Qrimda Vizantiya bilan yuzma-yuz kelgan vaqtlari ham bo'lgan. Albatta, ashinaliylar Xitoy, Eron, Vizantiya bilan munosabatlarda o'z hukmlarini o'tkazib, harbiy ustunlikka erishgan chog'larida saltanat siyosiy-jo'g'rofiy jihatdan yuksalgan. Shu bilan birga, Erondan ham, Xitoydan ham mag'lubiyatga uchrab, tushkunlikka tushgan paytlari ham bo'lgan.

VII. ARABLAR ISTILOSII

652-yili Marvni egallagan arablar sosoniylar taqdirini uzil-kesil hal qilishdan tashqari, Turonga bostirib kirishni o'zlariga naqd qilib qo'ygandilar. 654-yili Nasaf (Qarshi) yaqinidagi Maymurg¹ga hujum qiladilar. 667-yili arab qo'shinlari Chag'oniyondagi turk yabg'usiga talafot yetkazadi.

673-yili Xurosonga noib bo'lgan Ubaydulla ibn Ziyod² Qabaj xotun³ boshqarayotgan Buxoroga hujum uyushtiradi. Malikaning qarshiligi besamar ketadi. U sulh imzolab, dushmanga katta miqdorda o'lpon to'lash va ikki ming yoychini asirlikka berish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

Sa'id ibn Usmon⁴ Boykent va Buxoroga qayta yurish qiladi. Malika yana mahalliy kuchlar yordamida arablarga qarshi jang olib borsa-da, ularni yenga olmaydi. Sulhga ko'ra, ellik⁵ aslzoda o'spirin garovga berilib, 300 ming dirham o'lpon to'lashga majbur bo'ladi.

Sa'id ibn Usmon 676-yili Samarqandda ham o'ttiz ming asir va ellik nafar aslzodani garovga olish evaziga bitim tuzadi. U bitim shartlariga amal qilmay, garovdagilarni Madinaga olib ketadi. Tutqinlar ustlariga sholchadan kiyim kiydirilib, dala ishlariga jalb qilingach, ular Sa'id ibn Usmonning qarorgohiga bostirib kirib, uni va o'zlarini o'ldiradilar. Bu voqea tafsiloti xalqimizning azaldan erksevar, oriyatli va g'ururli bo'lganini isbotlaydi.

Buxoro malikasi hijriy 64 (milodiy 683/684) yili Harqonrudda⁶ Tarxun⁷ bilan birlashib, Muslim ibn Ziyodga⁸ qarshi jang qiladi. Ammo bu gal ham

¹ *Maymurg* – IV–X asrlarda Samarqand Sug'di tarkibidagi mulk (rustaq).

² *Ubaydulla ibn Ziyod* – 673–674-yillarda arablarning Xurosondagi noibi.

³ *Qabaj xotun* – 673–695-yillarda Buxoro malikasi; 673-yili Ubaydulla ibn Ziyodga qarshi chiqqan Buxoro hukmdori Bidun (Tudun) o'ldirilgach, u arablarga qarshi kurashga boshchilik qilgan.

⁴ *Sa'id ibn Usmon* – 676–677 arablarning Xurosondagi noibi.

⁵ Ayrim manbalarga ko'ra, 80 ta.

⁶ *Harqonrud* – Buxoro vohasidagi kichik soy, tuman.

⁷ *Tarxun* – VIII asrning birinchi o'n yilligida Sug'd viloyati hokimi.

⁸ *Muslim ibn Ziyod* – 680–684-yillarda arablarning Xuroson va Seyistondagi noibi.

bitim tuzishga majbur bo'ladi. Yana bir lashkarboshi Muhallab Azdiy¹ hijriy 79 (milodiy 698/699) yili Keshni qamal qiladi. Janubda esa arablar Xuttaloni² egallaydilar.

Qutayba ibn Muslim³ Turondagi talonchilik yurishlarini istilochilik harakatiga aylantiradi. U bor kuchni Turonni butkul egallashga tashlaydi. Bu uning uchun oson kechmagan, albatta. Uch marotaba Buxoroni ishg'ol qilgan bo'lsa ham, u shahardan chiqib ketishi bilan aholi islom dinidan chiqib, yana o'z dini va e'tiqodiga qaytar edi. Qutayba faqat to'rtinchi yurishi nihoyasida Buxoroni o'z irodasiga bo'ysundirishga muvaffaq bo'lgan.

Xuddi shuningdek, arablar qo'shini bilan urush-talashlardan keyin taslim bo'lgan boykentliklar bosqinchilarning shaharda qoldirilgan o'rduini qirib tashlaganlar. Bundan xabar topgan Qutayba yana Boykentga qaytadi va shaharni vayronaga aylantiradi. Erkak aholi qirib tashlanib, ayol va bolalar asir olinadi.

Buxoroning Kumushkent va Romitan hududlariga hijriy 88 (milodiy 706/707) yildagi yurishida qattiq qarshilikka duch kelgan Qutayba ikki yil o'tib yana Buxoroga yurishini davom ettiradi. Ashinaliyar yetakchisi Qapag'an unga qarshi shahzoda Kulteginni⁴ bosh maslahatchisi Bilga To'nyuquq⁵ hamrohligida 200 ming qo'shin bilan (aslida, 40 ming bo'lgan) Sug'dga yuboradi. Ular Tarxun qo'shini bilan birlashadi. Bu birlashgan kuchlar 709-yil kuzida Qutaybani Tarob, Xunbun va Romitan qishloqlari oralig'ida qurshovga oladi. Og'ir vaziyatda qolgan Qutayba o'z qo'shinini «turklarni daf etishga» da'vat qilib, har bir dushman boshiga 100 dirhamdan mukofot va'da beradi. Bundan tashqari, u hiyla yo'lini tutgani ma'lum. Chunonchi, o'z vakili Hayyoni Nabatiyni⁶ Tarxun huzuriga yuborib, unda sharqiy turklarga nisbatan shubha uyg'otishga erishadi. Dushman aldoviga uchgan Tarxun jang maydonini tashlab ketadi. Kuchlar nisbati arablar tomoniga og'adi. Kulteginning yarador bo'lishi birlashgan qo'shinlar ruhiga salbiy ta'sir qiladi. Ittifoqchilar yana bir imkoniyatni boy beradilar.

¹ Muhallab Azdiy – 698–702-yillarda arablarning Xurosondagi noibi.

² Xuttalon – Panj daryosi vodiysida, hozirgi Tojikistonning Xatlon viloyatiga to'g'ri keladigan hudud.

³ Qutayba ibn Muslim – 704–715-yillarda arablarning Xurosondagi noibi.

⁴ Kultegin (684–731) – Sharqiy Turk xoqonligining siyosiy va harbiy arbobi.

⁵ Bilga To'nyuquq – Qutlug' Eltarish, Qapag'an va Bilga xoqonning maslahatchisi va qo'mondoni, ulug' faylasuf, tarixchi va o'z davri adabiyotining yirik namoyandalardan biri.

⁶ Qutayba qo'shinidagi arab bo'lmagan xalqlardan (mavlolar) tuzilgan 7 000 kishilik bo'linma boshlig'i.

709-yili Qutayba Buxoroni, hijriy 93 (milodiy 711/712) yili Xorazmni qo'lga kiritadi. So'ngra e'tiborni Samarqandga qaratadi. Sug'd markazida ham yakdillik yetishmasdi. Tarhun tarafdorlari Sug'd taxtiga «da'vogar» Devashtich¹ atrofida birlashib, G'urakka qarshi kayfiyatda edilar. G'urak² vaziyatdan chiqish uchun 712 yilda Qutayba bilan «Samarqand shartnomasi»ni imzolaydi. Bu Devashtichning da'vosini kuchaytiradi. O'rtadagi sulhga ko'ra, G'urak shaharni tashlab chiqishga majbur bo'ladi. Qutayba Samarqandga ukasi va muovini Abdulla ibn Muslimni qoldirib, o'zi Marvga jo'naydi.

«Samarqand shartnomasi»ga ko'ra, 2 mln dirham o'lpon to'lash, 3 ming o'spirinni garovga topshirish, otashxona – ibodatxonalaridagi butlarni, butun boyliklarini arablarga berish, yiliga 200 ming dirham tovon to'lash kerak edi. Samarqandda masjid qurilib, qo'shinlar shaharni tark etishlari shart edi. Buning evaziga Qutayba G'urakning «Samarqand va unga tegishli yerlar bilan hamda Kesh va Naxshab shaharlari, qo'rg'onlari» ustidan hokimligini tan olardi.

Bu shartnomadan norozi bo'lgan samarqandliklar 712-yil kuzida xoqonlik qo'shinlari yordamida Samarqanddagi arablar noibi o'rduisiga hujum uyushtiradilar. Qutayba yetib kelib, o'z o'rduisini saqlab qoladi.

Arab istilosiga qarshi yangi kuchlar paydo bo'ladi. 712–713-yillarda ashinaliylar, Panj viloyati, Choch va Farg'ona siyosiy kuchlaridan iborat ittifoq tuziladi. Unga Devashtich bosh bo'ladi. Devashtich o'z elchisi Fatufarnni Choch va Farg'onaga, ular orqali Sharqiy Turk xoqoni huzuriga jo'natadi.

715-yili Farg'onaga yurishi davrida o'z qo'shini tomonidan vahshiylarcha o'ldirilib, boshi xalifaga jo'natilgan Qutayba o'miga 716-yili Xuroson noibligiga tayinlangan Yazid ibn Muhallab Turonni islomlashtirish ishini jadalashtirishi lozim edi.

Xalifa Umar II³ fitna qurboni bo'lgach, umaviylar⁴ va abbosiylar⁵ o'rtasida kurash boshlanadi. Fursatdan foydalangan G'urak Tug'shoda⁶, Nurayan⁷ bi-

¹ *Devashtich* – 708–722-yillarda Panjikent viloyati hokimi (afshin).

² *G'urak* – 710–737-yillarda Sug'd viloyati hokimi.

³ *Umar ibn Abdulaziz* – 717–720-yillarda arab xalifaligini boshqargan umaviy yetakchi.

⁴ *Umaviylar* – 661 yili Muoviya (661–680) tomonidan asos solinib, 680–750-yillarda arab xalifaligini boshqargan birinchi siyosiy sulola.

⁵ *Abbosiylar* – 750–1258-yillarda arab xalifaligini boshqargan ikkinchi siyosiy sulola; uning kelib chiqishi Muhammad payg'ambarning amakisi Abbas ibn Abdul Mutallibga (653-yili vafot etgan) borib taqaladi.

⁶ *Tug'shoda* – taxminan, 692–724-yillarda Buxoro hukmdori, Bidun (Tudun) va Qabaj xotun o'g'li taxtida o'tirgan buxorxudotlar vakili.

⁷ *Nurayan* – Qorategin hokimi.

lan birga 719-yil fevralda Xitoy imperatoriga arablarga qarshi kurashda harbiy yordam so'rab noma yo'llaydi. Biroq u amaliy yordam berishga va arablar bilan yuzma-yuz kelishga botinolmaydi.

Shunga qaramay, yana kurashga o'tlangan G'urakka 720-yili Suluxon¹ yordam uchun Qursul (Qulchur) boshchiligida qo'shin yuboradi. Qursul va G'urak qo'shinlari Samarqanddagi arab o'rduini qurshovga oladi. Arablarga qarshi ushbu kurashda Sug'ddagi deyarli barcha mulklarining hokimlari qatnashadilar. Arab qo'shinlari tovon puli evaziga jon saqlab qolishga majbur bo'ladi. Garchi, bu kurashda mahalliy kuchlarning qo'li baland kelgan bo'lsa-da, biroq ular g'alabani rivojlantirmaganlar. Chunki ittifoqchilar uzoq muddatli jangovar harakatlarga tayyor emasdilar.

Hijriy 103-yil (milodiy 721/722)da Xuroson noibligiga tayinlangan Sa'id Harashiy² G'urak bilan munosabatni yaxshilab, Devashtichga qarshi harakat boshlaydi. G'urakning dushmanga yon bosishi Devashtichning Sug'ddagi nufuzini oshiradi. U nafaqat Panj, balki qo'shni mulklardagi vaziyatni ham o'z nazorati ostida tutadi.

Devashtich arablarga qarshi kurashda, avvalambor, ashinaliylar qo'shinlariga suyanardi. Shu bois, u o'zini «turk xoqonining vassali» deb bildi. Devashtich o'z muxolifi G'urakning ukasi Afarun³ bilan ham yaxshi munosabatda edi. Bu ikki shaxs 722-yilgi Qum⁴ jangida arablarga qarshi kurashgan va birga Mug' qo'rg'oniga⁵ chekinganlar.

720–722-yillardagi siyosiy voqealar Kesh va Nasaf yurishlari qo'mondonlaridan biri Abdurahmon ibn Subh Xaraqoniyning Devashtichga maktubida o'z aksini topgan. Unda arablarning G'urak bilan murosasi kelishmaganda Devashtichni o'zlariga og'dirishga urinishi ko'zga tashlanadi. Maktub egasining Devashtich faoliyatini nazorat qiluvchi vakil edi. Aslida, Devashtichning maqsadi arablarga yon bosish emas, balki faqat Tarhun farzandlarining otalig'i sifatida Sug'd taxtiga da'vosini mustahkamlashdan iborat bo'lgan.

Devashtich baribir arab istilochilari uchun jiddiy kuch edi. Shu bois, Sa'id Xaroshiy unga qarshi harbiy kuch qo'llashga kirishadi. Devashtich qo'shini

¹ *Suluxon* – 715–738-yillarda Turgash xoqoni.

² *Sa'id Harashiy* – 722–723-yillarda Xuroson hokimi.

³ *Afarun* – Panj (Panjikent) rustaqiga qarashli Xaxsar (Buloqboshi) mulki hokimi.

⁴ *Qum* – Zarafshon daryosining so'li irmoqlaridan biri; Qumsuv deb ham atalgan va hozirda Tojikistonning Sug'd viloyati Ayniy tumanidan oqib o'tadi.

⁵ *Mug' qo'rg'oni* – Ayniy tumani Xayrobod qishlog'idan 3 km masofada, VII–VIII asrlarga oid arxeologiya yodgorligi.

joylashgan, daralar bilan o'ralgan Mug¹ – Abgor qo'rg'oni¹ qamal qilinadi. Sa'id Harashiy ham hiyla yo'lini tutib, Devashtich bilan muzokaralar boshlaydi va unga va'dalar berib, huzuriga keltiradi. Xalifa Umar ibn Xubayrning² Devashtichni afv etish haqidagi talabiga ham qaramay, uni zardushuylarning Rabinjondagi ibodatxonasida xochga mixlab qatl ettiradi va hatto, dafn etishga ham yo'l qo'ymaydi. Devashtichning boshi Umar ibn Xubayrga yuboriladi. Shu kabi Sa'id Harashiy Xuzor hokimi Subug'roni ham qatl ettirgan edi. Sa'id Harashiy 723-yil kuzigacha mintaqaning asosiy qismida xalifalik hokimiyatini o'rnatishga muvaffaq bo'lgan edi. Bu hokimiyatni G'urak ham tan oladi.

Hijriy 105-yil (milodiy 723/724)dan istilochilarga qarshi kurash maydoniga Farg'ona hukmdori Alutar chiqadi. Bu paytda Muslim ibn Kilabiy³ Ust-rushona va Farg'onaga yurishni davom ettiradi. Bundan xabar topgan Suluxon farg'onaliklarga yordamga shoshiladi. Ashinaliylar, Farg'ona va Choch hokimlari kuchlaridan iborat 20 minglik qo'shin Muslim ibn Kilabiyni Samarqandgacha ta'qib qilib boradi. Shu kabi voqealar Xurosonda noiblar almashinuviga sabab bo'ldi.

Xuroson noibi Ashras⁴ «arab va g'ayriarab musulmonlarning huquqini teng» deb e'lon qildi. G'ayriarab musulmonlardan xiroj va jizya solig'i olish to'xtatildi. Bu siyosat asoschisi nufuzli diniy rahnamo Solih ibn Tarif – Abu Sa'id edi. Abu Sa'id islomni yoyish uchun Samarqand va Buxoroda masjidlar qurdirdi. Uning e'tiroziga qaramay, noiblikning moliya ishlari bo'yicha omili Xani ibn Xani⁵ Ashras ko'rsatmasi bilan xiroj yig'ishni davom ettiradi. Natijada, islomni qabul qilib, xiroj to'lovidan bosh tortgan 7 ming mahalliy aholiga moyil bir necha arablar norozilik bildirib, Samarqanddan etti farsax masofadagi o'rduqa borib joylashadi. Ashras topshirig'i bilan Abu Sa'id qo'lga olinib, Marvdagi zindonga tashlanadi. Bu guruhga Abu Sa'id tarafdori Abu Fotima boshchilik qildi. U ham mahalliy aholi tarafini olgani uchun hijriy 117-yil (milodiy 735)da o'ldirildi. Bunga qadar Ashras vaziyat qo'ldan chiqib ketmasligi uchun norozi bo'lganlarga yon berib, Sug'd aslzodalarini xirojdan ozod qilib, ularga imtiyozlar berishni buyuradi. Ashrasning o'lkadagi harbiy harakatlari va hatto, «g'azovati» ham turonliklarning birlashgan ku-

¹ Mug' qal'asi manbalarda Abgar (Abargar) saroyi deb ham ataladi.

² Umar ibn Xubayr – 721–724-yillarda Iroq hukmdori.

³ Muslim ibn Kilabiy – 723–724-yillarda Xuroson noibi.

⁴ Ashras ibn Abdulloh – 727–729-yillarda Xuroson noibi.

⁵ Xani ibn Xani – soliq yig'ish ishlari bo'yicha amaldor.

chini engolmadi. Samarqand yaqinidagi Kamarja qo'rg'onida qolgan arablar 58 kunlik qamaldan so'ng Ashras e'lon qilgan «g'azovat» mag'lubiyat bilan tugaganini tan olishdi.



Arab askarlarining Turonga bostirib kelishi

Shundan so'ng hijriy 111-yil (milodiy 729/730)da Xuroson noibligiga Junayd ibn Abdurahmon tayinlandi. Junayd ham Omulda² 17 ming kishilik turk qo'shiniga duch kelib, zo'rg'a vaziyatdan chiqib ketadi.

Hijriy 115 (milodiy 733/734) yilda Xuroson noibligiga abbosiylar vakili Asim ibn Abdulla tayinlangan bo'lsa, Turondagi vaziyat-

ning keskinligi bois hijriy 117-yil (milodiy 735/736)da Xurosonga yangi noib – Asad ibn Abdulla³ tayinlandi. Unga ikki yil burun umaviylarga qarshi boshlangan qo'zg'olon yetakchisi Abu Xotim Xorisni⁴ bartaraf etib, ittifoqchilarni tor-mor keltirish vazifasi yuklatildi. U Xoris tarafdorlari to'plangan Samarqandni qamal qildi. Shaharni suvsiz qoldirish uchun muhim strategik obyekt – Varag'sar to'g'oniga⁵ hujum uyushtirdi. Bu yerda jiddiy qarshilikka uchragach, Xuttalonga yurish qildi.

Shu orada Xuroson noibi etib, Nasr ibn Sayyor⁶ tayinlanadi. U o'z mavqeyidan foydalanib, mahalliy hukmdor Qutayba ibn Tug'shodaning⁷ qiziga uylandi. Ayni paytda u soliq tizimini isloh qilib, musulmonlarni jizyadan ozod etdi. Jizyani g'ayrimusulmonlar zimmasiga yuklab, xirojni umumiylikicha qoldirdi. Uning bu islohotlari Turonda islom dinini keng yoyishga qaratilgan edi.

¹ *Qamarja qo'rg'on* – Samarqand yaqinidagi arablar manzilgohi.

² *Omul* – tarixiy Chorjo'y, hozirgi Turkmanobod.

³ *Asad ibn Abdulla* – 723–727 va 735–738-yillarda Xuroson noibi.

⁴ *Abu Xotim Xoris* – Xuroson va Turonda umaviylar hukmronligiga qarshi ko'tarilgan xalq harakati yetakchisi.

⁵ *Varag'sar to'g'on* – Zarafshon daryosidagi asosiy to'g'on; Darg'om, Ravotxo'ja to'g'on, Yuqori Zarafshon gidrouzeli kabi nomlari ham bor.

⁶ *Nasr ibn Sayyor* – 738–748-yillardagi Xuroson noibi.

⁷ *Qutayba ibn Tug'shoda* – Buxoro hokimi.

Hijriy 123-yil (milodiy 740/741)da Nasr ibn Sayyor islomdan qaytgani ta'qib qilmaslik, nohaq soliq undirmaslik va asirlarni jazolamaslik shartlari asosida sug'diylar bilan sulh tuzib, Farg'ona tomonga qayta yurish qiladi.

Yangi xalifa Yazid III¹ Nasrga Xurosonni boshqarish uchun yorliq jo'natib, Xorisni afv etadi.

Xalifa Marvon II² davrida abbosiylar imomi Ibrohim ibn Muhammad lashkarboshi Abu Muslimga Xurosonda «qora bayroq ostida» umaviylarga qarshi kurashga fatvo berdi. Hokimiyat hijriy 131-yil (milodiy 748/749)da umaviylardan hoshimiylar xonadoni vakili Abul-Abbos Saffoh qo'liga o'tdi. Shu tariqa xalifalikda abbosiylar davri boshlandi.

745-yillarda Sharqiy Turk xoqonligi Uyg'ur xoqonligi tomonidan tugatilgan bo'lsa, G'arbiy turk xoqonligi 742-yildayoq barham topgan edi. Uning o'rnini egallagan turkashlar³ Suluxon vafotidan so'ng zaiflashdi. Bu vaziyatda tan imperiyasining⁴ Turonga tahdidi oshdi. Farg'ona ixshidi va Shosh maliki o'rtasidagi ixtilofdan foydalangan Xitoy 751-yilda Gao Syan Szi boshchiligida yurish boshlaydi. Abu Muslim esa ularga qarshi Ziyod ibn Solih boshchiligida arab va turonliklardan iborat qo'shin jo'natdi. Hatto, arablarga raqib bo'lgan turkash va qarluqlar ham arab qo'shinlari tomonida kurash olib borgan Talas yaqinidagi jang taqdirini hal qildi. Xitoy qo'shinlari tor-mor etildi. Bu arab xalifaligining mintaqadagi mavqeyini oshirdi. Turonda arab xalifaligi va islom manfaatlari himoyachisiga aylangan Abu Muslimdan xavfsiragan xalifa Abu Ja'far Mansur⁵ hijriy 158-yil (milodiy 754/755)da uni o'z huzuriga chaqirtirib, xiyonatkorona o'ldirtirdi.

Muqanna qo'zg'oloni. Milodiy 777–780-yillarda kechgan «Oq kiyimlilar» qo'zg'oloniga Marv qishloqlarining biridan chiqqan Muqanna⁶ boshchilik qildi. Xalifaning Xurosondagi noibi Abu No'mon Humayd⁷ uning Amu-

¹ *Yazid ibn Valid (Yazid III)* – 744-yil apreldan oktabrgacha arab xalifaligini boshqargan umaviy yetakchi.

² *Marvon II* – 744–750-yillarda arab xalifaligini boshqargan so'nggi umaviy yetakchi.

³ *Turkashlar* – Yettisuvda yashagan turkiy urug'; VII asr oxirida Turkashlar xoqonligini tuzganlar.

⁴ *Tan imperiyasi* – 608–907-yillarda Xitoyda faoliyat ko'rsatgan davlat.

⁵ *Abu Ja'far Mansur* – 754–775-yillarda arab xalifaligini boshqargan abbosiy yetakchi.

⁶ *Muqanna (Hoshim ibn Hakim)* – 776–783-yillarda arab xalifaligiga qarshi kurash yetakchisi.

⁷ *Abu No'mon Humayd* – 768–776-yillarda Xuroson noibi.

daryodan o'tmoqchiligi haqidagi xabarni eshitib, daryo kechuviga askarlar qo'yib, uni tutmoqchi bo'ladi. Lekin Muqanna bu to'siqdan ustalik bilan o'tib, Qashqadaryo vohasiga kirib keladi va Kesh, Naxshab, Samarqand, Buxoro va boshqa qo'rg'onlarda o'z ta'limotini targ'ib qiladi.

Muqanna tarafdorlari, asosan, qishloqlardagi mehnatkash xalq bo'lib, yirik shaharlar aholisi arab askarlari tomonidan qo'riqlab turilardi. Muqanna o'z tarafdorlariga Naxshab, Samarqand, Buxoro, Siyom va Kesh qishloqlaridagi arab qo'rg'onlariga qarshi turk xoqonining yordamida hujum qilishni buyuradi. Xuroson noibi Abu No'mon Humayd qo'zg'olonni bostirishga urinadi. Uning vafotidan keyin Xurosonni qisqa muddat boshqargan Abdulla ibn Humayd davrida Muqanna qo'zg'oloni yanada avj oladi. Ular xalifa yuborayotgan harbiy kuchlarni daf etadilar.

Muqanna qo'zg'oloni 782–783-yillargacha davom etdi. Nihoyat, chorasizligini anglagan Muqanna o'z joniga qasd qiladi. Yetakchisiz qolgan qo'zg'olon bostiriladi. Biroq shundan keyin ham arablar hukmronligiga qarshi kurash to'xtamagan.

Shunday qo'zg'olonlarning eng yirigi 806-yili Rofe ibn Lays¹ boshchiligidagi Samarqandda boshlangan. E'tiborlisi, uning rahbari xalifaning Xurosondagi noibi Nasr ibn Sayyoming nevarasi edi. Rofe o'z da'vosini oqlash uchun Horun Rashidning lavozimdan tushirilgani, shu boisdan o'zining unga bo'ysunmasligini e'lon qiladi. Yirik arab zodagonining bunday da'vo bilan chiqishi mahalliy xalqni ruhlantirib, ular nazdida Rofening obro'sini oshirgan. Qo'zg'olonchilarning talabi bilan arablar xiroj miqdorini kamaytirishga majbur bo'ladilar. Qo'zg'olonchilar Shosh, Farg'ona, Xo'jand, Ustrushona, Chag'oniyon, Buxoro, Xuttalon, Balx va Toxariston aholisiga murojaat qilib, ulardan arablarga qarshi yordam so'raganlar.

Narshaxiyning yozishicha, Nasaf, Kesh va Buxoro aholisi qilich kuchi bilan islomga o'tkazilgan va Muqannaning qaytib kelishini kutayotgan edi. Mazkur hududlarda Muqanna ta'limoti ochiqdan-ochiq targ'ib qilinib, aholi arablarga qarshi urushga da'vat etilayotgan edi.

Qashqadaryo va Zarafshon vohalari qo'zg'olon o'chog'iga aylanadi. Qishloqma-qishloq aholi xalifaning odamlariga bo'ysunishdan bosh tortar va qo'zg'olonchilarga qo'shilar edilar.

Buxorodagi qo'zg'olonni Rofening ukasi Bashir ibn Lays boshqargan va u ona tomondan buxorudot malikaning avlodi bo'lib, mahalliy a'yonlar orasida

¹ Rofe ibn Lays – 806–810-yillarda Turonda arablarga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olon yetakchisi.

tarbiyalangan edi. Rofe ibn Laysning ta'siri ostida arab lashkarboshilari Anbas ibn Muhojir va Ujayf ibn Anbaslar ham qo'zg'olonchilarga qo'shildilar.

Nasaf aholisi Iso¹ boshchiligidagi Xuroson askarlari kelayotganini eshitib, Rofe ibn Laysdan yordam so'raydilar. U esa Isoga² qarshi Shosh hokimi boshchiligida katta kuch yuboradi. 807-yilning sentabrda qo'zg'olonchilar Iso guruhini qurshovga olib, uning o'zini ham, guruhini ham qirib tashlaydilar.

807-yili xalifa Horun Rashid go'yo Ali ibn Isoga yordam uchun Xurosonga 3000 askar yuboradi. Askarlar Marvga kelib, Ali ibn Isoni asir oladi va uning butun mol-mulkini musodara qilib, mansabidan tushiradi va o'rniga Harsama ibn A'yoni³ tayinlaydi. Bu orada Movarounnahrda samarqandliklar qo'zg'oloni yanada avj ola boshlaydi. Xalifalik lashkarboshisi Harsama Amudaryodan kechib o'tib, atrofdagi aholini bo'ysundirmoqchi bo'ladi, lekin uning bu harakati muvaffaqiyatsiz tugaydi. Harsamaning xalifaga yozgan maktubidan ma'lum bo'lishicha, qo'zg'olonchi samarqandliklarga Turondagi barcha qishloqlar aholisi qo'shilgan. Muqanna qo'zg'oloni paytida bo'lganidek, qishloqlar va viloyatlar aholisi hokimlari bilan birgalikda qo'zg'olonga qo'shiladi. Masalan, Toshkent hokimi Qashqadaryo vohasida arab askarlariga qarshi kurashda ishtirok etgani ma'lum.

O'z kuchi bilan qo'zg'olonni bostirolmagach, Harsama xalifaga maktub yozib, qo'zg'olon juda xavfli tus olayotganini bildiradi. Avvaliga xalifa Horun Rashid 806-yili Marvga qo'zg'olonni bostirish uchun ikkinchi o'g'li Abdullani⁴ yuboradi. Lekin Abdulla qo'zg'olonni bostirolmaydi. Shunda 808-yil kuzida xalifaning o'zi Xurosonga yo'l oladi va Tusga kelib, o'sha yerdan qo'zg'olonchilarga qarshi kurashni boshqaradi.

Bu orada Rofe ibn Lays xalifaga qarshi katta kuch to'plashga kirishib, Shosh, Farg'ona, Xo'jand, Usturshona, Chag'oniyon, Buxoro, Xorazm, Xuttalon, Balx, Toxariston va shuningdek, ko'chmanchi turkiy qabilalar, Tibet hokimi va boshqa viloyatlarga da'vatchilarni yuboradi.

808-yil oxirida Samarqand tumanidagi qo'zg'olonchilar rahbarlari Ujayfa ibn Anbas va Ahvas ibn Muhojir Harsamaga taslim bo'ladilar. Buxoroda qo'zg'olonga Bashir ibn Lays katta qat'iyat bilan rahbarlik qiladi.

Qo'zg'olonchilar askarlarga katta qarshilik ko'rsatadilar. Shunday bo'lsa-da, 809-yili Harsama Buxoroni olishga muvaffaq bo'ladi va Bashir ibn Laysni asir qilib Tusga, xalifa huzuriga yuboradi. Xalifa esa uni qatl ettiradi.

¹ Iso – Xuroson noibi Ali ibn Iso o'g'li.

² Ali ibn Iso – Xuroson noibi.

³ Harsama ibn A'yon – Xuroson noibi.

⁴ Abdulla – xalifa Ma'munning (813–833) asl ismi.

Harsama 809-yilning kuziga kelib, oxirgi qarshilik ko'rsatayotgan shahar Samarqandni oladi. Bu ishda Abdullaning lashkarboshisi Tohir ibn Husayn¹ jonbozlik ko'rsatadi. U Rofe ibn Laysni asir qilib, Marvga – Abdullaning huzuriga yuboradi, u esa Rofe Ibn Laysni qatlg'a hukm qiladi. Uning o'ldirilishi bilan Turon va Xurosonda xalifalikka qarshi kurashlar tugamaydi, balki boshqacha tus oladi. Gap shundaki, Horun Rashidning o'limidan keyin Bag'dodda xalifalik taxtiga uning o'g'li Amin² o'tiradi. Endi Turon va Xurosondagi xalifalikka qarshi kurash aka-uka Amin va Abdulla o'rtasidagi kurashga aylanadi.

Arablarning Turondagi dastlabki harbiy harakatlari o'ljani qo'lga kiritish, o'z foydalariga shartnomalar tuzish, an'anaviy davlatchilik va mahalliy ma'muriy boshqaruv tizimiga zarba berishdan iborat bo'ldi. Arab xalifaligi bir tomondan qo'lga kiritilgan o'ljalar hisobiga o'z xazinasini to'ldirgan hamda asirlar va garovdagilar hisobiga harbiy yo'qotishlarini qoplagan bo'lsa, ikkinchi tomondan, o'lkani islomlashtirish orqali qadimiy va boy ma'naviy meros egalari turonliklarni islom dini, madaniyati va ilm-fani taraqqiyoti uchun xizmat qilishga jalb etdi.

Masalan, Sa'id ibn Usmon va samarqandliklar shartnomasida 700 ming dirham o'lpon va aslzodalardan iborat asirlar ko'rsatilgan. Xuroson noibi Salm ibn Ziyod³ vakili Muhallab Azdiyning Hazoraspdagi bitimida 20 mln dirhamdan oshiq o'lpon belgilangan bo'lsa-da, asli miqdor 50 mln dirhamga yetgan. Boykentdan hijriy 87-yil (milodiy 705/706)da eritib olingan tilla buyum va zeb-ziynatlarning vazni 150 ming misqolni⁴ tashkil etgani holda, birgina oltindan quyilgan sanamning og'irligi 50 ming misqol, kumushdan yasalgan butning qiymati esa 40 ming dirhamga baholangan edi.

Qutayba va G'urakning 712-yildagi «Samarqand shartnomasi»da yiliga to'lanadigan 200 ming dirham va bir yo'la to'lanadigan 2 mln dirham o'lponning 200 mingi asirlar, gazlamalar, oltin va kumush bilan to'lanishi shart qilingan. Har yilgi to'lov xalifalikning o'lkadagi omili – moliyaviy va soliq ishlari noibi orqali jo'natib turilgan. Qolaversa, Sug'ddan Bag'dodga ayrim ma'lumotlar bo'yicha 3 ming, boshqalariga ko'ra esa 30 ming asir yuborilgani ma'lum.

¹ *Tohir ibn Husayn* – 821–822-yillarda Xuroson noibi, Xurosonda tohiriylar sulolasi asoschisi.

² *Amin* – 809–813-yillarda arab xalifaligini boshqargan abbosiy yetakchi.

³ *Salm ibn Ziyod* – 681–692-yillarda Xuroson noibi.

⁴ *Misqol* – 4,25 grammga teng og'irlik o'lchovi birligi.

Asir olinganlar orasida turklar ko'pchilikni tashkil etgan. Istaxriy ma'lumotiga ko'ra, Samarqanddan olib ketilgan asirlarning aksariyati Turkiston turklaridan iborat bo'lgan. Asirlar omillar nazoratida maxsus o'rdularga joylashtirilgan. Aksincha, Turonga arab qavmlari va ajam xalqlari vakillari ko'chirib keltirilgan. Xususan, 674-yilda Ubaydulloh ibn Ortiq o'zi bilan kelgan 24 ming arab va forsni Turon markaziga, qo'mondon Axnaf esa 4 ming arab va ming fors musulmonlarini Chag'oniyonga joylashtirgani ma'lum.

Mahalliy aholining haq-huquqlari cheklanib, azaliy qadriyatlarga zarba berildi. Zardushtiylar ibodatxonalarini o'rniga masjidlar bino etildi. Mahalliy rasmiy yozuvlar (xorazmiy, sug'diy, boxtariy kabilar)da ish yuritish taqiqlandi. «Qutayba Xorazm xatini yaxshi biladigan, ularning xabar va rivoyatlarini o'rgangan va bilimini boshqalarga o'rgatishi mumkin bo'lgan kishilarni o'ldirib, butkul yo'q qilib yuborgan edi. Shuning uchun «Xabar va rivoyatlar islom davridan keyin haqiqatni bilib bo'lmaydigan darajada yashirin qoldi», deya yozar ekan, Abu Rayhon Beruniy bu bilan arablarning nafaqat bosqinchilik, balki mustamlakachilik siyosatini ham ochib bergan.

Garov va asirga olingan turonliklar taqdiri turlicha kechgan. Xususan, bir guruh g'ulomlar shaxsiy soqchilikdan tortib hukmdorlik darajasigacha ko'tarilgan. Ubaydulloh ibn Ziyod 2000 buxorolik yoychini xalifaning maxsus gvardiyasiga jalb qilgan. Yurtdoshlarimizdan to'luniylar sulolasiga¹ asos solgan buxorolik Ahmad ibn To'lun², deyarli 35-yil Misr va Suriyada xukmronlik qilgan ixshidiylar sulolasiga³ asos solgan farg'onalik Muhammad ibn Tug'j⁴, 880-yili xalifalik tomonidan Ozarbayjon hokimi etib tayinlangan, kelib chiqishi Ustrushona turklaridan bo'lgan Abu Sajiyning o'g'li Muhammad⁵ va uning avlodlariga mansub sajiylar sulolasini⁶ misol keltirish mum-

¹ *To'luniylar* – 868–905-yillarda Misr va Suriyani boshqargan turkiy sulola.

² *Ahmad ibn To'lun (835–884)* – to'luniylar sulolasining asoschisi va 868–884-yillardagi yetakchisi.

³ *Ixshidiylar* – 935–969-yillarda Misr, Suriya, Hijozning bir qismida hukmronlik qilgan sulola; uning kelib chiqishi farg'onalik Jaf ismli qo'mondon bilan bog'liq bo'lib, u xalifa Mu'tasimning yollanma qo'shinida xizmat qilgan; uning o'g'li Tug'j to'luniylarning ikkinchi hukmdori Humoravayh ishonchini qozongan va Damashq hamda uning atrofidagi yerlar noibligini olgan.

⁴ *Muhammad ibn Tug'j* – 935–946-yillarda ixshidiylar sulolasining birinchi va eng kuchli yetakchisi.

⁵ *Muhammad Afshin* – sajiylar sulolasining 889–901-yillardagi yetakchisi.

⁶ *Sajiylar* – 889–929-yillarda Eronning shimolidagi Ozarbayjon viloyatida hukmronlik qilgan sulola; asoschisi ustrushonalik qo'mondon Abus Soj Devdod (879-yili vafot etgan) hisoblanadi.

kin. Boshqacha aytganda, kezi kelganda, xalifalar davlat boshqaruvida ularga qaraganda katta va ko'p asrlik tajribaga ega turonlik siyosatchi va harbiylar salohiyatidan unumli foydalanganlar.

VIII asming ikkinchi yarmidan Turon o'lkasidagi mahalliy turkiy, qorazmiy, sug'diy, boxtariy tillar va yozuvlar o'rnini mahkama ishlarida arab tili hamda yozuvi egallay boshladi. Arablar va islom dini ta'sirida mahalliy musulmonlar orasida islomiy ismlar rasm bo'la bordi. Shuning barobarida, o'zlari tug'ilgan yurtlarni nisba sifatida ko'rsatish ham e'tibordan chetda qolmadi.

Arab istilosidan keyin Turonning ko'pchilik aholisi asta-sekin islomni qabul qila boshladi, ammo g'ayridinlardan jon boshiga olinadigan soliq – jizya yig'ib berishda davom etdi. Islom dini ta'limotlarini yoyish maqsadida Xuroson voliyasi Ashras ibn Abdulla 728-yili o'lkaga asli kelib chiqishi arab bo'lmagan xurosonlik Abu Saydo boshchiligida targ'ibot guruhini yuboradi. Ashras ularga, dinga yangi kirganlardan jizya olinmaydi, deb va'da beradi. Abu Saydoning Turondagi targ'ibotlari muvaffaqiyat qozonib, odamlar birin-ketin islomni qabul qila boshlaganlar. Vaqt o'tgan sayin esa ajdodlarimiz islom ta'limoti asoslarini yaratish va rivojlantirishda butun musulmon olamida peshqadamga aylana borganlar.

Chunonchi, VIII asr ikkinchi yarmi – IX asr boshlari hadis ilmining ilk vakillari sifatida Abu Muqotil Hafs Samarqandiy, uning shogirdi Abu Bakr Ahmad, ikki o'g'li – Salm ibn Hafs va Umar ibn Hafs nomlari tilga olinadi.

Ba'zi muhaddislar Samarqandga kelib, muqim yashab qolganlar va shu shaharda o'z maktablariga asos solganlar. Jumladan, Abu Imron Muso Xo'jandiy adib, hakim, muhaddis sifatida shuhrat qozongan.

IX–X asrlarda Ishtixon shahrida Ahmad ibn Hishom Navqadakiy hamda Dovud ibn Amr Rustug'faniy hadis maktablari, Niso shahrida Ahmad ibn Shuayb Nisoiy maktabi, Xo'jandda Yahyo ibn Fazl Xo'jandiy maktabi mavjud bo'lgan.

IX asrda yashagan shoshlik muhaddislar – Imom Buxoriy va Ja'far ibn Muhammad Farobiyning ustozlari Abdulla ibn Abu Aroba Shoshiy Abu Valid Tayolisiy, Abu Muso Horun Shoshiy, uning jiyani Abu Ali Fazlga oid ma'lumotlar Toshkentda ham hadis ilmi keng rivoj topganidan dalolatdir.

Demak, Turon o'lkasi musulmon dunyosida hadischilikning paydo bo'lishi va rivojlanishida alohida o'rin egallagan. Mazkur yo'nalishning eng obro'li va ishonchli vakili esa Imom Buxoriydir.

Uning to'liq ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim ibn Mug'iyra ibn Bardazbeh Juafiy Buxoriy bo'lib, 810-yili 20-iyulda Buxoro

shahrida tug'ilgan. Ota-onasi o'z davrining ziyoli kishilaridan bo'lganlari uchun Muhammadga ham har tomonlama bilim berganlar.

825-yili u onasi va akasi Ahmad bilan Makka va Madinani ziyorat qilib, olti yil Hijozda yashab, o'z bilimini yanada oshirish maqsadida o'sha paytda ilm-fanning yirik markazlaridan hisoblangan Damashq, Qohira, Basra, Kufa, Bag'dod kabi shaharlardagi mashhur olimlardan hadis bilan bir qatorda fiqh ilmidan ham ta'lim oladi, yirik olimlar davrasida ilmiy bahslar-u munozaralarda qatnashadi va ilm toliblariga dars ham beradi.

Imom Buxoriy xorijdan qaytgach, o'z vatani Buxoroda ko'plab shogirdlar va ulamolarga hadis ilmidan saboq berish bilan mashg'ul bo'ladi. Umrining so'nggi yillarini esa Samarqand yaqinidagi Xartang qishlog'ida o'z shogirdlari va qarindosh-urug'larinikida o'tkazgan ulug' alloma og'ir kasallikdan keyin 870-yil 1-sentabr kuni 60 yoshida vafot etadi va shu yerda dafn qilinadi.

Imom Buxoriydan boy va qimmatli ilmiy meros qolgan. Uning «Sahih Buxoriy» nomi bilan ham mashhur «Al-jome' as-sahih» asari islom ta'limotida Qur'ondan keyingi ikkinchi o'rinda turadigan muhim manba sanaladi. Imom Buxoriy hadisshilikni ilmiy tizimga solgan ilk olimdir. Ungacha o'tgan muhaddislar eshitgan, bilgan barcha hadislarini tanlab o'tirmay o'z to'plamlariga kiritaverganlar. Yurtdoshimiz esa turli roviylardan eshitgan hadislarini ta'baqalarga bo'lib, ularning ishonchlilarini ajratib, alohida kitob yaratgan. Unga kiritilgan ishonchli hadislarining soni takrorlanadiganlari bilan birga 7275 ta bo'lib, takrorlanmaydigan holda esa 4000 hadisdan iboratdir. Keyingi zamon olimlari uning yo'lidan borib, shu yo'sinda hadislar to'plamlarini yaratganlar.

«Al-jome' as-sahih»ga kiritilgan hadislar islom ta'limotiga oid umumiy qoidalarni aks ettiribgina qolmay, mehr-muhabbat, saxiylik, ochiq ko'ngillik, ota-ona, ayollar va kattalarga hurmat, yetim-esirlarga muruvvat, faqir bechoralarga himmat, vatanga sadoqat, mehnatsevarlik va halollikka da'vat etish kabi chin insoniy fazilatlar va namunali tartibotlar majmuasidir. Unda nima yaxshi, nima yomon, nimani qilish kerak, nimadan o'zni tiyish lozimligi haqida har bir inson uchun katta tarbiyaviy ahamiyatga ega yo'l-yo'riqlar, pand-nasihati va o'gitlar aks ettirilgan.

Hadisshilikning yana bir yirik vakili ham turonlikdir. Abu Iso Termiziy nomi bilan mashhur yurtdoshimizning to'liq ismi Abu Iso Muhammad ibn Savra ibn Muso ibn Zahhok Sullamiy Termiziydir. U 824-yili Termizda o'rta-hol oilada tug'ilgan.

Bolaligidan o'ta ziyrakligi, quvvayi hofizasi kuchliligi bilan o'z teng-qurlaridan ajralib turgan Imom Termiziy diniy va dunyoviy fanlarni, ayniqsa,

hadis ilmini alohida qiziqish bilan egallagan va bu boradagi o'z bilimlarini mutasil oshirish uchun Isfahon, Xuroson, Makka va Madinaga safarlar qilgan. Nishopurda esa o'sha kezlari mazkur shahardagi madrasada dars berayotgan Imom Buxoriy bilan uchrashgan. O'zining yozishicha, u o'z asarlari uchun ko'p ma'lumotlarni Imom Buxoriydan olgan. Shu bilan birga, Imom Buxoriy ham Imom Termiziyning bilimini yuqori baholab: «Men sendan ko'rgan foyda sen mendan ko'rgan foydadan ortiqroq», deb unga nisbatan chuqur hurmatini bildirgan.

Musofirchilikdan qaytgach, o'z yurtida yirik muhaddis olim sifatida shuhrat qozondi va ijodiy ish, shogirdlar tayyorlash bilan mashg'ul bo'ladi. Imom Termiziy 892-yili Termizdan uzoq bo'lmagan Bug¹ qishlog'ida vafot etadi va shu yerda dafn qilinadi.

Imom Termiziy asarlari ichida eng mashhuri, shubhasiz, «Al-jome'» bo'lib, payg'ambar alayhissalomga doir oltita ishonchli hadislar to'plamlaridan biridir. Ushbu asar ilmiy adabiyot va manbalarda «Al-jome' al-kabir» («Katta to'plam»), «Al-jome as-sahiy» («Ishonchli to'plam»), «Jome at-Termiziy» («Termiziy to'plami»), «Sunan at-Termiziy» («Termiziy sunnatlari») nomlari bilan ham tanilgan.

Sunniy e'tiqodidagi ikki yirik oqimlardan biri bo'lmish moturidiyaning asoschilaridan biri ham turonlikdir. Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad ibn Mahmud Hanafiy Moturidiy Samarqandiy Moturid qishlog'ida² dunyoga kelgan. Boshlang'ich ta'limni shu yerda olib, keyinchalik Samarqandda davom ettiradi. Chunonchi, Ayoziy madrasasida o'qigani haqida ma'lumotlar bor.

Abu Mansur Moturidiy 870-yili tug'ilgan. O'limi esa 944–945-yili Samarqandda yuz bergan va shahar chekkasidagi Chokardiza qabristoniga³ dafn etilgan.

Abu Mansur Moturidiy fiqh va kalom masalalari bilan qiziqib, Hanafiya mazhabi olimlaridan dars olib o'z bilimini oshiradi. Shu vaqt davomida ko'plab mashhur faqihlar va muhaddislar bilan muloqotda bo'lgan va munozaralar qilgan. Butun umri davomida shu sohaga oid asarlar yozib qoldirgan.

U o'z davrining islomiy ilmlari sohasida eng yetuk bilim egasi sanalib, musulmon dunyosi tomonidan tan olingan olimdir. Allomani «Imom al-huda» va «Imom al-mutakallimin» (hidoyat yo'li imomi va mutakallimlar imomi) deya ulug'laganlari ham bejiz emas, albatta.

¹ Bug' – Surxondaryo viloyati Sherobod tumanida joylashgan qishloq.

² Moturid – Samarqand viloyati Jomboy tumanida joylashgan qishloq.

³ Chokardiza qabristoni – Samarqand shahrining qadimiy qabristonlaridan biri; u yerda mingdan ortiq olim ko'milgan.

Abu Mansur Moturidiy islom dinidagi sunniylarning to'rtta asosiy mazhabi asoschilarining asarlarini o'rganib, fiqhga va kalomga oid «Ta'vilot ahli sunna» («Ta'vilot al-Qur'on») asarini yozadi. Unda sunniy aqidaga zid qarashlarni rad qilishga intiladi va Abu Hanifaning qarashlariga suyangan holda ish ko'radi. Uning ushbu birgina asari keyinchalik ko'p allomalar asarlariga asos solgan, ular ijodiga turtki bo'lgan.

Abu Mansur Moturidiy umri davomida faqihlar, muhaddislar bilan mu-loqotda bo'lgan va munozaralar olib borgan. U islom dini hanafiya mazhabi-ni Turonda tarqatish va o'zidan keyingi avlodlarga qusursiz yetkazish ishiga muhim hissa qo'shgan ulug' shaxs sanaladi.

VIII. SOMONIYLAR BOSHQARUVI DAVRI

IX asrda xalifalik sharqida mahalliy sulolalar, xususan, tohiriylar¹, safforiylar² sahnaga chiqishlari bilan bog'liq o'zgarishlar Turonda kechgan siyosiy jarayonga o'z ta'sirini o'tkazishi turgan gap edi. Tohir ibn Husayn xalifa Ma'mun³ nomini xutbada eslamaslik haqida buyruq berganiga qaramay, mazkur «xato»ni rasman to'g'rilagan uning merosxo'rlari Sharqiy Erondagi mavqelarini saqlab qolganlarining o'ziyoq xalifalikka qaramlik nomigagina bo'lib borayotganiga ishoradir, albatta.

Tohiriylardan Xurosonni tortib olgan safforiylar, xususan, Amr ibn Lays⁴ xalifalikni mensimaslik yo'lini tanlagani sharoitida, xalifa uning kuchini kesish maqsadida turonlik sulola – somoniylarni qo'llay boshlagan. Mazkur xonadon asoschisi Somonxudot⁵ asli Somon qishlog'idan⁶ bo'lib, Xuroson noibi Asad ibn Abdulla yordami bilan dushmanlarini yengib, mavqeyini tiklab olgach, islom dinini qabul qiladi va uning sharafiga o'g'li ismini Asad deb qo'yadi.

Asadning Nuh⁷, Ahmad⁸, Yahyo⁹ va Ilyos¹⁰ ismli o'g'illari bo'lgan. Rofe ibn Laysning Horun Rashidga qarshi 806-yilgi isyonida Ma'mun Asadning

¹ *Tohiriylar* – 821–873-yillarda Eron va Turonda hukmronlik qilgan sulola.

² *Safforiylar* – 861–900-yillarda Seyistonda hukmronlik qilgan sulola.

³ *Ma'mun* – 813–833-yillarda arab xalifaligini boshqargan abbosiy yetakchi.

⁴ *Amr ibn Lays* – 879–900-yillarda safforiylar yetakchisi.

⁵ Somonxudotning birlamchi oti Arquq bo'lgani, Farg'onada tug'ilib, Termiz tomonlarga ko'chib o'tgani va u yerda Somon qishlog'iga asos solgani haqida ma'lumotlar bor. So'z ketayotgan davr tarixchilari uning kelib chiqishini 590–591-yillarda Eronni boshqargan Bahrom Cho'bin bilan bog'laydilar. O'z o'rnida, Bahrom Cho'binning eftaliylarga tegishli jihati bo'lib, hokimiyat uchun kurashda yengilgach, Farg'onaga qochib kelgan va turkiy malikaga uylanib, o'sha yerda qolib ketgan. Somonxudotning shajarasida Juba, Jamchan, Tamg'as kabi turkiy ismlarning uchrashi, turkiy rivoyatlarda Somonyabg'u (ya'ni Somonxudot) O'g'uzxondan keyingi davrlarda yashagani ham bejiz emas, albatta.

⁶ Somon qishlog'i bo'yicha biror-bir ma'lumot yo'q. U Samarqand, Balx, Termiz atrofida joylashgani haqida ma'lumotlar bor.

⁷ *Nuh* – 819–842-yillarda Samarqand hokimi.

⁸ *Ahmad* – 819–842-yillarda Farg'ona va 842–864-yillarda Samarqand hokimi.

⁹ *Yahyo* – 819–855-yillarda Toshkent va 852–855-yillarda Samarqand hokimi.

¹⁰ *Ilyos* – 819–856-yillarda Hirot hokimi.

o'g'illaridan yordam so'ragani ta'sirida Rofe ibn Lays Xuroson noibi bilan sulh imzolagan va ikki tomon o'rtasida qarindoshlik aloqalari ham o'rnatilgan. Shu tariqa somoniy aka-ukalar bo'lg'usi xalifa nazariga tushganlar. Ma'mun 813-yilda xalifalik taxtini egallaganidan so'ng Xuroson noibiga Asad o'g'illariga ayrim viloyatlar boshqaruvinini berishni buyurgan. 819-yili Marvdan Bag'dodga ketishi oldidan esa Nuhni Samarqandga, Ahmadni Farg'onaga, Yahyoni Shosh va Ustrushonaga, Ilyosni Hirotga hokim etib tayinlagan.

Keyinchalik, 821-yili Xuroson noibi lavozimini egallagan Tohir ibn Husayn aka-ukalarni o'z mansablarida qoldiradi. Yangi noib somoniylik xonadonining o'sha paytdagi yoshi eng ulug' vakili Nuhga faxriy libos taqdim etadi va uni Samarqand hokimi sifatida tan oladi. Nuh to'vafotiga qadar Samarqandda qoladi va o'z vorisi etib ukasi Ahmadni tayinlaydi. Ahmad esa, o'z navbatida, o'g'li Nasr I ni¹ vorisi sifatida tayinlagan. 865-yili Nasr I otasi o'miga o'tirgan, 875-yili esa xalifa Mu'tamid² uning nomiga yorliq kelgan va u butun Turon viloyatlari hukmdori sifatida tan olingan. Shu tariqa o'lkani yagona markaz atrofida birlashtirish boshlanadi.

866-yili Nasr tomonidan Buxoroga yuborilgan Ismoil³ Buxoro amiri Husayn ibn Muhammad bilan muzokaralardan so'ng viloyat boshqaruvi somoniylik qo'liga o'tishiga kelishib olingan. Juma kuni Nasr nomiga xutba o'qilgach, Buxoroning bosh sadri Abu Abdulloh uni kutib olish uchun shaharning arab va ajam aslzodalari bilan Karmanaga kelgan. Ismoil boshida Buxoroga kelishdan cho'chigan, ammo yaxshi kutib olingani unga kuch bag'ishlagan. U shaharga kirib borgan, Husayn ibn Muhammadni zindonga tashlagan.

871-yilning yozida Amr ibn Lays va Ismoilning orasi buziladi. Bunda, yuqorida ishora berilganidek, xalifaning somoniylikni qo'llab-quvvatlagani o'z ta'sirini o'tkazgan, albatta. Teskari holda, o'zaro munosabatlarni yaxshilash uchun safforiylar boshlig'i tomonidan yuborilgan Nishopur shayxlari, o'ziga yaqin kishilardan iborat boshqa bir guruh Amudaryodan o'tkazilmasdan ortga quvib yuborilmagan bo'lardi.

900-yilning bahorida Balx atrofida yuz bergan jangda Amr ibn Lays Ismoil tomonidan mag'lubiyatga uchratiladi. Ismoilni Xorazm, Farg'ona, Buxorodan, ya'ni butun Turondan yordamga kelgan katta harbiy kuch qo'llab-quvvatlagan. Shu tariqa, Xuroson va Shimoliy Eron ham Ismoil tasarrufiga o'tadi. Safforiylar yetakchisini xalifa huzuriga jo'natgan Ismoilga «Xuroson,

¹ Nasr I – 864–892-yillarda Samarqand hokimi.

² Mu'tamid – 870–892-yillarda arab xalifaligini boshqargan abbosiy yetakchi.

³ Ismoil ibn Ahmad – 892–907-yillarda o'zbek davlatini boshqargan somoniy yetakchi.

Movarounnahr, Turkiston, Sind, Hind va Go'rgon viloyatlari» hukmdori deb tan olingan yorliq kelgan. Shu tariqa, xalifalik somoniylarni siyosiy kuch sifatida rasman tan olishga majbur bo'lgan.

Ismoil o'zbek davlati arablarga siyosiy qaramlikdan qutulgandan so'ng mustaqil siyosat yurita boshlagan ilk hukmdor hisoblanadi. U davlatchiligining tarixida 1600-yildan ortiq vaqt mobaynida to'plangan tajriba va an'analarni uddaburonlik bilan davom ettirgan. Chunonchi, eng avvalo, mintaqa siyosiy birligini ta'minlash ishiga bel bog'lab, Farg'ona, Isfijob (Sayram), Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xorazm, Chag'oniyon, Xuttalon, Kesh, Xuroson, Seyiston, G'azni kabi qator viloyatlarni o'z hukmi ostiga birlashtiradi. Garchi ularning hammasi ham mutlaq tobelik yo'liga kirmagan bo'lsalar-da, qudratli markaziy hokimiyat ob-havosini tan olishga majbur bo'lgan edilar. Demak, Ismoil markazlashgan davlatchilik asoslarini qaytadan tiklashga muvaffaq bo'lgan.

Ismoildan keyin taxtga uning o'g'li Ahmad¹ o'tirgan. U otasi hukmronlik qilgan vaqtdayoq Seyistonni istilo qilgan va u yerda hukmronlik o'rnatgan. Otasining o'limidan keyin Seyistondan Buxoroga kelgan. U ko'p hukmronlik qilmagan, uyushtirilgan fitna natijasida o'ldirilgan.

Otasining o'miga taxtga o'tirganida Nasr II² atigi 8 yoshda edi. Uning ko'p yillik hukmronligidan so'ng taxt Nuh I³ ga tekkan. Keyingi hukmdor – Abdulmalik⁴ ham toj kiyganida 10 yashar bola ekaniga qaramay, boshqaruv harbiy qo'lida bo'lgan.

Davlat boshqaruvi. Somoniylar davrida poytaxtda avvaliga Samarqandda bo'lib, keyinchalik Buxoroga ko'chirilgan. Nasr II davrida Registonda katta saroy va davlat boshqaruvining markaziy idoralari hisoblanmish o'nta devonning binolari qurilgan. Shu yo'sinda, o'z davri uchun ilg'or hisoblanmish markazlashgan boshqaruv tizimi joriy etilgan. Bu tizim asosini oliy hukmdor dargohi va devonlar (vazirliklar) majmuyi tashkil etgan. Oliy hukmdor amir unvoniga ega edi.

Oliy hukmdor hukmlarining ijrosi horis amiriga yuklatilgan. Davlat va boshqa qator muhim davlat idoralarining xavfsizligini amalga oshirish xizmatini bosh hojib va uning xodimlari olib borganlar. Dargohning xo'jalik yumushlari bilan bog'liq faoliyat vakil tomonidan boshqarilgan. Bundan tashqari, dargohda dasturxonchi, eshik og'asi, sharbatdor kabi xizmatlar ham bo'lgan.

¹ Ahmad – 907–914-yillarda o'zbek davlatini boshqargan somoniy yetakchi.

² Nasr II – 914–943-yillarda o'zbek davlatini boshqargan somoniy yetakchi.

³ Nuh I – 943–954-yillarda o'zbek davlatini boshqargan somoniy yetakchi.

⁴ Abdulmalik – 954–961-yillarda o'zbek davlatini boshqargan somoniy yetakchi.

Devonlar quyidagi tartibda faoliyat yuritgan:

1. Bosh vazir devoni. Butun ijroiya hokimiyati hamda qolgan 9 devon ustidan nazorat xuddi shu vazirlik tomonidan amalga oshirilgan.

2. Moliya (kirim-chiqim) ishlari devoni. Davlatning moliyaviy ishlari, sarf-xarajatlariga oid hisob-kitob ishlari bilan shug'ullangan.

3. Davlat rasmiy hujjatlarini ishlab chiqish devoni. Bu devon, asosan davlat ahamiyatiga molik hujjatlar, diplomatik tadbirlarni tayyorlash, amalga oshirish kabi vazifalar bilan shug'ullangan.

4. Soqchilar boshlig'i devoni. Ushbu muassasa maxsus saralangan harbiy qismlarga boshchilik qilib, ularning tayyorgarligi, tartib-intizomi, oziq-ovqati, umuman, xo'jalik ta'minoti, maoshi masalalari bilan shug'ullanib kelgan. Masalan, maosh bir yilda uch-to'rt oyda bir to'lab turilgan.

5. Xat-xabar mutasaddisi devoni dargoh, hukumat, mahalliy hokimiyat bilan bog'liq xabardorlik ishlari bilan mashg'ul bo'lib, poytaxtda qabul qilingan muhim qarorlar, hujjatlar va boshqa rasmiy ko'rsatmalarni viloyatlar, shaharlarga yetkazish hamda joylardan shunday ma'lumotlarni olish ishlari bilan shug'ullangan.

6. Saroy boshqaruvchisi devoni. Dargoh ta'minoti bilan bog'liq sarf-harajatlar ustidan nazorat olib borish shu devonga yuklatilgan.

7. Davlat mulklari devoni hukmdor sulolaga tegishli mol-mulk boshqaruvi, nazorati, hisob-kitobi bilan shug'ullangan.

8. Muhtasib devoni xizmatchilari qiladigan asosiy ish shahar va qishloqlarda, ko'cha va bozorlarda tartibni nazorat qilish, diniy marosimlarni amalga oshirishda chegaradan chiqmaslikni ta'minlash, savdo-sotiq ishlarida xaridorlarga xiyonat qilmaslik, mahsulotlar sifatida qat'iy ko'rsatilgan darajada tutishni tekshirish, narx-navoning belgilangan miqdordan oshirmaslikni nazorat qilishdan iborat bo'lgan.

9. Vaqflar devoni, ya'ni turli yo'llar bilan diniy muassasalar ixtiyoriga o'tkazilgan mol-mulk, yer-suv ishlari bilan shug'ullanuvchi vazirlik.

10. Qozilik ishlari devoniga qozilarning faoliyatini nazorat qilish yuklatilgan.

Mazkur devonlarning joylarda ham bo'limlari mavjud bo'lgan. Ular markazdagi o'z devonlaridan tashqari mahalliy hokimlarga ham bo'ysunib, mahalliy boshqaruv idoralari bilan hamkorlikda faoliyat ko'rsatganlar. Bundan xat-xabarlar xizmati devoni mustasno hisoblanib, ularning mahalliy bo'limlari faqat markazgagina hisobot berganlar, xolos. Zero, yuqorida aytilganidek, ular mahalliy hokimlar, mansabdorlar ustidan ham pinhona nazorat olib bor-

ganlar.

Viloyat boshlig'i hokim, shahar boshlig'i esa rais deb atalgan. Hokimni oliy hukmdor, raisni esa hokim tayinlagan. Albatta, bunda u yoki bu nomzodning shu yerdagi obro'-e'tibori, mavqeyi hisobga olingan.

Lashkar ikki toifaga bo'lingan: doimiy ravishda faoliyat ko'rsatuvchi saralangan qismlar (gvardiya) va zarur hollarda viloyatlardan yig'iladigan qismlar. Saralangan qismdagilar amir darajasiga chiqish uchun oddiy askarlikdan boshlab, sakkiz bosqichli yo'lni bosib o'tishlari kerak bo'lgan.

Iqtisodiy hayot. Davlat idoralari ariqlar, yer osti ariqlari (korizlar) qazish, ko'priklar qurish, shahar, qishloqlar obodonchiligi, dehqonchiligi borasida g'amxo'rlik qilish, karvon yo'llari xavfsizligini ta'minlash, karvonsaroylar, turli maqsadlar uchun mo'ljallangan binolar, bozorlar, yangi shaharlar bunyod etish kabi katta va serxarajat, ko'pchilik bilan bitadigan tadbirlarga bosh-qosh bo'lgan. Shuning uchun ham bu davrda dehqonchilik, hunarmandchilikning ko'plab sohalari gurkirab rivojlanib, farovonlik hukm surgan.

Ilgarigi asrlarda bo'lgani kabi Farg'ona, Qashqadaryo, Zarafshon vodiylari, Shosh, Xorazm, Xuroson viloyatlarida dehqonchilik ishlari yuksak saviyada tashkil etilib, bug'doy, arpa, sholi, paxta, tariq, zig'ir, kunjut, kanop, no'xat, mosh, yasmiq, beda kabi qator ekinlar yetishtirilgan. Hosildorlik shu darajada bo'lganki, bir siqim don ekib, yuz siqim, hatto, undan ko'p hosil olingan. Bog'dorchilik, xususan, uzumchilik va polizchilik sohasida ham yutuqlar shu kabi bo'lgan. Uzunning o'nlab navlari, mevalardan olma, shaftoli, o'rik, nok, anjir, behi, olcha, olxo'ri, anor, bodom, yong'oq, poliz ekinlaridan qovoq, qovun (ayniqsa, Buxoro qovunlari mashhur bo'lgan), sabzavotdan bodring, baqlajon, sabzi, piyoz kabilar yetishtirilgan. Xullas, bu borada mirishkorlik shu darajada bo'lganki, chet ellardan kelganlar yerning unumdorligi, hosilning yuqoriligi, hamma yerning ko'm-ko'k, ya'ni obod bo'lib turishini ko'rib hayratga tushganlar.

Hunarmandchilik ham yaxshi taraqqiy etgan bo'lib, paxta, ipak, jundan turli xil matolar, tayyor kiyimlar tayyorlanib, o'lka va yon-atrof ahlining talabi qondirib kelingan. Qog'oz ishlab chiqarishda mamlakatimiz O'rta va Yaqin Sharqda, Yevropa mamlakatlari orasida birinchilikda turib, ularni bu noyob mahsulot bilan ta'minlab kelganini alohida ta'kidlash lozim. «Samarqand qog'ozi kabi qog'ozi, deb yozgandi X asr tarixchisi Istaxriy, – (dunyoning) hech bir yerida uchratmay-siz». Shuningdek, shishasozlik (rang-barang shisha idishlar, bezaklar, deraza uchun oyna ishlab chiqarish), kulolchilik (ayniqsa, sopol idish, buyumlarni sir-lash borasida katta tajribaga ega bo'lingan), ko'nchilik, gilam to'qish, misgarlik,

qurolsozlik, temirchilik, kunjut, chigit, zig'ir, kanopdan moy olish kabi o'nlab sohalarga e'tibor qaratilib, bu jamiyat hayotini yaxshilashga xizmat qilgan.

Somoniylar davrida konchilikka ham katta e'tibor berilgani ma'lum. Ayniqsa, Farg'ona vodiysida bu borada katta ko'lamdagi ishlar amalga oshirilib, Axsikat, Navqotda oltin, kumush, Yuqori Nisoda toshpaxta, qatron, kumush, oltin, firuza, temir, mis, qo'rg'oshin, Isfara tog'larida toshko'mir, qora, qizil, sariq rangdagi talq, So'x yaqinida simob, O'zgandda navshadil konlari ishlab turgan. Shuningdek, Farg'onada bu vaqtda tuz, neft kabi qimmatli xomashyolar ham qazib olingan. Tuz konlari Iloqda (Ohangaron vodiysi) ham bo'lgan. Ammo bu yerda, asosan, kumush, qo'rg'oshin qazib olishga zo'r berilgan. Bundan tashqari, mazkur vodiy tog'larida gilvata, o'tga chidamli oq loy, achchiqtosh, firuza, ofit, ametist kabi qazilma boyliklari bo'lgan. Temir, oltin, mis, kumush, navshadil, kuporos, aqiqning yo'l-yo'l turi, tuz konlari Ustrushonada (Shosh, Farg'ona, Chag'oniyon, Samarqand viloyatlari bilan o'ralgan viloyat) ham ishlab turgan. Mintaqaning boshqa yerlarida (Xuroson, Badaxshon va hokazo) ham yoqut, zaharmuhra, oltin, kumush, la'l, tuz, toshpaxta, firuza, marmar, oltingugurt, margimush, agat konlari mavjud edi. Konchilik usuli o'z davri uchun yuqori darajada bo'lgan.

Somoniylar davrida pul muomalasining o'ziga xos tomonlari bor. Muomalada oltin tangalar, ismoiliy, muhammadiy, g'itrifiy, musayyabiy, xorazmiy dirhamlari bo'lgan. Istaxriyning ma'lumotiga ko'ra, muhammadiy tangalari, asosan, Samarqandda muomalada bo'lgan, u bunday tangalarni boshqa biror-bir yerda ko'rmagani to'g'risida ma'lumot bergan.

O'lka savdogarlari shu yerda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar bilan, avvalo, mintaqa ahli ehtiyojlarini qondirishga harakat qilganlar. Shuning uchun ham savdo-sotiq gurkirab o'sgan, ko'plab bozorlar bunyod etilgan, borib-borib rastalar, bozorlarni ma'lum bir yo'nalishda ixtisoslashtirish yo'liga o'tilgan, ayniqsa, markaziy shaharlarda ko'tarasiga savdo keng yo'lga qo'yilgan. Samarqand, Buxoro, Boykand, Binkat, Xo'jand, Termiz, Kot va boshqa shu kabi shaharlar xalqaro darajadagi katta savdo markazlari vazifasini o'tagan.

O'sha vaqtlarda hududdan olib chiqib ketilgan, yo bo'lmasa, yurtimizga olib kelingan mahsulotlar haqida manbalarda ko'plab ma'lumotlar keltirilgan. Masalan, Xitoyga shishasozlik buyumlari, oyna, arg'umoq otlar, ba'zi bir oziq-ovqat mahsulotlari jo'natilgan. U yerdan esa ipak va ipak matolar keltirilgan. Yevropaga ip, jun, ipak matolar, quritilgan mevalar, sholi, kumush buyumlar olib ketilgan, u yerlardan esa, asosan, mo'yna, charm kabilar olib kelib sotilgan. Yevropaliklarda, ayniqsa, o'lkamiz shaharlarida yasalgan

kumush buyumlar hamda kumush tangalarga talab katta bo'lgan. Hattoki, arxeologlar tomonidan Skandinaviya o'lkalarida olib borilgan qazishmalarda Toshkent viloyatida zarb qilingan kumush tangalar topilgan. O'rta va Yaqin Sharq mamlakatlariga, asosan hunarmandlar tomonidan yasalgan qurol-aslahalar va temirchilik buyumlari olib ketilgan.

Savdo-iqtisodiy munosabatlarning rivojlanib borishi yana bir muhim faoliyat – me'morchilikda ham katta o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Shaharlar kengaydi, muhtasham binolar, orasta bozorlar, masjid-madrasalar, hammomlar, ustaxonalar, do'konlar va boshqa qator imoratlar bunyod etildi. Bunda quruvchilikka aloqador turli kasbdagi ustalar ishtirok etib, o'z mahoratlarini oshirganlar. Buni biz Buxoro, Samarqand, Termiz kabi qator qadimiy shaharlar misolida ko'rishimiz mumkin.

Ijtimoiy hayot. Somoniylar davrida Turon va Xuroson, asosan o'troq va ko'chmanchi turmush tarzi kechiruvchi xalq, elatlar vakillaridan iborat bo'lgan. So'z ketayotgan bosqichda sayyidlar, xo'jalar va boshqa shu kabi tabaqa vakillari alohida imtiyozlarga ega bo'lganlar. Obro'li sayyid xonadonlari bilan sulola vakillari qarindoshlik an'analarini o'rnatishga harakat qilganlar. Jumladan, Ismoil Termiz sayyidlarining qiziga uylangan. Shuningdek, ayrim somoniy amirlar ko'chmanchi turkiy urug'larning oqsuyaklari bilan qarindoshlik aloqalariga ega bo'lganlar. Bu ularning kelib chiqishlari umumiyligi va qon yaqinligiga ishoradir. Masalan, somoniy Nuh I g'aznachi Qutteginning qiziga uylangan. Nuh II esa Xurosonning sipohsolari amir Muhammad Simjur bilan qarindosh tutingan.

Somoniylar o'z vaqtida g'uzlarga² Sirdaryoning quyi qismiga, Zarafshon vodiysiga, Buxoro viloyatining Nur degan hududiga, ya'ni hozirgi Nurota hududlariga kelib joylashishga ruxsat berganlar. Shuningdek, Sirdaryo qirg'og'idagi Janddan ko'chib kelgan aholi Buxoro yaqinidagi Yangikent degan qishloqqa asos solganlar. Keyinchalik, bu qishloq shahar tarkibiga kirib ketgan va Turki Jandi deb atalgan. O'g'uzlar somoniylar qo'shini tarkibida ba'zan yollanma qo'shin sifatida ham ishtirok etganlar.

Somoniylarning dastlabki hukmronlik yillari yirik yer egalari bo'lgan dehqonlarning ta'siri katta bo'lgan bo'lsa, keyinchalik, asosan, X asrga kelib, iqtodorlarning³ mavqeyi ancha kuchaygan. Biroq ular qoraxoniylar davridagi kabi dehqonlardan oldingi mavqega o'tib ketolmaganlar.

¹ Nuh II – 976–997-yillarda o'zbek davlatini boshqargan somoniy yetakchi.

² G'uzlar – Orol va Kaspiy dengizlari bo'yida yashagan ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi turkiy urug'lar uyushmasi.

³ Iqtodorlar – hukmdor tomonidan davlatga qarashli yer va daromadni (xaroj) ma'lum bir shaxsga meros qoldirish huquqi berilishi.

Sunniylik mazhabining hanafiylik yoʻnalishini davlat dini sifatida qabul qilish aynan somoniylar hukmronligi yillarida yuz bergan.

Mintaqada, shuningdek, masihiy jamoalar ham saqlanib qolganlar, ular, asosan nasroniylardan iborat boʻlgan. Ular Marv, Xorazm, Samarqand va boshqa joylarda mavjud edilar. Biroq ular son jihatidan juda oz boʻlib, zardushtiylik kabi taʼsirga ega emas edilar. Abu Rayhon Beruniy masihiylar ning Xorazmda yashagani va ular «Kalandas» degan bayramni sayl sifatida nishonlagani, bunda kichik bolalar uyma-uy yurganlari va aholi ularni bu bayramda chogʻir va shirinlik bilan siylaganlari haqida maʼlumot bergan.

Turon viloyat, shaharlarida yahudiylar koʻp boʻlgan. Islom dini hukmron mamlakatlarda zardushtiylik, masihiylik va yahudiylik ruxsat etilgan dinlar sirasiga kirib, bu dinlarga eʼtiqod qiluvchilar jamoalarga birlashib, oʻz-oʻzlarini boshqarar edilar va jizya soligʻi toʻlar edilar.

Madaniy hayot. IX–XII asrlarda Turon zaminidan Muhammad Xorazmiy, Ahmad Fargʻoniy, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Burhoniddin Margʻinoniy va boshqa koʻplab mutafakkirlar yetishib chiqqanlar. Ularning ilm-fan choʻqqilarini zabt etishlari, olim boʻlib yetishishlarida qadimgi Turon maktab va madrasalarida olgan boshlangʻich bilimlari katta oʻrin tutgan.

Boshlangʻich tarbiya maktablarda berilgan va madrasalarda davom ettirilgan. Maktab oʻqituvchisidan oʻquvchiga va oʻqitiladigan fanlarga nisbatan hurmatda boʻlish talab qilingan. Maktabda oʻz iqtidorini namoyon qilgan bolalar keyingi taʼlim bosqichlarida oʻqishni davom ettirishga tavsiya etilgan. Maktablar, umuman olganda, aholining diniy va adabiy savodini chiqarishga moʻljallangan taʼlim muassasalari boʻlib, ular, shuningdek, keyingi taʼlim muassasalari uchun oʻquvchilarni tayyorlaganlar. Maktablar masjidlar qoshida yoki boy odamlarning xususiy xonadonlarida faoliyat koʻrsatgan.

Maktablarning maqsadi yosh avlodga oʻqish va yozishni oʻrgatish hamda islom dinining asoslari bilan tanishtirishdan iborat boʻlgan. Maktablarda oʻgʻil bolalarga ham, qizlarga ham oʻqish, yozish, sarfu-nahv (grammatika), sheʼr, tarix va hisob kabi fanlardan taʼlim berilgan.

Xattotlik saboqlari maktabdan tashqari taʼlimda olingan. Buning uchun maxsus ishlab chiqilgan yoʻriqnomalar va shu ish bilan xususiy tarzda shugʻullanuvchi alohida shaxslar faoliyat koʻrsatganlar. Bolalar xuddi hunar oʻrgangandek ushbu sanʼatni oʻzlashtirganlar, maktablar «dasturi»da esa xattotlik darslari uchun joy ajratilmagan.

Ayrim holatlarda yirik madrasalar qoshida ham maktablar boʻlgani maʼlum. Jumladan, 1066-yili Samarqandda taʼsis etilgan Tamgʻachxon madrasasi tarkibida maktab ham boʻlgan.

Maktablarning rivojlanib borishi esa ulardan va keyingi bosqichning shakllanishiga ehtiyojni yuzaga keltirgan oliy ta'lim muassasalarining taraqqiyotiga olib kelgan. Turonda islomga qadar ham bir necha asrlar davomida shakllangan ta'lim tizimi mavjud edi. Mintaqa islom dunyosi tarkibiga kiritilgach, mahalliy ta'lim tizimi islomiy lashtirilsa-da, o'z mohiyati va tuzilishini saqlab qoladi. Shu tariqa, «madrasa» deb atalgan oliy ta'lim muassasalari paydo bo'ladi. Shu ma'noda, ilk oliy o'quv yurti – Forjak madrasasi X asrda Buxoroda paydo bo'lgani ham bejiz emas. U 937-yili yong'inda yonib ketgan. Samarqandda X asrda 17 ta madrasa tashkil etilgan.

Maktabdan yuqori bosqichdagi ta'lim dargohlari to «madrasa» nomi qat'iylashgunicha «majlis» deb atala boshlangan va ularda shayx, hakim yoki ustoz deb atalgan ilmi kishilar faoliyat olib borganlar. Majlislarda turli xil diniy va falsafiy masalalar muhokama qilingan.

Madrasada ta'lim jarayoni uchun asosiy javobgar shaxs mudarris bo'lgan. Mudarris ba'zida qozi yoxud xatib vazifasini ham amalga oshirgan. Mudarris juda yuksak obro'ga ega bo'lgan. Agarda u yirik olim bo'lsa, uning darslarini tinglash uchun dunyoning har chekkasidan talabalar yetib kelgan. Dars jarayonida mudarris yordamchisi, ya'ni mustamliy ham ishtirok qilgan. Uning vazifasi dars paytida tinchlikni saqlash hamda uzoqda o'tirgan talabalarga mudarrisning so'zlarini yetkazish bo'lgan.

X–XII asrlarda madrasa o'quv dasturiga quyidagi fanlar kiritilgan: Qur'on, hadis, usul al-fiqh, kalom, arab tili va adabiyoti, adab, riyoziyot (matematika) va feroiz (meros qonunchiligi). Asosiy fanlar sifatida xuquqshunoslik va kalom fanlari o'qitilgan. Boshqa fan yo'nalishlari esa yordamchi fan sifatida olib borilgan.

Bu davrda madrasa bitiruvchisi mufti-faqih bo'lib yetishib chiqqan. Tahsilni muvaffaqiyatli yakunlagan talabalarga dars o'tish imkoniyatini beruvchi hujjat topshirilgan. Keyinchalik mazkur tizim Yevropada ham XII asr oxiriga kelib joriy etiladi¹.

X–XII asrlarda maktab o'quvchilarining yoshi taxminan, 6 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan. Ba'zida bu yosh bir ikki yilga farq qilishi mumkin edi. Biroq, odatda, o'quvchi 12 yoshga to'lgunga qadar maktabni bitirgan. Madrasada tahsil olish o'rtacha 11–14 yoshdan keyin boshlangan. Madrasalar tashkil topayotgan davrda talabalarning yoshi bo'yicha aniq talablar mavjud bo'lmagan. Shu tufayli madrasalarda yosh bolalarning tahsil olishi ham kuzatilgan.

¹ Ba'zi tadqiqotchilarning fikriga qaraganda, yevropaliklar bitiruv hujjat, ya'ni diplom berish tizimini aynan islom dunyosidan o'zlashtirib olganlar. Hujjat atalishidagi o'xshashlik ham mazkur fikrni tasdiqlaydi. Yevropada universitet bitiruvchisiga beriladigan hujjat licentia docendi, ya'ni dars berish uchun litsenziya deb atalgan bo'lib, bu aslida arab tilidagi «ijaza li-t-tadris» (dars o'tish uchun ijozat) ning so'zma-so'z tarjimasidir.

Madrasada tahsil uchta yo'nalish bo'yicha olib borilgan bo'lib, har bir yo'nalish uchun, odatda, uch yil sarflangan. Ya'ni arab tili va adabiyoti yo'nalishi bo'yicha uch yil, undan so'ng fiqh va kalom yo'nalishi bo'yicha yana uch yil hamda falsafa va boshqa dunyoviy fanlar uchun yana uch yil sarflangan. Shu tariqa madrasada tahsil olish to'qqiz yilgacha davom etishi kerak bo'lgan. Ba'zi hollarda undan ham ko'proq vaqtni qamrab olgan. Tahsilning murakkabligi va davomiyligini inobatga oladigan bo'lsak, tabiiyki, barcha talabalar ham buni muvaffaqiyatli amalga oshirolmagan.

Madrasada tahsil olish uchun talabadan mablag' talab qilinmagan. Madrasa faoliyati vaqf mulki tizimi tomonidan moliyalashtirilgan. Mudarrislar oylik maosh, talabalar esa nafaqa, o'quv ashyolari va turar joy bilan ta'minlangan.

Ilk marta e'tiborli fanlarni tasniflash Abu Nasr Farobiy tomonidan amalga oshirilgan. «Ixsol al-ulum» («Fanlarni tasniflash») quyidagi ko'rinishda umumiyashtirilishi mumkin:

I. Til ilmi: sintaksis, grammatika, talaffuz va nutq, nazm.

II. Mantiq ilmi. O'z-o'zidan bu guruh mantiq ilmining bir necha bo'limlariga bo'linib ketadi.

III. Aniq bir yo'nalishdagi fanga kirish ilmi:

1. Arifmetika (nazariy va amaliy).

2. Geometriya (nazariy va amaliy).

3. Optika.

4. Astrologiya.

5. Musiqa.

6. Aruz ilmi (vazn ilmi).

7. Dastgohshunoslik ilmi (turli san'at sohalari, hunarda ishlatiladigan dastgohlarni yasash).

IV. Fizika va metafizika ilmlari. Bir necha mayda sohalarga ajratib ko'rsatilgan.

V. Jamiyatshunoslik ilmi:

1. Fiqh.

2. Notiqlik (ritorika).

Tashqi siyosat. Somoniylar hukmronlik qilgan davrda xalifalar bilan elchilik munosabatlari har vaqt katta ahamiyat kasb etgan. Masalan, 907-yilda Ismoil vafot etgan, o'limidan keyin hokimiyat uning o'g'li Nasr qo'liga o'tishi munosabati bilan xalifa tomonidan unga amir etib tayinlangani to'g'risidagi yorliq jo'natilgan. Yorliqning chetiga xalifaning shaxsan o'zi hukmronlik ramzi bo'lgan tug'ni bog'lab qo'ygan edi.

Somoniylar hukmdorlar nafaqat musulmon hukmdorlar bilan, balki nomusulmon davlatlarning yetakchilari bilan ham diplomatik aloqalarni yo'lga qo'yganlar. Bunday davlatlar bilan diplomatik aloqalarni olib borishda ko'p hollarda asosiy maqsad islom dinini targ'ib etishga qaratilgan. Shu sababdan, musulmon hukmdorlari o'zlarini nomusulmon davlatlar hukmdorlaridan ancha yuqori qo'yganlar.

Jumladan, somoniylar saroyida yashagan Abu Dulafning ma'lumotiga ko'ra, somoniy Nasr Buxorodagi qarorgohiga Sin, ya'ni Sandabilning (Kansu) uyg'ur hukmdori elchilari tashrif buyurgan va ular ikki sulola o'rtasida qarindoshlik rishtalari o'rnatishni iltimos qilganlar. Amir o'z qizini g'ayridin shahzoda nikohiga berishni istamagan, lekin o'z o'g'illaridan biri, ya'ni Nuh II Chin hukmdorining qizini o'z nikohiga olishi mumkinligini bildirgan. Ushbu malika somoniylar xonadoniga kelin bo'lgan va undan keyinchalik somoniylar hukmdoriga aylangan Abdulmalik dunyoga kelgan.

Yana bir boshqa somoniy amiri Ilyos ibn Ishaq ibn Ahmad ibn Asad as-Somoniylar 922-yili turklarning ishtirokida Nasr ibn Ahmadga qarshi isyon ko'targan va u Qashqar dehqoni Tug'onteginning qiziga uylangan.

IX. QORAXONIYLAR BOSHQARUVI DAVRI

X asrning ikkinchi yarmiga kelib, Turonning Yettisuv va Koshg'ar bo'laklarida o'zi shakllangan makondan ko'ra ham kengroq miqyosda siyosiy faoliyat ko'rsatish imkoni va qudratiga ega bo'lgan yangi siyosiy kuchni qoraxoniylar¹ nomi ostida bilamiz.

992-yili Nuh II ni urushda yenggan Hasan Bug'roxon² Buxoroni egallagach, somoniy hukmdor Omulga qochishga majbur bo'ladi. Lekin g'alaba nashidasi uzoqqa cho'zilmagan – Hasan Bug'roxonning to'satdan kasal bo'lib qolishi oqibatida, qoraxoniylar ko'pdan-ko'p o'ljani qo'lga kiritib, ortga qaytishga majbur bo'ladi. Ushbu sharoitda Buxoroga yetib kelgan Nuh yana bir necha yil ichki qarama-qarshiliklar va qoraxoniylarning bosimi ostida hukmronlik qilishiga to'g'ri kelgan. Bunda unga G'azni hokimi Sabuktegin³ yordami ancha asqatgan. Biroq mazkur ikki arbobning 997-yili sodir bo'lgan o'limi somoniylar sulolasi taqdirini uzil-kesil hal qilgan. 999-yili lashkar tortib kelgan Nasr ibn Ali⁴ uchun Buxoroni qo'lga kiritish qiyin kechmagan. 1005-yili esa somoniylar siyosiy sahnadan butunlay tushib ketganlar va shu vaqtdan boshlab qoraxoniylar endi Buxoro, Samarqand va umuman, Amudaryogacha bo'lgan hududlarni ham boshqara boshlaganlar.

XI asrda qoraxoniylar siyosiy faoliyatida ikki jiddiy o'zgarish yuz beradi: ichki qarama-qarshiliklar oqibatida 1040-yili hokimiyat ikkiga ajralib, g'arbiy va sharqiy xoqonliklar tuziladi. Ya'ni kuch bo'linadi. Bu ham yetmagandek, g'arbiy qoraxoniylar xuddi shu paytlarda Xurosonda qudratga kira boshlagan boshqa bir sulola–saljuqiylar bilan keskin munosabatda bo'la boshlaydilar. Ma'lumki, saljuqiylar XI asrning 40-yillarida g'aznaviylarni mag'lubiyatga uchratib, 50-yillardan esa Xurosondan Bag'dodgacha bo'lgan hududni o'zlariga bo'ysundirishga erishganlar. Mintaqada hukmronlikka intilish borasidagi

¹ «Qora» («qaro») bir necha ma'noda qo'llanilishini ta'kidlagan holda, biz ko'rayotgan holatda «buyuk», «ulug'» tushunchasini beradi. Demak, «Buyuk xon», «Ulug' xon». Mazkur sulolani xoqoniylar, xoniylar atamaları bilan ham aniqlashtirish holatlari bor. Qoraxoniylar esa o'zlarini Alp Er To'nga avlodlari deb bilganlar.

² Hasan Bug'roxon – 970–992-yillarda qoraxoniylar yetakchisi.

³ Sabuktegin – 977–997-yillarda G'azna amiri.

⁴ Nasr ibn Ali – 999–1012-yillarda o'zbek davlatini boshqargan qoraxoniylar yetakchi.

bu ikki sulola o'rtasidagi kurashning amaliy ko'rinishi sifatida 1089-yil voqealarini keltirish mumkin. Chunonchi, o'sha yili saljuqiy hukmdor Malikshoh¹ Buxoro, Samarqand, O'zgand kabi shaharlarda o'z siyosiy hukmini o'rnatib, qoraxoniylarga qattiq zarba berishga muvaffaq bo'ladi. Garchi, tez orada qoraxoniylar o'z mavqelarini qayta tiklashga muvaffaq bo'lsalar-da, 1130-yili boshqa bir saljuqiy hukmdor Sulton Sanjar² tomonidan Samarqandning ishg'ol qilinishi qoraxoniylarning jiddiy harbiy-siyosiy kuch sifatida bundan buyongi taqdirini hal etdi, desa bo'ladi. Chunki endi saljuqiylar Samarqand taxtiga qoraxoniylardan kimni o'tqazish yo o'tqazmaslikni to'g'ridan-to'g'ri o'zlari hal qilardilar. Ya'ni qoraxoniylar siyosiy kuch sifatida butunlay yo'qqa chiqmasdan, saljuqiylarning irodasi doirasida faoliyat ko'rsatar edilar. Ko'p o'tmasdan – 1137-yili qoraxoniylar sharqdan kelgan boshqa yangi siyosiy kuch – qoraxitoylar³ tomonidan Xo'jand atrofida yuz bergan urushda mag'lubiyatga uchraydilar. Qoraxitoylar qudrati nechog'li bo'lganini shundan ham bilib olsa bo'ladiki, 1141-yili Qatvonda⁴ sodir bo'lgan keyingi to'qnashuvda ular endi qoraxoniylar va saljuqiylarning birlashgan lashkarlariga ham zarba berishga muvaffaq bo'ladilar. Qizig'i shundaki, qoraxitoylar ham qoraxoniylarni siyosiy sulola sifatida butunlay yo'q qilib tashlamay, aksincha ularni o'z qaramliklarida tutib qoladilar. Qoraxoniylar faoliyatiga chek qo'yish esa 1212-yilga kelib yuz beradi. Buni Sulton Muhammad⁵ amalga oshiradi.

Davlat boshqaruvi. Cherchen daryosidan⁶ Xorazmgacha bo'lgan hudud siyosiy markazi oldiniga Bolosog'un⁷ va so'ng Koshg'ar bo'lgan. Garchi ko'p jihatlardan Samarqand va Buxoro taraqqiyotda Bolosog'un va Koshg'ardan ancha yuqori bo'lsa-da, xuddi shu davrdagi siyosiy vaziyatga ko'ra, boshqaruv markazi mintaqaning Yettisuv, Sharqiy Turkiston qismiga ko'chib qolgandi. Ana shu «tabiiy» sabablarga ko'ra, an'anaviy ravishda qadimdan markaz rolini o'tab kelgan Buxoro va Samarqand endigi siyosiy mavqeyiga ko'ra viloyat (mulk) darajasiga tushib qolishiga to'g'ri kelgan. Ikkinchi tomondan, somoniylar davrida ham bir qancha viloyatlar (masalan, Xorazm, Seyiston, G'azni,

¹ *Malikshoh* – 1074–1092-yillarda o'zbek davlatini boshqargan saljuqiy yetakchi.

² *Sulton Sanjar* – 1118–1157-yillarda o'zbek davlatini boshqargan saljuqiy yetakchi.

³ *Qoraxitoylar* – 1125-yili Shimoliy Xitoy va Mo'g'ulistondan Talas va Chu vodiylariga ko'chib kelgan mo'g'ul urug'i.

⁴ *Qatvon* – Samarqanddan besh farsang (30–35 km) shimoli-sharqda joylashgan cho'l.

⁵ *Sulton Muhammad* – 1200–1221-yillarda o'zbek davlatini boshqargan anushteginiy yetakchi.

⁶ *Cherchen daryosi* – hozirgi Xitoyning g'arbidagi daryo.

⁷ *Bolosog'un* – xarobalari Qirg'izistonning To'qmoq tumani hududida joylashgan o'rta asr shahri.

Chag'oniyon va boshqalar) markazdan farqli o'laroq mustaqil siyosat yurgizishga harakat qilganlari ham ma'lum. Demak, somoniylar davridan keyingi siyosiy-jo'g'rofiy o'zgarishlarga sabab bo'lgan qoraxoniylar hukmronlik va boshqaruv tizimida shu o'zgarishlarga yarasha ba'zi yangiliklar bo'lishi tabiiy edi. Ammo yuqorida ta'kidlanganidek, boshqaruv tizimining shakli siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy omillar bilan bog'liq bo'lgani uchun ham qoraxoniylar davrida somoniylar vaqtida mavjud bo'lgan boshqaruv tizimining asosiy mazmuni saqlanib qolgan. Aslida boshqacha bo'lishi ham mumkin emasdi. Chunki avvaldan shakllanib kelgan va obyektiv taraqqiyot natijasi o'laroq yuzaga kelgan boshqaruv an'analaridan qoraxoniylar yuz o'girolmasdi.

Markazdagi boshqaruv tizimi ikki idora: dargoh va devonlardan iborat bo'lgan. Oliy hukmdor o'ziga tobe bo'lgan viloyat va shaharlarga hukmdor sulola namoyandalarini tayinlab, bu bilan, tabiiy ravishda, butun mamlakat uzra o'z siyosatini yurgizishni maqsad qilib qo'ygan.

G'arbiy xoqonlikda (Samarqand, Buxoro, Xuttalon, Chag'oniyon) somoniylar davrida mavjud bo'lgan boshqaruv tizimi (bosh vazir, moliya ishlari, davlat rasmiy hujjatlarini ishlab chiqish, soqchilar boshlig'i, xat-xabarlar, saroy ish boshqaruvchisi, muhtasib, vaqflar, qozilik ishlari devonlari) saqlanib qolgani ma'lum. Shuningdek, viloyat boshliqlarini hokim, shahar boshlig'ini rais deb atash rasmi ham o'zgarmagan.

Har qanday davlatchilikda bo'lgani kabi qoraxoniylar davrida ham markazdagi (dargohdagi) boshqaruv tizimiga katta e'tibor berilgan. Bunda dargoh, ya'ni oliy hukmdor bilan viloyatlar, fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarni uyg'unlashtirib turuvchi hojiblar faoliyati alohida o'rin tutgan. Somoniylardan farqli o'laroq, qoraxoniylar davrida hojiblar, asosan oliy hukmdor, viloyat hokimlarining davlat va raiyyat ishlari bo'yicha eng yaqin maslahatchilari hisoblanganlar.

Dargoh faoliyatini tegishli darajada tutib turishda saroy ishlari boshqaruvchisi, hozirda biz protokol yumushlari deb biluvchi, mehmonlarni qabul qilish xizmati (uning boshlig'i «Biruk» deb atalib, bu atamaning «Buyruq» bilan bog'liqligini ehtimol qilish mumkin), xazinachi (ag'ichi), oshxona mutasaddisi (oshchi), sharbatdor, yotoq, kiyim-kechak bilan ta'minlovchi xizmat, ov uyushtirish xizmat (qushchi)lari har birining o'z o'rni bo'lgan.

Oliy hukmdorning xavfsizligini ta'minlash, uning siyosati yo'lida sodiq xizmat qilish vazifasi bo'lgan maxsus saralangan harbiy qism ham dargoh boshqaruv tizimiga kirgan. Albatta, undan tashqari, harbiy qo'shin ham mavjud edi. Undagi eng muhim lashkarboshilik va boshqaruv mansablariga qoraxoniylar sulolasi namoyandalari hamda sodiqligiga shubha bo'lmagan lashkarboshilar tayinlangan. Qo'shindagi boshqaruv tizimiga nazar tashlansa,

yirik lashkarboshilardan tashqari kichik zobitlar (chovush), otliqlar sardori (xaylboshi), yuzboshi, mingboshi kabi harbiy mansablar ham mavjud bo'lgan.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, bir vaqtning o'zida mintaqada bir necha o'ziga yarasha qudratli siyosiy kuchlarning faoliyat ko'rsatishi va bundan tashqari, qoraxoniylar sulolasidagi ichki kelishmovchiliklar dargohning tashqi ishlar masalasiga jiddiylik bilan qarashiga sabab bo'lgan. Tashqi siyosat bilan shug'ullanuvchi mansabdorlarga, xususan, elchilar oldiga juda katta talablar qo'yilgan, ya'ni ular «bilimli, uquvli, yetuk, sheryurak, ko'zi to'q, uyat-andishali» (Yusuf Xos Hojib, «Qutadg'u bilig») bo'lishlari kerak bo'lgan.

Qoraxoniylar xo'jaligida dehqonchilik ishlari o'z maromida kechgan. Bunga, albatta, sun'iy sug'orish tizimlarining talab darajasida ishlab turishi, lozim bo'lganda, ularni ta'mirlash ishlarining amalga oshirilishi, yer osti, yer usti quvurlarining o'tkazilishi, ariqlar, suv omborlarining bunyod etilishi hamda o'lkada, ayniqsa, Buxoro, Samarqand, Farg'ona, Toshkent viloyatlarida dehqonchilik an'anaviy yuqori darajada bo'lgani tufayli erishilgan. Ilgarigidek dehqonchilikning barcha asosiy turlari yetishtirib borilgani ham ma'lum.

Bu davrda konchilikdagi sa'y-harakatlar ham susaymagan. Chunonchi, Ohangaron atrofida (Qoramosor) mis, kumush, qo'rg'oshin konlari, Farg'onada oltin, simob, kumush, temir, mis, firuza, navshadil, neft, kuporos, qatron, Nurota tog'larida oltin, mis, qo'rg'oshin, simob, marmar, Buxoro, Ustrushonada oltin, neft, firuza, temir konlari ishlab turgan.

Dehqonchilik va tog'-kon ishlab chiqarishda faollik boshqa bir muhim soha – hunarmandchilikni ham jonlantirib turgani tabiiy, albatta. Shuning uchun temirchilik, kulolchilik, shishasozlik (oynasozlik), zargarlik, to'qimachilik, ko'nychilik kabi o'ttizdan ortiq sohalar rivojlanib borgan. Masalan, shishasozlikda shishadan ishlangan buyumlarga (oshxona buyumlari, jihozlari, bezak-taqinchoqlar, siyohdon, tuvak va boshqalar) turli rangda jilo berish rasm bo'lgan. Bu, albatta, o'z davri uchun katta yutuq edi. Bundan tashqari, imoratlarni bezash, jihozlashda shishasozlikning imkoniyatlaridan kengroq foydalanishga harakat qilingan. Chunonchi, ularga o'rnatilgan oynalar ham rangsiz, ham rangli bo'lishi mumkin edi. Panjaralar oralig'iga turli rangdagi shishalardan o'rnatib, imorat ko'rkini ochishga harakat qilinganini ham eslatib o'tish joizdir.

Dehqonchilik, hunarmandchilikning bir tekis rivojlanishi savdo-sotiq ishlarini jadallashtirib borishda muhim ahamiyat kasb etgan. Qoraxoniylar davriga kelib Sharqiy Turkistondan Xorazmgacha bo'lgan katta hududning siyosiy jihatdan birlashishi savdo-sotiq ishlarida mintaqaning sharqiy viloyatlari imkoniyatlarini yuzaga chiqarish sharoitini yaratib berdi. Chunonchi, biz bugun «Ipak yo'li» deb biladigan savdo yo'li to'g'ridan-to'g'ri Sharqiy Turkistonni

arab o'lkalari bilan tutashtirib turgan. O'z davrida shimoliy va janubiy yo'nalishlarga ega bo'lgan bu yo'ning bir uchi Xitoydan boshlanib Sharqiy Turkiston, Farg'ona, Toshkent, Zarafshon vohasi, Buxoro orqali shimolda Volga bo'ylari vositasida Sharqiy Yevropaga, janubda esa O'rta Sharq orqali O'rta dengizgacha borgan. Yo'l uzra joylashgan shahar va qishloqlarda bozorlar, karvonsaroylar ta'mirligi va orastaligi, umuman, savdogarlarga xizmat ko'rsatib, shu orqali foyda ko'riladigan turli xizmatlarni muhayyo etishga katta e'tibor berilgan. Muntazam ravishda turli yerlarda savdo ko'rgazmalari uyushtirilib turilgani haqida ham ma'lumotlar bor. Turonda ishlab chiqarilgan matolarning Skandinaviya qo'rg'onlarida topilishi somoniylar davridagi savdo-sotiq aloqalari mavsumiy emas, uzluksiz va jiddiy bo'lganidan dalolatdir, albatta.

Xitoy manbalarida qoraxoniylar qo'l ostidagi yurtlardan olib kelingan tovarlar ro'yxati keltiriladi. Ular orasida mahalliy hamda boshqa yurtlardan keltirilgan ot, tuya, mo'yna va teri mahsulotlari, turli-tuman matolar, qimmatbaho toshlar hamda noyob ziravor va ma'danlar bo'lgan. Xalqaro savdoda qaysi mahsulotlarga ehtiyoj sezilsa, shu yo'nalishda ish olib borilgan.

Qoraxoniylar davridagi qurilish ishlariga nazar tashlansa, shu narsa ayon bo'ladiki, Buxoroda Minorai kalon, bir qator masjidlar, Jarqo'rg'on (Surxondaryo) va Vobkentda minoralar, O'zgandda maqbaralar, minora, masjidlar, Samarqandda madrasalar bunyod etilgan. Qoraxoniy hukmdorlar savob ishlardan ham qochmaganlari haqida ma'lumotlar bor. Chunonchi, qoraxoniy Ibrohim ibn Nasr¹ 1066-yili Samarqanddagi bir shifoxona ixtiyoriga butun imoratlari, rastalari bilan ikki karvonsaroyini taqdim (vaqf) etgan. Ana shu ikki karvonsaroydan keladigan daromaddan kasallarning oziq-ovqati, dori-darmoni, tabiblar, barcha turdagi xizmat ko'rsatuvchilarni tegishli maosh bilan ta'minlash yo'lida foydalanilgan. Samarqandda bunyod etilgan madrasa majmuyini ta'minlash uchun Ibrohim ibn Nasr uch mehmonxona, bir karvonsaroy, bir erkaklar hammomi, suv ayirgich, uzumzor, bir qancha ekin yerlari va boshqalardan keladigan daromadni vaqf qilib bergani haqida ma'lumotlar mavjud.

Ilm-fan va madaniyat. Qoraxoniylar davrida ham ko'plab iste'dod egalari yuzaga chiqqan. Ulardan Yusuf Xos Hojib va Mahmud Koshg'ariy nomlarini alohida tilga olish lozim. Chuqur bilim va tafakkur egasi Yusuf Xos Hojib «Qutadg'u bilig» (Saodatnoma, Saodatga eltuvchi bilim) asari bilan mashhurdir. Zero, bu asarda davlatni boshqarish usuli, qonun-qoidalari, mafkurasi, ijtimoiy guruhlararo munosabatlar, odob-axloq masalalariga oid o'z davri uchun zarur va foydali, tarixan o'z ahamiyatini yo'qotmaydigan fikrlar

¹ *Ibrohim ibn Nasr (Tabg'achxon)* – 1040–1068-yillarda o'zbek davlatini boshqargan qoraxoniy yetakchi.

ilgari surilgan. Chunonchi, u jamiyatning to'rt ustunini quyidagicha belgilab bergan: adolat, davlat, aql-u zakovat, qanoat. Diqqatga sazovor tomoni shundaki, mana shu to'rt ustun asosidagi jamiyat baxt-saodatini ta'minlashda ilm birinchi o'ringa qo'yiladi: «O'quv qayda bo'lsa, ulug'lik bo'lar, bilim qayda bo'lsa, buyuklik bo'lar». Xuddi shuningdek, asarda keltirilgan davlat-idora kishilari haqidagi fikrlarni olaylik. Vazirlar oqil, dovyurak, imonli, nomusli bo'lishlari kerak. Beklar, ya'ni hokimlar esa bilimli, yetuk, ko'zi, ko'ngli to'q bo'lmog'i darkor. Agar ular buzuq fe'l bo'lsalar, zamona o'qidan qochib qutulolmaydilar, ulardan odamlar ham yuz o'giradi, g'amga giriftor bo'ladilar. Yusuf Xos Hojib lashkarboshilar xususida shunday deydi: «Olisdagi yovning vahimasidan qo'rqma, aksincha undan yaqindan voqif bo'lib tur, shunda uning bor imkonidan xabar topasan. Dushman dag'dag'a qilib do'q qilsa, bardoshli bo'l, chekinma (chunki u bu bilan seni sinamog'i mumkin)». «Qutadg'u bilig»da olimlar, shoirlar, dehqonlar, chorvadorlar, savdogarlar haqida, oila, farzand tarbiyasiga oid hikmatli fikrlar ham bir talay.

Mahmud Koshg'ariy ham o'zidan ajoyib va bebaho meros qoldirgan. Bu uning turkiy tillar va ma'lum ma'noda turkiy tilli xalqlar haqidagi qomusiy asari «Devoni lug'otit-turk»dir. Asar turkiy xalqlarning tillari tarixini o'rganishda, chunonchi, o'sha davr tili morfologiyasi, fonetikasi, leksikasi, etimologiyasini o'rganishda tengsiz manba hisoblanadi. Bundan tashqari, unda mintaqa xalqlarining etnik tarixiga oid g'oyatda qimmatli ma'lumotlar jamlangan. Ma'lumki, turkiy xalqlar ham son jihatdan ko'p, ham serqavm bo'lib kelganlar. Ular o'rtasidagi munosabatlar tarixini yoritishda «Devoni lug'otit-turk»ning ahamiyati katta. Bundan tashqari, asarda uchraydigan davlatchilik, iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlar, hunarmandchilik, rasm-rusumlar, madaniy hayotga tegishli ma'lumotlar ham ko'p uchraydi. Mahmud Koshg'ariy asarining qimmatli tomonlaridan yana biri unda muallif chizgan dunyo xaritasining mavjudligidir. Xarita doira shaklida bo'lib, yerning har tarafdin suv bilan o'ralganidan dalolat beruvchi belgilar mavjud. Xarita markazida Yettisuv, Sharqiy Turkiston hududi joylashtirilib, uning to'rt atrof yo'nalishida turli shaharlar, mamlakatlar, dengizlar, ko'llar, daryolar, tog'lar joylashuvi berilgan. Umuman olganda, bu asar bashariyat madaniy ravnaqi yo'lini o'rganishda nodir manba hisoblanadi.

Qoraxoniylar qudratga to'lib turgan XI asrning birinchi yarmida mintaqaning Sharqiy Turkiston va G'arbiy Turkiston (Xorazmdan tashqari) qismlarini bir markazdan boshqarish imkoni tug'ilgan. Shu bilan birga, ichki sulolaviy qarama-qarshiliklar avj olganda, hukmron siyosiy kuch zaiflashib o'lkada parchalanish yuz bergan.

X. G'AZNAVIYLAR BOSHQARUVI DAVRI

961-yili somoniy hukmdor Abdumalik I¹ o'limidan so'ng vazirlar taxtga marhumning o'g'lini o'tqazadilar. Bunga «somoniy xonadoni uchun maqto'vga loyiq xizmatlar qilib kelgan hamda noiblik va lashkarboshilik yo'lini tutgan» Alptegin² qarshilik qiladi. Shu tariqa, o'zaro qarama-qarshilik kuchayib, boshboshdoqlik avjiga chiqib, lashkarboshi Buxoroni tark etadi. Ziddiyat bu bilan tugamay, oxirida Alptegin va Buxoro qo'shinlari o'rtasida to'qnashuv sodir bo'lib, Buxoro lashkari mag'lubiyatga uchraydi.

Somoniy xonadoni bilan aloqani uzgan Alptegin G'azni viloyatida o'z hukmronligini o'rnatadi. Uning vafotidan so'ng G'aznida navbati bilan amir Ishoq³, amir Bilgategin⁴, amir Piriyy⁵, amir Sabuktegin hukmronlik qiladilar.

Alptegin bilan aloqa uzilganiga qaramay, somoniy G'aznida mujassamlashgan va quloqch yoyib borayotgan siyosiy-harbiy kuchga doimo ehtiyoj sezib kelganlar. Buning yaqqol isbotini Sabuktegin va somoniy Nuh II o'rtasida Kesh atrofida bo'lib o'tgan uchrashuv (bu yerda Sabuktegin uni qo'llab-quvvatlashi haqida va'da bergan), yo bo'lmasa, 994-yili somoniyning eng ashaddiy dushmanlaridan Xuroson noibi Abu Ali Simjuriyning⁶ tor-mor etilishida g'aznaviy yetakchisi tutgan asosiy o'rin orqali ko'rish mumkin.

G'aznaviyning ham rasman, ham amalda siyosiy kuch sifatida tan olinishi 996-yilga to'g'ri keladi. Qoraxoniylar bir necha marta Buxoroga tahdid soladilar. Tilga olingan yili esa Sabuktegin somoniy qoraxoniylar «changali»dan saqlab qoladi. Nuh II raqib oldidagi zaifligini sezib, unga murojaat qiladi. Sabuktegin esa Buxoroni qo'lga olib, qoraxoniylar bilan kel-

¹ *Abdumalik I* – 954–961-yillarda o'zbek davlatini boshqargan somoniy hukmdor.

² *Alptegin (901–963)* – g'aznaviy sulolasi asoschisi.

³ Ayrim manbalarda ismi Iso tarzida ham berilgan, Alpteginning o'g'li bo'lib, otasining vafotidan keyin qisqa davr hukmronlik qilgan.

⁴ *Bilgategin* – 966–972-yillarda g'aznaviy sulolasi yetakchisi.

⁵ *Piriyy (Piritegin)* – 972–977-yillarda g'aznaviy sulolasi yetakchisi.

⁶ *Abu Ali Simjuriy* – X asr Xurosonda faoliyat yuritgan turkiy sulolaning 984–987 va 995–997-yillardagi yetakchisi.

ishuvga imzo chekadi. Unga ko'ra, Amudaryodan janubda joylashgan barcha viloyatlar Sabuktegin tasarrufiga o'tadi.

Uning vafotidan keyin avvaliga taxtga bir oz muddat Ismoil¹ va 998-yildan esa Mahmud G'aznaviy² chiqadi. G'aznaviylar qudrati va shuhratini oshirgan hukmdor ham aslida ana shu Mahmud hisoblanadi. Chunonchi, uning hukmronligi davrida Xorazm, Xuroson, Seyiston, Kobul, G'azni, Shimoliy Hindiston kabi viloyatlar va makonlar g'aznaviylar qo'l ostida bo'lgan. Mahmudning o'limidan so'ng 1030-yili taxtga uning o'g'li Muhammad o'tiradi. Vaholanki, undan katta o'g'li – Mas'ud³ ham bor edi. O'sha zamonda yozilgan manbalar sharhiga ko'ra, Mahmud taxtni kichik o'g'li Muhammadga vasiyat qilish bilan birga, unga «Akan Mas'ud bilan qarama-qarshilikka borma, agar u senga qarshi chiqsa, urushib yurma, (bekor) nobud bo'lasan», degan. Haqiqatan ham, tez orada Mas'ud va Muhammad o'rtasida ixtilof yuzaga keladi. Mas'udning Muhammaddan ustun bo'lganini zamondosh tarixchilar ham tan oladilar. Xullas, shu yilning o'zidayoq Mas'ud taxtni egallaydi.

G'aznaviylar hukmdori Mas'ud davri, asosan Mahmud sa'y-harakatlari bilan qo'lga kiritilgan marralarni saqlab qolish yo'lidagi urinishlar yillari bo'lgan. Birinchidan, 1034-yili Xorazm g'aznaviylar ta'sir doirasidan chiqadi. Ikkinchidan esa Xurosonda boshqa bir siyosiy kuch – saljuqiylar sulolasining kuchayib borishi ham xuddi mana shu Mas'ud davriga to'g'ri kelgan. 1035-yilgi kelishuvga binoan, Mas'ud saljuqiylarga (Yabg'u, To'g'ril, Dovud boshliq qabilalarga) Niso, Farova⁴, Dehiston⁵ viloyatlarini maskan va yaylov sifatida berishga majbur bo'ladi. Vaqt o'tishi bilan kuch-qudrat orttirgan saljuqiylar 1038-yili Nishopurni egallaydilar. Shu yilgi Saraxs atrofidagi Mas'ud bilan jangda mag'lub bo'lishlariga qaramay, 1040-yili Marv va Saraxs⁶ oralig'idagi Dandoniqonda⁷ saljuqiylar g'aznaviylarga shunday zarba beradilar-ki, buning natijasida Sabuktegin avlodlari o'zlarini o'nglay

¹ *Ismoil ibn Sabuktegin* – 997–998-yillarda g'aznaviylar sulolasi yetakchisi.

² *Mahmud G'aznaviy* – 998–1030-yillarda g'aznaviylar sulolasi yetakchisi.

³ *Mas'ud* – 1030–1040-yillarda g'aznaviylar sulolasi yetakchisi.

⁴ *Farova* – xarobalari hozirgi Turkmaniston Respublikasi Balqon viloyati Serdar tumani (etrap) hududida joylashgan qal'a.

⁵ *Dehiston* – hozirgi Turkmaniston Respublikasining janubiy-g'arbida joylashgan tarixiy viloyat.

⁶ *Saraxs* – hozirgi Turkmaniston Respublikasi Axal viloyati Saraxs tumanining (etrap) markazi.

⁷ *Dandoniqon* – Marv shahri yaqinida joylashgan qadimiy qal'a.

ololmaydilar. Xuroson qo'ldan ketadi. Garchi, Mavdud¹ o'z xonadonining ilgari mavqeyini tiklashga uringan bo'lsa-da, buning uddasidan chiqolmagan. Chunki fursat qo'ldan ketgandi. G'aznaviylar bundan buyon faqat G'azni viloyati va Shimoliy Hindistondagina hukm yurgizishga qodir bir hududiy sulolaga aylanib qolganlar. Biroq nima bo'lganda ham, 1186-yilga qadar ular o'z faoliyatlarini to'xtatganlari yo'q. Mavduddan so'ng sulolaga navbati bilan Ali (1049–1051), Abdurashid (1051–1099), Ibrohim (1099), Mas'ud II (1099–1115), Arslonshoh (1117–1153), Bahromshoh (1153), Xisravshoh (1153–1160), Xisrav Malik (1160–1186) etakchilik qilganlar.

Davlat boshqaruvi. G'aznaviylar davri boshqaruv tizimi o'zining murakabligi bilan diqqatni jalb etadi. U ko'p jihatdan somoniylar, qoraxoniylar zamonidagi davlat boshqaruvi tizimlariga yaqin va o'xshash. Bu tabiiy hol. Chunki har qanday boshqaruv tizimi mavjud ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy-madaniy sharoitga bog'liq bo'ladi. Boshqa tomondan esa g'aznaviylar hukmronligi ostida bo'lgan Xuroson, Seyiston, Kobul, G'azni kabi viloyatlar mintaqaning ajralmas tarkibiy qismlari bo'lib kelganini nazarda tutsak, boshqaruvchilik taraqqiyotidagi o'xshashliklar, yaqinliklar sababi ma'lum bo'ladi.

Demak, boshqaruv tizimining markazida dargoh va devonlar (vazirliklar) turgan. Avvallari ham bo'lganidek, dargohga oliy hukmdor hayoti va faoliyati bilan aloqador xizmatlar, amallar kirgan. Ular orasida «hojiblik» xizmati alohida e'tiborga loyiq. G'aznaviylar davri manbalarida hojiblikning quyidagi shakllari mavjud bo'lgani qayd etiladi: ulug' hojib, saroy hojibi, navbatchi hojib, hojib-jomador. Ulug' hojib nafaqat boshqa hojiblar orasida, balki umuman, mamlakat va davlat hayotida alohida mavqega ega bo'lgan. Bunga ishora beruvchi bir necha misollar keltiramiz. Mahmudning o'limidan keyin Muhammadning taxtga o'tirishiga bosh-qosh bo'lgan va qisqa muddatga bo'lsa-da, boshqaruv ishlarini o'z ixtiyorida mujassamlashtirgan ham ulug' hojib Ali Qarib bo'ladi. Rasmiy marosimlarda ulug' hojib oliy hukmdorga eng yaqin joyni egallagan. Unga g'oyat muhim vazifalar yuklatilgan. Katta ahamiyat kasb etuvchi janglarda ulug' hojibga qo'shinning eng salmoqli va mas'uliyatli qismiga boshchilik qilish vazifasi yuklatilgan. Masalan, oliy hukmdor markazni boshqarsa, sipohsalor o'ng qanotga, ulug' hojib esa so'l qanotga qo'mondonlik qilgan. Oliy hukmdor va ulug' hojiblararo munosabatlar nechog'li bo'lganini shundan ham ko'rish mumkinki, Mas'ud ulug' hojib Ali Qaribga yo'llagan bir maktubida unga «fozil (ulug') hojib, birodar» deb murojaat qiladi. Saroy hojibining vazifasi esa saroy eshik og'asi bo'lgan.

¹ Mavdud ibn Mas'ud – 1041–1049-yillarda g'aznaviylar sulolasi yetakchisi.

Hojibga kelsak, fikrimizcha, hojiblik, umuman olganda, qandaydir bir ijtimoiy-siyosiy tabaqa sifatida ko'proq namoyon bo'ladi. Faraz qilish mumkin-ki, o'z davri uchun hojiblik ritsarlik tushunchasiga yaqin bo'lsa, ajab emas. Hojiblar bir vaqtning o'zida shihna (hokim) yo sipohsalor mansabiga ega bo'lganlarini ham eslatib o'tish joizdir. Hojiblar, odatda, qora chakmon va ikki uchli kuloh kiyib yurganlar.

Dargoh faoliyatida sipohdor (saroy xizmatchisi), davotdor (oliy hukmdor shaxsiy hujjatlari, yozuv-chizuvi bilan bog'liq ishlarga bosh-qosh xizmatchi), pardador (mahram, sir saqlovchi, pinhona vazifalarni bajaruvchi), martabador (saroydagi o'rta darajadagi amaldor), farrosh (saroydagi kichik xizmatchilardan), xazinachi, jomaxona (kiyim-kechak saqlanuvchi xona) boshlig'i kabi mansab va xizmatlarning ham o'z o'ri bo'lgan.

Devonlar (vazirliklar) ijroiya idoralari bo'lgani o'z-o'zidan tushunarli. Manbalarda bunday devonlardan beshtasining nomi tilga olinadi: vazir devoni, ya'ni bosh vazir devoni; harbiy ishlar devoni; diplomatik va boshqa rasmiy tadbirlar, hujjatlarni rasmiylashtirish, tuzish devoni; hisob-kitob, ya'ni moliya devoni; pochta-xabar devoni.

Viloyat boshlig'ini voliy deb atashgan va uni oliy hukmdor tayinlagan. Viloyat ijroiya boshqaruv ishlarini amid olib borgan. Shahar boshlig'ini rais deb ataganlar. Shahar miqyosida shihna, kutvol (qo'rg'on komendanti), sohibi devon (ma'muriy boshqaruvchi) kabi amaldorlar ham faoliyat ko'rsatganlar.

G'aznaviylar, ayniqsa, Mahmud G'aznaviy davrida qudratli qo'shinga ega bo'lganlar. Oliy qo'mondonlik hukmdorning o'z ixtiyorida bo'lgani tabiiy. Bosh qo'mondonlikka (sipohsalor) esa sulolaning eng ishonchli, asosan shu xonadon namoyandasi tayinlangan. Masalan, Mahmud bunday mansabga ukasi Muhammad Yusufni loyiq topgan. Yuqori darajadagi harbiy lashkar-boshilar salor, o'rta darajadagilari sarhang deyilib, oxirgilari xayllarga (bir necha o'n otliqlarga) boshchilik qilganlar. Harbiylar o'z pochta, qozilik xizmatlariga ega edilar. G'aznaviylarning ham saralangan jangovar qismlari bor edi, ammo ular to'g'ridan-to'g'ri dargoh ixtiyorida bo'lgan.

Ilm-fan va madaniyat. XI asr ilm-fani, madaniyati taraqqiyoti hamda olamshumul yutuqlarida g'aznaviylarning hukmronlik qilgan makon va zamonning o'ri katta bo'lgan. Albatta, buning sababini, eng avvalo, mintaqaning an'anaviy fan va madaniyat o'chog'i bo'lib kelgani bilan bog'lash mumkin. Shu bilan birga, bunda g'aznaviylar sulolasi namoyandalarning mazkur sohaga bo'lgan munosabatlari, shaxsiy imkoniyatlari omili ham kam o'rin tutmagan. Chunonchi, Mahmud G'aznaviy ona tilisi bo'lgan turkiydan tashqari fors, arab,

hatto, pahlaviy tillarini ham mukammal bilgan, she'r bitgan. Shuning uchun ham bo'lsa kerak, Mahmud va umuman, g'aznaviylar hukmronlik qilgan markazlar o'z davrining madaniy muhitida eng oldingi o'rinlarda turganlar. Faruxiy, Unsuriy, Manuchehriy, Utbiy, Gardiziy, Bayhaqiy, Nosir Xisrav kabi mashhur shoirlar, tarixchilar, olimlar g'aznaviylar homiyligida faoliyat ko'rsatganlar. Kishilik tarixidagi eng ulug' olimlardan biri Abu Rayhon Beruniy ham g'aznaviylar saroyida ilm bilan shug'ullanib, o'zining ko'plab mashhur asarlarini, jumladan, «Hindiston», «Geodeziya», «Xorazmning mashhur kishilari», «Mas'ud qonuni», «Mineralogiya», «Saydana»ni G'aznida yozgan.

G'aznaviylar bilan yana bir mashhur madaniyat arbobining nomi bog'liq. Fors adabiyotining yirik vakili Abulqosim Firdavsiy o'ttiz yildan ortiq vaqt mobaynida yozib tugatgan «Shohnoma» asarini o'sha zamon tartib-qoidalari-ga ko'ra, davr sultoni Mahmudga taqdim etadi. Mahmud bu ulkan she'riy asar (60 mingdan ko'p baytdan iborat) uchun taomilga ko'ra shoirni taqdirlashi va hurmatini o'rniga qo'yishi kerak edi. Ammo u bunday qilmaydi. Ba'zi bir adabiyotlarda buning uchun Mahmudni qoralash qonun tusiga kirib qolganini nazarda tutib, bu masalaga ravshanlik kiritishga harakat qilaylik. Firdavsiy o'z xalqi farzandi va kuychisi sifatida tabiiy ravishda Eronzamin va eron xalqini madh etadi. Va bunda eronliklarning tarixi va fazilatlari (donoligi, shijoati va hokazo) masalasini yoritishda ularga turonliklarni qarshi qo'yadi. Bugungi kun tili bilan aytganda, asarda turonliklar salbiy «qahramonlar» sifatida gavdalanadilar. Kelib chiqishi turkiy bo'lmish Mahmud buni qabul qilolmasligi tabiiy edi. Shuning uchun bu borada Mahmudni ayblash tarixiy haqiqatga va umuman mantiqqa ziddir.

G'aznaviylar davrida qurilish, ma'rifiy ishlarga ham katta e'tibor berilgani ma'lum. G'azni, Balx, Nishopur, Shimoliy Hindiston shaharlarida madrasalar, masjidlar, xonaqohlar, saroylar ko'plab qurilgani manbalarda o'z aksini topgan. Madrasalarda turli sohadagi fanlardan dars berilgan, ilmi toliblar uchun o'z zamonasida boy hisoblangan kutubxonalar eshigi doimo ochiq bo'lgan.

Tashqi siyosat. G'aznaviylarning tashqi aloqalari masalasida ikki narsaga e'tibor berish lozim: ularning mintaqa hududidagi munosabatlari va mintaqadan tashqaridagi aloqalari. 1001-yilgi Mahmud G'aznaviy va Nasr Qoraxoniylar o'rtasidagi kelishuvga binoan, Amudaryo ikki tomon manfaatlarini ajratib turuvchi chegara hisoblangan.

Garchi, bu ahdnoma keyinchalik bir necha marta (asosan, qoraxoniylar tomonidan) buzilib turgan bo'lsa-da, umuman olganda, daryo ikki tomon uchun chegara bo'lib qolavergan. G'aznaviylar uchun xuddi o'zlari kabi

kuchga to'lib turgan qoraxoniylar bilan munosabatlarni keskinlashtirishdan ko'ra, Xorazm va Shimoliy Hindistonni bo'ysundirish ham mumkin, ham moddiy jihatdan ancha manfaatli edi. Buni shundan ham bilib o'sa bo'ladi-ki, Mahmudning o'zi Shimoliy Hindistonga bir necha marta harbiy yurish uyushtirgan, Xorazmni bo'ysundirgan (1017). Shu ma'noda Mahmud ko'proq uzoqni o'ylaydigan, mintaqadagi umumiy siyosiy vaziyatni yaxshi biladigan siyosatchi sifatida gavdalanadi. Shimoliy Hindistonda, keyinchalik Xorazmda erishilgan siyosiy-harbiy yutuqlardan so'ng esa g'aznaviylar qoraxoniylar bilan nafaqat tengma-teng raqobatlasha oladigan, balki ulardan ustunroq mavqega ham yetishadilar.

Saljuqiylar bilan munosabatda ham Mahmud uzoqni ko'zlab ish tutadi. Garchi bu vaqtda saljuqiylar yetuklik darajasidan yiroq bo'lsalar-da, umuman jiddiy harbiy kuch sifatida Xurosonga xavf tug'dirishlari mumkin edi. Ayniqsa, Mahmudning Shimoliy Hindistonga uyushtirgan yurishlari davrida bunday xavf voqelikka aylanishi ehtimolga yaqin bo'lgan. Shuning uchun ham u 1025-yili turk-o'g'uz urug'laridan bir qismiga (to'rt ming chodir) Xurosondan manzil beradi. Keyinchalik, Mas'ud davrida ular kuchayib, g'aznaviylarga qaqshatqich zarba beradilar.

G'aznaviylarning mintaqadan tashqaridagi aloqalarida ilgari qudrati ni yo'qotgan xalifalik hurmatini o'miga qo'yishga harakat qilganlar. Zero, bu ularning manfaatlariga mos kelar edi. Ya'ni, birinchidan, Arab xalifaligi shunchalar zaif edi-ki, mintaqadagi biror-bir siyosiy sulola (masalan, qoraxoniylar, xorazmshohlar va g'aznaviylarning o'zlari ham) uni real qudrat sifatida tan olmasdi. Demak, xalifalik tomonidan g'aznaviylarga qarshi harbiy xavf-xatar yo'q edi. Aksincha, Mas'udning tili bilan aytganda, «Agarda xalifalik dargohiga hurmatimiz bo'lmaganda edi, nochor Bag'dodga o'tlanib haj yo'lini xoli qilib qo'yardik. Agar otamiz qazo qilmay, Xurosonga qaytishga majbur bo'lmaganimizda, albatta, bugun Misr va Shomda (ham hukmron) bo'lardik». Ikkinchidan, mintaqaning o'zida ham g'aznaviylarning raqiblari yetarli edi. Uchinchidan, Arab xalifaligining mintaqaga qo'li yetmasa ham, «tili» yetardi. Ya'ni mintaqadagi siyosiy kuchlarni bir-biriga gij-gijlash, fisq-fasod urug'larini sochish uning siyosatiga aylanib qolgan edi. G'aznaviylar esa xalifalikka «hurmat» bilan qarab, o'zlariga nisbatan har qanday buzg'unchilik harakatlarini bartaraf etdilar va hatto, undan raqiblariga qarshi foydalanish imkonini ham chetga surib qo'yamadilar.

XI. SALJUQIYLAR BOSHQARUVI DAVRI

X asrda Balxash ko'lining¹ janubidan to Quyi Volgagacha bo'lgan hudud-da turkiy xalqlardan bo'lmish o'g'uzlar yashardilar. Ular ko'plab qabila va urug'larga bo'linganlar. Ana shundaylardan biri – qiniq urug'idan chiqqan Saljuq ismli shaxs bir qancha o'g'uz qabilalarini birlashtirib, katta harbiy kuch boshlig'i darajasiga erishadi. Taxminan, X asrning o'rtalarida u o'z tarafdorlari bilan Sirdaryoning o'rta oqimlarini tark etib, daryoning quyi oqimi so'l qirg'og'ida joylashgan Jand² yaqiniga kelib o'mashadi. Shu orada ular islom dinini qabul qiladilar. Saljuqiylarning ikki daryo oralig'i siyosiy hayotiga faol aralashuvi, ayniqsa, somoniylarning qoraxoniylar bilan raqobati kuchaydi. Bu esa saljuqiylar qaramog'idagi o'g'uz qavmlarining Samarqand, Buxoro, Kesh viloyatlariga borib o'mashishlari uchun sharoit yaratdi.

O'g'uz qavmlarining harakati ikki daryo oralig'i bilan cheklanib qolmagan. 1025-yili ularning bir qismi (taxminan, 4000 oila) Mahmud G'aznaviyning roziligi va bir necha shartlar bilan Xuroson hududiga ilk bor qadam bosib, Saraxs, Farova va Obivard³ atroflaridagi yaylovlarni o'zlariga ma-kon qiladilar. Saljuqiylar iloji boricha Xurosonda mavjud iqtisodiy, savdo va albatta, siyosiy sharoitlardan foydalanishga harakat qilganlar. Bu o'z o'mida shu vaqtda o'lkada hukmdor bo'lgan g'aznaviylar manfaatiga zid kelardi. Shu tariqa, ular o'rtasida o'zaro ziddiyat kuchayib bordi. 1040-yil-ga qadar ular bir necha marta o'zaro to'qnashganlar. Oxiri esa ko'rsatilgan yili Dandoniqonda saljuqiylar g'aznaviylarni mag'lubiyatga uchrata-dilar. Bu vaqtga kelib Saljuq allaqachon olamdan o'tgan va uning xona-doni siyosiy faoliyatiga nabirasi To'g'rulbek boshchilik qilardi. Xullas, 1040-yili To'g'rulbek⁴ Xuroson hukmdori deb e'lon qilinadi va shu tariqa,

¹ *Balxash ko'li* – hozirgi Qozog'istonning janubiy-sharqidagi ko'l.

² *Jand* – hozirgi Qozog'istonning Qizilo'rda viloyati hududida, XI–XII asrlardagi yirik savdo-iqtisodiy va madaniy markazlardan biri, ba'zan Orol dengizi Jand dengizi deb ham atalgan.

³ *Obivard* – hozirgi Turkmaniston va Eron chegaralarida joylashgan shahar, ayrim turkiy manbalarda Atak (yoki Etak) deb ham nomlangan.

⁴ *To'g'rulbek* – 1038–1063-yillarda saljuqiylar sulolasi yetakchisi.

dunyo saltanatlari tarixida yana bir qudratli sulolaning rasmiy yuksalish yo'li boshlanadi.

XI asrning 40-yillaridayoq saljuqiylar Xorazm, Eron, Kavkazorti¹ga harbiy yurishlar uyushtiradilar. 1055-yili esa To'g'rubek xalifalik postaxti Bag'dodni egallaydi va o'z nomiga xutba o'qitiradi. To'g'rubek hayotligidayoq saljuqiylar Eron, Iroq, Kavkazorti o'lkalarini o'z ta'sir doiralari²ga tortgan edilar. 1071-yili esa Sulton Alp Arslon³ Kichik Osiyoda Roman IV² ni yengib, o'zini asirga oladi. Bu o'z o'rnida saljuqiylarning Kichik Osiyo va Yaqin Sharqda mustahkam o'rnatilishlari uchun katta zamin tayyorlaydi. Malikshoh³ zamonida Samarqand, Buxoro, O'zgand ham saljuqiylar qo'l ostida birlashadi. Sharqiy qoraxoniylar ham saljuqiylar ustunligini tan oladilar. Chunonchi, sulton Malikshoh Koshg'argacha yetib borib, qoraxoniylarni o'z nomiga xutba o'qitish hamda tanga bosishga majbur qilgan. Aynan uning hukmronligi davrida saljuqiylar saltanati Sharqiy Turkistondan O'rta dengizgacha bo'lgan hududni o'z ichiga olgan edi.

Har qanday saltanatning o'z yuksalish bosqichi bo'lishi bilan birga parchalanish, inqiroz yo'liga kirish davri ham bo'ladi. Saljuqiylar saltanatining zaiflashib, parchalanish jarayoni XI asrning ikkinchi yarmida boshlanadi. Bunday jarayon sababini saltanatning haddan tashqari ulkan hududda yastangani, buning oqibatida uni bir markazdan turib boshqarishdagi ma'lum qiyinchiliklarning vujudga kelishi, rasmiy sulolaning ko'plab namoyandalari, mahalliy hukmdorlarning mustaqillikka intilishlari, qaram o'lkalarning tabiiy ravishda noroziligi, qarshiligi kabilar bilan izohlash mumkin.

XI asrning ikkinchi yarmidayoq saljuqiylar xonadoni vakillari faoliyati bilan bog'liq Suriya, Iroq, Anato'liya (Ko'niya), Kermon sultonliklari yuzaga keladi. Sulola ichki nizolari keskinlasha borib, XII asr boshlaridayoq saltanat sharqiy va g'arbiy qismlarga bo'linib ketadi (ashinaliylar, qoraxoniylarning ham ichki nizolar sababli xuddi shunday qismlarga bo'linib ketganini eslaylik). Sharqiy qism, asosan, Xuroson va Movarounnahr⁴dan iborat bo'lib qoldi. Uning chegaralari, ta'sir doirasi qat'iy bo'lmay o'zgarib turgan. Chunonchi, Sanjar⁴ qudrati avjiga chiqqan vaqtlarda g'arbiy saljuqiylar (Eron, Iroq,

¹ Alp Arslon – 1063–1072-yillarda saljuqiylar sulolasi yetakchisi.

² Roman IV – 1067–1071-yillarda Vizantiya imperatori.

³ Malikshoh – 1072–1092-yillarda o'zbek davlatini boshqargan saljuqiylar sulolasi yetakchisi, uning birinchi va suyakli xotini Turkon xotun qoraxoniylar ibrohim Tabg'achxonning qizi bo'lgan.

⁴ Sanjar – 1118–1153-yillarda o'zbek davlatini boshqargan saljuqiylar sulolasi yetakchisi.

Ozarbayjon) uning, ya'ni sharqiy saljuqiylarning siyosiy ta'sirida bo'lganlar. 1141-yili Turonga sharqdan qoraxitoylarning bostirib kirishi bilan esa Sanjarning ham kuchi qirqildi. Qoraxitoylarga qarshi saljuqiylar qoraxoniylar bilan birgalikda lashkar tortgan bo'lsalar-da, ammo mag'lubiyatga uchradilar. 30 ming kishi, jumladan, 3-4 ming amir-u amaldorlar halok bo'ladi. Bu o'z o'rnida saljuqiylarga qaram bo'lgan Xorazmdagi mahalliy sulolalarning yuksalishi uchun sharoit yaratadi. Xuddi shu yerdan chiqqan anushteginiylar XII asrning ikkinchi yarmida g'arbiy saljuqiylarga zarba beradilar. Sharqiy saljuqiylar faoliyatiga esa Sanjar o'limidan keyin chek qo'yiladi. Boshqacha qilib aytganda, XII asr oxiriga kelib Kichik Osiyodagi Anato'liya sultonligidan o'zga biror-bir makonda rasmiy saljuqiy xonadoni qolmaydi. Anato'liya sultonligi esa XIII asr o'rtalarida mo'g'ullarga qaramlikka tushadi.

Davlat boshqaruvi. Saljuqiylar davrida oliy hukmdor ulug' sulton (sulton ul-a'zam) unvoniga ega bo'lgan. Taxt otadan bolaga meros sifatida o'tgan. Mulk, yer-suv taqsimlash, muhim davlat va boshqaruv mansablariga tayinlash, davlat kirim-chiqimlaridan boxabar bo'lib turish, qo'l ostidagi amaldorlar va xizmatkorlar faoliyatini nazorat qilib turish sultonning haq-huquqlari va vazifalari sirasiga kirgan. Shuningdek, oliy hukmdor o'z mansabdorlari, xizmatkorlari ustidan tushgan ariza va shikoyatlarni, amaldorlarning daromadi, soliq to'plovchilar, ularga boshchilik qiluvchilarning faoliyatini nazorat qilib borishi kerak bo'lgan. Saljuqiylar qo'lida xizmat qilgan yirik davlat va jamoat arbobi Nizomulmulk¹ hukmdorning fuqarolarga munosabatini shunday belgilagan: «Podshoh bir haftada ikki kun zulm ko'rganlarni qabul qilmasdan iloji yo'q. U zulmkorni jazolamog'i, insofga chaqirmog'i, raiyyat so'zlarini o'z qulog'i bilan vositachisiz eshitmog'i kerak. Arzchilar eng muhim so'zlarini aytmoqlari, (hukmdor esa) ular bo'yicha hukm chiqarmog'i lozim. Shunda mamlakatda podshoh ezilgan va adl istovchilarni haftada ikki kun qabul qilib, ularning so'zini tinglar ekan, ovozasi tarqaydi. Zolimlar bundan cho'chidilar, qo'llarini kalta qiladilar».

G'aznaviylar, qoraxoniylar, somoniylar misolida ko'rganimizdek, saljuqiylar davri boshqaruv tizimi ham ikkiga: dargoh va devonlarga bo'linadi. Dargohdagi eng asosiy xizmat va vazifalardan biri hojib – dargohdagi sultonga eng yaqin kishi, dargoh bilan devonlar o'rtasidagi aloqalarni muvofiqlashtirib turuvchi, rasmiy qabullarni uyushtiruvchi lavozim bo'lgan. Xoris amiri sulton chiqargan jazo hukmlarini ijro etish bilan shug'ullangan. Saroydagi

¹ Nizomulmulk (Abu Ali Hasan) – 1063–1092-yillarda saljuqiylarning buyuk vaziri, mashhur «Siyosatnoma» asarining muallifi.

qurol-aslaha, ayniqsa, sultonga taalluqli narsalarni saqlash ishini silohdor olib borgan. Shuningdek, dargoh faoliyatini ta'minlashda jomador, sharobdor, choshnigir (sultonning ovqatlanishiga mas'ul), sarhang (lashkarboshi), miroxo'r (sulton otlariga mas'ul), tashtdor (hukmdor hammomiga mas'ul) kabi mansabdorlarning ham o'z o'rni bo'lgani ma'lum.

Saljuqiylar boshqaruv tizimida ham bosh vazir xizmati alohida ahamiyat kasb etgan. U markaziy boshqaruv (devoni a'lo) tepasida turgan holda mavjud barcha devonlar (vazirliklar) faoliyatiga rahbarlik qilgan. Xazina, moliya, soliq, davlatga tegishli ishlab chiqarish muassasalari ishini nazorat qilish uning zimmasida edi. Manbalarda bosh vazirni rais urruaso (raislarning boshlig'i), sa'id urruaso (boshliqlarning kattasi) deb ta'riflashlariga ko'ra aytish mumkin-ki, uning faoliyati mamlakatning ichki va tashqi siyosatidagi barcha sohalarga tegishli bo'lgan. Chunonchi, u sulton nomidan qaram o'lkalar hukmdorlari, xorijiy davlatlar namoyandalari bilan muloqot va muzokarada bo'lish huquqiga ega edi. U xizmatchilarni ishga olish, ularga maosh tayinlash, ishdan bo'shatish kabi vakolatlarga ham ega bo'lgan. Xullas, bosh vazirning xaq-huquqi katta bo'lgan. Shu bilan birga, u yer-mulk taqsimlash borasida huquqsiz bo'lgan. Mazkur vakolat sulton ixtiyorida qolgan.

Shahzodalar va malikalar ham o'z vazirlariga ega edilar. Ammo bu hol davlat manfaatlariga zid ekaniga o'z vaqtida Nizomulmulk ishora etgandi: «Qachonki, podshohlik ishi ayollar va go'daklar qo'liga o'tsa, bilingki, podshohlik o'sha xonadonni tark etgay».

Devonlar ikki toifaga bo'linganini ta'kidlash lozim. Bular sulolaviy va rasmiy devonlardir. Nomidan ham ko'rinib turganidek, sulolaviy devon xukmdor xonadon faoliyati bilan bog'liq bo'lib, unga tegishli mol-mulk, yer-suv, xazina va boshqalar boshqaruvi, hisob-kitobi, oliq, soliq kabi vazifalari bilan shug'ullangan. Rasmiy devonlar quyidagilardir: devoni tug'ro, devoni istifo, devoni ishrof, devoni arz.

Tug'ro devoni mazkur devonlar ichida eng muhimi hisoblanib, uning boshlig'i bosh vazir o'rinbosari mavqeyida bo'lgan. Bu devonda oliy hukmdorning farmonlari, qarorlari, rasmiy yozishmalari tayyorlanib, keyin unga muhr bostirishga taqdim etilardi. Joylarga rasmiy hujjatlar yuborish, ulardan hujjatlar qabul qilish, chet ellarga maktublar yuborish, davlat hujjatlarida maxfiylikni ta'minlash kabilar shu devon xizmatchilari nazorati ostida edi. Bu devonga xizmatga har kim ham olinavermasdi.

Keyingi vazirlik – bu istifo, ya'ni moliya devoni. Davlat kirim-chiqimlari, soliqlar, boj va boshqa moliyaviy daromadlar, ularni alohida ro'yxatga

olish xuddi shu devon ixtiyorida mujassamlashgan. Bu vazirlik joylardagi bo'limlari orqali tegishli ro'yxat va miqdorlarda soliq yig'ish, qilingan ishlarni alohida daftarlarda qayd etish bilan shug'ullangan. Istifo devoni haquhuqlari nechog'li bo'lganini shundan ham bilsa bo'ladi-ki, uning xizmatchilari (mustafiylar) hatto, dargoh kirim-chiqimlari, xarajatlar, maosh, nafaqa miqdori kabilarga ham to'g'ridan-to'g'ri aralashganlar, nazorat qilganlar.

Yana bir vazirlik – bu ishrof devonidir. Uning bo'limlari viloyatlar va shaharlarda ham faoliyat ko'rsatgan. Bir so'z bilan aytganda, bu xizmatning mohiyati davlat nazorati tushunchasini beradi. Buning isbotini ishrof xizmatining faoliyati doirasi orqali ham bilib olish mumkin: moliya-soliq hisoblarini nazorat qilish va tekshirish, vaqfga tegishli mulklar ustidan umumiy nazorat olib borish, sulolaga tegishli yer-suvlar, qimmatbaho moliya qog'ozlari, zarbxonalar, amaldagi muhrlar, bozorlar mutasaddilari, soliqchilar, qishloq oqsoqollari va boshqa amaldorlar ustidan nazorat olib borish. Nazorat o'z o'rnida maxfiy ham bo'lgan.

Devoni arz o'ziga xos harbiy muassasa (harbiy vazirlik) bo'lib, lashkarga mo'ljallangan maosh va ta'minot (oziq-ovqat va kiyim-kechak), harbiylarning ro'yxati, yangilanib turishi, harbiy qismlarning tarkibiy soni, ularga ketadigan xarajatlarning turi va hajmi, transport, harbiy yurishlar davridagi ta'minot, vaqti bilan harbiylar ko'rigini tashkil etish kabilarga mas'ul edi. Lashkardagi biror-bir xizmatchining maoshi oshiriladigan yo qisqartiriladigan bo'lsa, bu haqda, eng avvalo, moliya-soliq idoralari bilan kelishib olinishi zarur hisoblangan.

Mahalliy boshqaruv tizimida viloyat boshliqlari (voliy) ham o'z devonlariga ega bo'lganlar. Voliylarni oliy hukmdor tayinlagan. Ular butun viloyat hayoti bilan bog'liq barcha sohalarga boshchilik qilganlar: moliya, soliq, sud, harbiy ishlar, jazo idoralari voliy nazorati, tasdig'i, izmida faoliyat ko'rsatganlar.

Tuman, shahar miqyosidagi boshqaruv tizimi ham viloyatlarniki kabi bo'lgan, faqat harbiy faoliyat bundan mustasno edi.

Ijtimoiy-iqtisodiy hayot. Saljuqiylar davri iqtisodiy munosabatlar ahvoriga keladigan bo'lsak, albatta, biz butun saltanat, ya'ni Movarounnahrda O'rta dengizgacha bo'lgan hududda kechgan iqtisodiy munosabatlar to'g'risida fikr yuritmay, asosiy e'tiborni mazkur masalaning mintaqaga aloqador tomonlariga qaratishimiz to'g'ri bo'ladi.

Shu ma'noda o'z davri uchun katta ahamiyat kasb etgan dehqonchilik rivojlanib borib, bu asosan sun'iy sug'orish tizimlarining kengayib, mukammallashib borishiga yo'l ochib bergan. Chunonchi, suv to'g'onlarini ta'mirlash,

yangilarini qurish, yer osti va yer usti suv inshootlarini barpo etish, dehqonchilikning ilg'or usullaridan foydalanish, sun'iy suv havzalarini yaratish kabi tadbirlar o'sha zamon dehqonchiligi taraqqiyotidagi asosiy omillardir.

Dehqonchilik sohasining rivoji, albatta, hunarmandchilik taraqqiyoti uchun tegishli asos yaratib beradi. Shuning uchun ham yozma manbalar, arxeologik izlanishlar natijalari bergan guvohliklarga nazar solinsa, to'qimachilik, kulolchilik, gilamchilik, zargarlik, oynasozlik, temirchilik, ko'nchilik kabi qator sohalar ham ichki, ham tashqi talab va ehtiyojlarni qondirish yo'lida taraqqiy etib borgan.

Savdo-sotiqning rivojlanishida ishlab chiqarish (dehqonchilik, hunarmandchilik) bilan bir qatorda ulkan iqtisodiy-savdo makonining mavjudligi ham muhim o'rin tutgan. Albatta, bunday makonni yaratish oson bo'lmagan. Shaharlarda bozorlar ahvolini yaxshilash, tartib o'rnatish, karvon yo'llari xavfsizligini ta'minlash, ma'lum masofalarda rabotlar, to'xtash joylari bino etish, pul muomalasini nazorat qilish kabi qator muhim tadbirlarni doimo amalga oshirishga to'g'ri kelgan. Buning natijasida mintaqaning O'rta va Yaqin Sharq, Sharqiy Yevropa, Hindiston, Xitoy kabi mamlakat va o'lkalar bilan savdo aloqalari gurkirab borgan. 1087-yili Sulton Malikshoh Sharq va G'arb yo'nalishlararo savdoni yanada jonlantirish niyatida Xuroson va Iroq savdogarlarini ba'zi bir savdo to'lovlaridan ozod etgan. Savdo-sotiqda quruqlikdan tashqari Kaspiy dengizi imkoniyatlaridan ham oqilona foydalanishga intilgani ma'lum. Kaspiy dengizi orqali Turonga neft mahsulotlari keltirilgan. Shuningdek, Sirdaryo quyi oqimi, o'ng qirg'og'i yerlaridan chiqadigan mushk, oltin, kumush yombilar nafaqat tashqi bozorda, balki mintaqaning o'zida ham g'oyatda qadrlangan. Umuman olganda, mintaqa bozorlarida qimmatbaho mo'yna, qorako'l terisi, tuzlangan baliq, morj qoziq tishidan tortib quruq meva, nafis matolar, qimmatbaho toshlar, taqinchoqlargacha topish mumkin edi.

Pul muomalasida eng yuqori darajadagi pul birligi o'mida sof oltindan zarb etilgan dinor (qizil dinor) qabul qilingan. Tarkibida oltindan tashqari qo'shimcha metall aralashmasi bo'lgan va mahalliy ahamiyat kasb etgan dinor ham bo'lib, uni rukniy deganlar. Shuningdek, muomalada mis dirhamlar ham bo'lib, ular asosan ichki bozorga mo'ljallangan. Saljuqiylar davrida ham chek turidagi naqd pulsiz muomala qilish tizimi amalda bo'lganini alohida ta'kidlash lozim.

Ilm-fan va madaniyat. Saljuqiylar o'zlari boshqargan yurtlarda fan va madaniyat taraqqiyoti uchun barcha shart-sharoitni yaratib berishga intilganlar. Ushbu xonadonga mansub oliy hukmdormi, shahzodami yo malikami, hammalari mamlakatdagi biror-bir shaharda bir yo bir nechta madrasa qurish-

ni o'z vazifalari deb bilganlar. Ulardan vazirlar, amirlar, mahalliy hokimlar ham o'rnak olib ish tutganlar. Chunonchi, mashhur vazir Nizomulmulk o'z davrida ko'plab madrasalar qurdirgan. Har bir madrasada o'nlab, yuzlab ilm toliblari ham diniy, ham dunyoviy sohalarida bilim olganlar. O'quvchilarga oylik nafaqa berib borilib, joy bilan ham ta'minlangan, ularni o'z davrining yetuk olimlari o'qitganlar, ilm toliblarining ixtiyorida ko'p ming sonli kitoblarni o'zida jamlagan kutubxonalar ham bo'lgan. Ba'zi bir madrasalarda o'quvchilar soni minglab bo'lganini bilamiz. Masalan, Nizomulmulk tomondan asos solingan «Nizomiya» madrasalaridan birida olti ming talaba yashab, ta'lim olgani ma'lum. Har bir madrasa qoshida kutubxona, ayrimlarida shifoxona ham mavjud bo'lgan. Jumladan, Nishopurda asos solingan madrasaga shifoxona ham birlashtirilgan edi.

Ilm-u ma'rifatga bo'lgan an'anaviy jiddiy e'tibor saljuqiylar davrida ham o'z ahamiyatini yo'qotmadi va biz buni yuqorida ta'kidlangan o'nlab madrasalarning barpo qilinishi orqali ham bilib olishimiz mumkin. Ahvol haqiqatan ham shunday bo'lganini o'sha zamonda yashagan buyuk olimlar, shoirlar faoliyati ham tasdiqlaydi. Bahoviddin Abubakr Marvaziy, Sharafiddin Tusiy, Abulhasan Ali Marvaziy, Umar Hayyom, Abulhotam Muzaffar Isfizoriy, Zahiriddin G'aznaviy kabi handasa ilmi sohiblari, falakiyotshunoslar, riyoziyotchilar, Muhammad Iloqiy, Ismoil Jurjoniy, Faxriddin Roziy kabi tabiblar, kimyogarlari, Mu'iziy, Anvari, Sobir Termiziy, Asiriddin Axsikatiy, Raf'iy Marvaziy kabi yirik shoirlar shular jumlasidandir. Ular o'z zamonlarining barcha ilmlaridan xabardor bo'lganlar. Masalan, ko'proq mashhur shoir, aniqrog'i, to'rtliklar ustasi sifatida tanilgan Umar Hayyom yetuk falakiyotshunos va riyoziyotchi ham edi. Hayyom ishtirokida rasadxona loyihasi chizilib, so'ng bir yil ichida barpo etilgan. Unda olib borilgan kuzatishlar va boshqa izlanishlar natijasida 1097-yili Umar Hayyom Sulton Malikshoh topshirig'iga ko'ra yangi taqvim tuzadi. Uning aniqligi Grigoriy kalendaridan ham yuqori bo'lishiga qaramay, amalda joriy qilinmasdan qolib ketgan. Bundan tashqari, matematika tarixida sonlardan butun musbat ildiz topishning umumiy qoidasini birinchi isbotlab bergan ham Umar Hayyomdir.

Bilim va ma'rifat tarqatishda, buyuk ajdodlarimiz tarixiy-madaniy merosini saqlashda katta ahamiyat kasb etgan bunday muassasalar saljuqiylar davrida ko'p edi. Tarixchi va sayyoh Yoqut Hamaviy Marvda bo'lganida bu yerda o'nta yirik kutubxona borligini ko'rgan. Mazkur kutubxonalarda saqlanayotgan kitoblar qimmatini va soni jihatidan dunyoda biror-bir kutubxona unga teng kelolmaydi, deb yozgandi tarixchi.

Bu davrda tasavvuf ta'limoti keng rivojlandi, Xuroson tasavvuf maktabining ta'siri kengaydi. Abdullo Ansoriy (1006–1089), Yusuf Hamadoniy (1048–1141), Ahmad Jom (1049–1142) uning yirik namoyandalari edilar. Yusuf Hamadoniy saljuqiy Sulton Sanjar hukmronligi davrida yashagan. Poytaxt Marv bilan bir qatorda Buxoro va Samarqand shaharlari ham madaniy-ma'naviy jihatdan yuksaldi. Xoja Yusuf Hamadoniyning Buxoro va Samarqand shaharlarida yashagani ham xuddi shu davrga to'g'ri keladi.

Yusuf Hamadoniy Turon hududida tasavvuf ta'limotini targ'ib qilish bilan shug'ullanib, ko'plab murid-muxlislar orttirdi. Ular orasidan to'rt kishi – Hasan Andoqiy, xoja Abdulloh Barraqiy, xoja Ahmad Yassaviy, xoja Abdulxoliq G'ijduvoniy Yusuf Hamadoniyning asosiy xalifalari bo'lganlar. Yusuf Hamadoniy tasavvufga oid «Odob tariqat», «Inson va koinot haqida risola» kabi bir qancha asarlar yozgan.

Tashqi siyosat. Saltanatning Sharqiy Turkistondan O'rta dengizgacha kengayishi jo'g'rofiy jihatdan ularni to'g'ridan-to'g'ri tarixiy Xitoy va Vizantiya bilan chegaradosh qilib qo'ydi. Xitoy ham, Vizantiya ham bundan xavfsirashi turgan gap edi. Shuning uchun ham ular iloji boricha saljuqiylarning zaiflashib borishidan manfaatdor edilar. Bunda «cho'g'ni birovning qo'li bilan ushlab» siyosatidan unumli foydalanishga ko'p harakat qilingan. Masalan, saljuqiy Sulton Malikshoh davrida Vizantiya diplomatik yo'llar bilan Xitoyni saljuqiylarga qarshi gij-gijlab, ular o'rtasida urush chiqarishga obdon harakat qilgani ma'lum. Vizantiya bu bilan tinchimay endi to'g'ridan-to'g'ri g'arbda, Yevropaning o'zida saljuqiylar, aniqrog'i, «musulmonlar xavfi»ni bayroq qilib, ularga qarshi kurashga da'vat qila boshlaydi. Vaholanki, islom dinini endigina qabul qilgan saljuqiylar hali islomni yo uning «xavfi»ni eltuvchi kuch bo'lolmasdilar. Saljuqiylar Vizantiya uchun, eng avvalo, siyosiy, xalqaro savdo munosabatlarida katta raqib hisoblanardi. Odatda, raqibni yengish ishi unga nisbatan ko'pchilik fikri, ya'ni mafkurasini qarshi qo'yishdan boshlanganidek, Vizantiya saljuqiylarning harbiy-siyosiy xavfiga qarshi mafkura, e'tiqod omilini qo'ydi. Bundan Rim cherkovi va boshqa Yevropa mamlakatlari iloji boricha foydalanishga harakat qildilar. Shu tariqa, XI asrning so'nggi o'n yilida mafkura bo'yoqlari bilan chaplangan, aslida ta'sir doiralari kurashidagi bir harakatgina bo'lgan salib yurishlari boshlangan. Salibchilarning sharqqa qarab harakatlarini qirqishda saljuqiylarning xizmatlari katta bo'lgan.

Xullas, Turondan chiqqan namoyanda sifatida saljuqiylar mazkur mintaqaning siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy sohadagi ko'p asrlik tajriba va an'alariga suyananlar, baholi qudrat o'z faoliyatlarida ularni davom ettirishga harakat qilganlar.

XII. ANUSHTEGINIYLAR BOSHQARUVI DAVRI

Xorazm vohasida hukmronlik qilgan mahalliy sulolalar qadimdan xorazmshohlar umumiy nomi bilan yuritib kelingan. Masalan, afrig'iyalar¹, ma'muniylar², oltintoshiylar³ boshqaruv kursisida xorazmshohlar unvoni bilan o'tirganlar. Ammo Xorazm doirasidan tashqariga chiqib, Turon kengliklarida ot surib va bu bilan ham cheklanmasdan boshqaruvning saltanat darajasiga erishgan sulola bu anushteginiylardir.

O'g'izlarning begdili urug'idan bo'lgan Anushtegin saljuqiy Sulton Malikshohning ko'zga ko'ringan va ishonchli mansabdorlaridan sanalgan. Taxminan, 1077-yili u Xorazm hokimligi vazifasiga tayinlanadi. 1097-yili esa mazkur lavozim o'g'li Qutbiddin Muhammadga⁴ tegadi. U saljuqiylar daroghiga qaram bo'lib, har yili o'zi yoki o'g'li Otsiz⁵ orqali viloyatdan undiriladigan soliqni u yerga olib borib turardi. Xuddi mana shu Otsiz otasidan keyin Sulton Sanjar hukmi bilan Xorazm hokimligiga tayinlanadi. Bu vaqtda hali o'ttizga ham kirmagan Otsiz ham avvaliga otasi kabi saljuqiylar xonadoniga sidqidildan xizmat qiladi. Ammo siyosatda bo'lganidek, o'z mavqeyi mustahkamlanib va aksincha, raqobatchilari zaiflasha borayotganini sezgach, saljuqiylarga qaramlikdan bosh torta boshlaydi. Bu esa, o'z o'rnida, Sulton Sanjar unga qarshi bir necha marta qo'shin tortishiga turtki bo'lgan. Mag'lubiyatga uchragan Otsiz qochishga majbur bo'ladi.

Xorazmni qo'lga kiritganidan keyin Sulton Sanjar uni o'z jiyani Sulaymonshohga taqdim etgan va unga vazir, Otabek hamda hojiblarni tayinlagan. Biroq Sulaymonshoh u yerda o'z hokimiyatini mustahkamlay olmagan. U 1139-yili Marvga qaytib ketishi bilanoq Xorazmga kelgan Otsiz mahalliy aholining qo'llab-quvvatlashi orqali o'z hokimiyatini tiklagan.

¹ Afrig'iyalar – 305–995-yillarda Xorazmni boshqargan mahalliy sulola.

² Ma'muniylar – 995–1017-yillarda Xorazmni boshqargan mahalliy sulola.

³ Oltintoshiylar – 1017–1041-yillarda Xorazmni boshqargan mahalliy sulola.

⁴ Qutbiddin Muhammad I – o'zbek davlatini boshqargan anushteginiylarning 1097–1127-yillardagi yetakchisi.

⁵ Otsiz – o'zbek davlatini boshqargan anushteginiylarning 1128–1156-yillardagi yetakchisi.

1139-yili Otsiz Buxoroga hujum qiladi va Sulton Sanjarning u yerdagi kishisini qatl ettirib, shaharni egallaydi. Shu bilan birga, saljuqiy hukmdorning javob harakatlarini o'ylagan holda, murosa yo'lini tutib, Sulton Sanjarga itoat qilishga qaror qiladi. Biroq uning mazkur bosh egishi hiyla edi, aks holda, 1141-yili xalifa Muqtafiy¹ huzuriga elchi jo'natib, Sulton Sanjar uni xalifaga gij-gijlaganini urg'ulab, «Xorazm viloyati va u tomonidan Xorazmga qo'shib olingan hamda olinadigan g'arbiy, sharqiy chegaralardagi viloyatlarning hukmdori», deb tan olingan yorliqni so'ramagan bo'lardi.

Saljuqiylarga qarshi ittifoqchiga zor bo'lib turgan xalifa uchun bu ayni muddao edi va ko'p o'tmay Otsizga Bag'doddan faxriy to'n, sovg'alar va uning o'z mulklarining sulton unvonidagi hukmdori sifatida tan olingan yorliq kelgan. Shu davrdan, ya'ni 1141-yildan boshlab, Otsiz o'zining ismi bitilgan oltin tangalarni zarb qilishni boshlab yuborgan. Buyog'iga unga omad kulib boqqanini ta'kidlash lozim. Chunonchi, xuddi shu yili Sulton Sanjar qoraxitoylar bilan jangda mag'lubiyatga uchrab, Balxga chekinganidan foydalangan Otsiz Marv, Nishopurni qo'lga olgan.

Keyingi yillarda o'zini tiklab olgan Sulton Sanjar 1144-yili o'ch olish niyatida Gurganjga² qo'shin tortadi. Unga qarshilik qilish befoydaligini anglagan anushteginiy hukmdor yana murosa yo'lini tutib, Marvga yurishi paytida qo'lga kiritgan boyliklarni qaytarish, saljuqiylar yetakchisi qarshisiga chiqib, yer o'pib bosh egish orqali vaziyatdan chiqib ketadi.

Shundan keyin ham Otsiz mustaqil siyosat yuritish yo'lidan qaytmagan. 1147-yili Sulton Sanjar yana lashkar tortib kelganida esa u yana qimmatbaho sovg'alar va kechirim so'rashlar orqali qutulib qolganini alohida ta'kidlash kerak.

Otasi o'limidan so'ng taxtga chiqqan El Arslon³ ham ishni Sulton Sanjar qoshiga elchi qo'yib, unga bo'ysunishini bildirishdan boshlagan va niyatiga erishgan: saljuqiy hukmdor uni Xorazm hukmdori deb tan olgan. Ichki ziddiyatlar girdobida qolgan saljuqiy hukmdorning boshqa iloji ham qolmagandi. Bunday sharoitda El Arslon uchun mustaqil siyosat yurgizishga erishish mushkul emasdi. Shu bois u mintaqaga bo'ylab faol harakat qila boshlaydi. Chunonchi, 1158-yili Movarounnahrda qoraxitoylar bilan to'qnashib, qo'li baland kelgani, 1167-yili esa Nishopurni egallagani va Ozarbayjonga harbiy yurish uyushtirgani ma'lum. Ammo El Arslonga ham markazida Xorazm bo'lgan, barcha to-

¹ *Muktafiy* – 1136–1160-yillarda abbosiylar xalifaligi yetakchisi.

² *Gurganj* – hozirgi Turkmaniston hududidagi Ko'hna Urganch.

³ *El Arslon* – o'zbek davlatini boshqargan anushteginiylarning 1156–1172-yillardagi yetakchisi.

monidan tan olingan qudratli siyosiy uyushmaga asos solish nasib etmagan. Qolaversa, hukmronligining oxirgi yillarida qoraxitoylar bilan munosabatlar keskinlashgani oqibatida 1171-yili ikki o'rtada urush kelib chiqadi. Bu urushda xorazmshoh mag'lubiyatga uchraydi. El Arslon qoraxitoylar bilan tinchlik kelishuvini tuzgan va o'lpon to'lab turish majburiyatini olgan. Qoraxitoylar ortga qaytib ketishgan. Tez orada kasalligi zo'rayib El Arslon vafot etadi.

Anushteginiylarning zabardast siyosiy kuch sifatida ro'yobga chiqolmaganlarining bosh sabablaridan biri bu ichki nizolarga barham bera olmaganlaridadir. Chunonchi, El Arslondan so'ng uning o'g'illari Takish¹ va Sultonshoh Mahmud o'rtasida 20-yildan ortiq vaqt davomida taxt uchun kurash ketadi. Har ikkovi ham goh qoraxitoylarga, goh g'uriylar sulolasiga², goh esa Xuroson amirlariga suyangan holda o'zaro kurash olib borishgan. Biroq bundan biror-bir naf chiqmagan. Faqat Sultonshoh Mahmud vafotidan so'nggina Takash yakka hukmdor sifatida keng qamrovli siyosat yurgizish imkoniga ega bo'ladi. 1194-yili u G'arbiy Eronning aksar qismini bo'ysundiradi, keyin Kermonda ham uning nomiga xutba o'qiladi. Hukmronligi so'nggida u hatto, Bag'dodni – xalifalik poytaxtini zabt etishga ham shaylanadi. Ammo yurish chog'ida, 1200-yilning yozida yo'lda vafot etadi va taxtga anushteginiylar qudratini yuksaltirishni izchil davom ettirgan Aloviddin Muhammad³ chiqadi.

U 1210-yili qoraxitoylar masalasini butunlay hal qiladi. Bu voqea uning obro'-e'tiborini nihoyatda oshirib yuboradi. Ikkinchi Iskandar, ikkinchi Sulton Sanjar laqablari bilan mashhur bo'lgan Sulton Muhammad sa'y-harakatlari tufayli 1217-yilga kelib Ozarbayjon, Eron, Xurosondan Hindistongacha bo'lgan yerlar o'zbek davlati tarkibiga kiritiladi. Shu yil oxirida u ham otasi singari Bag'dodni egallash harakatiga tushadi, ammo ob-havo og'ir kelib, muddao amalga oshmay qoladi. Sulton Muhammadning asosiy maqsadi Suriya, Kichik Osiyo va Misrni ham bo'ysundirish edi. Xullas, Chingizxon bosqini arafasida anushteginiylar sulolasi dunyoning eng qudratli siyosiy kuchlaridan biriga aylangandi. Orol dengizidan Hind okeanigacha, Iroqdan Sharqiy Turkistongacha bo'lgan ulkan hudud taqdiri Xorazmda hal bo'lardi.

Davlat boshqaruvi. Anushteginiylar davrida ham somoniylar, qoraxoniylar, g'aznaviylar, saljuqiylarda bo'lgani kabi devonlarning alohida o'rni ko'zga tashla-

¹ *Takish* – o'zbek davlatini boshqargan anushteginiylarning 1172–1200-yillardagi yetakchisi.

² *G'uriylar* – 1148–1206-yillarda g'uriylar sultonligini boshqargan sulola.

³ *Aloviddin Muhammad* – o'zbek davlatini boshqargan anushteginiylarning 1200–1220-yillardagi yetakchisi.

nadi. O'z navbatida, devonlar ham kichik devonlarga bo'lingani bilan bog'liq guvohliklar bor. Masalan, harbiy devon (devon jaysh) harbiy masalalarni ko'ruvchi (devon jaysh) va harbiylarga maosh berish bilan shug'ullanuvchi (devon ravotib) kabilarga bo'lingan. Harbiy devon boshlig'i, albatta, musulmon bo'lishi shart edi.

«Oliy toj faxriy majlisi» deb atagan hukumat boshqaruvi vazirning (bosh vazirning) qo'lida bo'lgan. Unga barcha devonlar bo'ysunishgan. Vazir, shuningdek, davlat boshlig'ining asosiy maslahatchisi hisoblangan va o'z harakatlari yuzasidan oliy hukmdorgagina hisobot bergan, rasmiy tantanalar, xalqaro munosabatlar, qaram mamlakatlar bilan muzokaralarda oliy hukmdor nomidan ish yuritgan. Shuningdek, vazir fuqarolar va davlat hukmdori o'rtasida vositachi vazifasini bajargan hamda mamlakatdagi tartib-intizom uchun asosiy javobgar hisoblangan. U amaldorlarni ishga tayinlash va lavozimidan bo'shatish, arzaq (nafaqa), oylik maosh hamda boshqa shu kabi to'lovlarni belgilash huquqlariga ham ega bo'lgan. Vazirlar o'z ona tilisidan tashqari, arab va fors tillarini mukammal bilishlari shart bo'lgan.

Sadr, dastur, xojayi buzurg kabi unvonlar bilan siylangan vazir har doim hukmdorning oldida yurgan, hukmdor safar va yurishlarga chiqqanida ham uni tark etmagan. Rasmiy qabullar vaqtida vazirlar xorazmshohlarning o'ng tomonidan o'rin egallashgan. Devon binosidagi xonada esa vazir qora kursida o'tirgan, «Nizom ul-mulk» laqabiga ega bo'lgan vazirlar xonaga oliy hukmdordan boshqa kim kirsa ham, hattoki u taxt vorisi bo'lgan taqdirda ham, u bilan salomlashish uchun o'rnilaridan turishmagan.

Vazirlik mansabining tilga olingan takomillashgan ko'rinishi Otsiz davri bilan bog'liqdir. Mo'g'ullar bosqini arafasida mazkur lavozim Aloviddin Muhammad tomonidan bekor qilingan va oliy hukmdor qoshida, olti vakildan iborat kengashga o'xshagan boshqaruv joriy etilgan. Barcha a'zolarining roziligi bilan ish ko'rishi kerak bo'lgan ushbu kengashga davlat ahamiyatiga molik birorta ham jiddiy qaror qabul qilish nasib etmagan.

Yana bir muhim mansab – bu ulug' yoki buyuk hojib hisoblangan. Qoidaga ko'ra, turkiy aslzodalar vakiligina hojiblikka tayinlanishi mumkin bo'lgan. Hojib hukmdorni aynan o'ziga tegishli ishlar to'g'risida unga hisobot bergan, rasmiy marosimlarga amal qilinishini nazorat qilgan. Bir vaqtning o'zida bir necha hojib faoliyat yuritgan. Ular sultonlarning eng muhim topshiriqlarini bajarishgan va ularga hamma joyda hamrohlik qilishgan.

O'z davri saroyi ishlar boshqaruvchisi sanalgan ustozdor lavozimi egasi otxonalar, oshxonalar, novvoyxonalar, chog'ir saqlanadigan yerto'lalarni nazorat qilgan, saroy xodimlari faoliyati uchun to'liq javobgar bo'lgan.

Sultonning shaxsiy otlari oxur amiri lavozimi egasining nasarrufida bo'lgan. Masalan, Aloviddin Muhammadning ulug' oxur amiri Ixtiyoriddin Qushlu 30 ming bosh otga javobgar bo'lgan.

Bundan tashqari, shikor amiri sulton ovini tashkillashtirish, tashtdor esa sultonning hammomlari uchun mas'ul, sharobdor esa chog'ir va ichimliklar tayyorlash, ularni saqlash va saroyni ular bilan ta'minlashga javobgar hisoblangan. Shuningdek, qissador mansabi ham mavjud bo'lib, u jumaga o'tar kechasi sulton nomiga jo'natilgan iltimos va shikoyatlarni unga olib kelgan hamda oliy hukmdorning ushbu murojaatnomalar yuzasidan javobini ularning egalariga yetkazish uchun javobgar bo'lgan.

Bundan tashqari, amir a'lam, choshnigir (oliy hukmdorga beriladigan ovqat, ichimliklarni tatib ko'ruvchi), davatdor (oliy hukmdor kotibi), farrosh (oliy hukmdorga mo'ljallangan o'rin-ko'rpa, gilam, chodir va shunga o'xshashlar uchun mas'ul xizmat boshlig'i) kabi kichik mansablar ham mavjud bo'lgan.

Ijtimoiy-iqtisodiy hayot. Poytaxt Gurganj o'z davrining buyuk, boy va go'zal shahri sanalgan. U yerda o'z zamonasining deyarli barcha ilg'or hunar turlari rivojlangan bo'lib, ular turi 50 ga yetgan. Gurganj aholisi mohir hunarmandlardan ekani, ayniqsa, temirchilar, duradgorlar va boshqalar o'z ishining ustalari bo'lishganidan ma'lum. Gurganjlik o'ymakor duradgorlar fil suyagi va obnus daraxti yog'ochidan ajoyib mahsulotlarni yasashgan. Shaharda tabiiy shoyi mato ishlab chiqaradigan ustaxonalar bo'lgan. Qurilish ishlarida esa majnuntol yog'ochidan keng foydalanilgan. Ushbu yog'ochdan qurilgan inshootlar yengil bo'lgan va toshdan qurilgan binolardan ko'ra zilzilaga chidamli hisoblangan.

Yo'llar va karvonlarni qo'riqlash ishining oliy darajada tashkil etilgani ichki va tashqi savdo aloqalarining rivojlanishida muhim o'rin tutgan. Gurganj savdogarlari Bag'dod, hattoki, Andalusga qadar mahsulotlar olib borishgan. Mo'g'ullar tomonidan vayron etilguniga qadar poytaxtda aholi juda zich yashagan.

Shaharda ko'plab bozorlar mavjud bo'lgan. Bozordagi tartibni, asosan, muhtasib ushlab turgan. U mahsulotlarning sifatini, idishlarning tozaligini, mahsulotlarning yangiligini, tarozi toshlari va uzunlik o'lchovchi asboblarning to'g'riligini nazorat qilgan. Muhtasiblar ko'pincha imom darajasiga ega bo'lishgan. Xorazmning Ardaxushmisan, Xivak, Darg'an, Savakon, Govshfinj, Kot, Nuzkot, Hazorasp kabi kichikroq shaharlarida ham hunarmandchilik rivojlangan va savdo-sotiq gullab-yashnagan. Marv, Buxoro, Samarqand, Ray, Nishopur kabi shaharlar mamlakat siyosiy-iqtisodiy va madaniy hayotida muhim o'rin egallagan.

Manbalar anushteginiylarning so'nggi ikki hukmdorlari zamonida Xorazmning ekinlari «go'zal ishlov berilgan yerlar» hisoblangani to'g'risida ma'lumot beradi. Daryo suvi toshib chiqmasligi uchun atrofiga qumlardan kichik to'g'onlar qurilgan. Bu to'g'onlarda daraxtlar va butalar ekilgan va har yili ta'mirlab turilgan. Sun'iy sug'orish tizimi rivojlangan.

Rasmiy hujjatlarning ma'lumot berishicha, anushteginiy hukmdorlar ichida birinchi bo'lib, Otsiz tomonidan tangalar zarb qilingan. 1167-yili xorazmshoh El Arslon tomonidan Nishopur egallab olinganidan keyin, uning barcha mulklarida hukmdor nomi bilan oltin dinorlar va kumush dirhamlar zarb qilingan. Shuningdek, xorazmshohlarga qaram bo'lgan hukmdorlar mulkida ham xorazmshoh nomi bilan xutba o'qilgan va tangalar zarb etilgan.

Sulton Aloviddin Muhammad hukmronligi davrida ham o'zbek davlatiga tobe o'lkalarda xorazmshoh ismi xutbada o'qitilgan va ular nomi bilan tangalar zarb qilishgan. Xorazmshoh Jaloliddin Manguberdi 1222-yili Hindistonga chekinib, u yerda mahalliy hukmdorlar ustidan g'alaba qozonganda, u yerlarda Jaloliddin ismi bitilgan kumush va mis tangalar zarb etilgan. Bugungacha topilgan dalillarga tayanib, anushteginiylar ismi yozilgan tangalar Samarqand, Buxoro, O'tror, Termiz, Chag'oniyon, Vaxsh, Balx, Bomiyon, G'azna, G'ur, Jurzuvon, Zamindovar, Yamur, Kunduz, Marv, Naso, Nishopur, Peshovar va boshqa hududlarda bostirilganini aytish mumkin. Bunday zarbxonalar soni Aloviddin Muhammad hukmronligi davrida 30 dan ortiq bo'lgan.

1226-yili Tiflis va Sharqiy Gruzianing egallaganidan keyin sulton Jaloliddin bu yerda o'z nomidan tangalar zarb qilgan. Bunday tangalar soni juda ko'p bo'lib, bu uning gruzin hukmdorlarining xazinasini egallay olgani bilan izohlanadi.

Ilm-fan va madaniy hayot. Saltanatning siyosiy va iqtisodiy qudrati oshib borishi ilmiy va madaniy muhitga katta turki bo'lishi tabiiy edi. Poytaxt va shaharlarda olib borilgan ko'pdan-ko'p qurilishlar sirasida oliy hukmdor va markaziy hamda mahalliy hukumatlar uchun maxsus binolar, bozor, karvonsaroy, ko'prik, hammom, masjid, xonaqohlardan tashqari maktab, madrasa, kutubxona, shifoxonalar uchun ham imoratlar solingani ma'lum. Bu esa, o'z o'rnida, me'morchilik-quruvchilikka tutash ilmiy yo'nalishlar – matematika, geometriya, geodeziya, kimyo singari fanlarning ham rivojiga ta'sir ko'rsatgan.

Otsiz davridan Gurganj Turon va Eronning ilmiy-madaniy markazi nomini qozona boshlagan.

Xorazm nazm maktabining deyarli barcha ko'zga ko'ringan vakillari saroylarda ijod qilishgan. Ular orasida eng mashhuri Rashiddin Vatvot bo'lgan.

U Otsiz, El Arslon va Takash davrlarida insho devoni kotibi lavozimining egasi edi. Arab va fors tilida olib boriladigan rasmiy yozishmalaf usulining nozik jihatlarini juda yaxshi bilgan.

Rashididdin Vatvotning «Hadoyiq as-sihr fiy daqoyiq ash-shi'r» («Nazmning nozikliklaridagi sehr bog'lari») asari xorazmshoh Otsizga bag'ishlangan. «Rasoyil» («Nomalar») asari ham katta qiymat kasb etadi. Bu asar ikki qismdan iborat bo'lib, birinchisida xalifalar, hukmdorlar, sultonlar, vazirlar, amirlar, voliylar, qozi va muftiylarga nomalarni (murojaat), ikkinchi qismida esa olimlar, yuqori mansab egalari, oqsuyaklar, shoirlar, do'stlar va boshqa shu kabi shaxslarga nomalarni o'z ichiga oladi.

So'z ketayotgan davrda Kamoliddin Ismoil, Asiriddin Axsikatiy, Sayfiddin Isfaroiniy, G'iyosiddin Jandiy, Abul Qosim Ali Xorazmiy, Abu Hafs Umar Xorazmiy va boshqa bir qator mashhur shoirlar faoliyat olib borishgan.

Hakim Ali Hijoziy Koiniy tibbiyot sohasida yetuk bilimlar sohibi bo'lgan va u tibbiyot ilmiga bag'ishlangan bir qator asarlar yozgan. «Kitob manoqibat-rok» («Turklarning fazilatlarini to'g'risida kitob») asarining muallifi bo'lmish olim «Kitob hikma»ni («Donolik kitobi») Otsizga bag'ishlagan.

Otsiz tomonidan Marvdan Gurganjga olib kelingan Abduljabbor Xaraqiyning astronomiya va mantiqqa bag'ishlangan ishlari, shuningdek, tarixga bag'ishlangan asari bor.

Anushteginiylar davrida ham xuddi somoniylar, qoraxoniylar, saljuqiylar zamonlaridagi kabi boshlang'ich ta'lim maktablarda va oliy ta'lim madrasalarida olingan. Oliy hukmdorlar madrasalar barpo etish va ularning moddiy ta'minotini yaxshilashga alohida e'tibor bilan qarashgan. Ularga vazirlar, amaldorlar ham ergashishgan. Bunday madrasalar Takash, Aloviddin Muhammad hukmronligi davrida Gurganj, Marv, Nishopur, Ray, Balx va boshqa shaharlarda ko'plab barpo etilgan.

Bosh vazir Shamsiddin Mas'ud ibn Ali Haraviy Gurganj shahrida kutubxona qurdirgani, Buxoro yaqinidagi Dehqon qishlog'ida xalq kutubxonasi faoliyat yuritgani ma'lum.

So'z ketayotgan bosqichda tasavvuf ilmida yuz bergan voqealarni chetlab o'tib bo'lmaydi. Xojagon ta'limotiga asos solgan xoja Abdulxoliq G'ijduvoniyo xoja Yusuf Hamadoniydin ta'lim olgan va uning to'rtta asosiy xalifasidan biri bo'lgan.

Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniyo Buxoro viloyatining G'ijduvon shahrida tug'ilgan va shu yerda yashab vafot etgan. Uning ilmiy merosidan «Vasoyo» («Vasiyatlar»), «Maqomoti Yusuf Hamadoniyo», «Az guftori xoja Abdulxoliq

G'ijduvoniylar» («Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniylar o'g'itlaridan») nomli tasavvufga oid asarlar bizgacha yetib kelgan. Uning o'g'itlarida ma'naviy kamolotga intilish, kibrdan uzoq bo'lmoq, tama qilmaslik, saxiylik, xalqparvarlik kabi tushunchalar alohida qayd etilgan.

O'zbek davlatini anushteginiylar boshqargan bosqichning eng yorqin shaxslaridan biri, hech shubhasiz, Najmiddin Kubrodir. To'liq nomi Ahmad ibn Umar ibn Muhammad Xivaqiy Xorazmiy bo'lmish mutafakkir 1145-yili Xivada tug'ilgan. Balog'at yoshiga yetmay turib, Eron, Iroq, Misr, Suriyaga safar qilib, Ro'zbxon Vazzon Misriy, Ammor Yosir Hamadoniylar, Ismoil Qasriydan saboq oladi.

Chorak asrlik o'qish-o'rganish, turmushning achchiq-chuchugini totgandan so'ng 1185-yili yurtiga qaytib, xonaqoh qurdiradi va irfoniylar ma'rifat tarqatish bilan shug'ullana boshlaydi. «Kubraviya» tariqatiga ham u asos solgan bo'lib, hadis va shariatga asoslangan ushbu tariqat ta'limoti o'z davrida Turon, Eron, Hindiston va boshqa musulmon mamlakatlari xalqlari orasida keng tarqaladi.

Kubro taxallus bo'lib, har qanday chigal masalani hal qilib bera olishi, har qanday bahs-munozarada g'olib chiqishi bilan bog'liqdir. Shuningdek, uni Tomatul Kubro – buyuk balo va qazolar oldini oluvchi, Abuljannob – dunyoviy ikir-chikirlardan uzoq turuvchi, Valiyo'nar – valiylarni parvarishlab yetishtiruvchi deb ham ulug'lashgan.

O'n ikki kishini muridlikka qabul qilgan va barchasini shayx darajasiga yetkazgan. Ular qatorida mashhur shayxlardan Farididdin Attorning otasi Majididdin Bag'dodiy va Jaloliddin Rumiylarning otasi Bahoviddin Valad, Najmiddin Doya Roziy, Sa'diddin Hamaviy, Sayfiddin Boxarziyni tilga olish joiz.

Najmiddin Kubro ijodiy merosining asosiylari «Favoih al-jamol va favotih al-jalol» («Jamol xushbo'yliklari va jalolning kashfi»), «Al-usul al-ashara» («O'n ta usul»), «Risola at-turuq» («Tariqatlar risolasi»), «Risolat al-xoif al-hoim min lavm al-loim» («Malomatchining malomatidan hazar qiluvchi haqida risola»), «Fi odobus solikin» («Soliqlar odobi haqida») sanaladi. Shuningdek, uning ezgulikka chorlovchi ruboiylari ham bor.

Najmiddin Kubro nafaqat ilm bahsida, balki vatan uchun kurashda ham yengilmas bo'lgan. 1221-yili mo'g'ullar Gurganjni qamal qiladilar. Mudofaachilar orasida Najmiddin Kubro ham borligini eshitgan Chingizxon unga odam yuborib, «men Xorazmni yer bilan yakson qilaman, zamona avliyosi ul zot u yerni tark etib, bizga qo'shilmoqlari lozim» deb taklif qiladi. Shayx Chingizxonga shunday javob bergan ekan: «Mana, yetmish yildirki, taqdirning achchiq-chuchugini Xorazm va uning xalqi bilan birga tortib kelyap-

man. Falokat bo'sag'ada turgan bir vaqtda elimni tark etishim insoniylik va olijanoblikdan bo'lmaydi». Shu tariqa, Najmiddin Kubro bosqinchilarga qullikdan ko'ra o'z xalqi bilan birga shahidlikni afzal bilib, dushmanga qarshi kurashda halok bo'lgan, ammo unga taslim bo'lmagan.

Birinchi Uyg'onish davri. IX–XII asrlar o'zbek xalqininggina emas, balki kishilik sivilizatsiyada alohida tarixiy bosqich sanaladi. Xuddi shu davr boshlanishida arablarga qaramlik avvaliga susayib, so'ng uzil-kesil yo'qqa chiqishi natijasida siyosiy yuksalishlar pallasi barqarorlashgan. Yuqorida ko'rilganidek, somoniylar, qoraxoniylar, g'aznaviylar, saljuqiylar, anushteginiylar singari zabardast siyosiy kuchlar birin-ketin faoliyat yuritganlar. Umumlashtirganda, ular Sharqiy Turkistondan O'rta dengizgacha, Kavkazdan Shimoliy Hindistongacha bo'lgan ulkan kenglikda ot surganlar. Bu esa o'z o'rnida, ichki va tashqi savdo munosabatlarini rivojlantirish barobari-da iqtisodiy yuksalishlar uchun sharoit yaratgan.

Siyosiy-iqtisodiy omillar o'laroq tug'ilgan muhit ijtimoiy turmush, ayniqsa, qurilish, obodonchilik, ilm-fan, ta'lim va madaniyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi tabiiy edi. Shunday bo'lgan ham. IX–XII asrlar shaharchilik, o'rta va oliy ta'lim, ilm-fanning matematika, astronomiya, fizika, geodeziya, geologiya, xaritashunoslik, iqlimshunoslik, kimyo, tibbiyot, dorishunoslik, tarix, elshunoslik, falsafa singari yo'nalishlari o'ta rivojlangani bilan yaqqol ajralib turadi. Shuning uchun mazkur bosqich haqli ravishda Birinchi Uyg'onish davri sifatida tan olingan.

XI asrda Xorazmda faoliyat ko'rsatgan Ma'mun akademiyasida Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Sahl Masihiy, Abu Nasr ibn Iroq, Abu Sa'id Miskavayh, Abu Mansur Saolibiy, Ahmad Muhammad Saxriy, Zayniddin Jurjoni, Abulkarim Zirg'aliy, Abu Abdulloh Vazir, Abul Hasan Ma'mun, Abu Muhammad Xorazmiy, Abduavval ibn Abdusamad, Abu Azoq ibn Bahnom, Abu Abdulloh Iloqiy, Abu Abdulla Naysaburiy Xorazmiy, al-Xamdakiy, Ixmad Mas'uriy, Abu Muhammad Raqqoshiy, Abu Abdulloh Xorazmiy, Abubakr Muhammad Xorazmiy, Ahmad ibn Muhammad Suhayl Xorazmiy kabi o'nlab olimlar aniq, tabiiy va ijtimoiy fanlar bo'yicha izlanishlar olib borganlar, yirik asarlar yaratib, kashfiyotlar qilganlar.

Yana ko'plab olimlar Turkistonning boshqa markazlarida faoliyat yuritganlar. Turkistonlik allomalar Bag'doddagi Ma'mun akademiyasining ko'rki va ilmiy qudrati sanalganlarini ham alohida urg'ulash lozim.

Muhammad Xorazmiy 783-yili Xorazmda tug'ilgan, maktab va madrasa ta'limini ham shu yerda olgan. Yosh bo'lishiga qaramay, aniq va tabiiy



Muhammad Xorazmiy

yarmigina bizgacha yetib kelgan bo'lishiga qaramay, buyuk o'zbek olimining kishilik sivilizatsiya taraqqiyotiga qo'shgan tengsiz hissasini dalillovchi manbalar yetarli darajada bor.

«Hind hisobi haqida» risolasi kishilik tarixida yaratilgan eng qimmatli asarlardan biridir. Negaki, unda o'nlik sanoq tizimi bayon etilgan bo'lib, tez orada butun dunyoga tarqalishi natijasida insoniyat arifmetika fanini oddiy va tushunarli ravishda o'rganish imkoniga ega bo'lgan.

O'zbek olimining ushbu asari XII asrdan Yevropa tillariga o'girila boshlangan va katta shuhrat qozongan. Negaki, shu choqqacha rim sonlarini qo'llab kelgan yevropaliklar uchun 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 0 ni qo'llash imkoni tug'ilgan. Umumjahon miqyosida esa o'n xonali hisoblarning arifmetik amallarini yechishdek inqilobiy sakrash yuz bergan.

Asar arab tilida yozilgani va shu tildan lotinchaga o'girilgani sababli tug'ilgan ikki masalaga diqqatni qaratish lozim. Birinchidan, yevropaliklar Muhammad Xorazmiy bayon etgan sonlarni arab sonlari deya ta'rif berganlari natijasida ular hozirga qadar mazkur atama bilan shuhrat qozonib kelmoqda. Ikkinchidan, «al-Xorazmiy» tarjimalarda «Algoritmi», «Algorismi» tarzida kelgani bois yurtoshimiz tomonidan bayon etilgan uzluksiz hisoblash jarayoni matematika faniga algoritm tushunchasi bo'lib kirgan.

«Al-jabr al-muqobala hisobi haqida qisqacha kitob»ida («Al-kitob al-mux-tasar fi hisob al-jabr val-muqobala») Muhammad Xorazmiy algebrani fan sifatida belgilab, chiziqli va kvadrat tenglamalarning olti asosiy turi va ularning hal qilishning umumiy uslublarini asoslab berdi.

¹ So'z ketayotgan yillarda Ma'mun arab xalifaligining sharqiy o'lkalardagi noibi sifatida Marvda yashagan.

Asar XII asrdayoq lotin tiliga bir necha marta, xususan, 1145-yili ches-terlik Robert, keyinchalik kremonalik Jerardo va seviliyalik Ioan tomonidan tarjima qilingan.

«Xorazmiy Ziji» («Zij al-Xorazmiy») da Muhammad Xorazmiy mar-ziy meridian deb «Arin meridiani»ni tanlagan. Bunga sabab hind astronom-ogeografik an'anasiga ko'ra, Arinda qubba mavjud deb tasavvur qilingan. «Arin» aslida Hindistondagi Uzayn (hozirgi Ujayn shahri) bo'lib, uning nomi «Xorazmiy ziji»da «Arin» shaklida yozilib qolgan.

Xorazmiy asarining Adelard Bat va kremonalik Jerardo tarjimalarida ham uzunlamalar Arin meridianidan boshlab hisoblanadi. Rojer Bekon bilan Buyuk Albert ham Arin meridiani haqidagi nazariya tarafdori edilar. Biroq Yevropa fani va geografik kashfiyotlar uchun ayilik Petring (1330–1420) 1410-yili yozilib, 1480–1487-yillar orasida nashr etilgan «Ymago mundi» («Yer surati») asari favqulodda muhim o'rin tutgan. Bu asar va undagi xaritalarda Arin naza-riyasi to'laligicha o'z aksini topgan. Xristofor Kolumb ham Arin nazariyasi bilan shu kitob orqali tanishgan va unga ko'ra, u yerni nok shaklida tasavvur qilgan va u g'arbiy yarim sharda «Arin qubbasi»ning qarama-qarshi tomonida undan ham baland qubba bor bo'lishi kerak, deb hisoblagan. Demak, bu aytganlardan ko'ri-nadiki, Xorazmiy «Zij»ida keltirilgan ma'lumotlar Yevropada faqat astronomiya va trigonometriyaning rivojlanishidagina katta ahamiyat kasb etib qolmay, balki g'arbiy yarim sharning kashf etilishida ham o'ziga xos turtki bo'lgan.

Ahmad Farg'oniy 797-yili Farg'onada tug'il-gan. Maktab va madrasani ham shu yerda bitirgach, matematika, astronomiya, geografiya yo'nalishlari-da izlanishlar olib borgan. U ham Ma'munning na-zariga tushgan – oldiniga Marvga, so'ng Bag'dod-ga taklif etilgan. 865-yili Misrda olamdan o'tgan.

Yer dumaloq shaklda ekanligi, yilning eng qis-qa va uzun kunlari 23-dekabr va 22-iyunga to'g'ri kelishi, Quyoshda dog'lar borligini ilmiy yo'llar bilan isbotlab bergan.

861-yili Nil daryosidagi suv sathini o'lcHay-digan noyob inshootni yaratgan. Hozirda Nil dar-yosidagi Arravza orolida saqlanib qolgan mazkur suv o'lcHagichdan XX asrda Asvan to'g'oni qurilishida ham foydalanilgan.

Asarlari XII asrdan boshlab Yevropa tillariga o'girila boshlangan, univer-sitetlarda asosiy darslik sanalgan va mazkur qit'ada tabiiy hamda aniq fanlar rivojiga poydevor bo'lgan.



Ahmad Farg'oniy



Abu Rayhon Beruniy

Abu Rayhon Beruniy 973-yili Kot shahrida tug'ilgan. Erta etim qolgach, o'z davrining yirik matematigi va astronomi Abu Nasr ibn Iroq qo'lidagi o'sadi va tarbiya topadi. Maktab va madrasani ham shu yerda bitirgan, o'zining qomusiy bilimlari bilan tanilgan Abu Rayhon Beruniy 1004–1017-yillarda Xorazm Ma'mun akademiyasida faoliyat yuritadi va mazkur ilm-fan, madaniyat markaziga boshchilik ham qiladi.

1017-yili Mahmud G'aznaviy xizmatiga kirgan alloma qolgan umrini G'aznida o'tkazgan hamda 1048-yili shu yerda olamdan o'tgan.

Abu Rayhon Beruniy astronomiya, matematika, geografiya, geodeziya, geologiya, xaritashunoslik, iqlimshunoslik, fizika, dorishunoslik, tarix, elshunoslik, falsafa, adabiyot va boshqa fanlarga bag'ishlangan 152 ta qimmatli asar (shundan, 70 tasi astronomiya, 20 tasi matematika, 12 tasi geografiya va geodeziyaga bag'ishlangan) yozgan qomusiy olim sanaladi.

U ona tilisidan tashqari arab, fors, sug'diy, suryoniy, yunon, yahudiy, sanskrit tillarini bilgan.

Abu Rayhon Beruniy Amerika qit'asining borligini ming yil burun ilmiy bashorat qilgan. Yerning Quyosh atrofida aylanishi ilmiy taxminini o'rgangan, Yerning radiusini o'lchagan, 4500 ta o'simlikning turkiy, arabcha, forsha, yunoncha, suryoncha, hindcha, qadimgi xorazmcha, sug'dcha atamasini to'plagan va har biri bo'yicha tushuncha bergan.

Buyuk ajdodimizning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» («Al-osor al-boqiya an al-qurun al-holiya») asarida Turkiston xalqlari, yahudiy, yunon va boshqalarning yil hisoblari, bayramlari, ijtimoiy, madaniy va ilmiy hayoti tarixi, urf-odatlari, dunyoqarashlari hamda mintaqamizning arablar tomonidan bosib olinishi bo'yicha to'liq ilmiy ma'lumotlar berilgan.

Uning «Qonuni Mas'udiy» asarida o'tmish va zamonasida astronomiya va matematika sohasida erishilgan barcha yutuqlar tanqidiy tahlil qilingan, olimning o'z kuzatishlari va tadqiqotlari natijalari bilan bayon etilgan.

Abu Rayhon Beruniy fan tarixida birinchi bo'lib moddalarning solishtirma og'irliklarini – vaznining hajmiga nisbatini aniqlagan. Chunonchi, o'zi yasagan maxsus asbob yordamida 50 ta modda, jumladan, 9 ta metall, 18 ta suyuqlik, 3 ta ma'dan va boshqa moddalarning solishtirma og'irliklarini katta aniqlik bilan o'lchashga erishgan.

Allomaning «Mineralogiya» asarida qimmatbaho toshlarga ishlov berish usullari, ularni baholash va tozaligini tekshirish masalalariga ham alohida e'tibor berilgan. Ayniqsa, Turkiston o'lkasidagi konlar bo'yicha guvohliklari o'ta qimmatlidir. Ohangaron vodiysidagi firuza, Zarafshondagi zok, navshadil, simob, temir, mis, qo'rg'oshin, kumush va oltin, Farg'onadagi toshko'mir, neft, Buxorodagi magnetit hamda boshqa mamlakatlardagi konlar haqida ham ma'lumotlar keltirilgan.

995-yilda u Kot shahrida Yer sharini yasagan bo'lib, unga geografik obyektlarni belgilab, aholi maskanlari oralig'idagi masofalarga asoslanib, ularning geografik koordinatalarini aniqlagan edi. Sharqda tayyorlangan birinchi va shu bilan birga qabariqli bo'lmish ushbu globusni xaritashunoslik tarixida matematik geografiya qoidalari asosida yasalgan ilk qurilma deyish mumkin.

Abu Rayhon Beruniy madhiya, raddiya, ishqiy va falsafiy mavzularda she'rlar bitgani ham ma'lum.

Abu Ali Ibn Sino 980-yil 16-avgustda Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog'ida tug'ilgan. 1037-yil 18-iyunda Hamadonda¹ olamdan o'tgan. Qabri ham shu yerda.

450 dan ortiq asaridan falsafa, tibbiyot, mantiq, ruhshunoslik, kimyo, biologiya, minerologiya, geologiya, astronomiya, matematika, musiqa, axloq, adabiyot va tilshunoslikka bag'ishlangan 242 (160) tasi bizgacha yetib kelgan.

Bir muddat Xorazm Ma'mun Akademiyasida faoliyat olib borgan.

Tibbiyotni nazariy va amaliy jihatlardan bir tizimga solish orqali ushbu sohani bir necha asrlarga ilgarilatgan, ayrim yo'nalishlarda, hatto, hozirgi zamon tibbiyotiga yaqinlashtirgan.

«Tib qonunlari» asari XII asrdan boshlab lotin tiliga o'girilgan va 30 marta dan ortiq nashr qilinib, Yevropa universitetlarida asosiy darslik sanalgan, 800 yil mobaynida Sharq va G'arb tabib-u shifokorlari uchun qo'llanma bo'lgan.

Mahmud Zamaxshariy 1075-yil 19-martda Xorazmdagi Zamaxshar qishlog'i (hozirgi Turkmaniston)da tug'ilgan. 1144-yili Gurganj shahrida olamdan o'tgan.

Arab grammatikasi, lug'atshunoslik, adabiyot, aruz ilmi, geografiya, tafsir, hadis va fiqhga oid yaratgan 50 dan ortiq asaridan ko'pchiligi bizgacha yetib kelgan.

1121-yili bitilgan «Grammatika bo'yicha mufassal kitob» asari arab tili grammatikasini o'rganishda yirik qo'llanma sifatida o'sha paytlardan boshlab Sharq va G'arbda ham shuhrat topgan.

¹ Hamadon – hozirgi Eronning shimoli-g'arbida joylashgan qadimiy shahar.

1137-yili anushteginiy Otsizga bag'ishlab yozilgan «Adab ilmiga kirish» asarida otlar, fe'llar, bog'lovchilar, ot o'zgarishlari va fe'l o'zgarishlari ilmiy o'rganilgan.

Uni «Xorazm faxri», «Arab va arab bo'lmagan xalqlar ustozlari» kabi sharafli nomlar bilan ulug'laganlar.

Buyuk matematik, astronom, tabib Chag'iniyning tug'ilgan yili aniq emas. Mo'g'ullar bosqini paytida yurt himoyachilari safida turib urushgani va 1221-yili qurbon bo'lgani taxmin qilinadi.

U Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oni, Abu Rayhon Beruniy tomondan matematika, astronomiya bo'yicha yo'lga qo'yilgan ilmiy maktab va an'analarning davomchisi.

«Astronomiya haqida qisqacha risola», «To'qqiz sonining matematikadagi o'rni haqida risola», «Merosni bo'lishda matematik usullarga sharh», «Qonuncha» asarlari bizgacha yetib kelgan.

Quyoshni o'zidan nur tarqatuvchi sayyoralarning markazi deb hisoblash mumkin xulosasiga kelish orqali geliotsentrizm g'oyasi doirasida ilmiy fikrlagan. Tarixda birinchi bo'lib ufqiy tekislikdagi kuzatish joyining asosi bo'lgan koordinatlar tizimini to'liq ishlab chiqishga erishgan. «Bo'linmas zarracha», «unsuriy zarracha», ya'ni atom haqida ilmiy qarashlarga ega bo'lgan.

XIII. MO'G'ULLAR ISTILOSII

1206-yil erta bahorida Osiyoning sharqiy bo'lagida, aniqrog'i, O'non daryosi¹ bo'yida yuz bergan oddiy bir voqea, keyinchalik, butun dunyo, jumladan, o'zbek davlati va xalqi taqdiriga qattiq ta'sir ko'rsatishini hech kim xayoliga ham keltirmagan. Aynan shu paytda o'tgan qurultoyda mahalliy urug'lardan birining boshlig'i Timuchin² butun mo'g'ullarning yagona yetakchisi – xoqon deb e'lon qilinadi va unga Chingizxon³ nomi beriladi.

Keyingi yillarda g'arbda Koshg'ar, shimolda Sibir, janubda Chjurchjen-gacha⁴ bo'lgan hududlarni egallagan Chingizxon 1211-yili «Eke Mo'ng'ul ulus»iga («Buyuk mo'g'ullar davlati») 1211–1215-yillardagi yurishlar natijasida esa Pekinni ham bosib olishga erishadi.

1217-yilning oxirlarida Xitoy yurishini yakunlagan Chingizxon, naymanlarga⁵ qarshi uchinchi marta harbiy yurish boshlagan. Bundan tashqari, mo'g'ullarning g'arbga yurishlari davom etib, qarluqlar va uyg'urlar bo'ysundirilgan. Natijada, ular qoraxitoylarning so'nggi hukmdori Kuchlukxon mulklariga yaqinlashib qolishgan. Qoraxitoylarga qarshi yurishda Chingizxon musulmonlarning Kuchlukxon⁶ tomonidan ta'qib qilinayotganligidan ustalik bilan foydalangan. Mo'g'ul askarlariga boshchilik qilayotgan Jeba no'yon⁷ Koshg'ar va Xo'tanda yashovchi musulmonlarga Chingizxonni ularning hi-moyachisi sifatida ko'rsatgan. Mo'g'ul askarlari Kuchlukxonga qaram yer-

¹ *O'non daryosi* – boshlanishi hozirgi Mo'g'ulistonning shimoli-sharqiy yerlariga to'g'ri keladigan daryo.

² *Timuchin* – Mo'g'ullar saltanatining asoschisi va uning 1206–1227-yillardagi yetakchisi.

³ Chingiz so'zining ma'nosi haqida hozirgi kunga qadar turlicha qarashlar mavjud. Ko'pchilik sharqshunoslarning fikricha, chingiz turkiy tengiz – dengiz so'zidan olingan bo'lib, Chingizxon «dengizxon», ya'ni dunyo hukmdori degan ma'noni bildirgan.

⁴ *Chjurchjen* – X–XV asrlarda Manchjuriya, Markaziy va Shimoli-sharqiy Xitoy hududlarida yashagan urug', bu yerda Chjurchjen deganda Manchjuriya hududlari ko'zda tutilgan.

⁵ *Naymanlar* – so'z ketayotgan paytda hozirgi Oltoy, g'arbiy Mo'g'uliston va sharqiy Qozog'istondan iborat hududni boshqargan urug'lar uyushmasi.

⁶ *Kuchlukxon* – 1213–1218-yillarda naymanlar yetakchisi.

⁷ *Jeba no'yon* – Chingizxonning asosiy harbiy yurishlarini boshqargan bosh qo'mondoni.

larga kirib borgan paytda mahalliy xalqqa hech kimning diniy e'tiqodiga qarshilik qilinmasligi va aholiga zarar yetkazilmasligi haqida e'lon qilgan. Shu tarzda Koshg'ar va Xo'tan aholisi o'z hukmdorlariga qarshi qo'zg'olon ko'tarib, uni mo'g'ullarga topshirilishiga erishilgan. Bu voqealar sodir bo'lgan 1218-yildan keyin Chingizxon qo'shinlari anushteginiylar boshqarib kelayotgan o'zbek davlati chegaralariga deyarli yaqinlashib qolgan.

Sulton Muhammadning Chingizxonga qiziqishi mo'g'ullar yetakchisining Xitoyni egallagani to'g'risidagi xabar tarqalishi bilan tug'ilgan. U haqida to'liq ma'lumotni qo'lga kiritish niyatida 1215-yili Bahoviddin Roziy boshchiligidagi elchilar Pekinga yo'l oladilar. Ularni katta hurmat bilan qarshilagan Chingizxon o'zbek hukmdoriga atab turli-tuman qimmatbaho sovg'alar taqdim etgan. Biroq elchiga bergan nomadagi gap-so'zlar, ayniqsa, Sulton Muhammadga qarata senlab murojaat qilishidan mo'g'ullar yetakchisining shahdini ilg'ab olish qiyin bo'lmagan, albatta: «xorazmshohga ayt, men – Sharqning hokimiman, sen – G'arbning hokimisan! Ikkimiz o'rtamizda do'stlik va sulh haqida qat'iy bitim bo'lsin. Ikki tarafning savdogarlari va karvonlari oy borib, omon qaytsin va mening yerlarimdagi qimmatbaho buyumlar va oddiy matolarni ular sening tarafinga olib kelsinlar».

Chingizxon berib yuborgan sovg'alar orasida Xitoy tog'laridan qazib olingan va tuya o'rkachidek keladigan oltin yombi va boshqa qimmatbaho hamda noyob narsalar Aloviddin Muhammadning nafsoniyatiga tekkan mensimaslikni yumshatgan deyish qiyin. Biroq o'zaro munosabatlarni keskinlashtirmaslik yo'rig'ini tutgani ham bor gap. Bo'lmasa, 1218-yil bahorida Ahmad Xo'jandiy va Ahmad Balchix kabi savdogarlar boshliq katta karvonni mo'g'ullar qarorgohiga jo'natmagan bo'lardi.

Chingizxon tomonidan tezda javob hay'ati yuborilgani, unga Mahmud Yalavoch, Alihoji Buxoriy, Yusuf Qanqa O'troriy kabi uddaburon shaxslar bosh bo'lib, sovg'a-salomlar yanada boy bo'lgani, mo'g'ullar sardori o'zbek davlati bilan bordi-keldilarni jadallashtirishga kirishganini ko'rsatadi. Elchilar orqali berib yuborgan mana bu mazmundagi maktubi esa uning asl niyatiga ishora bo'la oladi: «Sening ishing qanday ulkanligi menga yashirin emas, sen o'z hukmingda nimalarga erishganlaring menga ma'lum. Men bildimki, sening mulklaring behisob. Sen bilan totuvlikni saqlashni men o'zimning vazifalarimdan biri deb bilaman. Sen men uchun eng aziz o'g'limdeksan»...

Bunday tagdor va kibrli so'zlar o'zbek hukmdoriga yoqmasligi aniq edi. Negaki, bir hukmdorning ikkinchisiga qarata, o'g'lim, deyishi, uni o'ziga qaramdek bilishini anglatar edi. Shunga qaramay, anushteginiy sulton sir boy bergan emas. Aftidan, bunday «katta ketish» sababsiz yuz bermasligini u to'g'ri anglagan. Aks holda, o'sha kuni tunda Mahmud Yalavochni chorlab, bor haqiqatni bayon

etishi, Chingizxonga emas, o'ziga xizmat qilishi, dushman qarorgohida turib, bu tomonga ishlashini uqtirmagan bo'lardi. Hayotidan xavfsiragan Mahmud Yalavoch «sulton eshitishni xohlagan» ma'lumotlarni unga yetkazadi, jumladan, mo'g'ullarning harbiy kuchi sizning qudratingiz oldida hech narsa emas, deb uni aldaydi. Ko'ngli tinchlangan Aloviddin Muhammad unga qimmatbaho javohir sovg'a qilib, Chingizxon bilan bordi-keldi qilishga rozi ekanligini bildiradi.

Ortg qaytgan Mahmud Yalavoch bor haqiqatni, shuningdek, o'zbek davlatining kuchli va kuchsiz jihatlari haqidagi to'liq ma'lumotni Chingizxonga oqizmay-tomizmay yetkazgan. Boshqacha aytganda, u Aloviddin Muhammadni chuv tushirgan. Ayyorligi ish bera boshlaganidan ruhlangan mo'g'ul hukmdori tashqaridan qaraganda, o'rtani sovutmaslik, aslida esa o'zbek davlati imkoniyatlari, ayniqsa, yo'llar, shaharlar, aholi kayfiyati, ichki siyosiy vaziyat bo'yicha yanada ko'proq ma'lumot to'plash maqsadida 100 ta mo'g'ul va 450 ta musulmon savdogaridan iborat katta karvonni hozirlab, Turon tomon jo'natadi. Mo'g'ullarga o'z ishonchli kishi Uxunni, savdogarlarga Umarxo'ja O'troriy, Jamol Marog'iy, Faxriddin Jizzaxiy Buxoriy, Amiriddin Haraviyni boshchilikka tayinlaydi. Ular O'troga yetib kelganlarida yuz bergan mudhish voqea keyinchalik Turonnigina emas, balki butun dunyo hayotini izdan chiqarib yuborgan jarayonga o'ziga xos turtki bo'lgan.

U yerda hokimlik qilib turgan G'oyirxon Chingizxon kishilarini ayg'oqchi deb gumonlab, o'zboshimchalik bilan barchasini o'ldirtirgan, mol-mulkini esa o'zlashtirgan. Ushbu fojia mo'g'ullar boshlig'ining nafsoniyatiga tegishi turgan gap edi. Lekin ochiqchasiga to'qnashishning payti kelmadi, deb sanaganidanmi, u birdaniga sen-menga bormay, Ibn Qafraj Bug'roni ikki mo'g'ul hamrohligida Gurganjga yuboradi. U keltirgan maktubda Chingizxon xorazmshohni ahdni buzganlikda ayblab, G'oyirxonni unga topshirishni talab qiladi. Anushteginiy hukmdor bunga ko'nmaganidan tashqari, elchi va uning ikki yo'ldoshini o'ldirishni buyurgan. Demak, u ham urushga tayyor bo'lgan. Samarqand shahri atrofida devor qurish bilan bog'liq reja buni to'g'ridan-to'g'ri tasdiqlaydi.

Anushteginiyalar saltanati va Chingizxonning jiqqamusht bo'lishlaridan manfaatdor yana bir taraf bo'lgan – xalifa Nosir. O'zbek davlatining kuch-qudrati yildan-yilga oshib borayotganini o'zining zarariga yo'ygan xalifa mo'g'ullar sardorining yoniga elchilar yuborib, uni musulmonlar yurtiga qarshi gij-gijlagani ma'lum.

Chingizxon 1219-yilning kuzida ikki yuz mingga yaqin askari bilan O'tror yaqiniga kelib o'mashadi. Bu yerda u lashkarini to'rt qismga ajratib, har bir qismga vazifalar yuklagan.

Qo'l ostida, taxminan, to'rt yuz minglik qo'shini bor Aloviddin Muhammad oliy harbiy kengash tomonidan taklif qilingan mudofaa va hujum rejala-

rini qabul qilmagani kelgusi yutqazuv va yo'qotishlarga sabab bo'lgani manbalarda alohida urg'ulanadi. Holbuki, Jaloliddin Manguberdi mo'g'ullarni yurt ichkarisiga kiritib, hududlarni yaxshi bilish evaziga ularni qirib tashlash, Shahobiddin Xevaqi¹ esa 400 ming askarni Sirdaryo bo'yida to'plash va uzoq yurishdan charchab kelayotgan mo'g'ullarga mamlakat ostonasida zarba berish takliflari, shuningdek, G'azna, kerak bo'lsa, Hindiston tomonlarga chekinib, dushmani o'sha yerda yengish rejalari ham bo'lgan.

Aloviddin Muhammad ularning bariga, yo'q, deb, harbiy kuchni katta shaharlar bo'yicha taqsimlash va shu tariqa dushmanga bas kelishni buyurgan. Boshqacha aytganda, kam sonli qo'shinga ega Chingizxon uchun ayni mudao to'xtamga kelgan: ulkan lashkarni maydalab tashlagan.

Ushbu sharoitda, o'trorliklar G'oyirxon boshchiligida besh oy davomida mo'g'ullarga qarshilik ko'rsatgan. Xorazmdan yordam tariqasida yuborilgan Qoracha hojib teskarisini qilgan – eng og'ir pallada sotqinlik yo'lini tanlab, o'z qo'shini bilan shahar darvozasidan chiqib, mo'g'ullarga taslim bo'lgan. Biroq xiyonatkorlarni mo'g'ullar ham kechirishmagan. Ular Qoracha hojib va uning askarlarini qatl etishgan. O'trorliklar jonlaridan umidlarini uzib, «yosh-u qari barcha o'lim yo'lidamiz», degan so'zlarni dillariga tugib, oxirgi imkoniyatgacha jang qilishgan. 1220-yilning fevralida O'tror mo'g'ullar tomonidan egalaniib, yer bilan yakson qilindi. Dushman shahar aholisini cho'lga olib chiqib, yoppasiga qirib tashlagan. O'ldirilganlardan qolganlar – oddiy xalq qul «hasharchi» sifatida mo'g'ul qo'shinining old saflariga qo'yilib, navbatdagi janglar uchun yuborilgan, hunarmandlar esa Mo'g'ulistonga olib ketilgan.

Buxoro yurishiga Chingizxonning o'zi boshchilik qiladi. 1220-yilning boshida shahar tevaragiga yetib kelgan dushman uni qurshab oladi. Qattiq qarshilikdan so'ng Chingizxon shaharga kiradi va «xorazmshoh odamlarini shahardan haydasinlar va yashirishni o'ylamasinlar» degan buyrug'ini bergach, buxoroliklar ularning ko'pchiligini o'z xonadonlarida berkitganlaridan xabar topib, uylarni yoqib yuborishni buyuradi. Mo'g'ullar shahar hokimi Ko'kxon va a'yonlarini o'ldirib, shahar devorini buzib yakson qildilar. Yurt himoyachilaridan bir qanchasi² arkka kirib o'n ikki kun davomida qarshilikni davom ettirishgan. Bosqinchilarning quturishi shu darajada bo'lganki, din peshvolari musulmonlar uchun muqaddas sanalmish masjidlarga o't qo'yish, oddiy aholini qirishga qarshi bosh ko'targanlarida, Chingizxon ularning bir nechtasini, jumladan, imom Rukniddin Imomzoda³ va qozi Sadriddinni⁴ qatl ettirgan.

¹ *Shahobiddin Xevaqi* – anushteginiylar davri atoqli davlat arboblariidan biri.

² Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, 400 kishi.

³ *Rukniddin Imomzoda* – Chingizxon hujumi vaqtida Buxoro imomlarining boshlig'i.

⁴ *Qozi Sadriddin* – Buxoro shahar qozisi, Rukniddin Imomzoda o'g'li.

Buxoro egallangach, mo'g'ullar u yerdan asir olingan aholini lashkarning oldi saflariga joylashtirib, saltanatning ikkinchi poytaxti deya e'tirof etiladigan Samarqandga haydab keladilar. Ikki kun shahar va qo'rg'on devorlari va shaharni o'rab turuvchi darvozalar o'rganib chiqiladi. Chingizxon shahar tashqarisiga joylashganining uchinchi kunida xorazmshoh lashkarlari, shaharni himoya qilish maqsadida, tashqariga chiqadi va mardonavor jang qiladi. Ikkala tomondan ko'plab jangchilar halok bo'ladi va bir to'da mo'g'ullarni asir olib shaharga kiritadilar.

Ertasiga Chingizxon shaxsan o'zi o'tlanib chiqadi, shaharga manjaniq, palaxmon va kamonlardan to'xtovsiz tosh va o'qlar uzila boshlaydi. Og'ir qarshilikdan so'ng Samarqand ham taslim bo'ladi. Namozgoh darvozasidan ichkariga kirgan mo'g'ullar ikki kunda shahar devorini buzib tashlashgan. Uchinchi kuni esa, vatan himoyachilarini qilichdan o'tkazishni boshlashgan. Jumladan, 20 amir va ular qo'l ostidagi 30 000 askarni o'ldirishgan.

Samarqand aholisidan o'ttiz ming hunarmandni ajratib olgan Chingizxon ularni farzandlari va qarindoshlariga bo'lib bergan. Qolgan aholiga shaharga qaytishi uchun ikki yuz ming dinor omonlik puli talab qilgan. Mazkur voqealar 1220-yilning mart oyida yuz bergan edi.

Samarqandni qo'lga kiritgach, mo'g'ullar yozni Naxshab yaylovlarida o'tkazib, kuzda Termizga yetib bordilar. Shahar aholisi mo'g'ullarga qarshi qattiq janglar qildi. G'animlar bir necha kunlik qamaldan so'ng shaharni egallab xarob qilib, aholisini butunlay qirib tashladi. 1221-yil yanvar oxirida Chingizxon Termiz kechuvi orqali Amudaryodan o'tib, Balxga yetib boradi.

Aloviddin Muhammad yurtini tashlab ketishga majbur bo'lgach, poytaxt Gurganj mudofaasida bir qator amirlar qolgan edi. Samarqand zabt etib bo'lingach, Jo'ji¹ va Chig'atoy² Xorazm tomon yuzlanishgan va 1221-yil boshida Gurganjni qamal qilishga kirishganlar. Jaloliddin Manguberdi va Temur Malik Gurganj mudofaasini tashkil etishga harakat qilgan, lekin bu ham uzoq davom etmasdan ular shaharni tark etishgan.

Qamal yetti oy cho'zilgani uchun O'qtoy³ ham yordamga safarbar etilgan. Mo'g'ullar yoppasiga qattiq jang qilishga kirishganlar, manjaniqlarni ishga solganlar. Buyruqqa ko'ra, lashkar va yordamga haydab keltirilganlar suv to'la handa qni xas-xashak bilan to'ldirishgan. Mo'g'ul lashkari devorga chiqib, Gurganj devorini qulatgan. Shahar aholisi tor ko'chalar va mahallalarda to'siqlar qilgan holda dushman bilan mardonavor kurash olib boradi. Bos-

¹ Jo'ji – Chingizxonning to'ng'ich o'g'li.

² Chig'atoy – Chingizxonning ikkinchi o'g'li; 1227–1241-yillarda Chig'atoy ulusi hukmdori.

³ O'qtoy – Chingizxonning uchinchi o'g'li, 1229–1241-yillarda mo'g'ullar saltanatining yetakchisi.

qinchilar egallangan har bir uy, imoratga neft sochib yondirib bo'ldirilgan. Shu tariqa, shaharning kuli ko'kka sovurilgani oqibatida o'zbek davlatining poytaxti ham dushmanga taslim bo'lgan. Bosqinchilar Amudaryodagi to'g'onni buzib, shaharni suv bostirish orqali uni uzil-kesil xarobaga aylantirishgan.

Aloiddin Muhammadning harami va farzandlari asirga olinadi. Mo'g'ullar asirga olingan anushteginiy shahzoda va malikalarni o'ldirishgan, haram vakillarini Chingizxon yaqinlariga tortiq qilishgan, onasi Turkon Xotunni esa Chingizxon qarorgohiga jo'natishgan. U 1233-yili yuz bergan o'limiga qadar umrini tutqinlik va xo'rlikda o'tkazgan.

Mo'g'ullarning ikki yil chamasi Turonda davom etgan bosqini yurt uchun katta ofat bo'lgan: yuz minglab aholi qirib tashlangan, yuz minglab kishi asir qilib olib ketilgan. Shahar va qishloqlar vayron qilinib, sug'orish tizimi, ekinzorlar, bog'-rog'lar xarob qilingan.

Birgina Gurganj aholisidan 100 000 hunarmand ajratib olinib Mo'g'ulistoniga jo'natilgan, qolgan barcha erkak, o'g'il zotini qilichdan o'tkazishgan. 50 000 mo'g'ul jangchining har biriga 24 tadan gurganjlik to'g'ri kelganiga oid tarixiy guvohlikda mubolag'a bo'lgan taqdirda ham, qurbonlar ko'lamini tasavvur qilish qiyin emas.

Temur Malikning botirligi. Mo'g'ullar ellik ming kishi hasharchi va yigirma ming mo'g'uldan iborat harbiy kuch bilan Xo'jand atrofiga yetib kelganlarida, shaharni Temur Malik qo'riqlab turar edi. Bosqinchilarga kuchi yetmasligini anglagan o'zbek bahodiri shaharni tashlab, mingta botir jangchi bilan Sirdaryo o'rtasidagi orolda joylashgan qo'rg'onni makon tutadi. Uni egallashga ko'zi yetmagan dushman, qo'rg'onni suvga bostirish maqsadida hasharchilarni uch farsang¹ naridagi tog'likdan tosh tashib kelib, daryoga to'kish va suvning yo'lini to'sishga majbur qiladi.

Temur Malik olovli o'qlar ta'sir qilmasligi uchun sirka qo'shib qorilgan loy chaplangan kigiz bilan usti yopiq o'n ikkita solda tunlari mazkur to'g'onga suzib borgan, uni buzib, bosqinchilarning ancha-munchasini o'ldirib yana orolga qaytgan. Ahvol juda og'irlashgach esa tunda bir guruh botir jangchilar bilan yetmishta kemada qurshovdan chiqib, avvaliga Xorazmga yetib borib, Jaloliddin Manguberdi qo'shiniga qo'shiladi.

Jaloliddin Manguberdining botirligi. Otasi o'limidan² so'ng sulola va davlat boshlig'i sifatida Gurganj mudofaasiga otlangan Jaloliddin Manguberdini saroy a'yonlari chiqishtirmaganlari kamdek, uni yo'q qilish payiga ham tushishgan. Ushbu sharoitda Jaloliddin Manguberdi 300 otliq bilan birga

¹ Farsang (farsax) – 6–7 km ga teng uzunlik o'lchovi.

² Aloiddin Muhammad 1220-yili Kaspiy dengizidagi orolda vafot etgan.

poytaxtni tark etadi. Niso yaqinida 700 otlıqdan iborat mo'g'ul askarlarini yanchib tashlaydi. Shu tariqa, mo'g'ullar ustidan ilk g'alaba yuz bergan va ularni yengish mumkinligiga ishonch paydo bo'lgan.

Nishopurda kuch to'plash imkoni tug'ilmagani sabab, shahzodaligidagi mulki – G'azniga yo'l oladi. Qandahor yaqinida Hirot hokimi Amin Malik boshliq o'n minglik qo'shinni birlashtirgan Jaloliddin Manguberdi Qandahorni qamalda saqlab turgan mo'g'ullarga hujum qilgan. Uch kun davom etgan shiddatli janglardan keyin mo'g'ul qo'shinlari yengilib, chekinadi. Bundan xabar topgan, aftidan, Niso ostonasidagi mag'lubiyatni tasodifga yo'ygan Chingizxonning fig'oni ko'kka ko'tariladi. O'zining yengilmasligi bilan millionlab kishilar yuragiga vahima solgan mo'g'ul yetakchisi uchun bu galgi tor-mor bo'lish rosa alam qilgan. Shu vajdan ham, nima qilib bo'lmasin, o'zbek botirini qo'lga tushirish, yo'q qilish buyrug'ini beradi.

Jaloliddin Manguberdi G'azniga yetib kelgach, unga xalajlar¹ sardori, Balx hokimi, afg'on va qarluqlarning boshliqlari o'z qo'shinlari bilan kelib qo'shilishgan. Katta kuchga ega bo'lgach, u G'aznidan chiqib, Voliyon qo'rg'onini² qamal qilib turgan mo'g'ullarga tashlanib, 1000 dan ortiq dushmani o'ldirgan. Mo'g'ul qo'shinining qolgan-qutgani Panj daryosidan o'tib chekingan.

Jaloliddin Manguberding harakatlaridan voqif bo'lgan Chingizxon tajribali lashkarboshilari boshchiligida 45 000 lik qo'shinni yuborgan. Mo'g'ul qo'shini va anushteginiylar yetakchisi o'rtasidagi Parvon³ jangida mo'g'ullar ketma-ket harbiy hiylalar ishlatishiga qaramay, butun qo'shinni otdan tushirib, kamondan o'q otish va yalpi hujumga o'tish yo'sini uning g'alabasini ta'minlaydi. Bu jangda Jaloliddin Manguberding o'zi mo'g'ul askarlarining o'rtasiga yorib kirib, ularning jangovar safini buzib yuborgan. Mazkur voqealardan xabar topgan Chingizxon o'zbek botirining xatarli kuch ekanligini anglab yetgan va unga qarshi hal qiluvchi jangga o'zi bosh bo'lishga qaror qilgan. Shu tariqa, Chingizxon barcha kuchlarini to'plab, G'azni tomonga yurgan. Bu paytda Parvon jangida olingan o'ljani taqsimlash borasida Jaloliddin Manguberding ittifoqchilari o'rtasida o'zaro nizo kelib chiqqan. Jaloliddin Manguberding oldindagi xavfga qarshi birga kurashish haqidagi chaqiriqlariga qaramay xalaj, afg'on va qarluq amirlari o'z qo'shinlari bilan safdan chiqib ketganlar. Keyinroq, bu guruhlarning har biri Chingizxon tomonidan alohida-alohida qirib tashlangan.

Yuqoridagi yo'qotishlar va Chingizxonning o'zi qo'shinga bosh bo'lib ke-
layotganidan xabar topgan Jaloliddin Manguberdi Sind daryosining narigi to-

¹ Xalajlar – turkiy urug'lardan biri.

² Voliyon qo'rg'onı – G'azna yaqinida joylashgan qal'a.

³ Parvon – hozirgi Afg'oniston shimoli-sharqida, G'urband va Panjshir daryolarining quyilish nuqtasida joylashgan shahar.

monida kuch to'plash uchun G'aznini tark etgan. Lekin 1221-yilning oxirlarida Sind daryosidan o'tishga tayyorlanayotgan Jaloliddin Manguberdiga mo'g'ullarning Chingizxon boshchiligidagi asosiy kuchlari hujum qiladi. Uch kun davom etgan ushbu jangning shiddati o'sha davming barcha tarixchilari tomonidan alohida e'tirof etilgan. Chingizxon o'z askarlariga unga o'q otmaslik, tiriklayin qo'lga olish haqida buyruq bergan. Askarlar tomonidan Jaloliddin Manguberdi atrofidagi halqa siqib borilib, xorazmshoh qo'shinining asosiy qismi qirib tashlangan. Jangning uchinchi kunida o'zbek o'g'lonining faqat 700 ta askari qolib, bu kuchlar bilan ham mo'g'ullarga qarshilik ko'rsatilgan. Aynan shu olishuvda o'zbek hukmdorining yetti-sakkiz yashar o'g'li dushman qo'lga tushgan va Chingizxon ko'z o'ngida o'ldirilgan. Jaloliddin Manguberdining ham tutqinlikka tushish voqelikka aylangan lahzalarda otida o'tirgan holda o'n gaz¹ va hatto, undan balandroq yerdan daryoga sakragan va qo'lida nayza, belida qilich va qalqoni bilan eson-omon narigi qirg'oqqa chiqib olgan. Buni ko'rgan Chingizxon alamidanmi yoki havasidanmi, farzandlariga qarab, «Otada o'g'il bo'lsa, mana shunday bo'lsin, suv va olovning qo'sh girdobidan qutulib ketoldimi, uning qo'lidan hali ko'p ish va sanoqsiz qo'zg'olonlar uyushtirish keladi», degan ekan.

Chindan ham shunday bo'lgan, kelgusi oylar, yillarda Jaloliddin Manguberdi Shimoliy Hindistonning qator yerlarini o'zi bo'ysundirgani, o'z nomidan tanga bostirtirib, xutba o'qitirgani ham ma'lum. Dehli sultoni Shamsiddin Eltutmish² bilan elchilik aloqalari ham o'rnatilgan. Biroq qator omillar sabab 1224-yili u mazkur o'lkalarni tashlab ketish va saltanatning hali mo'g'ullar oyog'i yetib bormagan g'arbiy bo'laklari sari yuzlanishga qaror qiladi.

Kermon, Fors, Yazd viloyatlari hokimlari anushteginiylarning endigi yetakchisini tan olib, unga xizmat qilishga bel bog'laydilar. Isfahon kuchlari ham unga qo'shilgach, 1225-yili Ozarbayjonni egallagan Jaloliddin Manguberdi tez orada Ko'nya sultonligi, Damashqda ham o'z nomidan tanga bostirib, xutba o'qitilishiga erishadi, 1226-yili Gurjiston ham uning hokimiyatini tan oladi. Shu tariqa, olti yil o'tib, o'zbek hukmdori yana eski yov – Isfahon ostonasiga lashkar tortib kelgan mo'g'ullar bilan to'qnashadi.

1227-yil 5-sentabrda yuz bergan olishuvda Jaloliddin Manguberdi dushmani tor-mor qilgan. Tirik qolgan mo'g'ullar chekinishga majbur bo'lganlar. Ammo mazkur yirik yutuq o'zbek hukmdorining siyosiy-harbiy faoliyatida eng oxirgisi bo'lgandi, desak to'g'ri bo'ladi. Negaki, keyingi yillarda G'arbiy Eron,

¹ Gaz – 0,71 metrga teng uzunlik o'lchov birligi.

² Shamsiddin Eltutmish – mamluklar sulolasining 1211–1236-yillarda Dehli sultonligini boshqargan yetakchisi.

Iroq, Sharqiy Turkiya, Kavkazortini qamrab olgan katta kenglikda yuz bergan jarayon anushteginiylar yetakchisi foydasiga kechgan emas. Mazkur hududdagi siyosiy kuchlar – xalifalik, Ko'nya sultonligi, Ozarbayjon, Gurjiston mahalliy sulolalarining barchasi Jaloliddin Manguberding sharqdan bostirib kelayotgan dahshatli kuch – Chingizxon avlodlariga qarshi tura olishini bilgan holda, uning qudrati oshib borishidan manfaatdor bo'lmaganlar. Hatto birgalashib unga qarshi harakat qilishga ham borganlar. Bu ham yetmagandek, ismoiliylar¹ mo'g'ullarga odam yuborib, ularni g'arbga yurishga ochiqdan-ochiq unday boshlashgan. Fursatdan foydalangan dushman tezda lashkar tortib kelib, Ozarbayjonga bostirib kiradi. Mo'g'ullar bilan to'qnashuvga chap berib, Mayoforiqin viloyatiga² chekinishga majbur bo'lgan Jaloliddin Manguberdi 1231-yil avgust oyining 17–20 kunlari oralig'ida Ayndor qishlog'ida³ bir kurd tomonidan tasodifan o'ldiriladi.

O'zbek hukmdorining o'limi haqida Malik Ashrafga⁴ yetkazganlarida, u shunday degani tarixiy manbalarga muhrlanib qolgan: «Nima, sizlar uning oradan ketgani bilan meni qutlamoqchimisizlar? Hali buning oqibatini sizlar, albatta, ko'rgaysizlar. Negaki, Yaratganga ont ichib aytamanki, uning halokati mo'g'ullarning musulmonlar yerlariga bostirib kirishiga yo'l ochadi, deganidir. Endi Yajuj va Majujlar⁵ bilan bizning o'rtamizda turgan xorazmshohdek devor yo'q».

E'tiborlisi, Jaloliddin Manguberdi xizmatida bo'lgan ko'plab beklar, botirlar uzoq vaqt Yaqin Sharq siyosiy-harbiy turmushida jiddiy ahamiyat kasb etganlar⁶. Chunonchi, ular Quddus va Nablus shaharlarini bo'ysundirishga erishganlari ma'lum.

Mahmud Tarobiy qo'zg'oloni. Turonni qonga botirish, vayronaga aylantirish evaziga erishilgan mo'g'ul hukmronligi tinch kechmasligi aniq edi. Negaki, ular ajdodlarimizning ozodlikka intilishdek dunyoqarashini yo'q qilolmaganlar. Buning isbotini 1238-yili kelgindilar hukmronligiga qarshi Buxoroda Mahmud Tarobiy boshchiligida ko'tarilgan xalq qo'zg'oloni misolida ko'rish mumkin. Aql-zakovati va jasorati bilan el orasida shuhrat qozongan, Tarob qishlog'ilik hunarmand Mahmud «Ey haqiqat mudofaachilari, kutish-

¹ *Ismoiliylar* – 1090–1256-yillarda Eronda, 1100–1273-yillarda Suriyada hukmronlik qilgan sulola.

² *Mayoforiqin viloyati* – Turkiya g'arbidagi shahar.

³ *Ayndor qishlog'i* – Mayoforiqin yaqinida joylashgan qishloq.

⁴ *Malik Ashraf* – Hilot hukmdori.

⁵ Malik Ashraf mo'g'ullarni shunday deb atagan.

⁶ Xorazmliklar nomi bilan mashhur bo'lgan yurtdoshlarimizning avlodlari hozir ham Misr, Suriya, Iroq, Turkiyaning qator qishloqlarida yashab kelmoqdalar.

ning imkoni yo'q, zaminni nohaqliklardan tozalash lozim, vatanni sevgan har bir kishi o'zida bor qurolni yoxud kaltak va mehnat anjomlarini olib kurashga otlansin», deya buxoroliklarni qo'zg'olonga chaqirgan. Uni tasavvuf va-killaridan biri Shamsiddin Mahbubiy¹ ham qo'llab-quvvatlagan. Uning otasi Mahmud esa o'z kitobida «Torabdan xalq xaloskori chiqmoqda va u buin shaharni ozod qiladi» deb yozib qoldirgani ma'lum. Mahmud Tarobiyning mo'g'ullarga qarshi kurashidan xabar topgan Buxoro shahri va yon atrofdagi qishloqlardan minglab kishilar unga qo'shila boshlashgan. Qo'zg'olonchilar mo'g'ul amaldorlari va mahalliy amaldorlarni yengib, shaharni egallashadi. Bunday vaziyatda Buxoro sadrlari Mahmud Tarobiy hokimiyatini tan olib, uni hukmdor deb e'lon qilishadi. Mahmud Buxoroga hukmdor bo'lgandan keyin Malik Sanjarning saroyida to'xtagan. Olomon uning orqasidan Buxoroga borgan, shaharni mo'g'ullardan tozalagan. Mahmud Tarobiy Buxorodagi Robiya saroyini o'ziga qarorgoh qilib olgan va masjidida uning nomiga xutba o'qilgan.

Bunga qarshi zodagonlar o'zlarining kuchlarini mo'g'ullar qo'shini bilan Karmanada birlashtirgan va ular Buxoroga qarab yo'l olganlar. Tarobiy va Mahbubiy ularga qarshi chiqqanlar. Ikki o'rtada kurash boshlangan paytda qo'zg'olon boshliqlari safning boshida turgan. Qo'zg'olon ko'targan dehqonlar qo'llariga bolta va xaskashlar bilan jangga kirib, amaldor va yuqori tabaqadagi kishilarni asir olib, 10 mingga yaqin mo'g'ulni o'ldirishgan. Qo'zg'olon rahbarlarining o'zlari esa oldiniga nom-nishonsiz yo'q bo'lishgan. Keyinroq mo'g'ul askarlari Tarobiy va Mahbubiyning o'q yegan jasadini topishgan. Shundan keyin qo'zg'olonning borishida o'zgarish yuzaga kelib, u muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Boshliqsiz qolgan xalq o'zlarining yo'l boshchilari sifatida Tarobiyning ukalari Muhammad va Alini tan olishgan.

Bir haftadan keyin Buxoroga ko'p sonli mo'g'ul qo'shinlari kirib kelishgan. Muhammad va Ali dushmanga qarshi qurol-yaroqlarsiz chiqishgan, natijada qo'zg'olonchilar tor-mor qilingan.

Chig'atoy ulusining paydo bo'lishi. Chingizxon vafotidan keyin uning bosqinchilik yurishlari natijasida qo'lga kiritilgan ulkan hudud o'g'illari Jo'chi, Chig'atoy, O'qtoy va To'li² o'rtasida taqsimlangan va har bir siyosiy birlik ulus deyilgan. Mo'g'ullar saltanatining poytaxti va ulug' xonning qarorgohi Qoraqurum³ sanalgan. Chig'atoyga Turonning kattagina bo'lagi – shimolda Yettisuvdan janub-

¹ *Shamsiddin Mahbubiy* – Buxoroda o'zining bilimi va nasl-nasabi bilan obro' qozongan, Mahmud Tarobiy bilan yonma-yon mo'g'ullarga qarshi kurashgan shaxs.

² *To'li* – Chingizxonning kenja o'g'li.

³ *Qoraqurum* – Mo'g'ul saltanatining 1220–1260-yillardagi poytaxti, hozirgi Mo'g'uliston markazida, O'rxun daryosi vodiysida joylashgan Xarxo'rin shahri.

da Amudaryogacha, g'arbda Xorazmning janubidan Sharqiy Turkistongacha yerlar tekkan. Shu tariqa, bosqinchilar tomonidan tuzilgan Chig'atoy ulusi paydo bo'lgan. Uning markazi oldiniga Olmaliqda¹, keyinchalik Qarshida o'mashgan.

Qattiqqo'l va shafqatsiz bo'lgan Chig'atoy mo'g'ullarning huquq va qonun-qoidalari to'plami «Yaso»ga² qat'iy amal qilib, o'z hukmronligi ostidagi hududlarning musulmon aholisidan ham unga itoat etishlarini talab qilgan. Musulmonlar uchun bu talablarni amalga oshirishi qiyin edi. Uning boshqaruv davrida islomiy qoidalarga ko'ra, ba'zi fasllarda hayvon so'yilmasligi, kunduz payti suvga tushmaslik haqidagi qonunlar qattiq talab qilinganligi sababli odamlar qiyin kunlarni boshdan kechirishgan. Norozi bo'lganlar qattiq jazolangan, hatto, o'limga mahkum qilinish holatlari ham bo'lgan.

1246–1252-yillarda ulusni boshqargan Yasu Munke³ ichkilikka berilgan va boshqaruvchilik qobiliyati yo'q zaif kishi edi. Shu sababli ham idora ishlari xotini Naishi va Bahoviddin Marg'inoniy⁴ qo'liga o'tgan. Bundan Chig'atoy ulusidagi ichki siyosiy vaziyat og'irlashgan.

Keyinchalik ham mintaqa ayol kishi – Yergena xotun⁵ tomonidan boshqarilgani ma'lum. Muborakshoh⁶ yoshligi sababli ham uning idorasi o'n yil davom etgan. Yergena xotunni taxtdan qulatgan Olg'u⁷ Samarqand va Buxoro shaharlarini idora qilishga o'zining odamlarini joylashtirgan. Ma'sudbekni⁸ o'zining moliya vaziri etib tayinlagan. Ma'sudbek Samarqand va Buxoro aholisi to'lashi lozim bo'lgan soliqlardan dastlabki to'lovni yig'ishga muvaffaq bo'lgan. Shu mablag' hisobiga Olg'u yana katta qo'shin to'plab, boshqa uluslarga qarshi harbiy harakatlarini davom ettirgan. Unga urushlarni muvaffaqiyatli olib borishida Ma'sudbek katta moliyaviy yordam ko'rsatgan. Mazkur voqealarni tahlil qilish shuni ko'rsatadi-ki, xonlar o'rtasidagi o'zaro kurashlarda eng katta og'irlik Turon shaharlari aholisi zimmasiga tushgan va bu siyosiy beqarorlik og'ir iqtisodiy tanazzulga sabab bo'lgan.

XIII asrning 60-yillariga kelib, yagona mo'g'ul saltanati parchalanib, har bir ulus mustaqil faoliyat yurita boshlagan. Shuningdek, kichik mulklarga

¹ *Olmaliq* – Ili daryosi sohilidagi vodiya joylashgan shahar, Chig'atoy ulusining dastlabki ma'muriy markazi.

² *Yaso* – 1206-yili Chingizxon tomonidan joriy qilingan mo'g'ul qonunlari to'plami.

³ *Yasu Munke* – Chig'atoy ulusini 1247–1252-yillarda boshqargan xon.

⁴ *Bahoviddin Marg'inoniy* – Yasu Munke davrida uning musulmon vaziri.

⁵ *Ergena xotun* – Chig'atoy ulusining ikkinchi xoni Qora Huloguning xotini.

⁶ *Muborakshoh* – Chig'atoy ulusining islom dinini qabul qilgan birinchi hukmdori.

⁷ *Olg'u* – 1261–1266-yillarda Chig'atoy ulusini boshqargan hukmdor.

⁸ *Ma'sudbek* – 1238–1289-yillarda mo'g'ul hukmdorlarining o'troq viloyatlardagi noibi.

egallik qilgan mo'g'ul shahzodalarning o'zlariga tegishli bo'lmagan yerlarni egallash uchun kurashlari avj olgan.

Bosqinchi siyosiy kazo-kazolarning birligini islom dinini mintaqadagi mo'g'ul shahzodalari va ularning yaqinlari e'tiqodiga aylantirishga qattiq talab bog'lagan Tarmashirinxon¹ ham ta'minlab berolmagan. Tarmashirinxon Yeti-suv va Issiqko'l atroflarida o'mashgan mo'g'ullarga e'tibor qaratmadi, degan bahonada Buzan² boshchiligida isyon ko'tarilgan. Ulusning g'arbiy bo'lagidagi shaharlar sharqiy hududlarni boshqarayotgan shahzodalar tomonidan bir necha marotaba talon-toroj qilingan. Bunday qarama-qarshilik oqibatida Tarmashirinxon G'aznaga qochishga majbur bo'lgan, yo'lda asir olinib, qatl ettirilgan.

Qozonxon hokimiyatni qattiqqo'llik bilan idora qilgan bo'lsa-da, siyosiy kuchlarning itoatsizligini butunlay yo'q qilolgan emas. Mahalliy amirlar mo'g'ul amaldorlariga hukmini o'tkazish va xon bilan raqobatlashish darajasiga yetib borishgan. Qozonxonga qarshi kurash boshlaganlar orasida amir Qazag'onning³ harakatlari alohida o'ringa ega. U barchani o'z atrofiga to'plab, Solisaroy⁴ qarorgohga aylantirgan. Shu yerda barcha mahalliy amirlarning qo'shinini to'plagan va xonga qarshi qo'zg'olon boshlagan. 1346-yilda Darayi Zangdagi⁵ birinchi jangda Qozonxonning qo'li baland kelgan bo'lsa-da, amir Qazag'on kurashni to'xtatmagan. Balki Qarshi yonida bo'lib o'tgan ikkinchi urushda uni o'ldirgan.

Bundan buyon ulus boshqaruviga nomiga chig'atoy urug'idan kimdir xon sifatida chiqarilgani holda, hokimiyat amirlar qo'lida bo'lgan. Amir Qazag'on ilk bor soxta xon sifatida O'qtoy naslidan bo'lgan Donishmandchani⁶ taxtga o'tqazgan.

Amir Qazag'on o'limidan so'ng, o'g'li amirzoda Abdulla taxtni egallaydi va poytaxtni Samarqandga ko'chiradi. U otasi tayinlagan Bayonqulixonni⁷ o'ldirib, o'miga Temurshoh o'g'lonni xonlik taxtiga o'tqazadi. Bu o'zboshimchalikdan norozi bo'lgan boshqa amirlar, jumladan, amir Bayon sulduz va amir Hoji Barlos Samarqandga yurish qilib, amirzoda Abdullani va u tayinlangan xonni haydab yuborishadi.

¹ *Tarmashirinxon* – Chig'atoy ulusini 1326–1334-yillarda boshqarib, islom dinini rasmiy davlat dini deb e'lon qilgan hukmdor.

² *Buzan* – 1334-yilda ulus taxtini egallab, Tarmashirinni qatl ettirgan shahzoda.

³ *Qazag'on* – 1346-yilda Qozonxonni o'ldirib, Chig'atoy ulusining g'arbiy qismida boshqaruvni qo'lga olgan amir.

⁴ *Solisaroy* – Amudaryo sohilidagi shahar.

⁵ *Darayi Zangi* – Hirot yaqinida joylashgan mavze.

⁶ *Donishmandcha* – 1346-yili amir Qazag'on tomonidan taxtga o'tqazilgan soxta xon.

⁷ *Bayonqulixon* – 1348-yili amir Qazag'on tomonidan taxtga o'tqazilgan soxta xon.

Boshqaruv. Ulus boshlig'i chingiziylar sulolasiga mansub ulug' xon tomonidan tayinlangan xon bo'lib, u o'z mulkining asosiy xo'jayini sanalgan. Mo'g'ullar hukmronligining yagona saltanat davrida xonni tayinlash tartibi merosiylikka asoslangan. Shunday bo'lsa-da, vorislik huquqiga ega bo'lgan shahzodani xon sifatida tasdiqlash xoqonlik qurultoyining qarori va xoqonning yorig'i orqali amalga oshirilgan. Ulus boshqaruvida xondan keyingi o'rinda turuvchi amaldor bosh vazir hisoblangan. Xoqon va xon huzuridagi vazirlar vakolati doirasida amalga oshirgan vazifasiga ko'ra, bir necha kishidan iborat bo'lgan.

Mo'g'ul saltanati tarkibiga kirgan uluslar xon boshqaruviga berilgan bo'lsa ham, ijroiya hokimiyatda ishtirok etgan ko'pgina amaldorlar to'g'ridan-to'g'ri xoqonga itoat etishgan.

Chig'atoy va uning atrofidagi davlat arkoni o'lkani boshqarishga doim ham to'liq aralashmagan, shaharlarini nazorat qilishdan ko'ra bu hududdan keladigan soliq va to'lovlar bilan qanoatlangan. Natijada, o'troq viloyatlar boshqaruviga dastlabki yillarda dorug'a¹ va uning qo'l ostidagi mansab egalaridan tashqari, deyarli, yangilik kiritilmagan. Mahalliy hokimlarning mavjud tartibga ko'ra, idora ishlarini davom ettirishiga mo'g'ul hukmdorlari qarshilik ko'rsatmagan.

Chig'atoy ulusida boshqaruv tizimi tuzilishini o'rganish natijasida uning quyidagi tartibda yo'lga qo'yilganligini ko'rsatish mumkin: 1) xon; 2) boshqaruvda ishtirok etuvchi ma'muriy birliklarning boshliqlari;

3) noiblar – (mo'g'ulcha «dorug'achi», «dorug'a» va turkiyda «bosqoq») shahar va qishloq o'troq aholisini boshqaruvchilar; 4) ma'muriy boshqaruv devoniga bo'ysunuvchi mahalliy hokimlar.

Chig'atoy xonadoni hukmronligi davrida Turon boshqaruv tizimiga kiritilgan asosiy o'zgarishlardan biri dorug'a lavozimining joriy qilinishi bo'lgan. Xoqon ulus hukmdorining hududlarni idora qilish ishiga doimiy ravishda aralashishiga yo'l qo'ymagan va dorug'achining boshqaruvini oldingi o'ringa chiqargan. Shu sababli Turon hududlari Chig'atoyning mulki bo'lishiga qaramay, rasmiy tarzda xoqon tayinlagan va unga bo'ysunadigan dorug'a tomonidan boshqarilgan.

Chingizxon bosqinining dastlabki davrlaridan boshlab, mo'g'ullarning mintaqadagi rasmiy boshqaruvchisi Mahmud Yalavoch bo'lgan. Uning vazirlik vakolati Xuroson, Amudaryo bo'ylaridan to' Xitoygacha bo'lgan hududlarda tan olingan. Shuningdek, u qo'lida katta boylik to'plagan savdogar sifatida ham mashhur edi. Boyligi butun o'lkadan olinadigan soliqlarni oldindan to'lashga ham yetadigan darajada baholangan. Qolaversa, Mahmud Yalavochning qo'l

¹ *Dorug'a* – mo'g'ul hukmdorlari nomidan o'troq viloyatlarni boshqarib turgan mahalliy boshqaruvchi.

ostida mo'g'ullarning tayanchi bo'lgan soliq yig'uvchilar, mahalliy hokimlar, harbiy ma'murlar hamda bir qator mo'g'ul harbiy qismlari ham bo'lgan.

Chig'atoy davrida u bilan Mahmud Yalavoch o'rtasidagi munosabatlar keskinlashgan. Buning sabablaridan birinchisi, xoqon nomidan o'lkani idora qilgan Mahmud Yalavochning barcha masalalarda to'g'ridan-to'g'ri Chig'atoyga emas, O'qtoygga hisobot berganida bo'lgan. Shuningdek, u yig'ilgan soliqlarni ham xoqon saroyiga yuborib turgan. Garchi, barcha masalalarda O'qtoy bilan hamfikir bo'lsa ham, bunday siyosat Chig'atoyga ma'qul kelmagan. Chunki otasi unga suyurg'ol¹ qilib bergan hududlarning asosini Mahmud Yalavoch hokimlik qilgan o'lkalar tashkil etardi.

Ikkinchi sabab esa Chig'atoy budda diniga e'tiqod qilib, mo'g'ul urf-odatlarini qat'iy bajargani, Mahmud Yalavoch esa shariat qoidalariga rioya qilgan musulmonlarga nisbatan xonning harakatlariga qarshi chiqqani bo'lgan. Bundan tashqari, Chig'atoy uning vayronaga aylangan shahar va qishloqlarni qayta tiklash, iqtisodiy va madaniy hayotni izga solishga e'tibor qaratayotganidan ham norozi edi. Shu tufayli Chig'atoy uni hokimiyatdan chetlatish yo'llarini izlagan. Chig'atoy Mahmud Yalavochni boshqaruvdan 1238-yili Buxoroda mo'g'ullarga qarshi Mahmud Tarobiy boshchiligidagi ko'tarilgan qo'zg'olon sabab chetlashtirishga erishgan. Shundan so'ng, u O'qtoy tomonidan Pekinga hokim etib tayinlanib, 1254-yildan to umrining oxirigacha shu shaharni boshqargan.

Mahmud Yalavoch boshqaruvdan chetlashtirilgandan keyin uning o'rniga bu paytda O'qtoy huzurida xizmat qilayotgan o'g'li Ma'sudbek dorug'a etib tayinlanadi. Ma'sudbek Turfon hududlaridan to Xorazmgacha bo'lgan o'troq aholining siyosiy va iqtisodiy-ijtimoiy hayotiga oid bo'lgan barcha masalalarni hal qilish huquqiga ega bo'lgan. Munkaxon² davrida Ma'sudbek uyg'urlar yurtini ham boshqaradi. Garchi, siyosiy hayotda keskin o'zgarishlar ro'y berib turganiga qaramasdan, u bu vazifada umrining so'nggiga qadar o'tiradi. Dastlabki davrlarda Ma'sudbekning boshqaruvdagi vakolati deyarli yarim saltanat doirasida tan olingan. Keyinchalik, Chig'atoy xonlari boshqaruvda mustaqillikka erishgach, u asosan, ulus hukmdorlariga xizmat qilgan. Ma'sudbekdan keyin uning o'g'illari ham otasining ishlarini mo'g'ullarning o'troqlikka ko'chish davri boshlangunga qadar davom ettirishgan. XIV asrning boshlaridan o'troq viloyatlarni boshqarish dorug'alarning emas, bevosita xonlarga bo'ysunuvchi mahalliy hokimlarning qo'liga o'tgan.

¹ *Suyurg'ol* – alohida xizmat ko'rsatgan amaldorlar va sarkardalarga hukmdor tomonidan berilgan mol-mulk, yer-suv.

² *Munkaxon* – 1251–1259-yillarda mo'g'ullar saltanatining yetakchisi.

Ijtimoiy-iqtisodiy hayot. Mo'g'ullar bosqini oqibatida Turonning iqtisodiy va madaniy markazlari bo'lgan shaharlar hamda dehqonchilik vohalari vayronaga aylangan. Yirik shaharlarni suv bilan ta'minlovchi inshootlar, to'g'onlarning barchasi Chingizxon topshirig'i bilan buzib tashlangan edi. Shu tariqa, o'lka iqtisodiy hayoti butunlay izdan chiqib, tanazzulga uchragan. Og'ir soliq siyosati, chingiziy xonlar o'rtasidagi tinimsiz o'zaro urushlar uni yanada kuchaytirib borgan.

Bu ham yetmagandek, mo'g'ul xonlarining ko'chmanchilik odatlariga ko'ra, viloyatlarga bosqinchilik uyushtirib turganlari shaharlar iqtisodiyoti uchun eng halokatli holat sanalgan. Bu harakatlar, ayniqsa, XIII asming 60-yillarida avj olib ketadi. Chunki Chig'atoy xonlarining mintaqada mustaqil davlat birlashmasini tuzish uchun olib borgan o'zaro urushlari katta mablag' talab qiladi. Bundan tashqari, niyatlarini amalga oshirish yo'lida Olg'u va Baroqxon o'z harbiy bo'linmalariga Buxoro va Samarqand aholisini talon-toroj qilishga bir necha bor ruxsat berishgan.

Bunday talon-torojlar va aholiga qilinayotgan zulmning oldini olishga qaratilgan birinchi qaror 1269-yilgi Talas qurultoyida qabul qilinadi. Unga ko'ra, xon va shahzodalarning shaharlarga kelib o'rnamasdan o'z an'analari bo'yicha tog'lar va dashtlarda yashashi, chorva mollarini ekin ekiladigan yerlarga haydab yubormasligi va hech qanday sababsiz o'lja ilinjida qishloqlarni talamasligi belgilab qo'yilgan. Shuningdek, qonunda belgilangan soliq va o'lponlardan tashqari hunarmandlardan boshqa mahsulotlar talab qilmaslik, shahar va qishloq aholisini, ularning mol-mulklarini himoya qilish sharti qo'yilgan. Biroq qabul qilingan bu majburiyatlar ma'lum vaqtgacha chingiziy shahzodalar tomonidan bajarilmagan.

Mo'g'ullar saltanati doirasida to'rtta soliq turi joriy qilingan bo'lib, hunarmand va savdogarlardan «tamg'a», chorvachilardan «qopchun» va dehqonchilik mahsulotlaridan olinadigan «kalon» doimiy tarzda to'lab berishgan. O'troq aholidan tashqari ko'chmanchilar mahsulot tarzida to'laydigan soliq «shulen» deb nomlangan. Bunda har bir podadan ikki yashar qo'y, qimiz uchun har mingta otdan bir biya olingan. To'rtinchi soliq esa bir yilda bir marta mo'g'ul hukmdorlarini sharaflash uchun ularga bo'ysunuvchi xalqlardan yig'ib olingan.

Chig'atoy ulusidagi soliq tizimi ham shunga asosan, 1230-yilda Mahmud Yalavoch tomonidan ishlab chiqilgandi. U ayni paytga qadar mavjud bo'lgan an'anaviy soliq tizimini ham saqlab qolib, bosqinchilar kiritgan yangi soliq tartibini o'rnatgandi. Bu davrda dehqonlar va chorvachilardan tashqari yana bir asosiy soliq to'lovchi guruh – hunarmandlarning ahvoli yanada og'irlashgan. Mo'g'ullarga qarashli bo'lgan harbiy qurol-aslaha va anjomlar ishlab chiqaradigan ustaxonalarda hunarmandlar og'ir sharoitlarda ishlashgan.

¹ Baroqxon – 1266–1271-yillarda Chig'atoy ulusi hukmdori.

Shuningdek, aholisining katta qismini mahsulot ishlab chiqaruvchilar tashkil qiladigan Chig'atoy ulusida xonlar soliq yig'imi borasida ko'pgina muammolarga duch kelishgan. Bunda asosiy masala xalqning ikkiyoqlama: ham ulus xonlari, ham ulusni boshqarayotgan mahalliy hukmdorlar foydasiga an'anaviy soliqlarni to'lashi bilan bog'liq edi.

Mo'g'ullar davrida soliqlarning undirilish tartibida ham o'zgarishlarni kuzatish mumkin. Jumladan, xoqon xazinasi uchun yuboriladigan soliqlar xonlar va ularning vakillari tomonidan barot (ijara) tarzida oldindan yig'ilib markazga yuborilgan. So'ngra aholidan belgilangan miqdordan oshirilgan holda turli qarshiliklarga qaramay, zo'ravonlik bilan undirib olingan.

Chingizxon istilosi va mo'g'ul shahzodalari o'rtasidagi doimiy urushlarning Turon xalqlari uchun keltirgan og'ir oqibatlaridan biri sifatida aholi sonining keskin kamayishi va ijtimoiy jihatdan muammolarning ko'payib ketishi deb hisoblash mumkin.

Chingiziylar hukmronligi davrida aholining soni keskin kamayib ketgan bo'lsa-da, ijtimoiy jihatdan avvalgi tarkibiy tuzilishini saqlab qolgan. Ular orasida mo'g'ullargacha va keyingi davrlarda bo'lganidek, diniy ulamolar vaqf mulklari hisobidan aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlagani ham bu davrdagi muhim hodisa hisoblanadi. Aynan vaqf mulklaridan keladigan foydadan ta'minlanuvchilar safida vaqf ta'sischilaridan tashqari imom, shayx, mutavvali, muazzin, xizmatchi, oshpaz va omborchilar bo'lgan. Shu bilan birga, Qur'on o'qishni o'rganuvchi bolalarga, yetimlarga ustozlik qiluvchilar ham vaqf mablag'i hisobidan kun kechirishgan.

Aholining iqtisodiy ahvoli nihoyatda og'ir bo'lgani sharoitida vaqf xonAQolari kambag'allarni va tashrif buyuruvchi boshqa kishilarni ijtimoiy himoyalovchi asosiy manzil vazifasini o'tagan. Kelgan odam doimo issiq ovqat, non, quruq va ho'l meva bilan kutib olinadi. Bu yerga tashrif buyurgan har qanday kishiga e'tibor qaratilgan. Har bir musofir fuqaroga kunlik oziq-ovqat miqdori belgilangan.

Ijtimoiy hayotda hunarmandlar va dehqonlar – mahsulot ishlab chiqaruvchilar ham asosiy soliq to'lovchilar sifatida mo'g'ul boshliqlarining doimiy e'tiborida edi. Dehqonlar orasida mo'g'ullar hukmronligi yillarida ham ulargacha bo'lgani singari yerga ishlov beruvchi asosiy guruhlardan biri kadivarlar¹ deb nomlangan. Buxoro vaqf hujjatidagi ma'lumotga ko'ra, kadivarlar yirik yer egalari, dindorlar va oqsuyaklarning yerlariga ishlov berishgan.

¹ Kadivarlar – mo'g'ullar davrida yirik yer egalari, dindorlar va oqsuyaklarning yerlariga ishlov bergan aholi qatlami.

Kadivarlardan tashqari yana yer maydonlari, bog'larda ishlovchilar bog'bon va muzori¹ deb atalgan.

Ma'naviy turmush. Mo'g'ullar bosqini va hukmronligi Turon ilm-fan va madaniy turmushiga salbiy ta'sir ko'rsatishi tabiiy edi. Ko'chmanchi siyosiy tafakkurga ega, siyosiy va iqtisodiy manfaatni ustun ko'rgan chingiziylarning yuqorida aytilgan, ajdodlarimiz uchun an'anaviy sanalmish yo'nalishlar rivoji uchun biror urinish qilganlariga oid misollar yo'q. Shu bilan birga, inson ma'naviy hayoti bilan bog'liq tasavvuf borasida bunday deb bo'lmaydi.

Shayx Najmiddin Kubro shogirdlaridan Sayfiddin Boxarziy Buxoroda faoliyat olib borib, kubraviya tariqati rivojiga katta hissa qo'shdi va uning ta'sirida ushbu tariqat Oltin O'rda² xoni Berkaxon³ davrida xonlikning katta hududiga yoyildi. Munkaxonning onasi o'zi barpo etgan «Xoniya» madrasasiga Sayfiddin Boxarziyni mudarris etib tayinlagani ma'lum.

Mo'g'ul hukmdorlari orasida ham katta mavqega ega Sayfiddin Boxarziyga ular katta in'omlar berishgan va bu berilgan mol-mulkdan keyinchalik, asrlar davomida uning avlodlari ham foydalanib kelishgan. Chig'atoy xonlarining tasavvuf vakillariga nisbatan bunday yo'l tutishiga sabab mahalliy aholi orasida ularning mavqeyidan foydalanib o'z siyosatlarini yuritish bo'lgan.

1266-yil chig'atoy xonlaridan birinchi bo'lib Muborakshoh islom dinini qabul qiladi. Uning o'rniga taxtga o'tirgan Baroqxon ham vafotidan bir muddat oldin, 1270-yili islom dinini qabul qiladi. Lekin Chig'atoy ulusi kuchli siyosiy parokandalikni boshidan kechirayotgan bir sharoitda bu ikkala xon tashabbusi davlat siyosatiga aylangan emas.

XIV asrning dastlabki yillarida Chig'atoy ulusi taxtiga yana bir musulmon hukmdor Taliqixon⁴ keladi. U qo'shin boshliqlarini ham islom dinini qabul qilganlardan tayinlashga urinib ko'radi, lekin bunday siyosat uning taxtdan ag'darilishiga olib keldi. Esan Buqa⁵ ham musulmon bo'lgani bilan musulmonchilikni rosmiyan tan olgan chingiziy hukmdor Tarmashirinxondir. U Chig'atoy ulusi taxtiga o'tirgach, islom diniga e'tiqod qilishi bilan birgalikda musulmoncha Aloviddin ismini ham qabul qiladi va unga Sulton al-a'zam degan unvon beriladi. Tarmashirin taxtga kelguncha Qashqadaryo vohasida

¹ *Muzori* – yer maydonlari, bog'larda ishlovchi bog'bonlar.

² *Oltin O'rda* – Dunay daryosidan Irtish daryosigacha bo'lgan ulkan hududni qamrab olgan Jo'ji ulusi.

³ *Berkaxon* – 1257–1267-yillarda Oltin O'rda taxtini boshqargan hukmdor.

⁴ *Taliqixon* – 1308-yilda Chig'atoy ulusi taxtini boshqargan hukmdor.

⁵ *Esan Buqa* – 1309–1318-yillarda Chig'atoy ulusini boshqargan hukmdor.

yashagan. Uning islom dinini qabul qilishi va bu dinga e'tiqod qilishida aynan shu hududda yashovchi shayxlar va islom ulamolarining ta'siri katta bo'ldi. Ular sirasida Shayx Shamsiddin Kulol va Imom Husomiddin Yog'iy¹ni tilga olish mumkin.

Tarmashirinxon tomonidan islom dinining qabul qilinishi Chig'atoy usuli hukmdorlarining islomlashuviga sabab bo'ldi. Bu davrda islom dini uzil-kesil mo'g'ul xonlari va ularning yaqinlari e'tiqod qiluvchi dinga aylandi.

Tasavvufiy asarlar shakl jihatdan nasr va nazmda yozilgan hamda mazmunan har xil: manoziblilar va maqomotlar, tasavvuf nazariyasi, tasavvufiy atamalar izohidan iborat kitoblardir. Yuqorida sanab o'tilganlar orasida temuriylar davrida yaratilgan tasavvufiy manbalarning aksari qismini xojagon-naqshbandiya tariqatiga bag'ishlangan asarlar tashkil qiladi.

Bu davr tasavvufining yirik namoyandalaridan biri Xoja Ali Romitoni (XIII asr o'rtalari) bo'lib, u mo'g'ullar davrida Buxoroda naqshbandiya tariqatining ko'zga ko'ringan vakillaridan hisoblangan. Uning «Tarixi azizon» asari mashhur bo'lib, unda tasavvuf maqomlari xususida so'z yuritilgan. Xojagon ta'limoti Buxoroda Bahoviddin Naqshband va uning xalifalari tomonidan davom ettirildi, yangi bosqichda rivojlandi va fanda xojagon-naqshbandiya tariqati nomini oldi.

¹ Imom Husomiddin Yog'iy – Qashqadaryo viloyatida yashagan mashhur tasavvuf shayxlaridan biri.

XIV. TEMURIYLAR BOSHQARUVI DAVRI

Amir Temur XIV asrning 60-yillari Turonda yuzaga kelgan siyosiy vaziyat Nizomiddin Shomiyning quyidagi guvohligida yaqqol ko'rinadi: «Bu vaqtda Kesh viloyatida¹ Hoji barlos, Xo'jandda amir Boyazid, Balx va ba'zi viloyatlarda amir Qazag'onning nabirasi amir Husayn, Shibirg'onda amir Muhammadxoja, Badaxshonda ham mahalliy hokimlar, Xatlon² va Arhangsaroyda³ amir Kayxisrav va amir O'ljoytu, Samarqand viloyatida esa amir Xizr Yasovuriy o'z bilganicha hokimlik qilishardi. Ulardan har biri oliy taxtni qo'lga kiritish payida bo'lganliklari xususida shubha qilmasa ham bo'ladi. Bu borada, ayniqsa, amir Husayn tirishqoqlik ko'rsatardi. U o'zini amir Qazag'on avlodi sifatida ulug' amirlik rutbasiga voris deb bilardi».



Amir Temur

Chig'atoy ulusining g'arbiy bo'lagida hokimiyat qo'ldan ketgani sharoitida uning sharqiy bo'lagi – tarixiy Mo'g'ulistondagi⁴ bir qator nufuzli mo'g'ul amirlari Tug'luq Temurni⁵ xon deb e'lon qiladilar. Shu tariqa, mintaqada chingiziylar hukmronligini rasman qo'ldan bermaslik ishini pishirgach, g'arbiy viloyatlarda ham chig'atoylar hukmini qaytadan tiklash uchun 1360-yili bu yerga lashkar tortadilar. Tug'luq Temur boshchiligida kechgan ushbu yurish munosabati bilan tarixiy manbalarda ilk bor Amir Temur nomi tilga olinadi.

Amir Temur 1336-yil 9-aprelda Shahrisabz yaqinidagi qishloqlardan birida dunyoga kelgan. O'sha zamon yulduzshunoslik ilmiga ko'ra, u dunyoga

¹ Kesh viloyati – Qashqadaryo viloyati.

² Xatlon – Xuttalon.

³ Arhangsaroy (Hazrat Imom) – hozirgi Afg'onistonning Balx viloyatidagi shahar.

⁴ Tarixiy Mo'g'uliston hozirgi Qozog'istonning janubi-sharqi, Qirg'iziston va Xitoyning Sizinyan – Uyg'ur muxtor viloyatiga to'g'ri keladigan tarixiy makon.

⁵ Tug'luq Temur – 1360–1363-yillarda tarixiy Mug'uliston hukmdori.

kelgan sana Zuhra va Mushtariy (Zuhra va Quyosh) sayyoralari burjlar aylanasining ma'lum bir darajasida to'qnashishi vaqti – qironga to'g'ri kelgan. Uning, ya'ni qironning egasi – Sohibqiron kelgusida baxtli, ulug' bo'lishi oldindan bashorat qilinadi.

Uning otasi Tarag'ay bahodir viloyatning atoqli va o'ziga to'q amirlardan biri bo'lgan. U o'g'li Temurga ham dunyoviy, ham diniy ilmlar olishi uchun tegishli sharoit yaratib bergan. Tug'ma iste'dod va o'tkir xotira egasi bo'lgan Amir Temur turli soha ilmlarini o'zlashtirishda g'oyatda tirishqoqlik bilan harakat qilgan, albatta. Shuning uchun ham o'sha zamon tarixchilari uning tarix, she'riyat, tibbiyot, matematika, astronomiya, me'morchilik borasidagi salohiyati haqida alohida so'z aytib o'tishgan. Amir Temur kitob mutolaa qilishni hech kanda etmagani, shaxmat o'yinida katta mahoratga ega bo'lgani yaxshi ma'lum.

Uning xotirasi nechog'lik yuqori bo'lganiga ishora bo'lgan bir rivoyatga ko'ra, Amir Temur Sherozni bo'ysundirgandan so'ng o'z odatiga ko'ra shaharlik olim-u fozillarni suhbatga chorlab, turli mavzularda bahs o'tkaza boshlaydi. Yig'ilganlar orasida mashhur shoir Hofiz Sheroziy ham bo'lib, Qur'oni karimni yoddan, o'n to'rt ohangda o'qiy biladigan hofiz sifatida ham shuhrat qozongan edi. Temur unga, sen hofiz bo'lsang, «Arofab» surasini oxiridan boshiga qarab oyatma-oyat o'qib berginchi, deb murojaat qilganda, u bunday qilish mumkin emas, degan ekan. Shunda Sohibqironning o'zi yig'ilganlar tanlagan «Baqara» surasini oxiridan boshiga qarab, oyatma-oyat yoddan o'qiy boshlab, yettinchi oyatga yetganida to'planganlar hayratdan tahsinlar aytishgan ekan¹.

Yoshligidanoq g'oyatda bilimli, keng dunyoqarashli, tirishqoq, noyob iste'dod egasi bo'lgan Amir Temur o'lka siyosiy doiralari ham o'z o'rniga ega bo'lib borgan. Shu bilan birga, uning tanilishida otasi amir Tarag'ay tutgan mavqening ta'siri bo'lganini ham ko'zdan qochirib bo'lmaydi, albatta. Nima bo'lganda ham, Tug'luq Temurxonning yuqorida tilga olingan yil fevral-mart oylaridagi yurishi vaqtida Amir Temur o'ziga yarasha siyosiy faoliyat yurgizishga qodir, el-yurt oldida o'z burchini anglab ulgurgan shaxs sifatida yetilib bo'lgandi, deyish mumkin.

Amirlardan Xizr Yasovuriy va Boyazid Tug'luq Temur qarorgohiga bosh egib borishadi. Kesh hokimi Hoji barlos esa Xuroson tomon jo'nashga jazm qiladi. Amudaryo bo'yiga yetganida uning xizmatida bo'lgan Amir Temur unga shunday degan: «Agar ikkovimiz ham vatanni tark etsak, merosiy yurtimiz shubhasiz begonalar qo'lga o'tib ketadi. Lozim topsangiz men pod-

¹ Tarixiy manbalarda Amir Temurning 1384-yili, ya'ni Hofiz Sheroziy hali tirikligi paytida Sherozda bo'lgani haqida ma'lumotlar bor.

shoh (Tug'luq Temur) xizmatiga borsam». Merosiy mulkimiz deganda bu yerda Amir Temur Kesh viloyatini ko'zda tutgani aniq. Mo'ljali ham oydin: Tug'luq Temurxondan Kesh viloyati hokimligini olish.

Haqiqatan ham shunday bo'lib chiqqan: nufuzli amirlardan Hoji Sayfiddin yordamida Amir Temur Tug'luq Temurxon qabuliga boradi. Amir hoji Sayfiddin Sohibqironning fahm-farosati va salohiyati, o'z zamonasi uchun qadrlı bo'lgan nasl-nasabi haqida tahsinli so'zlarni aytib, Tug'luq Temurxon oldida uning obro'-e'tiborini ko'taradi. Natijada, Amir Temurga Kesh viloyati hokimligi topshiriladi. Bu vaqtda u 24 yoshda edi.

Tug'luq Temurning bu yurishidan keyin mintaqaning g'arbida yana chingiziylar xonadoni mavqeyi tiklanganday bo'lib ko'rinsa-da, aslida mahalliy yirik amirlar hanuz mustaqil siyosat yuritishga intilishardi. Shuning uchun ham kelasi yili bahorda Tug'luq Temurxon yana bir bor katta qo'shin bilan bostirib keladi. Bu safar ham Amir Temur Kesh viloyati hokimligi mavqeyiga erishadi. Bunda unga otasining do'sti amir Hamid yordam beradi. Ammo bu hol uzoqqa cho'zilmaydi. Chunki ketish oldidan o'g'li Ilyosxo'jani qoldirgan Tug'luq Temurxon o'zining ishonchli amirlaridan Begchikni undan boxabar bo'lib turishga tayinlagandi. Amir Begchik esa tez orada mahalliy amirlar bilan kelishmovchilik va ularga nisbatan tazyiq o'tkazish yo'lini tutadi.

Bunday vaziyatda Amir Temur Keshda va umuman, o'lkada qololmasdi. Shunga ko'ra, u vatanni tark etib, keyingi deyarli to'qqiz yil davomida amir Husayn bilan avval yonma-yon, so'ngra qarama-qarshilikda faoliyat ko'rsatadi.

Bobosi amir Qazag'on davridagi o'z xonadoni mavqeyini tiklash niyatida bo'lgan, Tug'luq Temurxonning so'nggi bosqinida unga qarshi chiqib, lekin kuchi yetmay Amudaryo ortiga chekingan amir Husayn mavqeyi mahalliy siyosiy doiralar orasida baland edi. Ushbu sharoitda, chingiziylar hukmronligiga uzil-kesil chek qo'yish maqsadida yonayotgan Amir Temur uchun u tomon intilish tabiiy edi. Demak, umumiy dushmanga qarshi kurash ularni birlashtirgandi. Natijada, 1363–1364-yillarda qilingan urinishlar Ilyosxo'jani qochishga majbur qilgan. Husayn ulug' amirlik maqomiga erishadi, xuddi bobosi davridagidek chingiziyulardan bo'lmish Qobilshohni¹ rasman xon deb e'lon qilsa-da, butun hokimiyat o'zining qo'lida mujassamlashgandi. Amir Temurga esa yana Kesh viloyatini boshqarish nasib etadi. Ammo tinchlik uzoqqa cho'zilmagan.

1365-yil bahorida Mo'g'ulistondan lashkar tortib kelgan Ilyosxoja amir Husayn va Amir Temur boshliq lashkarni mag'lubiyatga uchratadi. Bu voqea 22-mayda Toshkent va Chinoz oralig'ida, qattiq yog'ingarchilik sharoitida sodir bo'lgan (shuning uchun ham bu olishuv «Loy jangi» deb tilga olinadi).

¹ Qobilshoh – 1364–1370-yillarda soxta xon.

Mag'lub tomon, jumladan, Amir Temur ham Amudaryo orqasiga chekinishga majbur bo'ladi. Samarqandga qilgan yurishlarida sarbadorlar tomonidan qaqshatqich zarba egan mo'g'ullar ham ortga qaytib ketishadi.

Sarbadorlar g'alabasi haqidagi xabar avval Amir Temurga va u orqali amir Husaynga yetib borgan. 1366-yil bahorida ular Samarqandga kelishadi va Konigilda² o'tkazilgan g'alaba marosimida amir Husayn buyrug'i bilan sarbadorlarning yo'l boshchilari va aftidan, faol ishtirokchilari qatl qilinadi. Amir Temurning aralashuvi tufayligina Mavlnozodaning³ hayoti saqlab qolinadi.

Amir Husaynning bunday qarorini tushunish qiyinmas. Gap shundaki, sarbadorlar g'alabasidan so'ng samarqandliklar Mavlnozoda itoatiga o'tib, uni «imom va amir (sifatida) qabul qilishgan». Ya'ni Samarqandda ham diniy, ham siyosiy hokimiyat Mavlnozoda qo'lida mujassamlashgan edi. Uning bu «imomligi va amirligi» deyarli bir yil davom etgan. Boshqacha aytganda, amir Husayn Samarqand uchun «ortiqcha» bo'lgan.

Amir Husayn uchun o'z siyosiy raqiblarini zaiflashtirish va mavridi kelsa, ulardan qutulish siyosati nechog'lik muhim bo'lganini Konigil voqeasidan so'ng yuz bergan jarayon orqali ham bilib olish mumkin. Chunonchi, u Amir Temurning bir qator safdoshlari va yaqin amirlariga nisbatan tazyiq o'tkaza boshlaydi. Ular orasida Sohibqironning qarindoshi amir Joku, yuqorida tilga olingan amir Sayfiddin ham borligi aytilsa, amir Husayn ko'zlagan reja yanada oydinlashadi. Qisqasi, 1366–1370-yillar Amir Temur va amir Husayn o'rtasida kurash yillari bo'ladi va u Sohibqiron g'alabasi bilan tugaydi.

1370-yil 9-aprel chorshanba kuni nufuzli amirlar-u sardorlar, sayyid Baraka, termizlik aka-uka sayyidlar Abul Maoliy va Ali Akbar kabilar qo'llashlari tufayli Amir Temur hokimiyati bir ovozdan tan olinadi. Bu vaqtda Amir Temur endigina 34 yoshga kirgandi. Shu tariqa, mo'g'ullarga 150 yillik siyosiy qaramlik, yurtdagi boshboshdoqlik, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotdagi qoloqlik davriga rasman chek qo'yilib, yurt mustaqilligi tiklangan.

Amir Temur davlat boshqaruvini o'z qo'liga olgan bo'lsa-da, mavjud shart-sharoitda amaliy qadamlar qo'yib borish nihoyatda og'ir edi. Ushbu sharoitda, mamlakatda biror-bir viloyat yoki ijtimoiy tabaqa doirasida kattagina mavqega ega bo'lgan amirlarni siyosiy jihatdan birlashtirish zarur edi. Shuning

¹ *Sarbadorlar* – 1365-yili Samarqandda mo'g'ullar bosqiniga qarshi ko'tarilgan xalq harakati.

² *Konigil* – Samarqand janubi-sharqida, Chorvaota tepaligi etagidagi yaylov.

³ *Mavlnozoda* – 1365–1366-yillarda Samarqandda faoliyat yuritgan sarbadorlar yetakchilaridan biri.

uchun ham mazkur yil o'rtalarida Samarqandda o'tkazilgan qurultoyda Amir Temur barcha viloyatlardan nufuzli amirlar, lashkarboshilarni yig'ib, har birining mavqeyi va martabasiga qarab biror-bir mansab va mulk (viloyat, tuman, shahar) taqsimlab beradi, kattadan-katta sovg'alar ulashadi. Sohibqiron o'z «Tuzuklar»ida bu haqida, jumladan, shunday yozgan: «Bulardan mol-dunyoga hirs qo'ygan ochko'z va tamagirlariga mol-mulk va'da qildim, mansab-martabaga va mamlakatlarni boshqarishga ko'z tikkan amalparastlarga qo'lim ostidagi mamlakat va viloyatlardan birining hokimligini berdim».

Ikkinchi tomondan esa, el-yurtning g'amini ham yeyish lozim edi. Shuning uchun ham Amir Temur chiqargan ilk buyruqlarda yo'llardagi xavfsizlik, pochta, qatnov vositalarini ta'minlash, qo'shinlar yurishi, janglar oqibatida xarob bo'lgan yerlarni obod etish, rabotlar (mehmonxonalar, to'xtash joylari), xonaqohlar qurish, kambag'al va miskinlar uchun xayrxonalar ochish haqida so'z ketgan. Shuningdek, u sayyidlar, din peshvolari, qozilar, shayxlarga, ya'ni musulmon jamiyatida o'ziga xos mavqe va ta'sirga ega tabaqaga katta ikrom bilan qarashini bildiradi. Bu bilan u uzoq yillar davomida mamlakat hayotini qamrab olgan jamiyat taraqqiyoti va istaklariga zid bo'lgan jarayonga chek qo'yilgani va bundan buyongi hayot jamiyatning turli tabaqalari (din peshvolari-yu olimlardan to miskin-u savdogarlargacha) manfaatida qurilishini bildiradi.

Birgina Mo'g'ulistonning o'ziga yetti marta qo'shin tortishga to'g'ri kelgani, uning yetakchisi amir Qamariddinni 1390-yilga kelib uzil-kesil tor-mor etilishi Turon siyosiy yaxlitligiga erishish oson bo'lmaganini ko'rsatadi, albatta.

Shimoldan Oltin O'rda kuchlarining an'anaviy xavfi hanuz saqlanib qolgan edi. Garchi, o'zbek hukmdori mazkur xatarni To'xtamishxon omili orqali yo'qqa chiqarish rejasini tuzgan bo'lsa-da, biroq Sohibqiron qo'llashi bilan o'rda hukmdoriga aylangach, u tuz haqini unutish yo'liga o'tadi. 1385-yili Kavkaz orqali Tabrizga, 1388-yili Buxoroga bostirib boradi, talon-toroj bilan shug'ullanadi. 1391 va 1395-yillardagi ikki urinishdan so'ng Amir Temur To'xtamishxon siyosiy faoliyatiga nuqta qo'ygan va Oltin O'rdani Samarqandga qaram qilgan.

To'xtamishxonga qarshi 1391-yilgi yurishga oid ma'lumotlar tarixiy manbalardan tashqari hozirgi Qozog'istonning Jezqazg'an shahridan 50 km g'arbdagi Qarsaqpay koni yaqinidagi Qoramo'la tog'i yon bag'ridagi Ulug'tog'da ham saqlanib qolganini aytish lozim. Shu yerga 28-aprelda yetib kelgan o'zbek hukmdori katta toshdan minorasimon belgi yasattirib, quyidagi so'zlarni yo'nib-bitib qo'yishni buyuradi: «Tarix yetti yuz to'qson uchinda, qo'y yili yoz (ko'klam) oyi orasi Turonning sultoni Temurbek uch yuz ming

¹ To'xtamishxon – To'yxoja o'g'lon o'g'li, 1380–1395-yillarda Oltin O'rda xoni.

sherik bilan islom uchun Bulg'or xoni To'xtamishxonga qarshi yurdi. Bu yerga yetib, belgi bo'lsin deb, bu tepani qurdi. Tangri nusrat bergay, inshaalloh. Tangri el kishiga rahmat qilg'ay, bizni duo bila yod qilg'ay»¹.

Amir Temur o'zbek davlatini buyuklik darajasiga ko'tarish, yurtni butun dunyo siyosiy, iqtisodiy, madaniy markaziga aylantirishni o'ziga bosh maqsad qilib qo'ygan edi. Qolaversa, kishilik sivilizatsiyasi o'choqlaridan biri bo'lgan Turon Sharq va G'arbning o'ziga xos siyosiy markazlaridan biri vazifasini o'tab kelayotgan o'lka sanalgan. Buning isbotini o'zbek xalqining eng qadimgi zamonlardan Chingizxon bosqiniga bo'lgan deyarli ikki ming yillik katta bosqichda kechgan tarixi bayonlarida ko'rish mumkin.

Chindan ham, Turon, Eron, Xuroson, Shimoliy Hindistonni o'z ichiga oluvchi ulkan hudud asrlar davomida siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy mushtaraklik, yaxlitlik, yaqinlik sharoitida yashab kelgan. Uzoqqa bormay, o'zbek davlatiga anushteginiylar boshchilik qilgan davrni eslash yetarli bo'ladi. Xorazmshohlar mazkur ulkan hududni bir markaz atrofida birlashtirishga uringanlari va bu borada salmoqli yutuqlarga erishganlari tarixda o'z aksini topdi. Mohiyat e'tibori bilan olganda, ushbu maqsadga somoniylar, qoraxoniylar, g'aznaviylar, saljuqiylar ham intilganlari ma'lum. Tilga olingan kenglikda o'z vaqtida kushoniylar, eftaliylar, ashinaliylar ham ot o'ynatishgan, xuddi shunday niyatga eronlik sasoniylar sulolasi ham intilgan.

Demak, Amir Temur Turon kengliklaridan tashqarida ot surishi turgan gap edi. Eng muhimi, o'rta asr xalqaro maydoniga xos siyosiy va iqtisodiy raqobat qonunlari o'zgacha siyosat yuritishga yo'l ham bermasdi.

XIV asrning 80-yillarida hozirgi Afg'oniston va Eron, 90-yillarida esa Iroq, Kavkaz, Shimoliy Hindiston o'zbek davlatiga bo'ysundirilgan. 1402-yilning 20-iyulida Anqara shimoli-sharqidagi Chubuk daryosi vodiysidagi olishuvda Amir Temur Yildirim Boyazidni² yenggach esa usmoniylar³ qo'l ostida bo'lgan barcha o'lkalar o'z-o'zidan temuriylar qo'lga o'tadi.

Ushbu voqea haqida xabar topgan Nosir Faraj temuriylar yetakchisini tan olishga majbur bo'ladi.

Shu tariqa, markazi Samarqand bo'lgan, O'rta dengizdan Xitoygacha, Moskvadan Dehligacha yastangan ulkan saltanat yuzaga keladi. O'zining ikki ming yildan ortiq tarixida o'zbek davlati ilk bor mana shunday kenglikda yastangan edi desak, har jihatdan to'g'ri bo'ladi. Uni yanada kuchaytirish niyati-

¹ Mazkur tarixiy bitik o'yib yozilgan tosh lavha hozirda Rossiyaning Ermitaj muzeyida saqlanmoqda.

² *Yildirim Boyazid* – 1389–1402-yillarda usmoniylar yetakchisi.

³ *Usmoniylar* – 1299–1922-yillarda Turkiya davlatini boshqargan sulola.

da Xitoy harbiy safariga o'tlangan Amir Temur qattiq shamollash oqibatida 1405-yil 18-fevral kuni O'trorda vafot etadi.

Amir Temur yetakchiligi davri o'zbek davlatchiligi tarixidagi eng yorqin bosqich sanaladi. Mazkur yillarda davlatning, umuman, o'zbek xalqining ichki va tashqi siyosatdagi imkonlari, salohiyati to'la-to'kis namoyon bo'ldi. Aynan Sohibqiron sharofati bilan yurt mo'g'ullarning 150 yillik hukmronligidan uzil-kesil xalos bo'lgan. O'zbek xalqi o'tmishidagi ikkinchi, jahon tarixidagi uchinchi Uyg'onish bosqichining tamal toshini ham u qo'yib bergan edi.

Amir Temur umrining eng so'nggi daqiqalarigacha faqat bir narsani – el-yurt osoyishtaligi va ravnaqini ta'minlashni o'yladi. Buni o'limi oldidan farzandlari, yaqinlari hamda a'yonlariga qilgan quyidagi vasiyati orqali ham bilib olish mumkin: «Zo'ravonlikka monelik qilish ishini kechiktirish mamlakatni xavf-u xatar ostida qoldiradi, jumlayi xaloyiqning huzur-halovatini buzadi, maslag-u tariqatning buzilishiga olib keladi. Qiyomat kuni buni bizdan so'raydilar, surishtiradilar...

Mamlakat manfaati va xalqlar farovonligi bobida (kishilar tajribasida) nimaiki aytilgan bo'lsa, yodda tutinglar. Raiyyat¹ va qo'l ostingizdagilar ahvolidan bexabar qolmang. Qilich tutqichini shijoat va mardlik qo'li bilan mahkam ushlanglar, shundagina men kabi podshohlik tizginini mustahkam tutgaysizlar. (Shu yo'l bilan) men Turon va Eronni muxoliflar va mufsidlardan tozaladim, adolat va ehson orqali obod etdim. Agar mening vasiyatlarimga amal qilgudek bo'lsangiz, adolat va himmatni o'zingizga maqsad qilib olsangiz, davlat va mulk uzoq yillar davomida siz bilan qolgay. Agar oralaringda bir qadar qarama-qarshilik yuz bergudek bo'lsa, (bilingki, uning) oqibati yaxshilik bilan tugamaydi. Negaki, (bunday sharoitda) dushmanlar fikrini fisq-u fasod qamrab oladi va (bu sizlar uchun ko'plab kutilmagan) qiyinchiliklarni tug'diradi».

Temuriylar. Amir Temurning kutilmaganda yuz bergan o'limi saltanat va sulola hayotining bir muncha izdan chiqishiga sabab bo'lishi oldindan aniq edi. Negaki, bunday ko'lam va vajohatdagi siyosiy qurilmani shu darajadagi shaxsgina eplashi mumkin edi. Ammo boshboshdoqlik nisbatan uzoqqa cho'zilmagan.

Bobosi to'satdan vafot etgani sharoitida tug'ilgan sarosimadan ustalik bilan foydalangan Xalil Sulton Samarqand taxtini egallab, Turon hukmdoriga aylanadi. O'z paytida otasi tomonidan Xuroson mulki boshqaruviga tayinlangan Shohrux² Hirotni siyosiy markaz qilib, mustaqil faoliyat boshlaydi. Xalil Sulton yosh, abjir va dovyurak bo'lsa, Shohruxda tajriba ustun edi. Pirovardi-

¹ Raiyyat – xalq, omma, odamlar.

² Shohrux – Amir Temurning to'rtinchi o'g'li, 1409–1447-yillarda o'zbek davlatini boshqargan temuriy yetakchi.



Mirzo Ulug'bek

da, xuddi mana shu tajriba g'olib keladi. Keyingi to'rt yil ichida zimdan ish ko'rgan Samarqand siyosiy turmushida tug'ilgan ichki qarama-qarshiliklar, xatolardan ustalik bilan foydalangan holda, 1409-yil 13-may kuni Shohrux otasi bargo etgan saltanat poytaxtiga kirib boradi va deyarli qon to'kishlarsiz o'zbek davlati tizginini o'z qo'liga oladi.

Turonning Amudaryogacha bo'lgan bo'lagi hokimligini o'g'li Ulug'bekka¹ topshirgan Shohrux saltanatning qolgan qismlarini bir siyosiy markaz atrofida birlashtirish ishiga kirishishi tabiiy edi. Samarqandda ham o'z hokimiyatini tiklashi, bu borada unga ancha qo'l kelganini urg'ulash lozim. Chunonchi, 1411-yili Hindiston

tondan Xizraxon elchisi kelib, Shohrux nomidan xutba o'qittirib, tanga bostirishni boshlab yuborgan va yillik soliq to'lashga roziligini bildirgandi.

1412-yildan Seyiston ham yana o'zbek davlatiga tobeligini tan oladi. 1414-yili Isfahon, Sheroz, 1416-yili Kermon, 1421-yili Ozarbayjon va Kavkazda ham o'zini tan oldirgan Shohrux

Sohibqiron o'limidan so'ng o'n besh yil deganda saltanatning o'zagini tiklashga erishadi. 1447-yili yuz bergan o'limiga qadar hozirgi O'rta Osiyo, Afg'oniston, Pokiston, Shimoliy Hindiston, Eron, Kavkazdan iborat katta hududda boshqaruv tizginini bo'shashtirmagan.

Undan so'ng Turon, Xuroson, Eronni bir markaz ostida birlashtirishga uringan Ulug'bekka omad kulib boqmagani. Bu ishni keyingi temuriylar ham uddalay olishmagan. To'g'ri, Abu Sa'id² yetakchiligi davrida Samarqand va Hirot uning izmida bo'lgani, temuriylarning «qonuniy yerlari» bo'lgan Ozarbayjonga qo'shin tortib, uni oqqo'yunlilardan tortib olishga, shu tariqa Eron-



Abu Sa'id Mirzo

¹ *Ulug'bek* – Shohruxning to'ng'ich o'g'li, 1447–1449-yillarda o'zbek davlatini boshqargan temuriy yetakchi.

² *Abu Sa'id* – 1451–1469-yillarda o'zbek davlatini boshqargan temuriy yetakchi.

da yana o'zbek davlati hukmronligini tiklashga uringani ma'lum. Biroq aynan mazkur yurishda u o'z ajalini topgan.

Fursatdan foydalanib qolgan Sulton Husayn Bayqaro¹ Hirotni egallaydi. Samarqand taxtiga esa Sulton Ahmad² chiqadi va yuz yillik so'ngigacha Turon va Xurosonda temuriylar sulolasi vakillarining ayro hukmronligi davom etadi.

XV asr oxiri har ikki mintaqadagi temuriylar uchun ichki kelishmovchiliklar kuchaygan paytlar bo'lgan. Samarqand taxti uchun Abu Said nabiralari Boysung'ur, Sulton Ali va Zahiriddin Muhammad Bobur o'zaro kurash olib borishgan. Xurosonda esa Sulton Husayn Bayqaro bir oyog'i Marv va Obivardda, bir oyog'i Astrobodda bo'lib, o'g'illari ko'targan isyonlarni bostirish bilan ovora edi. Bu ham yetmaganday Badaxshon hokimi ham ichki nizolardan foydalangan holda Balxga zug'um qilib turardi.

Xullas, Dashti Qipchoqda³ bosh ko'tarib kuchga to'lib kelayotgan shayboniylarning janubga tomon yurishlari arafasida temuriylar xonadoni ichidan yemirilib borardi.

Davlat boshqaruvi. Chingiziylarning o'lkadagi hukmronligi barcha sohalar taraqqiyotida salbiy asorat qoldirgani haqida so'z aytdik. Davlat boshqaruvi sohasi ham bundan mustasno emas. Umuman boshqa, ko'chmanchi shart-sharoitda shakllangan siyosiy dunyoqarash va tarbiya chingiziy namoyandalar uchun mahalliy boshqaruv an'alarini qabul etishga yo'l bermasdi. Shu sababdan ham avvalgi davrlarda kechgan davlatchilik boshqaruvidagi ko'p asrlik tajriba va an'analar chingiziylarning boshqaruv yo'siniga to'g'ri kelmasligi aniq edi.

Amir Temurning o'zbek davlatchiligi oldida qilgan xizmatlaridan biri shundaki, u 150 yillik uzoq bir davr o'tib, shuning orasida odatlar, an'analarda kattadan-katta o'zgarishlar sodir bo'lganiga qaramay, qadimdan mavjud bo'lib kelgan boshqaruv tizimini tiklay bildi.

Uning davrida boshqaruv ikki idora: dargoh va devonlarga bo'lingan.

Dargoh – eng oliy davlat idorasi, oliy devon. Uning boshlig'i – oliy hukmdor. Amir Temur davlat tepasiga kelganidan so'ng chingiziylardan bo'lgan Suyurg'atmishni soxta xon sifatida ushlab turgan. Bunday yondashuv yangilik bo'lmay, yuqorida tilga olingan voqea – amir Qazag'on tomonidan Qozonxon o'ldirilgandan so'ng tug'ilgan an'ana sanalgan. Bundan tashqari, turon doirasida Sohibqironidan boshqa ham yana bir qancha qudratli amirlar,

¹ Sulton Husayn Bayqaro – 1469–1506-yillarda Xurosonni boshqargan temuriy yetakchi.

² Sulton Ahmad – 1469–1494-yillarda o'zbek davlatini boshqargan temuriy yetakchi.

³ Dashti Qipchoq – Sirdaryoning yuqori oqimi va Tangritog'ning g'arbiy yon bag'ridan Dnepr daryosining quyi oqimiga qadar yoyilgan ulkan hudud.

ularni qo'llab-quvvatlovchi ijtimoiy-siyosiy kuchlar bor edi. Ular ham zimdan yoki ochiqchasiga mustaqil siyosat yuritish, hatto, oliy taxtni egallash niyatida bo'lgan. Bunday sharoitda Amir Temur o'zini rasman xon deb e'lon qilishi raqiblarga qo'l kelib, norozilik va xurujlarga turtki bo'lishi mumkin edi.

Amir Temurning chingiziylardan bo'lgan Qozonxonning qizi Saroymulk xonimga uylanishi, ya'ni xon avlodiga kuyov (ko'ragon), qarindosh bo'lishi ham uning siyosiy mavqeyini rasman bo'lsa-da mustahkamlashga xizmat qilgan. Bundan tashqari, Chig'atoyxon amirlaridan Qorachar barlos Amir Temur ajdodi ekani va u o'z vaqtida Chig'atoyxonning ulug' amiri sifatida o'lkani boshqargani haqidagi yarim haqiqat, yarim afsona ham taomilga kiritilgan. Buning yarim haqiqatligi shundaki, Chig'atoyxonning Qorachar barlos o'tli mingboshisi bo'lgan. Ammo ishonchli manbalarda uning xon nomzodi sifatida mamlakatni boshqargani haqida so'z yo'q.

Saltanat ahamiyatidagi masalalar oliy hukmdor hukmi va ko'rsatmasi asosida hal etilgan. Shu bilan birga, dargohda vaqti-vaqti bilan xos majlislar o'tkazilib turilgani ma'lum. Bunday majlislarda hududlar idorasi, sodir bo'layotgan o'zgarishlarga munosabat, muhim mansab va vazifalarga tayinlash kabi masalalar ko'rib chiqilgan. Bunday tadbirlar g'oyatda tor doirada o'tkazilib, davlat ahamiyatiga molik masalalarning chetga ayon bo'lishidan nihoyatda saqlanilgan. Chunonchi, maxsus kotib majlis bayonini maxsus daftarga tushirib borgan. Aftidan, keyingi majlisda ana shu bayon asosida ilgari qabul qilingan qarorlar, turli choralar natijalari tekshirib borilgan.

Amir Temurning dargoh faoliyatini boshqarish, odamlardan unumli foydalanish, ularni o'z atrofiga to'plash, katta-kichik tadbirlarni tashkil qilish borasida tutgan yo'lini «Tuzuklar»dagi bayonlardan yaqqol ko'rish mumkin. Chunonchi, Sohibqiron shunday yozgandi: «Saltanat ishlarining to'qqiz ulushi kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushi esa qilich bilan bajo keltirili-shini angladim... Ishlarimning barini kengash bilan yuritib, uni bitirishda to'g'ri tadbir qo'llar edim. Bir ishga kirishmay turib, undan qutulib chiqish yo'llarini mo'ljallab qo'yar edim. Uni to'g'ri tadbir, qat'iy jazm, chidamlilik ko'rsatib, ehtiyotkorlik bilan uzoqni ko'rib, ortini o'ylagan holda oxiriga yetkazardim».

Dargohning kundalik faoliyatini boshqarish, uning vazirliklar, mahalliy hokimiyat idoralari va umuman saltanatda kechgan jarayon bilan bog'lanib turish ishiga devonbegi boshchilik qilgan. Dargohda har kuni to'rt vazir, ya'ni ijroiya idoralaridan bosh vazir, harbiy vazir, mulkehilik va soliq ishlari vaziri, moliya vaziri hozir bo'lib o'ziga xos ravishda hisobot berib turishgan. Aftidan, bunda vazirliklar tegishli ko'rsatmalar olib turgan bo'lishlari kerak. Sar-

had va boshqa tobe mamlakatlar boshqaruvi bilan bog'liq yana uch vazirlik ham devonbegiga hisobot berishgan.

Dargohdagi muhim vazifalardan biri – bu arzbegidir. Uning xizmati dargohga arz-dod, shikoyat bilan kelganlar hamda mamlakatda sodir bo'layotgan voqealarga o'z munosabatini bildiruvchilarni qabul qilishni uyushtirib, tushgan arzlar, shikoyatlar, takliflarni oliy hukmdorga yetkazib turishga mas'ullikdan iborat edi. Bundan tashqari, dargohda adolat amiri lavozimi mavjud bo'lib, u turli o'lka va shaharlarda «sipoh va raiyyat orasida urf-odatlariga oid janjalli ishlar haqida» boxabar bo'lib, oliy hukmdorga hisobot va ma'lumot yetkazib turgan.

Demak, joylardagi ahvoldan boxabar bo'lib turishning ikki yo'lidan foydalanilgan: biri pastdan yuqoriga, ya'ni arzchilar to'g'ridan-to'g'ri dargohga murojaat qilish imkoniga ega bo'lishgan, ikkinchisi – maxsus xizmat orqali joylardagi vaziyat davlat tomonidan, aniqrog'i, oliy hukmdor dargohi orqali tekshirilib borilgan. Mana shu ikki yo'l bilan joylarda ro'y berayotgan adolatsizlik, tartibsizlik, davlat va jamiyat manfaatiga zid ishlar haqida ro'yirost ma'lumot olingach, maxsus vakillar – aminlar (ya'ni ishonchli vakillar) joylarga borib voqeani o'rganib tegishli choralar ko'rishgan. Chunonchi, biror kishiga nisbatan zulm, adolatsizlik qilingan bo'lsa, adolatni tiklab, o'sha yer mahalliy xazinasidan ularga to'lov ajratib qaytishgan. Aminlar o'zlari taftish qilgan ishlari, ko'rilgan choralar haqida keyin yozma hisobot berishgan. Bundan tashqari, tobe yerlar to'lovini yig'ib kelish ham ular vazifasiga kirgan.

Dargohdagi muhim lavozimlardan yana biri tavochidir. Tavochi oliy farmonga ko'ra, joylarga borib harbiy yurish uchun lashkar to'plash bilan shug'ullangan. Bu vazifa g'oyatda muhim ahamiyat kasb etgani uchun uni oliy hukmdordan keyingi yuqori darajadagi davlat mansabi deb qarashlar ham bo'lgan.

Ma'lumki, tobe o'lkalar, hukmron sulola vakillari, nufuzli amirlarga taqsim qilib berilgan yurtlar oliy ko'rsatma bo'lganda tegishli harbiy kuch bilan xizmatga shay turishlari ko'zda tutilgan. Tavochilar esa xuddi mana shu avval boshdan belgilangan lashkar sonining taxt bo'lishi, tayyorgarlik darajasi, ta'minoti talabga javob berishi, ko'rsatilgan joyga muayyan yo'l bilan o'z vaqtida yetib borishi kabi g'oyatda mas'uliyatli tadbirlarga javobgar bo'lishgan.

Tavochilar bosh tavochi, piyoda askar tavochisi kabilarga taqsimlangan. Bosh tavochilar o'n minglik, minglik, yuzlik yetakchilaridan, viloyat kattalaridan qo'shinni o'z vaqtida, belgilangan son va sifatda yetkazib berish to'g'risida tilxat olishgan. Shu bilan birga, tavochi harbiy yurish davrida qo'shinlarning joylashuvi, berilgan buyruqlarning ijro etilishi (masalan, dushman istehkomlari devori ostidan lahm kavlash) hamda tinchlik paytlarida katta qurilishlarda ish taqsimlash kabilar bilan ham shug'ullangan. Chunon-

chi, Baylaqon arig'ini¹ qazishda 60–70 km masofani har bir harbiy qismga taqsimlab berishga tavochildar bosh bo'lgan.

Dargohda, shuningdek, bosh hojib, hojiblar, rasmiy tadbirlar boshqaruvchisi va tashkilotchilari, xazinador, xonsolar (dargohda va oliy farmon bilan boshqa yerlarda, masalan, yurishlarda o'tkaziladigan to'y, bazmlar, katta ziyofatlarda dasturxon tuzatishga bosh-qosh bo'luvchi), jibochi (qurol-aslaha saqlovchi), qushchi (podshohona ovlar uyushtirilganda maxsus o'rgatilgan ov qushlarini olib yuruvchi va parvarish qiluvchi) va mana shu xizmatni boshqaruvchi qushbegi, bakovulboshi (saroy oshpazlarining boshlig'i), kotiblar, bitikchilar, tabiblar, sozandalar, g'azalxonlar, farroshlar kabi katta-kichik vazifalar hamda nog'ora-xona, dorixona (portlovchi moddalarni saqlash) kabi xizmatlar bo'lgani ma'lum.

Ijroiya tizimi vazirliklar faoliyatida mujassamlashgan edi.

Mamlakat va raiyyat vaziri saltanatning kundalik muhim ishlari, xalq ahvoli, viloyatlarda olinadigan hosil, soliqlar, ularni taqsimlash, kirim-chiqimlar, obodonchilik ishlari, xazina ahvoli kabi o'ta jiddiy yumushlarga javobgar bo'lgan. Mazkur masalalar yuzasidan oliy hukmdorga tegishli ma'lumot va hisobotlar berib turgan. Agar ushbu vazirlik vazifasini mo'g'ullar bosqinidan oldingi davr ijroiya tizimi bilan taqqoslasak, u holda so'z bu yerda bosh vazir haqida ketayotgani ma'lum bo'ladi.

Harbiy vazir qo'shin maoshi, alohida xizmatlari uchun harbiylarga tortiq qilingan yer-suvlar boshqaruvi (ya'ni, nazorat va qayd etish ma'nosida), qurol-aslaha ta'minoti, harbiy ko'rikلامي tayyorlash, janglarda yarador bo'lib xizmatga yaroqsiz bo'lganlarga nafaqa tayinlash, iste'foga chiqqan harbiylar to'g'risida qayg'urish kabi masalalar bilan shug'ullangan.

Mulk va soliq ishlari vaziri turli sabablarga ko'ra egasiz qolgan mol-mulkarni nazoratga olish, savdogarlardan zakot va boj olish, mamlakat chorvalari, o'tloq-yaylovlarni boshqarish, ularning barchasidan tushadigan daromadlarni saqlash, mulkchilikdagi merosxo'rlik tartiblarini amalga oshirish (masalan, g'oyib bo'lganlar, vafot etganlarning mulkini vorisga topshirish) kabi vazifalarni amalga oshirgan.

Butun saltanat idoralarning kirim-chiqimlari, xazinadan sarf qilinayotgan barcha xarajatlar hisobini moliya vaziri olib borgan. «Temur tuzuklari»da moliya vaziri mas'uliyatiga tegishli diqqatga sazovor bir tuzuk bor: «Moliya vazirlari moliya ishlarida xiyonat qilib (xazinadan biror mablag'ni) o'zlashtirib olgan bo'lsalar, (avval tekshirib ko'rihsin). Agar o'zlashtirib olgan mablag'i o'ziga tegishli ulufa

¹ Baylaqon arig'i – hozirgi Ozarbayjonning Beylaqon tumanidagi Beylaqon shahriga tortilgan ariq, mo'g'ullar bosqini paytida yer bilan yakson qilingan shahar 1403-yili Amir Temur tomonidan qayta tiklangan bo'lib, uni suv bilan ta'minlash uchun Kura daryosidan ariq torttirgan.

(maosh) miqdoriga teng bo'lsa, mazkur mablag' unga sovg'a – in'om o'rnida berilsin. Agar o'zlashtirib olgan mablag'i maoshidan ikki baravar ortiq bo'lsa, ortig'i oladigan maoshidan ushlab qolinsin. Agar maoshidan uch baravar ko'p mablag' olingan bo'lsa, hammasi (saltanat xazinasiga) tortiq sifatida olinsin».

«Temur tuzuklari»da mazkur to'rt vazirlikdan tashqari yana uch vazir haqida so'z ketib, ular saltanat tarkibidagi turli o'lka va mamlakatlarga oid moliyaviy muomalalar va keladigan daromadlarni boshqarishgan. Agar saltanat hududi va unga kirgan sarhadlar ko'lami nazarga olinsa, haqiqatan ham u yerlar bilan bog'liq moliya-daromad ishlarini tashkil qilish uchun uch vazirlik ta'sis etilishini asosli desa bo'ladi.

Adliya vazirligi (devoni mazolim) to'g'ridan-to'g'ri fuqarolar ishlari bilan shug'ullangan. Harbiy sud (lashkar qozisi) esa alohida faoliyat ko'rsatgan. Shariat tartiblari bilan esa islom qozisi shug'ullangan. Ko'rib turganimizdek, bu sohada ham Amir Temur davrida ilgari an'analar davom ettirilgan.

Ilgarigi sulolalar davrida mavjud bo'lgan vaqf ishlari vazirligi xizmati sadrlar boshlig'iga yuklatilgan.

Shunga o'xshash o'tgan zamonlarda ta'kidlangan xabar va pochta vazirligi shaklan tilga olinmasa-da, ammo mazmunan bu vaqtda u o'zining eng yuksak ravnaq darajasiga ko'tarilgandi, desak, to'g'ri bo'ladi. Zero, ulkan saltanatni maqsadga muvofiq ravishda boshqarib borishda uning turli burchaklarida sodir bo'layotgan voqealardan boxabar bo'lish, poytaxtdan buyruq, farmon, ko'rsatmalar jo'natish, markazga turli hujjat, hisobot va hokazolarni yetkazish, tashqi siyosiy-diplomatik munosabatlarni puxta va tezkor ravishda yo'lga qo'yish kabi yumushlarni katta salohiyat va g'ayrat bilan amalga oshirishga to'g'ri kelardi.

Xabar va pochta xizmati ahamiyatini avvalboshdanoq yaxshi tushungan Amir Temur o'zining dastlabki farmonlaridan birida uni yo'lga qo'yish haqida ko'rsatma bergan. O'sha zamon guvohlaridan biri Rui Gonsales de Klavixoning¹ yozishicha, butun saltanat uzra bir kunlik yo'l oralig'idagi har bir maskanda to'xtash joylari bino etilgan bo'lib, ularda 10 tadan 200 tagacha ot-ulov saqlangan, maxsus xizmatchilar faoliyat ko'rsatishgan. Bu yumushlarning xarajati davlat xazinasidan qoplangan. Dargohdan yoki dargoh tomon joylardan, xizmat yuzasidan yo'lga chiqqan har bir shaxs yoki guruh mazkur joylarda to'xtab dam olib, otlarni almashtirib yana yo'lda davom etavergan. Ulkan saltanatning har bir burchagidan Samarqand tomon yo'naluvchi yo'lda shu tartib joriy qilingan. Ular, hatto, aholi turmaydigan yerlarda ham ishlab turgan.

¹ Rui Gonsales de Klavixo – 1404-yili Samarqandga borib, Amir Temur qabuliga erishgan ispaniyalik elchi.



Samarqand. Registon maydoni

Mazkur tizim qanday ishlashini ispaniyalik elchilar Tabrizdan Samarqand-gacha bo'lgan safar davrida o'z ko'zlari bilan ko'rishgan. Tartib g'oyatda qat'iy bo'lgan. Masalan, mazkur xizmatdan foydalanayotganlar mingan ot yo'lda, to'xtash joylarga yetmay yiroqda yaroqsiz bo'lib qolsa, yo'lda uchragan otliqning, kim bo'lishidan qat'i nazar, amirmi, harbiymi, hatto, oliy hukmdorning o'g'limi, otini olib minib ketishga haqli bo'lgan. Bir safar shunday holatda Amir Temurning katta o'g'li otidan foydalanishgan ekan. Bu boradagi tartib va ahvol xususida yanada aniqroq ma'lumotni Hofiz Abru yozib qoldirgan. Unga ko'ra, Samarqanddan qaysi bir tomonga yo'lga chiqilmasin, bir oy yoki ikki oy yo'l yuriladimi, hech kim hech qachon ko'chada qolmagan. To'xtash joylari bir yo'la, hatto, 1000 kishini qabul qilishi mumkin bo'lgan.

Amir Temur va umuman temuriylar davrida tashqi siyosiy-diplomatik aloqalar izchil olib borilganini bilamiz. Klavixoning Samarqandda elchilar bilan shug'ullanuvchi maxsus amirlar xizmat qilgani, elchilarni kutib olish, kuza-tish bilan bog'liq tadbirlarni uyushtirishga oid guvohliklarini inobatga olib xulosa qilish mumkinki, tashqi aloqalar, elchilar, xalqaro yozishmalar bilan shug'ullanuvchi xizmat bo'lgan. Aftidan, bu xizmat ijroiya tizimida emas, dargoh tarkibida faoliyat ko'rsatgan.

Xoh dargoh, xoh ijroiya tizimi bo'lsin, davlat xizmatlari qanday puxta va aniq ishlaganini Klavixoning quyidagi guvohligidan bilib olish mumkin. Har

bir maslahatchi, ya'ni yirik amaldor o'z bitikchisi va qayd daftariga ega ekan. Bitikchilar o'z boshliqlari ko'rsatmasiga muvofiq turli hujjatlar, masalan, yorliqlar yozib tayyorlashgan, bu haqda qayd daftariga yozib, yorliqqa tegishli belgi (raqam) qo'yishgan. Keyin esa yorliq yo'riqchiga topshirilib, unga muhr bosilgan va mazkur masalaga daxldor xizmatlarga yuborilgan. Xullas, hujjat yana 3-4 amaldor nazoratidan o'tib, ularning muhrlari bosilgandan keyingina oliy hukmdor muhri urilgan. Shundan so'ng bu hujjat qonun kuchini olgan.

Davlat xizmatiga olinadiganlarga katta talablar qo'yilgan: ular o'qimishli, keng bilimli va dunyoqarashli, halol bo'lishlari kerak edi. Bu borada Amir Temur o'z «Tuzuklar»ida shunday yozadi: «Amr qildimki, vazirlar toza nasllik, aql-farosatlik, xalq ahvolidan xabardorlik, ularga nisbatan xushmuomalalik, sabr-chidamlik va tinchliksevar» bo'lmog'i kerak. Bundaylarga to'rt imtiyoz: ishonch, e'tibor, ixtiyor va iqtidor berilsin. Qaysi vazir g'iybat gaplarni aytsa, uydirma gaplarga quloq solsa, jabr-zulm qilsa, o'ziga yoqmagan kishilarni yo'qotish payiga tushsa, nasli-yu zoti yomon, hasadchi, gina-kek saqlovchi, qora ko'ngilli kishilarga zinhor vazirlik lavozimi berilmasin. Buzuqi, qora ko'ngilli, zoti past odam vazirlik qilsa, davlat-u saltanat tez orada qulaydi».

Amir Temur saltanatni boshqarishda, eng avvalo, o'z o'g'illari va avlodlariga suyandi. Chunonchi, u saltanatni bir qancha mulklarga ajratib, biroq Turon yaxlitligini saqlagan holda boshqargan. Har bir mulkning ham o'ziga yarasha dargohi va vazirlari bo'lgan.

Alohida ko'rsatgan xizmatlari uchun yirik amaldorlar, harbiylar, din peshvolari hamda bo'ysundirilgan sobiq hukmdorlarga shaxsiy xizmati va sharoitga munosib ravishda biror hudud (viloyat, shahar, tuman) tortiq (suyurg'ol) qilingan. Masalan, Amir Temur o'z piri Sayyid Barakaga Andxudni tortiq qilgani ma'lum. Ana shunday hollarda, «Tuzuklar»da yozilishicha, har bir suyurg'ol qilingan viloyat yo mamlakatga ikkitadan vazir tayinlangan. Birinchisi – yig'iladigan soliqlarni qayd etib, aholi ahvolidan boxabar bo'lib turish, ikkinchisi esa yig'iladigan daromadlar qay tarzda xarj qilinayotganini hisobga olish, shu yerda mavjud harbiy qismlarga beriladigan maosh taqsimoti bilan shug'ullanish kabilar bilan band bo'lgan. Faraz qilish mumkinki, mazkur vazirlar orqali markaz joylardagi moliyaviy, soliq, ijtimoiy holat masalalari bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri ma'lumot olib turgan. Aftidan, bu vazirlar yuqorida tilga olingan markaziy ijroiya tizimidagi sarhadlar bo'yicha uch vazirlik nazorati va hamkorligida faoliyat ko'rsatgan.

Suyurg'ol yerlarga maxsus vazirlarni tayinlashning amaliy tomoni bo'lgani shubhasiz. Zero, suyurg'ol egalari o'zlariga tortiq qilingan joylardagi aholidan

olinadigan davlat soliqlarini to'laligicha yoki ma'lum bir ulushini o'zlariga olishlari nazarda tutilgan. Bu borada me'yordan chiqish, aholi noroziligiga sabab bo'luvchi ishlarga qo'l urish, umuman, saltanat qudratiga putur yetkazishi turgan gap edi. Shuning uchun ham markaz joylarda o'z vakillariga ega bo'lgani tabiiy.

Shahar, tuman miqyosidagi boshliqlar dorug'a, qo'rg'on boshlig'i kutiyol deyilganini eslatib o'tish joiz.

Temuriylar, xususan, Amir Temur davri qonunchiligini yoritishda uning «Tuzuklar»i g'oyatda qo'l keladi. «Bu tuzuklardan, – deb yozadi muallif, – (kelajakda) saltanat ishlarini boshqarishda qo'llanma sifatida foydalanganlar». Demak, «Tuzuklar»ni yozishdan maqsad jamiyat va davlat boshqaruvida zarur hisoblangan qonun-qoidalar, ya'ni tuzuklar majmuyini yaratish bo'lgan. Agar undagi ba'zi bir qaytarishlar, shaxsiy mulohazalar va «dirik kechinmalar»ni olib tashlasak, ixtiyorimizda o'sha davrning asosiy qonunlari (qonunchiligi) majmuyi gavdalanishi turgan gap.

Amir Temur harbiy mahoratining yuksakligi u joriy etgan yoki takomillashtirilgan harbiy tizimda yaqqol ko'rinadi. Har bir askar, har bir qism faoliyati, maoshi, harbiy aslahalar bilan ta'minoti, xizmat pillapoyalari-dan ko'tarilib borish, navkar bilan uning begi o'rtasida xizmat muomalasi, urush paytlaridagi harbiy mahorat kabi barcha masala va tadbirlar oldindan o'ylanib, muayyan bir tartibga solingan edi. Bir so'z bilan aytganda, Amir Temur lashkarida qat'iy xizmat va tashkiliy intizom o'rnatilgan, kim nima bilan shug'ullanishi, nimaga javob berishi aniq ko'rsatib qo'yilgan. Hatto, ikirchikir masalalar ham oldindan ko'rsatib o'tilgan. Masalan, oddiy askarning harbiy yurishga tayyorgarligidagi talablarni olaylik. «Yurish vaqtida oddiy askarlardan har o'n sakkiz kishi o'zi bilan birga bir chodir, har bir askar ikki ot, bir kamon, bir sadoq o'qdon, bir qilich, arra, bigiz, bitta qop, juvoiduz, bolta, o'nta igna va charm xalta olsin», deyilgan «Tuzuklar»da. Xuddi shunga o'xshash bahodirlar, o'nboshilar, yuzboshilar, mingboshilar, amirlar uchun zarur hisoblangan qurol-aslahalar tafsiloti ham berilgan.

Amir Temur jang suratini ham oldindan rejalashtirib qo'ygani ma'lum. Chunonchi, u joriy qilgan tartibga ko'ra, agar g'anim lashkari o'n ikki mingdan ortiq, lekin qirq mingga yetmasa, lashkarboshilik shahzodalardan biriga yuklatilgan. Agar g'anim qo'shini qirq mingdan ko'p bo'lsa, u holda Sohibqironning o'zi lashkarga boshchilik qilgan.

Tarixiy manbalarda Amir Temurning shaxsan o'zi yakkama-yakka olishuvlardan toymaganligi haqida ham ma'lumotlar bor. Chunonchi, 1379-yili Urganch (Gurganj) qamal qilinayotgan bir paytda u shahar hokimi Yusuf So'fiyga yuzma-yuz chiqishga o'tlanadi, ammo raqibi olishuvga chiqmaydi. Xuddi

shunga o'xshash hol 1383-yili Seyiston yurishida bo'lib o'tgan. Xullas, Amir Temurning mardligi va shaxsiy namunasi lashkar ruhini ko'tarishda katta ahamiyat kasb etgani shubhasiz.

Sharoitga qarab Amir Temur lashkarning saf tortishi, jangga kirish tartibini o'zgartirib turgan. 1391-yili To'xtamishxonga qarshi jangda ilgari hech kimga ma'lum bo'lmagan yangi harbiy yo'sin – «Tipratikon»ni qo'llagan. Amir Temur tarixchilaridan Nizomiddin Shomiyning yozishicha, «Sohibqiron lashkarini saflab, yetti qismga shundayin muqarrar etdiki, uning vasfi va bayoniga kishi o'jizlik qiladi».

Amir Temur harbiy yurishlarni nihoyatda puxtalik va ortiqcha shov-shuv-siz tayyorlashga harakat qilgan. Shuning uchun ham uning qo'shinlari g'anim uchun kutilmagan vaqt va yerda paydo bo'lib, qo'qqisdan hamla qilib qolishi hech gap emasdi. Sohibqironning har bir yirik harbiy yurishdan oldin kengash o'tkazishi odat tusiga kirgan. Kengashda u barcha yig'ilganlarning fikrini tinglab, mazkur sharoitda eng maqbul yo'lni tanlashga harakat qilgan.

Ibn Arabshohning guvohlik berishicha, Amir Temur davrida tashqi ayg'oqchilik ishi nihoyatda yuksak daraja va keng ko'lamda yo'lga qo'yilgan edi. Mazkur xizmat vakillari chakanafurush, yirik savdogar, polvon, dorboz, hunarmand, munajjim, qalandar, darvesh, dengizchi, sayyoh, suvchi, etikchi, tolib niqobi ostida turli mamlakatlarda bo'lib, u yerlardagi shaharlar, qishloqlar, yo'llar, tog'u toshlar, suvlar, har bir joyning aholisi, boshliqlari, ulug'lari, amirlari, fozillari, shariflari, boy-u kambag'allari to'g'risida har tomonlama to'liq ma'lumotlar yig'ib, hatto, suratlar bilan Samarqandga yuborib turishgan. Bu bilan ham cheklanmay, Amir Temur harbiy, siyosiy munosabatlarga kirishayotgan mamlakatlar tarixi, urf-odatlariga oid asarlarni sinchiklab o'rgangan.

Demak, Amir Temur harbiy siyosati, eng avvalo, davlatni mustahkamlash, xavfdan saqlashga yo'naltirilgan bo'lib, bu uni puxta yo'lga qo'yishda Sohibqiron masalaning iqtisodiy, ilmiy (mamlakatlar, shaharlar, yo'llar, xalqlar, dushman lashkarlari, tabiiy iqlim sharoitlarini o'rganish va hokazo), tashkiliy tomonlariga katta e'tibor bilan qaragan. Xuddi shu yo'l uni harbiy san'at borasida yuksaklikka olib chiqqan.

Ijtimoiy-iqtisodiy hayot. Amir Temur doimo qonun va to'ro-tuzuklarga suyanib ish tutgani haqida ma'lumot beruvchi «Temur tuzuklar»iga ko'ra, turli ijtimoiy tabaqalar vakillari (dehqon, hunarmand, savdogar, soliqchi va boshqalar) har birining o'z o'imi va vazifasi aniq belgilab qo'yilgan. Eng mas'uliyatli vazifani esa davlat o'z bo'yniga olgan. Xaroba yerlarga suv chiqarish va obod qilish, buzilgan ko'priklarni tuzatish, yangilarini qurish, yo'l xavfsizligini ta'minlash, savdo va elchilik karvonlariga kuzatuvchi va

soqchilar tayinlash, yo'lovchilarning hayotini, mol-mulkini muhofaza qilish, karvonsaroy, yomxonalar qurish kabi katta kuch va mablag' talab qiladigan yumushlar shular jumlasidandir.

Sharafiddin Ali Yazdiyning¹ guvohlik berishicha, «olam ravnaqi va ro'shonligi yo'lida hafsalasi nihoyatda baland bo'lgan (Amir Temur) obodonchilikka yaraydigan biron parcha yerning zoye bo'lishini ravo ko'rmasdi». Shu qoidaga rioya qilgan holda u Turon va boshqa o'lkalarda suv chiqarib obodonchilik, yangi yerlar ochish, bog'lar barpo etish kabi muhim tadbirlarni amalga oshirdi. Amir Temur davrida Samarqand, Shahrisabz va boshqa shahar-u tumanlarda o'nlab ariqlar qazildi, daraxtzorlar, ekinzorlar, bog'-rog'lar yashnab, to'kin-sochinlik yuzaga keldi. Bunday tadbirlar nafaqat bizning yurtda, balki saltanat tarkibidagi boshqa o'lkalarda ham amalga oshirilganini alohida ta'kidlash lozim.

Hofizi Abruning² guvohligiga ko'ra, Amir Temur Xurosondagi Murg'ob daryosi vodiysida obodonchilik va dehqonchilik xarob ahvolga tushib qolganini ko'rib, daryodan Dilkusho, Ganjra'von, Darband, Ganjxona, Umar Tobon, Oqbug'o, Qutlug' xotun, Shayx Abu Sa'id, Shayx Ali, Davlatshoh Jondor, Gulbog'on, Qutlug' Temur, Hasan Jondor, Amir Aloviddin, Sanjadak, Navro'z, Navbatxon, Menglixoja, Kepakchi, Ali Malik nomli – jami yigirmata ariq qazib suv chiqarishni buyuradi. Shu tariqa – deb yozadi tarixchi, vodiya bunyodkorlik va dehqonchilik sohalariga asos solindi.

Mazkur vodiydagi obodonchilik va dehqonchilik ravnaqiga keyingi davrlarda ham e'tibor susaymaganini shundan ham bilsa bo'ladiki, Xurosondagi so'nggi temuriylardan biri Sulton Husayn Bayqaro Bolo Murg'ob va Marv oralig'idagi hududlarda ariqlar qazitish, ta'mirlash, ekinzorlar barpo qilish tadbirlarini amalga oshirgan.

Sohibqironning Ozarbayjonda ham sun'iy sug'orish tizimlarini bunyod etish ishlariga katta ahamiyat berganini bilamiz. Chunonchi, Qorabog'da³ bo'lib turgan paytida Sohobqiron o'sha atrofda uzunligi 60–70 km keladigan Barlos arig'ini qazitgani haqida ma'lumotlar bor. Xuddi shuningek, uning buyrug'i bilan 35–40 km uzunlikdagi Boylaqon arig'i qaziladi. Mazkur tadbirlar natijasida qarovsiz yerlarga suv chiqib, sahro va xarobalar o'rni ekinzorlar, bog'-rog'lar, qishloqlar qad ko'targan. Amir Temurning Kobuldan nariroqda oqadigan G'urbon daryosidan 30–35 km uzunlikda ariq chiqargani

¹ Sharafiddin Ali Yazdiy – Amir Temur turmushi va ishiga bag'ishlangan asosiy tarixiy manba – «Zafarnoma» muallifi.

² Hofizi Abru – Amir Temur va Shohrux davri yirik tarixchisi.

³ Qorabog' – hozirgi Ozarbayjonning janubi-g'arbida joylashgan tarixiy-jo'g'rofiy o'lka.

va u Juyi mohigir hamda Juyi nav nomlari bilan mashhur bo'lgani natijada bu atrofda obodonchilik yuzaga kelgani ham ma'lum.

Temuriylar davrida sun'iy sug'orish ishlariga katta e'tibor berilishi bilan birga lalmi yerlar imkoniyatlaridan ham unumli foydalanishga harakat qilingan. «Tuzuklar»da ta'kidlanishicha, lalmi yerlar jariblarga¹ bo'linib, yig'ib olingan hosilning uchdan bir yoki to'rttdan bir qismi soliq sifatida to'langan.

Yer-suvdan unumli foydalanish dehqonchilikning barcha sohalari rivojiga turtki bo'lgan. Rui Gonsales de Klavixo 1404-yilgi Samarqanddagi holatni shunday tasvirlagan edi: «non shunchalik arzon bo'lganki, undan arzon bo'lishi mumkin emasdi. Guruch esa haddan tashqari ko'p. Bir qop arpa bir miri², bitta katta qo'y taxminan, o'n kumush tanga atrofida bo'lgan». Mazkur dalillar o'sha paytda g'allachilik, chorvachilik qanday yo'lga qo'yilib, nechog'lik yuqori hosildorlikka erishilganidan dalolatdir.

Shuningdek, paxtachilik, polizchilik, bog'dorchilik kabi sohalar ham izchil rivojlanib borgani ma'lum. Poliz ekinlaridan, ayniqsa, qovun xorijda ham mashhur edi. «Har kuni shaharga qovun ortilgan tuyalar shunchalik ko'p keladiki, ulaming qanday sotilib ketilishi-yu qay tarzda iste'molchilarga yetib borishiga aqling bovar qilmaydi», deb yozgandi ispaniyalik elchi. Samarqand, Shahrisabz, Hirot va boshqa ko'plab joylarda o'nlab bog'lar barpo etilgan. Birgina Samarqand atrofida Behisht, Shimol (Shamol), Dilkusho, Baland, Chinor, Zog'on, Bog'inav, Jahonnamo, Naqshi jahon, Gulbog', Bo'ldu, Davlatobod, Amirzoda Shohrux kabi bir qator bog'lar qad ko'targan. Ular nafaqat bog'dorchilik, balki ichidagi qasrlari bilan me'morchilikning nafis namunalari ham edi.

Mirishkor dehqonlar va bog'bonlar hosil yetishtirish bilan bir qatorda, ularni uzoq muddatda saqlashni ham yaxshi eplashgan. Chunonchi, anjir qoqi, qovun qoqi, turshak, mayiz va boshqa ko'plab quruq mevalar yil bo'yi, ayniqsa, salqin-sovuq fasllarda bozor rastalari va xonadonlarni bezagan, chet ellarga olib borib sotilgan.

Dehqonchilikdagi soliq tizimi haqida «Tuzuklar»da shunday guvohlik bor: «Amr qildimki, hosil pishib yetilmasdan raiyyatdan mol-u jihat olinmasin. Hosil yetilgach, soliqni uch bo'lib olsinlar. Agar raiyyat soliq to'plovchi yuborilmasdan, soliqni o'zi keltirib bersa, u holda u yerga soliq to'plovchi yubormasinlar. Agar soliq yig'uvchini yuborishga majbur bo'linsa, ular soliqni buyruq berish va yaxshi so'z bilan olsinlar, kaltak-arqon ishlatib ishni urish-so'kishgacha olib bormasinlar. Ularni band etib, zanjir bilan kishanlamasinlar».

¹ Jarib – taxminan, 960 kv. metrga teng o'lchov birligi.

² Miri – kumush tanga, tangaga Amir Temur nomi tushirilgani sabab amiri (miri), deya shuhrat topgan.

Ishlab chiqarishga kelinganda, ip, ipak, jundan turli-turman gazlamalar, matolar to'qilgan, kiyim-kechaklar tikilgan. Qurolsozlik, oyna-sozlik, duradgorlik, tosh yo'nuvchilik, zargarlik, ko'nchilik, kulolchilik kabi bir qator boshqa sohalar yuqori saviyada rivoj topgan. Chunonchi, ispaniyalik elchini lol qoldirgan sohalardan biri zardo'zlik edi. U qimmatbaho matolarni zarin iplar bilan bezash, olovdek yonib turgan gilamlarga naqshlar ila jilo berish hunari nafis san'at darajasiga yetkazilganiga tan bergan.

Xitoydan Yevropagacha bo'lgan ulkan hududning bir siyosiy markaz ostida birlashtirilishi, shimoliy va janubiy yo'nalishlardagi savdo yo'llarini nazorat qilish, karvon yo'llarining har jihatdan ta'minlanishi, chunonchi, xavfsizlik, ravon yo'llar, doimo xizmat ko'rsatib turuvchi karvonsaroylar, langarlar – bulaming bari savdo-sotiqning gurkirab o'sishida muhim omillar bo'lib xizmat qilgan. Amir Temur davrida bugun «Buyuk ipak yo'li» nomi bilan mashhur Sharq bilan G'arbn bog'lab turuvchi savdo yo'li uzluksiz va samarali ishlab turishiga keng imkoniyatlar ochilgan. Shu o'rinda Amir Temurning quyidagi so'zlari e'tiborga loyiq: «Har bir mamlakat va diyorga savdogarlar va karvonboshilar tayinladim, ular qayerga borishmasin, Xitoy, Hindiston, Arab mamlakatlari, Misr, Shom, Jazoir, Farangiston (Yevropa), u yerlarning nafis matolari va munosib tuhfaridan keltirsinlar».

Sohibqiron buyrug'i bilan butun saltanatda har bir kunlik yo'l masofasi oralig'ida karvonsaroylar qurilgan. Karvonsaroylar cheksiz saholarda ham bunyod etilib, zaruriyat tug'ilganda, tunda ham ming otliq yo'lovchini qabul qilish imkoniga ega bo'lgan. Musofirxonalar tashkil qilish ham shu tarzda yo'lga qo'yilgan edi. Ularni ozuqa, yem-xashak va boshqa zarur narsalar bilan ta'minlash uchun bir qishloq, yoki bir nechta qishloqni vaqf qilib berish qonunlashtirilgan. Xullas, Amir Temur savdo-sotiqqa katta e'tibor bergan. Uning fikricha, «Dunyo savdo ahli ila oboddir».

Savdo munosabatlarining davlat va jamiyat hayotida, tashqi siyosatda tutgan muhim o'rini yaxshi anglagan Amir Temur bu borada yana qator tadbirlarni amalga oshirgan. Chunonchi, bozorlar qurish, eskilarini kengaytirish, ta'mirlash ishlari jadal kechganini alohida ta'kidlash lozim. Buning isbotini Samarqand bozorining bino etilishi orqali ko'rish mumkin. Amir Temur buyrug'i bilan shaharning Temir darvozasidan boshlanib, janubi-g'arbiy yo'nalishda katta ko'cha quriladi. Uning ikki tomonida esa asosan ikki qavatli, chorsu, tim shaklida qurilgan do'konlar, rastalar qad ko'taradi. Ko'cha usti boshdan-oxir gumbaz shaklida ishlangan toq bilan yopiladi. Yorug'lik tushib turishi uchun har yerdan darchalar ham qoldirilgan. Bundan tashqari, ma'lum masofada favvoralar qurilib, omborxonalar qad ko'targan. E'tiborga molik tomoni shundaki, biror-bir sohaga moslashgan mahallalar, timlar, rastalar keng

quloch yozgan. Masalan, telpakchilar, kallapazlar, novvoylar, holvachilar, gazmolchilar, ko'ncilar, temirchilar, zargarlar, qurolsozlar va hokazo.

Bozorlar, timlar Samarqand va Turonning boshqa shaharlaridagina emas, balki Xuroson, Eron va boshqa o'lkalarda ham qurilgan. Masalan, Amir Temur oliy devonining vakili Yazdda bir tim qurdirgan va «Dorul fath» nomi ila mashhur bo'lgan bu bino o'zining tantavor va go'zalligi bilan dunyoda tengi yo'q hisoblangan. Sohibqironning o'g'li Shohrux tashabbusi bilan esa Hirotidagi bozorni qaytadan ta'mirlash ishlari olib borilgan. Chunonchi, Hofizi Abruning yozishicha, to shu choqqacha Hirot bozorlari ochiq-sochiq holda bo'lib, chang-to'zon, yog'ingarchilik, jazirama issiq paytlarda sotuvchilar ham, xaridorlar ham qiynalar ekan. Shohrux bozorni g'ishtdan qurdirib, oliy toqlar barpo qilib, maydonning ustini yopishni buyurgan ekan. Shaharning o'rtasida joylashgan mazkur bozor maydoniga shaharning to'rt darvozasi orqali tushib borish imkoni yaratilgan.

Xullas, savdoning rivoji uchun bor imkoniyatlar ishga solingan. Natijada, shahar va qishloq bozorlariga Xitoy, Hindiston, Xuroson, Eron, Arab davlatlari, Rum, Misr, Yevropadan mahsulotlar oqib kelavergan. Masalan, Xitoydan asosan ipak, ipak matolar, chinni, mushk, olmos, la'l, marvarid, Hindistondan muskat yong'oz, zanjabil, dolchin, qalampir, munchoq va boshqalar, Yevropadan gazlama, pichoqlar, shimoliy yurtlardan esa mum, mo'yna, teri, arab mamlakatlaridan tayyor kiyimlar, shisha buyumlar keltirilgan. O'lkamizdan esa, asosan, to'qimachilik mahsulotlari, ip gazlamalar, ipakli kiyimlar, qog'oz, paxta, guruch, meva, quruq meva kabi qator mahsulotlar chetga chiqarilgan. Savdo hajmi nechog'lik katta bo'lganini shundan ham bilsa bo'ladiki, Klavixov Samarqandda bo'lib turgan yili faqat bir oyning o'zida birgina Xitoydan 800 tuya mol olib kelingan ekan. Savdo-sotiqning bunday gavjumligi faqatgina Turon shaharlariga xos bo'lmay, bunday holatni saltanatning Tabriz, Sultoniya, Sheroz, Isfahon, Kermon, Xuroson, Shimoliy Hindiston, Iroq, Suriya kabi shahar va o'lkalarida ham ko'rish mumkin edi.

Temuriylar, ayniqsa, Amir Temur davrida ishlab chiqarish va savdo munosabatlaridagi ijtimoiy adolat masalasi muhim hisoblanganini ham eslatib o'tish joiz. Yaratilgan shart-sharoitga, mavjud tartiblarga rioya qilmay, tekin daromad ketidan quvganlar jazo topishi hech gap emasdi. Chunonchi, Klavixov guvohlik berishicha, navbatdagi harbiy yurishdan qaytgach, Amir Temur o'zi yo'qligida shaharda ahvol qanday bo'lganini tekshirgan. Shunda bir qator do'kondorlar, jumladan, qassoblar, etikdo'zlar, boshmoqchilar o'z mahsulotlarini haddan yuqori bahoda sotganliklari ma'lum bo'ladi. Ularning ishi darhol sudga berilib, jazolanadilar, suiiste'mol qilingan mablag' esa tortib olinadi.

Amir Temur zamonida 6 gramm og'irlikdagi kumush tangalar va uning to'rtidan biriga teng 1,5 grammlik kumush pullar zarb qilingani ma'lum. Shuningdek, muomalada mis pullar – chaqalar ham bo'lgan. Tangalar Samarqand, Buxoro, Ardabil, Astrobod, Darband, Domg'on, Mordin, Tabriz, Sabzavor, Sheroz va boshqa qator shaharlarda zarb qilingan.

Pul muomalasini yaxshilash, mis tangalar qadrini oshirish maqsadida 1428–1429-yili Ulug'bek pul islohotini o'tkazadi. Unga ko'ra, 1420-yili zarb etilgan mis tangalar zarbxonalarga topshirilib, ularning o'rniga og'irligi 1,5–2 barobar ko'p bo'lgan tangalar zarb etilgan. Qulaylik uchun zarbxonalar Buxorodan tashqari Andijon, Qarshi, Samarqand, Termiz, Shohruxiyada ham tashkil qilingan. Natijada, pulning qadri ko'tarilgan.

Ikkinchi Uyg'onish davri. Mo'g'ullar bosqinining kishilik sivilizatsiyasi uchun fojia sanalishida o'zbek xalqi va davlati bilan bog'liq ravishda kechgan Birinchi Uyg'onish davri tarixiy yutuqlariga yetkazilgan ulkan ziyonning ham o'z o'rnini bor, albatta. Shunga qaramay, Amir Temur 35 yil ichida o'zbek davlatining anushteginiylar zamonidagi dovrug'ini tiklabgina qolmay, Samarqandni dunyoning siyosiy, iqtisodiy, ilm-fan, madaniyat markaziga aylantirishga erishdi. Saltanatning barcha bo'laklari taraqqiyotiga alohida e'tibor qaratdi.

Har qanday jamiyat va davlat taraqqiyoti va kelajagini fan, madaniyat ravnaqisiz tasavvur qilib bo'lmasligini Amir Temur yaxshi tushungan. Iste'dod egalari maxsus va doimiy e'tiborga muhtoj va loyiq bo'lishlari, noyob qobiliyat egalarini muhofaza qilish, ijodlari uchun sharoit yaratish, turmushlarini ta'minlash zarurligini ham u to'g'ri anglagan. U olim-u fozillar o'z maslakhatlari va dunyoqarashlari yuzasidan jamiyat va davlat taraqqiyoti, zamonaviy ahvoli xususida boshqa ijtimoiy tabaqalarga nisbatan ko'proq bosh qotirishlari va bu orqali tegishli tajriba va bilimlarga ega bo'lib borishlarini yodda tutgan. Shu sabab ham dunyoning qaysi bir mamlakati va shahariga bormasin olim-u fozillarni bir yerga yig'ib, ular bilan uzoq suhbatlashish, ularning fikrini tinglash, bahslashish ishini kanda qilmagan.

Shu ma'noda Ibn Arabshohning quyidagi bayoni e'tiborli: «Amir Temur olimlarga mehribon bo'lib, sayyid-u shariflarni o'ziga yaqin tutardi. Ulamolar va fozillarga to'la-to'kis izzat ko'rsatib, ularni har qanday kimsadan batamom muqaddam (oldinda) ko'rardi. Ularning har birini o'z martabasiga qo'yib, o'z ikromi hurmatini unga izhor etardi. Ularga nisbatan o'z muruvvati bisotini yoyardiki, bu muruvvati uning haybati bilan aralash edi. Ular bilan mazmunli bahs ham yuritar ediki, bu bahsida insof-u hashamat bo'lardi». Biroq shu bilan birga mazkur omillarni yuzaga chiqarish, ular imkoniyatlaridan to'la foydala-

nish uchun yana bir muhim omil mavjud bo'lishini ham Sohibqiron yaxshi bilardi. Iqtisodiy va siyosiy jihatdan qudratli davlatgina tilga olingan omillarni yuzaga chiqarish imkonini berishi mumkin. O'z o'rnida, javob tariqasida, ilm va madaniyat rivoji davlat qudratiga qudrat, obro'siga obro' qo'shgan.

O'zbek davlati boshqaruvini qo'lga olgan Amir Temur bergan ilk ko'rsatmalar haqida Mu'iniddin Natanziy¹ shunday yozgan edi: «Faqirlar va ilm toliblari nafaqalari vaqf mulklari va madrasalarga, har birining holiga yarasha va voqif shartiga muvofiq belgilangan. (Ana shunday) vaqflarga hech ham va mutlaqo soliq solinmagan. (Amir Temur) o'z vazirlariga vaqf mulklaridan biron tanga mening xazinamga tushmasin deya ko'rsatma bergandi. (Sohibqiron) ilm, hikmat ahli va donishmand kishilar bilan (tezda) kirishib ketardi». Ya'ni madrasalar va ularda o'qiyotganlarning moddiy ta'minotiga katta e'tibor berilgan.

Ilm va madaniyatga bunday munosabatni Sohibqiron umrining oxirigacha saqlab qoldi. Uning ishini Shohrux va boshqa temuriylar davom ettirdilar.

Natijada, temuriylar zamonida ko'plab madrasalar, kutubxonalar, maktablar barpo etildi. Ularda o'qish uchun dunyoning turli burchaklaridan talabalar kelganlar, o'qitish jarayoniga ham yetuk olimlar taklif etilgan.

Chingizxon bosqini yillari va keyinchalik mintaqadagi juda ko'plab olimlar, shoirlar, hunarmandlar, san'atkorlar jon saqlash niyatida Kichik Osiyo, arab o'lkalari, Hindiston tomonlarga qochib ketgandilar. Masalan, Sayfi Farg'oniy² Kichik Osiyoga, Sayfi Saroyi³ Misrga jo'nab ketishga majbur bo'lgandilar. Asli buxorolik Muhammad Avfiy⁴ ham Chingizxon xavfidan Shimoliy Hindistonga ketishga majbur bo'lgan. O'lka madaniy taraqqiyotiga katta zarba bo'lgan holatlardan biri shunda ediki, turli mavqedagi sulolalar, boy-badavlat oila va shaxslar mo'g'ullar dastidan vatanni tark etarkanlar, o'zlari bilan saroy ahlilari, davralari, jumladan, olimlar, shoirlar, san'atkorlar, hunarmandlarni ham birga olib ketishgan.

Ikkinchi tomondan, ilm va madaniyat namoyandalari o'z homiylari imkoniyatlaridan foydalanib jon saqlab qolishgan. Bunday «ko'chish» keng ravishda sodir bo'lgani haqida ma'lumotlar yetarli darajada bor. Masalan, Shimoliy Hindistonda hukmronlik qilgan turkiy sulolalardan birining namoyan-

¹ *Mu'iniddin Natanziy* – Shohrux davri yirik tarixchisi.

² *Sayfi Farg'oniy* – so'fiy shoir, XIII asrning ikkinchi choragida Farg'onada tug'ilgan va Turkiyaning Oqsaroy shahrida vafot etgan.

³ *Sayfi Saroyi* – shoir va tarjimon; 1321-yili Xorazm viloyati Sariqamish qishlog'ida tug'ilgan va 1398-yili Iskandariyada vafot etgan.

⁴ *Muhammad Avfiy* – adabiyotshunos va tarixchi; 1171-yili Buxoroda tug'ilgan va 1242-yili Dehlida vafot etgan.

dasi G'iyosiddin Balban¹ zamonida u yerga turli mamlakatlardan, jumladan, Turondan ham mo'g'ullar siquvidan qochib borib ko'plab olimlar, shoirlar, hunarmandlar o'rnamashganki, hukmdor ularga alohida-alohida mahallalardan joy bergan. Shu tariqa, Dehlining o'zida xorazmliklar, samarqandliklar, ko'shg'arliklar mahallalari bunyod bo'lgan.

Chingiziylar davrida ta'qibu siquvlar, siyosiy talato'plar natijasida ilm va madaniyat nuqtayi nazaridan huvillab qolgan Turon Amir Temur zamoniga kelib yana jonlanish imkonini qo'lga kiritadi. Natijada, turli mamlakatlardagi turonliklar o'z yurtlariga qayta boshlashgan. Ular orasida qachonlardir ota-bobolari Shimoliy Hindiston, arab o'lkalari va boshqa yurtlarga borib o'rnamashgan avlodlar ham bo'lganiga shubha qilmasa ham bo'ladi. Ular, asosan Sohibqiron lashkarlari bilan qaytgan bo'lishlari kerak. Qolaversa, Samarqand, Buxoro, Shahrisabz, Hirot shaharlarining madaniyat va ilm markaziga aylanishi, bu yerlarda boshqa joylardan ko'ra ijod uchun sharoitning yaxshiligi o'z-o'zidan xorijiy olimlar, shoirlar, san'atkorlarning bu yoqlarga «oqib kelishi»ga sabab bo'lgan. Buning isboti sifatida Ulug'bek akademiya-sida faoliyat ko'rsatgan eronlik, rumlik olimlarni ko'rsatish mumkin.

Ulug'bek rasadxonasi, uning ilmiy maktabida izchil faoliyat ko'rsatgan eronlik mashhur olim G'iyosiddin Koshiy ana shunday olimlardan biri edi. Uning o'zi, Eronda yulduzlar ilmiga e'tibor susayib, aksincha, Samarqandda bu borada barcha sharoit borligi sabab ham u yerga yuzlandim, deb yozgandi.

Fan va madaniyatning gullab-yashnashi temuriylar namoyandalarining barchalari, xoh taxtga chiqqani bo'lsin, xoh yo'q, keng bilim egalari bo'lganliklari hamdir. Ular o'z ona tillaridan tashqari fors, arab tillarini mukammal bilar, tarix, astronomiya, matematika, tibbiyot, she'riyat, husnixat, me'morchilik, diniy ilmlar borasida katta salohiyat sohibi edilar. Ular kitobga, ya'ni bilim va bilish manbayiga katta hurmat bilan qarashgan. Shuning uchun ham Amir Temur, Shohrux, Boysung'ur, Ulug'bek, Pirmuhammad, Xalil Sulton, Sulton Husayn, Badiuzzamon kabi podshoh-u shahzodalarning boy kutubxonalarini kishilar tiliga tushgan, ulardan ko'pchilik bahramand bo'lgan. Amir Temur, Shohrux, Ulug'bek, Sulton Husayn Boyqaro, Qutlug' Turkon Og'o, Milkat Og'o, Gavharshodbegim kabi temuriy hukmdorlar va malikalar hamda temuriylar xizmatida bo'lgan bir qator amirlar tomonidan Samarqand, Buxoro, G'ijduvon, Marv, Hirot, Yazd, Balx, Mashhad, Sheroz, Isfahon va boshqa shaharlarda o'nlab madrasalar barpo etildi. Xalil Sulton, Ulug'bek, Iskandar, Abu Bakr, Boysung'ur, Abulqosim Bobur, Abdullatif, Mas'ud, Boysung'uri

¹ G'iyosiddin Balban – 1266–1287-yillarda Dehli sultoni.

Soniy, Sulton Husayn Boyqaro, Badiuzzamon, Shoh G'arib, Farividdin Husayn, Muhammad Husayn, Sulton Muhsin, Mo'min, Muzaffar Husayn, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa temuriy namoyandalar nozik didli shoir ham bo'lib, turkiy va forsiyda she'r bitganlar. Ular tabiiy ravishda, katta-kichik shoir-larga homiylik qilganlar, iste'dodli qalam-kashlarni parvarishlaganlar. Shuning uchun ham temuriylar davri o'zbek va fors adabiyoti rivojida muhim bosqich hisoblanadi.

Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy xuddi o'sha zamonlarda yashab ijod qilganlarining o'ziyoq ko'p narsani anglatadi. O'zbek va umuman, turkiy tilli adabiyot ravnaqiga ulkan hissa qo'shgan Hofiz Xorazmiy, Haydar Xorazmiy, Sakkokiy, Gadoiy, Durbek, Atoiy, Lutfiy, Amiriy, Yaqiniy kabi turkiy tilli shoirlar, Burunduq Xo'jandiy, Ismat Buxoriy, Humoyun Isfaroiniy, Badriddin Chig'atoy, Riyoziy Samarqandiy, Halokiy kabi forsiy tilli shoirlar hamda Eron, Ozarbayjon, Xuroson, Kichik Osiyoda ijod qilgan o'nlab she'riyat ustalari xuddi shu davrda yashashgan va temuriylar himmatidan bahramand bo'lganlar.

Alisher Navoiy Ikkinchi Uyg'onish davrigina emas, balki kishilikning eng yorqin shaxslaridan biri sifatida tan olingan. Umumiy adabiy merosi 200000 misradan iborat, ulug' mutafakkir qalamiga tegishli 52000 misrali «Xamsa» borliq va tabiat, inson va jamiyat, axloq va kamolot haqidagi o'ziga xos qomusdir.

Boburiylar saltanatining asoschisi, buyuk davlat arbobi va sarkarda, noyob iste'dod egasi Zahiriddin Muhammad Bobur ham aslida Ikkinchi Uyg'onish davrining mahsulidir. Uning «Boburnoma»si esa jahon tarixiy-badiiy xazinasining o'ziga xos gavhari sanaladi.

Boysung'ur homiyligida Hirotda faoliyat yuritgan Hunar va san'at markazida qog'oz tayyorlash, naqqoshlik, tilla suvi yuritish, muqovachilik, qadamachilik, jadvalchilik, xattotlik san'ati o'z rivojida eng avjiga chiqqan. Bugun butun dunyo jamg'armalarini bezab turgan nodir qo'lyozma asarlar, ularga chizilgan suratlar, xattotlik namunalari aynan shu yerda yaratilgan.



Alisher Navoiy

Abdulhay, Pirahmad Bog'ishamoliy, Muhammad Halimiy, Sulton Ali Bovardiy, Shahobiddin Abdullo, Zahiriddin Asg'ar, Kamoliddin Behzod kabi naqqoshlar (miniatyura rassomlari) ham, Ahmad Rumi, Shomiy Boy-sung'uriy, Hoji Abdulqodir, Muhammad Badriddin, Muhammad Kotib Sul-ton Ali Mashhadiy, Abdulxalil kotib kabi o'nlab xattotlar ham temuriylar davrida kamolot cho'qqisiga chiqqanlar.

Temuriylarning ilm-fan va madaniyatga rag'bati shu qadar kuchli bo'lgan-ki, Zahiriddin Muhammad Bobur va uning avlodlari Hindistonda hukmronlik qilgan davr bu mamlakat madaniy taraqqiyotida juda katta iz qoldirdi.

Aniq fanlar rivojida ham temuriylar zamoni alohida o'rin egallaydi. Ulug'bek akademiyasida o'nlab atoqli astronomlar, matematiklar faoliyat ko'rsatishgan. Qozizoda Rumi, Ali Qushchi, G'iyosiddin Jamshid Koshiy, Mu'iniddin Koshiy, Jaloliddin Astrobodiy, Nizomiddin Birjandiy, Mirim Chalabiy, Mansur Koshiy, Abdulqodir Lohijiy, Muhammad Husayniy va boshqalar mazkur maktab namoyandalari edilar.

Ulug'bek Samarqandda o'z davri va keyingi asrlar uchun ham katta aha-miyat kasb etgan teran fanlar rivoji uchun keng yo'l ochib berdi. Ayniqsa, 1424–1429-yillarda Samarqand yaqinida bosh o'ldiruvchi asbobning aniqlik da-rajasi bir yoy soniyasigacha bo'lgan rasadxonaning barpo etilishi olamshumul voqeaga aylandi. Yulduzlar harakatini yigirma yil atrofida uzluksiz kuzatish ishlari natijasida XVII asrga qadar, ya'ni optik asboblarning kashf etilguncha, eng mukammal hisoblangan «Ulug'bek ziji» dunyoga kelgan. Unda 1018 ta yul-duzning ekliptik tizimdagi o'rni va holati, yil uzunligi (365 kun, 6 soat, 10 da-qiqa, 58 soniya), Yer o'qining og'ish darajasi (23,52) aniqlab berilgan. Bu o'z davri uchun ulkan ilmiy sakrash sanalgan va keyingi asrlarda Sharq G'arb astronomiya fanini rivojlantirish uchun poydevor vazifasini bajargan.

Jamshid Koshiy o'nlik va oltmishlik kasrlar nazariyasini qayta ishlab, o'zaro moslashtirgan, sonlar haqidagi ta'limotni hozirgi zamon matematikasi darajasida to'ldirgan buyuk matematikdir. Ali Qushchi esa matematika faniga musbat va manfiy atamalarini kiritgan.

Tibbiyot olamida mashhur bo'lgan asarlar, chunonchi, Burhoniddin Nafis-ning «Kasalliklarning sabablari va alomatlari sharhi», «Mo'jaz al-qonun» sharhi», G'iyos Mutabbibning «Kasalliklar shifosi», Mansur ibn Muhammad-ning «Inson tanasi va uning a'zolari holatining sharhi», «Kifoyati Mansuriy», Bahouddavla Hasaniyning «Tajribalar xulosasi va xayrli ishlar» kabi yana boshqa qator tibbiyot borasidagi risolalar temuriylar davrida yozildi. Burhonid-din Nafis esa olimlik bilan bir qatorda Ulug'bekning shaxsiy tabibi ham edi.

Amir Temur va temuriylarning tarix faniga ham katta e'tibor bilan qarangani ma'lum. Tarixchilik bobida Sharqda dong taratgan Nizomiddin Shomiy¹, Hofizi Abru, Mu'iniddin Natanziy, Sharafiddin Ali Yazdiy, Abdurazzoq Samarqandiy², Mirxond³, Xondamir⁴ kabi tarixchilar Amir Temur, Shohruh va boshqa temuriylar, shuningdek, Alisher Navoiy homiyligida yashab ijod qilganlar, ular haqida asarlar bitib mashhur bo'lganlar.

Amir Temur va temuriylar davrida me'morchilik o'z rivojida cho'qqiga chiqqani ham yaxshi ma'lum. Turon shaharlarida, chunonchi, Samarqand, Buxoro, Shahrisabz, Yassida, Xurosonda, masalan, Hirot, Mashhad, Nishopur va boshqa shaharlarda, Eron va Ozarbayjonda bunyod etilgan qo'rg'onlar, masjidlar, madrasalar, karvonsaroylar, bozorlar, timlar, saroylar, xonaqohlar, xiyobonlar, maqbaralar va boshqa imoratlarning har biri haqida ko'p yozish mumkin.

Bunyodkorlik va me'morchilik jihatidan eng gullab-yashnagan shahar temuriylar davrida Samarqand bo'ldi. Chunki Samarqand o'z davridagi eng yirik davlat – Amir Temur asos solgan saltanatning markazi edi. Demak, Samarqand o'z-o'zidan jahonning eng qudratli davlati poytaxti darajasida gullab-yashnagan, go'zal bo'lishi kerak edi. Albatta, bu yerda Amir Temurning rahbar sifatidagi orzu-havaslari, yurtiga nisbatan farzandlik burchi, mamlakati bilan faxrlanish kabi tuyg'ulari ham o'z o'rmini topgan. Buni biz Samarqand atrofida Misr, Damashq, Sultoniya, Bog'dod, Sheroz kabi qishloqlar bunyod etishi orqali ham ko'rishimiz mumkin. U Samarqandni yurti dunyodagi yirik davlatlar poytaxti hamda mamlakatlaridan bir necha marotaba yuksaklikka ko'tarishni istagan.

Chingiziylar bosqini davrida Samarqand xarobalikka yuz tutib, qo'rg'onlar, devorlar, masjidlar va boshqa inshootlar vayron qilingan edi. Xitoylik sayyohlardan birining guvohlik berishicha, Samarqand aholisidan choragigina qolgan.

Amir Temur taxtga chiqishi bilan shahar ichki va tashqi qo'rg'onini bunyod etadi. Bozorlarni tartibga solib, me'moriy jihatdan o'xshashi yo'q timlar, do'konlar qatorini qurdiradi. Shaharning ichkari va tashqarisida bog'lar bilan o'ralgan saroylar, madrasalar, maqbaralar (Ko'ksaroy, Bo'stonsaroy, Amir Temur maqbarasi), masjidlar (masalan, Bibixonim), davlat idoralari, ham-

¹ Nizomiddin Shomiy – Amir Temur turmushi va ishiga bag'ishlangan ilk «Zafarnoma» muallifi.

² Abdurazzoq Samarqandiy – temuriylarga bag'ishlangan «Matlayi sa'dayn va majmayi bahrayn» muallifi.

³ Mirxond – jahon tarixi, jumladan, temuriylar davri yoritilgan «Ravzat as-safo» muallifi.

⁴ Xondamir – temuriylarga bag'ishlab bitilgan qator tarixiy asarlar, jumladan, «Habib as-siyar» muallifi.

momlar binolari me'morchilik nuqtayi nazaridan yuksak darajada bajarilgan. Uning qo'l ostidagilar ham Sohibqironidan o'mak olib, ko'plab qurilish ishlarini amalga oshirganlar.

Shaharni devor bilan o'rash, betakror va ulug'vor Oqsaroyni barpo etish, Dor ul-tilovat, Dor ul-saodat majmualaridagi maqbara-yu madrasa ta'miri va yana qator boshqa me'morchilik tadbirlari Shahrisabzda amalga oshirilgan keng ko'lamli quruvchilik jarayonidan dalolat beradi.

Oqsaroy, Ko'ksaroy, Bo'stonsaroy, Amir Temur maqbarasi, Ahmad Yassaviy maqbarasi, Shohi Zinda, Registon, Bibixonim masjidi, Gavharshodbegim madrasasi, Ulug'bek madrasalari va rasadxonasi Dorussaodat, Doruttilovat, Ko'kmasjid va yana o'nlab go'zal, mahobatli va hashamatli imoratlar bugun ham o'zbek aql-u zakovati va dididan butun olamga so'ylab turibdilar.

Amir Temur buyrug'i bilan qurilgan Ahmad Yassaviy maqbarasi hashamati bugun ham kishini lol qoldiradi. Hindiston yurishida Iryob, Nagar shaharlarida qurilgan qo'rg'onlar, Ozarbayjonning Baylaqonida ta'mirlangan qo'rg'on, Kobul vodiysida qurilgan rabotlar va boshqa qator inshootlar ham Amir Temur buyrug'i bilan amalga oshirilgan.

Sohibqironning bunday obodonchilik va me'morchilik faoliyati boshqalarga ham o'mak bo'lgani ma'lum. Bu borada uning avlodlari – Shohruxning Hirot va Marv qo'rg'onlarini tiklagani, Hirotida madrasa, xonaqoh, yangi bozor binolarini qurdirgani, uning xotinlari Gavharshodbegimning Hirot, Mashhad, Tusda madrasalar, Milkat Og'oning Balxda bitta, Hirotida ikkita madrasa, «Dorushshifo» kasalxonasi, xonaqoh, hammom, maqbara, kutubxona binolarini barpo etganlarini misol qilish mumkin.

Yana Ulug'bek Samarqandda bino ettirgan madrasa, hammomlar, Shohi Zindani ta'mirlash, kengaytirish borasidagi qurilishlar, G'ijduvon, Buxorodagi madrasalar, Shahrisabzdagi masjid, Samarqanddagi Muhammad Sulton, Qosim Sulton, Muhammad Qosim nomlari bilan bog'liq hammomlar, shu shahardagi Firuzshoh, Shoh Malik kabi amirlar, Saroymulixonim, Xoja Ahror, Abdullo madrasalari, Tuman Og'o, Ulug'bek xonaqohlari, Hirotidagi amirlardan Jaloliddin Firuzshoh, Farmonshayx, Chaqmoq madrasalari, Yazddagi amir Chaqmoq madrasasi, Sherozdagi Dashtakiy madrasasi, Sulton Husayn xotini Bilga Sultonning Balxdagi «Badiyya» madrasasi, Mashhaddagi amir Yusufxoja masjidi, Abdulqosim Boburning Ano'vdagi masjidi bino etilganini ham eslatish lozim.

Amir Temurning opasi Qutlug' Turkon Og'oning o'z hisobidan madrasalar va xonaqohlar qurgani haqida ham guvohliklar bor. Alisher Navoiy ham

shaxsiy mablag'laridan Xurosonda, xususan, Hirot va boshqa yerlarda bir necha madrasa, 40 ta rabot, 17 ta masjid, 10 ta xonaqoh, 9 ta hammom, 9 ta ko'prik, 20 ga yaqin hovuz, to'g'onlar qurdirgani yoki ta'mirlash ishlariga bosh-qosh bo'lgani ma'lum. Ular sirasiga Hirotidagi «Ixlosiya», «Nizomiy» madrasalari, «Xalosiya» xonaqohi, «Shifoia» kasalxonasi, «Dorul-huffoz» qorixonasi, Marvdagi «Xusraviya» madrasasi, Mashhaddagi «Dorul-huffoz» qorixonasini kiritish mumkin.

O'zbek davlatiga temuriylar yetakchilik qilgan davrda me'morchilik va qurilish sohasida amalga oshirilgan ishlar, eng avvalo, jamiyat manfaatini ko'zlab qilinganini alohida ta'kidlash lozim. Ko'priklar, hammomlar, bozorlar, madrasalar, kasalxonalar, karvonsaroylardan, asosan omma bahramand bo'lgan. Qolaversa, to'xtovsiz olib borilgan turli qurilish ishlari kishilarni ish bilan ta'minlagan, hashamatli va dabdabali binolar barpo etish tadbiri olimlar (ayniqsa, matematika, geometriya, geodeziya), hunarmandlar ijodining yuksalishiga katta turtki bo'lganini tasavvur qilish qiyin emas. Me'morchilik, quruvchilik orqali shaharlar, qishloqlar, butun bir mamlakat obod bo'lib borgan. Davlat xazinasida yig'ilgan katta boylik ko'pchilikka foydali, asrlarga tatigulik xayrli ishlarga sarflangan.

Shunday qilib, davlat va jamiyat turmushining barcha yo'nalishlarida yuz bergan mazkur yuksalishlar o'laroq ushbu bosqich kishilik tomonidan Temuriylar Uyg'onish davri sifatida tan olingan.

Tashqi siyosat. Amir Temurning Yaqin Sharq siyosiy maydoniga shaxdam kirib borishi bu vaqtda usmoniylarning kuchli bosimi ostida qolgan yevropaliklarda o'zbek davlatiga qiziqish va intilishni tug'dirishi tabiiy edi. Amir Temur mintaqa va umuman dunyodagi siyosiy vaziyatni qanchalar chuqur anglaganini 1404 yili Samarqandga kirib kelgan Ispaniya elchisi Klavixoga qarata aytgan mana bu so'zlaridan ham bilsa bo'ladi: «Mening o'g'lim senyor qirolning' ahvollari, sog'liqlari qalay... mening o'g'lim, dunyoning (narigi) chekkasida yashovchi farang qirollari orasidagi eng ulug'i Ispaniya qiroli yuborgan mana bu elchilarga qaranglar... men o'g'lim – Ispaniya qirolini duo qilaman». O'zbek hukmdori murojaatidagi «o'g'lim» oddiy mulozamatda qirolim, degani ekanidan kelib chiqilsa, Sohobqiron franklar, ya'ni yevropaliklarning eng ulug' qirolini farzandidek ko'rishini bildirgan. Ya'ni ularni Yildirim Boyaziddan ustun qo'ygan emas.

Aksincha, usmoniylar yetakchisiga yozgan xatlaridan birida «Farang lashkariga qarshi jehod farzini amalga oshirish yo'lida harakat kamarini (belga)

¹ Bu yerda 1390–1406-yillarda Kastilya va Leo'nni boshqargan Enrike III ko'zda tutilgan.

bog'laganing uchun ham sening mamlakating hududiga hech bir tajovuz etmadik», yoki bo'lmasa «ul janob hech bir xavotirsiz o'sha diyor kofirlari jihodi ila mashg'ul bo'laversinlar. Biz tomondan ul tarafga qaysi shaklda maqbul bo'lsa, samiy inoyat va ko'mak ko'rsatilg'ay», deya unga qarshi tajovuz qo'lini cho'zmasligini qayta-qayta uqtirgan. Holbuki, o'zbek hukmdorining Yildirim Boyazidga qarshi qo'shin tortishini istaguvchilar yetarli edi. Masalan, Iyanis Amir Temur elchilariga «Konstantinopol to shu choqqacha Yildirim Boyazidga to'lab kelgan soliqni bundan buyon Amir Temurga to'laydi» deb masalani ko'ndalang qo'ygan. Trabzonlik Manuyil III² esa, usmoniylarga qarshi urush harakatlari boshlansa, Sohibqironga harbiy kemalar bilan yordam berishini va'da qilgan.

Yildirim Boyazid yengilgandan so'ng esa, Konstantinopol ham, Trabzon ham so'zida turmagan. Bu ham yetmaganday, usmoniylarga yordam berishgan. Shunga qaramay, o'zbek davlati boshlig'i «burgaga achchiq qilmay» Yevropa mamlakatlari bilan bordi-keldilarni uzmagan. Chunonchi, uning Sharl VI³ va angliyalik Henri IV⁴ Sohibqironni ko'klarga ko'tarib maqtab, uning usmoniylarga qarshi kurashini yuqori baholashgan. Masalan, Sharl VI Yildirim Boyazid mag'lubiyatini nazarda tutib, endi biz o'zimizni «g'oyatda yengil va baxtiyor his etmoqdamiz» deb yozgandi. Shu bilan birga, ular Amir Temur taklif qilgan o'zaro savdo aloqalarini rivojlantirish uchun tayyor ekanliklarini bildirishgan. Temuriylar yetakchisi ham, asosan, savdo aloqalarini kengaytirish masalasi bilan cheklangan. Zero, ikki tomon ham bir narsani yaxshi tushunishgan: Amir Temur Yildirim Boyazidni yengishi bilan to shu choqqacha usmoniylarga u yoki bu shaklda qaram Yevropa endi ko'p jihatdan Samarqandga bog'liq bo'lib qolgandi. Shuning uchun ham Yevropa va Samarqand o'rtasidagi elchilik aloqalari Anqara jangidan so'ng ancha faol tus olgan.

Amir Temurning yevropaliklarga savdo-sotiqda hamkorlik qilishni taklif etishi elchilik tilidan oddiysiga o'tkazilsa, «Men sizlarga Yildirim Boyazid kabi siyosiy talab qo'ymayman, faqat bizning savdogarlarga o'z yurtlarinigizda sharoit yaratib bersanglar bo'ldi», degani bilan barobar edi. Mazkur reja amalga oshirilganda esa Xitoydan Atlantika okeanigacha bo'lgan savdo yo'llarini nazorat qilish imkoni tug'ilardi.

¹ *Iyanis* – 1390-yildan Vizantiya sherik-hukmdori.

² *Manuyil III* – 1390 – 1417-yillarda Trabzon hukmdori.

³ *Sharl VI* – 1380 – 1422-yillarda Fransiya qiroli.

⁴ *Henri IV* – 1399 – 1413-yillarda Angliya qiroli.

XV. SHAYBONIYLAR BOSHQARUVI DAVRI

Amir Temur davrida o'zbek davlatiga bo'ysundirilgan Jo'ji ulusidagi¹ siyosiy hayot nazorati keyingi temuriylar hukmronligi yillarida qo'ldan chiqib ketgan. XV asr o'rtalariga kelib esa mazkur kenglik, xususan, Yoyiq daryosidan Balxash ko'ligacha, Sirdaryo quyi oqimlaridan Tobol va Irtish daryolari-gacha hududda hukmronlik qilayotgan Abulxayrxon² Turonda kechayotgan siyosiy jarayonga tortila boshlagan.

Abulxayrxon Chingizxonning nabirasi Shaybonning avlodi bo'lib, shayboniylar sulolasining atalishi ham shu jihat bilan bog'liqdir. Abulxayrxonning katta buvasi Po'lat Sulton esa Ming Temurxon va X asr boshlarida o'zbek davlatini boshqargan somoniylar sulolasining yirik vakili Ismoilning avlodi Jandibek qizi nikohidan tug'ilgan edi. Boshqacha aytganda, uning tomirlarida shayboniylar va somoniylar qoni oqqan.

Abulxayrxonning o'zbek davlati tomon intilishlari XV asr o'ttizinchi yillaridan ko'zga tashlandi. Chunonchi, aynan shu o'n yillikda u ikki marta Xorazmga yurish uyushtirib, maqsadiga yeta olmagan va ortga qaytib ketgan. O'sha paytda saltanat temuriy shahzodalar, xususan, Shohrux qo'lida saqlanib kelardi. Shuning uchun ham u ko'pincha hukmdor harbiy yurishlar bilan ovora bo'lgan pallani poylagan. Masalan, Shohrux nabirasi Sulton Muhammad isyoniga³ qarshi safarda ekanidan foydalanib, 1446–1447-yillar qishida Sig'noq tomondan bostirib kelgani ma'lum. Xuddi shunday, 1447-yil bahorida otasining o'limi haqida eshitgan Ulug'bek Xurosonga oshiqqanidan foydalanib, Abulxayrxon Samarqand tevaragigacha qo'shin tortib kelgan. To'g'ri, u bu gal ham o'lja bilan kifoyalaniib ortga qaytib ketgan. Biroq uning Turon ichkarisiga uyushtirgan har galgi harbiy tadbiri o'zbek davlati siyosiy hayotiga yanada chuqurroq tortilishi uchun zamin yaratib boraverganini ham diqqatdan qochirib bo'lmaydi. Eng muhimi, shayboniylarning janubiy yo'nalishda faollashuvlariga temuriylarning o'zlari sharoit yaratib berishgan.

¹ Jo'ji ulusi – Oltin O'rda.

² Abulxayrxon – 1428–1468-yillarda Shaybon ulusi hukmdori.

³ Boysung'urning o'g'li Sulton Muhammad 1446-yili Eronda bobosiga qarshi bosh ko'targan.

Ulug'bek o'limidan so'ng taxt uchun kurash yanada avjiga chiqqan kezlardan birida – 1451-yili Abu Sa'id harbiy yordam so'rab Abulxayrxonga murojaat qiladi va uning ko'magida Samarqand taxtini egallaydi. Eyziga tortiq qilingan boyliklarning eng qimmatlisi Ulug'bek qizi Robiya Sultonbegim¹ bo'lgani shubhasizdir. Keyinchalik shayboniylar sulolasi vakili sifatida o'zbek davlatini boshqargan Ko'chkunchixon² hamda Suyunchxojaxon³ Abulxayrxonning aynan shu temuriy malika bilan nikohidan tug'ilishgan⁴.

O'z o'rnida qizi Xonzodabegimni Abu Sa'idga uzatib, qarindoshlik ip-larini yanada qattiqroq tugib olgan Abulxayrxon keyin ham goh u, goh bu temuriy shahzodalarni kuch bilan qo'llab turishni to'xtatmagan. Hirot taxti uchun kurashib yotgan Sulton Husayn Boyqaro ham uning yoniga yordam so'rab borgani ma'lum.

Abulxayrxonga nabira bo'lmish hamda oliy ta'limni Buxorodagi madrasada olgan Muhammad Shayboniyxon⁵ shayboniylar xonadonining bobosidan so'ng eng yorqin vakili sanalgan. O'z yurtida mavqeyini mustahkamlab olgach, o'n beshinchi yuz yillik oxirlarida, bu paytda ichki kelishmovchiliklar girdobida qolgan temuriylarga qarshi harbiy harakatlarni boshlab yuboradi. 1498-yilgi ilk urinishida Samarqandni egallash qo'ldan kelmagan bo'lsa-da, 1500-yili uni deyarli jangsiz qo'lga kiritadi. Shu yiliyoq Buxoroni ham zabt etgan. To'g'ri, Zahiriddin Muhammad Bobur 1500-yili Samarqandni qaytarib olishga muvaffaq bo'lgan. Biroq 1501-yili shahar yana Muhammad Shayboniyxon qo'liga o'tadi.

Urganch (Gurganj, 1505), Balx (1506), Hirot (1507) ham o'z hokimiyatini o'rnatgach, u keyingi ikki yil ichida Xurosonning boshqa bo'laklari, jumladan, Damg'on, Astrobod, Mashhadni ham egallaydi. Shu tariqa, Abu Sa'iddan so'ng birorta temuriy bajara olmagan ishni Muhammad Shayboniyxon eplagan – shimolda Sirdaryodan janubda Qandahorgacha, sharqda Xitoydan g'arbda Kaspiy dengizigacha yastangan ulkan tarixiy kenglikni birlashtirishga muvaffaq bo'lgan. Bu esa o'z o'rnida, uning siyosiy, iqtisodiy qudratini yuksaltirib yuborgani va asrlar ichra an'anaga aylangan yo'nalish – Eron sari

¹ U 1485-yili vafot etgan va Turkiston shahridagi maqbaraga ko'milgan.

² Ko'chkunchixon – 1512–1530-yillarda o'zbek davlatini boshqargan shayboniy yetakchi.

³ Suyunchxojaxon – 1511–1512-yillarda o'zbek davlatini boshqargan shayboniy yetakchi.

⁴ Manbalarda Ulug'bek Abulxayrxon qiziga uylangani to'g'risida ham guvohliklar bor. Ya'ni, ular qarshi quda bo'lganlar. Aftidan, 1447–1449-yillar oralig'ida yuz bergan mazkur to'xtamga temuriy hukmdor shayboniylar bilan siyosiy murosaga kelish uchun kelgan.

⁵ Muhammad Shayboniyxon – 1501–1510-yillarda o'zbek davlatini boshqargan shayboniy yetakchi.

harakatlanishga undashi, demak, aynan shu yillarda mazkur mamlakatda siyosiy sahnaga chiqqan safaviylar¹ bilan to'qnash kelishi turgan gap edi.

1510-yili Marv yaqinidagi jangda eronliklar sardori Ismoil² qo'shini bilan yuz bergan urushda Muhammad Shayboniixon yutqazibgina qolmay, jonini ham boy bergan. Fursatdan foydalangan Zahiriddin Muhammad Bobur 1511-yili Samarqandni egallashga muvaffaq bo'ldi. Biroq uning hukmronligi yetti oydan oshmagan. O'z siyosiy maqsadiga yetishish – Turondagi siyosiy hokimiyatni shayboniylardan tortib olish uchun Ismoildan harbiy ko'mak olib, Samarqandda uning, ya'ni shia mazhabining nomidan xutba o'qitib, tangga bostirgani mahalliy sunniy aholining noroziligini keltirib chiqargan.

Bu ham yetmagandek, 1512-yil bahorida shayboniylar bilan olishuvda engilgan Zahiriddin Muhammad Bobur kuzga borib yana eronlik qo'shin yordamida Amudaryoni kechib o'tadi va Qarshida 15000 kishi qirib tashlanadi. Ushbu voqea turonliklarning safaviylar va temuriyzodaga bo'lgan g'azabini oshirgan. G'ijduvonda sodir bo'lgan jangda shayboniylar qo'shinidan katta talafot ko'rgan Zahiriddin Muhammad Bobur hamda eronlik lashkar Turonni butunlay tark etishga majbur bo'lishgan.

Keyingi shayboniylar Suyunchxojaxon, Ko'chkunchixon, Abu Sa'idxon³ davrlarida markaziy hokimiyat kuchli salohiyatga ega emas edi. 1533-yildan davlatni boshqara boshlagan Ubaydullaxon⁴ ichki kelishmovchiliklarga barham bergani, ikki marta (1429 va 1436-yillarda) Hirotni eronliklardan tortib olgani bilan mashhurdir. Ammo uning o'limidan so'ng yuz bergan siyosiy parokandalik oqibatida markaziy hokimiyatning parchalanish jarayoni va ikki hokimiyatchilik vujudga keladi. Oqibatda, Abdulazizxon⁵ Buxoro taxtida o'tirgan bo'lsa, Samarqandda oliy hukmdor sifatida Ko'chkunchixonning o'g'illari – avval Abdullaxon I⁶, so'ngra Abdullatifxon⁷ hukmronlik qilishgan.

Ikki hokimiyatchilik viloyat hokimlarining boshboshdoqligini kuchay-

¹ *Safaviylar* – 1501–1736-yillarda Eronni boshqargan turkiy sulola.

² *Ismoil I* – 1501–1524-yillarda Eronni boshqargan safaviy yetakchi.

³ *Abu Sa'idxon* – 1530–1533-yillarda o'zbek davlatini boshqargan shayboniy yetakchi.

⁴ *Ubaydullaxon* – 1533–1540-yillarda o'zbek davlatini boshqargan shayboniy yetakchi.

⁵ *Abdulazizxon* – ikki hokimiyatchilik davrining 1540–1550-yillarida Buxoroni poytaxt qilib olgan shayboniy yetakchi.

⁶ *Abdullaxon I* – 1540-yili olti oy o'zbek davlatini boshqargan shayboniy yetakchi.

⁷ *Abdullatifxon* – ikki hokimiyatchilik davrining 1540–1551-yillarida Samarqandni poytaxt qilib olgan shayboniy yetakchi.

tirib yuborishi tabiiy edi. Ushbu holat Abdullaxon II¹ zamonigacha davom etgan. O'z siyosiy yuksalishini 1557-yili Buxoroni qo'lga kiritishdan boshlagan shayboniy shahzoda Balx (1573), Samarqand (1578), Toshkent (1582), Farg'ona (1583), Badaxshon (1584), Ko'lob (1585), Xuroson (1588), Xorazm (1595–1596) ustidan ham o'z hukmronligini o'rnatib, mamlakatni birlashtirishga, markazlashgan davlat boshqaruvini tiklashga erishadi.

Abdullaxon II ning 1598-yili ro'y bergan o'limidan keyin taxtga chiqqan Abdulmo'minxon² hukmronligi uzoqqa bormagan – olti oydan so'ng o'ldirilgan. Pir Muhammadxon II³ esa tarixga shayboniylar sulolasining so'nggi vakili sifatida kirgan, xolos.

Davlat boshqaruvi. Shayboniylar davri davlat boshqaruvi ularga qadar ko'p asrlar davomida shakllangan, asosan, o'troq aholiga xos murakkab idora tizimi an'analari hamda ayrim hollarda yarim ko'chmanchi jamiyat unsurlarini o'zida birlashtirgan. Chunonchi, dargoh va devonlar tizimi bir oz o'zgarishlarga yuz tutgan, aniqrog'i, devonlarning ish vazifalarini dargoh huzuridagi xizmatlar bajara boshlashgan. Shu tariqa, devonlarning davlat boshqaruv tizimidagi o'rni yo'qolib borgan.

Davlat boshqaruvining oliy organi dargoh hisoblangan. Davlat tepasida oliy hukmdor – xon turgan. Xon etib tayinlash uni oq kigizda ko'tarish orqali amalga oshirilgan. Bu marosimda kigizning to'rt uchini xonga mansub urug'ning qudratli vakillari, aslzoda amirlar va ulamolar ushlab turishgan.

Taxtotadan bolagaemas, balki shayboniylar orasidagi yoshi eng ulug' shaxsga nasib etgan. Lekin bu borada ham muayyan o'zgarishlar sodir bo'lganini aytish lozim. Xususan, Abdullaxon II davriga kelib, oliy hukmdorlik mavqeyi otadan o'g'ilga o'tish an'anasi shakllana boshlagan. Biroq u qonuniy tus olmay, keyingi hukmdorlar davrida bundan chekinish holatlari ham kuzatilgan.

Taxt vorisi «navvob», «qolg'a», «kichik xon» deb ham atalgan. Masalan, 1512-yili Ko'chkunchixon oliy hukmdor bo'lgach, yosh jihatdan xondan keyin ikkinchi o'rinda turgan uning ukasi Suyunchxoja «qolg'a» sifatida belgilangan. 1525-yili bevaqt vafot etgach, xondan keyingi yoshi ulug' shahzodalardan biri – Jonibek sulton⁴ valiahd etib belgilanadi. 1529-yili u ham oradan ketgach, eng katta shahzodalar Abu Sa'id va Abdulla birin-ketin «qolg'a», undan keyin esa oliy hukmdorlik martabalariga ko'tarilishgan. Abdullaxon II

¹ Abdullaxon II – 1583–1598-yillarda o'zbek davlatini boshqargan shayboniy yetakchi.

² Abdulmo'minxon – 1598–1599-yillarda o'zbek davlatini boshqargan shayboniy yetakchi.

³ Pir Muhammadxon – 1598–1601-yillarda o'zbek davlatini boshqargan shayboniy yetakchi.

⁴ Jonibek sulton – Xoja Muhammad o'g'li, Abulxayrxon nabirasi.

toimonidan kiritilgan tartibga ko'ra, valiahdga boshqarish uchun Balx viloyati beriladigan bo'lganini ham aytib o'tish lozim.

Dargohda xondan keyin yirik amaldor naqib sanalgan. Bu lavozimni egallagan shaxs oliy hukmdorning eng yaqin va ishonchli kishisi bo'lib, xon qabulidagi marosimlarda oliy hukmdorning so'l tarafida birinchi o'rinda o'tirgan. Uning farmon va yorliqlarida birinchi o'rinda zikr etilgan. Ichki va tashqi siyosat, harbiy masalalarda xonning birinchi maslahatchisi sifatida e'tirof etilgan naqib zimmasiga harbiy yurishlarni uyushtirish, amalga oshirish, dushman tomonning harbiy imkoniyatlarini o'rganish ham yuklangan. Ayrim hollarda ular elchilik vazifasini bajarganlari ma'lum.

Davlat ahamiyatiga molik lavozimlardan yana biri otaliq edi. Shahzodalar tarbiyasiga mutasaddi bo'lgan otaliqlar, odatda, qabilalarning yoshi katta amirlaridan tayinlanib, ular tarbiyasi o'zlariga birlashtirilgan shahzodalarga ajratilgan viloyatlarni, odatda, Balx viloyatini boshqarishgan.

Oliy hukmdor chiqargan hukmlar, yorliqlarni ijrochilarga, muayyan amalga tayinlangan amaldorga yetkazuvchi parvonachi ham dargohda muhim o'rin egallagan. Bunday yorliq egasi uni uch kun sallasiga qistirib yurishi lozim bo'lgan. Bu bilan u atrofdagilarni o'zining lavozimga tayinlanuvidan xabardor qilar edi. Shu bilan birga, har bir lavozim egasiga oliy hukmdor tomonidan sarpo berilar edi.

Harbiy harakatlar davrida parvonachilar zimmasiga muhim vazifalar yuklatilgan bo'lib, ular ko'p hollarda harbiy yetakchilikni amalga oshirishgan.

Aholining arz-dodlari va iltimoslari aks etgan xatlarni qabul qiluvchi va ularga javob qaytaruvchi, mamlakatdagi adolat tartiblariga rioya qilinishini nazorat qiluvchi amaldor dodxoh edi. Shuningdek, ushbu mansab egasi elchilarni qabul qilish, elchilik yumushlarini tashkil etish va o'zi ham elchi sifatida boshqa mamlakatlarga borib kelganiga oid ma'lumotlar bor.

O'zbek davlatchiligining shayboniylar davri boshqaruv tizimida muhim o'rin tutgan lavozimlardan biri ko'kaldoshdir. Bu lavozim egasi oliy hukmdor va sulolaga eng yaqin kishilardan biri sanalib, odatda, hukmdor sulolaning biror-bir vakili bilan bir onani emgan shaxs bo'lgan va demak, xonning eng ishonchli kishilardan biri bo'lib, uning zimmasiga nozik va mas'uliyatli vazifalar yuklangan. Butun mamlakatdan hukmdorning do'stlari va dushmanlari haqida, jumladan, oliy hukmdor olib borayotgan siyosat daxlsizligi, unga turli shaxslarning munosabatlari to'g'risida ma'lumot to'plash uning zimmasiga yuklatilgan vazifalardan biri edi.

Oliy hukmdor bilan shahzodalar o'rtasidagi aloqalarni o'rnatilgan tartiblar asosida yo'lga qo'yish ishi bilan xon yasovuli shug'ullangan. Xususan, ular xizmat doirasiga shahzodalarni xon tomonidan qabul qilinishini tashkil etish,

ular keltirgan tortiqlari, arznomalari va iltimoslarini oliy hukmdorga yetkazish vazifalari ham kiritilgan edi.

Dargohda boshqa lavozim va mansablar mavjud bo'lib, ular jumlasiga xavfsizlik, tartib, keldi-ketdidan xabardorlik zimmasiga yuklatilgan oshik og'asi, hukmdor tomonidan tortiq qilingan kiyimlar, harbiy asbob-anjomlar, shuningdek, soliq daftarlariga yig'ilgan xirojni yozib borish yuklatilgan mushrif, tungi qo'riqlash boshlig'i – mirshab, oliy hukmdorga tegishli yilqi, ot-ulov, ularning ta'minoti kabilarga javobgar miroxur, xorijlik elchilarni qabul qilishga mutasaddi bo'lgan shig'ovul, dasturxonchi, munshiy, ovqat suzuvchi va ichimlik quyuvchi – to'qsoba, ov qurol-aslahalari va ov qushlari, itlariga mas'ul bo'lgan qushbegi va boshqalarni kiritish mumkin.

Faoliyati dargoh bilan bog'liq bir qator boshqa xizmatlar va ularga mas'ul mansab egalari ham bo'lgan. Ular jumlasiga qo'rchiboshi (qurol-aslahalar xizmati boshlig'i), jibochi, jarchi, qorovulbegi, kitobdor, mirzaboshi, muhrdor, xazinachi, mehtar va boshqalarni kiritish mumkin.

Turli mansab egalari harbiy yurishlarda ham faol ishtirok etishgan.

So'z ketayotgan zamon jamiyat hayotida shayxulislom, muftiy, qozilarning ham o'z o'rnini bo'lgan. Chunonchi, shayxulislomlar intizom va tartibni shariat qonunlari bo'yicha saqlab turishga harakat qilishgan.

Qozilar oliy hukmdor – xon tomonidan tayinlanar, poytaxt shahar – Buxoro qozisiga viloyatlar qozisi bo'ysunar edi. Poytaxt shahar qozisi, o'z navbatida, bosh qozi – qozi kalon deb ham atalar edi. Shuningdek, harbiylarning munozarali masalalarini hal etuvchi askar qozisi va umumiy masalalar bo'yicha mutlaqqozi ham bor edi. Ko'p hollarda qozilarni tayinlashda ularning qozilar avlodidan ekaniga ham alohida e'tibor qaratilgan.

Shuningdek, murakkab boshqaruv tizimida muftiy, sadr, muhtasib, rais singarilarning ham o'z o'rinlari bo'lgan.

Oliy hukmdor huzurida o'tkazilgan majlislar va qabul marosimlarda har bir mansab va lavozim egasi faqat uning uchun ajratilgan joyda o'tirishi lozim bo'lgan. Bu joy lavozimning katta-kichikligiga qarab xonning o'ng yoki so'l tarafida, oliy hukmdorga yaqin yoki uzoqroqda bo'lishi mumkin edi. Ayrim amaldorlar bu majlislarda o'tirish, ba'zilar esa faqat turib ishtirok etish huquqiga ega edilar. Ayrim amaldorlarga saroyga otda kirishga ruxsat berilar, boshqalari faqat piyoda kirish huquqiga ega edilar.

Yuqorida ta'kidlanganidek, shayboniylar davrida devonlar faoliyatini yaqqol namoyon etuvchi ma'lumotlar juda kam. Hukmdor sulolaga tegishli yer-suv, mol-mulk boshqaruvi, nazorati va soliq ishlarini olib borgan maxsus tuzilma manbalarda devoni sarkorixossa tarzida uchraydi.

Bu davrda devonbegi – bosh vazir ham faoliyat yuritgan. Ushbu mansab egasi mamlakatning muhim ishlari, mol-mulk, moliya, soliq, yer-suv masalalari, viloyatlar bo‘ylab amaldorlarga ish taqsimlash, mansablarga tayinlash va ularning barchasi haqida oliy hukmdorga har kuni hisobot berib turishi kerak bo‘lgan.

Hokimiyat tepasiga kelgan shayboniy hukmdorlar birinchi navbatda sulola vakillari, qarindosh-urug‘larini mulk bilan ta‘minlashga harakat qilishgan. Ular o‘zlariga ajratilgan yerlar – viloyatlarning boshlig‘i ham hisoblanishgan. Ayni vaqtda ularda ham markaziy hokimiyatdagi kabi boshqaruv tizimida mavjud turli amallar egalari faoliyat yuritishgan.

Qayd etib o‘tish lozimki, markaziy va mahalliy davlat boshqaruvida band bo‘lgan barcha mansab va lavozim egalari zimmasiga muayyan harbiy vazifalar ham yuklatilgan edi.

Ijtimoiy-iqtisodiy hayot. Shayboniylar davrida o‘lka aholisi turmush tarzida keskin o‘zgarishlar yuz bergani kuzatilmagan. To‘g‘ri, ular bilan birga bir qator urug‘ va aymoqlar ko‘chib kelib o‘tmashishgan, biroq mamlakat aholining asosi bo‘lgan o‘troq madaniyatga katta ta‘sir ko‘rsatgan emas.

Aholi turli ijtimoiy guruhlardan tashkil topgan bo‘lib, hukmdor sulola – xon, shahzodalar, amirlar, turli toifali amaldorlar, harbiylar, katta-kichik mulk egalari, dindorlar, mudarrislar, dehqonlar, hunarmandlar va savdogarlar, qishloq va shahar kambag‘allari, qullardan iborat bo‘lgan.

Aholining asosiy qismi sug‘orma dehqonchilik qilishga qulay bo‘lgan vohalar va ularda joylashgan shahar, qishloqlarda yashagan. Shuningdek, yarim ko‘chmanchi hayot tarzini kechirgan abdal, qarluq, qang‘li, barlos, jaloyir va boshqa urug‘lar, asosan, lalmi yerlarda yashab, dehqonchilikdan tashqari chorvachilik bilan ham shug‘ullanishgan.

Shayboniy hukmdorlar iqtisodiyotning asosiy sohasi – dehqonchilikni rivojlantirishga katta e‘tibor berishgan. Uzluksiz urushlar va o‘zaro nizolar dehqonlarni xonavayron qilishi ayrim xonlarni chorvachilikni jonlantirishga qaratilgan bir qator chora-tadbirlarni ko‘rishga undagan. Misol uchun, Shayboniyxon davlat xazinasiga tushadigan soliqlar hajmining pasayib ketmasligini ta‘minlash maqsadida o‘z yeridan qochib ketgan dehqonlar va kichik yer egalarini o‘z joylariga qaytarish va ulardan undiriladigan soliqlarni bir oz pasaytirishga harakat qilgani ma‘lum.

Dehqonchilikni rivojlantirishda sun‘iy sug‘orish tizimlari muhim o‘rin tutgan. Zarafshon, Chirchiq, Sirdaryo, Amudaryo, Vaxsh, Murg‘ob daryolari imkoniyatlaridan mahalliy aholi asrlar davomida unumli foydalanib kelish-

gan. Shayboniylar ham bu an'anani davom ettirishgan. Ularning hukmronligi davrida yangi sug'orish tizimlarining barpo etilishi, eskilarining ta'mirlanishi dehqonchilikning nisbatan jonlanishiga samarali ta'sir ko'rsatdi. Muhammad Shayboniixon Zarafshon daryosining Oqdaryo va Qoradaryoga ayrilish yerida suv taqsimlagich qurdirgan, Abdullaxon II tomonidan Oqjobda «Abdullaxon bandi», XVI asrning ikkinchi yarmida Puli Karmina, Puli Mehtar, Puli Jondor va boshqalar yaratilgan. Zarafshon daryosidan Jizzax vohasigacha tortilgan va Sangzar daryosi bilan tutashuvchi Tuyatortar arig'i, Murg'ob vohasidagi Hovuzixon suv ombori, Afshona arig'i, Amudaryodan Chorjuygacha, Murg'ob daryosidan Marv atrofiga chiqarilgan ariqlar ham aynan Abdullaxon II boshchiligida bajarilgan ishlardir. Ya'ni yurtimizning deyarli barcha hududlarida sug'orish inshootlari, ko'priklar qurilib, ariqlar qazilgan. Bundan tashqari, mahalliy ahamiyatga ega ariqlar (Toshkent viloyatidagi Zaxariq), karvon yo'llari bo'yida sardobalar qurilib, bu ishlarga o'n minglab mardikorlar jalb etilgan.

Sug'orish ishlarining tartibga keltirilishi mamlakatda g'allachilik, paxtachilik, polizchilik, bog'dorchilik, uzumchilik kabi sohalarning rivojlanishiga olib kelishi tabiiy edi. Asosiy dehqonchilik hududi Zarafshon, Miyonqol vodiysi edi. Ularda boshhoqli ekinlar, jumladan, turli navli bug'doy, sholi (ko'k sholi, pushti rangli doni dumaloq qizil sholi, arpa sholi), arpa, tariq ekkanlar. Ayniqsa, asosiy oziq-ovqat mahsuloti bo'lgan sholi yetishtirishga alohida e'tibor qaratilgan. Makkajo'xori, mosh, no'xot ham yetishtirilgan.

Yog' olishda keng qo'llanilgan kunjut, zig'ir ham ekilgan. Buxoro, Shahrisabz, Kattaqo'rg'onda esa paxta yetishtirilgan.

Aholining bir qismi tomonidan bo'yoq olinuvchi o'simliklar – ro'yon, pista daraxtidan buzgunch, qirmiz yetishtirilgan. Polizchilik ekinlari – piyoz, sabzi, turp, sholg'om, lavlagi, qovoq, tarvuz, qovunning turli navlari ekilgan. Shuningdek, aholi bog'dorchilik bilan ham keng shug'ullangan, olmaning har xil navlari, anor, uzum, nok, shaftoli, olxo'ri, gilos, tut kabilar yetishtirilgan. Bog'lar atrofiga soya-salqin beruvchi turli daraxtlar ekilgan bo'lib, ular hunarmandchilik uchun asosiy xomashyo vazifasini o'tagan.

Chorvachilik ham rivojlangan. Aholi qo'y, sigir, buqa, ho'kiz, tuya, ot va boshqa hayvonlarni boqish, ko'paytirish bilan shug'ullangan. Yirik yer egalari qo'lida chorva moddiy boylik sifatida to'plangan edi. Masalan, Xoja Sa'diddinning¹ 25000 qo'yi, 1500 oti, 1000 ta tuyasi bo'lgani ma'lum.

Asosiy boylik manbayi bo'lgan yerning mulkiy jihatdan bir qancha turlari – davlat², vaqf va mulk yerlari mavjud edi. Shayboniylar davrida davlat

¹ Xoja Sa'diddin (1531–1589) – jo'ybor xojalarining yirik vakili.

² Mamlakayi devoni, mamlakayi podshohi, zamini mamlaka, mamlakayi sultoni yoki mamlaka.

yerlari hajmi ortdi. Davlat yerlari va ulardan undiriladigan soliqlar dunyoviy va diniy amaldorlarni taqdirlashning asosiy manbayi vazifasini o'tadi. Ular suyurg'ol, tiul, iqto, tanho tarzida tortiq etilgan. Mahmud ibn Valining¹ yozishicha, agar yer podsho tomonidan sayidlar va ulamolarga tortiq yetilsa, suyurg'ol, harbiylarga berilsa, tanho deb atalgan.

Aholining katta qismi o'zining yeriga ega emas edi. Ko'p hollarda ular yerni ijaraga olib, xo'jalik yuritishgan.

So'z ketayotgan davrda ko'chmanchi aholining, ayniqsa, ko'chib yurish imkoniga ega bo'lmagan, iqtisodiy jihatdan tang ahvolga tushib qolgan qismining o'troqlashish jarayoni yuz berib borganini ham ta'kidlash joiz.

Shayboniylar hukmronligi yillarida ham iqtisodiy munosabatlarda muhim o'rin egallagan hunarmandchilik keng rivojlangan edi. Samarqandda tuzilgan qozilik hujjatlarida oltmishdan ortiq hunar turi keltirilib o'tilgani bunga tasdiqdir.

Hunarmandchilikning eng rivojlangan asosiy sohalaridan biri to'qimachilik edi. To'quvchilar yaratgan ko'pdan-ko'p mahsulot turlariga nafaqat ushbu shahar, balki qo'shni qishloqlar, boshqa shaharlar, mamlakatlar orasida talab katta edi. Mamlakatning turli markazlarida ip-gazlamalar (bo'z, olacha, zandanachi, chit), ipak-gazlamalar (oltin va kumush bezakli yo'l-yo'l parchalar, atlaslar, baxmallar, kimxob, tafta va zarbof), yarim ipak gazlamalar va boshqalar ishlab chiqarilgan. Bu matolarga xorijda ham talab katta edi. Ulardan biri Samarqandda keng ishlab chiqarilgan baxmal bo'lib, Zahiriddin Muhammad Bobur «Samarqandning yana bir matosi qirmizi baxmaldirki, uni atrof va yiroq-yaqinlarga eltadilar», deb yozadi.

Bo'yoqchilik, kiyim-bosh (to'n, ko'ylak, ro'mol, poyabzal va boshqalar), kulolchilik (turli-tuman idishlar, tandirlar, g'isht va qurilishda ishlatiladigan koshinli g'ishtlar va h.k.), yog'ochga ishlov berish, kemasozlik, teriga ishlov berish, metalar – temir, mis, jez, cho'yan, kumush, oltin kabilardan turli-tuman uy-ro'zg'or buyumlari, mehnat qurollari, binolar qurilishida ishlatiladigan turli temir moslamalar va buyumlar, zebi-ziynat asboblari, harbiy qurol-aslahalar ishlab chiqarish ham rivojlangan edi. Shu o'rinda, Abdullaxon II ning «oltin dubulg'a»si va «yuzlab ko'zlar ochilib turgan sovut»i haqidagi ma'lumot temirchi-ustalarining yuksak mahoratidan darak beradi.

Ayrim markazlar ularda ishlab chiqarilgan muayyan mahsulot turi bilan mashhur edi. Samarqand haqida yozgan Zahiriddin Muhammad Bobur «Yaxshi nonvoyliklari va oshpazliklari bordin», deb qayd etgan edi. Shaharni mashhur etgan yana bir mahsulot yozuv qog'oz bo'lib, «Olamda yaxshi qog'oz Samar-

¹ Mahmud ibn Vali – XVI asr tarixchisi, geograf olimi, sayyohi, mashhur «Bahr al-asror fi manoqib al-ahyor» («Oliyjanob insonlar jasorati xususida sirlar dengizi») muallifi.

qanddan chiqadi. Qog'oz juvozlariga suv butkul Konigildan keladi», deb manbada qayd etilgan edi. Samarqandlik hunarmand-qog'ozgarlar ipakdan (qog'oz-i abrishumi), yarim ipakdan va paxtadan qog'oz tayyorlashgan. Qog'ozning «qizil, ko'k, sariq va boshqa ranglarga» bo'yalgan xillari ham mavjud edi.

Shayboniylar davrida ichki va tashqi savdo rivojlanishda davom etgan. XVI asr o'rtalarida Buxoroda bo'lgan Antoni Jenkinson¹, «shaharda har yili Hindiston, Eron, Balx, Rossiya va boshqa ko'plab mamlakatlardan keluvchi savdogarlarning yig'ilishi bo'ladi», deb ko'rsatgan edi.

Xorijiy savdogarlar mamlakatga o'z yurtlaridan asl mollarni olib kelishgan va bu yerdan o'z davlatlarida ehtiyoj talab mahsulotlarni olib ketishgan. Xususan, hindistonlik savdogarlar qimmatbaho toshlar, marvarid, shuningdek, novshadil, kimxob, doka, chubi sandal, shakar, novvot, xina, sano, o'sma, zarchuba, haqiq va turli noyob matolar, shol (rizoi – bir xil rangdagi, raxdor – yo'l-yo'l, butador palma tasviri tushirilgan), belbog'lar uchun mato, alvon, yarim etik-juroblar (paypoq) va qo'lqoplar, qalamdonlar, qo'lyozmalar va boshqalarni olib kelishgan.

XVI asrning ikkinchi yarmidan boshlab Turon shaharlarining Rossiya bilan munosabatlari rivojlana bordi. Rossiyadan, asosan «bulg'oriy terisi», mo'ynalar, movut, yog'och idish-tovoqlar va boshqalar keltirilgan.

Qo'shni mamlakatlarga turli xil – ip, ipak va jun gazlamalar, tayyor kiyim-bosh yetkazib berilgan.

Mamlakatning turli markazlari o'zining ixtisoslashgan bozorlari bilan mashhur edi. Zahiriddin Muhammad Bobur Samarqand haqida yozar ekan, «Samarqand shahri ajoyib orasta bir shahardir. Bu shaharning bir xususiyati borki, bunaqasi kamdan-kam shaharda bo'ladi, ya'ni har hunarmandning alohida bozori bor, bir-biriga aralashgan emas, bu qiziq rasmdir», deb yozadi. Antoni Jenkinson ham bu holatni Buxoro misolida tasdiqlab, quyidagilarni yozgan edi: «...bu yerda har bir hunarmandchilik sohasi o'zining alohida bozoriga ega».

Shayboniylar davrida oltin («ashrafiy»), kumush («tanga», «tangacha», «xoniy»), kumush va mis aralashmasidan tayyorlangan mis tangalar («mis dinor», «dinor») muomalada bo'lgan. Oltin tanga zarb etilishi muntazam emasdi. Muhammad Shayboniyxon va Abdullaxon II tomonidan oltin tangalar zarb etilgani ma'lum. Jumladan, Muhammad Shayboniyxon turli og'irlikdagi tangalar o'miga bir xil og'irlik o'lchoviga ega kumush (5,2 gramm) va mis tangalar zarb ettiradi.

¹ Jenkinson Antoni – 1558–1559, 1562–1564-yillarda Eron va Turonda bo'lgan ingliz sayyohi, savdo vakili va elchisi.

XVI asrning birinchi choragida ikki dinor, uchdan ikki, yarim, uchdan bir va oltidan bir dinor qiymatiga ega mis tangalar muomalada bo'lgan. Eng kichik mis tanga pul deb atalgan.

Kumush tangalarning qiymati mis tangalar bilan belgilanib, u 20–21 mis tangaga teng bo'lgan. Asta-sekinlik bilan kumushning narxi oshib borgan. Bu esa kumush tangalarning davlat hududidan olib chiqib ketilishiga olib kelgan. Natijada, zarbxonalarga kumush tanga zarbi uchun keltiriladigan metalning hajmi kamayib ketgan. Shunday sharoitda Abdullaxon II kumushning tanqisligi tufayli pul islohotini o'tkazib, asosiy, uning yarmisi va juda kichik tanga tarzidagi oltin tanga zarb ettirgan. Kumushning tanqisligi tufayli kumush tanganing qiymati bir yarim barobar oshirilib, yangi tangalar 30 mis dinorga tenglashtirildi.

Abdullaxon II pul islohoti natijasida tanga zarb etish nisbatan markazlashtirildi. Asosiy zarbxona Buxoroda bo'lib, Balx, Samarqand va Toshkentda onda-sonda va oz miqdorda tanga zarb qilingan.

Shayboniylar davrida ham asosiy yer solig'i temuriylar zamonidagi kabi xiroj (mol) bo'lib, u hosildan muayyan bo'lak ($1/3$, $1/4$, $1/5$ ayrim hollarda $1/2$) tarzida undirilgan. Mulk yerlaridan hosilning $1/10$ bo'lagi ushr tarzida undirilgan. Amlokdorlar foydasiga boshqali ekinlar va paxta hosilidan kafsan solig'i undirilgan. Bog'lar va polizlarning har tanobidan tanob puli, bedazorlardan alaf puli undirilgan bo'lib, bu ikki soliq turi ba'zan yagona atama tanabona deb atalgan. Shuningdek, xon saroyi, boshqaruv tuzilmasi va harbiy kuchlarni ta'minlash uchun turli soliqlar to'plami «ixrojot» to'langan. Harbiy harakatlar avj olgan yillarda esa dehqon va shahar aholisidan «avarizot» solig'i (qisman pul tarzida) undirilgan.

Bu soliqlardan tashqari, aholi barcha musulmon davlatlaridagi kabi zakot to'lagan. Unga ko'ra, har bir musulmon o'z daromadining $1/40$ qismini zakot tarzida to'lashi lozim edi. Ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi aholi zakotni tovar bilan to'lagan. Ya'ni 40 ta qo'ydan bir qo'y to'langan.

Pilla puli, ko'knor puli, sabzi puli, xarbuza puli, bozor solig'i, tarozu puli, tuz puli, qarag'ay puli, o'tin puli, cho'p puli va boshqalar ham to'lab kelingan. Tovarlarda qo'shin ta'minoti uchun «tog'ar», hukumat qo'shinidagi askarlar uchun oziq-ovqat, ot va tuyalar uchun yem-xashak – «oshlig'» kabilar undirilgan. Aholi bir qator mehnat majburiyatlarini – mardikor (sug'orish tizimlarini barpo etish, ta'mirlash va tozalash), qal'a yoki xarji qo'rg'on (qo'rg'onlar va shahar devorlarini qurish, qayta tiklash va ta'mirlash) va boshqalarni ham o'tashi lozim bo'lgan.

Ilm-fan va madaniyat. Shayboniylar davrida mamlakat madaniy hayotining asosiy markazlari an'anaviy ravishda Samarqand va Buxoro bo'lib

qolavergan. Abdullaxon II Buxoroni uzil-kesil davlat poytaxtiga aylantirgan va u yerda «madrasa, masjidlar, darvishlar xonaqolari, daryolardagi ko'priklar, savdo yo'llarida yaxshi himoyalangan to'xtash joylari (rabotlar) va boshqa foydali binolarni qurishda cheksiz xatti-harakatlarni amalga oshirgan». Shahar hududiy jihatdan ham kengayib borgan. Uning yaqinidagi Sumiton qishlog'ining poytaxt hududiga kiritilishi munosabati bilan shahar devorlari qayta qurilib, bu yerda Yangi darvoza – Darvozayi nav qurilgan edi.

Buxoroda shahar devori ta'mirlanib, 1535–1536-yillarda Mir Arab madrasasi, 1540–1541-yillarda Masjid-i Kalon, 1578–1579-yillarda shahardagi, egallagan maydoni jihatidan, eng katta madrasa – Qulbobo Ko'kaldosh madrasasi, Abdullaxonning onasi tomonidan 1566–1567-yillarda qurilgan «Modarixon» va 1589–1590-yillarda bunyod etilgan Abdullaxon madrasasidan tashkil topgan «Qo'sh madrasa», Gavkushon, Jo'ybor, Fatxulla qo'shbegi, Muhammadxoja Porso madrasalari qatorida Kalon, Xoja Zayniddin, Baland, Abdullaxon, Chor Bakr masjidleri, Zargarlar, Sarroflar, Telpakfurushlar, O'qchilar toqlari, Abdullaxon timi quriladi.

Muhammad Shayboniyxon «otimizning egari – bizning poytaxtimiz» deb aytgan bo'lsa-da, Samarqand hokimiyat tepasiga kelgan yangi sulola dastlabki vakillarining bosh shahri vazifasini o'tayveradi.

Shayboniylar davrida mamlakatning turli markazlarida katta qurilish ishlari olib borildi. Jumladan, Samarqandda Muhammad Shayboniyxon, Abu Sa'idxon, Qulbobo Ko'kaldosh¹ tomonidan madrasalar qurdirilgan.

Toshkentda Baroqxon, Ko'kaldosh madrasalari, Qaffoli Shoshiy maqbarasi, Turkistonda (Yassi) Muhammad Shayboniyxon masjidi qurilgan. Balxda 14 kilometrli qo'rg'on devorlari ta'mirlanib, Abdullaxon, Qulbobo Ko'kaldosh madrasalari, Ko'kaldosh masjidi va raboti, bir qator chorbog'lar, Hirotida madrasa, turli shaharlarda karvonsaroylar quriladi. Manbalarda qayd etilishicha, birgina Abdullaxon II davrida mintaqada 1001 ta rabot va sardoba qurilgandi.

Shayboniylar davrida fan va madaniyat rivojida sulola vakillari muhim o'rin tutishgan. Sulola vakillarining o'zlari nihoyatda o'qimishli shaxslar bo'lganlarini diqqatdan qochirib bo'lmaydi. Muhammad Shayboniyxon, Ko'chkunchixon, Ubaydullaxon, Abdulazizxon, Abdullaxon kabi shayboniylar turkiy va forsiyda she'rlar bitishgan, chuqur diniy va dunyoviy bilimga ega bo'lishgan. Muhammad Shayboniyxon Buxoroda ta'lim olgan, Ubaydullaxon musiqiy asboblari chalgan, nozik husnixat egasi bo'lgan. Abdullatifxon esa tarix, ilmi

¹ Qulbobo Ko'kaldosh – Abdullaxon II ning ko'kaldosh (emishgan) inisi va eng ishonchli amiri, 1587–1598-yillarda Hirot viloyati hokimi.

nijum borasida yuqori iqtidorini ko'rsatgan. Abdullaxon II diniy bilimlardan ham xabardor bo'lgan. Abdulazizxon va Abdullaxon II ning kutubxonalari o'z davrining yirik kitob jamg'armalari hisoblangan. Ularda qo'lyozma kitoblarni ko'chirish, ta'mirlash, ularga bezaklar berish bilan shug'ullanishgan.

Shayboniylar davrida tarix ilmi ham keng rivojlanadi. Bu davrda muallifi noma'lum bo'lgan «Tavorixi guzida, Nusratnoma», Mulla Shodiyning «Fathnoma», Binoiyning «Shayboniynoma», Muhammad Solihning «Shayboniynoma», Abdulloh Nasrullohiyning «Zubdat al-asor», Fazlulloh Ro'zbexonning «Mehmonnomayi Buxoro», Hofiz Tanish Buxoriyning «Sharafnomayi shohiy» («Abdullanoma») kabi asarlari bitildi. Bir qator asarlar shayboniy hukmdorlar buyrug'i bilan forsiydan o'zbek tiliga tarjima qilingan. Ular orasida Ko'chkunchixon homiyligida Rashiddinning «Jome at-tavorix», Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» asarlari forschadan o'zbekchaga o'girilganini alohida urg'ulash lozim.

Mamlakatning turli markazlarida yuzlab olimlar, shoirlar, tarixchilar, rassomlar, ilm va madaniyat namoyandalari ijod qilishgan. Ularning ichida qomusiy ilm egalari ham bor edi. Shoir sifatida mashhur bo'lgan Mushfiqiy falsafa, astronomiya, fiqh, hisob, fizika, musiqa, arab tili kabi sohalarda benazir bilim egasi bo'lgan.

Bu davrda tibbiyot sohasida ham bir qator asarlar yaratilgan. Ular jumlasiga Ko'chkinchixon va Abu Sa'idxon davrida yashagan mashhur tabib va olim Sulton Alining inson tanasi kasalliklari va davolariga bag'ishlangan «Dastur al-iloj», «Muqaddimayi dastur al-iloj» risolalarini kiritish mumkin. Abdulatifxonning shaxsiy tabibi Muhammad Yusuf, Navro'z Ahmadxon¹ saroyida faoliyat yuritgan Shoh Ali singari tabiblar ko'z kasalliklariga oid asarlarni yozishgan. Muhammad Yusuf yana ikki – «Isitmani o'rganishga doir», «Qon tomiri va siydik» kabi asarlarning muallifi sifatida ham mashhur bo'lgan.

Shayboniylar davrida qo'lyozma kitoblar yaratishning muhim qismi hisoblangan miniatyura san'ati ham rivojlanib, u orqali nasriy, nazmiy, jo'g'rofiy yoki tarixiy asarlar, ilmiy, diniy risolalar bezatilgan.

1507-yili Muhammad Shayboniyxon tomonidan temuriylar davrida gulab-yashnagan Hirotning qo'lga kiritilishi natijasida bu yirik madaniy markazning ko'plab ijodkorlari Samarqand va Buxoroga ko'chib o'tishadi. Ular va izdoshlari bu shaharlarda temuriylar davrida shakllangan miniatyura maktabi an'analarini boyitishadi. Alisher Navoiy, Jomiy, Xotifiylar asarlariga miniatyuralar ishlaganlar.

¹ Navro'z Ahmadxon (Baroqxon) – ikki hokimiyatchilik davrining 1552–1556-yillarda Samarqandni poytaxt qilib olgan shayboniy yetakchi.

XVI asrning birinchi o'n yilligida asos solingan Buxoro miniatyura maktabi 1520–1530-yillarda uzil-kesil shakllanadi. U Ubaydullaxon va uning o'g'li Abdulazizxon va Abdullaxon II davrida, ularning homiyligi ostida rivojlandi. Bu davrda faoliyat yuritgan ustalar qatoriga mashhur Shayxzoda va Mahmud Muzahhib, hattot Mir Ali Husayniylarni kiritish mumkin.

Buxoro miniatyura maktabi Abdullaxon davrida o'zining yuqori cho'qqisiga chiqqan. Bu davrda miniatyuralar ishlangan qo'lyozma kitoblar soni salmoqli edi. Ularda oldingi davrlardagi miniatyuralardan farqli ravishda oddiy xalq vakillari – baliqchilar, yog'och kesuvchilar, bog'bonlar va boshqalar aks ettirilgan. Bu davrda portret janri ham rivojlangan. Bunga Abdullaxon II portreti (1570) misol bo'la oladi. Abdullaxon II ning Xuroson va Mashhadga yurishlari davomida Buxoro kitobxonasi to'ldiriladi va bu yerga safaviylar miniatyura maktabi an'analari ham kirib keladi. Oldingi davrlardagi kabi Alisher Navoiy, Jomiy va Sa'diylarning asarlari ko'chirilib, ularga miniatyuralar ishlanadi. O'zbek davlatining Hindiston bilan munosabatlari mustahkamlanishi natijasida Buxoro qo'lyozma kitoblarida «hind uslubi»dagi miniatyuralar chizish rasm bo'la boshlaydi.

Tashqi siyosat. Shayboniylar hokimiyat tepasiga kelgan davrdan boshlab butun XVI asr mobaynida faol tashqi siyosat olib borishga harakat qiladilar. Hukmronliklarining dastlabki davridayoq ular bilan oldinma-keyin, Eronda safaviylar, Hindistonda boburiylar hukmronligining o'rnatilishi natijasida mintaqada uch siyosiy kuchning manfaatlari to'qnashadi. Manfaatlar kesishgan asosiy nuqta siyosiy, harbiy va iqtisodiy jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'lgan Xuroson edi. Shayboniylarning Hirot va Balxga egalik qilish borasidagi harakatlari ham bu kurashning markazida turdi. Bu masalani hal qilishga qaratilgan harakatlarni amalga oshirishda shayboniylar va safaviylar faollik ko'rsatishadi.

Xuroson masalasini hal qilish va nazoratda ushlab turishda Muhammad Shayboniyxon, Ubaydullaxon va Abdullaxon II qo'llari baland kelgan. Boshqa paytlarda safaviylar g'olib bo'lishgan. Xuroson uchun bo'lgan kurashlarni muvaffaqiyatli olib borish yo'lida safaviylar uchun asosiy to'siq ularning shimoli-g'arbdagi qo'shnilar usmoniylar saltanati edi. Safaviylar Xuroson bilan mashg'ul bo'lganlarida shimoli-g'arb xoli qolardi va aksincha, bu holatdan shayboniylar unumli foydalanishgan. Bir qator hujjatlarning tasdiqlashicha, Navro'z Ahmadxon va keyinchalik, Abdullaxon II va boshqa hukmdorlar usmoniy sultonlar bilan yaqinlashishga harakat qilganlar. O'z navbatida ular ham o'zbek davlati poytaxtiga bir necha bor o'z elchilarini yuborishgan.

Masalan, shahzoda Abdulmo'min sulton usmoniy Murod III¹ ga yuborgan xatida Eronga qarshi birga kurashish taklifi bildirilgani ma'lum.

Shayboniylar safaviylarga qarshi kurashda boburiylardan ham foydalanishga harakat qilishgan. Bu o'rinda qayd etish lozimki, boburiylar shayboniylarning safaviylar bilan kurashiga faol aralashish yo'lini tutishmagan. Garchand, shayboniylar boburiylarni safaviylarga qarshi kurashga da'vat qilsalar-da, ular bu taklifga ochiq munosabat bildirishmaydi. Zero, 1512-yili shayboniylar qo'shinidan katta qarshilik ko'rib, ota yurtni tashlab ketishga majbur bo'lgan Zahiriddin Muhammad Bobur uni qaytarib olish umididan voz kechmagan edi. 1528-yili 40–50 minglik lashkar bilan Balxga otlangan o'g'li Humoyunga² yozgan xatida «agar Samarqandni olsang, u yerda o'zing o'tir», deb bergan ko'rsatmasi ham buni tasdiqlaydi.

1572-yili Akbar³ saroyiga shayboniy Abdullaxon II tomonidan yuborilgan Xoja Oltamish boshchiligidagi elchilik olib borgan maktubda Abdullaxon Hindiston bilan o'tmishdagi yaxshi munosabatlarni yanada mustahkamlash taklifini bildiradi. Biroq jo'yali javob olmaydi. Boburiylar shayboniy-safaviylar o'rtasidagi munosabatlarning rivojini kuzatish bilan chegaralanib qolishgan, xolos.

1577-yili Abdullaxon II Abdurahim boshchiligidagi navbatdagi elchilikni yuborib, Eron yerlarini bo'lib olish taklifini o'rtaga tashlagani ma'lum. Akbar javob tariqasida Mirzo Fo'lod boshchiligidagi elchilikni yuboradi.

Tahmosb I⁴ ning o'limidan (1576) keyin Eronda yuzaga kelgan siyosiy inqirozdan foydalangan usmoniylar sultoni Murod III bu davlatga qarshi urush ochdi va bu voqea Abdullaxon II ning qo'shini Xurosonga bostirib kirishi, Mashhad, Nishopur va boshqa shaharlarni egallashi uchun qulay vaziyatni yuzaga keltiradi. Bu holatdan tahlikaga tushgan Moskva hukmdori Fyodor⁵ o'zbek hukmdorining Sibir hukmdori Kuchumxon⁶ bilan birlashishidan xavotirga tusha boshlab, qozoq sultonlarini Eron bilan birlashtirishga harakat qiladi.

Abdullaxon II Hindistonga Mir Quraysh boshchiligida elchilikka ham borib kelgani ma'lum. Akbar saroyiga bir qancha zotdor otlar va tuyalar, mo'yna va boshqa qimmatbaho sovg'alar keltirgan elchi oldiga Badaxshon

¹ Murod III – 1574–1595-yillarda usmoniylar yetakchisi.

² Humoyun – 1530–1556-yillarda Hindistonni boshqargan boburiy yetakchi.

³ Akbar – 1556–1605-yillarda Hindistonni boshqargan boburiy yetakchi.

⁴ Tahmosb I – 1524–1576-yillarda Eronni boshqargan safaviy yetakchi.

⁵ Fyodor – 1584–1598-yillarda rus davlati hukmdori.

⁶ Kuchumxon (Ko'chimxon) – 1563–1598-yillarda Sibir xoni.



Buxoro. «Minorai Kalon» tarixiy majmuasi

va Eronning boshqa hududlarini shayboniy hukmdor tomonidan egallanishi munosabati bilan o'zaro munosabatlarga oydinlik kiritish vazifasi yuklatilgan edi. Chunonchi, boburiylar yetakchisiga yo'llangan xatda Badaxshonning zabt etilishi sabablari u orqali muqaddas shaharlar Makka va Madinaga yo'l o'tgani, bu hududni kofirlar zulmidan qutqazish yo'lidagi harakat sifatida asoslangan edi.

1586-yili Buxoroga Hakim Xumom va Sadr Jahon boshchiligidagi elchilik yetib kelgani Akbarning shayboniylar bilan munosabatlarni keskinlashtirmaslikka qaror qilganini ko'rsatadi, albatta.

Shayboniylar hukmronligi davrida mamlakatning shimolida joylashib olgan Qozoq xonligi bilan muayyan aloqalarni amalga oshirishga harakat qilishgan. Ular o'rtasidagi aloqalar ko'p hollarda harbiy to'qnashuvlar oqibatida izdan chiqar edi.

So'z ketayotgan bosqichda o'zbek davlati Sibir xonligi¹ bilan ham aloqalarni yo'lga qo'yishga uringan. Kuchumxon Abdullaxon II ning harbiy

¹ Sibir xonligi – 1495–1598-yillarda G'arbiy Sibirda faoliyat yuritgan turkiy davlat.

yordami bilan 1563-yili Sibir xonligida hokimiyat tepasiga kelgan edi. Shayboniylar Sibir xonligi, xususan, uning g'arbiy qismida islom dinining tarqalishida muhim o'rin tutishgan. Xususan, 1574-yili Abdullaxon II ga yo'llagan xatida Kuchumxon uning davlati hududida kishilarni iymon yo'lidan boshlovchi aziz-avliyolarning yo'qligi tufayli bu yerga sayyidu shayxlardan yuborish so'ralgan edi. O'zbek hukmdori bu iltimosni qondirib, u yerga sayyidu shayxlarning bir guruhini jo'natadi. Shu tariqa, turonliklarning ilk vakillarining Sibirdagi soni ortib borgan.

Moskva davlatining hukmdori Ivan Grozniy¹ tomonidan Qozon² (1552) va Ashtarxon³ (1556) xonliklari bosib olinganidan so'ng ruslarning sharqqa yurishi, Sibir yerlarini asta-sekinlik bilan bosib olish jarayoni amalga oshiriladi. Ermak⁴ boshliq kazaklar 1581–1583-yillarda Kuchumxonga qarshi kurashga kirishadi. Bu kurashda Kuchumxonning qo'li baland kelgan bo'lsa-da, davlat ichidagi uyushmaganlik bu hududda ruslarning mavqeyini susaytirishga xizmat qilmagan.

Shu tariqa, sharqiy yo'nalishda bir qadar muvaffaqiyatga erishgan Rus davlati shayboniylar bilan elchilik aloqalarini yo'lga qo'yishga harakat qila boshlagan. Zero, uzoq Sibirdagi o'z kishilari moddiy ehtiyojlarini qondirish Moskva uchun oson vazifa emas edi. U yerda o'rmashib olgan ruslar qatlami-ning o'z podshosiga «Endilikda biz tomonlarga hech qayerdan savdogarlar kelayotganlari yo'q va shu sabab nihoyatda nochorimiz. Agar savdogarlar kelib-ketib turganlarida edi, bizning qornimiz ham to'q bo'lardi... Oliy hazrat Buxoro va No'g'oy xonligiga elchilar yuborib (u tomonlardan savdogarlar yuborilishini so'ra), toki bizning yerimizda ham to'kinlik bo'lsin», deb yozgan murojaatnomasi ko'p narsaga ishoradir. Shu sababli, rus hukumati buxorolik savdogarlardan soliq olmaslik, ularga boj solmaslik, ular faoliyatiga to'siq qo'ymaslik borasida maxsus ko'rsatma bergan.

¹ *Ivan Grozniy* – 1547–1584-yillarda rus davlati hukmdori.

² *Qozon xonligi* – 1438–1552-yillarda Volga daryosining o'rta oqimlari hamda Kama daryosi havzasiga tegishli yerlarda faoliyat yuritgan turkiy davlat.

³ *Ashtarxon xonligi* – 1459–1556-yillarda quyi Volga havzasida faoliyat yuritgan turkiy davlat.

⁴ *Yermak* – rus davlatining 1581–1585-yillarda Sibir yerlarini bosib olish maqsadida uyushtirgan harbiy yurishi boshlig'i; Irtyshning so'l irmog'i Vagayning etagida Kuchumxon tomonidan o'ldirilgan.

XVI. ASHTARXONIYLAR BOSHQARUVI DAVRI

Abdullaxon II dan so'ng ko'zga tashlana boshlagan siyosiy tanglik Abdulmo'minxonning yarim yillik hukmronligi va undan keyingi yillarda kuchaygan edi. Pir Muhammadxon II yirik amirlar va mahalliy kuchlarga qarshi tura olmagan. Tarixchi tili bilan aytganda, «butun davlatda kelishmovchiliklar va boshboshdoqlik kelib chiqib, biror kishi boshqasiga bo'ysunishni xohlamasdi». Shayboniylardan oxirgi xon bo'lgan bu shaxs ham ko'p o'tmay o'zaro urushlar qurboniga aylanadi va shu yo'sinda yuz yil ichida o'zbek davlatini boshqargan sulola faoliyati tugab, hokimiyat ashtarxoniylar qo'liga o'tadi.

1556-yili Ashtarxon xonligi rus davlati tomonidan bosib olinishi oqibatida Buxoroga jo'nashga majbur bo'lgan Yor Muhammadxon¹ katta izzat-ikrom bilan qabul qilinib, Iskandarxon² uning to'ng'ich o'g'li Joni Muhammad sultonga qizi Zuhrabonuni turmushga berish orqali o'zaro aloqalarni qarindoshlik iplari bilan mustahkamlaydi. Mazkur nikohdan Din Muhammad, Boqi Muhammad va Vali Muhammad dunyoga kelgan.

Shayboniylar xonadonining eng yaqinlari va tayanchlaridan biriga aylangan Yor Muhammadxon va uning avlodlari oliy hukmdorga xizmat qila boshlashadi. Borib-borib ularning ham mavqelari oshib, mamlakatning e'tiborli viloyatlardan Samarqandni boshqarishga erishgan Boqi Muhammad oliy taxtni shayboniylardan tortib olishga ham muvaffaq bo'ladi. Shu bilan mamlakatda ashtarxoniylar sulolasining bir yarim asrluk hukmronlik faoliyati boshlanadi.

Boqi Muhammadxon³ va Vali Muhammadxon⁴ mamlakat siyosiy yaxlitligini tiklashga qattiq harakat qilganlari, boshboshdoqlikka chek qo'yishga uringanlarini alohida ta'kidlash joiz. Xususan, Boqi Muhammadxon shayboniylar hukmronligining so'nggi davrida markaziy hokimiyat bo'ysunuvidan chiqib ketgan Xorazm,

¹ *Yormuhammadxon* – Jo'chi o'g'li To'qa Temurning avlodi.

² *Iskandarxon* – 1563–1583-yillarda o'zbek davlatini boshqargan shayboniy yetakchi.

³ *Boqi Muhammadxon* – 1601–1605-yillarda o'zbek davlatini boshqargan ashtarxoniy yetakchi.

⁴ *Vali Muhammadxon* – 1601–1611-yillarda o'zbek davlatini boshqargan ashtarxoniy yetakchi.

Balx, Marv kabi shaharlarni o'z izmiga solishga muvaffaq bo'lgan. Andxud, Shibirg'on, Chechaktu, Maymana, Faryob – Murg'ob daryosigacha bo'lgan yerlar, shuningdek, Bag'lon, Badaxshon ham o'zbek davlati ixtiyoriga qaytariladi.

Mamlakatni birlashtirish, burungi an'anaviy mavqeyini tiklash yo'lidagi Boqi Muhammadxon uchragan katta to'siqlardan biri safaviylar hamda qozoq xonlarining o'lkaga uyushtirib turgan tajovuzlari bo'lgan. Masalan, 1603-yili u Balxda safaviylar qo'shini bilan urushda zafar quchib, kelasi sanada Xurosonga yurish boshlay deb turganida, qozoq xoni Keldi Muhammadning¹ Toshkentga yurishi, Samarqandga tahdidi haqidagi xabar ashtarxoniy hukmdorning mazkur rejasini chippakka chiqaradi. To'g'ri, u Keldi Muhammadni mamlakatdan haydab chiqargan. Biroq ko'p o'tmay – 1605-yili vafot etgan.

Vali Muhammadxon ham o'zining olti yillik boshqaruvi davomida asosan yurtni birlashtirish, markaziy hokimiyatga buysunishdan bosh tortgan siyosiy kuchlarga qarshi kurashish hamda davlatning janubiy chegaralarini himoya qilish bilan shug'ullanishiga to'g'ri kelgan.

1606-yili u ham safaviylarni Balx atrofida yengadi va tashabbus o'zi tomondaligidan foydalanib, Hirotni egallamoqchi ham bo'ladi. Faqat qattiq sovuq tushishi sababli reja amalga oshmay qoladi.

Ashtarxoniyarlarga bir necha marotaba mag'lub bo'lgan shoh Abbos² boshqacha yo'lni tanlaydi: Vali Muhammadxon huzuriga «yaxshi qo'shnichilik va do'stlik» taklifi bilan elchilar yuboradi. Unga javoban ashtarxoniyarlardan ham elchilar jo'natilgan. Natijada, Buxoroning Xurosonda tiklangan siyosiy mavqeyiga putur yetadi. Bu holat Xuroson uchun kurashgan bir qator buxorolik yirik amaldorlarning noroziligini keltirib chiqaradi. Bu haqida xabar topgan Vali Muhammadxon ularga nisbatan jazo choralarini qo'llaganini ma'lum. Shu tariqa ora buzilib, mahalliy kazo-kazolar Samarqand hokimi Imomquli sultonni oliy taxtga o'tqazish payiga tushadilar va 1611-yili niyatlariga yetadilar ham.

Imomqulixon³ mamlakatni o'ttiz yildan ortiqroq boshqarganining o'ziyoq bir ijobiy ko'rsatkich edi. U mahalliy siyosiy kuchlarning boshboshdoqliklari hamda o'zaro urushlariga nisbatan chek qo'yib, mamlakat chegaralarini mustahkamlash ishiga ham katta kuch-g'ayrat sarflagan.

Imomqulixonning taxtga chiqishida faol qatnashgan va uning safaviylarga qarshi kurashini qattiq qo'llagan yirik arbob Yalangto'sh⁴ bo'lgan. U ke-

¹ Keldi Muhammad – qozoq xoni.

² Abbos – 1588–1629-yillarda Eronni boshqargan safaviy yetakchi.

³ Imomqulixon – 1611–1642-yillarda o'zbek davlatini boshqargan ashtarxoniy yetakchi.

⁴ Yalangto'sh (1576–1656) – o'zbek davlatini ashtarxoniy boshqargan davrning eng yirik davlat, harbiy arbobi, turli yillarda Balx, Samarqand viloyatlari hokimi.

yinchalik ham ashtarxoniy hukmdorni qo'llab-quvvatlashda davom etgan. Shu bilan birga, uzoq davr mobaynida Samarqandni deyarli mustaqil boshqargan ham. Iqtisodiy jihatdan kuchli bo'lgan bu amaldorning shaxsiy qo'shini bo'lib, ular yordamida qo'shni hududlarga yurishlar uyushtirar, ularning hukmdorlari bilan oliy hukmdordan mustaqil tarzda sulh shartnomalari tuzar edi. Uning boyligi davlat xazinasi hajmiga teng bo'lganiga oid tarixiy ma'lumotlar bor.

Nadr Muhammadxon¹ taxtga o'tirgach, mamlakatda ahvol yomon tomonga o'zgaradi. Bu hukmdor akasi davrida muhim siyosiy, iqtisodiy mavqega ega bo'lgan zodagonlarning mulkini tortib olib, ularni o'zidan uzoqlashtiradi, boshqa yirik amirlar va amaldorlarga sovg'a-salomlar ulashadi, mamlakat viloyatlarini farzandlari, nabiralari va jiyanlariga bo'lib beradi. Unga qarshi dushmanlik kayfiyatida bo'lgan amirlar va amaldorlar bilan umumiy til topa olmaydi.

Bu hukmdor davrida Toshkent, Turkiston (Yassi)ga qalmoqlar, Andijonga qirg'izlar tahdid qila boshlashadi. Xonlarga qarshi o'z o'g'li Abdulazizxon boshchiligidagi qo'shinni yuboradi. Ammo oliy hukmdorga zid kayfiyatda bo'lgan amirlar unga qarshi fitna uyushtirib, yurishga ketayotgan Abdulazizni O'ratepa atrofidagi Yangisaroy (Saroyi nav) degan joyda xon deb e'lon qilishadi. Qarshi cho'lida ov qilib yurgan Nadr Muhammadxon bu hodisadan xabar topgach, Balxga qarab qochadi. U Balxda boshqa o'g'illari va amirlardan madad olishga umid qilgan edi. Biroq o'g'illari uni qo'llashmaydi va u haj amalini bajarish uchun Makkaga ketishga majbur bo'ladi.

Siyosiy hayotda Nadr Muhammadxon davrida kuzatilgan holat, xususan, turli urug'lar beklari faolligining kuchayishi va o'zaro urushlar Abdulazizxon² hukmronligi yillarida ham davom etdi. Bu davrda Xiva qo'shinlarining Buxoro xonligiga tez-tez yurishlarni amalga oshirgani ko'zga tashlanadi. Mamlakatning ichki hayoti va tashqi holatiga xos bu xususiyatlar navbatdagi hukmdor – Subhonqulixon³ davrida ham davom etdi.

Subhonqulixonning o'g'li Ubaydullaxon⁴ o'zining ko'p kuch-g'ayratini Balx hokimi Mahmud qatag'onga, shuningdek, isyon ko'targan Samarqand, Hisor, Termizga qarshi kurash olib borishga sarfladi. Mustaqillikka intilish kayfiyatida bo'lgan mahalliy hukmdorlarni kuch bilan bo'ysundirish usullari istalgan natijani bermagan.

¹ Nadr Muhammadxon – 1642–1645-yillarda o'zbek davlatini boshqargan ashtarxoniy yetakchi.

² Abdulazizxon – 1645–1681-yillarda o'zbek davlatini boshqargan ashtarxoniy yetakchi.

³ Subhonqulixon – 1681–1702-yillarda o'zbek davlatini boshqargan ashtarxoniy yetakchi.

⁴ Ubaydullaxon – 1702–1711-yillarda o'zbek davlatini boshqargan ashtarxoniy yetakchi.

Siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy inqiroz Abulfayzxon¹ davrida yanada chuqurlashdi. «Qisqa qilib aytganda, har tarafdin isyon va g'alayon kelib chiqib, urug'lar bir-birlari bilan dushman bo'lganlar». Toshkent, Xo'jand, Balx, Badaxshon, Hisor va boshqa viloyatlar deyarli mustaqil mulklarga aylangan-dilar. Bu holat davlatni xorijiy bosqinchilar uchun yengil o'ljaga aylantirdi. Yuzaga kelgan vaziyatdan afshorlar² yetakchisi Nodirshoh³ yaxshigina foydalandi. 1740-yilda Turonga Eron qo'shinlarining yurishi boshlandi. Buxoroni jangsiz egallagan bosqinchi Abulfayzxonni nomigagina oliy hukmdor etib qoldirgan. Ushbu holat ham uning, ham ashtarxoniylarning obro'siga qattiq putur yetkazgani oqibatida o'zbek davlatidagi hokimiyat yangi siyosiy sulola – mang'itlar qo'liga o'tib ketishiga zamin yaratib bergan.

Davlat boshqaruvi. Ashtarxoniylar davri davlat boshqaruvi shayboniylar zamonidagisidan deyarli farq qilmas edi. So'z ketayotgan bosqichda ham dargoh (oliy devon) asosiy boshqaruv idorasi sifatidagi mavqeyini saqlab qoldi. Devonlar faoliyatini bevosita yoki bilvosita ko'rsatuvchi ma'lumotlar bu davr manbalarida uchramaydi. Davlat boshqaruv tizimining turli pog'onalarini xizmat vazifalari aniq belgilangan dunyoviy va diniy lavozim egalari – naqib, otaliq, parvonachi, dodxoh, devonbegi, qushbegi, chuhraboshi, miroxur, yasovul, inoq, qurchi, qozi, harbiy qozi, bosh qozi, shayxulislom, a'lam, rais, bosh muftiy, harbiy muftiy, eshikog'aboshi, mirzaboshi, munshiy, saroy kutubxonasi boshlig'i, dasturxonchi kabilar egallashgan. Ular lavozimlari nazarda tutgan vazifalarni bajarish qatorida harbiy harakatlarda ham faol qatnashishlari lozim bo'lgan.

Ashtarxoniylar davriga kelib ayrim mansab egalarining vazifalarida sifat jihatidan o'zgarishlar yuz bergani ma'lum. Masalan, shayboniylar davrida mahalliy boshqaruv tizimida muhim rol o'ynagan otaliqning markaziy boshqaruv tizimidagi o'rni ortib borgan. Bu jarayon, ayniqsa, Abdulazizxon davrida yaqqol ko'zga tashlanadi. U otaliq vazifasini Yalangtoshbiyga topshiradi. Otaliqning mavqeyi Subhonqulixon davrida ham kuchli bo'lib, oliy hukmdor tarafidan unga eng mas'uliyatli harbiy vazifalar topshirilgan. Jumladan, bu hukmdor davrida xivaliklarning Buxoroga yurishini to'xtatish, Xuroson yurishi kabi muhim vazifalar ular zimmasiga yuklangan edi. Otaliqning davlat boshqaruvidagi rolining o'sganligi Ubaydullaxon hukmronlik qilgan yillarda ham yaqqol ko'rinadi. Chunonchi, bu davrga kelib, otaliq amirlarning yetakchisiga aylangan edi.

¹ *Abulfayzxon* – 1711–1747-yillarda o'zbek davlatini boshqargan ashtarxoniy yetakchi.

² *Afshorlar* – 1736–1750-yillarda Eronni boshqargan turkiy sulola.

³ *Nodirshoh* – 1736–1747-yillarda Eronni boshqargan afshoriy yetakchi.

Ashtarxoniylar davri boshqaruv tizimida yuz bergan o'zgarishlarni qushbegi misolida ham kuzatish mumkin. Shayboniylar davrida oliy hukmdorlarning ovlarda ishtiroki uchun zarur bo'lgan «ov qushlari, tozi itlar va boshqalarga mas'ul bo'lgan qushbegi lavozimining ham ahamiyati ortib borgan. Mazkur o'zgarish, ayniqsa, Ubaydullaxon va Abulfayzxon zamonlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Jumladan, To'raquli qushbegiboshi muayyan shaxslarni mansabga tayinlash va unvon berish, xon yorlig'isiz shaxsan yozma ko'rsatmalar tarqatish, oliy qabullarda o'z xohishiga ko'ra ishtirok etish kabi imtiyozlarga egaligi bu holatni tasdiqlaydi.

Sharoit va vaziyatga qarab u yoki bu lavozimning ahamiyati o'zgarib borgan. Ba'zi mansab egalarining lavozimi doirasiga kirgan vazifalar ko'lami kengayib yoki torayib borgan. Ayrim mansab va lavozimlarning ahamiyati yuksalishida ular egalarining shaxsi, sulolaga ko'rsatgan xizmatlari, jamiyatda tutgan o'rni ham inobatga olingan bo'lishi kerak. Buni ayrim tarixiy ma'lumotlar ham tasdiqlaydi. Ulardan biri Muhammad Rahim otaliq bo'lib, uning Ubaydullaxon saroyidagi mavqeyi yuqori darajada edi. Oliy hukmdor uni 1707-yilda Qarshi viloyati boshqaruviga tayinlaydi. 1710-yilda esa To'raquli qushbegiboshiga yuqorida keltirilgan huquqlarni beradi. Shu tariqa, qushbegi unvonining davlat boshqaruvi tizimidagi mavqeyi oshib boradi. Xuddi shunday tarzda viloyat hokimligiga parvonachi, otaliq kabilarning tayinlanishi tabiiy bir holga aylanib qoladi.

Ashtarxoniylar davrida muayyan o'zgarishlarga uchragan lavozimlardan biri kutvoldir. Shayboniylar davrida qo'rg'on boshlig'i kutvol deyilgan. Sekin-asta bu nom bilan shahar hokimi ham ataladigan bo'lgan. Ashtarxoniylar davrida esa saroy kutvoli degan lavozim bo'lganligi manbalarda qayd etiladi. Uning egasi mamlakatda olib borilgan qurilish, obodonchilik ishlariga javobgar bo'lgan. Ulardan biri Ubaydullaxon saroyida kutvol lavozimida faoliyat yuritgan Xoja Boltudir. 1709-yilda unga oliy hukmdor tomonidan poytaxt atrofida chorbog' barpo etish buyuriladi. Bu amaldor ushbu vazifani bajarish uchun muhandislar, me'morlar, ustalar, mardikorlar, hasharchilarni jalb etib, katta chorbog' va uning o'rtasida hashamatli saroy qurilishiga ham boshchilik qiladi. Ushbu qurilish uchun mablag' oliy hukmdor tomonidan ajratilgan edi.

Ijtimoiy-iqtisodiy hayot. O'zbek davlatiga ashtarxoniylar boshchilik qilgan yillar ijtimoiy turmushida Imomqulixon hukmronligi davri manbalarda iliqlik bilan tilga olinadi: «Imomqulixon nochorlar ishini yengillashtirdi, arz bilan kelganlarni qaytarmadi. Uning zamonida na kambag'al, na bechora qolgandi. Chiqargan buyruqlari ijrosi borasida amaldorlarga qattiq turdi,

qorong'i tushishi bilan oddiy kiyim kiyib vaziri va qo'rchi bilan bozorlar-u mahallalarni aylanib, oddiy xalqning haqiqiy turmush ahvolidan boxabar bo'lib turardi. Buni xalq bilardi. Shuning uchun ham uning hukmronligi yillari mamlakatda biror marta ham isyon tug'i ko'tarilmadi».

Mazkur bahoga ishonsa bo'ladi. Negaki, umuman olganda, ashtarxoniylar davrida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda muhim o'rin tutgan yangi sun'iy sug'orish inshootlarini qurish, eskilarini ta'mirlash yo'lida muayyan ishlar amalga oshirilgan bo'lishiga qaramasdan, ularning ko'lami shayboniylar davridagi ko'lamdan ancha past edi. Bajarylgan tadbirlar ham asosan Imom-qulixon nomi bilan bog'liq.

1614–1615-yillarda uning buyrug'i bilan Qashqadaryodan Qarshi cho'liga ariq qazib chiqarildi. Natijada, bir qator qishloqlar va qarovsiz yerlar obod holga keltirildi. 1633–1634-yillarda Qo'shqo'rg'onda ham ushbu ashtarxoniylar hukmdor buyrug'i bilan ariq qazilgan. Mazkur ishlarga aholining katta qismi, mardikorlar jalb etilgan.

Ashtarxoniylar davrida ham dehqonchilikning barcha sohalari – g'allachilik, paxtachilik, pillachilik, bog'dorchilik va boshqalar rivojlanish yo'lidan bordi. Shayboniylar davridagi kabi asosiy dehqonchilik mahsulotlari – yigirmadan ortiq navi mavjud bo'lgan bug'doy, sholining turli navlari, g'o'za, makkajo'xori, arpa, tariq, kanop, tamaki, yosmiq, yog' olishda keng qo'llanilgan kunjut, zig'ir, piyoz, sabzi, turp, sholg'om, lavlagi, qovoq, bo'yoqlar (ro'yon, buzg'unch, qirmiz) va boshqalar ekilgan.

Mamlakatda chorva mollarini yetishtirishga katta e'tibor qaratilgan. Oliy hukmdorlar, turli toifadagi dunyoviy va diniy amaldorlar, yirik yer egalari qo'lida qo'y, sigir, buqa, ho'kiz, tuya, ot va boshqa chorva mollari moddiy boylik sifatida to'planib borgan. Birgina Nadr Muhammadning 600 qator tuyasi, 8000 oti, qorako'l teri beruvchi 80000 ta qo'yi bo'lgan.

Ashtarxoniylar davrida ham shayboniylar davridagi kabi davlat yerlarining hajmi ortgan. Davlat yerlarini dunyoviy va diniy amaldorlarga suyurg'ol, tiul, iqto, tanho tarzida tortiq etish, o'z yer maydoniga ega bo'lmagan aholining katta qismi ko'p hollarda yerni ijaraga olib, tirikchilik qilishi davom etgan.

Ashtarxoniylar davrida ham hunarmandchilik an'anaviy tarzda rivojlanib bordi. Hunarmandchilikning an'anaviy sohalari – to'qimachilik, duradgorlik, teriga ishlov berish, temirchilik, qurolsozlik, zargarlik, kulolchilik va boshqalarda yaratilgan tovarlar ichki va tashqi bozorga chiqarilgan.

Shayboniylar davrida muomalada bo'lgan, ayniqsa, Abdullaxon II pul islohoti natijasida moliya bozorida o'zining o'rini egallagan mis, kumush

va oltin tangalar ashtarxoniylar davrida ham, asosan, muomalada bo'lgan. XVII asrning ikkinchi yarmida oz-ozdan har safar 5–10 foizdan tangalardagi kumush ulushi kamayib borgan. Mamlakatda yuzaga kelgan siyosiy beqarorlik davrida markaziy hokimiyat nufuzining tushib ketishi, dargondagi tartibning izdan chiqishi oqibatida davlat xazinasini bo'shab qolgan edi. Bu mushkul vaziyatdan chiqib ketish uchun ashtarxoniy hukmdor Ubaydullaxon 1708-yilda pul islohotini o'tkazgan. Natijada, tarkibining to'rtidan bir qismini kumush tashkil qilgan va bozorda muomalada bo'lgan asosiy tanga zarb etilgan. Bu aholi noroziligining o'sib borishiga olib kelgan va xalq qo'zg'oloni kelib chiqqan.

XVIII asrda muntazam ravishda oltin tangalar zarb etish yo'lga qo'yildi. Bir oltin tanga (ashrafiy) 50–80 kumush tangaga teng bo'lgan.

Ashtarxoniylar davrida ham aholi xiroj (mol), ushr, tanob puli, alaf puli, zakot va boshqa soliqlarni to'lagan. Mamlakatdagi o'zaro kelishmovchiliklar, urushlar davrida soliqlarning miqdori oshib borgan. Aholi shayboniylar davridan qolgan turli mehnat majburiyatlarni o'tashda davom etgan.

Ilm-fan va madaniyat. Samarqand va Buxoro mamlakatning yirik madaniy markazlari maqomini saqlab qolgan. Ashtarxoniylar, yirik amaldorlar, ulamolalar va jamiyatning boshqa vakillari tomonidan saroylar, madrasalar, masjidlar, xonaqolar, bozorlar, karvonsaroylar va boshqalar qurdirilgan. Samarqandda qozi Soqiy¹ tomonidan qurilgan madrasa (1612), Yalangto'sh tomonidan qurdirilgan Sherdor (1636) va Tillakori (1646) madrasalari, Sayyid Ahmadxoja madrasasi (1637), Nodir devonbegi madrasasini (1630) alohida tilga olish lozim.

Buxoroda ikki qavatli Mag'oki ko'rpa masjidi (1636–1637), zargarlar bozori yaqinida joylashganligi uchun «Zargarlar madrasasi» deb ham ataluvchi Abdulazizxon madrasasi, (1651–1652), Xiyobon (1654–1655), Bozori Go'sfand (1669–1670) va Juybori Kalon (1670–1671) madrasalari qurilgan edi.

XVII asrda madrasa va masjidlar qurilishida ashtarxoniylar davrida yuqori nufuzga ega bo'lgan ayrim amaldorlar ham o'z hissalarini qo'shishgan. Shunday shaxslardan biri – XVII asrning birinchi yarmidagi yirik amaldor va vazir Nodir Devonbegi bo'lib, uning mablag'iga butun arxitektura ansambli – xonaqo, hovuz va madrasa bunyod etilgan edi. U tomonidan bundan ilgariroq Registondagi Ark devorlari ostida Poyandabiy otaliq masjidi (1617) qurilgan edi. Telpakfurushlar gumbazidan Registonga olib boruvchi yo'lda, Bozori-avdegan joyda Abdulazizxonning amaldori Muhammadyor otaliq tomonidan

¹ Soqiy – Samarqand qozisi.

xonaqo (1669) qurilgan. Shu asrda bu markazda Bolahovuz masjidi (1712) ham bunyod etilgan edi.

Imomqulixon, Nadr Muhammadxon, Abdulazizxon, Subhonqulixon turkiydan tashqari fors va arab tillarini mukammal bilishgan, dunyoviy va diniy ilmlarni chuqur egallashgan, nazmda ham qalam tebratishgan. Masalan, Subhonqulixon «Nishoniy», Abdulazizxon «Aziziy» taxallusi ostida ijod qilganlar. Abdulazizxon xattotlik san'atini mukammal egallagan bo'lib, nash va nastaliq xatlarida yuksak darajadagi yozish mahoratiga ega edi. Manbalarda qayd etilishicha, oliy hukmdorlik yillarida Hindiston, Eron va Usmoniylar davlatiga yo'llanadigan maktublarni o'zi tahrir qilar, yoqmasa shaxsan o'zi yozar ekan.

Sulolaning yana bir vakili Subhonqulixon turli kasalliklar, ularni aniqlash va davolashga bag'ishlangan – «Ixya at-tib Subhani» asarining muallifi sifatida mashhur bo'lgan. Bu hukmdor davrida Buxoro Registonidagi Ark devorlari tagida 1682-yilda bir qavatli, sakkiz burchakli kasalxona qurilgan: «Buxoro taxtiga o'tirishi bilan (Subhonqulixon) Buxoro Registoni ichida Zamzamani eslatuvchi hovuz qurishni buyurdi. Va bu yerda shifoxona uchun mo'ljallangan bino Dor-ush-shifo qurdirdiki, unda kasallarni turli dorilar va ovqat bilan davolovchi mohir tabiblar bo'lishi lozim edi». Dor-ush-shifoning binosi madrasa vazifasini ham o'tagan. Unga doir vaqf hujjatiga ko'ra, bu madrasa talabalarni tabobat va ilohiyot ilmlarini o'rgatishga ixtisoslashgan edi. Bu yerda bemorlarga xizmat ham ko'rsatilgan. Shuningdek, Dor-ush-shifoda tibbiyotga oid adabiyotlarga boy kutubxona va dorixona ham mavjud edi.

XVII asrda ijod qilgan olimlar, shoirlar, tarixchilar soni ilgarigi davrlardagidan kam bo'lmagan. Muhammad Bade Samarqandiyning¹ yozishicha, shu asrda 165 ijodkor faoliyat yuritgan. Ular jumlasiga Soqiy, Yusuf Qorabog'iy, Turobiy, Sayido Nasafiy, Qosimxoja Samarqandiy, Fitrat, Mulham, So'fi Olloyor, Mashrablarni kiritish mumkin.

«Tazkirat ash-shuaro» asarining ijodkori Mutribiy² ham ashtarxoniyalar davrida ijod bilan shug'ullangan shoirlarning nomlarini keltiradi. Xususan, u Samarqanddan – Afzaliy, Oshiqiy, Odamiy, Bediliy, Do'stiy, Viqoriy, Fathiy, Xurramiy; Buxorodan – Asvadiy, Aminiy, Boqiy, Bayraviy Jamoliy, Tabib Chokariy, Do'sti Hijriy, Lutfiy, Nisoriy; Toshkentdan – Jaliliy, Dardiy,

¹ Muhammad Bade Samarqandiy (1641-yili Samarqandda tug'ilgan) – shoir va adabiyotshunos, «Maleho» taxallusi bilan she'riy asarlar yozgan, «Muzakkir al-as'hob» («Suhbatdoshlar zikri») tazkisasi muallifi.

² Mutribiy (Sultonmuhammad Mutribiy Noiy Samarqandiy) – XVI asr ikkinchi yarmi – XVII asr 30-yillari shoiri, adabiyotshunosi, xattoti va sozandasi.

Mirak, Muxlisiy, Sadriy, Zabtiy, Lodiy; Shahrisabzdan – Hasratiy, Shuhratiy; Qorako'ldan – Ahdiy; G'ijduvondan – Foni; Karmanadan – Nizomiy; Mi-yonqoldan – Qotiliy, Sobitiy, Zavqiyni tilga oladi.

Ashtarxoniylar davrida tarixchilik borasida ham bir qator ishlar amalga oshirildi. Mahmud ibn Valining «Bahr al-asror», Xoja Samandar Ter-miziyning «Dastur al-muluk», Muhammad Yusuf Munshiyning «Muqimxon tarixi», Mir Muhammad Amini Buxoriyning «Ubaydullanoma», Abdurah-mon Tole'ning «Abulfayzxon tarixi», Hojamqulixon Balxiyning «Qipchoq-xon tarixi» va boshqa mualliflarning asarlari aynan shu sulola hukmronligi davrida yozildi.

Ashtarxoniylar hukmronligi yillarida, ayniqsa, XVII asrda matemati-ka, astronomiya, geometriya (mulla Tursun Faroiziy, mulla Ne'mat Samar-qandiy), musiqashunoslik (Abdulla Ofarinkentiy, Ali Buxoriy, mulla Rahmat Samarqandiy) sohalarida ham qator ishlar amalga oshirildi.

Hukmron sulola vakillari kitobat san'ati rivojiga homiylik qilish yo'li bi-lan o'z mavqelarini ko'tarishga harakat qilganlar. Bu davrda Buxoro mak-tabida diniy adabiyotlar – so'fiylarning hayotiga oid asarlarga miniatyuralar ishlash rasm bo'la boshlagan.

Ashtarxoniylar davrida yaratilgan miniatyuralar hoshiyalarida qayd etil-gan Muhammad Sharif, Muhammad Muqim, Muhammad Darvish, Muham-mad Murod, Avaz Muhammad, Muhammad Amin, Behzod, Mullo Gadoy nomlari Buxoro miniatyura maktabi vakillarining soni ko'p bo'lganini ko'rsa-tadi. Bu sulola hukmronligi davrida Hindiston bilan aloqalarning rivojlanishi oqibatida miniatyura san'ati borasida ham ikki hudud mussavvirlari o'r-tasida o'zaro aloqalar rivojlanib, bu san'at turi an'analari bir-birini boyitib bordi. Ular jumlasiga 1590-yili Dehliga kelgan Muhammad Nodir Samarqandiy-ni kiritisa bo'ladi.

XVII asr o'rtalarigacha boburiy hukmdorlar saroyida ijod qilgan bu ras-som o'z asarlarida Turon Hindiston san'ati uyg'unligini aks ettirgan ijodkor sifatida tanilgan. Bu davrda xonlik miniatyura san'ati rivojiga munosib hissa qo'shganlar qatoriga Muhammad Murod Samarqandiy, Muhammad Sha-riflarni ham kiritish mumkin.

Tashqi siyosat. Ashtarxoniylar ham shayboniylar kabi Xuroson masalasi-da o'z tashqi munosabatlarini Eron va Hindiston bilan olib borishga harakat qildilar. Shayboniy Abdullaxon II va Abdulmo'minxon o'limidan so'ng Xurosonni qo'lga olgan safaviylar Balx va Buxoroni ham egallash yo'llarini qidira boshladilar. Xususan, ular Balx hukumatiga o'z odamlarini o'tkazish-

ga harakat qilishgan. Ammo bir necha marta qilgan urinishlariga qaramay (1602, 1605, 1606, 1607), har safar mag'lubiyatga uchrashgan. Ular 1610-yilda Eronga qochib borgan ashtarxoniy hukmdor Vali Muhammad orqali o'z niyatlarini amalga oshirishga harakat qilishgan. Natijada, Vali Muhammad, hatto, Buxoro taxtiga o'tirishga ham muvaffaq bo'lgan. Biroq Imomqulixon tomonidan ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida bu hukmdor butunlay siyosiy hayotdan chetlashtiriladi. Safaviylar o'z maqsadlariga erishish yo'lida, keyinchalik, Vali Muhammadxonning o'g'li Rustam sultondan XVII asrning 40-yillarigacha foydalanishga harakat qiladilar. Ular bu ashtarxoniy shahzodani qo'llab-quvvatlash orqali Andxud, Shibirg'on kabi yerlariga doimiy zug'um uyushtirib turishgan.

O'z navbatida ashtarxoniylar ham bu masalada faollikni qo'ldan bermaslikka intiladi. 1623-yili Yalangto'shbiy, 1632–1637-yillarda Abdulazizxon boshchiligidagi qo'shin Bolo Murg'ob, Mashhad, Hirot tomonlarga bir necha marta yurish uyushtirib, vaqtinchalik muvaffaqiyatga erishadi. Biroq asosiy masala – Xurosonni Buxoro xonligi hukmiga butunlay o'tkazish ishini ijobiy hal qila olishmagan. Natijada, Balx mulkining janubiy hududlarini himoya qilish davlat tashqi siyosati oldida turgan vazifalardan biriga aylanib qolgan. Xuroson va Hirot qo'ldan ketgach, bundan ruhlangan safaviylarning faolligi oshadi. Ular Xorazm siyosiy kuchlariga, Eronga yordam so'rab borgan Vali Muhammadxon, Nadr Muhammadxonga (1646) harbiy ko'mak berish bilan birga mamlakatdagi siyosiy qarama-qarshilikni kuchaytirishga intilishgan.

Eronga shimol va g'arbdan usmoniylar tahdidi kuchayganda vaziyatdan chiqish uchun safaviylar yana Buxoro bilan do'st bo'lishga intilib, ashtarxoniylar davlatiga elchilar yuborib, «tinchlik», «do'stlik va yaxshi qo'shnicilik» siyosatini ishga solishgan. Ular Nadr Muhammadxonga harbiy yordam berish bahonasida katta harbiy kuchni Xurosonga tashlab, ular orqali 1649-yilda boburiylar qo'l ostida bo'lgan Qandahorni egallashda foydalanishgan.

Ashtarxoniylar Hindiston bilan aloqalarda barqarorlikni ushlab turishga harakat qilishgan. O'zaro do'stona munosabatlar Imomqulixon davrida qayta tiklanadi. Imomqulixon «Hindiston hukmdori, Akbar podshohning o'g'li Jahongir podshoh» huzuriga qimmatbaho sovg'alar bilan o'z elchisini yuborgani, Jahongir podshoh ham xon elchisini ehtirom bilan qabul qilgani ma'lum.

1625-yilda esa Hindistondan kelgan elchi Mir Baraka o'zbek elchisi Xoja Abdurahim bilan birgalikda o'z vataniga qaytadi. U Xurosonni bo'lib olish taklifi bilan boburiylar davlatiga yuborilgan edi. Buxoro elchisi boburiy

¹ Jahongir – 1605–1627-yillarda Hindistonni boshqargan boburiy yetakchi.

hukmdorga bir qancha tuya, ot bilan birgalikda Rossiyadan keltirilgan suvsar mo'ynasi, baliq tishi hamda mashhur xattotlar tomonidan ko'chirilgan va rassomlar tomonidan miniatyuralar bilan bezatilgan qo'lyozma kitoblarni olib boradi. Sovg'alar ichida qiymati butun bir viloyatdan yig'iladigan Xitoy solig'iga teng keladigan qimmatbaho tosh – la'l ham bor edi. Jahongirning o'limidan so'ng bu boradagi muzokaralar uzilib qoldi.

1657-yili boburiylar davlatida hokimiyat tepasiga Avrangzeb¹ keladi. Hindistonda yuz berayotgan voqealardan xabardor bo'lgan Abdulazizxon bu olis yurtga naqshbandiya tariqati vakilini elchi sifatida jo'natadi. Keyingi yillarda esa Hindistonga Rustambiy va Muhammad Sharif elchiliklarini yuboradi, Hindistondan Buxoroga Yakkatozxon elchi keladi.

Ikki davlat o'rtasidagi elchiliklar almashuv jarayonida ashtarxoniylar ham, boburiylar ham safaviylarga qarshi kurash rejalarini bir-birlariga taklif qilishgan. Ammo ular amalga oshmagan.

Ashtarxoniylarning usmoniy sultonlar bilan olib borgan aloqalari shayboniy hukmdorlarning bu yo'nalishdagi faoliyatiga nisbatan sustroq edi. Muhammad Muqim sulton² tomonidan Sulton Ahmad III³ huzuriga elchi yuborgani, 1691-yilda Sulton Ahmad II⁴ tomonidan Subhonqulixon saroyiga elchi Mustafu yuborilib, u turk hukmdorining Eronga qarshi birgalikda kurashish taklifini keltirganligi haqidagi ma'lumotlar mavjuddir. Biroq bu borada birorta harakat amalga oshirilmagan.

Ashtarxoniy hukmdorlar Rossiya bilan tashqi aloqalarni muayyan darajada olib borishga harakat qilishgan. Rossiya bilan aloqalarni amalga oshirgan ashtarxoniy hukmdorlar, shayboniylar singari, elchilar orqali o'z savdogarlari uchun qulay sharoitlarni yaratishga intilishgan. Buxorodan Moskvaga yuborilgan Mulla Farrux (1671) elchiligi ulardan biri bo'lib, u ikki davlat o'rtasidagi aloqalarni yaxshilashga qaratilgan edi.

Rus hukumati turonlik savdogarlarning Rossiyada erkin faoliyat yuritishiga qarshi bir qator to'siqlar qo'ygan edi. Jumladan, bu mamlakatdan olib ketilishi taqiqlangan ayrim mollar bo'lib, savdogarlar ularni emin-erkin xarid qilib, o'z yurtlariga olib keta olishmagan. Ular jumlasiga metall va undan yasalgan buyumlarni kiritish mumkin. Bundan ko'zlangan maqsad aniq bo'lib,

¹ Avrangzeb – 1658–1707-yillarda Hindistonni boshqargan boburiy yetakchi.

² Muhammad Muqim sulton – Iskandarxon o'g'li, 1702–1707-yillarda Balx viloyati hokimi.

³ Ahmad III – 1703–1730-yillarda usmoniylar yetakchisi.

⁴ Ahmad II – 1691–1695-yillarda usmoniylar yetakchisi.

bu harbiy sohada katta ahamiyat kasb etgan metall va undan tayyorlangan harbiy qurollarning (miltiq, to'p va h.k.) Turonga yetib borishining oldini olishdan iborat bo'lgan. Shuningdek, turkiy dunyo bilan aloqador bo'lgan Volgabo'yi, O'rol, G'arbiy Sibir aholisining o'zbek savdogarlari bilan aloqaga kirishishlarining oldini olishga ham harakat qilishgan.

Ashtarxoniylar davrida mamlakatga Ivan Xoxlov (1620), aka-uka Pazuxinlar (1669), Daudov va Muhammad Yusuf Qosimov (1675–1676), Florio Beneveni (1721–1725) va Rossiyaning boshqa elchilari kelganlar. Dastlab savdo-elchilik tariqasida kelgan ruslar xonlik hududi, karvon yo'llari, aholisi, ishlab chiqaruvchi kuchlari, iqtisodi, shaharlari, aholining turmush tarzi va boshqalar haqida ma'lumotlar to'pladilar. Shuningdek, Rossiya hukumati bu elchiliklar orqali ashtarxoniylar va hududda joylashgan davlatlar vositasida mintaqadagi boshqa davlatlar, xususan, Hindiston bilan munosabatlar o'rnatishga harakat qilishgan.

XVIII asming boshlariga kelib, Rossiyadan elchiliklar nafaqat savdo-iqtisodiy, balki biror-bir muayyan siyosiy masalalar yechimiga qaratilgan vazifa bilan ham yuborila boshlagan. Jumladan, Florio Beneveni elchiligi (1721–1725) zimmasiga Pyotr I tomonidan berilgan yo'riqnomaga ko'ra, o'zbek davlatini Rossiya bilan harbiy ittifoqqa chaqirish, unga rus soldatlari-dan iborat gvardiyani taklif etish, Buxoro oltini qayerdan va qancha olinishi, xonlikning harbiy istehkomlari, ulardagi harbiy kuchlar soni va holati, xonlikning Eron, Xiva va usmoniylar bilan munosabatlari haqida ma'lumotlar to'plash vazifasi yuklatilgan edi.

XVII. MANG'ITLAR BOSHQARUVI DAVRI

Nodirshoh bosqinidan so'ng Abulfayzxon rasman oliy hukmdor kursisida qoldirilgan bo'lsa-da, amalda hokimiyat mang'itlardan bo'lmish amir Muhammad Hakim¹ va uning o'g'li amir Muhammad Rahim² ixtiyoriga topshirilgan edi. Amir Muhammad Rahim buyrug'i bilan 1747-yili Abulfayzxon qatl qilinib, marhumning o'g'li Abdulmo'min sulton³ xon deb e'lon qilinadi. Bir yil o'tib amir Muhammad Rahim uni ham o'ldirtirib, o'rniga marhumning ukasi Ubaydulla sultonni⁴ o'tqazadi. U ham uzoqqa bormay, qo'g'irchoq xon maqomi Sherg'ozini (Abulg'ozini) sultonga⁵ yuklanadi. 1756-yilning so'nggi oyida esa amir Muhammad Rahimning o'zi chiqadi va shu tariqa ashtarxoniyalar sulolasi faoliyati ham uzil-kesil barham topib, o'zbek davlati boshqaruvi yangi siyosiy kuch – mang'itlar sulolasi qo'liga o'tadi.

Oliy hukmdor etib tayinlangan ashtarxoniy shahzodalar Abulfayzxonning o'g'li Abdulmo'min (1747–1751), Ubaydullo (1751–1754) va Sherg'ozini (1754–1756) rasman «xon» deb e'lon qilingan bo'lsa-da, ularning yoshligi tufayli amaldagi hokimiyat amir Muhammad Rahim qo'lida to'planadi. Davlat tepasiga soxta xon qo'yish an'anasi amalda qo'llaniladi. Turli sabablar bilan bu yosh shahzodalar qatl etiladi va Abulfayzxonning qiziga uylangan amir Muhammad Rahim 1756-yildagina taxtga rasman o'tiradi va mang'itlar sulolasining hukmronligini boshlab beradi. Shu davrdan boshlab davlat Buxoro amirligi deb yuritila boshlaydi.

Amir Muhammad Rahim o'z faoliyatining dastlabki davridayoq barcha viloyatlar, shaharlar va yarim ko'chmanchi qabilalarning hukmdorlarini Bu-

¹ *Muhammad Hakim (1743-yili vafot etgan)* – so'nggi ashtarxoniy davrida eng nufuzli davlat arbobi, devonbegi, otliq kabi yuqori lavozimlar egasi.

² *Muhammad Rahim* – 1756–1758-yillarda Buxoro xonligi doirasida o'zbek davlatini boshqargan mang'itlar yetakchisi.

³ *Abdulmo'minxon* – 1747–1751-yillarda o'zbek davlatini boshqargan ashtarxoniy yetakchi (qo'g'irchoq xon).

⁴ *Ubaydullaxon III* – 1751–1754-yillarda o'zbek davlatini boshqargan ashtarxoniy yetakchi (qo'g'irchoq xon).

⁵ *Sherg'ozixon* – 1754–1756-yillarda o'zbek davlatini boshqargan ashtarxoniy yetakchi (qo'g'irchoq xon).

xoroga taklif qilib, o'z boshqaruvining asoslarini e'lon qiladi. Unga bo'ysunishlari va bo'ysunmaganlarni qattiq jazolashini bildiradi. U mamlakatda avj olgan siyosiy boshboshdoqlikka qarshi qattiq kurash olib borgani, Hisor, Miyonqal'a, O'ratepa, Nurota, Qubodiyon, Boysun, Zarafshonning yuqori ogimidagi ayrim yerlar, Panjikent, Urgut, Jizzax, Zomin va Shahrisabz kabilarni markaziy hokimiyat izmiga qaytarganini ta'kidlash lozim.

Amir Muhammad Rahimning o'limidan so'ng hokimiyat tepasiga kelgan amir Doniyol¹ ham taxtga rasman soxta xon o'tqazish va uning nomidan davlatni boshqarish yo'lini tutdi. Dastlab, amir Muhammad Rahimning olti yoshlik nabirasi Fozil to'rani, so'ngra ashtarxoniylar sulolasi vakili Abulg'ozini² taxtga o'tqazib, ular nomidan taxtni boshqardi.

Amir Doniyolga ham eski siyosiy muammolar – ayrim mahalliy amirlarning itoatsizligi meros bo'lib o'tdi. Amir Muhammad Rahimning o'limidan xabar topgan, Hisorga ko'chirilgan kenegas, yuz, bahrin, burgut va saroy urug'i boshliqlarining norozilik chiqishlari tez-tez sodir bo'lib turdi. Ular o'n ming lashkar to'plab, poytaxtga keldilar. Ark himoyasi kuchaytirildi va qo'shin to'plana boshlandi. Amir Doniyol ular bilan Ishoqxoja³ orqali muzorakaralar olib borishga harakat qildi. Qo'zg'olonchilar o'z yo'lidan qaytmadilar. Mamlakatni markazlashtirishdan manfaatdor bo'lgan hunarmand va savdogarlar qo'zg'olonchilarga faol qarshilik ko'rsatdilar. Qo'zg'olon bostirilsa-da, ularning rahbarlari, xususan, qo'zg'olon ko'targan turli urug'lar boshliqlari goh Samarqand, goh Miyonqal'a, goh Shahrisabz, goh Hisorda g'alayonlarni davom ettirdilar.

Ayni paytda boshqaruv tizimida turli mansablarni egallagan mang'it urug'i vakillarining beboshligi chegaradan chiqdi. Ular qo'llariga nima ilinsa, uni o'zlariniki, deb bilishgan. «Bevaning shamchirog'idan olov, vaqf omboridan bug'doy o'g'irlab», ularni o'zlariniki, deb hisoblashgan. Hech kimda ularni javobgarlikka tortishga jasorat yetishmagan. Amirlar va hokimlar orasida sharob ichish va shariat tomonidan man etilgan o'yinlarni o'ynash keng rasm bo'lgan edi.

Mamlakat hayotida kuzatilgan bu holat aholining noroziligini keltirib chiqardi. Xususan, 1785-yili poytaxt shaharda katta qo'zg'olon kelib chiqib, unda ishtirok etgan mingdan ortiq aholi halok bo'ladi. Bu qo'zg'olon oqibatida

¹ *Doniyol* – 1758–1785-yillarda Buxoro amirligi doirasida o'zbek davlatini boshqargan mang'itlar yetakchisi.

² *Abulg'ozixon* – 1758–1785-yillarda Buxoro amirligi doirasida o'zbek davlatini boshqargan so'nggi ashtarxoniy yetakchi (qo'g'irchoq xon).

³ *Is'hoqxoja* – Maxdumi A'zam avlodlaridan biri.

hokimiyatga amir Shohmurod¹ keladi. U hokimiyat tepasiga kelgan dastlabki kunlardan oq poytaxt shahar aholisining talablarini qondirishga harakat qiladi. Buxoro aholisiga ularni turli soliqlardan ozod etuvchi tarxon yorlig'ini beradi.

Darveshlarga xos kamtarona hayot kechirgan amir Shohmurod mamlakatda yuzaga kelgan siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy holatni barqarorlashtirishga harakat qildi. Jumladan, urug'larning isyonli chiqishlariga barham berish maqsadida Zarafshon vohasida egallanmagan ko'plab yerlar borligi va ular tekinga berilishi e'lon qilindi. Oqibatda vohada ko'plab aholi o'troqlasha bordi. Shuningdek, mamlakatning ichki ijtimoiy-iqtisodiy hayotini tartibga solish, ma'naviy hayotni jonlantirishga qaratilgan bir qator tadbirlar amalga oshirildi.

Uning davrida Nodirshoh tomonidan bosib olingan Marv qaytarib olindi. Marvdan Buxoroga ko'plab hunarmandlar, shu jumladan, ipakchilar ko'chirib keltirildi. Uning qo'l ostidagi harbiy kuchlar 1747-yilda Balx, Maymana, Andxud viloyatlarini qaytarib olishiga qaratilgan samarasiz harakatlarni amalga oshirdilar.

Xalq orasida «amiri ma'sum» – begunoh amir sifatida nom chiqargan Shohmurod, manbalarda ta'kidlanganidek, darveshona hayot kechirgan, ovqatlanishi va yeb-ichishi ham oddiy bo'lgan edi. Uning kundalik xarajatlari bir tangadan oshmagan. U o'z sharafiga turli dabdabali tadbirlar uyushtirishiga yo'l qo'ymas edi.

Shuningdek, bu hukmdor viloyatlar hokimlari va qozilarini lavozimidan bo'shatib, ularning o'miga o'ziga yaqin kishilarni tayinladi. Turli tumanlar qasabalariga ham qozilarni tayinlash joriy etildi.

Shohmurod 1785-yilda pul muomalasi borasida ham islohot o'tkazdi. Bunga qadar ikki turdagi pul birliklari – tarkibida yarmi jez va boshqa aralashmalar va kumushdan iborat kumush va oltin tangalar (ashrafiy) zarb etilgan edi. O'tkazilgan pul islohoti natijasida ancha kichik qiymatdagi (7 misqol – 3,36 g.) kumush tangalar va yirik savdo ishlarini amalga oshirishda muhim o'rin tutgan oltin tangalar zarb etila boshlandi. Bu iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatdi.

Shuningdek, Amir Shohmurod, harbiy sohada ham muayyan islohotlarni amalga oshirishga harakat qildi. Xususan, yirik harbiy boshliqlarga tegishli yer maydonlari tortib olindi va ulardan keladigan daromaddan harbiylarga oylik to'lovlar amalga oshirildi.

¹ Shohmurod – 1785–1800-yillarda Buxoro amirligi doirasida o'zbek davlatini boshqargan mang'itlar yetakchisi.

Soliq sohasida ham bir qator yangiliklar joriy etildi. Ayrim soliqlar – yorg'u, tarx, tushmon, yosoq, oluq va soluq hamda hunarmandlardan mehnat majburiyati o'rniga undiriladigan pul tushumi bekor qilindi. Xiroj, tarozu puli va nikoh pulining miqdori kamaytirildi. Shu tariqa mang'itlar sulolasining hukmronligi mustahkamlandi.

Hokimiyat tepasiga kelgan amir Haydar¹ davri ham uzluksiz urushlar bilan o'ziga xosdir. Bu hukmdor davrida markazdan qochuvchi kuchlarning yana faollashuvi, turli viloyatlar hokimlari o'zaro kurashlarining avj olganligi kuzatiladi. Jumladan, 1800-yili soliq yig'uvchilarning beboshligidan Marv turkmanlari bosh ko'tardilar. Bu voqeadan bir yil keyin amir Haydar Qarshi atrofidagi Xalaj, Ulug'tepa, Gunashda turkmanlarning qizil oyoq, adak va adji urug'lari bilan to'qnashadi.

1804-yili amir Haydar Eltuzarxon² qutqusiga uchib, akasiga qarshi bosh ko'targan ukasi amir Din Nosirga³ qarshi qo'shin jo'natadi. Bu yurish natijasida ushbu markaz aholisining katta qismi Zarafshon vohasiga qo'chiriladi, Marvda esa 200 turkman oilasi joylashtiriladi. Marvdagi yirik Sultonband suv ombori buzib tashlanadi. Shuningdek, markaziy hokimiyatga qarshi bosh ko'tarib chiqqan Shahrisabz kenagaslari, hisorlik tog'liklarga ham qarshi kurash olib borishiga to'g'ri keladi. U Miyonqolda 1821–1825-yillarda qo'zg'olon ko'targan xitoy-qipchoqlarga ham qarshi faol kurash olib bordi.

Amir Haydar davrida Xiva qo'ng'irotlari va Qo'qon minglari bilan munosabatlar yanada chigallashib ketdi. XIX asr boshlarida Eltuzarxonning Buxoroga yurishi oqibatida Xiva qo'shini tomonidan ko'p aholi manzillari talon-toroj etilgan, aholi va chorvaning katta qismi olib ketilgan edi. 1806-yili amir Haydar qo'shini Eltuzarxonni tunda, fonuslar yorug'ida Amudaryoni kechib o'tishga majbur qiladi. Kechuv davomida xivaliklarning katta qismi va ularning hukmdori suvga cho'kib halok bo'ladi.

Xivaliklarning Buxoroga tajovuzi bu bilan to'xtab qolmadi. Yana bir necha bor bunday bosqinlar amalga oshirildi. Ular oqibatida Buxoro va Chorjo'y talon-toroj etildi.

Amir Haydar davrida Olimxonning⁴ O'ratepa, Jizzax, Zomin va boshqalarga qilgan yurishlari mamlakatning chekka o'lkalariga rahna soldi.

¹ *Haydar* – 1800–1826-yillarda Buxoro amirligi doirasida o'zbek davlatini boshqargan mang'itlar yetakchisi.

² *Eltuzarxon* – 1804–1806-yillarda Xiva xonligi doirasida o'zbek davlatini boshqargan qo'ng'irotlar yetakchisi.

³ *Din Nosirbek* – Marv hokimi.

⁴ *Olimxon* – 1801–1810-yillarda Qo'qon xonligi doirasida o'zbek davlatini boshqargan minglar yetakchisi.

Ularga qarshi yuborilgan 18 ming askardan iborat qo'shin mingga minglarning harbiy kuchlariga dosh bera olmay, ortga qaytishga majbur bo'ldi. Olimxon Samarqandni ham qo'lga kiritishga harakat qilib ko'rdi. Bu g'algamang'it amirining qo'li baland kelib, u Jizzax va O'ratepani qaytarib olishga muvaffaq bo'ldi.

Amir Haydar davrida davlatning moliyaviy ahvolini qoniqarli darajada, deb bo'lmas edi. Uzluksiz urushlar, murakkab boshqaruv tizimida band bo'lgan amaldorlarni maosh bilan ta'minlash, turli toifadagi dunyoviy amaldorlar va ulamolarning moddiy manfaatlarini nazarda tutish davlat xazinasi-ning holatiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Bu hukmdor davrida amaldorlarning soni 1000 dan, pilta miltiqlar bilan qurollangan harbiylarning soni esa 12 000 dan oshib ketdi. Ularni har oyda maosh va bug'doy bilan ta'minlash lozim edi. Bu holat davlat xazinasi-ning hajmida o'z aksini topdi.

Amir Haydardan so'ng Buxoro taxtiga o'tirgan uning o'g'illari amir Husayn¹ ikki yarim oy, amir Umar² to'rt oygina hukmronlik qilganlar. Ulardan so'ng taxtga amir Nasrulla³ o'tirdi. Uning hukmronligi davri ham mamlakatdagi mavjud tarqoqlikka qarshi kurashlar bilan xarakterlanadi. U qabila boshliqlarining isyon va g'alayonlariga qarshi qaratilgan siyosiy yo'l tutib, ularni «o'z yerlaridan qo'zg'almasdan o'tirishga» majbur etdi. U otasi amir Haydar davrida beboshlik qilgan barcha viloyatlarni markaziy hokimiyatga bo'ysundirdi.

Xonlik hududini birlashtirish ishida amir Nasrulla ko'p g'ayrat ko'rsatdi. Birgina Shahrisabz «yigirma yil davomidagi o'ttiz ikki yurishdan so'ng» Buxoroga qo'shib olindi (1856). Kitob ham qo'lga kiritildi.

1842-yilda u Qo'qonni zabt etishga muvaffaq bo'ldi. Lekin Buxoro yerlariga Ollohqulixonning⁴ qo'qqisidan bostirib kirishi Buxoro amirini vodiydan tezda qaytishiga sabab bo'ldi. Amir Nasrulla Qo'qonda Ibrohim parvonachini boshqaruvchi etib tayinlab ketgan edi. Mahalliy aholiga nisbatan zulm o'tkazgan bu shaxs ikki oydan so'ng aholining qarshilik kuchlari tomonidan ag'darib tashlanadi.

¹ *Husayn* – 1826-yilning oktabr–dekabr oylarida Buxoro amirligi doirasida o'zbek davlatini boshqargan mang'itlar yetakchisi.

² *Umar* – 1826-dekabr – 1827-aprel oralig'ida Buxoro amirligi doirasida o'zbek davlatini boshqargan mang'itlar yetakchisi.

³ *Nasrulla* – 1827–1860-yillarda Buxoro amirligi doirasida o'zbek davlatini boshqargan mang'itlar yetakchisi.

⁴ *Olloqulixon* – 1825–1842-yillarda Xiva xonligi doirasida o'zbek davlatini boshqargan qo'ng'irotlar yetakchisi.

Davlat boshqaruvi. Mang'it sulolasi vakillari ham davlatni boshqarishni asrlar davomida shakllangan o'zbek davlatchilik an'analariga suyanan holda amalga oshirishgan. Markaziy boshqaruv to'raligicha dargohda mujassamlashib, ashtarxoniyalar davrida asosan yemirilib bo'lgan devonlar tizimi haqida so'z bo'lishi mumkin emas edi. Ular zimmasiga yuklangan ijroiya vazifalari to'g'ridan-to'g'ri saroydagi biror-bir lavozim egasi yoki muayyan arbob faoliyatida mujassamlashgan edi. Bu esa o'z navbatida har bir mansab va lavozimning davlat boshqaruvidagi ahamiyati oshib borgani va ular egalarining davlat boshqaruvidagi o'rni kuchayganini ko'rsatadi.

Qushbegi ashtarxoniy Ubaydullaxon davridayoq eng nufuzli lavozimga aylangan edi. Mang'itlar davriga kelib esa, u oliy hukmdordan keyin ikkinchi shaxs bo'lib qoldi. Maqomi darajasidan bosh vazirga teng keladigan bu mansab egasi mamlakat boshqaruvi, moliya, soliq, xazina, poytaxtdagi ahvol bilan bog'liq eng muhim masalalarni nazorat qilgan. Shuningdek, unga barcha viloyatlar bo'ysungan. Xususan, qushbegi poytaxt shahar va uning viloyati hokimi ham sanalgan. Buxoro viloyati va shaharidagi tinchlik, osoyishtalik uchun javobgar shaxs bo'lgan qushbegi mamlakatdagi boshqa viloyatlar va shaharlar hokimlari bo'ysunadigan shaxs edi. U shuningdek, shahar va viloyatdan tushadigan turli soliqlar va zakot yig'ilishi uchun mas'ul edi.

Davlat boshqaruvida muhimligi jihatidan navbatdagi o'rinda turgan mansab devonbegi bo'lib, u davlatda o'ziga xos moliya vaziri maqomiga ega bo'lgan. Bu lavozim egasini odatda quyi qushbegi, deb ham atashgan. Uning bunday atalishiga sabab, bosh vazir – qushbegi arkda o'tirib, faoliyat yuritgan bo'lsa, asosan zakot yig'ish bilan bog'liq ishlarga mutasaddi bo'lgan devonbegi qarorgohi arkdan pastda joylashgan. Shu boisdan aholi orasida bosh vazir qushbegi, moliya vaziri esa quyi qushbegi, deb atalgan. Uning zimmasiga, shuningdek, Qorako'ldagi suv ta'minoti ham yuklangan edi.

O'taliq asosan shahzodalar tarbiyasiga mas'ul bo'lgan. Bu lavozim egalari mang'itlar davrida mamlakatning markaziy qismi – Samarqand va Buxoro o'rtasidagi yerlarning suv ta'minoti va ahamiyati, sug'orish masalalariga ham mutasaddi bo'lishgan.

Mang'itlar hukmronligi davrida ayrim lavozimlarning ahamiyati uni egallagan shaxsning nufuzi bilan o'lchanadigan bo'lib qolgan. Muayyan lavozimni egallagan shaxsning obro'-e'tibori qanchalik yuqori bo'lsa, u o'tirgan mansabning ham davlat boshqaruvidagi ahamiyati ortib borgan. Ular jumlasiga davlat boshqaruvida nufuzi ortgan oliy hukmdorning yorliqlarini amaldorlar, umuman tegishli kishilarga yetkazuvchi, shuningdek, zimmasi-

ga arab millatiga tegishli aholi bilan shug'ullanish vazifasi ham yuklatilgan parvonachi, jabrlanuvchilar arzini amirga yetkazish va javobini olib berishga mas'ul, ba'zi hollarda oliy hukmdor ruxsati bilan o'zi ham ularning talabini qondirishi mumkin bo'lgan dodxohni kiritish mumkin. Bu davrda xuddi shunday tarzda ahamiyati oshib borgan lavozimlardan biri inoq bo'lib, bu mavqega erishgan shaxs o'z lavozimiga ko'ra, oliy hukmdor buyruqlarini hukumatdagi oddiy xizmatchilarga yetkazish orqali uni amalga oshirishni tashkil qilish bilan shug'ullangan. Shuningdek, uning zimmasiga davlat mansabini egallamagan, lekin hokimiyat xizmatida bo'lganlar masalalari bilan ham shug'ullanish vazifasi yuklatilgan. Boshqaruv tizimida kichik inoq xizmati ham bo'lib, u joylardan kelgan murojaatnomalar, xorijlik elchilar tomonidan taqdim qilingan hujjatlar, nomalarni qabul qiluvchi ilk bosqich hisoblangan. Bundan tashqari, unda oliy hukmdorning muhri ham saqlangan.

Mang'itlar davrida mavqeli mansablardan yana biri to'qsoba edi. Asl ma'nosiga ko'ra, uning egasi tug', ya'ni davlat bayrog'ini saqlashga mutasaddi – bayroqdor bo'lgan. Shuningdek, u oliy darajadagi marosimlarda ishonchli shaxs sifatida qatnashib, oliy hukmdor oldiga taom tortish kabi mas'uliyatli vazifalarni ham bajarishga javobgar bo'lgan. Shu bilan birga, unga biror-bir tuman ham biriktirib qo'yilgan bo'lib, u moddiy tomondan mana shu hududdan keladigan daromad orqali ta'minlangan.

XIX asr boshlariga kelib, bu lavozim egasining xuddi dodxoh singari harbiy sohadagi ahamiyati ortib boradi.

Harbiy sohada eng yuqori darajada harbiy vazir turgan. Uni ko'p hollarda lashkar to'pchiboshisi, deb atashgan. Buxoro harbiy istehkomi boshlig'i lashkar boshlig'i sanalib, amalda u harbiy vazir vazifasini o'tagan. To'pchi qismlar boshlig'i mavqeyining bu darajada oshishi o'sha davrdagi harbiy harakatlarda eng zamonaviy qurol – to'plarni ishlata biladigan to'pchilarning ahamiyatidan kelib chiqadi.

Markaziy boshqaruv tizimida shayboniylar va ashtarxoniylar davrida bo'lgani kabi bir qator lavozimlar mavjud bo'lib, ularning ham mavqeyi o'sha mansabga o'tirgan shaxslarning obro'-e'tibori orqali mustahkamlanib borgan. Ular jumlasiga, mamlakat miqyosidagi xavfsizlik xizmati vakili – ko'kaldosh, haram xodimlari boshlig'i – bosh xoja, qurilish ishlariga mas'ul – kutvol, bakovulboshi, oliy hukmdor va amaldorlarning xizmatidagilarni nazorat qilib turuvchi – kichik o'roq, eshikog'aboshi, miroxo'r, qurol-aslahaga mas'ul – qo'rchiboshi, shahar, yo'llar posboni – qorovulbegi, harbiy harakatlar davrida harbiylarni turiga qarab taqsimlovchi – udaychi, elchilar qabulini uyushtiruvchi – shig'ovul kabi

lavozimlarni kiritish mumkin. Ular bevosita lavozimlari, nazarda tutgan vazifalari bilan bir qatorda davlat siyosiy hayotidagi mavqeyi bilan ham qadrlanishgan. Ko'p hollarda oliy hukmdorlar tomonidan ular mas'ul topshiriqlarni bajarishga safarbar qilingan. Ulardan biri 1842-yili amir Nasrulla tomonidan bosib olingan Qo'qonda noib sifatida qoldirilgan amaldor – parvonachi edi.

Shuningdek, shayxulislom, qozi, muftiy singari mansablar o'zining ilgari mavqeyini saqlab qolgan va jamiyatda roli katta edi. Oliy hukmdor tomonidan tayin etiladigan bu shaxslar ayrim viloyat va shaharlardagi diniy boshliq sanalib, intizom va tartibni saqlab turishga harakat qilishgan.

Ma'muriy-boshqaruv tizimining ajralmas qismlaridan biri fuqarolarning arz va shikoyatlari, talab va iltimoslari asosida sudlov ishlarini amalga oshirish uchun mas'ul qozilar edi.

Mang'itlar davrida qozilik tizimini isloh qilishga yo'naltirilgan ba'zi harakatlar ham amalga oshirildi. Jumladan, amir Shohmurod adliya va sudlov ishlari borasida ham ayrim islohotlarni qilgan. Sudlov ishlariga bag'ishlangan asar yozilib, unga barcha viloyat va tumanlarning qozilari tayanishlari lozim edi. Shuningdek, qirqta faqihdan iborat yuqori qozilik tuzilmasi ham tashkil etiladi. Uning a'zolari ko'p masalalarni oliy hukmdorning ishtirokida ko'rib chiqishgan. Unga har bir musulmon, hatto, qullar ham o'z xo'jayinlari ustidan arz qilib murojaat qilishlari mumkin edi. Bundan tashqari, fuqarolarning shaxsiy mulkini tortib oluvchilarni jazolash choralari ishlab chiqilgan.

Ma'muriy-boshqaruv tizimida qozilar bilan bir qatorda muftiylar ham katta o'rin tutishgan. Muftiylar lavozimini egallagan shaxslar qozilar kabi shariat asoslari va musulmon qonunshunosligi bo'yicha keng qamrovli bilimga ega bo'lishlari lozim edi. Odatda, muftiylar turli munozarali masalalar bo'yicha shariat, hadislar asosida «fatvo» va «rivoyatlar» tuzishgan. Qozilar munozara olib borayotgan tomonlar vakillariga bunday «fatvo» va «rivoyatlarni» ko'rsatishgan, muftiylar ularga o'z muhrlarini bosganlaridagina o'z hukmlarini chiqarishgan.

Muftiylarni tayinlash huquqi poytaxt Buxoroning qozikaloniga berilgan edi. Muftiylar ichida ham o'ziga xos tabaqalanish mavjud bo'lib, ularning yuqori toifasi – a'lam deb atalgan. A'lamlar ham ikkiga bo'linib, ularning kattasi ohund, keyingisi a'lam deb nomlangan.

Boshqaruv tizimida, shuningdek, rais (muxtasib), sadr (vaqf mulklari hisob-kitobi va nazorati bilan shug'ullanuvchi) mansab egalari ham faoliyat yuritishgan.

Mahalliy boshqaruv tizimida ham markaziy boshqaruv tizimidagi kabi mansab va lavozimlar bo'lgan. Mang'itlar davrida ham oldingi sulolalar davrida-

gi kabi oliy hukmdor tomonidan mamlakat yerlarini boshqaruv uchun xon tomonidan o'z qarindosh-urug'lariga bo'lib berilish tajribasi davom ettirildi. Ayrim hollarda, viloyat va shahar hokimligi nafaqat hukmdor sulola vakillariga, balki oliy hukmdorning harbiy harakatlarida faol ishtirok etgan ba'zi mansabdor shaxslar, shuningdek, turli qabila va urug'lar vakillariga ham berilgan.

Ijtimoiy-iqtisodiy hayot. Mang'itlar hukmdorligi davrida ham aholining katta qismini o'troq aholi tashkil etgani holda, ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi turmush kechiruvchi urug'lar ham bo'lgan. XIX asrning 40-yillarida umumiy soni 270 ming atrofida bo'lgan qipchoqlar soni jihatidan eng katta hisoblangan. Mang'itlar Buxoro va Qarshi atroflarida, xitoylar Buxoro va Karmana, naymanlar Ziyoviddinda, qipchoqlar Kattaqo'rg'on va Samarqandda, saroylar Mirzacho'lda, shuningdek, Samarqanddan Qarshiga boruvchi yo'l bo'ylab, Qarshi va uning o'rtasidagi tog'larda qo'ng'irotlar, G'ijduvon atrofida do'rmonlar, Nurda burgutlar, Shahrisabzda kenagaslar yashashgan.

O'troq aholi sug'orma dehqonchilik qilishga qulay bo'lgan vohalar va ularda joylashgan shahar, qishloqlarda istiqomat qilishgan. Shuningdek, yarim ko'chmanchi hayot tarzini kechirgan abdal, qarluq, qangli, barlos, jaloyir va boshqalar asosan lalmi yerlarda yashab, dehqonchilik bilan birga chorvachilik bilan ham shug'ullanishgan.

Vardanza¹, Samarqand, Qarshi atroflarida yashab, bozorlariga qora va kulrang qorako'l yetkazib bergan arablar aholining uncha katta bo'lmagan qismini tashkil qilishgan. Amir Haydar tomonidan 4000 marvlik oilaning Samarqand atrofiga ko'chirilishi bilan soni ortgan forslar, turkmanlar, dasht yerlari va mamlakatning shimolida, shuningdek, Zarafshon vodiysida yashagan qoraqalpoqlar, shimoli-sharqda yashagan Kichik va O'rta juz qozoqlari vakillari ham aholining muayyan qismini tashkil qilgan.

Mamlakatda «Buxoro yahudiylari», Samarqand va Qorako'l atrofida yashagan lo'lilar (jo'gi, mazang va lo'li), shuningdek, bu yerga turli maqsadlarda kelib, qolib ketgan ruslar, tatarlar, afg'onlar, hindlar, qalmiqlarni ham uchratish mumkin edi. Poytaxtda 800 ta yahudiy oila yashagan.

Mang'it amirlari ham o'zlaridan oldin davlatni boshqargan sulolalar kabi yangi sun'iy sug'orish ariqlarini bunyod etish va eskilarini ta'mirlash ishlari-ga katta e'tibor qaratishgan. Mang'it amirlari turli o'zbek urug'lari o'rtasidagi janjallarga barham berish yo'lida bir qator tadbirlarni amalga oshirishgan. Jumladan, urushqoq urug'larni ishlov berilmagan erlarga ko'chirishgan.

¹ Vardanza – xarobalari Buxorodan 40 km shimoli-sharqda saqlanib qolgan ko'hna qishloq.

Natijada, turli urug'larning o'troqlashuv jarayoni kechgan. Ushbu siyosatning mantiqiy davomi sifatida bu yerlarda o'troqlashgan aholining xo'jalik yuritishi uchun sun'iy sug'orish tizimlari bunyod etilgan. Bu boradagi ishlar, ayniqsa, Zarafshon vohasida faol olib borildi. Bu yerda Jo'yixurma va Jo'yisarazm kabi yirik ariqlar qazilgan.

XVIII asrning 50-yillarida, shuningdek, puturdan ketgan va ta'mirtalab holga tushib qolgan sun'iy sug'orish tizimlarini qayta tiklash ishlari ham olib borildi. Bu davrda Darg'om arig'idagi suv ayirgich – to'g'on qayta tiklangan. Panjikent, Sheroz¹, Urgut va Samarqand yaqinida Oqdaryo va Qoradaryodan qazilgan ariqlar tozalandi, yangilari bunyod etildi.

Ayniqsa, Amir Shohmurod davrida ko'pgina yangi ariqlar qazilgan. Ular jumlasiga Urgut tumanidagi Qozonariq, Sheroz tumanidagi Tumanariq, Sug'ud tumanidagi Tog'uzariqni kiritish mumkin.

Suv taqsimotida tegirmon, uning yarmiga teng, 10–15 tanob yerni sug'orishga yetadigan tosh, quloq o'lehov birliklaridan foydalanishgan.

Suvni taqsimlashda ravoqdan ham foydalanishgan. Bu moslama odatda tosh ko'priklar ostida bunyod etilgan bo'lib, uning yordamida 100 tanob yerni sug'orishga yetadigan suv taqsimlab berilgan. Masalan, Samarqand yaqinida bu yerdan Karmanagacha bo'lgan yerlarni sug'orishga qodir Zarafshonning suvini taqsimlash uchun 21 ravoq bor edi.

Sun'iy sug'orish tizimlarini tozalash, ta'mirlash va yangilarini bunyod etish o'z navbatida mamlakatda muhim ahamiyatga molik jarayonlarning kechishiga olib kelgan. Xususan, bu ishlar natijasida sun'iy sug'orish tizimi yoqalab ko'chmanchi aholining o'troqlashish jarayoni kechgan. Bu esa o'z navbatida dehqonchilikda band yerlarning kengayishiga sharoit yaratgan.

Aholi asosan suvli, to'qay hamda lalmi yerlarda dehqonchilik bilan shug'ullangan. Sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik olib borilgan yerlar suvli yer deb atalib, ular egallagan maydon lalmi yerlar maydonidan katta edi. Bu yerlarga yilda ikki marta – bahor va kuzda ekin ekilib, hosil olingan.

XVIII–XIX asrlarda mamlakat dalalarida g'allachilik, paxtachilik, polizchilik, bog'dorchilik, uzumchilik kabi sohalar rivojlanib, turli ekinlar, mevalar yetishtirishning hajmi ortgan. Ular ichida donli o'simliklar – bug'doy, sholi, arpa, tariq, jo'xori katta o'rinni egallagan. Miyonqol va Shahrisabzda yetishtirilgan sholi nihoyatda yuqori baholangan. Jo'xorining turli navlari ekilib, yaxshi hosil olingan. Ular jumlasiga iyun oyida pishuvchi simohi, avgustda hosili yetiluvchi chormohi navlarini kiritish mumkin.

¹ Bu yerda Sheroz qishlog'i ko'zda tutilmoqda.

Mang'itlar davrida ham yog' ishlab chiqarishda katta ahamiyatga ega bo'lgan kunjut, oddiy navli zig'ir va uning alohida bir turi bo'lgan indiv singari ekinlar ekilgan.

Hunarmandchilikda talab katta bo'lgan dehqonchilik mahsuloti paxta edi. Dehqonlar uni o'zlarining ehtiyojlari va sotish uchun yetishtirishgan. Paxta mamlakatning ko'p yerlarida ekilgan. Shu bilan bir qatorda, aynan ushbu mahsulotni yetishtirishga ixtisoslashgan tumanlar mavjud edi. Ular jumlasiga Buxoro, Shahrisabz, Kattaqo'rg'on va boshqalarni kiritish mumkin. Bu hududlarda oq va toza navi hisoblangan hamda bir oz qizg'ish tusga ega g'o'za urug'lari ekilgan. Ushbu dehqonchilik mahsulotiga Rossiyada talab katta edi. Tashqi savdo aloqalarida tovar ahamiyatiga ega paxtaga Rossiyada bo'lgan ehtiyojning ortishi mamlakatda bu dehqonchilik ekini ekiladigan yer maydonlarining kengayishiga olib kelgan. Bu davrda tamaki ham yetishtirilgan. Ayniqsa, Qarshi atrofida, Urgut va Kattaqo'rg'onida yetishtirilgan tamaki yuqori baholangan.

Mamlakatda turli bo'yoqlar beruvchi o'simliklar ham o'stirilgan. Yetishtirilgan ro'yon, isparak, buzg'unch ko'p hollarda tovar ahamiyatiga ega bo'lib, xorijga olib ketilgan. Masalan, buzg'unch Buxorodan Hirotga olib borilgan.

Amirlikda polizchilik ham rivojlangan. Turli poliz ekinlari ekilib, ulardan olingan hosil mamlakat bozorlaridagi ichki savdoda muhim o'rin tutgan. Jumladan, qovoqning 9, qovunning 10 xili ekilgan. 1832-yili Buxoroda bo'lgan ingliz elchisi Aleksandr Byorns¹ Buxoro qovunlari haqida yozar ekan, ularni hind, afg'on va fors qovunlari bilan qiyoslab bo'lmasligi, hatto, mashhur afg'on qovunlari ham ular bilan raqobatlasha olmasligini ta'kidlagan edi.

Aholi kashnich, rayhon, bodyon, zira, shuningdek, turli gullar yetishtirish bilan ham shug'ullangan. XIX asrda birgina Samarqand va uning atroflarida atirgul, nastarin, to'q qizil rangdagi atirgul (arg'uvon), lolalar, havo rang, qizil va oq binafshalar, oq, qizil va qashg'ar gullari, qizil va oq xitoy atirguli, ra'no, zebo, hindi, tugma gullari va boshqalar ekilgan.

Uzumchilik va bog'dorchilik ham rivojlanib borgan. Mamlakat va undan tashqarida bedona navli Shahrisabz anorlari, Samarqand shaftolilari, Shahrisabz yaqinidagi tog'larda yetishtirilgan bodom mashhur edi. Olmaning 8, uzumning 12 navidan katta hosil olingan. Xususan, Karmana, Xatirchi, Shahrisabz, G'uzor, Chiroqchi, Qarshi, Kattako'rg'on, Qorako'l va Buxoro uzum yetishtirish markazlaridan biri bo'lgan.

Amirlik hududida chorvachilik ham rivojlangan. Chorvachilikka ixtisoslashgan hududlarda qo'y, sigir, buqa, ho'kiz, tuya va otning turli zotlari

¹ A.Byorns – ingliz elchisi, harbiysi, sayyohi va tadqiqotchisi.

ko'paytirilgan. Ular bilan nafaqat ichki, balki tashqi bozorda ham katta savdo amalga oshirilgan. Tovuq, o'rdaklar parvarish qilingan. Aholi kaklik va baliq ovlash bilan ham shug'ullangan.

Mang'itlar hukmronligi davrida ham yerga egalikning uch turi – davlat (amlok, zamini mamlaka, podsholik), xususiy (mulk) va vaqf yerlari mavjud edi. Ularning ichida katta hajmga ega bo'lgan davlat yerlari asosiy yer jamg'armasi hisoblanib, undan alohida ko'rsatgan xizmatlariga qarab turli amaldorlar, ulamolar, urug'boshchilari va harbiylarga yerlar ajratib berilgan. Yerning yana bir turi bo'lib, u har qanday soliqlardan ozod etilgan edi. Bunday yerlar mulki xurrixolis deb atalib, uni egalari ijaraga berishgan.

Bu davrda yerdan foydalanish borasida chuqur ijtimoiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Yerni ijaraga olib foydalanuvchi yirik ijtimoiy kuch – dehqonlar soni ortdi. Nafaqat davlat tomonidan yerlarni hadya qilish, balki, yer oldi-sottisi orqali uning muayyan shaxslar qo'lida to'planishi kuzatiladi. Bu jarayon oqibatida, hatto, tumanlar miqyosida yer maydonlariga ega yirik yer egalari shakllanadi.

Shayboniylar va ashtarxoniylar sulolalar hukmronligida kuzatilgani kabi mang'itlar davrida ham ko'chmanchi aholining iqtisodiy jihatdan yomon ahvolga tushib qolgan qismining, shuningdek, yarim ko'chmanchilarning o'troqlashish jarayoni davom etdi. XIX asrning birinchi yarmida bu jarayon yanada jadallashdi.

Mang'itlar davrida ham mamlakat hayotida shaharlar muhim o'rin tutgan. Ulardan biri poytaxt Buxoro bo'lib, sulola vakillari olib borgan siyosati natijasida uning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy mavqeyi va salohiyati yanada rivojlanib bordi. Ayniqsa, bu boradagi o'sish XVIII asrning oxirlari va XIX asrning birinchi yarmiga to'g'ri keladi. Siyosiy nizolar, parokandalik va xo'jalikning izdan chiqishi oqibatida tanazzulga yuz tuta boshlagan poytaxt shahar o'zining ilgarigi mavqeyini tiklab bordi. Shaharda ko'plab savdo inshootlari, madaniy muassasalar, jamoat binolari qurilishi jadallashib bordi.

XVII asrning oxirlari – XVIII asrning birinchi yarmida kechgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotning tanazzuli oqibatida inqirozga yuz tutgan shaharlar jumlasida og'ir damlarni o'z boshidan kechirgan Samarqand o'zining ilgarigi mavqeyini tikladi. Mang'it amirlarining harakati bilan shahar asta-sekin aholi bilan to'lib bordi va XIX asrning 40-yillarida aholi soni 25–30 ming kishiga etdi.

Mamlakatning turli markazlarida an'anaviy hunarmandchilik sohalari – to'qimachilik, metalga ishlov berish, charmchilik, yog'ochga ishlov berish,

kulolchilik, oziq-ovqat mahsulotlarini tayyorlash va boshqalar mavjud bo'lib, ularda band bo'lgan hunarmandlar tomonidan aholining kundalik turmushida asqatadigan turli mahsulotlar ishlab chiqarilgan.

Mang'itlar davrida ichki va tashqi savdo keng rivojlandi. Savdo taraqqiyoti natijasida Samarqand, Buxoro, Shahrisabz, Qarshi kabi shaharlarning iqtisodiy qudrati o'sib bordi. XIX asrning 20-yillarida «Buxoro shahri na faqat mamlakat, balki qo'shni davlatlar shaharlari orasida ham mashhur savdo shahri sifatida sanalishi mumkin edi».

XIX asrda savdoning rivojlanishi natijasida Qarshining ham ahamiyati o'sib bordi. 1875-yildagi bir hujjatda «Buxoroga sharqdan va janubi-sharqdan olib boriladigan hamma narsa Qarshini chetlab o'tmaydi. Shu boisdan shahar boshqa Buxoro shaharlaridan farqli ravishda tez o'sayapti», deb qayd etilgan edi.

Mamlakatga keltiriladigan mollar tarkibida ham o'zgarishlar sodir bo'ldi. Jumladan, XVI–XVII asrlarda Rossiyadan Buxoro xonligiga asosan «bulg'oriy terisi», mo'yna, movut, yog'och idish-tovoqlar va boshqalar keltirilgan bo'lsa, mang'itlar davriga kelib bu mollarning xillari o'zgara borgan. Xususan, XIX asr boshlarida Rossiyadan Buxoroga matolar, fabrika mahsulotlari, mis, jez, temir, cho'yan, simob, qizil bo'yoq, shakar va boshqa mollar keltirilgan. Koshg'ar va Qo'qon orqali Xitoydan tuqtachoy (g'isht choy), oqquyruq (ko'k choy), chinni, kumush yombilar va boshqa tovarlar keltirilgan.

Qo'shni mamlakatlarga Buxorodan turli xil ip, ipak va jun gazlamalar, tayyor kiyim-bosh yetkazib berilgan. Arminiy Vamberi¹ «Mahalliy mahsulotlarning hammasi juda arzondir va shuning uchun Buxoroning ko'ylak bozori serhasham kiyim bilan Xitoy Tatariyasiga² qadar barcha musulmonlarni ta'minlaydi», deb qayd etgan edi. Buxoro shaharlarida to'qilgan turli matolar, kiyim-bosh Rossiyaga ham olib borilgan. Xususan, Orenburgga 1769-yili «ko'plab oddiy va to'qilish sifati turlicha bo'lgan ip-gazlamalar... to'nlar» olib borilgan. Shuningdek, bu shaharga «qimmat narxda sotib olinadigan kul rang va jingalaksimon Buxoro qorako'llari», firuza va boshqa qimmatbaho toshlar, hamda «quritilgan o'riklar, shaftoli va juda yoqimli mayda uzum, kishmish... yong'oqlar» olib borib sotilgan.

XIX asr boshlarida qayd etilishicha, Buxorodan Yorkentga³ marjon, firuza, qorako'l terilari va tulki mo'ynasini olib borishgan.

Mang'itlar davrida ham mamlakatning turli markazlarida ma'lum bir turdagi mahsulot turini sotishga ixtisoslashgan bozorlar soni ko'paygan.

¹ *Arminiy Vamberi* – 1863-yili Turkistonda bo'lgan majoristonlik sayyoh va olim.

² *Xitoy Tatariyasi* – Sharqiy Turkiston.

³ *Yorkent* – hozirgi Xitoyning g'arbidagi vohta va tuman.

Karvonsaroylarning ham muayyan turdagi molni saqlashga ixtisoslashuvi kuchaygan.

Mang'itlar pul muomalasini ham tartibga solishga harakat qilishgan. Mamlakatdagi tartibsizliklarning aksariyati ko'pincha pul muomalasi borasidagi muammolar bilan bog'liq holda kechgan. 1785-yilda pul muomalasi borasidagi tartibsizliklarga barham beruvchi tub islohot o'tkazilgan. Kumush tangalarning og'irligi, kattaligi, aslligi, zarb etish yo'li, tangadagi yozuvlar mazmuni va bezaklar o'zgartirildi. Shayboniylar va ashtarxoniylar hukmronligi davrida qariyb ikki yarim asr mobaynida kumush tangalar har xil asllik darajasiga ega bo'lsa-da, ularning og'irligi bir misqolga teng bo'lgan. 1785-yili kumush tangalar misqolning 7/10 qismiga (3,36 gramm) tenglashtirilgan. Kichkina, yumaloq shakldagi bu tangalar yuqori sofflik darajasiga ega edi. Ushbu islohot natijasida muomalada bo'lgan barcha eski tangalar muomaladan chiqarilgan. Faqat 1753–1758-yillarda amir Muhammad Rahim tomonidan chiqarilgan tanga – miri muomalada qoldirilib, u yangi tanganing to'rtidan bir qismi qiymatiga teng bo'lgan.

Mang'itlar hukmronligi davriga kelib yerdan undiriladigan soliqlarning ham hajmi ortib borgan. Xususan, nafaqat davlat, balki xususiy yerlardan ham undiriladigan molujihad, xiroj kabi soliqlarning hajmi oshib bordi. Shuningdek, aholidan oldingi davrlarda mavjud bo'lgan soliqlar (kafsan, tanob puli, alaf puli, zakot, yo'l, dallol puli, bozor solig'i, tarozu puli, tuz puli, qarag'ay puli, o'tin puli, cho'p puli va boshqalar) undirilgan va soliqlar tizimida deyarli o'zgarishlar sodir bo'lmagan.

Yirik yer egalari, savdo inshootlari va boshqa ko'rinishdagi ko'chmas mulk egalari mamlakatning asosiy boyligi va foyda keltiradigan muassasalarni o'z qo'llarida to'plagan edilar. Savdo-hunarmandchilik muassasalari yirik mulkdorlar – oliy hukmdorlar, turli toifadagi amaldorlar, qabila boshliqlari, ulamolarning yirik vakillari va boshqalar qo'lida to'plana bordi. Qishloq yerlari va shaharlardagi ko'chmas mulk va savdo-hunarmandchilik muassasalaridan keladigan foydaga ular yangi mulklarni sotib olib, yanada boyib borishgan, xalqaro savdo bilan shug'ullanib, uzoq yurtlarga savdo karvonlarini jo'natishgan. Bu davrda muayyan pul miqdoriga ega har bir shaxs savdo bilan shug'ullangan. Biroq ular tomonidan o'zlashtirilgan bu boyliklar ishlab chiqarish jarayoniga sarflanmagan va mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotiga xizmat qilmagan.

Ilm-fan va madaniyat. Mang'itlar davrida ilm-fan yo'nalishlarida erishilgan yutuqlarni qayd etish imkoni yo'q. To'g'ri madrasalar qurilgan, borlari o'z faoliyatini davom ettirgan. Biroq ulardagi ta'lim saviyasi tobora ortda qolib, jahonda erishilgan marralardan xabarsizlik holati hukmron bo'lgan.

Me'morchilik-qurilish ishlariga amir Haydar tomonidan Samarqandda qurilgan madrasa (1812), Buxoroda Shayx Jalol xonaqosi (1753–1754), Xalifa Xudoydod masjidi (1777), Rahmonquli madrasasi (1794–1795),

Ernazar Elchi madrasasi (1794–1795), Tursunjon madrasasi (1795–1796), Xalifa Niyozqul tomonidan qurilgan «Chor minor» madrasasi (1807), Qatshida amir Haydar davrida «sut sotish bilan shug'ullanuvchi ayol – Gulining mablag'iga qurilgan» madrasani kiritish mumkin.

A.Byoms esa Buxoroda 366 ta «katta va kichik» madrasa bor, deb ko'rsatar ekan, madrasalar toliblari orasida «Erandan tashqari hamma mamlakatlar kishilarini uchratish mumkin. Ular yetti yoki sakkiz yillik o'quv kursini tugatib, o'z vatanlariga bilim zaxirasi va mashhurlik bilan qaytadilar», deb qayd etgan edi.

XIX asrning birinchi yarmida poytaxt shahar Buxoroda undagi ko'chalar soniga mos ravishda 360 ta masjid bo'lib, ulardan 8 tasi jome masjidlari vazifasini o'tagan. Bular – Masjidi Baland, Masjidi Usta Rohi, Masjidi Jo'ybor, Masjidi Govkushon, Masjidi Shaxshana, Masjidi Xalifa Husayn, Masjidi Poyanda otaliqdan iborat edi.

Ilmiy va madaniy turmushni tarixchilik, she'riyat, tibbiyotga oid asarlarining dunyoga kelishi bilan bog'lash mumkin. «Tuhfat al-xoniy», «Tarixi amir Haydar», «Fathnomayi sultoni», «Mang'itlar xonadoni saltanati qisqacha tarixi», «O'zbek podshohlari zikri», «Tarixi salotini mang'itiya, o'zbakiya va ashtarxoniya» tarixiy asarlar shular jumlasidandir. Shuningdek, Muhammad Sharif Buxoriyning «Mizan at-tibb» asariga yozgan sharhlaridan boshqa jiddiyroq asarni topish qiyin.

Tashqi siyosat. Rossiyaning Turonga qiziqishi ortib, uning siyosiy maqsadlari ham yaqqollasha va yiriklasha borishi aynan mang'itlar hukmronligi davriga to'g'ri kelgan. Rus hukumati tomonidan yuborilgan elchiliklar o'zbek davlati haqida to'liq ma'lumot to'plash, kelgusida amalga oshirilishi muqarrar harbiy yurishlarga tayyorgarlik ko'rib borish maqsadini ko'zlagan edi. Bundan tashqari, o'zbek savdo-ishbilarmon ahlini o'ziga og'dirish, XVIII asrdan kuchayib borgan siyosiy tarqoqlik muhitini avj oldirish kabi zimdan harakatlar ham bo'lganini ta'kidlash joiz.

Rus omili mang'itlarning usmoniylar bilan aloqalarida ham o'z aksini topgan edi. 1776-yili Istanbulga kelgan o'zbek elchisi Muhammad Badi orqali berib yuborilgan javob maktubida musulmonlar o'rtasida birlik yo'qligidan noligan usmoniy sulton mang'it hukmdorlarini qirg'iz va qozoqlarni Rossiyaning chegara hududlariga hujumlar uyushtirishga chaqirish, Buxoro ulamolarining usmoniylar uchun duoda bo'lishlarini so'ragani ma'lum.

1783-yili Qrim Rossiya tomonidan bosib olinishi 1787–1792-yillarda rus-turk urushiga yo'l ochib beradi. Usmoniylar Buxoroni ham bu urushga tortishga harakat qilishgan. Chunonchi, 1785-yili o'zbek poytaxtiga kelgan turk elchisi Olamdor Mehmed Sayidog'a amir Shohmuroddan rus hukumatiga qarshi chiqish, Dashti Qipchoqda yashovchi «qirg'izlar va qozoqlar» orasida ruslarga qarshi g'azovot g'oyasini targ'ib qilish, Rossiyada yuz berayotgan voqealiklar haqida usmoniylarni xabardor qilib turish kabilarni iltimos qilgan edi. Bunga javoban, amir Shohmurod mang'itlarda zamonaviy qurol-aslahaning etishmasligi, usmoniylar tarafi ularni yetkazib bergani taqdirda, u harbiy harakatlar boshlashi va Rossiya bilan chegaradosh yerlarda harbiy istehkomlar qurishi mumkinligini bildiradi.

Mang'itlar Istanbulga Mirza Xoja Sobir (1801), devonbegi Eshmuhammad (1803), qo'rchiboshi Mirza Muhammad Yusuf (1804), Mirza Hoji Sobir (1810), Muhammad Sharifbiy (1815), Muhammad Fozil (1820–1821), Boltaqulibek (1837), Xoja Abdulla afandi (1843–1844), Nur Mehdi (1850) va boshqalarni elchi sifatida yuborgani, o'zaro bordi-keldilarga katta ahamiyat berilganidan dalolat beradi, albatta. Elchilar orqali yuborilgan maktublarida Turon mintaqasida yuz berayotgan o'zgarishlar haqida bildirish barobarida usmoniy sultondan qurol-yarog', ishlab chiqarishning turli sohalarida ustalar, shuningdek, tog'-kon ishlari, metallurgiya, tibbiyotga oid kitoblar, diniy adabiyotlar ham so'ralgan. Biroq bunga javoban sultonlik tomonlari kitoblarni yuborish bilan chegaralanib qolgani inobatga olinsa, biror-bir amaliy yordam ko'rsatilmagani ayonlashadi.

Hindistonda mustahkam o'mashib olgan inglizlar XIX asrning ikkinchi o'n yilligidan e'tiboran Turonga katta qiziqish bildira boshlashgan. Inglizlar turli safarlar orqali mintaqadagi siyosiy vaziyat, hududning ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlari, karvon yo'llarini o'rgandilar. Buxoroga kelgan U. Murkfort va D. Trebek (1821–1825), A. Byorns (1831–1832), Konolli va Ch. Stoddart (XIX asrning 30-yillari) Ost-Ind kompaniyasining¹ maxfiy topshiriqlarini bajardilar.

Angliyaning o'zbek davlati bilan munosabatlari faollashishini o'z zarariga yo'ygan rus hukumati Turonni egallash bilan bog'liq azaliy rejasini tezlashtirishga bel bog'lagan. XIX asr 60-yillarida mang'itlar va ruslar o'rtasida boshlangan qurolli to'qnashuvlar 1868-yilgi Zirabuloq jangida² amir Muzaffar³ qo'shini mag'lubiyati bilan Rossiya foydasiga xotima topadi.

¹ Ost-Ind kompaniyasi – savdo-sotiq ishlarini bajarish maqsadida tuzilgan, biroq Sharqning bir qator o'lkalari, jumladan, Hindistonni mustamlakaga aylantirgan va boshqargan tashkilot.

² Zirabuloq jangi – 1868-yil 2–3 iyun kunlari Buxoro amirligi va Rossiya imperiyasi o'rtasida, Samarqand – Buxoro yo'lida joylashgan Zirabuloq qo'rg'oni yonida yuz bergan urush.

³ Muzaffar – 1860–1885-yillarda Buxoro amirligi doirasida o'zbek davlatini boshqargan mang'itlar yetakchisi.

XVIII. MINGLAR BOSHQARUVI DAVRI

Ashtarxoniy hukmdor Ubaydullaxon davriga kelib, markaziy hokimiyatning o'ta zaiflashishi oqibatida ham poytaxtning o'zida, ham joylarda mustaqil siyosat yuritish ilinjida bo'lgan siyosiy doiralarning kuchayishi uchun munosib sharoit tug'dirib berilgan edi. Ulardan biri keyinchalik ashtarxoniylardan markaziy hokimiyatni tortib olgan mang'itlar bo'lsa, ikkinchisi, mang'itlardan oldinroq «otni qamchilagan», o'z siyosiy ishtahasini o'lkaning bir chekkasida ham qondirish mumkinligini amalda ko'rsatib qo'ygan farg'onalik minglar edi.

Turon siyosiy-harbiy turmushida temuriylar zamonidanoq ma'lum ming urug'i vakillari Urgut, Chechaktu, Maymana, Saripul, Guruzvon, Shibirg'on, Andxud, Farg'ona kabi hududlarda yetarli darajada mavqega ega bo'lganlari yaxshi ma'lum. Ubaydullaxon va urgutlik Oллоhberdi ming o'rtasida yuz bergan mojaro markaziy va mahalliy kuchlararo qarama-qarshilik namunasi ekanligidan tashqari, ashtarxoniylarning kuchsizlanishi natijasida urug'lar o'rtasida boshlanib ketgan hokimiyat uchun kurash sifatida qayd etiladi. 1711-yili Ubaydullaxonning o'ldirilishida Oллоhberdining ukasi Kuchak, demak, minglarning qatnashgani ham bejiz emas, albatta.

Qisqasi, ming urug'i boshlig'i Shohruxxon¹ fursatdan unumli foydalanib, mamlakatning sharqiy bo'lagida o'z mustaqil hokimiyatini o'rnatishga erishadi. Shu tariqa, yagona davlat va yurtda siyosiy, iqtisodiy hamda hududiy jihatlardan bo'linish yuz berib, o'zagi Farg'ona vodiysi bo'lgan, keyinchalik ilmiy va kundalik muomalada Qo'qon xonligi, deb yuritila boshlagan mustaqil siyosiy birlik yuzaga kelgan.

Buxoroning o'zida ichki muammolarga o'ralashib qolgan ashtarxoniy Abulfayzxonning sharqiy yerlarni qaytarib olishga qurbi yetmasligi Shohruxxon uchun o'z mavqeyini mustahkamlab borishga sharoit yaratib bergan.

Uning ishini davom ettirgan o'g'li Abdurahimxon² Farg'ona vodiysini to'liq bo'ysundirishdan tashqari, 1733-yili Samarqand, Jizzax va Kat

¹ Shohruxxon – 1709–1721-yillarda Qo'qon xonligi doirasida o'zbek davlatini boshqargan minglar yetakchisi.

² Abdurahimxon – 1721–1733-yillarda Qo'qon xonligi doirasida o'zbek davlatini boshqargan minglar yetakchisi.

taqo'rg'onni, ya'ni ashtarxoniyalar izmida bo'lgan muhim yerlarni ham o'z boshqaruviga olishga erishadi. Bu bilan u o'zining siyosiy mo'ljallari ancha kattaligini, sohibqironlikka da'vosi shunchaki gap emasligini ko'rsatib qo'ygandi, albatta. Ortga qaytish davrida og'ir kasalga chalinib, Xo'jandda joni uzilmaganida, balki Abdurahimxon keyinchalik butun o'zbek davlatida minglar hukmronligini o'rnatishi ehtimoli yo'q emasdi.

Abdulkarimxon¹ hukmronligi davrida minglar ilk bor tashqi siyosiy kuch tahdidining sinoviga duch kelganlar. Ya'ni Nodirshohning 1740-yilgi bosqini paytida Samarqand, Kattaqo'rg'on va Jizzax, ya'ni minglar qo'l ostida bo'lgan hududlar ham dushman qo'lga o'tgan. Javoban tezlikda qo'shin tortgan Abdulkarimxon Peshog'arga yetib kelganida, eronlik bosqinchining Xorazmga qarab yurishni davom ettirgani xabaridan so'ng harbiy kuchlarni har ehtimolga qarshi Peshog'ar va Xo'jandda qoldirib, o'zi Qo'qonga qaytadi. Agar tez orada u Jung'orlarning² vodiya bosqinini qaytarishga muvaffaq bo'lgani inobatga olinsa, so'z ketayotgan pallada minglar yirik tashqi kuchlarga ham qarshi turish darajasiga yetganlari ayonlashadi, albatta.

Abdurahmonxonning³ to'qqiz oylik hukmronligi, uning taxtdan tushirili-shi va viloyat hokimi etib tayinlanishi markaziy hokimiyatda yuqori mavqega ega bo'lgan mansabdorlar qatlami shakllanganidan dalolat beradi. Qolaversa, bu davrga kelib sulolaning ichida taxtga da'vogarlik qiluvchilar soni ham ortgan edi. Keyingi uch yilda oliy hukmdorlik kursisi ikki marta qo'ldan-qo'lga o'tgani buni isbotlaydi, xolos.

1751-yili taxtga o'tirgan Erdonaxon⁴ 1752-yili o'rmini qalmoqlar tarafidan qo'llab-quvvatlangan Bobobekka⁵ bo'shatib bergan. Biroq o'n oy o'tar-o'tmas Qo'qondagi yirik mansabdorlar ko'magida Erdonaxon yana hokimiyat tepasiga keladi. Garchi mazkur voqealar minglar sulolasi siyosiy qarama-qarshiliklar girdobiga sho'ng'ib borayotganiga ishora berayotgandek bo'lib tuyulsa-da, keyingi yillar buning teskarisini ko'rsatgan. Negaki aynan uning

¹ *Abdulkarimxon* – 1733–1750-yillarda Qo'qon xonligi doirasida o'zbek davlatini boshqargan minglar yetakchisi.

² *Jung'orlar* – Jung'or xonligi aholisi; u XVII–XVIII asrlarda Balxash, Yettisuv, Ko'knor, Balxash ko'llari, Tangritog', Oltoy, Ili vodiysi, O'b, Irtish va Enasoy daryolarining yuqori oqimlarini o'z ichiga olgan hududda faoliyat ko'rsatgan.

³ *Abdurahmonxon* – 1750-yili Qo'qon xonligi doirasida o'zbek davlatini boshqargan minglar yetakchisi.

⁴ *Erdonaxon* – 1751–1752, 1753–1762-yillarda Qo'qon xonligi doirasida o'zbek davlatini boshqargan minglar yetakchisi.

⁵ *Bobobek* – 1752–1753-yillarda Qo'qon xonligi doirasida o'zbek davlatini boshqargan minglar yetakchisi.

zamonida O'sh, O'zgand bo'ysundirilgani, 1758–1759-yillari Xitoylar tomonidan bosib olingan Sharqiy Turkistonga, Farg'ona vodiysining o'ziga xos darvozasi hisoblanmish Xo'jandga yurishlar yuz bergani ma'lum.

Erdona nomi bilan bog'liq yana bir muhim o'zgarish uning minglar orasida birinchi bo'lib xon unvonini olgani bilan bog'liqdir. So'nggi izlanishlarga ko'ra, 1763-yili o'zbek elchisi Xitoyga olib borgan maktubda u xon sifatida tilga olingan. Demak, Farg'ona vodiysidagi xonlik boshqaruvi Olimxon hukmronligidan ancha oldin sodir bo'lgan¹. Zamondosh tarixchilar Erdonaxonning el-yurt obodligi va farovonligi yo'lida ancha ishlarni bajarganini alohida ta'kidlaganlar. Ammo otasining siyosatini davom ettirish uning o'g'liga nasib etgan emas. Olti oylik hukmronlikdan so'ng Sulaymonxon² suiqasd oqibatida o'ldiriladi.

Eng uzoq muddat xonlik qilgan Norbo'taxon³ davri nisbatan siyosiy barqaror va iqtisodiyot bir maromda rivojlanib borgani bilan ajralib turadi. Xo'jandda minglar hokimiyatini o'rnatish ham aynan unga nasib etgan. Biroq uning o'limidan so'ng hokimiyat uchun uch guruh o'rtasida boshlanib ketgan siyosiy raqobat bularning barini chippakka chiqarishi hech gap emasdi. Taxt uchun kechgan ushbu kurashda Olimxon va tarafdorlari, jumladan, tog'asi Irisqulilar ustun kelishadi.

Olimxon hukmronligining dastlabki kunlaridan boshlab muxolifatni yo'qotish uchun qattiq kirishgani ma'lum. U markaziy hokimiyatni kuchaytirish maqsadida harbiy sohada islohot o'tkazib, qo'shin tarkibida tog'li tojiklardan iborat maxsus ikki guruh tuzgan edi.

Olimxonga nisbatan «Zolimxon» laqabi qo'llangani ikki sabab orqali tushuntiriladi. Birinchisiga ko'ra, u qattiq harbiy intizom joriy qilgan. Aniqrog'i, u tog'li aholidan tuzilgan harbiy qismni qo'shinning oldiga joylashtirgan bo'lib, bu qism dushmanning o'q otishiga qaramasdan shiddat bilan harakatni davom ettirgan. Ikkinchisiga ko'ra esa Olimxonning mamlakatdagi sayyidlar va eshonlarga berilgan tarxonlar, soliqlardan ozod qilingan imtiyozli yerlarni qayta ko'rib chiqish maqsadida o'tkazgan tekshiruvi ham uning «Zolimxon» nomini olishiga sabab bo'lgan. Aslida, bu tekshiruvdan maqsad mazkur ijtimoiy qatlam vakillariga berilgan imtiyoz – soliqlardan ozod etishning haqiqiyliigi yoki sox-

¹ Tadqiqotlarda xon sifatida ilk bor Olimxon 1805-yili taxtga o'tirgani uqitirib kelingan.

² *Sulaymonxon* – 1762–1763-yillarda olti oy Qo'qon xonligi doirasida o'zbek davlatini boshqargan minglar yetakchisi.

³ *Norbo'taxon* – 1763–1798-yillarda Qo'qon xonligi doirasida o'zbek davlatini boshqargan minglar yetakchisi.

taligini tasdiqlovchi hujjatlarni aniqlash va qayta nazoratdan o'tkazish bo'lgan edi. Chunki bu davrga kelib bunday soxta hujjatlar soni ko'payib ketishi natijasida, davlat xazinasiga tushadigan daromad kamayishiga olib kelgan edi. Bu jarayonlar aslida Olimxonning davlat iqtisodiyotini tartibga solishdan tashqari ayni paytda davlat hujjatlarini qalbakilashtirishga qarshi qaratilgan islohoti edi.

1810-yili xonlik taxtiga o'tirgan Umarxon¹ ichki siyosatni mustahkamlash barobarida tashqi aloqalarni kuchaytirgan edi. Jumladan, rus davlati bilan dastlabki savdo munosabatlarini, usmoniylar bilan esa elchilik aloqalarni o'rnatish ham aynan uning tashabbusi bilan boshlangan.

Muhammad Alixon² davrida Qorategin³, Kulob⁴, Darvoz⁵, O'ratepa bo'ysundirilgani, 1831-yilgi Pekin bilan imzolangan kelishuvga ko'ra Koshg'ardagi xalqaro savdo to'liq Qo'qon nazoratiga o'tganini urg'ulash joiz.

Shu bilan birga, hukmronligining so'nggi pallalarida markaziy boshqaruvda yuqori mavqega ega bo'lgan ayrim mansabdorlarni qatl ettirishi va mamlakatdan badarg'a qilishi uning hokimiyati zaiflashuviga olib kelgan. Taxtga o'tirganidan boshlab o'ziga qarshilarni davlatdan chiqarib yuborish siyosatini amalga oshirib kelgani, ularning mamlakat tashqarisida birlashib, harakat qilishiga imkon yaratadi. Chunonchi, Buxoro amirligida panoh topgan uning dushmanlari Nasrulloxonga ham o'z ta'sirlarini o'tkazishga muvaffaq bo'lishgan. Oqibatda, 1842-yili qo'shin tortib kelgan mang'it amiri Qo'qonni bo'ysundirishga muvaffaq bo'lgan. Ammo shu yiliyoq Sheralixon⁶ hokimiyatni qayta tortib oladi.

Garchi minglar mang'itlar ta'siridan chiqib, yana mustaqil siyosat yuritish imkoniga ega bo'lgan bo'lsalar-da, lekin aynan shu davrdan boshlab mamlakatning siyosiy tanazzulga qarab sho'ng'iy boshlaganini kuzatish mumkin. Bu davrda xonlik boshqaruvida Musulmonquli⁷ o'tirganligi tufayli qipchoq-

¹ *Umarxon* – 1810–1822-yillarda Qo'qon xonligi doirasida o'zbek davlatini boshqargan minglar yetakchisi.

² *Muhammad Alixon* – 1822–1841-yillarda Qo'qon xonligi doirasida o'zbek davlatini boshqargan minglar yetakchisi.

³ *Qorategin* – hozirgi Tojikiston hududida, Vaxsh daryosining o'rta oqimida joylashgan tarixiy o'lka.

⁴ *Kulob* – hozirgi Tojikiston hududida, Yaxsuv daryosi vodiysida joylashgan tarixiy viloyat.

⁵ *Darvoz* – hozirgi Tojikiston hududidagi Badaxshonda joylashgan tarixiy viloyat.

⁶ *Sheralixon* – 1842–1845-yillarda Qo'qon xonligi doirasida o'zbek davlatini boshqargan minglar yetakchisi.

⁷ *Musulmonquli (1794–1852)* – Xudoyorxonning qaynotasi.

larning faoliyati kuchayib, markaziy hokimiyat deyarli to'liq ushbu qatlam qo'liga o'tgan edi. U yuqori mavqega ega bo'lgan qipchoqlarni ba'zi viloyatlarga hokim etib tayinlaydi. Poytaxtda bo'layotgan bu o'zgarishlarda Sheralixonning hech qanday o'rni sezilmaydi. Davlat boshqaruvida qipchoqlarning boshqa urug'larga nisbatan olib borayotgan adolatsizliklari va zulmlari Toshkent va O'shda noroziliklarga olib keladi. Bundan xavfsiragan Musulmonquli o'z hukmronligini yanada mustahkamlash yo'lida bir qator xufyona rejalarini amalga oshirishga harakat qiladi. Oldiniga u Sheralixon o'rninga Murodni¹ taxtga o'tqazishni rejalashtirgan bo'lsa-da, biroq 1845-yili Sheralixonga nisbatan uyushtirilgan suiqastdan so'ng Xudoyorxonni rasmiy hukmdor sifatida e'lon qildiradi. Hokimiyat amalda Musulmonqulining qo'liga o'tadi.

Musulmonquli fuqarolarga nisbatan qattiq zulm o'tkaza boshlagani, yuqori martabali mansabdorlar hamda diniy ulamolarning e'tiroz va nasihatlari ham samara bermay, aksincha, ularni ham qatl ettirib yuborganini alohida ta'kidlash joiz. Markaziy hokimiyatdagi bunday qarama-qarshi siyosiy jarayonlar nafaqat boshqa urug', balki qipchoq urug'i ayrim vakillarining Musulmonquliga nisbatan norozilik harakatlarini yuzaga keltiradi.

1853-yili Musulmonqulining Toshkentga Normuhammad qushbegiga² qarshi amalga oshirgan harbiy harakati paytida uning hukmronligiga chek qo'yuvchi to'ntarish amalga oshirildi. Xolmuhammad dodxoh³ va boshqa sarkardalar Toshkent hokimi bilan til biriktirib, Musulmonquliga zarba beriladi. Shundan so'ng Xudoyorxonning mustaqil hukmronligi boshlangani bilan o'lka rivojlanishi yoki bu borada o'tkazilgan qandaydir islohotlar ko'zga tashlanmaydi. Aksincha, bu davrda mahalliy hokimlar tomonidan fuqarolarga nisbatan iqtisodiy zulm kuchaygani, masalan, 1857-yili Kirovchi⁴ hokimi bo'lib turgan Normuhammad qushbegi va Mirzo Ahmad⁵ o'z lavozimlarini suiiste'mol qilib, soliq miqdorini ko'paytirish orqali fuqarolarga jabr-zulm o'tkaza boshlaganlari, oqibatda xalqning hukumatga qarshi norozilik harakatlari kelib chiqqani yaxshi ma'lum.

Davlat boshqaruvidagi adolatsizliklarga chek qo'yish maqsadida Xudoyorxonning ukasi Malla o'zining noroziligini ochiq-oydin bildiradi. Shundan so'ng aka-uka o'rtasida boshlangan siyosiy kurashda kenjasi g'alaba qiladi.

¹ Murod (1845-yili vafot etgan) – Olimxon o'g'li.

² Normuhammad qushbegi – 1847–1852, 1863–1864-yillarda Toshkent hokimi.

³ Xolmuhammad dodxoh – Shahrixon hokimi.

⁴ Kirovchi – Qurama viloyatining ma'muriy markazi.

⁵ Mirzo Ahmad – harbiy sarkarda; turli yillarda Toshkent, Turkistonda hokim bo'lgan.

1858-yilda Qo'qon taxtiga o'tirgan Mallaxon¹ yuzaga kelgan chigal vaziyatni yechish maqsadida bir necha mansabdorlar o'rnini almashirib, qat-tiqqo'llik bilan hukumatni idora eta boshlaydi. Rossiya saltanatining mustam-lakachilik harakatlariga qarshi faol siyosat olib boradi. Mallaxonning huku-matni idora etishdagi usullari ayrim amaldorlarga yoqmasdan, unga nisbatan suiqasd uyushtiriladi va 1862-yili taxtga yangi hukmdor Shohmurodxon² chiqariladi. Biroq bu xonning hukmronligi uzoqqa cho'zilmaydi.

1862–1863-yillar oralig'ida taxt uchun kurash yana avj ola boshladi. Shohmurodxon o'rnini egallagan Xudoyorxonning ikkinchi hukmronligidan Shodmonxo'ja mingboshi³ va Mulla Aliquli⁴ norozi edilar. Chunki Xudoyorxon-ning birinchi hukmronligi (1845–1858) davrida yuzaga kelgan tartibsizliklar-ga chek qo'yish maqsadida Mallaxon taxtni aynan shu sarkardalarning ko'ma-gi bilan egallagan edi. Shu sababli, Xudoyorxonning yana taxtga o'tirishi ular uchun nafaqat hokimiyatdan quvilish, balki tez orada ularning qatl qilinishini ham anglatar edi. Bu holat ularni Xudoyorxonga qarshi kurashga undadi. Natijada, si-yosiy mag'lubiyatga uchragan Xudoyorxon Buxoroga qochishga majbur bo'ladi.

Mulla Aliquli hamda bir qator yuqori mavqega ega bo'lgan mansabdorlar Sa'idxonni⁵ xon qilib ko'taradilar. U yosh bo'lgani sababli boshqaruv tizgini Mulla Aliquli ixtiyoriga topshirilib, unga «Amirlashkar» hamda «Amir al-umaro»⁶ unvoni beriladi.

1864-yilga kelib Rossiya saltanati tomonidan Qo'qon xonligining shimoliy hududlari bo'lgan Avliyoota, Turkiston, Chimkent kabi ma'muriy birliklari bi-rin-ketin bosib olina boshladi. Bu bosqinga qarshi Mulla Aliquli boshchiligida xonlik harbiy kuchlari shiddatli janglarda qarshi turishga harakat qildi.

Sulton Sa'idxon ruslarning hujumini qaytarish uchun mang'itlardan yor-dam so'raganda, amir Muzaffar Buxoroga Sulton Sa'idxonning o'zi kelsagi-

¹ *Mallaxon* – 1858–1862-yillarda Qo'qon xonligi doirasida o'zbek davlatini boshqargan minglar yetakchisi.

² *Shohmurodxon* – 1862–1863-yillarda Qo'qon xonligi doirasida o'zbek davlatini boshqargan minglar yetakchisi.

³ *Shodmonxo'ja mingboshi* – Mallaxon, Shohmurodxon, Sulton Sa'idxon hukmronligi davri nufuzli davlat arbobi.

⁴ *Mulla Aliquli* – 1863–1865-yillarda otaliq, amirlashkar yuksak lavozimlarini egallagan davlat arbobi.

⁵ *Sulton Sa'idxon* – 1863–1865-yillarda Qo'qon xonligi doirasida o'zbek davlatini boshqargan minglar yetakchisi.

⁶ So'z ketayotgan vaqt va makonda amir al-umaro amirlar amiri, ya'ni bosh vazirni anglatgan.

na, qo'shin yuborishini va'da qiladi. Bu vaqtda Xudoyorxon uning saroyida yashar edi. Bu holat amir Muzaffarning asl maqsadi Sulton Sa'idxon o'rniga Xudoyorxonni taxtga o'tqazib, Farg'onani o'ziga qaram qilish degan fikmi ilgari surishga turtki beradi.

Amir lashkarning Toshkent mudofaasida ruslar bilan bo'lgan jangda shahid bo'lishi hokimiyatda yangi o'zgarishlarga olib kelgan. Fursatdan foydalanган amir Muzaffar ham o'z maqsadiga erishib, Xudoyorxonni uchinchi bor (1865–1875) Qo'qon taxtiga o'tqazishga muvaffaq bo'ladi. Bu paytga kelib, xonlikning hududi uning dastlabki tashkil topishidagi chegarasi doirasida – Farg'ona vodiysining o'zi bilan chegaralanib qolgan edi.

Xudoyorxon hukmronligining oxirgi o'n yillik davrida xon hokimiyati o'z kuchini yo'qotib bordi. U olib borgan no'noq siyosat tufayli o'zaro ichki kurashlarga keng yo'l ochilib, xonlik boshqaruvi general-gubernatorlik izmiga o'tib bordi. Oqibatda, o'z mavqeyini butkul qo'ldan boy bergan Xudoyorxon 1875-yili Toshkentga general-gubernator huzuriga borgan. Turkiston general-gubernatori esa Xudoyorxonni xonlikni saqlab qolish uchun Peterburgga, Rossiya imperatori huzuriga borishini taklif qiladi. Biroq u Orenburgda bir qancha muddat uy qamog'ida ushlab turiladi. Ushbu davr orasida xonlik taxtiga Xudoyorxonning to'ng'ich o'g'li Nasriddinxon¹ o'tqazilgan. Lekin bundan hech bir naf chiqmagan. Aksincha, siyosiy tartibsizliklarning yanada avj olishi Rossiya saltanatining xonlikni bosib olishini tezlashtirib yuborgan, xolos. 1876-yili Rossiya saltanati tomonidan xonlik taqdiri uzil-kesil hal qilingan: Farg'ona vodiysi bosib olinib, Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga qo'shib yuborilgan.

Davlat boshqaruvi. Minglar sulolasi ham boshqaruvni o'zbek davlatchiligida mavjud bo'lgan an'analar asosida davom ettirdi. Ular ham viloyatlarni o'z sulolalari vakillari orqali idora etish tizimini yo'lga qo'yishga harakat qilishgan.

Bu sulola davrida ham devonlar tizimi deyarli saqlanib qolmadi. Devonlar vazifasi esa dargohdagi mansabdorlar zimmasiga yuklatilgan edi. Xonlikda ham davlat boshqaruvining oliy organi dargoh hisoblangan. Davlat tepasida oliy hukmdor – xon turgan.

Minglar mang'itlar hukmronligi doirasidan ajralib chiqqan ilk paytlarda boshqaruv tizimi deyarli o'xshash edi. Lekin keyinchalik ayrim o'zgarishlar amalga oshirildi. Buni bosh vazirlik lavozimida ko'rish mumkin. 1810-yilga qadar bosh vazir vazifasini xuddi Buxorodagidek qushbegi boshqargan. Umarxon davriga kelib bu lavozim mingboshiga o'zgartirilgan. Buni davlat

¹ Nasriddinxon – 1875–1876-yillarda Qo'qon xonligi doirasida o'zbek davlatini boshqargan minglar yetakchisi.

siyosatida harbiy masala ustuvor darajaga ko'tarilgani bilan izohlash mumkin. Mingboshi lavozimi egasiga lashkarboshilik vakolati ham yuklatilgan edi. Xonlikning uch tomonida xavfning yuzaga kelishi boshqaruvda ushbu yangilikni kiritishga sabab bo'lgan.

Boshqaruv tizimidagi yana bir o'zgarish – bu, Toshkent hokimiga beklarbegi unvonining berilishi edi. Boshqaruvdagi bu islohot Muhammad Alixon davriga to'g'ri keladi. Aniqrog'i, poytaxtdan ancha uzoqda joylashgan va XIX asrning dastlabki o'n yilligida xonlik tarkibiga qo'shib olingan Toshkent va Dashti Qipchoqning¹ xonlikka tegishli hududlarini boshqarish murakkablashgan. Bu esa mazkur hududlarni boshqarish tizimiga ayrim o'zgartirishlar kiritishni talab etdi. Shundan kelib chiqib, 1831-yili Muhammad Alixon tomonidan beklarbegi unvoni joriy qilindi. Bu unvon faqat Toshkent hokimiga berilgan edi. Beklarbegi bir qator imtiyozlarga ega bo'lgan, jumladan, unga xonlikning shimoliy hududlaridagi Turkiston, Chimkent, Avliyoota ustidan siyosiy, iqtisodiy va harbiy nazorat qilish vazifasi topshirilgan.

Markaziy boshqaruvda iqtisodiy masalalar bo'yicha mas'ul amaldor – devonbegi ham muhim o'rin tutgan. Devonbegi xon devoni boshlig'i bo'lib, qo'l ostida bir necha mirzolar faoliyat yuritgan. Mamlakat xazinasiga tushadigan mablag' va uning sarf-xarajati devonbegi nazoratida bo'lib, maxsus kirim-chiqim daftarlarida qayd qilib borilgan.

Markaziy boshqaruv tizimida xonlikka chet mamlakatlardan siyosiy, iqtisodiy, diplomatik maqsadlarda kelgan elchilarni kutib olish, ularni joylashtirish va xonlikdagi faoliyatiga javobgar bo'lgan mansabdor shig'ovul, ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan dasturxonchi, moliya vazirining yordamchisi mehtar, xonning xos va sirdosh mulozimi inoq hamda otaliq kabi mansabdorlar faoliyat yuritishgan.

Shuningdek, markaziy boshqaruv tizimidagi eng oliy diniy mansab shayxulislom, adliya va huquq-tartibot ishlariga mas'ul qozikalon, fiqh olimi bo'lgan xojakalon, harbiy ishlar qozisi qozi askar mansablari, o'roq, sudur kabi diniy lavozimlar mavjud bo'lgan.

Mahalliy boshqaruv tizimi ham markaziy boshqaruv tizimi singari ijro idorasi bo'lib, uning zimmasiga o'lkaning turli yerlarida jamiyat hayotini tartibga solish, oliy hukmdor buyruq va topshiriqlarini amalga oshirish yuklatilgan edi.

Xonlikdagi mahalliy boshqaruv tizimi tepasida turgan viloyat boshliqlari hokim deb yuritilgan. Manbalarda qayd etilishicha, qushbegi, parvonachi, devonbegi, dodxoh kabi mansab va unvon egalari viloyatlarga hokim etib tayinlangan.

¹ Ushbu davrda hozirgi Qozog'iston yerlari ko'zda tutilmoqda.

Ma'muriy-boshqaruv tizimida viloyat hokimining asosiy yordamchilari sarkor (yoki mirzaboshi) hamda botirboshi lavozimlari hisoblangan. Muftiy, a'lam, qozi, rais (muhtasib) kabi mansab egalari zimmasiga aholining ijtimoiy va ma'naviy hayotini tartibga solish masalasidagi vazifalar yuklatilgan.

Xonlik ma'muriy-boshqaruv tizimining eng quyi bo'g'ini oqsoqollikdan iborat bo'lib, uning tarkibiga katta bir qishloq yoki bir necha kichik qishloqlar kirgan. Mazkur ma'muriy birlikni aminlar va oqsoqollar, ayrimlarini sarkorlar nazorat qilgan.

XIX asrning 40-yillariga qadar xonlik ma'muriy jihatdan viloyatlarga, viloyatlar sarkorlikka, sarkorlik oqsoqollik va aminliklarga bo'lingan holda idora etilgan. Tarixiy manbalarda xonlikning ma'muriy-hududiy bo'linishi Marg'ilon, Andijon, Shahrixon, Namangan, Xo'jand, Chust, Isfara, O'ratepa, Qurama, Toshkent va Turkiston viloyatlaridan iborat bo'lgani qayd etiladi. Ushbu viloyatlarga hokimlar tayinlash xon izmida bo'lgan.

XIX asrning 60-yillariga kelib, Rossiya saltanatining xonlikka bostirib kelishi oqibatida uning kattagina qismi qo'ldan ketib, hudud faqat Farg'ona vodiysi bilan chegaralanib qolgan edi. 1870-yili Xudoyorxon ma'muriy-hududiy bo'linishni qaytadan taqsimlashga majbur bo'lgan va bu davrga kelib xonlik Qo'qon, Marg'ilon, Andijon, Namangan, So'x, Mahram, Buloqboshi, Aravon, Baliqchi, Chortoq, Novqat, Koson, Chust va Bobodaxon bekliliklaridan iborat bo'lgan.

Ijtimoiy-iqtisodiy hayot. Farg'ona vodiysi xonlik hududining o'zagi bo'lgan. Ilk pallalarda u Namangan, Marg'ilon va Andijon bilan cheklangan edi. Abdurahimxon Xo'jand viloyatini bo'ysundirishga erishgan. Erdonaxon O'sh va O'zganni xonlik tarkibiga kiritadi. Norbo'taxon hukmronligiga kelib esa xonlik hududi deyarli to'laligicha Farg'ona vodiysidan tashkil topgan edi.

Olimxon tomonidan Toshkent bekligining qo'shib olinishi xonlik hududining yanada kengayishiga olib keldi. Umarxon esa uni Dashti Qipchoq yerlarining bir qismi hisobiga kengaytirgan edi. Muhammad Alixon qisqa muddat bo'lsa-da, Qorategin, Ko'lob, Darvozni Qo'qonga bo'ysundirishga muvaffaq bo'ldi.

Xonlik ahlining asosiy qismini o'zbeklar tashkil qilgan. Shahar va qishloqlarda qadimdan yashab kelgan o'troq aholi urug'-qabila tizimiga ega bo'lmagan. Ulardan tashqari, shayboniylargacha bosqichlarda hamda Muhammad Shayboniyxon davrida ko'chib kelgan ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi aholi bo'lib, vodiyning chorvador aholisi XVII asr oxiri – XVIII asrning boshlarida o'troqlasha boshlagan.

Shuningdek, xonlikda tojiklar va qirg'izlar ham yashaganlar. XVIII asrning ikkinchi yarmidan XIX asrning o'rtalariga qadar Farg'ona vodiysiga, asosan,

Sirdaryo bo'ylariga qoraqalpoqlar kelib o'rasha boshlagan. Shuningdek, lo'li, mazang, og'acha kabi mayda guruhlar hamda hindlar yashashgan.

Dehqonchilik oldindan rivojlanib kelgan Farg'ona g'allachilik, bog'dorchilik, sabzavot va poliz mahsulotlari yetishtirish hamda ipakchilik bilan shug'ullangan. Donli ekinlardan jo'xori yetishtirish keng tarqalgan bo'lib u shahar va qishloqlarda kambag'allarning asosiy iste'mol mahsuloti hamda chorva ozuqasi hisoblangan. Shuningdek, XIX asrga kelib xonlikda paxtachilik sohasiga katta e'tibor berilishi natijasida paxta ekiladigan maydonlar hajmi to'xtovsiz kengayib borgan.

Farg'ona vodiysi g'arbiy qismining tabiiy sharoiti bog'dorchilik va uzumchilikni rivojlantirish uchun juda qulay bo'lgan. Vodiyning janubi-g'arbidagi Xo'jand, Konibodom, Isfara, So'x, Chimyon, Rishton hududlari asosan o'rik yetishtirishga to'la ixtisoslashgan. Bu davrda butun Farg'ona vodiysida tut daraxti keng tarqalib, u tog'oldi va qadimgi dehqonchilik vohalaridan hisoblangan So'x, Isfara, Namangan, Ashtda ipakchilik uchun qadimdan o'stirilib kelingan.

Xonlikda yerga egalikning to'rt turi mavjud bo'lgan: xiroj yerlari – xususiy yerlari; davlat yoki amlok yerlari – xonga qarashli yerlar, o'rmonlar, to'qaylar; xususiy yerlar – xonning maxsus yorlig'i bilan yirik amaldorlarga berilgan yerlar (suyurg'ol); vaqf yerlari – diniy muassasalarga, ya'ni masjid, madrasa, mozorlarga qarashli yerlar.

Bundan tashqari, xonning amlok va «mulki huri xolis» yerlari ham mavjud bo'lgan. Amlok xon ixtiyorida yer bo'lib, u zamini xos deb ham yuritilgan va undan keladigan barcha daromad xonning ixtiyorida bo'lgan. Bunday yerlar xon tomonidan yirik dehqonlarga ijaraga berilgan. Yerni olgan kishi, uni o'z hisobidan sug'orib, olgan hosilidan xonga soliq to'lagan va bu soliq miqdori xirojdan, ya'ni hosilning 5/1 qismidan ortiq bo'lgan.

XIX asrda sug'orish tizimida yangi davr boshlangan, yirik sug'orish inshootlari, katta-kichik ariqlar, to'g'onlar qurila boshlangan. Masalan, Sirdaryoning asosiy irmoqlaridan bo'lgan Norin va Qoradaryodan suv oladigan Shahrixonsoy arig'i, Namangan yangi arig'i, Chinobod arig'i, Andijonsoy va boshqa sug'orish tarmoqlarining qazilishi Farg'ona vodiysida sug'orish tarmoqlari ko'payishi, sug'oriladigan yer maydonlarining sezilarli darajada kengayishi hamda dehqonchilik va bog'dorchilikning rivojlanishiga olib kelgan.

Olimxon hukmronligi yillarida Farg'ona vodiysining janubiy hududlaridagi suv ta'minotini yaxshilash uchun So'x daryosidan oltita ariq qazilgan. 1800–1803-yillarda Namangan viloyatida yangi yerlarni o'zlashtirish uchun

Norin daryosidan suv oluvchi Yangiariq arig'i qazilgan. 1819-yilda Umarxon farmoni bilan Yangiariq arig'i yana uzaytirilib, uning uzunligi 120 chaqirimga yetkazildi. 1868–1871-yillarda qurilgan Ulug'nahr arig'i Farg'ona vodiysidagi eng katta sug'orish arig'i hisoblanadi.

Xonlikning asosini tashkil etgan Farg'ona vodiysida shaharlashuv jarayonlari faol kechgan. Zahiriddin Muhammad Boburning qayd etishicha, XVI asrda Farg'onada 6 ta yirik shahar bo'lib, ular Andijon, Marg'ilon, Axsi, O'sh, Isfara va Xo'jand bo'lgan.

Xonlikda poytaxt Qo'qondan keyingi yirik shahar dastlab Marg'ilon edi. Andijon, O'sh, To'raqo'rg'on, Chust, Xo'jand shaharlarida hunarmandchilikning turli sohalarida qadimgi an'analar to'xtab qolmaganligini kuzatish mumkin.

Qo'qonda hunarmandchilikning misgarlik, zargarlik, yog'och o'ymakorligi, harbiy qurol ishlab chiqarish, sopol va ko'zachilik, qog'ozchilik, to'qimachilik, do'ppichilik, kashtachilik, temirchilik kabi turlari mavjud edi.

Shaharlarda hunarmandchilikning muayyan bir turi bilan shug'ullanuvchi mahallalar bo'lib, ularning nomi ham mazkur hunarlar nomi bilan bog'liq bo'lgan. Bu esa o'sha mahallada yashaydigan aholining kasb-korini ifodalagan.

Xonlikning yirik shaharlarida hunarmandchilikning ixtisoslashgan turlari mavjud bo'lib, u hunarmandchilikning rivojlanish dinamikasiga o'z ta'sirini ko'rsatgan. Masalan, Marg'ilonda ipakchilik tufayli shoyi matolarning turlari va sifati o'sib borgan. Hatto, Qo'qon va Marg'ilonda ishlangan shoyi gazlamalar elchilik munosabatlarida ming hukmdorlarining noyob hadyalari qatoridan o'rin olgan. Shuningdek, Chust va Shahrixon shaharlarida pichoqchilikning taraqqiy etganini kuzatish mumkin. Qo'qon shahrida yog'och o'ymakorligi bilan qog'ozgarlik yuqori darajaga ko'tarilgan. Natijada, Qo'qon qog'oziga bo'lgan ehtiyoj Turonning boshqa hududlarida ortib borgan.

Hunarmandchilik turlari ichida qo'lyozma kitoblarni tayyorlash – sahhoflik sohasi xonlikdagi madaniy hayotning darajasini ham belgilab beradi. Bu davrda sahhoflar tomonidan Qo'qonda tayyorlangan noyob qo'lyozma asarlar bugungi kunda dunyoning yirik kutubxonalari va muzeylarida saqlanmoqda.

Qo'qon xonligi ijtimoiy-iqtisodiy hayotining muhim bo'g'ini hisoblangan ichki va tashqi savdo hukmdorlar tomonidan qo'llab-quvvatlanishi bilan rivojlanib bordi. Yangi bozorlar, savdo majmualari, karvonsaroylar qurildi, mavjudlari ta'mirlandi. Mamlakat bozorlariga shahar va qishloq aholisi dehqonchilik hamda hunarmandchilik mahsulotlari, tog'li hudud aholisi va ko'chmanchi chorvadorlar chorva va chorvachilik mahsulotlarini olib kelingan. Mahalliy savdogarlar xonlikning chekka qishloqlariga borib, o'sha

hududda yetishtiriladigan yoki tayyorlanadigan mahsulotlarni tingurjisiga sotib olgan va yirik shahar bozorlariga keltirib sotishgan. O'z navbatida hunarmandlarning mollarni sotib olib, boshqa bozorlarga yoki shahar-shahar, qishloqma-qishloq sotib yuruvchi savdogarlar ham faoliyat ko'rsatishgan.

Qo'qon shahri xonlikning yirik iqtisodiy markazi sifatida ichki savdoda ham muhim ahamiyat kasb etgan. Mahalliy aholi Qo'qon bozorlariga hunarmandchilik, shahar atroflaridan esa dehqonchilik mahsulotlarini olib kelishgan.

Qo'qondan Toshkentga paxta, xom ipak hamda ipak va yarim ipak, ip matolar, quruq mevalar, Koshg'ar va Xitoy mollari keltirilgan. Toshkentdan Farg'ona vodiysiga esa har yili 10 mingdan ortiq tuyada g'alla, temir, po'lat, cho'yan, mis va ulardan yasalgan buyumlar, shakar, charm, mo'yna va boshqa rus sanoat mollari, qozoq dashtlaridan esa chorva hayvonlari keltirilgan.

Qo'qon xonligi tashqi savdo aloqalarida ham faol harakat olib borgan. XVIII asrning o'rtalari, aniqrog'i Erdonaxon hukmronligidan boshlab Xitoy mollarni Turonning boshqa hududlariga yo'naltirishda vodiyluk savdogarlar asosiy vositachilikni o'z qo'liga olgan. Qolaversa, xonlik Koshg'ardagi xalqaro savdoni to'liq nazorat qilishni qo'lga kiritgan.

XIX asrda xitoylik tarixchilar tomonidan «Qo'qonliklar savdo ishlariga juda layoqatli edilar», deb ta'rif berilishi ham bejiz emas.

Xitoydan Turonga olib kelingan asosiy savdo mollari choy, xom ipak va ipak matolar, chinni, qog'oz, kumush yombi, mushk, rovoch va boshqa mahsulotlardan iborat bo'lgan.

Turon bozorlariga xitoy choyini farg'onalik savdogarlar olib kelishgan. Muhammad Alixon saroyidagi omborxonalarda katta miqdorda xitoy choyi saqlangani ma'lum. Bu esa Muhammad Alixon xalqaro savdoga alohida e'tibor qaratganini, ayniqsa, choy savdosini o'zi nazorat qilganligini anglatadi.

Farg'onalik savdogarlar tomonidan birgina Buxoroning o'ziga yiliga 1000 tuyada ipak jo'natilgan. Uning miqdori 12 ming pudga to'g'ri kelgan. Shuningdek, 1860-yili 1 pud ipakning bahosi 22 oltin tangaga, rus pulida esa 197 rublga teng bo'lgan.

Aslida butun Farg'ona vodiysida qadimdan ipak yetishtirilgan bo'lsa-da, Turon bozorlaridagi ehtiyojni ta'minlab bera olmagan. Shu bois uni to'la qondirish uchun Xitoydan katta o'lchovda ipak keltirilgan.

Turonda qog'oz ishlab chiqarish, asosan Samarqand va Qo'qonda yo'lga qo'yilgan, xolos. Shuning uchun Qo'qon va Samarqand qog'ozi mashhur bo'lgan. Lekin XIX asrda Turon bozorlarida xitoy qog'ozi sotilganligi ham ma'lum.

Buxoro bozorlariga Qo'qon savdogarlari «Ishtarxoniy» navli Qo'qon qog'ozini keltirishgan. Bundan tashqari, Xitoydan «Abrisham» qog'oz turi juda ko'p miqdorda Qo'qon orqali olib kelingan. Buxoroda qog'oz ishlab chiqarilmaganligi bois davlat hujjatlari, chet ellarga maktublar, kitoblar Qo'qon qog'ozida yozilgan.

XIX asrda xonlik o'zbek davlatchiligi hududida faoliyat yuritayotgan mang'itlar va qo'ng'irotlar qo'l ostidagi yerlar, Rossiya saltanati, Qozoq dashtlari, Koshg'ar, Xitoy, Afg'oniston, Eron, Hindiston bilan bevosita va bilvosita savdo aloqalarini amalga oshirishgan. Qo'qondan Hindiston va Afg'onistonga xom ipak, yarim ipak matolar, quritilgan mevalar, echki momig'i jo'natilgan. Xonlikda tayyorlangan ipakning «Chilla» deb nomlangan navi Hindistonda juda mashhur bo'lgan. O'z navbatida Hindistondan dorivor giyohlar, murch-ziravorlar, banoras kimxobi, kashmir ro'mollari, qimmatbaho toshlar, choy va hatto, diniy kitoblar ham olib kelingan.

Xonlik soliqchiligi mahalliy boshqaruv tizimi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Soliqlarning asosiy qismi viloyatlarda to'planib, davlat xazinasiga yuborilar edi. Soliq tizimida faoliyat yuritadigan mansabdorlar sarkor (yoki mirzaboshi), amlokdor, mirzolardan iborat bo'lib, ularga mahalliy boshqaruvdagi ariq oqsoqoli, mirob, amin va oqsoqollar ham yordam berib borishgan.

Sarkorlar har bir viloyatda ish yuritishgan. Sarkor amlokdorlar va soliq yig'uvchi mirzolarning faoliyatini nazorat qilish bilan bir qatorda, soliq yig'ish jarayonida ham faol ishtirok etgan. Ular har bir ma'muriy birlikda faoliyat yuritib, undirilishi lozim bo'lgan mablag'ni xazinaga to'liq tushishini nazorat qilishgan.

Soliq tizimida maxsus umumiy kirim-chiqim daftarlari bo'lib, ularda soliq va tushum turlari, soliq undirilgan ma'muriy birliklar hamda xazinaga berilgan pullar miqdori alohida qayd qilib borilgan.

Soliqlarning uzoq tarixiy davrlar mobaynida shakllangan turlari deyarli o'zgarishsiz saqlanib qolgan edi. Davlat g'aznasiga tushadigan asosiy soliq turlari xiroj, tanobona va zakotdan iborat bo'lgan.

Xiroj donli ekinlar va paxta hosili yig'ishtirib olingandan so'ng tovar shaklida hosilning 1/5 miqdorida davlat foydasiga undirilgan. 1/10 miqdorida undirilgan soliq esa ushr deb atalgan.

Xonlikda tanobona solig'i mevali bog'lardan va poliz ekinlaridan olinar edi. Tanobona ham xiroj singari yer solig'i hisoblansa-da, soliqning ushbu turi pul hisobida undirilgan. 1870-yilga oid ma'lumotlarda ko'rsatilishicha, tanobona hosildorlikka qarab bir tanob yerdan 5 tangadan 10 tangagacha olingan.

Qo'qon xonligida ham davlat xazinasining asosiy daromad keltiruvchi manbaya zakot edi. Garchi fiqhda zakotni undirish va undan qanday foydalanish ko'rsatib berilgan bo'lsa-da, XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib ming hukmdorlari bu borada o'z manfaatlarini ko'zlab siyosat yurgizishgan. Har bir musulmon o'z ixtiyori bilan beradigan zakot avval u majburiy soliqqa, keyinchalik esa hukmdorning foyda keltiradigan daromadiga aylanib qolgan edi.

Bundan tashqari, xon soliq¹, soliq puli², harbuza puli³ kabi soliqlar ham bo'lgan.

Soliq va yig'implardan tashqari davlat xazinasiga tushadigan turli to'lovlar ham mavjud edi. Bu to'lovlar nikohona, tarikona, pandjyak, kema puli, kax puli, bozor yig'imidan iborat edi. Nikohona nikohlanish vaqtida to'lanadigan davlat boji hisoblangan bo'lsa, tarikona merosni taqsimlashdan olingan. Ushbu yig'im va to'lovlar qat'iy qilib belgilangan asosiy davlat soliqlaridan farq qiladigan turli xizmat ko'rsatish evaziga undiriladigan yig'implar bo'lgan.

Ilm-fan va madaniyat. Xonlik ta'lim tizimi an'anaviy ikki bosqich – maktab va madrasadan iborat edi. O'z o'rnida maktab ta'limi masjidlar qoshidagi quyi maktab hamda faqat shaharlarda, katta qishloqlarda ish olib borgan yuqori maktablarga bo'lingan. 2–5 yil davom etgan quyi maktab 10 tadan 30 tagacha o'quvchini qamrab olgan.

Qiz bolalar maktabi alohida bo'lib, otinoyilar tomonidan dars berilgan. Masalan, mashhur shoira Dilshodi Barno⁴ Qo'qonda maktab ochgan. U o'zining faoliyati haqida shunday yozgan edi: «Mening suhbatdoshlarim va dugonalarim aqlli qizlar va iste'dodli shoiralardir. Ellik bir yil davomida men maktabdorlik qildim va yiliga 20 tadan 30 tagacha o'quvchim bo'lib, sakkiz yuz to'qsonta qizning savodini chiqardim, bulardan deyarli chorak qismi she'riyatga qobiliyatli bo'lib, shoira va o'z davrining aqlli va dono odamlari edi».

XIX asr o'rtalarida xonlikda 350 dan ortiq madrasa faoliyat ko'rsatgan. Jumladan, Qo'qonda 52 ta, Marg'ilonda 49 ta, Andijonda 26 ta, Toshkentda 17 ta, Xo'jandda 49 ta, O'sh shahrida 9 ta madrasa bo'lgan. Qo'qondagi Norbo'tabiy, Jome, Chalpak, Oliy, Modarixon, Kamol qozi, Dasturxonchi, Miyon Hazrat madrasalari, Toshkentdagi Ko'kaldosh, Baroqxon, Mo'yimuborak, Beklarbegi, Eshonquli dodxoh, Yunusxon, Mahmud dasturxonchi, Normuhammad qushbegi va Abulqosim eshon madrasalari, Xo'janddagi Muslihiddin

¹ Xon soliq – qo'shin ta'minoti uchun undiriladigan to'lov.

² Soliq puli – faqat harbiy harakatlar vaqtida undiriladigan to'lov.

³ Harbuza puli – poliz ekinlaridan undiriladigan to'lov.

⁴ Dilshodi Barno (1800–1896) – shoira va tarixchi.

din madrasasi, Marg'ilondagi Sayidahmadxo'ja madrasalari xonlikdagi eng mashhur madrasalardan hisoblangan. Toshkentdagi Ko'kaldosh va Baroqxon madrasasidan qolgan barchasi xonlik davrida qurilgan edi.

Madrasada talabalarga Qur'on qiroati ilmi (tajvid), aqida, fiqh, hadis, arab tili grammatikasi, falsafa, mantiq, notiqlik, meros, faroiz, shuningdek matematika, tabobat, adabiyot kabi fanlar o'qitilgan. Biroq tabiiy va aniq fanlar saviyasi dunyoning ilg'or mamlakat hamda mintaqalari darajasidan ancha orqada edi.

Maktab va madrasalar vaqf mulklari tomonidan moliyalashtirilgan.

Tarixchilik sezilarli ravishda o'sib borganini ko'ramiz. Farg'onaning bu boradagi maktabining o'ziga xosliklari ham bo'lib, ularning ayrimlari nazmiy usulda yozilgan. Bu esa tarixchilarning adabiyotni yaxshi bilganlaridan dalolat berishi bilan bir qatorda o'zlari ham she'riyatda qalam tebratganliklarini ko'rsatadi. Ayrim tarixchilar o'z davrining mashhur shoirlaridan bo'lishgan.

Minglar hukmronligi davri tarixini tadqiq etgan tarixchi, manbashunos olimlar tomonidan 40 ga yaqin nazm va nasrda tarixiy asarlar yaratilgani ma'lum. Xususan, Abdulkarim Fazliy Namangoniyning «Umarnoma», Mirzo Qalandar Mushrif Isfaragiyning «Shohnomayi Umarxon», Muhammad Hakimxonto'raning «Muntaxab at-tavorix», Mullo Avazmuhammad Mullo Ro'zi Muhammad o'g'lining «Tarixi jahonnamoyi» va «Tuhfat at-tavorixi xoni», Mullo Niyoz Muhammad Xo'qandiyning «Tarixi Shohruxiy», Mirza Olim Toshkandiyning «Ansob as-salotin va tavorix al-havoqin», Imom Ali Qori Qunduziyning «Tavorixi manzuma», Muhammad Solixo'ja ibn Qoraxo'janing «Tarixi jadidai Toshkand», Mahzun (Ziyoviddin Xo'qandiy) ning «Shohnoma», Mulla Aziz bin Muhammad Rizo o'g'lining «Tarixi Aziziy» asari, Mahmud Hakim Yayfoniyning «Xullas at-tavorix», Muhammad Yunusjon shig'ovulning «Tarixi Aliquli amirlashkar», Shavqiy Naman-goniyning «Jangnomai Xudoyorxon», Muhammad Fozilbekning «Mukam-mali tarixi Farg'ona», Umidiyning «Maktubchayi xon», «Badavlatnoma» kabi asarlar va tarixiy dostonlar shular jumlasidandir. Bu esa Farg'ona vodiysida tarixchilik ancha rivojlanganidan dalolat beradi.

Umarxon Qo'qon adabiy muhitining shakllanib, rivojlanishiga katta hissa qo'shgani, qolaversa, o'zi ham Amiriy taxallusi bilan she'rlar bitgani yaxshi ma'lum. Uning adabiyotga bo'lgan e'tibori, homiyligi tufayli xonlikning turli hududlaridan tashqari, Buxoro, Sharqiy Turkiston, Afg'oniston tomonlardan ham iste'dodli olim va shoirlar kelib ijod qilishgan. Shu ma'noda, Akmal Sher, Amiriy, Fazliy, Mushrif Isfaragiy, Gulxaniy, Yoriy Xo'qandiy, Zavqiy,

Zoriy, Maxmur, Muhtazib, Muhayir, Muhammad Yunus Toib, Muhyi, Muh-siniy, Nasimiy, Nizomiy, Nodir, Nozil, Pisandiy, Rojiiy, Sadoiy, Umidiy va boshqalarni ko'rsatish kerak.

Qo'qonda ko'plab iste'dodli shoirlar ham ijod qilganlarini urg'ulash lozim. Ular sirasida Anbar otin, Bahri otin, Dilshod, Zebuniso, Zinnat, Uvay-siy, Nodira, Saidabonu, To'ti qiz, Fazilatbonu, Fidoiya, Hafiza otin, Xayriniso kabilarni qayd etish mumkin.

Tashqi siyosat. Abdukarimxon 1745-yili Jung'or xonligi tomonidan yuborilgan elchilarni qabul qiladi. Shu yilning o'zida jung'orlarning Turkiston va Toshkent hududiga bostirib kelishi Qo'qonga ham xavfni yuzaga keltirgan edi. Ularga qarshi Abdukarimxon o'z ukasi Bobobek boshchiligida qo'shin yuboradi. Lekin Bobobekning harbiy uquvi yo'qligidan qo'shin mag'lubiyat-ga uchraydi. Oqibatda Bobobek asirga olinib, Toshkentga olib ketiladi.

Norbo'taxon hukmronligida Qo'qon xonligi iqtisodiy rivojlanishining yana bir boshqa omili bor. Bu Chin saltanati bilan Sharqiy Turkiston xo'jalari masalasidir. Norbo'taxonning faol tashqi siyosati tufayli Chin hukumatiga yuborilgan diplomatik missiyalar ijobiy natijalarga erishgan. U Sharqiy Tur-kistonda Qo'qon savdosi va qo'qonlik savdogarlarning faoliyatini erkinlash-tirish uchun 1782–1783-yilda Abdulqosim, 1792–1793-yillari Mirza Muham-mad Rahim, 1796–1797-yilda esa Bobojon boshchiligida elchilar guruhini Pekingga jo'natgan. Bu elchiliklar Sharqiy Turkistondagi qo'qonlik savdo-garlarni nazorat qiladigan va Qo'qonning rasmiy vakili – xudoydo mansabi-ni joriy etish masalasini hal etgan. Bu mansab egasi nafaqat Qo'qon savdo-garlari faoliyati va ularning haq-huquqlarini, balki Sharqiy Turkistonda muo-malada bo'lgan qo'qon tanga-pullarini ham nazorat qilgan. Bundan tashqari, Koshg'ar xo'jalarini nazorat qilish evaziga Chin saltanati tomonidan Qo'qon-ga yillik mablag' to'lab borilgan.

Minglarning xalqaro maydondagi dastlabki elchilik munosabatlari Xitoy hukumati o'rtasida bo'lgan. 1757–1759-yillarda Sharqiy Turkistonda uning hukmronligi o'rnatilishi 1760-yildan Qo'qon–Xitoy munosabatlarining faol-lashishiga olib kelgan. Minglar orasida Erdonaxon faol tashqi siyosat yurita boshlaganini alohida ta'kidlash lozim. U xonlikning sharqiy hududida joy-lashgan Sharqiy Turkistonni Chin saltanati bosib olishi Qo'qonga ham xavf tug'dirishi va uning oldini olish choralarini ko'ra olgan. Bu o'rinda uning afg'on hukmdori Ahmadshoh Durroniyga¹ maktub yuborib, harbiy ittifoqchi-

¹ Ahmadshoh Durroniy – 1747–1772-yillarda Afg'onistonni boshqargan durroniy yetakchi va mazkur sulola asoschisi.

likka da'vat etgani, mintaqada yuzaga kelgan geosiyosiy holatni to'g'ri baholay olganini diqqatdan qochirib bo'lmaydi, albatta. Shuningdek, Chin saltanati kabi kuchli davlatga nisbatan qarshi turish uchun, albatta, jasorat kerak edi. Bu jasorat nafaqat Erdonaxon, xonlikning keyingi hukmdorlari Olimxon, Umarxon va Muhammad Alixonlarda ham bo'lgan edi.

Shu bilan birga, xonlikning Chin saltanati bilan savdo munosabatlari ham faollashgan. Sharqiy Turkiston hududida Qo'qon savdogarlariga imtiyozlar berilishiga erishilgan. Koshg'arda Qo'qon xudoydodligi (konsulligi) ochilgan.

Muhammad Alixon hukmronligi davrida, aniqrog'i, 1832-yili tuzilgan Qo'qon–Pekin shartnomasi xonlik uchun Koshg'ardagi xalqaro savdoni to'liq nazorat qilish imkoniyatini bergan. Mazkur hujjat Chin hukumati o'zining zaifligini tan olib, tinchlik evaziga Qo'qonning talablariga, shu jihatdan, muhim iqtisodiy imtiyozlarni berishga rozi bo'lganini ko'rsatadi. Shu ma'noda minglarning Changlingga¹ qo'ygan talablari e'tiborga molikdir:

1. Xitoyga qarshi harakatlari uchun ayblangan koshg'arliklarni afv etish va qabul qilish.

2. Xitoy musulmonlardan musodara qilgan yerlar, uylar va boshqa narsalarni qaytarib berish.

3. Elchilarning hamrohlari, savdogarlarni Koshg'arga kirganda to'lanadigan boj yig'imini Qo'qon hukumati olishi huquqiga ega bo'lishi.

4. Qo'qonliklar Koshg'arga olib kirgan tovarlari uchun bojxona to'lovi to'lamasligi.

5. Xorijliklar tomonidan Oltishaharga² olib kirilgan savdo mollari uchun yig'imlarning barchasi Qo'qonga tegishli bo'lishi.

6. Ushbu yig'imlarni undirish uchun Qo'qon hukmdorining vakili bo'lishi.

7. Oltishaharga kelgan barcha xorijliklar ma'muriy va politsiya masalasida Qo'qon hukmdorining vakiliga bo'ysunishi.

Xonlikning Rossiya saltanati bilan elchilik munosabatlari esa 1810-yildan boshlangan. Umarxon hamda Muhammad Alixon hukmronligi yillarida rus davlati bilan savdo aloqalari yanada faollashgan. Ammo o'zaro aloqalar pirovardida ruslar tomonidan minglar sulolasi XVIII asr boshlarida asos solgan xonlikni yo'q qilib, Farg'ona vodiysini bosib olinishi bilan tugagan.

1819–1820-yillardan boshlab minglar usmoniylar bilan elchilik munosabatlarini o'rnatishga kirishganlar. Xususan, Umarxon tomonidan Xoja Mir

¹ Changling – 1736–1795-yillarda Xitoy hukmdori.

² Oltishahar (Qashqariya) – Tangritog'ning janubi qismining tarixiy atalishi (Qashqar, Yorkent, Xo'ton, Uchturfon, G'ulja, Urumchi).

Qurbon¹ elchi sifatida Istanbulga yuborilgani ma'lum. Muhammad Alixon ham 1833–1837-yillarda usmoniylar poytaxtiga ikki marta elchilik yuborgan. Qizig'i, ular olib borgan maktublarda siyosiy vaziyat haqida umuman so'z yuritilmaydi. Maktublarda barcha masala muxtor elchi tomonidan og'zaki aytilishi qayd etilgan, xolos. Bu bilan maktublar dushmanlar qo'liga tushishi-ning oldi olinganining ehtimoli baland ko'rinadi.

Shu bilan birga, Muhammad Zohidxo'ja² boshchiligidagi elchilik maqsad-muddaosi usmoniylar hukumatining tegishli idoralari tomonidan qayd etilgan. Xususan, Muhammad Alixonning asosiy istagi ikki piyoda askar, ikki suvoriy, ikki to'pchi mutaxassislar va harbiy usullarga doir kitoblardan namunalari yuborish bilan birga, usmoniy sulton nomidan qozoq va qirg'iz biylarini birdamlikka da'vat qilingan «xonlar xoni» unvoni berilishi so'ralgan.

Umuman olganda, minglar tomonidan usmoniylar poytaxtiga yuborilgan elchiliklar orqali harbiy qo'shinni zamonga mos holda jangovar tayyorgarligini oshirish masalasida yordam so'ralgan.

Rossiya saltanatining xonlikning shimoliy hududlariga harbiy harakat uyushtirishi usmoniylar bilan munosabatlarini yanada faollashtirdi. Qo'qon–Istanbul munosabatlariga doir arxiv hujjatlari hamda manbalardagi ma'lumotlardan ma'lum bo'lishicha, u yerga xonlikdan 18 marta elchilik yuborilgan. Ular faoliyati uchta omil bilan bog'liq bo'lib, birinchidan, xonlikning Turondagi mavqeyini ko'tarishga bo'lgan intilishi turgan. Ikkinchisi, Rossiya saltanatining chegara hududlarda harbiy inshootlar qurishi xavf sifatida ko'rilgan va bunga qarshi tayyorgarlik ko'rishga intilgan. Uchinchisi esa usmoniylar davlati orqali o'tgan va xavfsiz sanalgan haj yo'lidani foydalanish masalasi bo'lgan.

Xonlikning Hindiston bilan aloqalari XIX asrning birinchi yarmidan boshlanib, dastlabki elchilik 1837-yilda yuborilgan. Qo'qon–Hindiston munosabatlari Rossiya saltanatining bosqini arafasida jadallashganini ilg'amaslik mumkin emas. Bu davrda xonlik o'z harbiy salohiyatini ko'tarish maqsadida Hindiston orqali Britaniya hukumati bilan ham aloqalarni o'rnatgan. Qo'qonda ingliz harbiy usuli asosida hindlar askarlarga harbiy mashg'ulotlarni olib borishi elchilik munosabatlari asosiy maqsadlarining natijasi sifatida belgilanadi.

¹ *Xoja Mir Qurbon* – minglar davrining nufuzli davlat arbobi, u Muhammad Alixon davrida ham Istanbul va Sanktpeterburgga elchi qilib yuborilgan.

² *Muhammad Zohid xoja* – jo'ybor shayxlari sulolasining vakili, xoja kalon; Muhammad Alixonning usmoniy sultonga yozgan maktubida uning tasavvuf shayxlaridanligi qayd etilgan.

Xonlik Turonning Rossiya saltanati harbiy tajovuzi va bosqiniga uchragan dastlabki bo'lagi hisoblanadi. Ming hukmdorlari tomonidan Istanbul, Kashmirga yuborilgan maktublardan ma'lum bo'lishicha, 1820-yillardayoq Rossiya saltanati tomonidan tahdid yuzaga kelishi mumkinligini sezgan xonlik harbiy salohiyatni kuchaytirishga intilgan. Ruslarning Farg'ona vodiysini batamom bosib olishga qaratilgan rejasi ham bejiz emas. Chunki ular Qo'qon hukmdorlarining usmoniylar va Buyuk Britaniya bilan aynan harbiy-siyosiy masalalar bo'yicha hamkorlikka intilganlaridan yaxshi xabardor bo'lishgan. Shuning uchun ham, 1850-yillardan boshlab Qo'qon hukumati usmoniylar va London bilan elchilik aloqalarini sir tutishga harakat qilgan. Chunonchi, Buyuk Britaniya hukumati bilan bordi-keldilar Hindiston va Darvoz bekligida yashirin tarzda olib borilganiga oid dalillar mavjud. Rus hukumatining mang'itlar va qo'ng'irotlarga munosabatsdan farqli o'laroq minglarni siyosiy kuch sifatida butunlay yo'q qilib, Farg'ona vodiysini to'liq mustamlakaga aylantirganining sabablaridan biri ham ushbu omil bilan bog'liq bo'lgan.

XIX. QO'NG'IROTLAR BOSHQARUVI DAVRI

1505-yili o'n oy ichida kechgan qamaldan so'ng Urganch (Gurganj)ni egalagan Muhammad Shayboniyxon Xorazmda ham temuriylar sulolasi boshqaruviga chek qo'ygan. Oradan besh yil o'tib viloyatdagi hokimiyat shayboniylar yetakchisining o'limidan so'ng tug'ilgan vaziyatdan foydalangan safaviylar qo'lga o'tadi. Biroq ularning hukmronligi uzoqqa cho'zilgan emas. Bosqinchilarning shialigini ro'kach qilib, ularga qarshi qo'zg'olonga boshchilik qilgan Sayyid Hisomiddin qattol¹ urinishlari bilan safaviylar quvib chiqarilib, hokimiyatga Elbarsxon² keltiriladi. Shu tariqa, Xorazmda arabshohiylar³ sulolasining hukmronligi boshlangan. Ular aslida Shaybon urug'idan bo'lganlari ko'zda tutilsa, vohada shayboniylar hukmronligi tiklangani ayon bo'ladi.

Vazir shahrida siyosiy faoliyatini boshlagan Elbarsxon tez orada Xiva, Hazorasp, Urganch (Gurganj)dan ham eronliklarni haydab chiqaradi va bu bilan cheklanmay, g'arbda Kaspiy dengizi, shimolda Orol dengizi, janubda esa Atrok daryosi va Saraxs atroflarigacha bo'lgan yerlarni bo'ysundirishga erishgan.

Elbarsxon vafotidan keyingi davr arabshohiylar o'rtasida hokimiyat uchun kurash kuchayib ketgani bilan o'ziga xosdir. Yurt sharqiy bo'laklarida kechayotgan jarayonni diqqat bilan kuzatib turgan Ubaydullaxon foydalanmasligi mumkin emasdi. Arabshohiylar Buxorodan qo'shin tortib kelgan shayboniylarga bas kelolmaganlar. O'g'li Abdulaziz sultonni⁴ noib qilib qoldirgan Ubaydullaxon shu tariqa Xorazmni yana markaziy hokimiyat izmiga qaytarishga muvaffaq bo'lgan ersa-da, Dinmuhammad sulton⁵ harakatlari bilan 1538-yili Abdulaziz sulton o'z yurtiga qochishga majbur bo'ladi. Ubaydullaxonning keyingi urinishlari esa samarasiz bo'lgan.

¹ *Sayyid Hisomiddin qattol* – Boqirg'ondagi mashhur diniy arbob Sayyid ota avlodidan bo'lgan shayx.

² *Elbarsxon* – 1511–1518-yillarda arabshohiylar yetakchisi.

³ *Arabshohiylar* – 1511–1700-yillarda Xorazmda hukmronlik qilgan sulola; sulola nomi Elbarsxonning Arabshoh avlodidan ekani bilan bog'liq bo'lib, u esa o'z o'rnida, Jo'chining beshinchi o'g'li bo'lgan Shaybonga borib taqalgan.

⁴ *Abdulaziz sulton* – shayboniy Abdulazizxon.

⁵ *Dinmuhammad sulton* – Elbarsxonning amakivachchasi, Durun, Niso, Obivard hududlari hokimi.

Arabshohiyning birligi uzoqqa cho'zilmagan va Aqatoyxon¹ davrida qarindoshlar orasida yana kurash avj olib, uning o'zi ham ana shu shafqatsiz kurash qurboni bo'lgan edi. Xivada taxtga o'tirgan birinchi hukmdor Do'stixon² ham vaziyatni o'nglay olmagan. Faqat Hoji Muhammadxon³ hukmronlik yillaridagina siyosiy barqarorlik o'rnatilib, nisbatan tinch, osoyishta hayot ta'minlangan. Aynan shu davrdan boshlab, Xiva shahrining poytaxt sifatidagi ahamiyati o'sib borgan. U qo'shnilar bilan aloqalarini imkoniyat darajasida mustahkamlashga muvaffaq bo'lgan. Biroq Turonni bir markaz atrofida birlashtirishga bel bog'lagan qudratli Abdullaxon II ga bas kelolmasdi. 1575-yili ilk marta Urganch (Gurganj) shahrini qo'lga kiritgan shayboniy hukmdor 1593-yilga borib butun Xorazmni o'ziga bo'ysundirishga muvaffaq bo'lgan. Hoji Muhammadxon Eronga qochib, safaviylari huzuridan joy topgan va Abdullaxon II vafotidan keyingina (1598) Xorazmda o'z hokimiyatini tiklay olgan.

Arab Muhammadxonga⁴ o'z o'g'illari qarshi chiqqanlari bilan bog'liq holat bu davrda hokimiyat uchun kurash avjidan dalolat beradi, albatta. Unda yutib chiqqan Isfandiyorxon⁵ ukasi Abulg'ozixon⁶ sultonni Eronga badarg'a qildiradi. U ham bo'sh kelmagan, oradan o'n bir yil o'tib, akasining vafotidan keyin tug'ilgan vaziyatda poytaxtdan chetda – Orol⁷da xon etib e'lon qilingan. So'ng Xivaga yurish qilib, 1645-yili xonlik taxtini egallagan.

Abulg'ozixon⁶ davrida erishilgan siyosiy birlik va nisbiy osoyishtalik Erengxon⁷dan keyin barham topgan edi. Oqibatda, hokimiyat uchun o'zaro kurashlar hamda Orolbo'yi hokimlari va Buxoro shayboniylari aralashuvi bilan tayinlangan «qo'g'irchoq xonlar»ning tez-tez almashinuvi avj olib ketgan edi. Yuzaga kelgan vaziyat tufayli siyosiy maydonda va davlat boshqaruvida katta ta'sirga ega bo'lib borgan otaliq, inoq, biy singari yuqori lavozim egalari, harbiy sarkardalar Xorazmda hokimiyatni qo'lga kiritish hamda o'z mavqelarini kuchaytirishga intila boshlaganlar.

Uzoq davom etgan siyosiy inqiroz odatdagidek qandaydir keskin o'zgarishlarga olib kelishi turgan gap edi. Oldiniga, 1700-yilga kelib arabshohiylar sulolasi vakillarining hukmronligi barham topgan. Nodirshohning

¹ Aqatoyxon – 1547–1556-yillarda arabshohiylar yetakchisi.

² Do'stixon – 1557–1558-yillarda arabshohiylar yetakchisi.

³ Hoji Muhammadxon – 1558–1602-yillarda arabshohiylar yetakchisi.

⁴ Arab Muhammadxon – 1602–1621-yillarda arabshohiylar yetakchisi.

⁵ Isfandiyorxon – 1623–1642-yillarda arabshohiylar yetakchisi.

⁶ Abulg'ozixon – 1645–1663-yillarda arabshohiylar yetakchisi.

⁷ Erengxon – 1690–1694-yillarda arabshohiylar yetakchisi.

1739–1740-yili umuman Turonga, xususan, Xorazmga uyushtirgan boshqinchilik yurishi vaziyatni yanada og'irlashtirgan, xolos. Ushbu vaziyatda ko'pdan beri hokimiyat talashib kelayotgan siyosiy kuchlardan biri sanalmish qo'ng'irot urug'i yetakchisi hamda 1762-yildan buyon amalda hokimiyatni boshqarib kelayotgan Muhammad Amin inoq¹ raqiblarini yengib, 1770-yili uzil-kesil hokimiyatni o'z qo'liga oladi. Shu tariqa, o'zbek davlatining tarixiy sharqiy bo'lagi – Xorazmda qo'ng'irotlar sulolasining rasmiy boshqaruvi boshlanadi.

Muhammad Amin inoq uzoq davom etgan siyosiy inqirozdan so'ng o'lkaning iqtisodiy jihatdan tiklash, siyosiy jihatdan birlashtirishga ko'p uringani va bu yo'lda muayyan yutuqlarni qo'lga kiritgani ham ma'lum. Shu bilan birga, o'tmish ayrim sulolalar misolida ko'rilganidek, o'zini oliy hukmdor – xon deb e'lon qilishga botinmay, soxta xonlarni taxtga o'tqazar edi.

Qo'ng'irotlardan Eltuzarxon² zamonidagina mazkur sulola vakili ochiq-oydin xonlik maqomiga ega bo'lgan. U ham siyosiy va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash uchun qilgan ishlari bilan ajralib turgan. Biroq 1806-yili Buxoroga uyushtirgan hujumida mag'lubiyatga uchrab, chekinayotgan vaqtda Amudaryoga cho'kib ketish oqibatida umri fojiali tugagan.

Muhammad Rahimxon I³ davrida vohani birlashtirish ishida ijobiy natijalarga erishilgan, markazlashtirish siyosati sezilarli darajada kuchaydi. Natijada, urug'lar boshliqlarining qarshiligiga batamom chek qo'yilib, chegaralar nisbatan kengaytirilgan edi. Markaziy hokimiyatning mustahkamlanishi va nisbatan bo'lsa-da siyosiy barqarorlikning o'rnatilishi, ijtimoiy-iqtisodiy hayotni tartibga solish bo'yicha, jumladan, yagona soliq tizimini yo'lga qo'yish, sug'orish ishlarida aholi ishtirokini ta'minlash tartibining joriy etilishi singari bir qator tadbirlarni amalga oshirish imkonini bergan edi. Shu bilan birga, mavjud sug'orish inshootlarini tiklash va yangilarini barpo etishga katta e'tibor berilgan.

Sulola hokimiyatini mustahkamlash siyosatini davom ettirgan Oллоhqulixonning⁴ sug'orish tizimini takomillashtirish, yangi yerlarni o'zlashtirish yo'lida bajargan ishlari iqtisodiy hayotni jonlantirishga turtki bo'lgan. Xuddi

¹ Muhammad Amin inoq – 1770–1790-yillarda Xiva xonligi doirasida o'zbek davlatini boshqargan qo'ng'irotlar yetakchisi.

² Eltuzarxon – 1804–1806-yillarda Xiva xonligi doirasida o'zbek davlatini boshqargan qo'ng'irotlar yetakchisi.

³ Muhammad Rahimxon I – 1806–1825-yillarda Xiva xonligi doirasida o'zbek davlatini boshqargan qo'ng'irotlar yetakchisi.

⁴ Oллоhqulixon – 1825–1842-yillarda Xiva xonligi doirasida o'zbek davlatini boshqargan qo'ng'irotlar yetakchisi.

shu yo'sinda boshqaruvni amalga oshirishga intilgan Rahimqulixon¹ Buxoro mang'itlari bilan qarama-qarshilikka borgan sabab harbiy kurashga katta kuch sarflashiga to'g'ri kelgan. Chunonchi, 1844-yili amir Nasrullo katta qo'shin bilan Xorazmga yurish qilib, Hazorasp qo'rg'onini ancha vaqt qamalda tutgan. Qamal muddati yigirma kunga cho'zilib, qahatchilik hamda Rahimqulixon tomonidan Hazoraspga ko'mak uchun yuborilgan katta qo'shin xabari sabab mang'itlar yetakchisi ortga qaytishga majbur bo'lgan.

Qo'ng'irotlar, umuman, Xorazmning XIX asr ikkinchi yarmidagi siyosiy turmushi Rossiya imperiyasi Turonga qarshi bosqinchilik yurishlarini tezlashtirishi va amalga oshirishi bilan bog'liqlikda kechgan. Mintaqa tarixida yuz bergan mazkur keskin o'zgarishlar qo'ng'irotlar taqdirini ham uzil-kesil hal qilgan.

Davlat boshqaruvi. Arabshohiylar boshqaruv tizimi xuddi shayboniylarda bo'lgani kabi ko'chmanchi dasht tartib-qoidalari bilan mahalliy o'troq davlatchilik an'alarining qorishuvidan iborat bo'lgan. Oliy hukmdorlik chingiziy sultonlardan yoshi eng ulug'iga o'tar edi. Ya'ni taxt otadan o'g'ilga meros bo'lib o'tgan emas. Xonning ukalari bo'lmagan taqdirdagina katta o'g'li hokimiyatga kelolgan. Elbarsxondan so'ng akasining o'g'li Sulton hojixon², So'fiyonxondan³ so'ng ukasi Bo'chg'axonning⁴ taxtga o'tirishi bunga misoldir.

Ma'muriy, qonunchilik va sud hokimiyati to'laligicha mutlaq oliy hukmdor – xon qo'lida edi. Qo'ng'irotlar xonlarining dastlabki vakillari davrida davlat boshqaruvi tizimida Oliy Kengash faoliyat yuritgan bo'lib, unda ayrim umumdavlat darajasidagi, jumladan, hukmdorni taxtga o'tqazish masalalari muhokama etilgan.

Qo'ng'irotlar sulolasi davrida davlat boshqaruvi an'anaviy jihatlarini saqlab qolgan bo'lsa-da, taxt vorisining yosh jihati o'zining muhimligini yo'qotib, yuqori martabali amaldorlarning ta'siri kuchayib borganligini kuzatish mumkin. Xususan, Muhammad Rahimxon II⁵ nomzodini tasdiqlashda amaldorlarning ancha erkin bahs yuritganlarini ko'ramiz. Kengashda Amir to'raga qarshi fikrlarning yasovulboshi tomonidan o'rtaga tashlanishi bunga misol bo'la oladi.

Shu bilan birga, oliy hukmdor hayotlik vaqtida valiahd, ya'ni taxt vorisini tayinlab qo'yish hamda xorazmshohlarning davlatchilik an'alarida mavjud

¹ *Rahimqulixon* – 1842–1846-yillarda Xiva xonligi doirasida o'zbek davlatini boshqargan qo'ng'irotlar yetakchisi.

² *Sulton hojixon* – 1518–1519-yillarda arabshohiylar yetakchisi.

³ *So'fiyonxon* – 1530–1535/1536-yillarda arabshohiylar yetakchisi.

⁴ *Bo'chg'axon* – 1524–1529/1530-yillarda arabshohiylar yetakchisi.

⁵ *Muhammad Rahimxon II* – 1864–1910-yillarda Xiva xonligi doirasida o'zbek davlatini boshqargan qo'ng'irotlar yetakchisi.

bo'lgan ko'pgina mansab va lavozimlar, ularning vakolatlari ma'lum darajada o'z ahamiyatini saqlab qolgan.

Taxt vorisi qolxon yoki kolxon¹, deb, xonadonning boshqa a'zolari – shahzodalar sulton, deb atalganlar.

Xon xonadonining boshqaruv ishiga layoqatli vakillariga turli viloyat va shahar yoki ma'lum bir ma'muriy-hududiy birlik mulk qilib berilgan. Shu asosda XVI asr boshida mamlakatni mayda uluslarga bo'lib boshqarish joriy etilgan. Urganch (Gurganj), Kot, Vazir, Yangi Shahar, Tirsak, Xiva, Hazorasp va unga tutash hududlar hukmron sulola vakillarining mulki hisoblangan. Xonning qarindoshlari katta-kichikligi va unga uzoq yoki yaqinligiga qarab ayrim shahar hamda viloyatlarni boshqarish huquqini olganlar. Qarindoshlar kam bo'lsa, ularning har biriga bir nechta shahar tekkan, agar qarindoshlar ko'payib ketsa, daromadiga qarab shaharning yarmini olishga ham majbur bo'lishgan. Jumladan, Xiva shahri XVI asr ikkinchi yarmi boshlarida Po'lod sulton va Temur sultonning mulki sanalgan. Xonga yaqin qarindoshlar iqtisodiy va siyosiy jihatlardan muhimroq hududlarni qo'lga kiritishgan. Albatta, xonlarning almashinib turishi bilan turli hududlarga egalik qilish huquqi ham o'zgarib turgan.

Dashti Qipchoqdan kirib kelgan urug'larning XVI–XVII asrlar Xorazmda o'troqlashish jarayoni o'z navbatida, alohida urug'larning o'zaro aloqalarini yo'lga qo'yish hamda ularning umumdavlat boshqaruvida ishtirokini ta'minlashga xizmat qiladigan ma'lum bir tizim va tartibni ishlab chiqishni talab etar edi. Bunday tadbirlar Abulg'ozixonning hukmronligi davrida o'tkazilgan bo'lib, u xonlikning boshqaruv tizimini qayta tashkil etishga harakat qilgan edi. Xususan, butun janubiy Xorazm aholisi to'rtta asosiy bo'linmaga (to'pa) – uyg'ur-nayman, qiyot-qo'ng'iroq, nukus-mang'it va qang'li-qipchoqqa bo'lingan. Boshqaruv tuzilmasiga ham jiddiy o'zgarishlar kiritilib, turli urug'lar vakillaridan 360 kishi turli lavozimlarga tayinlanib, ulardan 34 kishi xonning bevosita maslahatchilari va mulozimlarini tashkil etgan. Ularning 32 tasiga oliy hukmdor huzurida o'tirish uchun maxsus joy ajratilgan edi. Jumladan, 2 shayxulislom, 2 qozi, 1 rais, 1 mutavalli, 1 naqib, 4 otaliq, 4 inoq, 4 mirob, 4 biy, 1 parvonachi, 2 oqa (og'a), 2 arbob, 4 chig'atoy inoqi. Ulardan tashqari, mehtar va qushbegining «o'tirishga joyi yo'q» bo'lib, ular xon huzurida tik turishlari lozim edi.

Muhammad Rahimxon I lavozimlar sonini 360 tadan 100 taga qisqartirgan, xususan, biy, otaliq, inoq singari mansablar bekor qilingan. Umuman olganda ko'rsatilgan lavozimlarning deyarli barchasi, ayrim o'zgarishlar bilan 1873-yili xonlik ustidan Rossiya imperiyasi hukmronligi o'atilgunga qadar saqlanib qolgan.

Muhammad Rahimxon I ning o'tkazgan ma'muriy islohoti natijasida xonlikning markaziy va janubiy qismlaridagi quyi ma'muriy bo'linishning ilgari

¹ Qolg'a (o'zbekcha) – valiahd (arabcha).

kent shakli o'miga masjid birliklari (masjid qavmi yoki masjid jamoasi) joriy etilganini ham urg'ulash joiz. Shu davrdan boshlab, Xiva xonligida «masjid» (masjid birlashmasi) iborasi bir masjid atrofida jamlangan bir qator xo'jaliklarni o'z ichiga olgan quyi ma'muriy-fiskal birlikka nisbatan qo'llana boshlangan.

Xonlik ma'muriy-hududiy tizimining o'rta bo'g'inini beklklar tashkil etgan va ularni hokimlar boshqarishgan. Xon tomonidan tayinlangan hokimlar o'zlari boshqargan hudud doirasida keng huquqlarga ega bo'lib, ma'muriy, moliyaviy va sud ishlarini amalga oshirishgan, jinoyatchilarni «oliy jazo»ga buyurish esa faqat oliy hukmdor vakolatida edi.

XIX asrda Xiva xonligi ma'muriy-hududiy jihatdan 23 ta tumanga (beklik) bo'lingan, ulardan 20 tasi, ya'ni Pitnak, Hazorasp, Xonqa, Yangi Urganch, Qo'shko'pir, G'azovot, Kot, Shohobod, Anbar-Manak, Toshovuz, Gurlan, Mang'it, Qilich Niyozboy, Porsu, Ilali, Ko'hna Urganch, Xo'jayli, Shumanay, Qo'ng'iroq hokimlar, Beshariq va Qiyot-Qo'ng'iroq tumanlari noiblar tomonidan boshqarilgan.

Poytaxt shahar bo'lgan Xiva bevosita oliy hukmdor boshqaruvida bo'lib, unga har biri 20 tadan 184 tagacha mahallani o'z ichiga olgan 65 ta masjid birlashmasi kirar edi. Poytaxt shahar boshqaruvi masalalari xonning qarorgohi – Arkda, XIX asrdan esa uning saroyi – Toshhovlida hal etilar edi. Hukmdor saroyida «hukumat devonxonasi»ni tashkil etgan 30 dan ortiq davlat lavozimi bo'lgan.

Quyi ma'muriyat vakili oqsoqol bo'lib, u huquq-tartibot ishlarini nazorat qilgan va yuqori vakolatli organlar qarorlarining ijrosini ta'minlagan.

Ijtimoiy-iqtisodiy hayot. Turonning yirik siyosiy, savdo-iqtisodiy markazlaridan biri, eskidan sharq va janubni shimol bilan bog'lovchi yo'llar chorahasida joylashgan Xorazm Amudaryo quyi oqimidagi yerlarni o'z ichiga olish bilan birga, Orol-Kaspiy pasttekisligining shimoli-sharqiy qismini, sharqda Orol va Kaspiy dengizlari o'rtasidagi Ustyurt yassiligi hamda Qoraqum cho'lining shimolini, ayrim davrlarda janubda, hatto, Xuroson tog'larining shimoliy cho'qqilari bo'ylab cho'zilib yotgan hududlarni, shimoli-sharqda Qizilqum sahrosidan to Sirdaryoning quyilishigacha bo'lgan yerlarni egallagan.

Qumli keng sahro xonlikni ikki bo'lakka – Amudaryo orqali sug'oriladigan – Suvbo'yi (daryo tomoni) va Kopetdog'ning tog'oldi erlari – Tog'bo'yi hududlariga ajratgan.

Ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan u ikki – janubiy va shimoliy bo'laklardan iborat bo'lgan. Manbalarda Hazorasp, Xonqa, Urganch¹, Kot va Shohobod singari asosiy beshta shahar-qo'rg'on tufayli Beshqal'a deb atalgan janubiy Xorazm

¹ *Urganch* – hozirgi Urganch shahri; Amudaryo o'zani o'zgarishi oqibatida tug'ilgan suvsizlik sharoitida Abdulog'izxon 1646-yili poytaxtni shu yerga ko'chirgan va shu tariqa qadimgi Gurganj (Urganch) Ko'hna Urganch, hozirgi Urganch Toza (Yangi) Urganch deb atala boshlangan.

poytaxt Xiva hamda uning atroflarini, Qo'shko'pir va boshqa shaharlarni o'z ichiga olgan shimoliy qism Ko'hna Urganch chegarasidagi Xo'jaylidan Orol dengizigacha cho'zilgan.

Aholining asosini qadimgi o'troq aholining avlodlari tashkil etgan va XV–XVII asrlar davomida Dashti Qipchoqdan ko'chmanchi urug'lar Turon, xususan, Xorazm vohasiga ommaviy tarzda kirib kelgan. Keyinchalik ular dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi mahalliy aholi orasiga singib ketishgan.

Xonlikning shimoli-sharqiy chegaralarida, Amudaryoning alohida qo'ltiqlari oralig'ida qoraqalpoqlar joylashgan bo'lib, ularning bir qismi bu yerda oldindan yashab kelgan bo'lsa, bir qismi Sirdaryoning quyi oqimlaridan XVIII asrda ko'chib o'tganlar edi. Qoraqalpoq urug'lari joylashgan hududning jo'g'rofiy o'ziga xosligi hamda bu xalqning ishlab chiqarish an'analari xo'jalik munosabatlarini yuritishga sezilarli darajada ta'sirini o'tkazgan edi.

Qoraqalpoqlarga qo'shni bo'lib, anchagina salmoqli miqdorda, asosan chorvachilik bilan shug'ullangan qozoqlar yashashgan.

Turkmanlarning katta qismi Kaspiy dengizi bo'ylarida yashab kelishgan. XVI asr o'rtalariga kelib, yaylovlarning siyraklashib qolishi tufayli ularning sharqqa, xususan, Xorazm va Xurosonning dehqonchilik hududlariga ko'chishi boshlangan, XVII asrning boshlarida esa turkmanlarning Xorazm hayotidagi ishtiroki sezilarli darajada oshgan va ularning xonlik hududlariga kelib joylashuvi XIX asr birinchi yarmiga qadar davom etgan. Turkmanlarning bir qismi chorvachilikni dehqonchilik bilan birga olib borib, yarim ko'chmanchi xo'jalik yuritishni davom ettirishgan.

1819-yilgi ma'lumotga ko'ra, xonlik aholisi 300 ming kishini tashkil etgan. Ushbu ko'rsatkich qo'lga kiritilgan yangi hududlar va u yerdagi ko'plab aholining ko'chishi hisobiga doimiy ravishda ortib borgan ham ma'lum.

Dehqonchilik mahalliy aholining qadimgi an'analarga asoslangan bo'lib, dehqonchilik va chorvachilikning o'ziga xos jihatlari mavjud edi. Statistika ma'lumotlarga ko'ra, o'zlashtirilgan yerlarning 93 foizi xonlikning janubiy qismiga to'g'ri kelgan.

Janubiy Xorazm dehqonchiligi mutlaqo sun'iy sug'orishga asoslanganligi bilan Turonning boshqa hududlaridan tubdan farq qilgan. Tuproq hosildorligining pastligi unga ishlov berishning maxsus usullarini qo'llashni talab etar edi. Dala eniga va bo'yiga 5, 10, hatto, 20 martalab haydalgan.

Xonlikda ekinlarni almashlab ekish tajribasi qo'llangan. Ko'p yillik ekinlar bir dalada boshqa turdagi o'simliklar bilan ma'lum bir ketma-ketlikda ekib borilgan. Xonlik xo'jaligida donli ekinlar asosiy o'rinni egallagan. XIX

asrdagi ma'lumotga ko'ra, haydaladigan yerlarning yarmidan ko'pi bug'doy va jo'xori, beshdan biri paxta bilan band bo'lgan, qolgan qismida esa, arpa, guruch, zig'ir, kunjut, tarvuz, qovun etishtirilgan.

«Sharqda ham, g'arbda ham Xorazm qovuniga teng keladigani yo'q» bo'lib, uning oftobda quritilgan qoqisi Hindiston va hatto, Xitoyning uzoq shaharlariga olib borib sotilgan.

XVII asrda Balxda meva va sabzavotlarning navini yaxshilash maqsadida Xorazmda yetishtirilgan qovunlarning ko'ktarnay navi va tut daraxti ko'chatlaridan foydalanilganini urg'ulash lozim.

Voha iqtisodiyotida bog'dorchilikning o'rni yuqori bo'lmasa-da, mevalarning deyarli barcha turlari va eng yaxshi navlari yetishtirilgan. Xorazmda bo'lgan Armini Vamberi «Xiva mevalari shu qadar yaxshiki, ularga o'xshashini nafaqat Eron va Turkiyada, balki butun Yevropada ham topish qiyin. Ayniqsa, Hazorasping olmalari, Xivaning nok va uzumlari va uzoq Pekingacha mashhur bo'lgan beqiyos ajoyib qovunlari tahsinga loyiq» deb ta'riflagan.

Yerga ishlov berish madaniyati bo'yicha xorazmlik dehqonlar Turonning boshqa viloyatlaridan tashqari Yevropa, masalan, germaniyaliklardan ham ustun bo'lganlari o'lkaga kelib-ketgan chet elliklar tomonidan e'tirof etilgani ham ma'lum.

Xorazmning o'troq agrar xo'jaligida chorvachilikning ham o'rni katta edi. Yerga ishlov berishda otlar, buqalar, tuyalar va qisman eshaklardan foydalanilgan.

Dehqonchilikda otlar asosiy ish kuchi hisoblanib, Xorazm otlarning turkman oti va qozoq oti singari zotlari bilan mashhur bo'lgan. Turkman oti asosan chavandozlikda, qozoq oti esa ishchi kuchi sifatida foydalanilgan.

Chorvachilikda zotdor qo'yalar yetishtirilgan bo'lib, ularning ham turkman qo'y, qozoq qo'y hamda arabi qo'y va guzari qo'y kabi zotlari qimmatli ahamiyatga ega bo'lgan.

Xonlikda yerga egalik qilishning quyidagi turlari mavjud bo'lgan: davlat yerlari, xususiy yerlar va vaqf yerlari.

Davlat yerlari asosan zabt etilgan mulklar hisobidan bo'lib, yer solig'ini to'lash evaziga dehqonlarga berilgan. Davlat yerlari qo'riq yerlarni o'zlashtirish va obodonlashtirish hisobiga ham to'ldirilgan. Hujjatlarda ularning «zamin maita», «bekor yer», «bo'z yerlar» singari shakllari tilga olinadi. Davlat yerlarining yana bir manbayi yer egalari bilan tuzilgan fuqarolik shartnomalari yoki meros huquqi «zamin matruka» asosida davlatga o'tgan yerlar bo'lgan.

Buning asosi shu ediki, shariatga ko'ra, vafot etgan shaxsning mulki (vorisi bo'lmagan holda) meros tariqasida xalif yoki uning noibi: sulton, amir, xonga o'tgan. Bu toifaga aybdor shaxslarning musodara qilingan yer mulklari ham kirgan. Hukmdor bu yerlarni o'z mulozimlariga davlat solig'ini to'lash va mehnat majburiyatlarini o'tash evaziga vorisiylik huquqi asosida ijaraga berar edi.

Xiva xonligida XVI–XVIII asrlardagi siyosiy chiqishlar va tartibsizliklar aholining boshpanasiz qolishiga va dehqonchilikning izdan chiqishiga olib kelgan. Zaiflashgan markaziy hokimiyat davlat yerlari ustidan nazoratni amalga oshira olmas edi, bu ish muntazam ravishda soliqlarni yig'ib olish va sug'orish inshootlarini ta'mirlab turish singari jiddiy tadbirlar bilan bevosita bog'liq edi.

XVIII asming ikkinchi yarmiga kelib, qo'ng'irotlar sulolasi tomonidan markaziy hokimiyatning mustahkamlanishi tufayli vaziyat o'zgarib, davlat yer mulklarining salmog'i sezilarli darajada ortgan. Xususan, hokimiyatga qarshi muxolif kuchlarning bartaraf etilishi va ularga tegishli mulklarning musodara qilinishi hisobiga davlat yer fondi to'ldirilgan. Keng miqyosli sug'orish ishlarining yo'lga qo'yilishi (bosh ariqlarning tiklanishi va qurilishi) natijasida o'zlashtirilgan katta miqdordagi qo'riq yerlar ham davlat yer maydonlarining ko'payishiga xizmat qilgan.

Muhammad Rahimxon I davrida amalga oshirilgan markazlashtirish siyosatining muhim natijasi – yerdan foydalanish tizimining o'zgarishi bo'lgan edi. Yirik yer egalariiga barham berilishi yer mulklarining turli bo'laklarga bo'linib ketishiga chek qo'ygan.

Xonlikda davlat yerlarini ijaraga olib ishlatuvchilar natura solig'i bo'lgan dahyak (1/10 qism) to'lashgan. Lekin dahyakning miqdori har doim bir xil bo'lmagan va aynan 1/10 qismni tashkil etmasligi, ba'zida bundan ortiq yoki kam ham bo'lishi mumkin edi.

Turonning boshqa mintaqalarida bo'lgani singari mulk iborasi bilan atalgan xususiy yerlarning shartli va shartsiz shakli bo'lgan. Ularning shakllanishi Xorazmda bir qator o'ziga xoslikka ega edi.

Xususiy mulkning nisbatan ko'p tarqalgan shakliga hujjatlarda mulk yoki zar xarid mulk (pulga sotib olingan mulk) deb qayd etilgan holda XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi rus mualliflarining asarlarida atoyi mulk deb keltirilgan mulk turlari kirgan. Merosiy mulk hisoblangan bunday yer egalari zimmasiga salg'ut solig'ini to'lash va mehnat majburiyatini o'tash, ya'ni yiliga har bir xo'jalikdan bir kishini ishchi kuchi (qazuvchi) sifatida ta'minlab berish vazifasi yuklatilgan.

Atoyi mulk egalari uch toifaga bo'lingan: quyi – adno (5 tanobgacha bo'lgan yer egalari), o'rta – avsat (5 dan 10 tanobgacha yer egalari) va oliy – a'lo (10 tanobdan yuqori bo'lgan yer egalari).

Xonlikdagi xususiy mulkchilikda oliy hukmdorning shaxsiy yerlari ham salmoqli o'ringa ega bo'lib, «mulki xolisa», «xauli», «xassayi sharifa», «arazi xassayi sultoni» deb atalgan.

Yer mulklarining asosiy toifalariga vaqf yerlari ham kirgan. Yer maydonlarini vaqf qilish jamiyatning barcha mulkdor qatlamiga, ya'ni hukmdorlar doirasiga ham, mayda mulk egalari ham xos edi. Shu bois, diniy idoralar qo'lida salmoqli miqdorda yer maydonlari jamlangan edi.

XIX asr xonlikdagi 282152 tanob yer va shundan 120000 tanob ishlov beriladigan yerlar vaqf toifasiga kirgan bo'lib, bu umumiy ishlangan yerning 30 foizini tashkil etgan.

Har bir diniy muassasa uning vaqf mulkiga bo'lgan huquqini tasdiqlovchi maxsus hujjat – vaqfnoma yoki vaqfiyaga ega bo'lgan. Vaqf mulklari mutavallilar tomonidan boshqarilgan bo'lib, aksariyat hollarda bu huquq vaqf qiluvchining o'zida qoldirilgan.

Vaqfnoma va boshqa huquqiy risolalar shartiga ko'ra, vaqf mulklarini sotish, hadya qilish yoki garovga qo'yish mumkin emas edi. Lekin xonlikda vaqf yerlari ularning boshqaruvchisi tomonidan oldi-sotdi qilingan yoki garovga qo'yilgani ma'lum.

Qo'ng'irotlar hukumati tomonidan turkmanlarga foydalanish uchun yer maydonlari berilgan. Buning evaziga ular ma'lum miqdorda otliq navkarlar yetkazib berish majburiyatini olishgan. Bu holat, keyinchalik, aniq shakllarga ega bo'lib borib, otliq deb atalgan yer mulkchiligining maxsus turiga aylangan edi. XIX asrda «otliq yerlari deyarli butunlay turkmanlarning foydalanishiga berilgan bo'lib, ular ... yer solig'ini to'lashmagan, lekin buning uchun har 30 tanob yerga bir nafar qurollangan otliq navkar berish orqali harbiy majburiyat o'tashlari lozim edi. 30 tanob, yer maydoni ham otliq deb atalgan».

Xonlikdagi yer mulkchiligining barcha turlari uchun umumiy belgi shundan iborat bo'lganki, yerga egalik huquqi bevosita suvga egalik huquqi bilan birgalikda berilgan. Shu jihatdan, sug'orish inshootlari ham davlat, xususiy yoki vaqf mulki bo'lishi mumkin edi. Cheksiz sahrolar bilan o'ralgan Xorazm vohasi o'zining butun tarixi davomida yuqori darajadagi sug'orish tizimi va suvdan foydalanishning qadimiy an'analari tufayli gullab-yashnagan. Sug'orish inshootlarining ko'p bosqichli tizimini barpo etish va katta mehnat talab etgan yirik qurilish-sug'orish ishlari mutlaqo markaziy hokimiyatning asosiy vazifasiga kirgan.

XVII asrning ikkinchi yarmida Abulg'ozixon va Anushaxon¹ davrlaridagi nisbiy siyosiy barqarorlik, uzoq yillar ichida ilk bor, yirik sug'orish tadbirlari o'tkazilishiga imkon yaratgan edi. Xususan, Shohobod va Yormish bosh ariqlarining qurilishi Anushaxon zamonida boshlangan. Ular qadimgi Vadak va Buve ariqlarining eski joyida qayta barpo etilgan. Undan oldinroq, Abulg'ozixon davrida qadimgi Madra arig'ining qadimgi o'zani o'rnida ham yirik ariqlardan hisoblangan G'ozibod arig'i barpo etilgan edi.

XVIII asrning oxirgi choragida, ya'ni hokimiyat qo'ng'irotlar qo'liga o'tgan bosqichda yangi sug'orish inshootlarini barpo etish sezilarli darajada ortgan. XIX asrning birinchi choragida esa sug'oriladigan yerlar yanada kengayib, sug'orish inshootlarini ta'mirlash ishlariga katta e'tibor berila boshlangan. 1810-yilda Xivanik arig'ining yuqorisini tozalash ishlari amalga oshirilgan. Ariq suvini ishga tushirish marosimi 29 mart kuni shaxsan Muhammad Rahimxon I ishtirokida o'tkazilgan edi. Shu yili Yangi Ariq arig'ining quyi oqimlaridan Oqmachit hududlariga suv chiqarish va bu yerlarni obodonlashtirish bo'yicha xon farmoyishi berilgan.

Bu davrning muhim sug'orish tadbiri sifatida Qilich Niyozboy arig'ining barpo etilishi va ishga tushirilishini ko'rsatib o'tish lozim. Ushbu ariq aynan Daryoliqning o'ng qirg'og'idagi bo'shab yotgan yerlarni sug'orish uchun bunyod etilgan bo'lib, bu janubiy Xorazmning sug'oriladigan maydonlarini kengayishiga yordam bergan edi.

Oллоqulixon hukmronligi davrida, xususan, 1828-yili Polvonyob arig'ining bosh qo'ltig'i bo'lgan Toshsoqa barpo etilgan va 1831-yili Ko'hna Urganch hududini sug'oradigan ariq qazilgan.

Ariqlarni Amudaryo suvi bilan ta'minlash «soqa» tizimi orqali, ya'ni bevosita daryo yoki uning har yili o'zgarib turgan oqimi, qo'ltiqlari hisobiga amalga oshirilgan. Daryo oqimining o'zgarishiga qarab, har yili «soqa»lar soni, ularning yo'nalishi va suv o'tkazish imkoniyatlari ham o'zgarib turgan. Shu bois, toshli tuproqda ancha mustahkam bo'lgan Toshsoqaning barpo etilishi Janubiy Xorazmning sersuv arig'i hisoblangan Polvonyobning ahamiyatini ma'lum darajada oshirgan.

Shunday qilib, XVIII asr oxiri – XIX asr birinchi yarmi Xorazm vohasi uchun keng miqyosli sug'orish tadbirlarini amalga oshirish davri bo'lgan. Ularning natijasida yangi bosh ariqlar barpo etilib, ishga tushirilgan va shu orqali katta miqdordagi yerlarni o'zlashtirish hamda dehqonchilikni kengaytirish, aholini ko'paytirish imkoni yuzaga kelgan.

¹ *Anushaxon* – 1664–1689-yillarda Xiva xonligi doirasida o'zbek davlatini boshqargan qo'ng'irotlar yetakchisi.

Urganch (Gurganj), Xiva, Hazoras, Vazir, Xonqa, Kot, Yangi Urganch, Yangishahar, Tirsak kabi shaharlar XVI asr boshlarida xonlikning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotining asosiy markazlari hisoblangan.

Arubshohiyalar sulolasidan chiqqan ilk hukmdor Elbarsxon aynan poytaxt Vazir shahrida taxtga o'tqazilgan. 1558-yilda ham u poytaxt shahar maqomini yo'qotmagani ma'lum. Lekin tez orada Amudaryo oqimining o'zgarishi tufayli Vazirda shahar hayoti tushkunlikka uchrab, aholi boshqa hududlarga ko'chib o'tgan.

XVI asr o'rtalarida arabshohiyalar o'rtasida hokimiyat uchun avj olgan kurash tufayli poytaxt shahar maqomi bir shahardan boshqa shaharga tez-tez o'tib turgan. Xususan, 1536-yildan 1560-yilgacha Vazir, Urganch (Gurganj) va Xiva shaharlari navbatma-navbat poytaxt vazifasini o'tagan. Poytaxt shaharni tanlashda uning amaldagi rivojlanish holati yoki geosiyosiy joylashuvi emas, balki hukmron doiralarning qo'l ostidagi qaysi ulus tarkibiga kirishi hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qilar edi.

Yirik shahar hisoblangan Urganch 2000-yildan ko'p tarixga ega bo'lib, uning jo'g'rofiy xususiyati, ya'ni turli hududlarni bog'lab turgan karvon yo'llari chorrahasida joylashganligi, savdo va hunarmandchilikning taraqqiy etganligi shaharning o'sishi va rivojlanishiga yordam bergan. Shu bilan birga, bu xususiyatlar Urganch (Gurganj)ni o'zaro kurashlar maydoniga aylantirar edi. Masalan, XVI asr o'rtalarida Urganch (Gurganj) shahrining 7 oy ichida to'rt marotaba qo'ldan-qo'lga o'tganligi tufayli savdogarlar kamayib, kambag'allashib qolganligini ta'kidlaydi.

Siyosiy-iqtisodiy sabablardan tashqari, yuqorida ko'rsatilganidek, tabiiy-iqlim sharoiti bilan bog'liq omillar ham Xorazm shaharlarining tanazuliga olib kelgan. XVI asr ikkinchi yarmida Amudaryo o'zanining o'zgarishi, xususan, Daryoliq qo'ltig'ining sustlashishi Vazir shahri singari Urganch (Gurganj)da ham asta-sekin hayotning so'nishiga omil bo'lgan.

1646-yilda Ko'hna Urganch (Gurganj) aholisi uchun mamlakat janubida barpo etilgan Yangi Urganch shahri xonlikning muhim savdo markaziga aylanib borgan.

Xonlikning birinchi shahari mavqeyini esa, Xiva egallay boshlagan. Xiva shahrining mavqeyi ilgari ham yuqori bo'lib, uning boshqaruvi hukmron sulolaning asosiy vakillariga berilar edi. Manbalarda «poytaxt shahar Xivada birinchi bo'lib taxtga o'tirgan kishi Do'ston» bo'lgani ta'kidlangan.

Xivaning uzil-kesil xonlik poytaxtiga aylanishi 1611–1612-yillarda Arab Muhammadxon hukmronligiga to'g'ri keladi.

Qo'ng'irotlar sulolasi vakillarining hokimiyatni markazlashtirish siyosati Xorazm shaharlarida hunarmandchilik va savdo-sotiqning rivojlanishiga olib keldi.

XIX asrning birinchi yarmida eski, tashlab ketilgan shaharlarni, jumladan, Ko'hna Urganch, Kot shaharlarini tiklashga e'tibor berilgan.

Hunarmandchilik ko'p tarmoqli bo'lib, har bir soha ma'lum bir mahsulotni tayyorlashga ixtisoslashgan hamda Xorazmning tabiiy-iqlim sharoiti va hududiy xususiyatlariga ko'ra to'plangan qadimiy tajriba asosida taraqqiy etib kelgan.

Xonlikda tikuvchilik nisbatan keng tarqalgan edi. Zero, ipak va paxta matolarga talab, ayniqsa, chegaradosh ko'chmanchi dasht aholisining ehtiyoji bu yerda to'qimachilikning rivojlanishiga, hunarmandchilik ishlab chiqarishi bo'lgan, ya'ni nafaqat ichki, balki tashqi bozor uchun ishlovchi shaharlar taraqqiyotiga sabab bo'lgan.

Xorazmda hunarmandchilikning Turonda rivoj topgan deyarli barcha turlari mavjud bo'lib, bu o'rinda tabiiy-iqlim hamda ichki va tashqi bozor talabidan kelib chiqilgan. Chunonchi, kiygiz-namat to'qish va kigizfurushlik, po'stindo'zlik, cho'girma – qorako'l terisidan tikilgan maxsus telpaklar tayyorlashda Xorazm ustalari katta mahoratga ega bo'lishgan. Vohaning turkman aholisi tomonidan sifati va oddiyligi bilan mashhur bo'lgan turkman gilamlari tayyorlangan.

Xonlikning xo'jalik hayotida otlar muhim o'rin tutganligi bois, otning anjomlari – egar-jabduqlar tayyorlash, bezak berishga alohida e'tibor qaratilgan.

Shuningdek, Xorazmda Amudaryo orqali savdo qilish, kemalar qatnovi yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lib, kemachilik hunarmandchilikning yana bir rivojlangan sohasi edi. Xorazm ustalari kichik qayiqlardan tortib, katta kemalargacha mahorat bilan yasashgan.

Sun'iy sug'orishga asoslangan xo'jalik Xiva xonligida chig'ir tayyorlashning keng tarqalishiga sabab bo'lgan. Hunarmandchilikning muhim tarmog'i hisoblangan bu soha ustalari chig'irning uchta asosiy qismi – suv idishlari o'ratilgan g'ildirak, gorizontal o'q va charxlarni yasashda katta mahoratga ega bo'lishgan.

Hunarmandlar bevosita savdo-sotiq ishlari bilan bog'langan bo'lib, ko'pincha o'z mahsulotini olib-sotar orqali pullasa, ayrim hollarda o'zi sotar edi.

Xorazm Turonning yirik savdo markazlari qatorida G'arb bilan Sharqning iqtisodiy aloqalarida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan. Uning karvonsaroylariga keltirilgan xilma-xil mollarning bir qismi Xivada sotilsa, qolgan qismi boshqa joylarga tarqalgan.

So'nggi o'rta asrlarda tez-tez o'zgarib turgan xalqaro vaziyat hamda dengiz yo'llari mavqeyining ortib borishi Sharq mamlakatlarining jahon bozorlariga chiqish imkoniyatlarini ma'lum darajada qiyinlashtirgan edi. Shun-

ga qaramay, Buxoro, Xiva va Balxning savdo karvonlari Hindiston, Eron, Qozoq xonliklari, No'g'ay dashti, Sibir va Koshg'arga borishda davom etib, o'z navbatida ko'rsatib o'tilgan davlatlarning karvonlari Turonga, jumladan, Xiva, Xonqa, Hazorasp, Yangi Urganch, Gurlan kabi shaharlarga ham kelib turgan. Katta shaharlarda bozorlar haftada ikki marta, kichik shaharlar yoki qishloqlarda bir marta faoliyat ko'rsatgan.

Ilm-fan va madaniy hayot. Xorazm o'lkasi ta'lim tizimi ilgarigi davrlarda va Turonning boshqa bo'laklarida bo'lgani singari quyi bo'g'in – maktablar va yuqori bosqich – madrasa negizida barpo bo'lgan edi. Maktablar yirik shaharlarning deyarli har bir mahallasida mavjud bo'lib, bolalar 6 yoshdan (ba'zan 5 yoshdan) ta'lim olishni boshlar va 15-16 yoshgacha davom ettirishar edi. Maktablar odatda mahalla masjidlari qaramog'ida edi. Maktablarda qiz bolalar uchun maxsus sinflar ham ajratilgan.

Madrasalar odatdagidek hukmron sulola vakillari, yirik amaldorlar tomonidan qurdirilgan. Ularning ko'pchiligi Xiva shahrida faoliyat yuritgani ham tabiiydir: Arab Muhammadxon (1616), Xo'jamberdi (1688), Sherg'ozixon (1719–1726), Muhammad Amin inoq (1765), Fozilbek (1799), Eshmurod (1810), Olloqulixon (1835), Shomon imorat (1836), Arabxon sarkarda (1838), Gadoyniyoz yasovulboshi (1840), Yaqub mehtar (1840), Muso to'ra (1841), Sayidboy (1842), Rahimqulixon (1843), Rahmonberdixon (1843), Muhammad Aminxon (1851) madrasalari.

Madrasalar Urganch, Shohobod, Shovot, Hazoraspda ham bo'lgan.

Abulg'ozzi Bahodirxon, Shermuhammad Munis Xorazmiy, Muhammadrizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy, Muhammad Yusuf Bayoniy, Sayid Homid to'ra Kamyobning tarixiy asarlari Xorazm tarixchilik maktabining o'ziga xos an'alarini yuzaga keltirgan edi. Unda tarjima maktablarining ham o'rni katta bo'lib, bu davrda Munis va Ogahiy tomonidan arab va fors tillaridagi (Ma'sudiy, Ibn al-Asir, Mirxond, Xondamir va Mirzo Muhammad Haydar) ko'plab yirik tarixiy asarlar o'zbek tiliga tarjima qilindi.

XVIII asr oxiri – XIX asrning boshlarida kitobat va xattotlik, musiqa san'ati yanada rivojlandi. Bu davrda Olloquli Xorazmiy, Munis Xorazmiy, Muhammad Rizo Ogahiy, Komil Xorazmiy, ustod Muhammad panoh, mulla Boltaniyoz Xarrot, Xudoybergan muhrkan devon, Mulla Karimbergan devon, Muhammad Sharif Tarro devon, Matyoqub Xarrot devon, Bobojon Mahdum devon, Tarrax ibn Abdulaziz Mahdum, Muhammad Rasul Mirzo singari iste'dodli xattotlar maktabi yaratildi.

Xorazm adabiy muhitining rivojlanishida Muhammadniyoz Nishotiy, Roqim, Andalib, Ravnaq singari ma'rifatparvar shoirlarning xizmatlari kat-

tadir. Yaratilgan go'zal nazmiy asarlar qatorida Munisning «Savodi ta'lim» risolasi amaliy ahamiyatga ega bo'lsa, Ogahiyning «Ta'vizul oshiqin» devoni XIX asr Xorazm adabiy-ma'rifiy muhitining gultojiga aylandi.

Tashqi siyosat. Qozoq juzlari, Buxoro va Qo'qon hukmdorlari bilan deyarli uzluksiz elchilar almashib turgan arabshohiylar va qo'ng'irotlarning tashqi siyosiy aloqalari asosan, Eron va Rus davlatiga to'g'ri kelgan bo'lsa-da, Hindiston va usmoniylar bilan ham bordi-keldilar yo'lga qo'yilgan edi.

Rus davlati bilan savdo aloqalarini kuchaytirishga harakat qilgan Xorazm hukmdorlari tomonidan 1558, 1560 va 1566-yillarda Astraxanga, so'ng Moskvaga 4 marotaba elchilik yuborilgani, 1590-yili Alim Bahodir, 1598-yili Muhammadxo'ja boshliq hay'atlar rus mamlakatiga tashrif buyurganlarining o'ziyoq XVI asrning ikkinchi yarmi o'zaro aloqalar qanchalar sermahsul bo'lganidan dalolat beradi, albatta.

Kaspiy-Volga yo'li orqali savdoni kuchaytirish zaruratini yaxshi tushungan Arab Muhammadxon 1613-yili Darvish Bobo va 1614-yili Do'st Avaz Shukurni, 1616-yili esa Yusuf hojini Astraxan va Moskvaga yuborib, munosabatlarni yanada iliqlashtirishga harakat qilgani ma'lum.

Turonda o'z siyosiy va iqtisodiy manfaatlarini o'rnatish, ushbu mintaqa orqali Hindistonga yuzlanishni bosh maqsad qilib qo'ygan Pyotr I¹ harbiy kuchlarini birinchilardan bo'lib qarshi olgan Sherg'ozixon bo'ladi. Uning topshirig'i bilan 1714–1717-yillarda uyushtirilgan, Aleksandr Bekovich-Cherkasskiy boshchiligidagi 6000 askardan iborat qurolli yurish xon va uning atrofidagilarda xavotir uyg'otishi tabiiy edi. Sherg'ozixon ochiq maydonda urushgandan ko'ra, dushman kuchlarini mayda-mayda bo'laklarga ajratib yo'q qilish rejasini tuzadi va bunga erishadi ham.

Mazkur voqea ikki tomonlama, birinchi galda savdo aloqalariga putur yetkazishi turgan gap edi. Ular Pyotr II² zamonida, ya'ni Pyotr I o'limdan so'ngina tiklangan.

Umumlashtirganda, XVI–XIX asrlar davomida Xivadan Rossiyaga 50 marta elchilik yuborilgan bo'lsa, Rossiyadan Turkiston siyosiy markazlariga 17 ta elchilik kelgan. Ular tomonidan olib borilgan muzokaralar o'zaro «bojsiz savdo»ni yo'lga qo'yish, jumladan, «xazina mollari»dan boj olmaslik, qimmatbaho toshlar, rangli va qimmatli metalar bilan erkin savdo qilish, amaldorlar tomonidan tortib olingan yoki qaroqchilar tomonidan o'g'irlangan mollarni savdogar va elchilarga qaytarish hamda nasiyaga olingan mollarning pulini to'latishda davlatlarning aralashuvi (hukmdorga yozilgan rasmiy

¹ Pyotr I – 1682–1725-yillarda Rossiya imperatori.

² Pyotr II – 1727–1730-yillarda Rossiya imperatori.

shikoyatnomalar va yo'qotilgan mollarning ro'yxati), o'zbek elchilarining Rossiya saltanatida shved, nemis, cherkas asirlarini sotib olish yuzasidan so'rovnomalari, Rossiya va Turkiston orasidagi hududlarda qaroqchilikni tugatish, o'zaro savdoni rivojlantirish masalalariga qaratilgan.

XIX asr Xiva-rus munosabatlarining keskinlashuvi bilan o'ziga xosdir. Rus asirlarini ozod qilish bo'yicha 1837–1838-yillardagi bir qator muvaffaqiyatsiz muzokaralardan so'ng, 1839-yil kuzida Orenburgdan V.Perovskiy¹ boshchiligidagi 5 ming kishilik harbiy qo'shin Xivaga yuborilgan. Qattiq qish va qalin qor qo'mondonlikning rejalarini barbod qilgan va qo'shinning harakatini deyarli imkonsiz qilib qo'ygan edi. Ketma-ket uchragan mag'lubiyatlaridan so'ng rus hukumati xonlikni harbiy yo'l bilan bo'ysundirish mushkulligini anglab, muzokaralar yo'lga o'tgan edi. Biroq umuman Turonni, xususan, Xorazm vohasini bosib olish rejasidan butkul qaytgan emas. Rossiya imperiyasi bu maqsadiga 1873-yili K.Kaufman² boshchiligidagi uyushtirilgan harbiy yurish natijasida erishgan.

Eron safaviylar hukmronligi ostida bo'lgan davr ikki tomonlama aloqalar iliq kechgani bilan o'ziga xosdir. Eronliklar poytaxtiga tashrif buyurgan arabshohiy sultonlar Dinmuhammad va Ali Xorazmga yurish qilgan Ubaydullaxonga qarshi kurashda yordam so'rab kelganliklari bilan bog'liq voqea ikki o'rtada yaqin aloqalarning boshlanishi sanaladi. Hoji Muhammadxon davrida eronliklar bilan o'zaro aloqalar, bordi-keldi va yozishmalar, ayniqsa, kuchayib, nisbatan muntazam aloqalar tusini olgan.

O'zaro munosabatlar Nodirshohning 1739–1740-yillarda umuman Turkiston, jumladan, Xorazmga uyushtirgan yurishlari oqibatida buzilgan. Chunonchi, Elbarsxon Eron qo'shinlari bilan bo'lgan jangda halok bo'lgach, Xorazmning Nodirshoh noiblari tomonidan boshqarila boshlagan.

Eron boshqaruvi qojarlar³ sulolasi qo'lga o'tgach, ular bilan ham o'zaro elchilik munosabatlari olib borilgan bo'lib, buning asosini tashkil etgan muhim omillar sifatida chegaradosh hududlarga uyushtiriladigan o'zaro «olomon» yurishlarining avj olishi, oqibatda ko'plab asirlar qo'lga olinishi, ayniqsa, bu davrda Turon, jumladan, Xiva bozorlaridagi «qul savdosi», Xurosonning chegaradosh hududlari borasidagi raqobat, shuningdek, ingliz va rus hukumatlarining Xiva–Eron aloqalariga aralashuvi singari masalalarni ko'rsatish mumkin.

1812–1852-yillar oralig'ida qo'g'irot xonlari Bekish xalifa, Nodir sardor, Umarshayx, Amirxon, Badirxonbek, Muhammad Husaynbek, Bekniyoz mah-

¹ V. Perovskiy – 1851–1857-yillarda Orenburg viloyati harbiy gubernatori.

² K. Kaufman – Rossiya imperiyasining Turkistonga bosqinchilik yurishlariga boshchilik qilgan harbiy, 1867–1882-yillarda Turkiston general-gubernatori.

³ Qojarlar – 1795 – 1925-yillarda Eronni boshqargan turkiy sulola.

ram, Durdibek (Bekdurdi), Muhammad Sharifbek kabi elchilarni Eronga yuborganlari ma'lum. Umuman olganda, XIX asrda xonlik va Eron o'rtasidagi elchilik aloqalari asosan asirlarni ozod qilish, qul savdosini to'xtatish kabi masalalarga qaratilgani bilan ajralib turadi. Asirga tushganlarni ozod qilish esa juda murakkab masala bo'lib, katta miqdordagi to'lov evaziga amalga oshirilgan.

Xonlik usmoniylar davlati bilan yaqin do'stona aloqalarni yo'lga qo'ygan. Bu aloqalar turli murakkab vaziyatlarda o'zaro yordam va hamkorlik, yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini saqlab turish ko'rinishida namoyon bo'lgan. Zero, olis O'rta dengiz hududlariga yo'l olgan savdo karvonlari ham, haj ziyoratiga chiqqan ziyoratchilar ham usmoniylar nazoratidagi hududlaridan o'tgan yo'llardan keng foydalanishgan.

Usmoniy turklar davlatini Turon bilan bog'lashda xonlik ham o'tar hudud sifatida muhim o'rin tutgan. Hindiston, Xitoy yoki qo'shni Buxoro, Qo'shqon tomonlarga kelgan turk sayyohlari, elchilari ko'p hollarda yo'lni qisqartirish yoki qulay yo'l orqali o'z yurtlariga qaytish maqsadida «Xorazm yo'li»dan foydalanishgan.

Arabshohiylar Hindiston bilan ham do'stona munosabatlarda bo'lganlari, xususan, Arab Muhammadxon boburiylar bilan iliq munosabatlar o'rnatgani ma'lum. Abulg'ozixon ham elchilik va savdo munosabatlarini rivojlantirish maqsadida Shayxbobo va Shohjahonni elchi qilib Hindistonga yuborganligi to'g'risida ma'lumotlar mavjud.

Qo'ng'irotlarning qozoq juzlari bilan aloqalaridagi bosh omil Kichik qozoq juzi va Sirdaryo bo'ylaridagi bir qancha qozoq urug'larining rus fuqaroligini qabul qilganlari bilan bog'liq bo'lgan. Rossiya imperiyasi ularni «bizning qozoqlarimiz» deb qarasa, qo'ng'irotlar tarixan xonlik tarkibida yoki unga tutash bo'lgan ushbu hududlarga o'z da'volarini bildirib, bu yerlardan soliq (zakot) olishni hamda qozoq urug'larining ichki ishlariga aralashishni davom ettirar edilar. Xiva xonlari ko'p hollarda u yoki bu qozoq sultonlari va xonlarini qo'llab-quvvatlashgan, buning evaziga Sirdaryo bo'yidagi qozoq ovullari Xivaga soliq to'lab turgan. 1824-yilda rus hukumati tomonidan Kichik qozoq juzidagi xon boshqaruvining tugatilishi u yerda katta noroziliklarni keltirib chiqargan.

XVIII asr oxiri – XIX asr boshlarida Qozoq dashtida Rossiya imperiyasi harbiy harakatlarining faollashuvi ularga qarshi milliy-ozodlik kurashlarining avj olishiga sabab bo'lgan edi. Bu kurashlarda qozoq sultonlari va qabila boshliqlari xorazmlik siyosiy kuchlarni o'zlariga ishonchli ittifoqchi, deb bilishgan. Shu jihatdan, Xiva – Qozoq aloqalarining yana bir shakli rus hukumatiga qarshi qaratilgan milliy-ozodlik kurashida o'zaro birdamlik harakati

edi. Shu o'rinda, qozoq botiri Siddiq to'raning¹ 1869-yil boshlarida Xivaga kirib kelgani diqqatga sazovordir.

Otasining o'limidan so'ng amir Muzaffar xizmatiga kirib, rus qo'shinlariga qarshi kurash olib borgan Siddiq to'ra buxoroliklar Rossiya imperiyasidan yengilgach, bir muddat mustaqil ravishda ruslarga qarshi kurash olib borgan. Yolg'iz o'zi bu kurashda muvaffaqiyatga erisha olmasligini bilgan qozoq to'rasi Muhammad Rahimxon II huzuriga kelib panohtopgan. Uni hurmat bilan kutib olgan xon u bilan kelgan 60 askarga ham bag'rikenglik bilan munosabatda bo'lgan va ularga Amudaryoning shimolidagi Uyg'ur mavzesidan joy bergan.

¹ Siddiq to'ra (1837–1910) – O'rta qozoq juzi xoni Kenesari o'g'li, Rossiya bosqiniga qarshi tolmas kurashchi.

XX. ROSSIYA IMPERIYASI ISTILOSI

XVIII asrda bir butunligini uzil-kesil yo'qotgan, g'arbda qo'ng'irotlar, sharqda minglar, o'rtada mang'itlar hukmronligi o'rnatilgan o'zbek davlati XIX asrda siyosiy tarqoqlik, iqtisodiy cheklanganlik, ilm-fanda qoloqlik holatida kirib borgan edi.

Minglar 15, mang'itlar 28, qo'ng'irotlar 20 ta beklilikdan iborat, bir-birlaridan mustaqil davlat birliklarini boshqarayotganlarining o'ziyoq, ular har birining ichida boshboshdoqlik va butun mintaqadagi siyosiy beqarorlik qanchalar avj olgani, siyosiy, iqtisodiy kuch-qudrat bo'linib ketganini ko'rsatadi, albatta. Shimoldan Rossiya, sharqdan Xitoyning qurolli xavf-xatarlari voqeelikka aylanishga tayyor, janubda Angliyaning sharpasi yaqqollashib borayotgan bir sharoitda qudrati uchga bo'lingan o'zbek davlatining ularga bas kelishi ehtimoli borgan sari yo'qolib borgan.

XIX asrning boshlariga kelib Rossiya imperiyasi tashqi siyosatida Turkiston bozorlarini o'z ta'sir doirasiga tortish, bu hududlarda rus savdo manfaatlarini qaror toptirish aniq bo'lgandi. Xonliklarga yuborilgan elchilarga uni atroficha o'rganish, tegishli ma'lumotlar to'plash, hududning yo'llarini o'rganish, harbiy yurishlar imkoniyatlarini ko'rib chiqish vazifasi topshirilgani ham bejiz emasdi.

1846–1847-yillarda Katta juz qozoqlari hududining qolgan qismini ham egallab, ayrim qozoq sultonlarining qarshiligini yengishga muvaffaq bo'lgan rus hukumati ming xonlari tomonidan mazkur hududlarda qurilgan ba'zi kichik istehkomlarni bosib olib, buzib tashlaydi, qozoq juzlari hududida o'z mavqeyini mustahkamlab, 60 dan ortiq katta-kichik harbiy istehkomlar qurdirib, katta harbiy tayanchga ega bo'ladi.

XIX asr o'rtalaridan Rossiya imperiyasining to'qimachilik sanoatini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan paxta xomashyosiga talab kuchaygan bir sharoitda uni shu paytgacha yetkazib bergan Amerikada fuqarolar urushi avj olishi, paxta tannarxi oshib, uni olib kelish hajmining keskin kamayib ketishi rus sanoatini kasodga uchrata boshlaydi. Bunday sharoitda Turkistonning arzon paxtasiga erishish Rossiya hukmron doiralari-yu, sanoatchilar va yirik sarmoyador-



Chor Rossiyasi bosqini. XIX asr

lari xayolini birdek egallab olgandi. Turkistonni bosib olishni tezlashtirish bo'yicha puxta o'ylangan amaliy sa'y-harakatlar aynan o'sha paytda boshlangani ham tasodif bo'lmagan.

Rus hukumatining har bir idorasi bo'lajak bosqinga o'z tayyorgarligidan tashqari o'zaro kelishib ish tutganlarini ta'kidlash lozim. O'lkani

har tomonlama chuqurroq o'rganishga intilgan Tashqi ishlar vazirligi 1858-yili Buxoro va Xivaga polkovnik N.Ignatyev¹ boshchiligidagi elchilikni, Xivaga A.Butakov² boshchiligidagi dengiz flotiyasini jo'natadi. Harbiy vazirlik N.Ignatyevga o'lkaning harbiy kuch va vositalar, ichki va tashqi (Eron, Afg'oniston, Hindiston, Balxga olib boradigan) yo'llari haqida ma'lumotlar to'plashni topshiradi. Shunday yo'sinda qo'lga kiritilgan ko'pdan-ko'p ma'lumotlar tahlili natijasida Rossiya imperiyasi harbiy harakatlarga qo'l uradi. Ya'ni rus hukumati Turkistonni bosib olishga uzoq va puxta tayyorgarlik ko'rgan.

Bosqinning boshlanishi. Turkiston shimoliy chegaralarini qo'riqlashda Chimkent, Sayram, Turkiston, Avliyoota, Oqmasjid, Pishpak, To'qmoqdagi harbiy istehkomlar muhim o'rin tutganlar. Rus qo'shinlarining dastlabki yurishlari minglar sulolasi hukmdorlari tomonidan barpo etilgan mazkur qo'rg'onlarga qaratilgani ham shu omil bilan bog'liqdir. Biroq ularni egallash oson kechgan emas. 1852-yil 18-iyulda Oqmasjid qo'rg'oniga uyushtirilgan ilk hujum muvaffaqiyatsiz tugagan. 1853-yil 2-4 iyul kunlari V.Perovskiy boshchiligidagi Oqmasjidga uyushtirilgan ikkinchi hujumda mahalliy aholi qattiq qarshilik ko'rsatib, katta qurbonlar bersada, qo'rg'on ruslar tomonidan egallanadi. Uning o'mida 1854-yili «Perovskiy forti» deb atalgan rus istehkomi tashkil etiladi. Shu yili imperiya qo'shinlari egallagan hududlarda yana 3 ta harbiy istehkom tashkil qilinib, ular Rossiya imperiyasi va o'zbek davlati o'rtasidagi chegara bo'lib qoladi.

1860-yili To'qmoq, Pishpak, 1863-yili Issiqko'l hududi ham ruslar tomonidan bosib olingach, 1864-yili M.Chernyayev³ boshchiligidagi qo'shinlar

¹ N.P.Ignatyev – 1858-yili Buxoro va Xivaga yuborilgan elchilikka bosh bo'lgan harbiy.

² A.I.Butakov – rus harbiy dengiz flotiliyasi arbobi, kontr-admiral.

³ M.Chernyayev – rus qo'shinlari generali, 1882–1884-yillarda Turkiston general-gubernatori.

Avliyootani qamal qilib, jang bilan egallaganlar. Dushmanga qarshi urushda 1600 vatan himoyachisi halok bo'lgani ma'lum. Turkiston, Chimkent shaharlari ham shu yili bosib olingan va shu bilan Turkiston o'lkasi, o'zbek davlati, xususan, minglar sulolasi uchun juda ahamiyatli Toshkent sari yo'l ochiladi.

Toshkentning bosib olinishi. M.Chernyayev boshchiligida 1864-yil oktabrda Toshkentga qarshi uyushtirilgan birinchi hujum ruslar uchun ayanchli tugagan – ular urushda yutqazib, chekinishga majbur bo'lganlar. Kelgusi yarim yil ichida obdon tayyorgarlik ko'rgan bosqinchilar avvaliga 1865-yil 28-aprelda og'ir janglardan so'ng Niyozbek qo'rg'onini egallaganlar. Abdurahmon Shodmon o'g'li degan kimsaning maslahati bilan M.Chernyayev Bo'zsuv to'g'onini buzib, uning suvini Chirchiqqa burib yuborish orqali Toshkentni suvsiz qoldiradi. Shunga qaramay, qamalda qolgan shahar aholisi taslim bo'lmagan, dushmanga qarshi kurashni davom ettirgan.

Sulton Sa'idxon va Alimquli amirlashkar boshchiligida qo'shin etib kelgan. Bosqinchilarga qarshi urushda ularni shahardagi ayollar, keksalar va hatto, yosh bolalar ham qo'llab-quvvatlab turganlar. Janglardan birida bosh qo'mondon Alimquli amirlashkar yaralanib, vafot etadi. Natijada, Toshkent shahri hokimsiz, mudofaachilar esa qo'mondonsiz qoldilar.

M.G.Chernyayev harbiy hiyla ishlatib, shaharni Qo'qon darvozasi tomondan o'qqa tutib, mudofaachilarni chalg'itgan holda 15 iyun erta tongda Kamolon darvozasi yaqinidagi devordan bostirib shaharga kiradi. Shahar aholisi nafaqat har bir ko'cha, hattoki har bir masjid, savdo do'koni, uy uchun kurashdi. Ikki kecha-kunduz davom etgan olishuvlarda yurt himoyachilaridan juda ko'pi halok bo'lgan, yaralangan, imoratlar yondirilib, shahar vayronaga aylantirildi.

Ustiga-ustak, ayrim sotqinlar porox, qurol-aslaha saqlanadigan yashirin ombor qayerda joylashgani haqida ruslarga xabar berganlari oqibatida 50 ga yaqin zambarak o'qi hamda portlovchi moddalar yordamida u yo'q qilingan. Ya'ni mudofaadagilar urush zaxiralaridan ayrilganlar. Bundan tashqari, toshkentlik ayrim kazo-kazolar dushman tomonga yon bosganlarini ham aytib o'tish lozim. Ulardan eng taniqlisi Saidzimboy² bo'lib, u ilgari rus hukumatiga xizmat qilib kelgan va evaziga mukofotlarga ham sazovor bo'lgan edi.

Bosqinchilar yana bir qabih ishga qo'l urganlar: Shayxontohur, Beshyog'och va bosh dahalar qarshisiga to'plarni qo'yib, shaharning kulini ko'kka sovurmoqchi bo'lganlar. Ushbu ilojisizlik hamda qirq ikki kunlik tinimsiz

¹ Niyozbek qo'rg'oni – Chirchiq daryosining o'ng qirg'og'ida, Toshkentni suv bilan ta'minlaydigan Bo'zsuvni qo'riqlash uchun qurilgan istehkom.

² Saidzimboy Muhammad o'g'li – qorateginlik yirik savdogar, rus hukumatiga xizmat qilishni Turkiston bosib olinishidan oldin boshlab, evaziga mukofotlar olgan shaxs.

janglardan so'ng imkon qolmagach, 1865-yil 17-iyun kuni yurt himoyachilari qarshilikni to'xtatishga majbur bo'lganlar. Shu tariqa Toshkent Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingan.

Jizzax va Samarqandning bosib olinishi. M.Chernyayev Toshkent yurishidan oldinroq Jizzaxni bosib olishga uringan edi. Biroq 1865-yil 7-fevralda yuz bergan urushda jizzaxliklar dushmanga qashqatqich zarba berganlar. Mag'lubiyat alamini tortgan va o'z kuchsizliklarini sezgan ruslar 11 fevralda Sirdaryoga chekinishga majbur bo'lganlar, biroq yetib kelgan 8–10 ming kishilik o'zbek qo'shini ularni qurshab olib, qirib tashlamoqchi bo'lganlarida M.Chernyayev Toshkent tomonga qochishga ulgurgan.

1865-yil yozida Toshkentni bosib olgan Rossiya imperiyasi bu bilan qanoatlanmasdan, Turkistonning boshqa yirik markazlarini ham qo'lga kiritishga urinib ko'rishi aniq bo'lib qolgandi. Buni yaxshi anglagan amir Muzaffar qo'shin to'plab, dushmanga qarshi o'tlanadi. Biroq 1866-yil may oyida Oqjarda mag'lubiyatga uchrab, chekinishga majbur bo'ladi. Fursatdan foydalangan ruslar o'ta qattiq kechgan urushdan so'ng ushbu oyda Xo'jandni ham egalashga muvaffaq bo'ladilar.

Mazkur yilning sentabri oxirlarida og'ir janglardan so'ng O'ratepani ham bosib olgan ruslar Zominga hujum qilganlar. Uni ham kuch bilan egallagach, endi Jizzaxga ko'z olaytirganlar. Ikki qator mudofaa devorlari, qo'rg'onining mustahkamligi bilan shuhrat qozongan ushbu shahar himoyasi bir hafta davom etgan. Jizzaxliklar ko'rsatgan botirlik va fidoyilikni ruslarning o'zi tan olib yozgan mana bu guvohlikdan ham bilib olish mumkin: «Shahar himoyachilarining qahramonligi va qattiq qarshiligiga qoyil qolish kerak. Qo'rg'onida urushni davom ettirishning iloji qolmaganida, bir guruh kishilar porox omboriga kirib, o'zlarini portlatib yubordilar». Shu tariqa «qon daryodek oqqan» jangu jadallardan so'ng 18-oktabrda Jizzax ham bosib olingan. Bu endi Samarqandga yo'l ochildi, degani edi.

1868-yil 1-mayda Chorvaota tepaligida Buxoro qo'shini va K.Kaufman boshliq harbiy kuch o'rtasida hal qiluvchi jang boshlangan va ertasi kuni ruslar Samarqand darvozalarini yorib kirishga muvaffaq bo'lganlar. Samarqanddan keyin Chelak, Urgut, Kattaqo'rg'on egallangan.

1868-yil 2-iyunga o'tar kechasi Zirabuloq tepaligida bo'lib o'tgan og'ir jangda dushman g'olib kelgach, 23-iyunda amir Muzaffar K.Kaufman bilan tinchlik shartnomasini imzolashga majbur bo'ladi.

Xivanning bosib olinishi. Buxorodan so'ng navbat Xorazmga kelishi ayon bo'lib qolgan edi. Buni ruslarning obdon harbiy tayyorgarlikdan so'ng, puxta tuzilgan reja asosida 1873-yili Manqishloq, Krasnovodsk, Orenburg va

Turkiston general-gubernatorligida mujassamlashgan harbiy kuchlarni tashlab, uch yo'nalishda harakat qilganidan ham bilsa bo'ladi. Dushmanning ilk harbiy bo'limlari Xiva ostonasiga 1873-yil 26-mayda yetib kelganlar. Qattiq urush-talashdan so'ng 29-mayda bosqinchilar shahar devori va darvozalarini yorib, ichkari kirishga muvaffaq bo'lganlar. Janglar qo'rg'on ichkarisida davom etganiga qaramay, pirovardida, qo'ng'irotlar poytaxti Xiva ham ruslar tomonidan bosib olinadi.

Farg'ona vodiysining bosib olinishi. Minglar hukmronligi ostidagi yerlarning katta qismi bosib olinib, mustamlaka boshqaruvi o'rnatilgach, Xudoyorxon bosqinchilarga qarshi kurashish o'miga, o'z taxtini saqlab qolish niyatida rus hukumatiga yon bosib, o'z fuqarolari va davlat ayonlarini zug'um ostiga oldi. Shu tariqa tug'ilgan ijtimoiy-siyosiy tanglik hukmronligi sharoitida sahnaga Po'latxon¹ chiqib, ochiqdan-ochiq taxtga da'vogarlik qila boshlagan. Yirik amaldorlar va lashkarboshilar, hatto, xonning o'g'li ham uni qo'llab-quvvatlaganlarining o'ziyoq noroziliklar ommaviy tus olganini ko'rsatadi, albatta. Ushbu vaziyatda Xudoyorxon yana bir ahmoqona ishga qo'l urgan – hokimiyatni saqlab qolish uchun K.Kaufmanga murojaat qiladi va o'zini hamda xonlikni «ulug' imperator» ixtiyoriga topshirishini bildirib, Farg'onaga tezroq qo'shin jo'natishni so'raydi.

Turkiston sharqida voqealarning shu tarzda rivojlanishi rus hukumati uchun ayni muddao bo'lgani aniq. Qisqasi, umumxalq qahri avjiga chiqib bo'lgani sharoitida jonidan xavotirga tushgan Xudoyorxon Toshkentdan javob kelishini kutib ham o'tirmasdan, xonlik xazinasini olib yo'lga tushgan. Rus hukumatining eng ishonchli kishilaridan biriga aylangan Saidazimboy yordamida K.Kaufman bilan uchrashadi. Biroq tuzgan rejasi puch bo'lib chiqadi: rus generali u keltirgan boyliklarni tortib olib, o'zini Orenburgga surgun qiladi.

Xudoyorxonga qarshi kayfiyatning rus hukmronligiga qarshi noroziliklar bilan qo'shilib ketishi tabiiy edi. Farg'onaliklar qo'lga qurol olib, bosqinchilarga qarshi milliy-ozodlik harakatlarini boshlab yuborganlar. Dushman tomonidan bosib olingan ayrim yerlarni qaytarib olganlar, rus harbiylarini qirganlar. K.Kaufman vatan himoyachilariga qarshi katta harbiy kuch tashlagan, farg'onaliklarni ayovsiz o'ldirgan, shahar-u qishloqlarni vayron qilgan bo'lsa-da, vatan himoyachilari osonlikcha taslim bo'lmagan. 1875-yil avgustidan 1876-yil fevraligacha qadar butun vodiy bo'ylab kechgan urush-talashlarda ajdodlarimiz yurt uchun o'zlarini fido qilganlar, ko'plab qurbonliklar berilgan. Kuchlar

¹ Po'latxon – asli ismi Is'hoq Hasan o'g'li bo'lib, Olimxonning nabirasi Po'lat nomidan «soxta xon» sifatida 1873–1876-yillardagi qo'zg'olonga boshchilik qilgan.

teng emasligi, zamonaviy qurollar ustunligi sabab bosqinchilar qo'li baland kelgan. 1876-yil 7-fevralda M.Skobelyev¹ qo'shinlari Qo'qonga bostirib kirishga muvaffaq bo'lgan. Nasriddinxon va uning tarafdorlari tutqinlikka solinib, avval Toshkentga, u yerdan esa Vladimir guberniyasiga² surgun qilinganlar. Shu tariqa, minglarning deyarli 170-yillik hukmronligiga chek qo'yilib, xonlik tugatilgan va o'miga Rossiya imperiyasiga qarashli Farg'ona viloyati tuzilgan.

Kaspiybo'yi yerlarining bosib olinishi. 1869–1873-yillarda rus qo'shinlari minglab turkmanlarni qirib, ularning ovullarini yoqib, mol-mulklarini talon-taroj qilgan bo'lsalar-da, ularni tamomila bo'ysundira olmaganlar. 1873-yil iyul oyida N.Golovachev³ boshchiligidagi kazaklar tomonidan turkmanlarni yoppasiga qirg'in qilish boshlangan.

1874-yil 31-martda bosib olingan hududlarda Kaspiyorti harbiy bo'limi tuzilib, Kavkaz harbiy okrugiga bo'ysundiriladi. 1879-yil 28-avgustda Go'ktepaga⁴ qilgan dastlabki hujum turkmanlarning qattiq qarshiligiga uchragach, oradan bir yil o'tib, 1880-yilning yozida u jang bilan egallandi. 1881-yil 6-mayda rus qo'shini tomonidan bosib olingan yerlarda Kaspiyorti viloyati tuzilib, keyinchalik u Turkiston general-gubernatorligi ixtiyoriga o'tkazildi.

Shunday qilib, Rossiya imperiyasining Turkistonga bosqinchilik yurishlari mintaqani butunlay bo'ysundirish bilan yakun topadi. O'zbek, qozoq, qirg'iz, turkman, tojik xalqlari mardlarcha va fidokorona kurash olib bordilar. Siyosiy doiralar, hukmron sulolalarning mamlakat mudofaasi uchun birlasha olmaganlari, ayrim hollarda dushman bilan kelishuv yo'lini tutganliklari, shuningdek, xonliklarning harbiy tayyorgarligi imperiya qo'shinlarinikiga nisbatan sustligi, zamon talablari darajasida emasligi urushda mag'lubiyatga olib kelgan muhim omillar edi.

Bosqinchilik oqibatlari. 1868-yil 23-iyunda amir Muzaffar hamda Rossiya imperiyasining vakili K.Kaufman o'rtasida imzolangan tinchlik shartnomasiga muvofiq, amir xorijiy mamlakatlar bilan mustaqil tashqi siyosat olib borish huquqidan mahrum etildi, ichki boshqaruvda esa Rossiya nazorati ta'minlandi. Bu hol Buxoro amirligini siyosiy mustaqillikdan mahrum etdi.

¹ M. Skobelyev – Xorazm, Farg'ona vodiysi bosib olinishida jonbozlik ko'rsatgan rus harbiysi, 1876–1877-yillarda Farg'ona viloyati harbiy gubernatori.

² Vladimir guberniyasi – 1796–1929-yillarda Rossiya imperiyasi tarkibidagi ma'muriy hududiy birlik; hozirda taxminan, Vladimir viloyatiga to'g'ri keladi.

³ N. Golovachyev – 1868-yili Buxoro amirligini bosib olishda jonbozlik ko'rsatgan rus harbiysi, 1868–1873-yillarda Sirdaryo viloyatining harbiy gubernatori.

⁴ Go'ktepa – hozirgi turkmaniston poytaxti Ashxoboddan 45 km masofada joylashgan harbiy istehkom.

Qadim Samarqand va yuqori Zarafshon daryosining yuqori bo'imi Rossiya ixtiyoriga o'tishi katta yo'qotish bo'ldi. Negaki, asosiy suv manbaysi bo'lmish Zarafshon daryosi – obi hayot ta'minoti bosqinchilar qo'liga o'tib ketgandi.

Buxoro amirligi hududida rus fuqarolari erkin savdo qilish huquqiga ega bo'ldilar. Rus savdogarlari va sanoatchilariga esa istalgan joyda savdo shirkatlari ta'sis etish imkoni berildi, ularning savdo mahsulotiga 2,5 foiz soliq belgilanib, amirlik hududidan boshqa davlatlarga bemalol olib o'tishga ruxsat etildi. Mamlakatdagi ruslarning xavfsizligini ta'minlash Amir hukumatiga yuklatildi. Amir 125 ming oltin tanga miqdorida tovon to'lashga majbur bo'ldi.

1873-yil 23-sentabrda K.Kaufman amir Muzaffar bilan imzolagan, 18-moddadan iborat shartnoma yanada ayanchli bo'lib, unga ko'ra, amirlik o'z siyosiy mustaqilligidan va hududining ma'lum qismidan, xususan, Jizzax, Xo'jand, Samarqand, Kattaqo'rg'on va Zarafshon daryosining yuqori qismidagi yerlaridan mahrum bo'ldi.

1873-yilda Xiva xonligining Rossiya imperiyasi tomonidan zabt etilishi natijasida o'sha yili avgust oyida Rossiya – Xiva sulhi imzolangach, oradan bir oy o'tmay, Rossiya–Buxoro shartnomasi ham yangilandi. Unga ko'ra, Amudaryoning o'ng qirg'og'ida joylashgan, Xiva xonligiga qarashli bo'lgan yerlarning Rossiya tomonidan egallanishi va bu yerlarning bir qismi ikki xonlik o'rtasiga nizo solish niyatida Buxoro amirligiga berilishi go'yoki shartnomani yangilashga bahona bo'ldi. Aslida esa, shartnoma Rossiyaning Buxoro amirligidagi huquqlarini yanada kengaytirdi, unga ko'ra rus fuqarolari Buxoro amirligining istalgan yerida ko'chmas mulk, uy-joy qilish, yashab faoliyat ko'rsatish huquqiga ega bo'ldilar. Rus savdogarlari nafaqat amirlik hududida, balki Amudaryoning Buxoroga tegishli qismida, daryo sohillarida ham erkin harakat qilish huquqini oldilar.

Rossiya–Buxoro shartnomasining maxfiy, ya'ni oshkor etilmagan sharti ham mavjud bo'lib, unga ko'ra, Buxoro amirligining Rossiyaga butkul qaramligi va tobeligi e'tirof etilgan. Amir Rossiya siyosatining itoatkor ijrochisiga aylandi, mamlakatda nafaqat tashqi aloqalar, balki ichki boshqaruvda ham Rossiya imperiyasining tazyiq va nazorati yil sayin kuchayib, qo'shimcha qonun-qoidalar bilan mustahkamlanib bordi. Buxoro amiri bu davrda hokimiyatdan mahrum bo'lib, uning ixtiyorida besh-olti nafar qozi, raislarni tayinlash, bo'shatish va Rossiya xazinasiga topshirish uchun soliqlar undirishdan boshqa ishi qolmagan edi.

1886-yil yanvarda Rossiya imperatori Aleksandr III¹ farmoni bilan Buxoroda «Rossiya imperatori siyosiy agentligi» ta'sis etildi. Tashqi ishlar vaziri

¹ Aleksandr III – 1881–1894-yillarda Rossiya imperatori.

tomonidan siyosiy agent tayinlandi. U Turkiston general-gubernatorligi va Rossiya harbiy vazirligi hamda Rossiya tashqi ishlar vazirligiga bo'ysunar edi. Unga Rossiya–Buxoro munosabatlarini yo'lga qo'yish, sulh shartnomalarining bajarilishini nazorat qilish, afg'on chegarasini kuzatish, amirlikdagi Rossiya fuqarolarini himoya qilish, Zarafshon daryosi suvini taqsimlash, rus shaharlarini boshqarish, Rossiya fuqarolarining muammolarini hal etish kabi vazifalar topshirilgan edi.

Aslida Siyosiy agentlik bu vazifalardan tashqari amirning har bir xatti-harakatini, ichki siyosatini qattiq nazorat qilib, bu haqda Turkiston general-gubernatorligiga, Rossiyaga xabar qilib turar, ichki siyosatiga bevosita aralashib, voqealar rivojiga o'z ta'sirini o'tkazib turardi.

Siyosiy agent amirlikda yashayotgan Rossiya imperiyasining fuqarolari hamda savdo-sanoat vakillarining manfaatlarini himoya qilishda katta huquqlarga ega bo'ldi. Rus fuqarolari va tadbirkorlari, ayniqsa, harbiylari Buxoroda yil sayin ko'payib bordi. Kerki, Chorjo'yda rus qo'rg'onlari qurildi, Termiz va Pattakesar qishlog'ida rus harbiy qismlari joylashtirildi. Bundan tashqari, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida amirlikda Yangi Buxoro (Kogon), Forob¹, Amirobod, Saroy kabi rus makonlari yuzaga keldi. Bu yerlarda rus tadbirkorlari, savdogarlari, amaldorlari va ularning oilalari yashagan. Ularning boshqaruvi Siyosiy agentga yuklatilgan. Bu shaharlarda banklar, sanoat korxonalari, rus maktablari, aloqa va tibbiyot xizmati tashkil etildi. 1898-yilgi aholi ro'yxatiga ko'ra, amirlikda 12150 nafar rus fuqarolari yashagan bo'lsa, XX asr boshiga kelib, ularning soni 60 000 ga yetdi, ular orasida ruslardan tashqari armanlar, tatarlar, yahudiylar ham bo'lgan. Bu davrga kelib, Buxoro xonligida yana, taxminan, 8000 rus harbiylari joylashtirildi.

1873-yilda imzolangan Rossiya–Xiva sulh shartnomasi shartlariga ko'ra, Muhammad Rahimxon II ruslarning barcha talablarini bajarishga, o'zini Rossiya imperatorining «sodiq xizmatkori» deb tan olishga majbur bo'ldi. Shu tariqa, xonlik o'zining siyosiy mustaqilligini yo'qotdi, Muhammad Rahimxon Rossiya podshosiga qaram, deb e'lon qilindi. Amudaryoning o'ng tomonidagi yerlar o'sha yerda yashayotgan barcha o'troq va ko'chmanchi aholisi bilan birga Rossiya tarkibiga o'tdi. Rossiya imperatorining xohishiga binoan, xonlikning Amudaryo o'ng sohilidagi yerlarining bir qismi, ya'ni Mishoqlidan Ko'gartligacha bo'lgan yerlari mang'itlar ixtiyoriga berilib, bu hududdan o'tgan savdo yo'llarining xavfsizligini ta'minlash majburiyati Buxoro zimmasiga yuklatildi.

¹ Forob – hozirgi Turkmanoboddan 8 km shimoli-sharqda, Amudaryoning o'ng qirg'og'ida joylashgan makon.

Sulh shartnomasida Amudaryoda Rossiya hukumatining ruxsatisiz Xiva va Buxoro kemalarining suzishi taqiqlangan bo'lib, bu shart Amudaryoda rus kemalarining tanho hukmronligini ta'minlab berdi. Shuningdek, shartnomaga ko'ra, Amudaryoning so'l sohilida ruslar o'zlari uchun qulay va zarur deb hisoblagan joylarda kemalar to'xtaydigan bandargohlar qurish huquqiga ega bo'ldilar. Ularning xavfsizligini ta'minlash esa xonlik hukumati zimmasiga yuklandi.

Bundan tashqari, Xorazmning barcha shahar va qishloqlari rus savdogarlari uchun ochiq deb e'lon qilindi. Butun xonlik bo'ylab rus savdogarlari va karvonlari erkin yurish, mahalliy hukumatning alohida homiyligidan foydalanish huquqiga ega bo'ldilar, ularning xavfsizligini ta'minlash ham xonlik hukumati zimmasiga yuklandi. Ayni paytda xonlik hududida savdo qiluvchi rus savdogarlari zakot va boshqa turli xil savdo majburiyatlaridan ozod qilingan edi. Xonlik hududi orqali boshqa davlatlarga tovar olib o'tuvchi Rossiya fuqarolari ham boj to'lovlaridan ozod qilindilar. Shuningdek, rus savdogarlari xonlikning barcha shaharlarida o'zlarining ishonchli vakillarini tayinlash huquqiga ega bo'ldilar.

Rossiya fuqarolari Xorazm bo'ylab ko'chmas mulk sotib olish huquqiga ham ega edilar. Rossiya savdogarlariga xonlikda katta imtiyozlar berilib, ular bilan xonlik mahalliy savdogarlari o'rtasida noteng raqobat muhiti vujudga keltirildi. Shartnomada xonlik zimmasiga to'lanishi lozim bo'lgan ikki million ikki yuz ming so'm tovon puli yuklatilgan edi.

Turkiston general-gubernatorligining harbiylashtirilgan boshqaruvi. Turkistonda Rossiya imperiyasi hukmronligi o'rnatilgan hududlarda tarixan shakllangan an'anaviy-hududiy boshqaruv tizimiga barham berilib, mustamlakachilik manfaatlariga va munosabatlariga asoslangan ma'muriy boshqaruv, huquqiy, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimi qaror topdi.

Dastlab 1865-yil 2-martda Rossiya Senatining Turkiston o'lkasi shimolida bosib olingan yerlarda Orenburg general-gubernatorligi tarkibida Turkiston viloyatini tashkil etish to'g'risidagi farmoni e'lon qilindi. Viloyatning ma'muriy markazi sifatida Chimkent shahri belgilandi.

1865-yil 6-avgustda Aleksandr II¹ «Turkiston viloyatini boshqarish haqidagi muvaqqat nizom»ni tasdiqladi. Turkiston viloyati ma'muriyatining boshlig'i sifatida harbiy gubernator lavozimi ta'sis etildi. Imperator tomonidan tayinlangan viloyat harbiy gubernatoriga bir paytning o'zida ham harbiy, ham fuqarolik hokimiyati topshirildi.

¹ Aleksandr II – 1855–1881-yillarda Rossiya imperatori.

Ushbu boshqaruv tizimida an'anaviy boshqaruv institutlari, jumladan, oqsoqol, rais, zakotchi singari lavozimlar saqlanib qolingan edi. Ular mahalliy aholiga ma'muriyat buyruqlarini yetkazish va bajarish, mirshablik xizmati, aholidan soliq yig'imlarini to'plash kabi vazifalarni bajarganlar. Viloyat tarkibiga kiruvchi shaharlarda bu majburiyatlarni rus armiyasi zobitlaridan tayinlangan hokimlar bajarganlar.

1866–1867-yillarda olib borilgan harbiy yurishlar natijasida bosib olingan hududlar kengayishi munosabati bilan 1867-yil 11-iyulda Rossiya imperiyasi tarkibida Turkiston general-gubernatorligini tashkil etish haqida imperator farmoni e'lon qilingan. Turkiston general-gubernatorligi dastlab 2 viloyatdan, ya'ni markazi Toshkent bo'lgan Sirdaryo viloyati va markazi Verniy shahri bo'lgan Yettisuv viloyatlaridan iborat edi.

Keyingi yillarda Rossiya imperiyasining Buxoro va Xiva xonliklariga uyushtirgan hujumlari natijasida bosib olingan hududlar geografiyasi tobora kengayib bordi. Jumladan, 1868-yilda markazi Samarqand shahri bo'lgan Zarafshon okrugi, 1873-yilda markazi Petroaleksandrovsk' bo'lgan Amudaryo bo'limi, 1876-yilda markazi Yangi Marg'ilon shahri bo'lgan Farg'ona viloyati tashkil etildi.

1867–1886-yillarda Turkiston general-gubernatorligi viloyatlar va uyezd-larga bo'lib boshqarilgan.

XIX asming oxirlariga kelib, Turkiston general-gubernatorligi 5 ta viloyat – Sirdaryo, Samarqand, Farg'ona, Kaspiyorti va Yettisuvga bo'lib boshqariladigan yirik mustamlaka o'lka edi. Uning maydoni 1738918 kv km, aholisi esa 5280983 kishidan iborat bo'lgan. Rossiya statistika boshqarmasi tomonidan to'plangan ma'lumotlarga ko'ra, 1911-yilga kelib, o'lka aholisi soni 6,5 million kishiga yetgan.

Turkistonda dastlabki kunlardanoq harbiylashtirilgan mustamlaka boshqaruviga asoslangan ma'muriy boshqaruv tizimi shakllantirildi. Boshqaruv tizimining eng tepasida turgan general-gubernator imperator tomonidan tayinlangan va xizmat mavqeyiga ko'ra Harbiy vazirlikka bo'ysungan. General-gubernatorga «barcha siyosiy, chegara va savdo masalalari, Rossiyaning qo'shni hududlar bilan aloqalariga doir muzokaralar olib borish, shartnomalar imzolash uchun ishonchli vakillarni jo'natishga oid ishlarni hal qilishda» cheklanmagan vakolatlar berilgan.

Viloyat boshliqlari harbiy gubernator deb yuritilgan va harbiylardan tayinlangan. Ular viloyat ma'muriyati bilan bir paytda hududdagi harbiy qo'shinlarni ham boshqarganlar. 1886-yilga qadar Zarafshon okrugi va Amudaryo bo'limining boshliqlariga ham shunday keng vakolatlar berilgan.

¹ Petro-Aleksandrovsk – 1873-yili Xiva xonligi Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingach, To'rtko'l qo'rg'oni o'mida tashkil etilgan harbiy istehkom.

Viloyat boshqarmasi tarkibida idoraviy, xo'jalik va sud ishlari bo'limlari, 1880-yillar o'rtalaridan boshlab qurilish, qishloq-shifokorlik, veterinar, yer-soliq, davlat mulkini boshqarish va buxgalteriya bo'limlari tashkil etilgan.

Boshqaruvning keyingi bo'g'ini uyezd boshqarmasi bo'lib, ular ham harbiy unvonga ega shaxslardan tayinlangan va bir vaqtning o'zida ham shahar boshlig'i, yer-soliq munosabatlarining raisi, politsmeyster va uyezdga joylashtirilgan qo'shinlar qo'mondoni hisoblangan.

Boshqaruvning eng quyi darajasi – volost va qishloq boshqaruvi mahalliy aholi vakillariga topshirilgan. Volost' jamoasi bir mingdan ikki minggacha xonadon va o'tovlardan, qishloq jamoasi esa 200 tagacha xonadondan iborat bo'lgan.

1886-yil 12-iyunda rasman tasdiqlangan «Turkiston o'lkasini boshqarish haqidagi nizom» Turkiston general-gubernatorligi hududini boshqarish uchun yagona qonuniy hujjat vazifasini bajarib, ayrim o'zgarishlar bilan 1917-yilgacha amalda bo'ldi.

Sud tizimi. 1865-yilda qabul qilingan «Turkiston viloyatini boshqarish haqidagi muvaqqat nizom»da viloyat harbiy gubernatori zimmasiga an'anaviy musulmon sud muassasalarini nazorat qilish vazifasi ham yuklatilgan. Ma'muriy va sudlov tizimini o'z qo'lida birlashtirgan harbiy gubernator huzurida harbiy sud komissiyasi tuzilgan edi.

O'lkadagi an'anaviy sudlov tizimiga ham nihoyatda ehtiyotlik bilan yondashuv yo'li tanlandi. An'anaviy qozilik tizimi bir oz o'zgartirilgan tartibda, «xalq sudlari» sifatida ish olib bora boshladi, ularga fuqarolik va jinoiy ishlarni avvalgidek shariat qoidalari asosida ko'rib chiqish vakolati berilgan, ammo ular harbiy gubernator tomonidan tayinlangan va bo'shatilgan. Qozilar va biylar uch yil muddatga saylanar, viloyat harbiy gubernatorlari tomonidan tasdiqlanar hamda uyezd boshliqlarining va uchastka pristavlarining nazorati ostida turar edi.

Yangi joriy etilgan saylov tizimi shartlarida qozilik va biylik lavozimiga nomzodlarning bilim darajasiga tegishli aniq talabning yo'qligi katta muammolarga olib kelgan. Ko'p hollarda qozilik va boshqa mahalliy amaldorlar kursisi pulga sotib olingani, bu esa adolatsizlik va poraxo'rlikka yo'l ochib bergani mahalliy davriy nashrlarda M.Behbudiy, S.Abdulg'afforov¹ tomonidan qattiq tanqid qilingan.

¹ S.Abdulg'afforov – ma'rifatparvar, 1864-yilgacha Chimkent shahar muftiysi, 1873–1876 yillarda Chimkentdagi birinchi rus-tuzem maktabi o'qituvchisi, 1876–1881-yillarda Qo'qon shahri qozisi, 1883-yili «Turkiston viloyati gazetisi»da, 1884–1889-yillarda Toshkent o'qituvchilar seminariyasida o'zbek va fors tillaridan dars bergan.

O'lkada tashkil qilingan harbiy sud tizimida «oliy hukumatga qarshi chiqqan», «politsiya amaldorlari va harbiy soqchilarga hujum qilgan va qurolli qarshilik ko'rsatgan» shaxslarning ishi ko'rilgan. Mahalliy aholi bilan hukumat o'rtasida qarama-qarshiliklar kuchaygan davrlarda nafaqat harbiy, balki tezkor harbiy-dala va maxsus sudlar faoliyat yuritgan.

Turkiston o'lkasini itoatda ushlab turishda jazo tuzilmalari muhim o'rin tutgan. 1881-yil «Nizom»iga ko'ra, hukumat lozim topgan paytda «kuchaytirilgan va favqulodda himoyalani choralari» joriy etilgan. 1892-yildan boshlab Turkiston deyarli hamma vaqt, «kuchaytirilgan» yoki «favqulodda» himoya holatida bo'lgan. O'lka boshlig'iga har qanday jamoat va hattoki, xususiy yig'inlarni taqiqlash, «istisno choralar vaziyatini» e'lon qilish, ayrim jinoyiy ishlarni harbiy sudlarga oshirish, zarur bo'lganda «qurolli kuchlarni ishga solish»ga huquq berilgan.

1907-yilda tuzilgan Turkiston hududiy qo'riqlash bo'limi nafaqat o'lka viloyatlari, balki Buxoro va Xorazm hududlarida ham maxfiy josuslar orqali ish olib borgan. Bu davrda barcha shahar va qishloqlarda o'nlab fuqarolik va harbiy turmalar qurildi.

Shu tariqa Turkiston o'lkasida harbiy kuch va qurol bilan boshqariladigan mustamlakachilik hamda ulug' millatchilikka asoslangan siyosiy-ma'muriy tizim yaratildi va hukm surdi. Rossiya imperiyasi o'zbek va boshqa xalqlarga siyosiy, insoniy huquqlar berishni xayoliga ham keltirmagan. Rossiya matbuoti va ilmiy asarlarida Turkiston o'lkasi ochiqdan-ochiq «Rossiya mustamlakasi» nomi bilan qayd etilar, tub xalqlar esa «begona zot» (inorodets), «yerli aholi» (tuzemets) deb yuritilar edi.

Iqtisodiy hayot. Turkistonda yer munosabatlariga oid qoidalarni belgilashda 1886-yilda qabul qilingan «Turkiston o'lkasini boshqarish haqidagi nizom» huquqiy asos bo'ldi. Unga ko'ra, qishloqlardagi o'troq aholi ular tasarrufiga foydalanish uchun berilgan amlok yerlarga yoki avlodlardan meros qolgan yerlarga egalik huquqini saqlab qoldi. Mahalliy odatlardan kelib chiqqan holda yerlardan jamoa yoki hovli-joy sifatida foydalanish va olib sotishga ruxsat berildi. Xristian diniga mansub bo'lmagan chet ellik aholiga Turkistonda yer va ko'chmas mulkka ega bo'lish taqiqlandi. Shahar aholisiga tegishli bog' yerlariga xususiy mulk sifatida egalik huquqi saqlab qolindi. Ko'chmanchi aholiga tegishli yerlar «davlat mulki» deb e'lon qilinib, jamoa asosida foydalanishga berildi.

Yangi tartib-qoidalar Turkistonda Rossiya imperiyasiga qarashli yer jamg'ar-masini tashkil etishda muhim omil bo'ldi. Turkistonning Samarqand, Sirdaryo

va Farg'ona viloyatlaridagi 63,9 mln desyatina yerdan 58,6 mln desyatina davlat yer jamg'armasiga o'tkazildi. Mazkur yerdan olingan yer solig'i davlat daromadining katta qismini tashkil etib, undan keladigan daromad yil sayin ko'payib bordi va 1869-yildan 1890-yilgacha 5 barobar, 1910-yilgacha 10 barobar ortdi.

O'lkada davlat yer jamg'armasini tashkil etishdan ko'zlangan maqsadlar faqatgina soliqlardan daromad olish bilan cheklanmay, bu yerda hukumatga tayanch kuchi sifatida rus aholi punktlarini vujudga keltirishga ham qaratilgan edi. Shu maqsadda o'lkaga rus fuqarolari ko'chib kelishiga ruxsat etilgan bo'lib, 1903-yil 10-iyulda qabul qilingan «Sirdaryo, Samarqand va Farg'ona viloyatlaridagi davlat yerlariga qishloq aholisini ixtiyoriy ko'chirish haqida» maxsus qonun asosida bu jarayon nihoyatda faollashdi, mahalliy aholiga tegishli yerlarni «ortiqcha yerlar» sifatida tortib olish kuchayib, unga qonuniy tus berildi. XX asr boshiga kelib, Turkistonga ko'chib kelganlar soni 437 000 kishini tashkil etdi. Birgina Sirdaryo viloyatida 263 ta rus posyolkalari tashkil qilindi.

Hukumat davlat yer jamg'armasiga olingan yerlarni ijaraga berish orqali katta daromadga erishdi. Ayniqsa, paxtachilik intensiv kengayib borgan Farg'ona viloyatida tashkil etilgan davlat yer jamg'armasi xususiy kishilarga ijaraga berilib, katta daromad olingan. Shu tariqa, 1886-yilgi nizom davlat yer jamg'armasini tashkil etish va kengaytirishda katta rol o'ynadi. Shuningdek, amlok yerlarining katta qismi meros egaligi huquqi bilan bu yerlarda ishlatayotgan shaxslar qo'liga o'tdi. Ayni paytda katta sarmoyadorlardan yerlarni sotib olib, yirik yer egalariга aylanish imkonini yaratib berdi. Bu holat «paxta vasvasasi» kuchaygan 80–90-yillarda, ayniqsa, avj oldi, mahalliy va Rossiyadan kelgan yirik sarmoyadorlar uchun paxta yetishtirish, uning savdosini monopoliyaga aylantirishga sharoit yaratdi.

Yer solig'i. 1870-yilda xiroj, tanob hamda o'troq aholidan olinadigan boshqa yig'imlar bekor qilinib, ularning o'rniga yer solig'i kiritilgan. Bu soliqning chegarasi dastlab 288 504 rubl miqdorida belgilangan.

1871-yilda soliq hajmi 367 208 rublni tashkil qilgan va keyingi yillarda 5–10 foizdan ko'payib borgan.

Imperiyaning o'lkadan soliqlar hisobiga daromadi yil sayin ortib borgan. Umuman olganda, Turkiston o'lkasi aholisidan olinadigan soliqlarning asosiy qismi yer va chorva soliqlariga to'g'ri kelar edi.

Suv xo'jaligi va sun'iy sug'orish tizimi. Turkiston o'lkasini boshqarish haqidagi Nizomga ko'ra ariqlar, kanallar va daryolardagi suv rus davlatiga tegishli bo'lib, aholiga o'rnatilgan tartib bo'yicha undan foydalanish huquqi berildi, sug'orish uchun suvdan foydalanishni nazorat qilish mahalliy ma'muriyatga yuklatildi. Jamoa va shaxslar tomonidan ariqlarni qazish va ular orqali daryo hamda ko'llardan suvni yangi, sug'orilmagan yerlarga o'tkazish faqat

ma'muriyat ruxsati bilan amalga oshiriladigan bo'ldi. Lekin sug'orish tizimini ta'mirlash, miroblarga maosh to'lash, yangi ariq, kanallar qurish, xalq zimmasidagi og'ir yuk bo'lib qolaverdi.

Turkistonga eng avvalo arzon xomashyo, xususan, paxta xomashyosi manbai sifatida qaragan Rossiya imperiyasi mustamlakachilikning dastlabki yillardanoq sug'orish tarmoqlarini rivojlantirishga hamda paxta uchun yangi yerlarni o'zlashtirish masalasiga katta e'tibor qaratdi. Ya'ni yangi sug'orish inshootlari ko'proq paxta yetishtirib, xomashyoni olib chiqib ketish maqsadida yaratilgan.

Sug'orish tizimini kengaytirish va ta'mirlashda paxtachilik uchun muhim obyekt hisoblangan Farg'ona vodiysiga alohida e'tibor berildi. Ulug'nor, Bobog'ozni ariqlari kengaytirildi hamda Tungiotar va Teshiktosh to'g'onlari qurildi. Musulmonqul arig'i ham xalq kuchi bilan tiklangan. Kampirravot, Shahrixonsoy va Andijonsoyda xalq hasharlari uyushtirildi. Biroq sun'iy sug'orishni rivojlantirishga qaratilgan barcha ishlar nihoyasiga yetkazilmadi.

Samarqand viloyatida Zarafshon Tuyatortar arig'i 1912-yili 100 ming hasharchining mashaqqatli mehnati evaziga bir yarim oy davomida qayta tiklandi.

Hukumat metropoliyadan ko'chib kelayotgan kishilarni joylashtirish uchun Mirzacho'lni o'zlashtirishga e'tiborni qaratdi. XIX asrning 70-yillarida Xo'jand uyezdiga qarashli Sirdaryoning so'l qirg'og'ida «Kaufman kanali»ni bunyod etishga kirishilib, olti yil davomida mashaqqatli mehnat bilan 13 km masofada tuproq qazish ishlari olib borildi.

Toshkent atrofida va Mirzacho'lda sun'iy sug'orish inshootlarini qurishda kenas N.Romanov¹ «jonbozlik» ko'rsatgan. Uning boshchiligida Chirchiq daryosidan «Iskandarbek», «Xonim» kanallari qazilib, yangi suv inshootlari atrofida rus posyolkalari tashkil qilindi. 1887-yilda Mirzacho'lda o'z hisobidan «Nikolay I» kanalini, 1891–1895-yillarda Mirzacho'lda 90 km uzunlikdagi «Xiva arig'i»ni qazirdi. 1885–1890-yillarda Mirzacho'lda 28 chaqirim uzunlikdagi «Buxoro kanali»ni qurish bo'yicha olib borilgan ishlar mablag' yetishmasligi sababli to'xtatildi.

Kenas N.Romanov qazdirgan kanallar orqali 22,8 foiz uning o'ziga tegishli yerlar, 22,8 foizi rus aholisiga tegishli, 45 foizi rus hukumatiga qarashli va bor-yo'g'i 8,8 foizi o'zbek va qozoqlarga tegishli yerlar sug'orilgani – yangi suv yo'llaridan kimlar naf ko'rganligini yaqqol ko'rsatadi.

N.Romanov tomonidan Mirzacho'lda qurilgan sug'orish tarmoqlari atrofida tashkil qilingan 581 ta xo'jalikdan 578 tasi Rossiyaning markaziy gu-

¹ N.Romanov – Aleksandr II ning o'g'li.

berniyalaridan ko'chirib keltirilgan rus dehqonlari xo'jaliklaridan iborat edi. Demak, Rossiya imperiyasi hukmron sulolasi vakilining sun'iy sug'orish bo'yicha harakatlari shaxsiy manfaat, Turkistonni ruslashtirish hamda rus hukumati foydasini ko'zlab amalga oshirilgan edi.

Dehqonchilik. Turkistonda arzon xomashyoga egalik qilish, katta daromad orttirish orzusida bo'lgan rus sarmoyadorlari va hukumati, eng avvalo, o'lkada Amerika paxtasini iqlimlashtirishga kirishdilar. Chunki Turkistonda yetishtirilgan paxtaning «malla g'o'za» va «qizil po'choq» mahalliy navlari Rossiya to'qimachilik sanoati talablariga javob bermas edi.

1871-yilda Samarqandda paxta tajriba xo'jaligi tashkil qilinib, Si-Aylend nomli Amerika paxta navi urug'lari ekildi. Rus sarmoyadorlari «Turkiston paxtachilik sanoati shirkati» tuzdilar. Turkiston hududida paxta maydonlarini tashkil qilish avj oldi, Amerikadan mutaxassislar, yangi texnika jalb etildi. Farg'ona vodiysida, Kaspiyorti viloyatlarida paxta maydonlari tashkil etilib, Amerika paxta navi iqlimlashtirildi. O'lkada paxtachilikdan mo'may daromad olish mumkinligini yaxshi anglagan rus sarmoyadorlari katta maydonlarni egallab oldilar. Shu tariqa «Turkistonni «paxta vasvasasi» qamrab olgandi. Savdogarlar, amaldorlar, zobitlar hamda ma'muriyat vakillarining qaysi birida mablag' bo'lsa, ekin maydonlari va paxta tozalovchi korxonalarini barpo etishga kirishib ketdilar».

Amerika paxta navlari avval tajriba xo'jaliklarida iqlimlashtirilib, sinovdan o'tgan yangi nav paxta urug'lari Farg'ona, Samarqand viloyatlariga tarqatilar edi. 1902-yilda paxtachilikni rivojlantirish dasturi qabul qilindi. 1907-yilda paxtachilikni rivojlantirishga doir vazifalarni amalga oshirish maqsadida «Paxta qo'mitasi» yuzaga keldi.

Shu tariqa amerika paxta navlari Rossiya to'qimachilik sanoati talablariga har jihatdan moslashtirilgach, paxta ekilgan yer maydonlari yil sayin ortib bordi va Turkiston o'lkasi Rossiya imperiyasining paxta xomashyosi manbayiga aylantirildi.

Birinchi jahon urushi arafasida esa Buxorodan Rossiyaga 2624000 pud paxta olib ketilgan. Umuman olganda amirlikdan metropoliyaga chiqariladigan mollarning 40 foizini paxta tashkil qilar edi. Paxta tajriba xo'jaliklarida, maydonlarda, shu jumladan, o'zlariga qarashli yerlarda ham Amerika paxta navlarini iqlimlashtirish bo'yicha asosiy mehnat mahalliy dehqonlar zimmasida edi.

Turkistonda pillachilik sohasi ham mustamlakachilar uchun katta boylik manbayiga aylangan edi. 1880–1890-yillarda Farg'ona vodiysida pilla urug'i yetishtiruvchi xo'jaliklar ishga tushirilib, Fransiya va Turkiyadan keltirilgan urug'lar iqlimlashtirildi. Yangi urug'lardan olingan ipakning sifati yuqori bo'lib, to'qimachilik sanoati talablariga mos tushar edi.

Farg'ona vodiysida jami 7 ta pilla korxonasi faoliyat yuritgan. Pilla yetishtirishda Marg'ilon, Qo'qon va Andijon uyezdlari salmoqli o'rinni egallaganlar. Urug'chilik korxonalarida ishchilarning 91,5 foizini o'zbeklar tashkil etgan. Korxonalarda o'zbek ayollari bilan bir qatorda ularning bolalari ham mehnat qilganlar.

Farg'ona viloyati pilla quritish korxonalarida yetishtirilgan xomashyo xorijga – Italiya, Fransiya va Turkiyaga yuborilgan. Mahsulotni chetga chiqarish 1899-yilda 9 ming pud bo'lsa, 1908-yilda 69 ming 432 pudga yetgan. Hunarmandlar pillaning viloyatda qolgan qismidan mahalliy ehtiyojlar uchun gazlamalar to'qiganlar. Bu kasb, ayniqsa, Marg'ilon shahrida rivojlangan bo'lib, bu shahar Farg'ona vodiysining pillachilik markazi hisoblangan.

1873-yilda Toshkentda pillachilik kasbi bo'yicha maxsus maktab, 1885-yilda esa pilla qurti urug'ini yetishtiradigan xo'jalik ishga tushirildi. Pillachilik va ipakchilik, ayniqsa, Farg'ona vodiysida keng rivojlangan bo'lib, viloyat o'lkada yetishtiriladigan pillaning asosiy qismi – 80–85 foizini yetkazib bergan.

XIX asr oxiriga kelib, buxorolik to'quvchilar ipak va yarim ipak matolar ishlab chiqarishga o'ta boshladilar. Buxorolik ustalar tayyorlagan ipak matolar juda xaridorgir edi. XX asr boshiga kelib shaharda 30 ga yaqin ipak to'qish ustaxonalari bo'lib, ularda yuztagacha to'quvchi ishlagan. Keyinchalik ipak yigirish ustaxonalarining soni 46 taga yetadi, ularning har birida 200 tagacha ishchi ishlar edi. «Moskva–Toshkent» shirkati Turkiston general-gubernatorligi, Buxoro, Xorazm hududlarida ipakchilik korxonalarini tashkil qilib, ko'plab miqdorda sifatli ipak va ipak matolarni Rossiya bozorlariga yetkazib bergan.

Turkistonda asrlar davomida shakllangan bog'dorchilik ilgari, asosan, mahalliy ehtiyojlar uchun xizmat qilgan bo'lsa, bu davrda katta daromad manbayiga aylandi va metropoliya shaharlariga katta hajmda jo'natiladigan bo'ldi. Rossiya sarmoyadorlari o'lkada bog'dorchilikka ixtisoslashgan savdo uylari, bog'dorchilik xo'jaliklari tashkil qilib, davlat xazinasiga daromad solig'i to'lashdan tashqari o'zlari ham katta foyda ko'rdilar.

Turkiston iqtisodiy hayotida chorvachilik ham alohida o'rin tutgan. Umumiy ma'lumotlarga ko'ra, Turkistonda 1910-yilda 21681000 bosh chorva hisobga olingan. Chorvaning go'shtidan tortib, terisi, juni, hatto, ichakchavog'igacha talab katta bo'lgan. 1883-yilda chet el shirkatlarining vakili sifatida o'lkaga kelgan G.Dyurshmidt ichak sotib olish bilan shug'ullanib, Samarqandda ichak korxonasi qurdiradi. Uning shirkati o'lkada keng faoliyat olib borib, qisqa vaqt ichida Dyurshmidt katta boyga aylandi.

XX asrning boshlariga kelib, o'lkada chorvachilikdan keladigan umumiy daromad 58,3 mln rublni tashkil etgan.

Qorako'lichilik katta daromad manbayiga aylangan. Qorako'l terilari metropoliya bozorlariga va ular orqali Kavkazga, Eronga, hatto, G'arbiy Yevropa va Amerikaga yetib borgan. Bu terilar, asosan, Qorako'l bekligida, shuningdek, Qarshi, Chorjo'y bekliliklarida ham yetishtirilgan. Bir yilda 1 mln 200 ming donagacha qorako'l terisi jahonda yetakchi o'rinlarda turgan Nijegorod yarmarkasi orqali sotilgan.

Dehqonchilikda paxtaga ixtisoslashish jarayonining kuchayishi oqibatida Turkistonda bug'doy va sholi ekish tobora kamayib, natijada g'alla tanqisligi yuzaga keldi. Bu esa o'z navbatida, g'allaning narxi oshib borishiga va g'alla bilan olib-sotarlikning kuchayishiga olib keldi. Turkiston g'alla mustaqilligini yo'qotib, Rossiyadan oziq-ovqat olib kirishga majbur bo'ldi. Natijada, g'allaning narxi nazoratsiz ravishda oshirib yuborildi.

Birinchi jahon urushi yillarida g'alla yetishtirish yoki uni Rossiyadan keltirish yanada kamayib, 1915-yilda Turkiston bo'yicha 12 mln pud g'alla yetishmovchiligi kuzatildi. Oqibatda, birinchi jahon urushi yillarida g'allaning bahosi keskin oshib ketdi. O'lkadan nafaqat paxta, balki chigit, kunjara mahsulotlarining uzluksiz olib ketilishi ham dehqon xo'jaliklariga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Shu tariqa, Turkiston Rossiya imperiyasining to'liq xomashyo manbayiga aylanib, aholining metropoliyaga iqtisodiy qaramligi keskin kuchaydi.

Temir yo'llar qurilishi. Turkistonning tabiiy boyliklari va xomashyo imkonlaridan metropoliyaning tobora oshib borayotgan sanoat ehtiyojlarini qondirish yo'lida asosiy muammolardan biri ashyo va mahsulotni tashish muammosi edi. Turkistonga temir yo'l o'tkazilishi Rossiya imperiyaning o'lkadagi mavqeyini mustahkamlashi uchun ham zarur edi.

Shuningdek, o'lkani Rossiya hududi bilan temir yo'llar vositasida bog'lashni imperiyaning harbiy-strategik, siyosiy va iqtisodiy ehtiyojlari taqozo qila-yotgan edi. Bu davrga kelib, ingliz-rus munosabatlari keskinlashganligi tufayli imperiya hukumati o'zining sharqiy chegaralarini mustahkamlab olish uchun 1880–1881-yillarda Kaspiy dengizining Mixaylovsk qo'ltig'idan Samarqandgacha bo'lgan 1335 verst uzunlikdagi Kaspiyorti temir yo'lini barpo etdi. 1895–1898-yillarda Samarqand–Andijon, Toshkent, Qo'qon, Marv, Kushkagacha bo'lgan masofada temir yo'l qurildi. Kaspiyorti harbiy temir yo'li Samarqand–Andijon yo'li bilan birlashtirilib, Turkiston temir yo'li, deb nomlandi. Turkiston temir yo'lining harbiy-strategik ahamiyati shundan iborat ediki, avvalambor, u Kaspiy dengizining sharqiy qirg'oqlarini himoya qilishda, turkmanlarni bo'ysundirib, Marv va Axaltakada o'z hukmronligini o'rnatishda katta rol o'ynadi, imperiyaning Kavkazortidagi siyosiy mavqeyini mustahkamladi. Turkistonni Afg'oniston va Erondan ajratib turgan barcha chegara hududlarida harbiy garnizonlar qo'yilishi rus hukumatining Angliya bilan munosabatlarda xotirjamlikka erishishiga omil bo'ldi.

Turkiston temir yo'li o'lka boyliklaridan Rossiyaning sanoat manfaatlari uchun foydalanishda keng imkoniyat yaratdi. Biroq Turkiston temir yo'li Rossiyaning markaziy sanoat rayonlari bilan bog'lanmagan, uzoq va aylanma yo'l edi. Aynan shu holat Toshkent–Orenburg yo'nalishida temir yo'li qurish zaruratini taqozo etdi. 1901-yilning 21-aprelida Toshkent–Orenburg temir yo'li loyihasi uzil-kesil ma'qullanib, yo'l bir vaqtning o'zida ikki tomondan Orenburg va Toshkent shahridan qurila boshlandi va 1906-yilning 1-yanvarida to'liq foydalanishga topshirildi. Temir yo'llarning qurilishi imperiya markazi bilan Turkiston o'lkasi o'rtasidagi masofani yaqinlashtirishi natijasida har ikkala o'rtada yuk va yo'lovchi tashish tobora oshib bordi. Turkiston temir yo'li orqali Moskvaga 6,5 kunda, Toshkent yo'li orqali 4 kunda yetib borish imkoniyati paydo bo'ldi.

Turkiston temir yo'lining Samarqand–Andijon yo'nalishi qurilishi esa mintaqaning asosiy paxta bazasi bo'lgan Farg'ona viloyatini Rossiya sanoat mintaqalariga bog'lab, bu yerda paxta yetishtirishning yanada ko'payishiga sabab bo'ldi. 1911–1912-yillarda temir yo'lning Qo'qon–Namangan yo'nalishi, 1916-yilda Namangan–Jalolobod yo'nalishida yuk va odam qatnovi yo'lga qo'yildi. Bu yo'llar Farg'ona temir yo'li nomini oldi. Turkistonning paxta va pilla yetishtirish bo'yicha eng muhim xomashyo bazasi bo'lgan Farg'ona viloyatida temir yo'l tarmoqlarining barpo etilishi bu hududdan imperiya manfaatlari yo'lida foydalanish imkoniyatlarini yanada kengaytirdi.

Buxoroni ham metropoliya bilan bog'lash, mamlakat hududida imperiya manfaatlarini ta'minlash, ichki aloqalarni rivojlantirishda temir yo'llar qurilishi muhim rol o'ynadi. Rossiya imperiyasi hukumati temir yo'llarni Samarqandgacha yetkazish maqsadida 1885-yil 25-iyulida amirlik bilan shartnoma tuzib, yo'lni uning hududidan o'tkazishni rejalashtirdi va temir yo'l 1866-yilda Marvgacha, yil oxirida Chorjo'y va Amudaryogacha, 1888-yilda esa Samarqandgacha yetkazildi. 1901-yildan eski va Yangi Buxoro o'rtasidagi temir yo'l tarmog'i ishga tushirildi. 1910-yilda rus hukumati amir Abdulahad bilan Kogon–Termiz temir yo'lini qurishga kelishdi. U 1912-yilda ushbu temir yo'l uchun 600 desyatina yerni bepul ajratishga rozilik berdi. 1914–1916-yillarda temir yo'li qurilib, ishga tushdi.

Shu tariqa, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston hududini Rossiya bilan bog'lab turuvchi ikkita mustaqil temir yo'l tarmog'i barpo etildi. Turkiston va Toshkent temir yo'llari katta ahamiyatga ega bo'lib, ular davlat xazinasi hisobiga qurilgan edi.

Temir yo'llar Rossiya imperiyasining aholisi zich joylashgan hududlari aholisini Turkistonga ko'chirish siyosatini amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. XIX asrning 90-yillarida Rossiyadan o'lkaga ko'chirib keltirilganlarning 87 foizi temir yo'l bo'ylarida tashkil etilgan 116 ta aholi manzillarida istiqomat qilar edi.

Sanoat korxonalarining tashkil topishi. Mustamlakachilar o'lkada paxtachilikni rivojlantirish barobarida ushbu qimmatli xomashyoni qayta ishlash zaruriyati, xususan, paxta tozalash korxonalarini ko'paytirish kerakligini juda yaxshi anglaganlar.

Paxta savdosi bilan shug'ullanadigan shirkatlar Turkistonda paxta tozalash korxonalari qurishga kirishdilar. Shuningdek, paxtani qayta ishlash korxonalari soni ham ko'paydi. Masalan, 1908-yilda o'lkada ularning soni 204 ta bo'lgan bo'lsa, 1917-yilga kelib, 414 taga yetdi va Turkiston sanoatida paxta tozalash korxonalari son jihatdan birinchi o'ringa chiqdi. Natijada, o'lka sanoat ishlab chiqarishining 85 foizi paxtani qayta ishlash va chigitdan yog' ishlab chiqarishni tashkil etdi.

Korxonalarning ko'payib borishida arzon ishchi kuchining mavjudligi ham juda qo'l keldi. Korxonalar ishchilarining asosiy qismini qora ishlar bilan shug'ullanuvchi mahalliy aholi vakillari tashkil qildi.

Paxta tozalash korxonalaridan ko'p miqdorda chigit va chiqindi chiqishi yog' korxonalarini yuzaga keltirdi. Birinchi zamonaviy yog' korxonasi 1884-yilda tadbirkor S.I.Laxtin tomonidan Qo'qonda ishga tushirildi. Ishning samaradorligini oshirish maqsadida muhandislar tajriba o'rganish uchun Amerika va G'arbiy Yevropaga yuborildi, Amerikadan mashina va jihozlar keltirildi. 1910-yilga kelib Farg'ona viloyatida yog' korxonalari 14 taga yetdi.

Olingan yog' mahsuloti, asosan, Farg'ona va qisman boshqa viloyatlardan Rossiyaning Moskva, Samara, Nijniy Novgorod, Qozon, Saratov, Yaroslavl, Astraxan, Kostroma, Odessa, Rostov, Kiyev, Taganrog, Boku, Botumi, Novorossiysk shaharlariga, Sibir va boshqa joylarga uzluksiz jo'natib turildi.

Turkistonda sanoat ishlab chiqarishining o'ziga xos xususiyatlaridan biri paxta tozalash, jun yuvish, pilla quritish, ko'nchilik, ipakchilik va yog' ishlab chiqarish sanoati mahsulotlari, asosan o'lkadan tashqarida sotilganligida namoyon bo'ladi.

Buxoro amirligi markaziy shaharlarida vujudga kelgan ilk sanoat korxonalari paxta tozalash korxonalari bo'ldi. Birinchi jahon urushi arafasida amirlikda 50 tadan ortiq korxonalar mavjud bo'lib, shulardan yarmi xomashyoni qayta ishlovchi korxonalar edi. Xususan, ularning 26 tasi paxta tozalash, 4 tasi

yog'-moy, 1 tasi jun tozalash korxonalari edi. Shulardan 7 ta paxta tozalash korxonasi Amir hamda mahalliy tadbirkorlar qo'lida edi, xolos. Qolgan korxonalar va fabrikalar Rossiya savdo-sanoat sarmoyadorlari mulki edi. Xorazmdagi 9 ta paxta tozalash korxonasida minglab pud paxta tozalangan. 1916-yilga kelib korxonalarning soni 36 taga yetgan, shundan 5 tasi yog' ishlab chiqarish korxonasi edi.

Tog'-kon sanoati. Turkiston juda qadimdan oq foydali qazilmalarga boy bo'lib, ulardan unumli foydalanib kelingan. O'lkada Rossiya imperiyasi hukmronligi o'rnatilgach, foydali qazilmalarni o'zlashtirishga qattiq e'tibor qaratildi. 1889-yilda Farg'ona vodiysiga temir yo'l kirib kelishi munosabati bilan neftga bo'lgan talab kuchaydi. Shu bois neft qazish ishlari borgan sari kengayib, konlar rus sarmoyadorlariga ijaraga berila boshladi. 1900-yilda Chimyonda neft ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Farg'ona neft sanoati shirkati (1904-yildan «Chimyon tog' neft sanoati») neft konini aniqlab, ishga tushirdi. Neft asosan Turkiston temir yo'lining ehtiyoji uchun sarflangan.

Turkiston general-gubernatorligiga qarashli viloyatlarda foydali qazilmalardan neft, ko'mir va mis qazib olish yo'lga qo'yilgan edi.

XX asrning boshlarida o'lkada jami 86 ta kon bo'lsa, shundan 27 ta ko'mir, 17 ta neft, 10 ta mis, 4 ta asfalt, 4 ta ozokerit, 4 ta oltingugurt, 7 ta tuz, 8 ta ganch, 3 ta ohak, 1 ta nashatir va 1 ta kvarts konlari edi. Mahalliy boylar kam daromadli tuz konlarigagina egalik qilganlar, xolos. O'lkadagi neft, toshko'mir va mis qazib chiqarishga rus va xorij sarmoyadorlari egalik qilganlar.

Mang'itlar qo'l ostidagi yerlar foydali qazilmalarga juda boy bo'lib, Darvoz bekligida chaqmoqtosh shaklidagi oltin konlari, Panj, Yaxsuv hamda Vaxsh daryolari qirg'oqlarida sochma oltin konlari bor edi. Darvoza va G'uzor bekligida mis va temir konlari, Kalif va Sherobodda oltingugurt, Darband, Nurota va G'uzorda marmar, Boysun, G'uzor, Qo'rg'ontepa beklklarida toshko'mir va neft zaxiralari topilgan.

1896-yilda Turkiston general-gubernatori A.Vrevskiyning¹ maxsus qarori bilan amirlikda oltin qazib chiqarishga faqat Rossiya fuqarolarigagina ruxsat berildi. 1897-yilda Juravko-Pokorskiy ismli muhandis Buxoro hukumatiga har bir oltin uchun 5 rubl 52 kopeykdan haq to'lash yo'li bilan Safiddaryo bo'yidagi oltinlarni qayta ishlashga ruxsat olgan. Shu tariqa amir tabiiy boyliklariga egalik huquqidan ham mahrum bo'lib bordi. U qazib olingan oltinlarga da'vo qila olmas, agar zaruriyat bo'lsa, ulardan o'z xazinasiga sotib olishi mumkin edi.

¹ A.Vrevskiy – 1889–1898-yillarda Turkiston general-gubernatori.

1915-yilda butun o'lkada bo'yicha tog'-kon sanoat korxonalarining soni 1061 tani tashkil etdi.

Hunarmandchilik. XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshida mintaqada yuzga yaqin hunarmandchilik sohalari mavjud bo'lib, ularning mahsuloti mahalliy xalqning kundalik ehtiyojini ta'minlashga xizmat qilgan. Shaharlar azaldan hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqarish va ularni sotish markazi bo'lib kelgan. Rus bosqini arafasida 1860-yillarda Toshkent bozorlarida 4548 ta savdo-hunarmandchilik do'koni bo'lgan. Ular nafaqat ichki, balki tashqi bozor uchun ham mahsulotlar tayyorlaganlar. Bu mahsulotlar savdo ahli tomonidan Rossiya, Xitoy, Afg'oniston, Hindiston, Eron kabi davlatlarda hamda Buxoro, Xiva, Qo'qon xonliklarining shahar va qishloqlarida sotilgan.

Eng ko'p tarqalgan va rivoj topgan hunarmandchilik sohasidan biri to'qimachilik bo'lib, hunarmandlar paxta va pilla tolasidan o'nlab xildagi matolar, ulardan esa kiyim-kechak, ko'rpa-to'shak tayyorlaganlar. Qariyb har bir uyda paxta va yarim ipak matolar ishlab chiqarish bilan shug'ullanilgan, ba'zi xonadonlarda ushbu matolarni bo'yash uchun bo'yoqchilik ham yo'lga qo'yilgan. Paxta matolardan tashqari, katta miqdorda adras, alocha, xonatlas, beqasam, shohi kabi ipak va yarim ipak matolar ham tayyorlangan.

Metalni qayta ishlash sohalari – temirchilik, cho'yangarlik, zargarlik, mis-karlik, rextagarlik kabi sohalari keng tarqalgan bo'lib, ular o'z navbatida bir necha mayda sohalarga ajralgan va uy-ro'zg'or uchun zarur buyumlar, dehqonchilik uchun mehnat qurollari tayyorlaganlar.

O'lkada chorvachilik yaxshi rivojlanganligi, hayvonot dunyosining boyligi kundalik ehtiyoj buyumlari tayyorlashda qo'llaniladigan ko'nchilikning keng rivoj topishiga imkon bergan. Ko'nchilar sigir, buzoq, ho'kiz, qo'y-echki, tuya, qo'tos va boshqa hayvonlarning terilarini oshlab, charm tayyorlashgan. Terini oshlash jarayonida chiqadigan badbo'y hid aholini bezovta qilmasligi hamda katta miqdorda suv va maydon kerak bo'lganligi sababli ko'nchilar o'z korxonalarini shaharlar tashqarisida ariq, hovuz bo'ylarida qurganlar. Ko'nchilar tayyorlagan turli-tuman charmdan poyafzal, ro'zg'or buyumlari, egar-jabduq, kitob muqovalari ishlangan.

Ammo Turkistonga Rossiya ko'nchilik korxonalarida tayyorlangan turli xildagi charm mahsulotlari katta miqdorda olib kelinishi munosabati bilan mahalliy ko'nchilik susayib borgan. Shunga qaramay, rus charmidan o'z si-fati bilan qolishmaydigan mahalliy charm mahsulotlari Rossiya va Yevropa bozorlariga chiqarilgan.

Kulolchilik ham keng rivojlangan sohalardan bo'lib, XX asr boshida Farg'ona vodiysining yirik kulolchilik markazi Rishtondagi 80 ta kulolchilik ustaxonasida 300 hunarmand faoliyat ko'rsatgan.

Turkiston hunarmandlari tomonidan tayyorlangan mahsulotlar nafaqat Rossiya imperiyasi hududlarida, balki Ispaniya, Italiya, Angliya, Fransiya, Germaniya kabi Yevropa davlatlarida o'tkazilgan turli-tuman ko'rgazmalarda ham muvaffaqiyat bilan namoyish qilingan. 1873-yilda Venada, 1878-yilda Parijda, 1901-yilda Glazgoda, 1906-yilda Milanda, 1907-yilda Bordoda o'tkazilgan Xalqaro ko'rgazmalarda, 1910-yilda Myunxenda o'tkazilgan Musulmonlar ko'rgazmasida, 1914-yilda London, Berlinda o'tkazilgan hunarmandchilik ko'rgazmalarida ham keng namoyish etilgan. 1905-yilda Lion shahrida o'tkazilgan Xalqaro ko'rgazmada taqdim etilgan gilamchilik mahsulotlarining barchasi chet elliklar tomonidan xarid qilib olingan. 1906-yilda Milanda o'tkazilgan Xalqaro ko'rgazmada Turkiston hunarmandlari «Faxriy diplom» hamda «Oltin medal»ga hamkorlik diplomi bilan taqdirlangan.

Juda qadimdan mintaqadagi yirik hunarmandchilik markazlaridan biri bo'lib kelgan Buxoroda 250 ta kosibchilik, 46 ta to'quvchilik ustaxonasi, 150 ta temirchi, 40 ga yaqin cho'yan quyish korxonasi bo'lib, ularda o'nlab ustalar faoliyat ko'rsatgan.

Qog'oz tayyorlashda Buxoro shahri Samarqand, Qo'qondan keyingi o'ringa tursa-da, bu yerda tayyorlangan yozuv qog'ozlarining shuhrati nafaqat Turkistonga, balki unga qo'shni mamlakatlarga ham tarqalgan. Bu qog'ozlar ipakdan tayyorlangan bo'lib, o'zining silliqligi, yupqaligi bilan arab yozuvi uchun juda qulay bo'lgan.

Xorazmda jami 60 dan ortiq mahalliy ishlab chiqarish turlari mavjud bo'lib, hunarmandlarning aksariyati shaharda va shahar atroflarida yashagan. Shaharda to'qimachilik, kiyim-bosh, uy-ro'zg'or buyumlari, oziq-ovqatlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan hunar turlari hunarmandchilikning asosiy sohalari hisoblangan. Temirchilik, miskarlik va zargarlik eng keng tarqalgan hunarlardan bo'lib, temirchilikning pichoqchilik, chilangarlik, qulfsozlik, taqachilik, ignasozlik kabi ko'plab mayda tarmoqlari rivojlangan.

XIX asming ikkinchi yarmi – XX asr boshida mahalliy bozorlar rus korxonalarining arzon mahsulotlari bilan egallab olingach, ular bilan raqobatga bardosh bera olmagan mahalliy hunarmandlarning bir qismi ishlab chiqarish hajmlarini keskin kamaytirishga majbur bo'lsa, ma'lum qismi

kasodga uchradi. Ko'plab hunarmandlar xonavayron bo'lib, qashshoqlikka yuz tutdilar. Ularning bir qismi mardikorlik qilgan bo'lsa, qolganlari korxonafabrikalarning yollanma ishchilariga aylandilar.

1917-yilga oid ma'lumotlarga ko'ra, o'lkada ishlab chiqarilgan jamoi sanoat mahsulotlarining 56,5 foizi mahalliy hunarmandchilikning hissasiga to'g'ri kelib, uning qiymati 69,8 mln tillaga teng edi. Bu paytda zavod-fabrikada ishlab chiqarilgan mahsulotlarning qiymati esa 59,8 mln tillani tashkil etgan. XX asr boshiga kelib Turkiston o'lkasining uchta viloyatida 32345 ta hunarmandchilik korxonalari bo'lib, ularda 65932 dan ortiq hunarmand faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, Toshkentda 15455 ta hunarmand ro'yxatga olingan edi. Bu holat mahalliy hunarmandchilik garchi kasodga uchrasa-da, hali mahalliy aholi hayotida o'z ahamiyatini saqlab qolganligidan dalolat berar edi.

Xalq qo'zg'olonlari. Uzoq va qattiq qarshiliklardan so'ng Turkistonni bosib olgan mustamlakachilar o'lka aholisini faqatgina qurol kuchi bilan, harbiylashtirilgan ma'muriy boshqaruv ostida itoatda saqlab turardilar. Buning uchun shaharlarda politsiya xizmatlari, har bir uyezd va viloyatda harbiy kuchlar hoziru nozir edi.

Ammo hayotning barcha yo'nalishlarida mustamlakachilik siyosati avj olib borgan sari norozilik kayfiyati kuchayib, 1880-yillardan boshlab turli ko'rinishdagi xalq g'alayonlari keng tus olib bordi.

Bu harakatlar turli ko'rinishlarda bo'lib, aholini haddan ziyod oshirilib yuborilgan soliqlarni to'lashga, turli majburiyatlarni bajarishga majburlash jarayonida sodir bo'lgan to'qnashuvlar keng avj olgan edi.

Bu haqda 1880-yillarda o'lkani boshqargan N.Rozenbaxning Rossiya harbiy vaziriga yuborgan axborotida ham qayd etilgan bo'lib, unda Marg'ilon, Andijon, O'sh uyezdlarida xalq g'alayon ko'tarish kayfiyatida ekanligi ta'kidlangan edi.

Shunday harakatlardan biri Andijon uyezdida 1885-yilda Darveshxon to'ra boshchiligida olib borilgan bo'lib, mazkur shaxs qishloq aholisini qo'zg'olonga da'vat etadi. G'alayonchilar eng avvalo, volost boshliqlariga qarshi chiqadilar, ularni mahalliy aholi vakili bo'la turib, mustabid hukumatga yon bosayotganligi sababli jazolashga harakat qiladilar. Bunday harakatlarni kuch bilan bostirgan rus ma'muriyati ularni o'lkada Rossiya hukmronligiga qarshi bosh ko'tarishda ayblab, surgun va qamoq jazosiga hukm qiladi.

Xalqning norozilik harakatlari oqsoqollar saylash jarayonlarida ham tez-tez bo'lib turgan. Masalan, 1890-yilda Baliqchi volostida volost boshlig'ini saylash munosabati bilan katta qo'zg'olon bo'lib o'tadi. 1891-yil

dekabrda Marg'ilon uyezdida Sobirxon to'ra Azizxon, Qo'qon shahrida Mirzajon Shermuhammedov, Raimqul Tog'aynazarov kabi shaxslar aholini hukumatga qarshi kurashga da'vat etganlikda ayblanib, o'z sheriklari bilan surgun qilinganlar.

1892-yil Toshkent qo'zg'oloni. 1892-yilda Toshkent shahrida bo'lib o'tgan xalq qo'zg'oloni mahalliy aholining ilk yirik g'alayonlaridan biri bo'lib, bu voqea shaharda vabo o'latining tarqalishi bilan bog'liq holda yuzaga kelgan muammolar tufayli sodir bo'lgan edi. 1892-yil may-iyun oylarida Toshkent shahrida tarqalgan vabo shahar aholisiga katta talafot yetkazgan. Mahalliy aholi yashovchi «eski shahar» qismida sanitariya-gigiyena sharoitining yomonligi, tibbiy xizmatning deyarli yo'qligi sababli vabo tobora keng tarqalib, qurbonlar kun sayin ko'payib borgan. Shaharning rus aholisi yashovchi yangi qismida esa vabo bilan kasallangan bemorlar kasalxonalarda davolanib, tibbiy yordamdan vaqtida bahramand bo'lganligi bois, kasallanganlar va vafot etganlar soni ham mahalliy aholiga nisbatan qariyb bir necha o'n barobar kam edi.

Shaharning eski qismida biror kishi davo topmay, qirilib ketayotganligi mahalliy aholining keskin noroziligiga va hukumatga nisbatan ishonchsizlikning yanada kuchayishiga sabab bo'ldi. Hukumat tomonidan olamdan o'tganlarni rus feldsheri ko'ruvidan o'tkazib, tegishli tasdiq qog'ozini olgandan keyingina janozasiz, shahar tashqarisiga dafn qilish haqida talablar yangi muammolarga sabab bo'ldi. Shaharda feldsherlarning yetishmasligi oqibatida yozning issiq kunlarida mayitning bir necha kun uyda qolib ketishi, boz ustiga tamagir feldsherlarning o'z vazifasini suiiste'mol qilib, tamagirlikni avj oldirishi, bechora kambag'al puli yo'qligi bois o'z ajali bilan vafot etgan keksalarni ham vabo o'lati talablari asosida shahar tashqarisiga dafn etishga majburlanishi yoki pul berganlarga aksincha munosabatda bo'lish holatlari aholini mushkul ahvolga solib, norozilikni kuchaytirdi.

Masalani tinch yo'l bilan hal qilish maqsadida jome masjidida mahalliy aholi vakillari hukumatga ahvolni o'zgartirish haqida murojaatnoma tayyorladilar va hayit namozi munosabati bilan jome masjidiga tashrif buyurgan shahar boshqaruvchisiga topshirishga tayyorlanadilar. Ammo shu kecha shahar oqsoqoli mahalliy aholi orasida mayitlarni tunda yashirin dafn etish holatlaridan xabar topib, mustamlakachilarga aybdorlarni tutib berishi va ularni qayta ko'mishga majbur qilish haqidagi do'q-po'pisalari tufayli xalqning qahriga uchradi va xaloyiqdan qochib, shahar boshqarmasiga yashirinib oldi. Mahkamaga yetib kirib kelgan norozi xaloyiq shahar boshlig'iga o'z arzini bildirishga ulgurmay,

uning dag'dag'asiga uchradi. Qisqa fursatda yetib kelgan hukumat qo'shinlari ommani kaltaklab, o'qqa tutdilar. Qurolsiz xaloyiq chekinib, ot tuyuqlari ostida kaltaklanib, miltiqlardan otilgan o'qlar ostida shaharni kesib o'tgan Anhor ustidagi ko'prikkaga qadar quvib borildi va shu yerda ikki taraf lama siquvga olindi. Qo'zg'olonchilarning ko'pchiligi Anhorga surib tashlandi, ayrimlari o'zlarini suvga tashlashga majbur bo'ldilar. Ertasi kuni Anhordan 60 ta o'lik olindi. Bu orada jome masjidi hovlisiga yig'ilgan norozi omma ham yetib kelgan harbiy kuchlar hujumiga uchrab, kaltaklandi va o'qqa tutildi.

Shu tariqa g'alayon qurol kuchi bilan ayovsiz bostirildi, ularning katta qismi hibsga olindi. Davlatga qarshi harakat sifatida harbiy sudlarga topshirilgan qo'zg'olonchilarning katta qismi ozodlikdan mahrum etildi. Qo'zg'olonni boshlashda aybdor, deb topilganlar surgunga hukm qilindi. Chunonchi, qo'zg'olonchilardan 8 kishi dorga osib o'ldirilishga, 15 kishi 2 yil muddat bilan mahbuslar rotasiga yuborilishiga, 2 kishi olti oydan qamoq jazosini o'tashga hukm qilinadi. Lekin mustamlakachilar dunyo matbuotchilari oldida bu jazolar shov-shuvga sabab bo'lishidan cho'chib, o'lim jazosini umrbod surgun bilan almashtirdilar. Ushbu qo'zg'olon Toshkent shahrining o'zida yuz bergan bo'lsa-da, uning aks-sadosi butun Turkiston o'lkasi bo'ylab tarqaldi va tarixda «vabo isyoni» degan nom bilan saqlanib qoldi.

1898-yil Andijon qo'zg'oloni. Xalq noroziligining navbatdagi katta to'liqini bo'ldi. Iqtisodiy zulm, paxta yakkahokimligi natijasida avj olgan g'alla tanqisligi, soliqlar va majburiyatlarning ortib borishi, narx-navoning ko'tarilishi, siyosiy huquqsizlik va ma'naviy xo'rlik, diniy va ma'naviy qadriyatlar, milliy g'ururning toptalishi vodiy aholisining noroziligini kun sayin orttirib borar edi. Avom xalq o'z haq-huquqlari uchun kurashga yetakchi izlab, Andijon uyezdining Mingtepa qishlog'ida yashovchi Muhammad Ali eshonga (Dukchi eshon) murojaat qildi. Asosiy hunari dukchilik bo'lgan Muhammadali eshon huzuriga yaqin atrofdagi qishloqlardan kelgan beva-bechoralar bepul oziq-ovqat, boshpana topar, unga karomatgo'y va saxovatli kishi sifatida katta ishonch bilan qarar edi.

Shuning uchun mustamlakachilik zulmi ostida qolgan xalq Dukchi eshon huzuriga o'zining nochor ahvolidan tez-tez shikoyat bilan kelib turar, undan zolimlarni bartaraf etishga bosh bo'lishni so'rar edi. Dastlab bunday murojaatlarga rozi bo'lmay, orqaga surib kelgan eshon 1898-yil bahorida bir nechta qishloq va shaharlar aholisi bilan kelishib, birgalikda vodiyda mustamlakachilarni muhim harbiy tayanchi bo'lgan harbiy garnizonga hujum qilishga kelishib, tayyorgarlik boshlaydilar. Ammo rejalashtirilgan kunda qo'shni hududlardan kelishi kutilgan kuchlarning turli sabablar bilan o'z vaqtida yetib kela olmagan-

ligi qo'zg'olonchilarga pand beradi. Shunga qaramay, Muhammad Ali eshon qo'zg'olonga to'plangan 1,5 ming kishilik xaloyiq bilan yurishga o'tlanadi.

Rossiya istilosidan so'ng har qanday qurol-yarog'dan mahrum bo'lgan xalq qo'liga oddiy mehnat qurollarini olib, 17-maydan 18-mayga o'tar kechasi yarim tunda Andijon harbiy garnizoniga hujum boshlaydi. Qurolsiz ommaning qurolli kuchlar ustiga kutilmagan hujumi garnizondagi yarim uyqudagi qurolli kuchlarni bir zum sarosimaga solib qo'yadi. Ikki o'rtada bo'lib o'tgan to'qnashuvda qurolli soldatlar miltiqlardan o'q uzib, qarshi xujumga o'tgach, qurolsiz qo'zg'olonchilar chekinishga majbur bo'ladilar. Qo'zg'olon sardorlari, jumladan, Muhammad Ali eshon qochib ketishga ulguradi. Bu haqda Farg'ona viloyati harbiy gubernatoriga xabar yetib borishi bilan Andijonga qo'shimcha kuchlar yetib keladi va butun Andijon uyezdi bo'ylab jazo otryadlari kezib, qo'zg'olonga daxldor kishilar hibsga olinadi.

Qo'zg'olonning ta'sir doirasi butun o'lkani, ayniqsa, Farg'ona vodiysini qamrab oldi. Qo'zg'olonda Andijon, Namangan va O'sh uyezdlariga qarashli Mingtepa, Asaka, Qoratepa, Quva, Shahrixon, Navqat, Oqbura, Buloqboshi, Aravon, Segazin, Ichkilin, Yozyovon, Yakkatut, Kogot, Susamir, Kengko'l-Qoragir va Xo'qand singari qarashli volost aholisi faol qatnashdi.

Qo'zg'olon sardori va qatnashchilari qo'lga olindi. Jami 777 kishi hibsga olinib, tergov qilindi. Ko'p kishilar kaltaklash va qiynoqqa dosh berolmay, qamoqxonalarda halok bo'ldilar. Tergovdan keyin 415 kishi sud qilindi, ulardan 32 kishi oqlandi va 380 kishi o'lim jazosiga hukm etildi. O'limga mahkum etilganlarning 21 nafari osib o'ldirildi. Qolgan 362 kishiga nisbatan o'lim jazosi turli muddatlarga qamoq jazosiga almashtirildi. 3 kishi umrbod surgunga, 147 kishi 20 yilga, 15 kishi Sibirga surgunga va 3 nafar yosh bola axloq tuzatishga, 90 kishi 7 yildan 15 yilgacha, 4 kishi 4 yilga qamoq jazosiga hukm qilindi.

Mustamlaka hukumatning harbiy sudlari chiqargan hukmga ko'ra Tojik, Qashqar va Qutchi qishloqlaridagi barcha xonadonlar buzib tashlandi,

680 oila Qaqir degan dashtga haydab yuborildi. Dukchi eshon istiqomat qilgan Mingtepa aholisi ko'chirilib yuborildi. Tojik va Koshg'ar qishloqlari o'rnida rus qishlog'ini barpo etish hamda undagi 2901 desyatina maydonga 260 oilani joylashtirish to'g'risida farmon chiqarildi. Ushbu hudud aholisi o'z yerlaridan mahrum qilinib, botqoq va qumloq yerlarga ko'chirib yuborildi. Qo'zg'olon bostirilgach, g'azab otiga mingan alamzada mustamlakachilar tizginini yanada qattiqroq tortishga kirishdi. Ayniqsa, diniy ulamolar va islom dinini imkon qadar nazoratga olish va cheklash chora-tadbirlari ishlab chiqildi, ta'qib va tazyiqlar avjiga chiqib, aybsiz aybdorlarni behudaga jazolash avj oldi.

1916-yil umum Turkiston qo'zg'oloni. Birinchi jahon urushi Turkiston xalqlari boshiga og'ir kulfatlar soldi. Urush davomida mahalliy aholiga frontga jalb etilmaganligi uchun harbiy soliq joriy etildi, boz ustiga muntazam ravishda front uchun juda katta miqdorda ot, o'tov, asbob-uskuna, xayr-e-hon, uy-ro'zg'or buyumlari, ko'rpa to'shak, kiyim-bosh, poyabzal, oziq-ovqat yig'ib olinar, har safar «ko'proq bering, sizda urush uchun boshqa majburiyat yo'q va bo'lmaydi», deb ishontirilar edi. Mahalliy aholi bu to'lovlardan tashqari, erkaklari urushga olib ketilgan rus oilalar xo'jaligiga yordam berar, rus oilalari uchun mahalliy aholidan 100000 rubl hisobida pul ham yig'ib olingan edi. Bunday sharoitda o'lkada qimmatchilik, oziq-ovqat va iste'mol mollari taqchilligi yuzaga kelgan edi.

Shunday sharoitda 1916-yil 25-iyunda Rossiya imperatori Nikolay II Turkiston aholisining 19 yoshdan 43 yoshgacha bo'lgan erkaklarini front orqasidagi xizmatlar uchun mardikorlikka safarbar qilish haqidagi farmon berdi. Unga ko'ra Sirdaryo viloyatidan 87000, Samarqand viloyatidan 38000 hamda Farg'ona viloyatidan 50 000 kishini mardikorlikka yuborish majburiyati belgilangan edi. Avji yig'im-terim davrida erkak ahlining noma'lum muddatga va noma'lum yerlarga olib ketilishi Turkiston aholisini sarosimaga solib qo'ydi. Boz ustiga front ortiga yuboriladigan mardikorlar ro'yxatini tuzishdagi adolatsizliklar aholining g'azabini junbushga keltirdi. Norozi xalq mardikorlikka safarbar etiluvchilarning adolatsizlik bilan tuzilgan ro'yxatlarini tortib olib, uni tuzgan ma'murlarga qarshilik ko'rsata boshladi. Ayniqsa, ayollar faollik ko'rsatib, o'z o'g'illari va yerlarini mardikorlikka bermasliklarini oshkora bildirdilar. Bunday holatlarda ayollarning politsiyachilar tomonidan kaltaklanishi yoki otib tashlanishi xaloyiqni oyoqqa turg'izdi. O'zaro to'qnashuvlar har bir qishloq va shaharni qamrab olgan edi. Bunday sharoitda politsiya va tashqaridan yetib kelgan harbiy kuchlar g'alayonlarni kuch bilan bostirib, farmon ijrosini zo'ravonlik bilan amalga oshirishga kirishdi.

1916-yil 4-iyulda qo'zg'olonlar butun Turkistonni qamrab oldi. Ayrim joylarda ularning ishtirokchilari 25000 kishigacha borib yetdi. Qonli to'qnashuvlarga aylanib ketgan qo'zg'olonlar mustamlaka hukumatni sarosimaga solib qo'ydi. Ayniqsa, Jizzax uezdida voqealar rivoji keskin tus oldi. Bu yerda Jizzax shahri, Sangzor, Zomin va Bog'dan tumanlarida qo'zg'olonlar sardorlari Bek deb e'lon qilindi, temir yo'llar buzilib, harbiylar yo'li to'sildi. Mustaqil davlatchilikni tiklash harakatlaridan dalolat beruvchi bu qo'zg'olonlarga Nazirxo'ja eshon, Abdurahmon Jevachi, To'rabek, Qosimxo'ja eshon boshchilik qildilar.

1916-yil 4–18-iyul kunlarida Samarqand viloyatida 25 ta, Sirdaryo viloyatida 20 ta, Farg'ona vodiysida 86 ta, jami 130 dan ortiq xalq qo'zg'olonlari bo'lib o'tdi. Bunday ommaviy g'alayonlardan sarosimaga tushib qolgan mustabid hukumat 1916-yil 18-iyul kuni Turkistonda harbiy holat joriy qildi. Rossiyadan ketma-ket harbiy kuchlar olib kelinib, jazo guruhlarini ishga tushib ketdi. Turkistondan ajralib qolishdan xavfsiragan mustamlakachilar bor kuch va imkoniyatlarini ishga solib, qo'zg'oloni katta qiyinchilik bilan bostirishga kirishdilar. Safarbarlik muddati kechiktirilib, diniy ulamolar va yana bir necha toifa vakillari undan ozod qilindi.

Qo'zg'olon shafqatsizlik bilan bostirilgach, uning yo'l boshchilari jazoga tortilib, o'limga mahkum etildi. Jami 51 kishi qatl etildi, 168 kishi surgun qilindi, 128 kishi qamaldi, 228 kishi turli jazolarga mahkum etildi. Ayniqsa, Jizzax aholisidan mustamlaka ma'muriyat shafqatsiz o'ch oldi. 1916-yil 21-iyulda Qili qishlog'ida bo'lib o'tgan to'qnashuvda mingga yaqin kishi hibsga olinib, jazolandi, Jizzax shahar markazi (eski shahar) dagi uylar, do'konlar, oshxona, choyxona va do'konlar yoqib yuborildi, aholining mollari, ro'zg'or buyumlari, o'rin-ko'rmasigacha tortib olindi. Shuningdek, qo'zg'olonning boshqa markazlari – Sangzor, Zomin, Bog'dan tumanlarida jami 48 ta qishloqqa o't qo'yildi, ularning ayrimlari butkul yonib ketdi. Jizzax uyezdidagi 2000 desyatina yer davlat ixtiyoriga tortib olindi.

1916-yil qo'zg'oloni Turkistonda qariyb 50 yil davom etib kelgan mustamlakachilik tuzumiga qarshi ko'tarilgan eng yirik va eng qudratli xalq qo'zg'oloni bo'ldi.

Milliy taraqqiychilik harakati. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiya, Rossiya tasarrufidagi qrim-tatarlari orasida boshlangan islohotchilik harakatlari ta'sirida Turkiston, Buxoro va Xiva shaharlarida ham ma'rifatchilik harakatlari shakllandi. Metropoliyaga qarshi qurolli qarshilik ko'rsatishning iloji deyarli yo'qqa chiqqani sabab ta'lim tizimini isloh qilish, matbuot orqali xalqni uyg'otish, Rossiya qo'l ostidagi musulmon aholining o'z haquqlari uchun birgalikda kurashish g'oyalari ta'sirida Turkiston general gubernatorligida jadidchilik, Buxoroda "Yosh buxoroliklar", Xivada "Yosh xivaliklar" harakati yuzaga keladi.

Jadidchilik harakati o'lkadagi ziyolilarning eng ilg'or va faol vakillarini qamrab oldi. Turkiston shaharlarida Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Isxoqxon Ibrat, Ashurali Zohiriy, Abduqodir Shakuriy, Saidahmad Siddiqiy-Ajziy, Obidjon Mahmudov, Hamza, Cho'lpon, Muhammadsharif So'fizoda, Buxoroda Sadriddin Ayniy, Abdurauf Fitrat, Usmon Xo'ja (Usmonxo'ja Po'latxo'jayev), Abdulvohid Burhonov, Xivada Boboohun Salimov, Said Islomxo'ja, Polvonniyoz Hoji

Yusupov kabi ko'plab taraqqiyparvar insonlar shular jumlasidan edi.

Ularning islohotchilik g'oyalari va dunyoqarashining shakllanishida Bog'chasaroyda nashr etilgan «Tarjimon», Qozonda chiqqan «Vaqt», «Yulduz» jurnallari, Istanbulda chop etilgan «Siroti mustaqim» («To'g'ri yo'l») gazeta va jurnallari katta rol o'ynadi.

Jadidlarning dasturida uch asosiy yo'nalish – ta'lim tizimini isloh qilish va yangi usul maktablarini tashkil qilish, umidli yoshlarni chet elga o'qishga yuborish va nihoyat, turli ma'rifiy jamiyatlar tuzish, ma'rifatni targ'ib etish uchun milliy matbuot va teatrlar tashkil etishga qaratilgan edi. Ana shu vazifalarni amalga oshirish

borasida jadid yetakchilari qatorida o'nlab ziyoli ma'rifatchilar faoliyat olib bordi. Jadidchilik harakati jamiyatning turli qatlamlariga mansub eng ilg'or vakillarini qamrab oldi. Ular o'lkadagi o'sha davr ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotining eng faol, ilg'or vakillari bo'lib, milliy va dunyoviy taraqqiyot masalalarini chuqur anglab yetgan, bu boradagi eng to'g'ri harakat dasturini va vazifalarni belgilab, amalga oshira boshlagan jiddiy kuch edi.

Mahmudxo'ja Behbudiy o'z faoliyati va harakati bilan haqli ravishda jadidchilik harakatining otasi edi. Behbudiy ham diniy, ham dunyoviy ma'lumotga ega bo'lib, Samarqand va Buxoro madrasalarida ta'lim olgan. 1903–1904-yillarda esa Peterburg, Moskva, Qozon, Orenburg va Qrimda bo'ldi. Rossiyaga safar taassurotlari va ayniqsa, tatar ma'rifatchilari tajribasi, Ismoil Gaspirinskiy bilan tanishuv uning bu yo'ldagi niyat-u rejalarini hamda butun kuchini jamiyatni ijtimoiy jihatdan qayta qurish uchun yo'naltirdi. Behbudiy «Oyna» jurnalini nashr qildi, «Nashriyoti Behbudiya» deb atalgan xususiy nashriyot, Buxoro, Qo'qon, Namangan, Toshkent, Andijon va Samarqandda kitob do'konlarini tashkil etdi. Samarqandning «yangi» shahar qismida «Behbudiya» kutubxonasini ochdi. Bu kutubxonada kitob o'qish bilan birga Istanbul, Misr, Beyrut, Qozon, Bog'chasaroy, Boku, Orenburg, Eron, Hindiston, Afg'oniston, Peterburg va Turkistonda chop etilgan kitoblarni sotib olish imkoniyati ham mavjud edi.

Toshkentda jadidchilik harakatining yetakchisi Munavvar qori 1909-yilda maslakdosh do'stlari bilan hamkorlikda toshkentlik bir boy raisligida «Ja-



Mahmudxo'ja Behbudiy

miyati xayriya» uyushmasini tashkil qiladi. Toshkentning nufuzli boylaridan biri in'om qilgan hovlida «Dorul ojizin»ni (Ojizlar maskani) rasman ochib, bir necha miskin va ojizlarni tarbiyaga oladi, maktab va madrasalarga xayriyalar, beva-bechoralarga sadaqalar beriladi, oltmish nafar faqir va qashshoq bolalarni turli maktablarda o'qitadi.

1911-yilda Munavvar qori Abdurashidxonov va Abdulla Avloniy tashabbusi bilan «Turon» nomli madaniy-ma'rifiy jamiyat tashkil etildi. Bu jamiyat nizomiga ko'ra uning vazifasi «xalq orasida sahna ishiga hamda xayriyaga jiddiy muhabbat uyg'otish, xalq uchun spektakl qo'yib sog'lom tomosha ko'rsatish, Turkiston hududida yashovchi muhtoj musulmonlarga moddiy yordam berib, ma'naviy va moddiy hayotini yaxshilash» edi. «Turon» jamiyatining eng muhim masalalardan biri kutubxona tashkil qilish, qiroatxona ochish edi. «Turon» jamiyati qoshida Abdulla Avloniy «Turon» teatr jamoasini ham tashkil qiladi va ilk o'zbek milliy teatriga asos soladi.

Qisqa fursatda o'lkaning boshqa viloyatlarida ham xalq orasida ma'rifat tarqatish maqsadida ilg'or fikrli kishilar tomonidan yangi-yangi jamiyatlar, xususan, Qo'qonda «G'ayrat», Andijonda «Taraqqiyparvar» kabi jamiyatlar tuzildi. Jadidlar o'quvchilarga yordam ko'rsatish bilangina cheklanmay, Turkiston yoshlarini Rossiya va Turkiya shaharlaridagi oliy o'quv yurtlariga bilim olishga yuborish ishi bilan ham jiddiy shug'ullandilar.

Shu maqsadlarda Buxoroda 1908–1909-yillarda ma'rifatchilar tomonidan «Tarbiyayi atfol» («Bolalar tarbiyasi») maxfiy jamiyati tuziladi. Asosan ma'rifatchilik faoliyati bilan shug'ullangan bu jamiyat faoliyatida Sadriddin Ayniy, Usmonxo'ja, Musojon Saidjonov kabi ziyolilar muhim rol o'ynagan. Jamiyat a'zolari soni yuzga yaqin bo'lib, ularni Muhiddin Mansurov va Sadr Ziyo (Sharifjon Mahdum) moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlagan. Bu jamiyat Istanbuldagi «Buxoro ta'limi maorif jamiyati» bilan yaqin aloqada bo'lib, buxorolik yoshlarni Istanbulga o'qishga jo'natadi. Istanbulda 1910-yili 50 nafar, 1911-yilda 15 nafar, 1912-yili 30 nafar buxorolik yoshlar tahsil oladilar. Iqtidorli yoshlar nafaqat Istanbulga, balki Qozon, Ufa, Boqchasaroyga ham o'qishga jo'natiladi.

Yosh buxoroliklar Buxoroda «Ma'rifat» kutubxonasi va «Barakat» shirkatini tuzdilar hamda ular orqali darsliklar, kitoblar nashr qilish, xorijda chiqarilgan turli adabiyotlar, gazeta va jurnallarni Buxoroda tarqatish bilan shug'ullanganlar.

1904-yilda Xorazmda ilg'or fikrli savdo-sotiq doiralari jadidlarni quvvatlab, Yangi Urganchda «Jamiyati xayriya»ni tuzdilar. Bu jamiyatning tuzilishidan maqsad, jadidlarga yangi usul maktablari ochishda moddiy yordam

berishdan iborat edi. Jadidlarning ma'rifatchilik faoliyatlariga homiylik qilishda bosh vazir, taraqqiyparvar davlat arbobi Sa'id Islomxo'ja alohida e'tibor qaratdi.

Jadidlarning xalqaro aloqalari juda keng qamrovli bo'lgan. Ular Turkiya, Misr va boshqa mamlakatlardagi islohotlardan yaxshi xabardor bo'lganlar, o'zaro safarlar, muloqotlar orqali tajriba almashganlar.

Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingan hududlardagi musulmon aholi orasida XX asr boshida o'z ozodligi va milliy manfaatlarini uchun kurashda birdamlikka, umumiy maqsadlar sari kuchlarni birlashtirishga bo'lgan intilish kuchaya boshladi. 1905-yil 15-avgust Nijniy Novgorodda ish boshlagan 1-Butunrossiya qurultoyi Butunrossiya musulmon ittifoqini («Ittifoq al-muslimin») tashkil qilish to'g'risida qaror qabul qildi. «Ittifoq» nizomi 1906-yil yanvarda Sankt-Peterburgda bo'lib o'tgan musulmonlarning 2-Butunrossiya qurultoyida tasdiqlandi. Nizomda musulmonlar yashaydigan Rossiya guberniyalari ichidan 16 ta hududda maxsus maqomga ega bo'lgan markazlar tuzish ko'rsatilgan. Turkistonda bunday markaz Toshkent edi.

1906-yilda (16–21-avgust) Nijniy Novgorodda 3-Butunrossiya musulmonlar qurultoyida qabul qilingan «Ittifoq» dasturida uning maqsad va vazifalari belgilanadi. Unga ko'ra «Butunrossiya musulmonlari ittifoqi o'z oldiga Rossiya imperiyasi hududidagi musulmonlarni birlashtirish, siyosiy partiyani tashkil qilish hamda rus partiyalari oldida uning ta'siri va obro'sini kuchaytirish, milliy va siyosiy huquqlar uchun kurashish, shuningdek, musulmonlarning fuqarolik huquqlarini rus fuqarolari huquqlari bilan tenglashtirish, davlat hokimiyatining qonunchilik amaliyotini amalga oshirishda xalq vakillari ishtirokini ta'minlash, konstitutsiyaviy davlat tamoyillariga tayangan holda Rossiya imperiyasining boshqaruv shakllarini qayta tashkil etish maqsadlarini qo'ygan edi.

Ammo «Butunrossiya musulmonlar ittifoqi»ning faoliyati rasmiy hukumat tomonidan «panislomizm» sifatida baholana boshlandi. Musulmon birdamligi g'oyalari xavfsiragan imperiya hukumati ushbu faoliyatni jiddiy nazorat ostiga oladi. Milliy va ijtimoiy mansubliklaridan qat'i nazar, Rossiyadagi musulmonlarning barchasini qamrab oluvchi bu birdamlik g'oyalari, go'yoki, Rossiya musulmonlarini «yo'ldan ozdirib», «ayirmachilik» kayfiyatini qo'zg'ovchi, davlatga jiddiy xavf soluvchi «xavfli omil» deb baholandi.

O'sha davrda musulmon jamiyatlaridagi islohotlar va birdamlik g'oyalari Turkistonda taraqqiyparvar jadidlar tomonidan keng targ'ib qilingan. Ayniqsa, Erondagi konstitutsiyaviy harakat, Hindistonda mustamlakachilikka qar-

shu chiqishlar va Turkiyadagi inqilob jadidlar ijtimoiy-siyosiy faollashuvining o'sishiga juda katta ta'sir ko'rsatgan. Imperiyaning Turkiston, Buxoro va Xivani tashqi dunyodan ajratib qo'yish bo'yicha barcha to'siq va cheklovlariga qaramay o'lkaga bu voqealar haqidagi yangi ma'lumotlar, jurnal va gazetalar kelib turar, bunda jadidlarning roli katta edi.

Mazkur nashrlarda chop etilgan materiallar o'quvchida siyosiy iqtisod, xalqaro huquq, bundan tashqari, parlament, shahar boshqaruvi kabi institutlar, paychilik jamiyatlari va ularning ahamiyati, zamonaviy bilimlar rivoji, insoniyat taraqqiyotining o'ziga xos jihatlari, Yevropadagi siyosiy va ijtimoiy institutlar shakllari va mohiyati haqida keng tasavvur uyg'otgan. Bunday adabiyotlarning kirib kelishi jadidlarning mahalliy davriy matbuotni nashr etishlariga turtki bo'ldi.

Madaniy hayot. Ta'lim tizimi bu davrda ham o'tgan asrlarda shakllanib bo'lgan tartib va an'analarda davom etgan. XX asr boshiga kelib Turkistonda jami 7047 ta boshlang'ich maktab faoliyat yuritgani ma'lum bo'lsa-da, maktablardagi shart-sharoit bu davrga kelib zamon talablaridan ancha ortda qolgan bo'lib, o'quvchi uchun tegishli qulayliklar yaratilmaganligi, o'quv dasturi va qo'llanmalar o'rta asrlar darajasida qolib, takomillashmaganligi, dunyoviy bilimlarga yetarli darajada e'tibor qaratilmaganligi, o'qitish uslubi harf va matnlarni yod olishga asoslanganligi boshlang'ich ta'limning eng katta muammolaridan edi.

1890–1893-yillarda Turkiston o'lkasining Sirdaryo, Farg'ona va Samarqand viloyatlarida jami 214 ta madrasa bo'lib, ulardan 155 tasi shaharlarda va 59 tasi uyezdlarda joylashgan.

Madrasalarning o'quv dasturlari o'rta asrlarda shakllangan bo'lib, «Aqoid» (musulmon din aqidalarini bayon etuvchi kitob) XII asrda, «Mantiq Tahzib» XVI asrda, «Shariat» VIII–IX asrlarda tuzilgan edi. Har bir fan ularga yozilgan sharhlar asosida o'qitilgan. Masalan, islom ta'limoti asoslari bo'yicha asosiy qo'llanma Nasafiyning XII asrda yozilgan «Aqoid» asari unga XIV asrda Taftazoniy tomonidan tuzilgan sharhlar asosida o'rganilgan. Fiqh asoslari bo'yicha asosiy qo'llanma Burhoniddin Marg'inoniyning to'rt jildlik «Hidoya» asari ham, asosan, unga bitilgan sharhlar asosida o'qitilgan.

Bu davrda madrasa tizimidagi eng katta muammolardan biri o'quv jarayonida hoshiyachilik, ya'ni sharhga sharh berish va ularni o'rganish kuchayib ketganligi bilan bog'liq edi. Hoshiyachilik – kitobning chekka qismiga, ya'ni hoshiyasiga matndagi tushunilishi qiyin bo'lgan ayrim jumla va so'zlarni sharhlab, izoh yozish ma'nosini anglatgan. Hoshiyalar deyarli har bir kitob-

ga yozilgan. Ayrim kitoblarning har biriga 10–15 tagacha hoshiya yozilgan bo'lib, ularni o'zlashtirish uchun madrasa talabalari 7–10 yilgacha vaqt sarflaganlar. Ular hisobiga dunyoviy fanlar qisqarib borgan. Nafaqat dunyoviy, balki diniy yo'nalishdagi asosiy fanlar soatlari ham qisqarib ketgan. Hattoki, arab tili darsliklarida ham sharh va izohlar katta o'rin egallagan. Vaholanki, bu davrga kelib boshqa musulmon o'lkalaridagi madrasalarning ko'pchiligi da mudarrislar hoshiyachilikdan voz kechgan edilar. Ushbu muammolar bois madrasalardagi ta'lim jarayoni murakkablashib, cho'zilib ketgan. Bu holat ilg'or ziyolilar tomonidan keskin tanqidga uchragan.

An'anaviy ta'lim muassasalaridagi mavjud muammolarga mahalliy ma'muriyat tanqidiy qarashdan nariga o'tmas edi. Farg'ona viloyat gubernatorining Marg'ilon shahri madrasalarida o'qitishning ahvoli haqida berilgan tanqidiy yozma ma'lumotga «Shunday bo'lishi ham kerak, chunki bu holat imperator oliylari siyosatiga mos keladi», degan mazmundagi javobi ma'muriyatning mahalliy ta'lim tizimiga nisbatan siyosatini yaqqol namoyon etadi.

Ta'lim islohotlari. Ta'lim tizimida o'qitish usullari va darajasi zamon talablaridan ortda qolganligini o'sha davrning ilg'or fikrli kishilari anglab yetganlar. Maktablardagi ta'lim usuli va dasturi, shart-sharoit va moddiy ta'minot masalalarini takomillashtirish hamda isloh qilish masalasi XX asr boshida ijtimoiy-ma'naviy hayotning eng dolzarb muammosiga aylangan edi. Behbudiyning «Dunyoda turmak uchun dunyoviy fan va ilm zarurdur, zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqalarga poymol bo'lur» degan mazmundagi fikrlarini boshqa ziyolilar ham tez-tez kuyunib ta'kidlar, bu fikrlar o'sha davrdagi ta'lim islohotlari qanchalik dolzarb muammo bo'lganligini yaqqol ifodalar edi.

Bu davrga kelib, Yevropada jadal kechayotgan ijtimoiy-madaniy taraqqiyot musulmon olamida ham o'z aks-sadosini bera boshladi. 1884-yilda Qrimda, Bog'chasaroyda Gaspirinskiy tomonidan tashkil etilgan yangi usul maktabida tovush usuli, ya'ni harflarni sadosi bilan o'rganish (usuli savtiya) natijasida qisqa fursatda, tez va oson savod chiqarish mumkinligi amalda isbotlangach, mazkur usul musulmon jamiyatida katta e'tibor qozonib, omalasha boshladi. Gaspirinskiy Rossiya shaharlarida qisqa fursatda shunday usulga asoslangan 30 ta maktab tashkil qildi va ular uchun «Xojayi sibyon» deb atalgan yangi darslik yaratdi. 1892-yilda Gaspirinskiy Turkiston general-gubernatoriga maktub yo'llab, unda o'zi tashkil etayotgan yangi maktablar eski maktablardan farq qilib, 6–7 yilda emas, 1,5–2-yilda savod chiqarishga imkon berishini bayon qiladi hamda o'lkada shunday maktablar tashkil qilish-

da yordam so'raydi. Ammo general-gubernator tomonidan N. Ostroumov va V. Nalivkinga ko'rib chiqish uchun topshirilgan bu maktubdagi takliflar ular tomonidan «mustamlakachilik manfaatlariga zid» deb topiladi va shu sababli e'tiborsiz qoldiriladi.

Buxoro amiri taklifiga asosan, 1893-yilda Turkistonga tashrif buyurgan Gaspirinskiy bilan uchrashuvdan so'ng, avval Buxoroda, keyin Samarqandda ilk yangi usul maktablari tashkil qilinadi. Ijobiy natijalar bilan mahalliy aholi e'tiborini qozongan bunday maktablar «usuli jadid», ya'ni yangi usul maktablari, deb nom oladi va qisqa muddatda ommalasha boshlaydi. Qo'qonda, Samarqandda, keyinchalik esa Toshkent va Andijonda shunday maktablar tashkil etiladi. 1905-yilda Toshkentda yangi usul maktabini ochgan Munavvarqori Abdurashidxonov maktabida ta'lim jarayoni arab alifbosini usuli savtiya, ya'ni tovush usulida o'qib-o'rganish, o'qish bilan bir qatorda yozishni ham o'zlashtirish, arifmetikaning to'rt amalini o'rganish, dunyoviy (tarix, geografiya, tabiatshunoslik fanlari) va diniy ta'lim asoslari haqida dastlabki bilimlarni berish yo'lga qo'yilgan edi. Bu maktab tezda shuhrat qozonib, ommalasha bordi. Qisqa fursatda Toshkentda va Turkiston general-gubernatorligining turli viloyatlarida tashkil etilgan bunday maktablar soni 30 taga yetdi. Munavvarqori Abdurashidxonov, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy tomonidan mazkur maktablar uchun yangi darsliklar yaratildi.

Yangi usul maktablarida diniy va dunyoviy fanlarning o'qitilishi, islom dini asoslarining o'rgatilishi, axloqiy tarbiyaga e'tibor, arab, fors tillari qatorida ona tiliga katta o'rin berilishi, tabiatshunoslik, jo'g'rofiy bilimlarning berilishi, o'quv dasturiga arifmetika amallari 100 gacha hisob hamda rus mualliflarining masalalar to'plamlari kiritilganligi (Munavvarqori maktabida), mazkur dasturning 4 yilda o'zlashtirilishi, globus, xarita, zamonaviy sinf jihozlarning (partalar) qo'yilganligi, eng muhimi o'quvchilarning ijobiy natijalari ularning nufuzini ko'tarib yubordi. 1917-yilga kelib o'lkada 100 ga yaqin yangi usul maktablari faoliyat yuritgan, ularda 10343 nafar o'quvchi ta'lim olgan.

Yangi usul maktablarining milliy madaniyatni o'stirishga omil bo'lishidan cho'chib, ularni «xatarli» deb baholagan imperiya ma'muriyati bunday maktablar faoliyatini imkon qadar cheklash va nazoratni kuchaytirishga harakat qildi. 1912-yilda Turkiston general-gubernatori bunday maktablar ustidan o'quv mahkamalarining nazoratini mustahkamlash choralarini belgiladi. Ushbu choralar natijasida 1910–1911 o'quv yili davomida 50 dan ortiq yangi usul maktabi faoliyatiga chek qo'yildi.

Bu davrda o'lkada ma'muriyati tomonidan rus-tuzem maktablarini tashkil etishga alohida e'tibor qaratilgan. Rus-tuzem maktablari mahalliy aholi orasida muvaffaqiyat qozonmadi. Ushbu maktablar nufuzini ko'tarish, bolalarni qiziqtirish, rus tiliga talabni kuchaytirish maqsadida rus-tuzem maktablari o'quvchilari va bitiruvchilari uchun Rossiyaning bir qancha yirik shaharlariga davlat hisobidan sayohatlar uyushtiriladi, yangi darsliklar yaratiladi, mahalliy o'qituvchilar jalb etiladi, uzoqdan qatnovchilar uchun yotoqxonalar tashkil etiladi. Bunday choralar natijasida rus-tuzem maktablari soni 1899-yilga kelib 33 taga, ulardagi mahalliy o'quvchilar soni 900 taga yetadi. Ammo o'lkada mahalliy ziyolilar – jadidlar tomonidan «yangi usul» maktablari tashkil etila boshlanishi bilan mazkur maktablar mavqeyi pasayib ketadi. Chunki rus-tuzem maktablarida mahalliy bolalar rus tilini o'rganishdan boshqa hech qanday natijaga erisha olmagan.

Matbuot va noshirchilik. Turkiston o'lkasida rus aholisini yangiliklar va rasmiy xabarlardan muntazam voqif qilib borish maqsadida 1870-yilda Toshkent shahrida rus tilida ilk davriy matbuot – «Turkestanskiye vedomosti» («Turkiston xabarlari») gazetasiga asos solinadi. Bu gazeta Turkiston general-gubernatorligining rasmiy nashri edi. Uning sahifalarida muntazam ravishda berib borilgan rasmiy xabarlar va siyosiy mazmundagi maqolalar mustamlakachilik mafkurasi, g'oyasi bilan sug'orilgan bo'lib, barcha jaryonlar imperiya manfaatlari asosida talqin etilar edi. Dastlab uning sahifalarida asosan rasmiy farmoyishlar, vaqt o'tishi bilan esa Turkiston va qisman, Rossiya hamda xorijiy mamlakatlarning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, madaniyat va san'at, tarix, din, arxeologiya, etnografiya, geografiya, filologiya, sharqshunoslik bo'yicha maqolalarga o'rin beriladigan bo'ldi.

1870-yildan Toshkentda «Turkestanskiye vedomosti» gazetasiga ilova tarzida o'zbek tilida «Turkiston viloyati gazetasi» nashr etiladi. Uning sahifalarida hukumat va ma'muriyat farmoyishlari, sanoat va dehqonchilik, shuningdek, tarix va geografiyaga taalluqli materiallar yoritib borilgan. Keyinchalik Samarqand shahrida «Okraina» (1890), Toshkent shahrida «Tashkentskiy kuryer» (1906–1908), «Russkiy Turkestan» (1898–1907) kabi ilk xususiy gazetalar chop etila boshlandi.

1906-yilda ilk milliy matbuot namunasi «Taraqqiy» va bir necha oy o'tib, «Xurshid» gazetalarini dunyo yuzini ko'rdi. Millat va yurt manfaatini himoya qilishni, uni taraqqiyotga olib chiqishni maqsad qilib qo'ygan bu gazetalar «hukumatga qarshi maqolalar» chop etganlikda ayblanib, ularni nashr etish taqiqlangach, 1907-yildan «Tujjon», «Shuhrat» gazetalarini chiqara boshladi.

1908-yilda bu gazetalar ham hukumatga qarshi kayfiyatda ayblanib, yopib qo'yildi. Zero, ular millatni ma'rifat va taraqqiyotga da'vat etib mavjud tuzumni tanqidga olgan edi. 1913-yil apreldan Mahmudxo'ja Behbudiy muharrirligida o'zbek, fors va rus tillarida «Samarqand» gazetasi, shu yildan boshlab «Oyina» jurnali, 1914-yildan «Sadoi Turkiston» gazetasi, 1914–1915-yillarda «Sadoi Farg'ona» gazetolari chop etildi. Ikki yil davomida chop etilgan «Oyina» jurnali nafaqat Turkistonning turli joylariga, balki Kavkaz, Tatariston, Eron, Afg'oniston, Hindiston va Turkiyaga tarqalar edi.

Gazetalar sahifalarida dunyo yangiliklari, jamiyatdagi ijtimoiy muammolar, qoloqlik sabablari, taraqqiyot omillari, ta'lim tizimi islohotlari, islomshunoslik, diniy-axloqiy va ma'naviy tarbiya masalalari keng muhokama qilinar, islohotchilik g'oyalari targ'ib qilinib, hukmron tuzum oshkora tanqid ostiga olinar edi. Nafaqat ijtimoiy, balki iqtisodiy masalalar, dehqonchilik, savdo, sanoatni rivojlantirish, bank-moliya va kredit masalalaridagi adolatsizliklar, dehqonchilikni rivojlantirish istiqbollari, kasb-hunar ta'limi, ekologiya muammolari borasida o'ta tanqidiy va konstruktiv ruhdagi maqolalar chop etib borilgan. Ushbu mavzular muhokamasi va ayniqsa, musulmon olamidagi o'zgarishlar, islohotchilik harakatlari, siyosiy muhobaralar haqidagi xabarlar jamiyatning siyosiy ongini o'stirishga qaratilganligi bilan hukumatni tashvishga solar edi.

Adabiyot va dramaturgiya. O'zbek adabiyoti tarixida bu davrda milliy o'zlikni anglash jarayoni kuchayib, o'z ijodida ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy taraqqiyot, istibdod hukmronligidan qutulish g'oyalari ilgari surgan yangi avlod ziyolilari paydo bo'ldi, o'zbek adabiyotida an'anaviy yo'nalishlar davom etishi qatorida zamon taqozosi bilan yangi yo'nalishlar shakllandi.

Badiiy adabiyot Qo'qon, Xiva, Samarqand, Buxoroda asrlar mobaynida shakllanib kelgan. Bu davrda ijtimoiy-siyosiy jarayonlar markazi bo'lgan Toshkentda ham adabiyot jo'shqin tus olib, yangi yo'nalishlar paydo bo'ldi.

Qo'qon adabiy muhitida yetishib chiqqan Muhammad Aminxo'ja Muqimiy (1850–1903), Zokirjon Furqat (1859–1909), Ubaydulloh Zavqiy (1853–1921) Avaz O'tar («Faloniy»), Dilshod-Barno (1800–1905) va Anbar Otin (1870–1915) kabi iste'dodli shoirlar, Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xivada ijod qilgan o'nlab shoirlar o'zbek she'riyatining mumtoz an'alarini davom ettirish bilan birga unga yangi shakl va mazmun olib kirdilar. Xususan, badiiy adabiyotda hajviyot rivojlanib, tanqid kuchaydi, haqqoniy tasvir keng o'rin ola boshladi, o'sha zamon illatlari, zolim va adolatsiz amaldorlar keskin tanqid ostiga olindi. Shuningdek, she'riyatda ozodlik g'oyalari ilgari surila boshladi.

Bu davrda Abdulla Avloniyning «Adabiyot yoxud milliy she'rlar» (1909), Saidahmad Vasliyning «Milliy she'rlar» (1912), Sidqiy Xondayliqiyning «Tuhfayi Shavkat» (1913), «Savg'oti Shavkat» (1914), «Bazmi ishrat» (1914), Hoji Muinning «Guldastai adabiyot» (1914) kitoblari o'zbek she'riyatning yangi bosqichi shakllanishiga asos soldi.

Ma'rifatchilik g'oyalarining mazkur davr adabiyotiga bevosita ta'siri natijasida ma'rifat va taraqqiyot g'oyalari bilan sug'orilgan, qoloqlik, adolatsizlik, bilimsizlik, qadimiychilik, diniy mutaassiblik, jaholatni keskin tanqid ostiga olgan asarlar yuzaga keldi. Abdurauf Fitratning «Munozara» («Hindistonda bir farangi ila buxorolik mudarrisning munozarasi», 1909), «Sayha» (1911) va «Sayyohi hindi» (1912) kabi asarlari adabiyotda yangi yo'nalish – ma'rifatchilik g'oyalarining keng tarqalishida muhim rol o'ynadi.

XX asr boshida jadid adabiyotida nasr yo'nalishi ham shakllana boshladi. Anbar Otinning «Qarolar falsafasi», M.Behbudiyning «Oq yel-pig'ichli chinli xotun», Abdulrauf Shahidiyning «Falokat-zoda» hikoyalari, Mirmuhsin Shermuhamedovning «Befarzand Ochildiboy», Abdulla Qodiriyning «Juvonboz» va «Uloqda», Cho'lponning «Jaholat qurbonlari» va «Do'xtur Muhammadyor» nomli hikoyalari, Hamzaning «Yangi saodat» asarlari shular jumlasidan edi. Abdulla Qodiriy esa o'zining «Juvonboz» va «Uloqda» nomli hikoyalari zamondoshlarining fe'l-atvorlari va jamiyat hayotidagi yangi tarixiy davr bilan uyg'un bo'lmagan holatlar haqida fikr yuritadi.

XX asr boshida adabiyotda shakllangan yana bir yangi yo'nalish – ixcham o'g'itli she'r va



Abdulla Avloniy



Abdurauf Fitrat



Abdulla Qodiriy

hikoyalarning yaratilishida namoyon bo'ldi. Bunday ijod namunalari bolalar uchun mo'ljallangan bo'lib, ushbu sohada, asosan, Munavvar qorining «Adibi avval», «Adibi soniy», Saidrasul Aziziyning «Ustozi avval» (1902), Abdulla Avloniyning «Birinchi muallim», «Ikkinchi muallim», Rustambek Yusufbekovning (1880–1950) «Ta'limi avval», «Ta'limi soniy» kabi yangi usul maktablari uchun yaratilgan darslik, qo'llanma va majmualari o'rin olgan edi.

Xorazmda Ogahiy, Bayoniy kabi tarixchilar fors tilidan o'nlab asarlarni tarjima qildilar. Toshkentda mashhur hind eposi «Kalila va Dimna», arab ertaklari «Ming bir kecha», Sa'diy Sheroziyning «Guliston» asari, L.N.Tolstoyning «Odamlar nima bilan tirik» hikoyasi, Pushkinning «Boqchasaroy fontani», «Shoir» nomli asarlari o'zbek tiliga tarjima qilinib, «Turkiston viloyatining gazetasi» sahifalarida bosildi.

Aynan shu davrda ijod qila boshlagan Cho'lpon o'zbek she'riyatining yangi bosqichi asl poydevorini yaratdi, Abdulla Qodiriy o'zbek romanchiligiga asos soldi, Behbudiy asos solgan o'zbek dramaturgiyasi an'analarini davom ettirib, Abdurauf Fitrat, Hamza Hakimzoda o'zbek dramachiligining eng sara namunalari yaratdilar, Fitrat yangi o'zbek adabiyotshunosligiga asos soldi.

Bu davrda xalq og'zaki ijodida zamonning muhim ijtimoiy-siyosiy masalalarini aks ettiruvchi asarlar yaratildi, tarixiy qo'shiqlarning yangi namunalari yuzaga keldi. Rossiyaning bosqinchilik siyosati va mustamlakachilik zulmiga qarshi xalq noroziligini aks ettiruvchi, amir va beklarning o'zaro kelishmovchiliklarini qoralovchi «Xorazmnoma», «Botirxon zulmi», «Nazar va Oqbo'tabek», «Muzaffarxon», «Jizzax qo'zg'oloni» kabi asarlar yaratildi.

Mahmudxo'ja Behbudiy 1911-yilda yozib, 1913-yilda chop etgan «Padarkush» dramasi bilan o'zbek dramaturgiyasiga asos soldi. Milliy dramaturgiya qisqa fursatda jaded adabiyotining yetakchi yo'nalishiga aylanib ulgurdi.

1914-yilda Abdulla Avloniy tomonidan Toshkentda «Turon» nomli ilk milliy teatr tashkil etildi va unda «Padarkush» dramasi sahnalashtirilib, katta muvaffaqiyat bilan namoyish etildi.

Toshkentning eski shahar qismida qishlik va yozlik sahnaga ega bo'lgan «Turon» teatrida nafaqat milliy, balki tarjima asarlari, musiqali dramalar ham sahnalashtirildi. «Turon» jamoasida o'ttizga yaqin muqim aktyorlar guruhi, Nizomiddin Xo'jayev, Abdulla Avloniy, Badriddin A'lamov kabi ilk milliy sahnalashtiruvchilar faoliyat ko'rsatganlar.

Farg'ona vodiysi shaharlarida ham yangi teatr jamoalari tuzila boshlandi. 1914-yil Samarqandda Behbudiy boshchiligida o'zbek havaskorlik teatri

tashkil etildi. Qo'qonda teatr jamoalari faoliyatini yo'lga qo'yishda Hamza katta rol o'ynadi. U 1915-yil Qo'qon shahrida havaskorlik teatriga asos soldi. Qo'qon jamoasi o'z ishini «Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari» (1916) spektakli bilan boshladi.

O'lkada milliy matbuotning paydo bo'lishi adabiy muhitni jonlantirib yubordi. Matbuot sahifalarida ijtimoiy muammolar talqiniga keng o'rin ajratilishi milliy gazetchilikka asos soldi. Bu borada qalam tebratgan Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Munavvar qori Abdurashidov, Niyoz Rajabzoda kabi ziyolilarning maqolalarida Turkistondagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvol, ma'rifat masalalari, mahalliy aholining og'ir ahvoli va undan qutulish yo'llari bilan bog'liq dolzarb masalalar, xalq va mamlakat taqdiri uchun g'oyat muhim ijtimoiy muammolar ko'tarildi. Gazetchilik jadid adabiyotining yetakchi sohasi sifatida shakllana boshladi.

An'anaviy musiqa san'ati. Turkistonda asrlar davomida an'anaviy rivojlanib kelgan musiqa san'atida maqomchilik yo'nalishi Buxoro–Samarqand, Toshkent–Farg'ona hamda Xorazmda keng rivoj topgan va o'ziga xos xususiyatlarga ega edi. Xususan, Buxoro va Samarqandda «Shashmaqom» yo'nalishi, Toshkent va Farg'onada katta ashula va o'ziga xos maqom turkumlari, Xiva va Urganchda Xorazm maqomlari va suvorolari keng yoyildi. Buxoroda «Shoshmaqom»ni yaxshi o'zlashtirgan yetuk hofizlar – Ota G'iyosiddin Abdug'aniyev va Jaloliddin ota Nosirovlar yashab, ijod qilganlar. Xivada yevropacha notalarni o'rgangan xorazmlik shoir, olim, mashhur bastakor Pahlavon Niyoz Mirzaboshi (Kamil Xorazmiy) «Xorazm tanbur nota chizig'ini ixtiro qiladi.

Toshkentda mahalliy ijrochilik an'analari chuqur egallagan Mulla To'ychi Toshmuhamedov (1868–1943), Shorahim Shoumarov (1876–1969) Toshkent, Farg'ona vodiysiga xos xonandalik uslublari, murakkab ashula va maqom yo'llarini ham puxta o'zlashtirib, Eron, Turkiya, Italiya, Misr, Hindistonda va Sharqiy Turkiston shaharlarida o'z ijrochilik mahoratini namoyish qilgan.

Ilm-fan. Buxoro, Qo'qon va Xiva tarixchilik maktablari an'analari davom ettirilib, shu davrning muhim tarixiy voqealari, xususan, Rossiya imperiyasi bosqini bilan bog'liq jarayonlar, hukmdorlarning faoliyati, me'moriy inshootlar qurilishi, ziyoratgohlar ta'rifi kabi mavzularni qamrab olgan o'nlab qo'lyozma va toshbosma asarlar yuzaga keldi. An'anaviy tarixchilik maktabiga xos bo'lgan saroy tarixchiligi qoliplaridan chetga chiqib, o'tkir ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy mavzularga munosabat bildirib, ularni tanqid ostiga olgan,

islohotlar va yangiliklar taklif qilgan asarlar yuzaga keldi. Ahmad Donish, Fitrat, Ibrat kabi mualliflarning tarixiy asarlari shular jumlasidan edi.

Tabiiy va aniq fanlar borasidagi eskicha qarashlardan voz kechish qiyin bo'lgan. Dunyoning bu boradagi ilg'or yutuqlaridan chetda qolganlik muhiti-da biron-bir arzigulik siljish yoki o'zgarish yuz bermagan. Faqat XX asr bosh-lariga kelib Fitrat, Mahmudxo'ja Behbudiy va Munavvar qori Abdurashid-xonov urinishlari orqali geografiya fanida an'anaviy «yetti iqlim» qarashi bilan cheklanmay, yer yuzidagi qit'alar, okeanlar, mamlakatlar joylashuvi, iqlimini o'rganishga e'tibor qaratildi.

Tashqi aloqalar. Rossiya imperiyasi hukmronligining o'rnatilishi va ayni shu davrda Buyuk Britaniya – Rossiya raqobatining kuchayishi Turkistonning Hindiston, Afg'oniston, Eron, Sharqiy Turkiston bilan an'anaviy savdo aloqalariga jiddiy ta'sir qildi.

Mintaqada Rossiya hukmronligi o'rnatilgach, an'anaviy savdo o'zgarib, Sharqiy Turkiston bilan savdo aloqalarida imperiya manfaatlari birinchi o'ringa chiqqan boshladi. 1881-yil 12-fevralda Peterburgda Rossiya va Xitoy o'rtasi-da savdo munosabatlari to'g'risida yangi shartnoma imzolandi. Unga ko'ra savdo aloqalari Erkashtom bojxona punkti orqali olib borilishi belgilandi. Bu shartnoma Rossiya uchun katta imkoniyatlar yaratdi. Bunga qadar Koshg'ar bilan savdo aloqalarini yo'lga qo'ya olmagan Rossiya uchun Sharqiy Turkistonning janubiy qismiga ham yo'l ochildi. Farg'ona vodiysini Koshg'ar bilan bog'lab turgan Erkashtom endilikda Rossiya tasarrufiga o'tdi.

Shartnomaga asosan 1882-yilda Sharqiy Turkiston shaharlarida rus vakolatxonalarini tashkil etiladi va qisqa vaqt ichida Koshg'ar bozorlari rus tovarlari bilan to'lib ketadi. Mazkur savdo aloqalarida imperiya hukumati farg'onalik savdogarlar, ayniqsa, andijonlik savdogarlar tajribasi va an'alaridan unumli foydalana boshladi. Ular orqali Turkiston general-gubernatorligidan Sharqiy Turkistonga rus sanoat mahsulotlaridan movut, temir, qo'rg'oshin, mis, cho'yandan qilingan boltalar, oyoq kiyim, gugurt, qulflar, doshqozonlar, idish-tovoq va sham kabi o'nlab turdagi tovarlar jo'natiladigan bo'ldi.

Turkiston general-gubernatorligiga olib kelingan tovarlar esa O'sh shahrida tarqatilgan. O'sh shahridan tovarlar Toshkent, Qo'qon va Marg'ilonga yuborilgan. Qo'qon shahrida esa Xitoy tovarlari uchun bojxona va omborxonalar tashkil etilgan bo'lib, ular bu yerdan Buxoro, Samarqand va vodiylar shaharlariga olib ketilgan.

Koshg'ardan ipak tolasi, gilamlar, Xitoy chinnisi, jun mahsulotlari va boshqa tovarlar sotib olingan. Rus sanoat mahsulotlaridan cho'yan, po'lat va mis buyumlar, shakar, turli xil oyoq kiyimlari xaridorgir hisoblangan.

Rossiya imperiyasi Sharqiy Turkiston hududiga Turkiston general gubernatorligidan ba'zi tovarlarni olib borishni qat'iy taqiqlab qo'ydi. Xususan, 1878-yildan chorva hayvonlarini olib o'tish, 1880-yil 27-fevraldan un mahsulotlarini chiqarish taqiqlangan. Bundan maqsad metropoliya manfaat-lari uchun zarur mahsulotlarni imkon qadar chetga chiqarmaslik edi. Bunday mahsulotlarni nafaqat mintaqadan, balki unga qo'shni davlatlardan olib kelish ham rag'batlantirilar edi.

O'ziga qulay savdo shartnomalarini imzolab olgan rus hukumati Sharqiy Turkistondagi bozor va xomashyo manbayini qo'lga kiritishga jiddiy kirishadi. Turkiston savdogarlarining katta tajribasi va vositachiligidan foydalanish, ular uchun mukofotlar joriy qilish, savdoni rivojlantirish uchun zaruriy shart-sharoit yaratish orqali Rossiya savdo-sanoat doiralari yirik mablag'ni qo'lga kiritishga, Yevropa tovarlari raqobatini sindirishga va Sharqiy Turkiston bilan savdo aloqalarini kuchaytirishga erishdi. 1910-yilda Farg'ona viloyati orqali Sharqiy Turkiston bilan o'zaro savdo aylanmasi 1909-yilga nisbatan 45 foizga ortganligi buning yaqqol dalili edi.

Turkiston va Eron savdo aloqalari XIX asr o'rtalariga qadar ancha faol edi. Eronning Mashhad shahridan Afg'onistonga, Afg'oniston orqali Buxoroga ko'p tovarlar keltirilgan.

Buxorodan Eronga chiqariladigan tovarlar orasida qorako'l terisi va qorako'lcha asosiy o'rinni tutgan. Bu mollar bilan savdo qilish, ayniqsa, 1844-yildan keyin kuchaygan. Shu yili Buxoro amiri inglizlar bilan bo'ladigan savdoda naqd pul bilan savdo qilishni o'z savdogarlariga taqiqlaganligi bois, inglizlar Buxorodan qorako'l terisini eronliklar orqali sotib olar edilar.

XIX asrning ikkinchi yarmida Xuroson, Seyiston va Belujiston viloyatlariga katta miqdorda keltirilgan ingliz tovarlari bu hududlar orqali Buxoro va Xivaga ham kirib kela boshlagan. Buxoro-Eron o'rtasidagi o'zaro savdoda asosiy o'rinni qorako'l terisi, undan keyin esa indigo, Kashmir shol ro'moli, qizil bo'yoq, sariq ip-gazlama, rus chiti, temirdan yasalgan buyumlar, sandiqlar egallagan. Buxoroning Eron bilan chegara hududlarida bunday tovarlar ingliz ip-gazlamalariga, eron gilami va ro'moliga, yarim ipak matolar, firuza toshi, qalampir, zanjabil, mum-saqich va qand-qursga almashtirilgan.

Rossiya imperiyasining sanoat ishlab chiqarish hududlariga nisbatan yaqin joylashgan Eron bozorlari rus savdogarlari uchun juda qulay bo'lib, ularni egallash muhim ahamiyat kasb etar edi. Shu bois, rus hukumati Eron bilan

savdo-sotiqni keng rivojlantirishdan juda manfaatdor bo'lib, imkon qadar imtiyozlar yaratish orqali savdo aloqalarini jonlantirish choralarini ko'radi.

Eron bilan chegarada 3 ta kechuv va 7 ta bojxona manzili mavjud edi. Turkiston uchun asosiy savdo markazi Mashhad bo'lib, u Eronning boshqa ichki bozorlari bilan mustahkam aloqada bo'lgan. Turkistonda esa Ashxobod shahri asosiy savdo manzili edi.

Kaspiyorti temir yo'lining qurilishi va uning Ashxobodgacha yetib borishi Eron bilan savdo aloqalarini rivojlantirishga katta imkoniyat yaratdi. 1895-yildan Xiva xonligi Rossiya boj tizimiga o'tkazilgach, mamlakatning Eron bilan savdo munosabatlari endi to'liq metropoliya manfaatlari asosida tashkil etila boshlandi.

Savdo aloqalarini rivojlantirish, savdogarlarga qulaylik yaratish maqsadida Mashhadida hisob-kitob banki tashkil etiladi. Eronga kiritiladigan Rossiya tovarlarini imtiyozli narxlarda sotishga ruxsat beriladi. Rus sanoat mahsulotlarini (gugurt, kalava iplar, gazlamalar) Buxoro orqali Eronga chiqarish keng rag'batlantirilib, ularni olib borganlar uchun yengillik va imtiyozlar belgilanadi.

Erondan Xorazm va Kaspiyorti viloyati orqali Rossiya sanoati uchun zarur bo'lgan xomashyo – paxta tolasi, shuningdek, dehqonchilik mahsulotlaridan g'alla, guruch, jo'xori, kunjut, ipak, kanakunjut, katta miqdorda ho'l va quruq mevalar (anor, apelsin, limon, achchiq apelsin, olxo'ri, pista, bodom, mayiz) hamda hunarmandchilik mahsulotlaridan ipak matolar, gilamlar, namat, jundan to'qilgan matolar olib kelinar edi.

Rossiya imperiyasi Eron bilan xonliklar o'rtasidagi an'anaviy savdo aloqalarini butkul boshqa yo'nalishga burib yubordi va o'zining bosh maqsadi, ya'ni Eronning bozorlarini hamda rus sanoati uchun zarur xomashyosini imkon qadar egallash uchun yetarli imkoniyatlarga ega bo'ldi.

Buxoro bilan Afg'oniston savdo aloqalarida Amudaryo orqali o'tish punktlari – kechuvlar ham katta rol o'ynagan. Xususan, Saripul, Shibirg'on, Kobul, Axchadan tovarlar keltirishda Kelif kechuvidan o'tilgan, Maymana va Andxo'ydan kelishda Kerki kechuvi orqali o'tilgan.

Buxorodan Maymanagacha savdo karvoni 14 kunda, Balx orqali Kobulga esa 27 kunda yetib borgan. Afg'onistonga olib o'tiladigan tovarlar, asosan, tuyalarda karvon yo'llari orqali tashilar, bu esa ularga juda qimmatga tushardi. Amudaryo orqali o'tgan suv yo'li bilan tovarlarning faqatgina bir qismi tashilar edi.

Buxorodan Afg'onistonga chiqarilgan tovarlar ro'yxatida mahalliy mahsulotlar va hunarmandchilik buyumlari asosiy o'rinni egallagan. Bular,

eng avvalo, pilla xomashyosi, echki juni, bo'z, pichoq, qaychi kabi ro'zg'or buyumlari edi. Shuningdek, afg'on viloyatlariga ip va ipak gazlamalar ham jo'natilgan. Rus tovarlaridan Afg'onistonga mis, cho'yan qozonlar, sandiq, nina, pichoq, ustalarlar, movut olib borilgan. Buxoroga esa Maymana, Saripul, Mozori Sharif, Shibirg'on, Andxo'ydan pista, kunjut, bodom, qo'y, tulki terisi, qora va sur rangli teri, jun, ko'k choy, qora va ko'k mayiz olib kelingan. Kobuldan esa asosan ko'k choy, indigo, hind shol ro'moli, hind parchasi, ingliz kiseyi (doka), qorako'l terisi keltirilgan.

Rossiya imperiyasi hukmronligining o'rnatilishi bilan Buxoro–Afg'oniston chegarasi Rossiya–Afg'oniston chegarasiga aylandi. Rossiya o'zining tashqi chegarasini Buxoro–Afg'oniston chegarasiga ko'chirdi, endilikda amirlik chegarasi rus qo'shini tomonidan qo'riqlanadigan bo'ldi.

Buxoro amirligi Rossiya yagona bojxona tizimiga kiritilgach, savdo karvonlarining Amudaryo bo'ylab erkin harakat qilishi cheklab qo'yiladi. Savdogarlar Afg'onistonga borish uchun belgilangan ma'lum manzillar orqali kechuvdan o'tib borishlari, u yerdan olib keladigan tovarlar ham bojxonalaridan o'tishi lozim edi. Bu tartibga rioya etmaganlar jarimaga tortilgan, ba'zan esa tovarlari musodara qilinishgacha borib yetgan.

XXI. SOVETLAR HUKMRONLIGI DAVRI

1917-yil fevral oyida Rossiya imperiyasi markazida yuz bergan davlat to'ntarishi oqibatida 15-mart kuni Nikolay II taxtdan voz kechadi. Shu tariqa, mazkur davlatda podsholik hukmronligiga chek qo'yilib, respublika boshqaruvi joriy qilinadi. Ushbu keskin siyosiy o'zgarish qaram o'lkalar hayotiga ham ta'sir o'tkazishi tabiiy edi.

Turkiston bo'ylab har bir shahar, uyezd, volost va qishloqda eski ma'muriyat idoralari muvaqqat hukumat tomonidan tugatilib, o'rniga jamoat tashkilotlari ijroiya qo'mitalari, ya'ni jamoat xavfsizligi deb nomlangan qo'mitalar tashkil topa boshladi.

1917-yilning martida tashkil topgan «Sho'royi islomiya» tashkilotiga Munavvar qori Abdurashidxonov rahbarlik qildi. Undan 1917-yilning iyunida «Sho'royi ulamo» va 1917-yilning iyulida «Turk adami markaziyat firqasi» («Turkiston federalistlar partiyasi») ajralib chiqqan edi. Ularning paydo bo'lishi, so'zsiz, yanada kuchli va samarali siyosiy tashkilotchilik tizimini yaratish, aynan Turkiston ahli manfaatlarini himoya qilishni o'z maqsadi deb bilgan jamiyat va ittifoqlardagi tarqoq milliy siyosiy kuchlarni qovushtirish va jipslashtirish borasida qilingan ilk jiddiy urinishlardan biri edi.

«Sho'royi islomiya» tashabbusi bilan Toshkentda 1917-yil 16–23-aprel kunlari Butunturkiston musulmonlarining birinchi o'lka qurultoyi bo'lib o'tdi. Unda butun Turkistondan 150 ga yaqin delegat to'plandi.

20 ga yaqin masalani ko'rib chiqqan qurultoy o'lkada mustamlakachilikni tugatish va musodara qilingan yerlarni mahalliy aholiga qaytarish talabi bo'yicha maxsus qaror qabul qilgan. Turkistonda musulmonlar Markaziy Sho'rosini ta'sis etish to'xtamiga ham mazkur yig'ilishda kelingan. Bu qaror keyinchalik Milliy markaz shaklida amalga oshirildi. Milliy markaz faoliyatida Mustafo Cho'qay, Ahmad Validiy, Munavvar qori, Mahmudxo'ja Behbudiy, Ubaydulla Xo'jayev va boshqa faol ziyolilar muhim o'rin egallaganlar.

Milliy davlatchilik qurilishi borasida o'sha kezlarda, asosan, ikki xil qarash bo'lganini urg'ulash kerak. Birinchisiga ko'ra, Turkiston to'liq siyosiy, iqtisodiy mustaqillikka erishish uchun Rossiyadan qat'iy ajra-

lib chiqishi yoqlangan. Ikkinchisining tarafdorlari esa, u alonida hududiy muxtoriyat sifatida demokratik Rossiya davlati tarkibiga kirishini ma'qul ko'rardilar.

Shunday sharoitda «Sho'royi islomiya» urinishlari bilan 1917-yil 7-sentabrda Toshkentda Butunturkiston musulmonlari II O'lka qurultoyi ochildi. Unda, jumladan, yer-suv, oziq-ovqat, maorif va madaniyat masalalari, shuningdek, Ta'sis majlisi, yangi Duma va zemstvo saylovlariga tayyorgarlik, savdo va sanoatni rivojlantirish hamda boshqa qator masalalar ko'rib chiqilgan.

Rossiyaning birinchi jahon urushidagi muvaffaqiyatsizligi, iqtisodiy inqiroz, uning oqibatida boshlangan ocharchilik ommaning noroziligini yanada kuchaytirdi. 1917-yil martdan boshlab aholi orasida aniq maqsadga yo'naltirilgan faoliyatni boshlagan, avombop shiorlarni o'rtaga tashlab, ommaning e'tiborini qozongan bolsheviklar 25-oktabrda zo'rvonlik yo'li bilan to'ntarish yasab, imperiya markazida hokimiyatni egallab oldi.

V.Lenin boshchiligida bolsheviklar hukumati tomonidan Rossiyaning boshqa hududlarida ham sovetlar hokimiyatini o'rnatish boshlandi.

Jumladan, 1917-yil 1-noyabrda bolsheviklar Toshkentda ham sovet hokimiyatini o'rnatdilar. Bolsheviklarning faoliyati milliy tashkilotlar vakillarini tashvishga solib qo'ydi. Bu tashkilotlar va Milliy markazning faollari dastlab Toshkentdan Samarqandga, so'ngra Qo'qon shahriga ko'chib o'tishga majbur bo'ldi. U yerdan esa Turkistonning barcha yirik shaharlariga yangicha sharoitda umumiy ishlarni muvofiqlashtirish uchun o'z vakillarini yubordi va Turkiston o'lka musulmonlarining favqulodda IV qurultoyini Qo'qonda chaqirish uchun tayyorgarlik ishlarini boshladi.

Uch kun mobaynida syezd ishtirokchilari Turkiston o'lkasining bo'lg'usi siyosiy tuzilishi haqidagi o'z qarashlarini belgilab olishdi, bu qarashlar qurultoyda qabul qilingan hujjatlarda o'z aksini topdi. Shu yil 27-noyabrda tashkil topgan respublika Turkiston Muxtoriyati deb ataldi. Ta'sis majlisi chaqirilgunga qadar hokimiyat Turkiston Muvaqqat kengashi va Turkiston Milliy majlisi qo'lida jamlandi.

Shu tariqa, Turkistonda ikki hokimiyatchilik yuzaga keldi. Ya'ni og'izda millatlarning o'z taqdirini o'zi belgilashi huquqini yoqlagan, biroq amalda Rossiya imperiyasi hukmronligini yangicha sharoitlarda saqlab qolish siyosatini yuritgan bolsheviklar bir tomon, milliy istiqlol bayrog'ini baland ko'targan, o'zbek davlatining mustaqilligini tiklashga qattiq bel bog'lagan o'zbek ziyolilari, ishbilarmonlari bir tomon bo'lganlar.

Oldiniga Turkiston Muxtoriyati hukumatining ta'sir doirasini cheklash va uni tugatish uchun yetarli harbiy kuchga ega bo'lmagan bolsheviklar 1918-yil 19-yanvardagina Orenburgni qo'lga olib, Moskva bilan Turkiston o'rtasida temir yo'l qatnovi tiklaganlaridan so'ng Toshkentga qurol-yarog' yetkazib berish imkoniga ega bo'ladilar. Toshkentdagi bolsheviklar bundan ruhlanib, 1918-yil 31-yanvarda Qo'qondagi Turkiston Muxtoriyati hukumatini tarqatib yuborish haqida qaror qabul qiladilar.

1918-yil 18-fevraldan 19-fevralga o'tar kechasi Qo'qonga Toshkentdan bolsheviklarning harbiy komissari E.L.Perfilev boshchiligidagi piyoda, otliq va to'p bo'linmalaridan iborat 11 eshelon qo'shin yetib kela boshladi. Sovet qo'shinlari Qo'qonni hamma tomondan qurshovga oldi. Qo'qon shahri 3 kun davomida to'plardan o'qqa tutilib, vayron qilindi. Ularga qarshi Muxtoriyat qo'shini va bolta, cho'kich, tayoq bilan qurollangan qo'qonliklar qarshi turdi. Mustaqil davlatchilik va ozodlik uchun kechgan ushbu qonli urushda 10000 ajdodimiz halok bo'ldi. Shunday qilib, 1918-yil 22-fevralda Turkiston Muxtoriyati hukumati ag'darib tashlandi.

Turkiston Muxtoriyatining tor-mor etilishi, bolsheviklarning turkistonliklarni talash va Toshkentdagi sovet hokimiyatining zo'ravonliklari, umuman, sovet hukumatining shovinistik siyosati ular hokimiyatining mintaqada saqlanib qolishini xavf-xatarga qo'yishi aniq edi. Ushbu sharoitda vaqtincha bo'lsa-da, mahalliy qatlamlar ko'nglini ovlash, siyosiy chuv tushirish maqsadida V.Lenin o'lkaga ishonchli kishilarini yuborib, 1918-yil 20-aprelda Turkiston o'lka sovetlarining V qurultoyida Turkistonda sovet avtonomiyasini tashkil etish masalasini qo'ydiradi. 1918-yil 30-aprel kuni syezdda «Rossiya Sovet Federatsiyasining Turkiston Sovet Respublikasi haqidagi nizom» tasdiqlandi. Unda Turkistonda davlat qurilishi asoslari, uning hududi, oliy qonunchilik va ijroiya idoralari, mahalliy idoralar tuzilishi, vazifalari va ularning RSFSR bilan o'zaro munosabatlari belgilab berildi. Nizomga muvofiq, Buxoro va Xivadan tashqari, Turkiston o'lkasining geografik chegaralaridagi butun hudud Rossiya Sovet Federatsiyasining Turkiston Sovet Respublikasi deb e'lon qilindi. Nizomda «Turkiston Respublikasi avtonom ravishda boshqarilib, o'z xatti-harakatlarini Rossiya Sovet Federatsiyasi markaziy hukumati bilan muvofiqlashtiradi» deb qayd etildi.

Qurultoyda o'lka oliy hokimiyati – oliy qonunchilik idorasi Turkiston Markaziy Ijroiya Qo'mitasi raisi etib P.A.Kobozev, ijroiya hokimiyat – Turkiston Xalq komissarlari soveti raisi etib F.I.Kolesov saylanganining o'ziyoq

mazkur qadamlarning bari o'zbek xalqi manfaatlariga qarshi, rus hukumati foydasiga bo'lganini isbotlaydi, albatta.

Bu bilan ham cheklanmagan Moskva Turkistonda o'z ta'sirini saqlash va kuchaytirish maqsadida yana bir idora – Turkiston komissiyasini tuzadi.

Raisi Sh.Eliava, a'zolari V.Bokiy, F.Goloshchekin, V.Kuybishev, M.Frunze, Ya.Rudzutak bo'lgan mazkur komissiya juda katta vakolatlarga ega edi. Ular 1919-yil kuzida Toshkentga yetib kelganlar va o'shandan boshlab Turkiston ASSRdagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlar bilan bog'liq barcha muhim masalalar ularning roziligi bilan hal etila boshlangan.

Sovet hokimiyati va bolsheviklarning xususiy mulkchilikni yo'qotish, xo'jalik hayotining barcha sohalarida sotsialistik davlat mulkchiligini avj oltirish, xalq xo'jaligiga rahbarlikni markazlashtirishga yo'naltirilgan, shu bilan birga, iqtisodiy usullar o'rniga ma'muriy-buyruqbozlik usullari bilan ish yuritishga qaratilgan siyosati Turkistondagi ocharchilik va vayronagarchilikni yanada chuqurlashtirdi.

Sovet hokimiyati mamlakatda joriy qilgan favqulodda iqtisodiy choralar «harbiy kommunizm» siyosati deb nomlandi. Bu siyosat bir ko'rinishda umumiy vayronagarchilik tufayli ochlik girdobida qolgan xalqni oziq-ovqat bilan ta'minlashga qaratilgandek ko'rinadi. Aslida esa u shahar bilan qishloq o'rtasida zo'raonlarcha to'g'ridan-to'g'ri mahsulot ayirboshlashga asoslangan bo'lib, ocharchilikka muhtalo xalqni emas, balki frontda inqilobni himoya qilayotgan qizil armiyani va mamlakat ichkarisida bolsheviklar siyosatining bosh tayanchi bo'lgan ishchilar sinfini oziq-ovqat bilan ta'minlashni maqsad qilib qo'ygan edi. Shu bilan birga, «harbiy kommunizm» siyosati inqilobni va sovet davlatini harbiy yo'l bilan himoya qilish va sotsializm qurish usuli sifatida bolsheviklar tomonidan o'rnatilgan siyosat edi.

Turkistonda sovet hokimiyati dastlabki kunlardan boshlab qishloqda mulkdorlar sinfiga qarshi kurash boshladi. 1918-yildan boshlab yirik rus mustamlakachilari bo'lgan katta yer egalari, mahalliy boylarning yerlari va asbob-anjomlari musodara qilindi. Qishloqdagi boy dehqonlar yerlarini musodara qilish, asosan kolxoz, kommuna, sovxozlar tashkil qilishga, yakka dehqon xo'jaliklarini jamoaviy xo'jalikka aylantirishga qaratildi.

Turkiston mintaqasidagi istiqlolchilik harakati va uning mohiyati. 1918-yil fevral oyi oxirida sovet hokimiyati tomonidan Qo'qonda Turkiston Muxtoriyati hukumatining tor-mor qilinishi bilan mintaqa xalqlari mustaqillik

va ozodlikka erishish uchun qurolli kurash boshladilar. Uning qatnashchilari istiqloлчаilar sifatida tarix sahifalariga yozib qo'yilgan. O'z paytida Turkiston jadidlarining yo'l boshchilari Mahmudxo'ja Behbudiy va Munavvar Qori tomonidan o'rtaga tashlangan «Haq olinur, berilmas!» shiori istiqloлчаilarning qalb amri va yurak da'vatiga aylandi.

Turkiston mintaqasidagi istiqloлчаilik harakati o'z jo'g'rofiy doirasiga ko'ra uch hududga bo'linadi: Turkiston ASSR, BXSР va XXSR. U keyinchalik O'zbekiston SSR, Turkmaniston SSR, Tojikiston SSR va Qirg'iziston ASSRda ham davom etdi. Qurolli kurash o'z rivojlanish jarayoniga ko'ra ikki tarixiy davrni bosib o'tdi: 1918–1924 va 1925–1935-yillar.

Istiqloлчаilik harakatining birinchi davri, dastlabki istiqloлча guruhlarning tashkil qilinishi Qo'qon atrofidagi Bachqir qishlog'idan chiqqan Kichik Ergash va Katta Ergash qo'rboshilarning nomlari bilan uzviy bog'liqdir. Tez orada bu harakat Qo'qon atroflaridan chiqib, butun Farg'ona vodiysi va Samarqand viloyati hududlariga tarqaldi. Kichik Ergash 1918-yil 27-fevralda halok bo'lgach, Katta Ergash, keyinchalik Madaminbek, Shermuhammadbek, Islom Polvon, Yormat Maxsum kabi qo'rboshilar Farg'ona vodiysidagi istiqloлчаilik harakatining rahbarlariga aylanishdi. Ochilbek va Bahrombek esa Samarqand viloyatidagi qo'zg'olonchilarning yetakchilari edi.

Istiqloлчаilik harakatining mohiyati haqida gapirganda, shu narsani alohida urg'ulab o'tish joizki, harakatning boshidan oxirigacha Turkiston birligi va mustaqilligi uchun kurash g'oyasi yotadi. Birinchidan, harakat rahbarlari bo'lgan qo'rboshilar mustaqil va bo'linmas Turkiston davlatini tuzish g'oyasini o'rtaga tashladilar. «Mustaqil Turkiston uchun!», «Turkiston – turkistonliklar uchun!», «Bolsheviklarsiz va sovetlarsiz Turkiston uchun!», «Yo'qolsin sovet hokimiyati!» kabi shiorlarda turkistonliklarning bolsheviklarga qarshi milliy kayfiyatlari, harakatning lo'nda g'oyasi hamda mustaqil o'zbek davlatchiligi an'analarini qayta tiklash yaqqol namoyon bo'ladi.

Ikkinchidan, sovet rejimiga qarshi qurolli harakat vujudga kelgan paytdan boshlab tashkiliy jihatdan uyushgan, yirik harbiy va siyosiy kuch sifatida maydonga chiqdi. Istiqloлчаilarning harbiy qo'mondonlari bo'lgan qo'rboshilar bu jihatdan muhim o'rin tutishadi. Qo'rboshilar qurultoylari, ularda qabul qilingan muhim qarorlar, urush sharoitida Farg'ona vodiysida Madaminbek va Shermuhammadbek rahbarligida tashkil qilingan turli mustaqil hukumatlar, keyinchalik Buxoro va Xorazmda Ibrohimbek, Fuzayl Maxdum, Davlatmandbek, Mulla Abdulqahhor, Junaidxon tomonidan tuzilgan hukumatlar,

istiqlolchilarning Turkiston jamiyati barcha toifalari va keng xalq ommasi tomonidan qoʻllab-quvvatlanishi milliy ozodlik harakatiga yangi kuch va mazmun kiritdi. Turkiyadan Anvar Posho va Salim Posho kabi harbiy sarkardalarning kelishi istiqloqlilik harakatini yanada kuchaytirdi.

Uchinchidan, istiqloqlilik harakatining mustahkam iqtisodiy tayanchi mavjud boʻlgan. Ozodlik kurashchilari oʻn yillar davomida bosqinchi Rossiya armiyasiga qarshi faqat oʻzlarining ichki imkoniyatlari va moddiy kuchlariga tayanib qahramonona kurash olib borishgan. Xorijiy davlatlardan ularga deyarli hech qanday yordam kelmagan. Harakat rahbarlari tomonidan mintaqada pul zarb etilishi va aholi oʻrtasida tarqatilishi, soliq siyosati hamda iqtisodiy boshqaruvning boshqa jihatlari mavjudligi ular mustaqil iqtisodiy siyosat yuritganligidan dalolat beradi.

Toʻrtinchidan, oldiniga RSFSR, soʻng SSSRning zamonaviy qurol-aslahalar bilan qurollangan qudratli armiyasiga qarshi Turkistondagi istiqloqlilar qoʻshini yolgʻiz oʻzi hayot-mamot kurashiga kirgan edi. Bu kurashda istiqloqlilar gʻalaba qozonishga umid qilishgan boʻlsa ham, kuchlar nisbati teng boʻlmagan.

Qizil armiya tomonidan Xiva xonligi va Buxoro amirligi ham bosib olingach, 1920–1924-yillarda Buxoro va Xorazm respublikalarida istiqloqlilik harakati oʻziga xos alohida yoʻnalish va xususiyatga ega boʻlgan. Yosh buxoroliklar va Yosh xivaliklar bu paytda siyosiy hokimiyatni saqlab qolish uchun bolsheviklar tomoniga oʻtib, istiqloqlilarga qarshi kurashdilar.

1924-yil oxirida bolsheviklar tomonidan milliy-hududiy chegaralanish oʻtkazilishi oqibatida Turkiston mintaqasi parchalab tashlandi. Shu tariqa, qurolli kurashning birinchi davri yakunlandi. Uning ikkinchi davri esa yana oʻn yil davom etdi. U oʻzining koʻlami va kuchlar nisbati jihatidan avvalgi davrga nisbatan ancha farq qiladi. Kurash bu davrda asosan Sharqiy Buxoro, Xorazm vohasi va Fargʻona vodiysida davom etdi. Biroq 1935-yilga borib, Turkistondagi istiqloqlilik harakati butunlay magʻlubiyatga uchradi. Tirik qolgan kurashchilarning aksariyati xorijiy davlatlarga muhojir sifatida joʻnab ketishga majbur boʻldi.

Turkiston xalqlarining sovet hokimiyatiga qarshi olib borgan kurashi har ikki tomondan ham katta qurbonlar va moddiy talafot yuz berishiga olib keldi. Tadqiqotchilarning fikricha, qizil armiya Turkistonni qayta bosib olish uchun 400000 askar va zobitidan ayrilgan. Turkiston istiqloqlilarining umumiy talafoti oʻldirilganlar, asirga olinganlar va ogʻir yarador qilinganlar bilan jamlanganda 1,2 mln kishini tashkil qiladi. 1917–1935-yillarda Turkiston mintaqasi

qasidan taxminan 1,5 mln kishi xorijga muhojir bo'lib ketdi. Shuningdek, Turkistonda 1917-yil qishda boshlangan ocharchilik, sovet hokimiyatining xalqqa qarshi qaratilgan siyosati oqibatida 1917–1924-yillarda Farg'ona vodiysida 1 mln, Samarqand viloyatida 200 000 kishi ocharchilik va turli kasalliklardan o'ldi. Bolsheviklar tomonidan ocharchilik keyin ham sun'iy ravishda muntazam avj oldirilib turildi.

Turkistondagi istiqlolchilik harakati mag'lubiyatga uchragan bo'lishiga qaramasdan, o'zbek xalqi o'rtasida mustaqillik va ozodlik g'oyalari yashab qolishi uchun muhim omil bo'lib xizmat qildi. Sovet hokimiyatining keyingi davrida bolsheviklar turkiy xalqlarning tili, urf-odatlarini va an'analari, qisqasi, milliy zehniyati bilan murosa qilishga majbur bo'ldi. XX asr davomida xalqimizning butun-butun avlodlari istiqlol uchun kurashgan fidoyi va yovqur bobolarining jasorati va xotirasini unutmay, sabr-toqat va chidam bilan O'zbekiston istiqloli va mustaqilligini kutdilar.

Turkiston sharqida sovet hokimiyatining o'rnatilishi Buxoro va Xiva siyosiy hayotiga ta'sir ko'rsatishi turgan gap edi. Sovet Turkistoni rahbariyati va ularning harbiy kuchlari Xiva va Buxoroni bosib olib, u yerlarda ham sovet hokimiyatini o'rnatish payiga tushdi. 1919-yil 23-dekabrda sovet qo'shinlari Xorazm hududiga bostirib kirib, 1 fevralda Xiva shahrini egalladi. U yerda ochiqchasiga talon-torojga qo'l urib, aholidan talab olingan buyumlarni o'zaro bo'lib oldilar.

1920-yil 26–30-aprelda bo'lib o'tgan Butunxorazm xalq vakillarining I qurultoyida Xorazm Xalq Sovet Respublikasi (XXSR) tuzildi.

XXSR birinchi hukumati nozirlarining aksariyati jadidlardan iborat edi va shu sababli ham hukumat Yosh xivaliklar hukumati deb yuritildi. Yosh xivaliklar mamlakatda xonlikdan qolgan asoratlarni tugatish, respublikada demokratik tuzumni qaror toptirish uchun kurashdi. Rossiya rasmiy doiralari, Turkiston komissiyasi mustaqil siyosat yuritishga intilayotgan Yosh xivaliklar hukumatini badnom qilish uchun jon-jahdi bilan harakat qildi.

Sovet davlatining qurolli tazyiqlariga qaramay, Yosh xivaliklar hukumati qariyb bir yil yashadi. 1921-yil 6-martda Xorazmda qizil armiya siyosiy boshqarmasi va qizil askarlar uyushtirgan harbiy davlat to'ntarishidan so'ng Yosh xivaliklar hukumati ag'darib tashlandi.

1923-yil 17–20-oktabrda bo'lib o'tgan Butunxorazm xalq vakillarining IV qurultoyi XXSRni Xorazm Sovet Sotsialistik Respublikasiga (XSSR) aylantirish to'g'risida qaror qabul qildi. 20-oktabrda XSSRning yangi Konstitutsiyasi qabul qilindi. Bu Konstitutsiya mamlakatning sotsializm qurish

yo'liga o'tishini qonun yo'li bilan mustahkamladi. Unga muvofiq yerga xususiy mulkchilik bekor qilindi.

1917-yil aprelda bolsheviklar Buxoro amirligining Rossiya imperiyasiga qaramligini bekor qilib, uning mustaqil davlat ekanini tan olgandilar. Bundan foydalangan Fayzulla Xo'jayev boshchiligidagi yosh buxorliklar amir Olimxonni harbiy kuch yordamida davlat boshqaruvini o'zgartirishga majbur qilish yo'liga o'tadilar. Shu maqsadda, u Turkiston xalq komissarlari kengashi raisi F.Kolesov bilan muzokaralar olib borib, amirlikni ag'darish va o'rniga Yosh buxoroliklar ijroiya qo'mitasini tuzishga kelishib oladi. Kelishuvga ko'ra, 1918-yil mart oyida F.Kolesov katta harbiy kuch bilan Kogonga kirib keladi. U yerdan Fayzulla Xo'jayev bilan birga taslim bo'lish to'g'risidagi talabnomani amirga yuboradi.

Biroq amir Olimxon katta kuch to'plab, ularga qarshi zarba beradi. Fayzulla Xo'jayev va safdoshlari F.Kolesov armiyasi bilan birga Buxoroni tark etib, Moskvaga ketadilar.

Turkistonni qaytadan to'liq bosib olish niyatida bo'lgan V.Lenin va uning gumashtalari o'zlarining qabih rejalaridan toymaganlar. Buxoro amiri Turkiston ASSRga bostirib kirishga tayyorgarlik ko'rmoqda va uni qaytarish kerak, degan soxta bahonalar bilan 1920-yil yozida katta miqdordagi sovet qo'shinini amirlik chegaralariga yaqin yerga keltirib qo'yadi. 24-iyunda esa amirlik boshqaruviga qarshi bo'lgan milliy kuchlarni jipslashtirish va to'ntarish hozirlash maqsadida Turkiston komissiyasi rahbarligida Buxoroda qurolli qo'zg'olon tayyorlash bo'yicha harbiy-inqilobiy byuro tuziladi. Uning tarkibiga Turkiston komissiyasi a'zolari M.Frunze va V.Kuybishev, Turkiston Kompartiyasi MK kotibi N.To'raqulov, Buxoro Kompartiyasi MK kotibi N.Husainov, Yosh buxoroliklar partiyasi Markaziy byurosining raisi Fayzulla Xo'jayev va boshqalar kirganlar.

Harbiy-inqilobiy byuro xitobnoma va tegishli qarorlarning loyihalarini tayyorlab, ularni «inqilob» g'alaba qozonadigan kuni Butun buxoro Inqilobiy Qo'mitasi (revkom) nomidan e'lon qilishni mo'ljallagan edi. 1920-yil 10-avgustda Turkiston komissiyasi, Buxoro Kompartiyasi Markaziy Komiteti va Yosh buxoroliklar partiyasi Markaziy byurosining qo'shma majlisida Fayzulla Xo'jayev boshchiligidagi Buxoro Xalq Nozirlar soveti hukumati va Ahmadjon Abdusaidov (Hamdiy) raisligida Buxoro Muvaqqat Inqilobiy qo'mitasi tuziladi. Ular amirlik ag'darib tashlangandan keyin Buxoro davlatini boshqarishni maqsad qilib olgan edilar. Turkiston komissiyasining shu yilning 23-avgustida bo'lgan navbatdagi majlisida Buxoro «inqilobiy» hukumatining

dasturi qabul qilingan. Majlisda ayrim yosh buxoroliklar Fayzulla Xo'jayevni bolsheviklar bilan hamkorlikda amirlikni tugatish g'oyasiga qarshi chiqib, uni otib o'ldirish tarafdori bo'lganlar. Biroq F.Kolesov va M.Frunzening qo'llab-quvvatlaganlari bois Fayzulla Xo'jayev o'z siyosiy maqsadiga yetgan.

Yetarlicha harbiy kuchga ega bo'lmagan Fayzulla Xo'jayev va uning tarafdorlari bolsheviklar harbiy kuchi yordamida Buxoroni bosib olish va amir hokimiyatini ag'darish bo'yicha M.Frunze bilan kelishuv tuzadi. Unga ko'ra, hokimiyat egallangandan so'ng bolsheviklarga ularning harbiy sarf-xarajatlarini amir xazinasidan to'liq qoplab berish evaziga Buxoro boshqaruvi Fayzulla Xo'jaevga o'tadigan bo'lgan. M.Frunze Turkiston fronti qo'shinlariga 1920-yil 27-avgustda Kerkida uyushtirilgan qurolli qo'zg'olonni bahona qilib, «qo'zg'olon ko'targan Buxoro mehnatkashlariga yordam ko'rsatish to'g'risida» buyruq beradi. 29-avgustga o'tar kechasi boshlangan qurolli harakatlar 31-avgustdan 1-sentabrga o'tar kechasi Buxoro shahrini aviabombardimon qilinishi bilan davom etib, 2-sentabrda Buxoro bolsheviklar qo'lga o'tadi.

1920-yil 6–8-oktabrda amirning yozgi saroyi – Sitorayi Mohi Xosada chaqirilgan Butunbuxoro xalq vakillarining I qurultoyida Buxoro Xalq Sovet Respublikasi (BXSR) tuzilganligi e'lon qilindi. 24 yoshida hukumat boshlig'i etib saylangan Fayzulla Xo'jayev nihoyat siyosiy maqsadiga yetadi.

Yangi hokimiyat tomonidan mulkdorlar tabaqasiga nisbatan qo'llanilgan qattiq choralar, ularga tegishli butun mol-mulkning musodara qilinishi, saroy a'yonlari va amir amaldorlarining yoppasiga hibsga olinishi va otib tashlanishi, katta miqyosdagi amir xazinasining Moskvaga olib ketilishi, majburiy oziq-ovqat razvyorstkasi va uning qattiqqo'llik bilan amalga oshirilishi, islom dini va ulamolarga nisbatan tazyiqlar, sovet qo'shini ta'minotining tinch aholi zimmasiga yuklatilishi, buning ustiga, qizil askarlarning bosqinchilik va talonchilik qilishi, rus davlatiga qayta qaramlikka tushilgandan norozi xalqning sabr kosasi to'lib-toshgan. Shu tariqa, Buxoro vohasida sovet hokimiyatiga qarshi qurolli kurash boshlanib ketgan.

Rossiya imperiyasida hokimiyatni qo'lga olgunga qadar uni «xalqlar turmasi» deya ta'riflab, imperiyaning mustamlakachilik tabiatini qoralab kelgan bolsheviklar rus davlati boshqaruvini qo'lga olgach, mohiyat e'tibori bilan chorizm yuritib kelgan siyosatni davom ettira boshladi. Buni ularning puch va'dalari va shiorlariga «ishongan», o'lkada sovet hokimiyatini o'rnatishda jonbozlik ko'rsatgan turkistonlik yetakchilardan ayrimlari ham payqay boshlaganlar. Masalan, Turor Risqulov chorizm davrida o'rnatilgan

mustamlakachilik tizimini yo'q qilish, tub aholiga munosbatni o'zgartirish, uning ishonchini qozonish lozimligi masalasini ko'ndalang qo'ygan. Eng muhimi, u Turkiston ASSRda o'z taqdirini o'zi belgilaydigan turkiy xalqlar ekan, TASSR RSFSR Turk sovet respublikasi sifatida qayta tashkil etilishi lozimligi g'oyasini olg'a surgan.

Turor Risqulovning mazkur g'oyasi aslida jadedlar tomonidan uqtirib kelingan turkiy xalqlarning birligi qarashidan kelib chiqqan bo'lib, o'lkadagi barcha turkiy qatlamlarni siyosiy jihatdan birlashtirish va davlatlashtirishni ko'zlagan. Eng muhimi, bu orqali ushbu jarayonga Turkistondan tashqaridagi, masalan, Rossiyaning o'zidagi turkiy xalqlarni ham tortishning ehtimoli tug'ilar edi. Bularning bari bolsheviklarning maqsad-muddaosiga to'g'ri kelmas edi. Ushbu sharoitda ular otni qamchilash lozimligini tushunib yetganlar.

Turkiston xalqlarining bir siyosiy kuchga aylanishi avvalo sovet hukumati, qolaversa, Rossiya imperiyasi manfaatlariga butunlay qarshi kelishini anglagan holda, mintaqani qaytadan bo'lib tashlab, boshqarishga kirishilgan. Imperiyalarga xos «maydalab yub» siyosati bu gal qanday amalga oshirilganini 1920-yil 13-iyunda V.Lenin tomonidan Turkkomissiyaga yuborilgan quyidagi topshiriqlardan bilib olish mumkin: Turor Risqulov loyihasi rad yetilsin; Turkistonning O'zbekiya, Qirg'iziya, Turkmaniyaga bo'lingan (etnografiya va boshqacha) xaritasini tuzish topshirilsin; mazkur uch bo'lakning (keyinchalik – A.Z) qo'shib ketishi yoki ajralishi bilan bog'liq tug'ilajak shart-sharoitlarning ikir-chikirlari aniqlansin.

Demak, ushbu tarixiy hujjatga ko'ra, 1920-yili Turkistonni uchga bo'lib tashlash, bunda o'zbek, tojik, qozoq, qirg'iz, turkman, qoraqalpoq va boshqa mahalliy xalqlarning yashash va tarqalish tegralari, yer-suvdan foydalanish, bordi-keldi va boshqa jihatlardagi o'zaro bog'liqliklar, anklav va ekslav omillarini inobatga olish ishi boshlab yuborilgan.

To'rt yillik obdon tayyorgarlikdan so'ng, bolsheviklar ko'rsatmasiga binoan 1923-yil 30-oktabrda XXSR Xorazm sovet sotsialistik respublikasiga, 1924-yil 19-sentabrda BXSX Buxoro Sovet Sotsialistik Respublikasiga aylantiriladi. 1924-yil 18-noyabrda esa Turkiston ASSR, Buxoro SSR va Xorazm SSR Markaziy Ijroiya Qo'mitalari o'z vakolatlarini O'zbekiston SSR Sovetlarining Ta'sis qurultoyiga qadar ish ko'ruvchi O'zbekiston SSR Muvaqqat inqilobiy qo'mitasiga topshiradilar.

1924-yil oktabr-noyabr oylarida Turkiston ASSR, Buxoro SSR, Xorazm SSR tugatilib, ularning tegishli yerlari yangi tashkil qilingan O'zbekiston SSR, Turkmaniston SSR, Tojikiston ASSR, Qoraqirg'iz va Qoraqalpoq avtonom

viloyatlari tarkibiga kiritiladi. Shunday qilib, bolsheviklar qadimgi Turon, Turkistonning necha ming yillar davomida qon-qarindoshlikda yashab kelgan xalqlarini bir-biridan ajratib tashlash orqali ularning birdamligidan tug'iladigan ma'naviy-mafkuraviy iroda va siyosiy kuchni parchalab tashlashga erishganlar. Chuqur ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy mazmunga ega Turon, Turkiston atamaları ham shu yo'sinda ommaviy muomaladan chiqarilib, ularning o'rniga O'rta Osiyo jo'g'rofiy tushunchasi kiritilgan.

O'zbekiston SSRning siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy boshqaruvi. Asosiy maqsadlarini amalga oshirib bo'lgan bolsheviklar Buxoroda maxsus qurilgan Xalq uyida 1925-yil 13–17-fevralda Butuno'zbek sovetlarining I ta'sis qurultoyini o'tkazadilar. Xo'jako'rsin uchun uyushtirilgan mazkur tadbirning so'nggi kunida «O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining tashkil topishi to'g'risida Deklaratsiya» qabul qilinadi. Deklaratsiya O'zbekiston SSR (O'zSSR) tashkil topganligini «qonunlashtirilib», O'zSSR go'yoki «o'z ixtiyori» bilan SSSR tarkibiga kirganini e'lon qiladi.

SSSR «sovet sotsialistik respublikalar ittifoqi»ning asli – ruschadagisining qisqartmasi bo'lib, 1922-yil 30-dekabrda bolsheviklar tomonidan Rossiya imperiyasi hududida RSFSR, Ukraina SSR, Belorussiya SSR, Kavkazorti SFSRni birlashtirish yo'li bilan tuzilgan mustabid davlat edi. Keyingi yillarda Turkiston doirasida yangicha ma'muriy-hududiy bo'linish asosida tuzilgan O'zbekiston SSR, Turkmaniston SSR, Tojikiston SSR, Qirg'iziston SSR va Qozog'iston SSR, shuningdek, G'arbiy Ukraina va G'arbiy Belorus, Estoniya, Latviya, Litva, Bessarabiyani (Moldova) ham zo'ravonlik yo'li bilan uning tarkibiga kiritilishi Rossiya imperiyasining oq podsho davridagi hududini asosan tiklashni ta'minlab bergan edi. Boshqacha aytganda, mazkur siyosiy kenglik endi SSSR deb atala boshlagani bilan, aslida ham mazmunan, ham shaklan o'zining imperiyaviy tabiatini saqlab qolgan edi. Uni sovet imperiyasi deb atashlarining bosh sababi ham shundadir.

1925-yil boshlarida O'zbekiston SSR aholisi 3963285 kishi bo'lib, ulardan o'zbeklar 3381579 kishini (85 foizni) tashkil etgan.

Turkiston ASSR, Buxoro SSR, Xorazm SSR tugatilishi asnosida ularning kommunistik partiyalari negizda tuzilgan O'zbekiston kommunistik partiyasi (O'zKP) respublikadagi yagona va asosiy siyosiy boshqaruv organi sanalib, ijroiya va vakillik idoralarining ustida turar edi. Ommani o'z ta'siriga olish uchun u ishchilar, qishloq yo'qsillari va yarim yo'qsillar, shuningdek, xizmatchilar hisobiga o'z a'zolari sonini ko'paytirib boradi.

O'zKP iloji boricha ko'proq korxonalar va tashkilotlarni o'zining bevosita ta'siri bilan qamrab olishga, ularda partiya bo'g'inlari va tashkilotlarini joriy

etishga, shu yo'l bilan ularni bevosita boshqarishga intildi. Natijada O'zKP tarkibidagi partiya tashkilotlari soni muttasil ortib bordi. Bu vaqtga kelib viloyat, shahar va tuman partiya tuzilmalarining keng tarmog'i tashkil etilgan edi.

O'zKP partiya tashkilotlarini mustahkamlash maqsadida 1937–1941-yillarda ko'plab yangi boshlang'ich partiya tashkilotlari va komsomol guruhlari-ni tashkil qildi. Ayniqsa, kolxozlarda boshlang'ich partiya tashkilotlarining soni keskin o'sib bordi. 1941-yilning 1-yanvariga kelib kolxoz partiya tashkilotlarining soni qariyb uch baravar o'sdi.

Boshqaruv idoralariga, asosan, partiya a'zolarini tayinlash amaliyoti yildan-yilga keng qo'llanila boshlandi. 1938-yilning iyul oyidan to 1940-yilning mart oyi orasida respublika, viloyat, shahar va tumanlarning partiya, sovet va xo'jalik tashkilotlari rahbarligiga 5000 dan ortiq kommunist tayinlandi.

O'zbekistonda sovet hokimiyatini mustahkamlash maqsadida bolsheviklar partiyasi keng miqyosda qatag'on siyosatini amalga oshirdi. I.V.Stalin rahbarligidagi bolsheviklar tomonidan 1920-yillarning oxiri va 1930-yillarda respublikadagi o'zbek siyosatchilari va milliy ziyolilarning katta bir qismi qatag'on qilindi. Qatag'on siyosati O'zKP saflarining g'oyaviy «sofligi»ni saqlashda, partiya va sovet idoralaridagi xodimlarning ijtimoiy mansubligini nazorat qilishda ham namoyon bo'ldi.

Natijada sovet idoralarida ommaviy tarzda «tozalashlar» o'tkazildi.

Bolsheviklar partiyasi davlat va jamiyat boshqaruvida siyosiy mavqeyini kuchaytirish maqsadida vakillik idoralari bo'lmish sovetlarni ham o'z ta'sir doirasida ushlab turgan. 1926–1927-yilgi sovetlarga saylovlar SSSR MIQ Prezidiumining yangi yo'riqnomasi bo'yicha tashkil qilinib, unda sovetlar tarkibida «proletariat va kambag'allar ommasining vakilligini ko'paytirish» masalasi ilgari surilgan. Shuningdek, saylov huquqidan mahrum qilingan ijtimoiy qatlamlar doirasi ham belgilab qo'yilgan edi.

1936-yilda qabul qilingan SSSR konstitutsiyasi va uning asosida 1937-yili qabul qilingan O'zbekiston SSR konstitutsiyasida BKP (b) «barcha davlat va jamiyat tashkilotlarning rahbarlik yadrosi» sifatida belgilab qo'yildi. Shu tariqa kommunistik partiyaning siyosiy hokimiyatdagi monopoliyasi qonunlashtirib qo'yilgan.

Ta'kidlash joizki, ijtimoiy-siyosiy hayotda bolsheviklar partiyasi yakka hukmronligining o'rnatilishi, uning ta'sir doirasi jamiyatning hamma jabhalari-ga keng tarqalishi, muxolifatchi kuchlarning badnom qilinishi, milliy siyosiy shaxslarning qatag'on etilishi, davlat boshqaruvida demokratik tamoyillar-ning yo'qligi va bolsheviklar partiyasida mavjud bo'lgan partiya «dohiy-lari»ni

ulug'lash amaliyoti oxir-oqibatda sovet siyosiy tuzumida totalitar xususiyatning kuchayishiga, shaxsga sig'inishning qaror topishiga olib keldi.

Bu o'z navbatida kommunistik partiya tomonidan respublikadagi davlat idoralari – sovetlar va ijroiylar qo'mitalar (ispolkomlar), shuningdek, kasaba uyushmalari, komsomol, sud, prokuratura va boshqa idoralar faoliyati, umuman jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy hayoti ustidan to'la nazorat o'rnatilishiga sabab bo'ldi.

Sovet rejali iqtisodi asoslarining yaratilishi sovet siyosiy-ma'muriy boshqaruv tizimining shakllanishi, xususiy mulkchilikni siqib chiqarish va tugatish hamda iqtisodda davlat monopoliyasining o'rnatilishi bilan mustahkam bog'lab qo'yildi. Shuningdek, sovet sotsialistik iqtisodini shakllantirish jarayonidagi asosiy siyosiy shartlardan biri – O'zbekiston SSR manfaatlarining, chorizm davrida bo'lganidek, metropoliya manfaatlariga batamom bo'ysundirilishi va uning respublika ustidan bevosita rahbarlikni amalga oshirishi edi.

1920-yillarning ikkinchi yarmidan O'zbekiston SSRda sovet rejali iqtisodiga asos solindi. Sovet rejali iqtisodining asosiy unsurlaridan biri – besh yillik rejalari bo'lib, birinchi besh yillik 1929-yilning aprelida BKP (b)ning XVI anjumanida qabul qilingan edi. Besh yillik rejaning asosiy vazifasi SSSRni sanoatlashgan davlatga aylantirish, xalq xo'jaligidan «kapitalistik unsurlar»ni batamom siqib chiqarish, sotsialistik xo'jalik shakli ko'lamini kengaytirish, sinflarni yo'q qilish uchun iqtisodiy asos yaratish va sotsialistik jamiyat qurishdan iborat edi.

Bu davrda bolsheviklar olib borgan siyosat juda keng qamrovli bo'lib, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayotning barcha jabhalariga ta'sir ko'rsatdi. Xususan, madaniy va mafkuraviy hayotni tubdan qayta qurish, uni sotsializm manfaatlariga bo'ysundirish jarayoni tarixda «madaniy inqilob» nomini oldi. Bolsheviklar dastlab madaniy inqilob deganda savodlilikning keng tarqalishini, qishloq aholisi orasida ommaviy madaniy-ma'rifiy ishlarning olib borilishini nazarda tutadi. Ammo aslida muddao an'anaviy, jumladan, milliy madaniyatni yangi «sotsialistik» madaniyat bilan almashtirish bo'lgan edi. Shu davrdan boshlab markscha-lenincha mafkurani har bir sovet kishisining shaxsiy e'tiqodiga aylantirish madaniy inqilobning eng muhim maqsadiga aylandi. Madaniy inqilob xalq ta'limini sotsialistik asosda qayta qurish, «eski zamon» ziyolilarini «qayta tarbiyalash» va sotsialistik ziyolilarni shakllantirish, markscha mafkuraga asoslangan fan, adabiyot va san'atni yaratish, yangi axloq qoidalari va xudosizlik dunyoqarashini qaror toptirish orqali kundalik turmushda tub o'zgarishlarni amalga oshirish kabi jarayonlarni qamrab olgan.

Bolsheviklarning ta'lim tizimida boshlagan va keyingi o'n yillar ichida olib borgan siyosati eng avvalo sotsialistik jamiyat kishisini tarbiyalash, sovet hokimiyatiga sadoqatli avlodlarni yetishtirishga qaratilgan edi. Ta'limning qaysi bosqichida bo'lmasin, o'zbek o'quvchilari tarix, falsafa, adabiyot, san'at, til singari yo'nalishlarda ming yillar davomida yaratilgan boy va tengsiz merosdan bahramand bo'lish imkoniga ega emasdilar. Ijtimoiy fanlar o'ta siyosiyashtirilgan, kommunistik mafkura bilan sug'orilgan holda o'qitilar edi.

Turkiston xalq komissarlari sovetining 1918-yil 16-martdagi buyrug'i bilan Toshkentda tashkil etilgan Turkiston xalq universiteti faqat rus va rus tilida so'zlovchi aholining oliy ta'limga bo'lgan ehtiyojini qondirishi ko'zda tutilgan edi. Jadidlarning o'zbek va boshqa mahalliy xalqlar uchun universitet tashkil etish borasidagi urinishlariga yo'l berilmagan. Shunday sharoitda Munavvar qori Abdurashidxonov 9-aprel kuni jadidlarning bir guruhini to'plab, universitet ochish g'oyasini olg'a surgan, uning boshchiligida to'qqiz kishidan iborat «Musulmon xalq dorilfununining tashkilot komissiyasi» tuziladi. Jadidlarning qattiq harakatlari bilan 3-may kuni Musulmon xalq dorilfununi rahbariyatiga saylov o'tkazilib, Munavvar qori Abdurashidxonov rais, Iso To'xtaboyev raisning birinchi muovini, Burxon Habib raisning ikkinchi muovini, Abdusamiqori Ziyoboyev xazinador, Muxtor Bakir sarkotib etib saylanadilar.

1918-yil 12-may, shanba kuni Musulmon xalq dorilfununining rasmiy tantanali ochilish marosimi bo'lib o'tadi. 1918-yil 31-maydan uning maxsus gazetasi «Xalq dorilfununi» chiqa boshlaydi. Asosiy shiori «Yashasin ilmiy inqilob, yashasin xalq maorifi» bo'lgan gazeta bolsheviklar hukmronligi davrida o'zbek tilida chop etilgan ilk ommaviy nashr bo'lgan.

Musulmon xalq dorilfununining jadid maktablari o'ndan ortiq joyda tashkil topadi. Huddi shu turdagi o'ttizdan ortiq maktab Sirdaryo, Yettisuv, Samarqand va Farg'ona viloyatlarida ham ochiladi.

Bolsheviklar Musulmon Xalq dorilfununini rasman tan olgan bo'lsalar-da, aslida bunga qarshi bo'lganlar. Uning milliy mutaxassislar yetishtiruvchi oliy o'quv yurti sifatida faoliyat yuritishi ularning hokimiyati, umuman Rossiya imperiyasi manfaatlariga zid kelishini juda yaxshi anglaganlar. 1918-yilning kuziga kelib, Musulmon Xalq dorilfununi va uning asoschilari kommunistik qatag'onning dastlabki qurbonlari bo'lganlar.

Bolsheviklarning ayollarning erkaklar bilan tengligi, balog'at yoshiga etmagan qizlarni turmushga berishni taqiqlash to'g'risidagi qonun va qarorlari asosida 1920-yillarda tashkil qilingan xotin-qizlar bo'limlari maxsus ayol-

lar klublari, artellar, magazinlar tashkil qilganlar, ayollarni savodxonlikka, hunarga, savdoga o'rgatishni boshlaganlar. Ammo an'analar va urf-odatlarini hisobga olib o'tkazilgan bu tadbirlarning sur'ati bolsheviklar hokimiyatini qanoatlantirmay, uni sun'iy ravishda tezlashtirish uchun 1927-yili «Hujum» deb nom olgan harakat boshlangan. Bolsheviklar psixologik va diniy omilni va xotin-qizlarni to'liq ozod qilish uchun ijtimoiy-psixologik muhit yetilma-ganligini inobatga olmaganlar. «Hujum» kampaniyasi davomida zo'rlik yo'li bilan 100 minglab xotin-qizlarga paranji tashlattirganlar.

Sovet rejimi dastavval o'ziga ochiqchasiga qarshi chiqqanlarga qatag'on siyosatini amalga oshirgan bo'lsa, 30-yillardan boshlab ko'plab begunoh kishilar ham bu terrorning qurboni bo'ldi. Bu davrdagi qatag'on siyosati uch yo'nalishda: siyosiy qatag'onlar – qizil terror, saylov huquqidan mahrum qilish, majburiy mehnatga jalb etish, quloqlashtirish, surgun, katta qirg'in va badarg'a qilishlar; iqtisodiy qatag'onlar – soliq, majburiy to'lovlar, iqtisodiy faoliyatni cheklash shaklida bo'lsa, ma'naviy-mafkuraviy qatag'onlar – milliy, diniy qadriyatlarni cheklash, madaniy merosni yo'q qilish, senzura va boshqa shakllarda amalga oshirildi.

SSSRda shakllangan stalincha totalitar tuzum barcha milliy o'lkalar kabi O'zbekiston SSRdagi hokimiyat boshqaruvining hamma bo'g'inlarini to'liq markazga bo'ysundirdi. BKP(b) tomonidan qabul qilingan har qanday qaror, farmoyish va ko'rsatmalar O'zbekiston Kompartiyasi va uning barcha tashkilotlari tomonidan bajarilishi majburiy edi.

Stalincha ma'muriy buyruqbozlik tizimi O'zbekiston SSRning mahalliy rahbariyati tomonidan respublikaning iqtisodiy, xo'jalik, madaniy-ma'naviy hayotiga oid biror-bir masala va muammoni mustaqil tarzda hal etilishiga yo'l qo'ymadi. Aksincha, mahalliy mutaxassislar faoliyati muntazam kuza-tilib, qat'iy nazorat ostiga olindi. O'z yurti va xalqining milliy manfaatlarini himoya qilib chiqqan yurt fidoyilari og'machilik, buzg'unchilik va aksilin-qilobchilikda ayblandilar.

XX asr 20-yillarining ikkinchi yarmi va 30-yillar boshlarida O'zbekis-ton SSRda «o'n sakkizlar guruhi» (A.Hojiboyev, N.Qoriyev, I.Xidiraliyev va boshq.), «inog'omovchilik» (R.Inog'omov va boshq.), «qosimovchilik» (S.Qosimov, B.Sharipov va boshq.), «badriddinovchilik» (Sh.Badriddinov va boshq.), «milliy ittihadchilar» va «milliy istiqloqlchilar» (Munavvar qori Abdurashidxonov boshchiligidagi 87 kishi), «narkompros ishi» (Botu, Man-non Ramziy va boshq.), «botir gapchilar» (Ashurali Zohiriy boshchiligidagi

19 kishi) kabi «siyosiy tadbir»lar natijasida o'zbek xalqining ko'plab yetuk farzandlari qatag'on qilindi.

Dehqonchilikni jamoalashtirish davrida O'zbekistonda jami 40000 dan ortiq dehqon xo'jaligi «quloq» qilinib, ulardan 31700 kishi qatag'on qilingan. Birgina 1931-yilning avgust-sentabr oylarida Ukraina va Shimoliy Kavkazga 3837 ta xo'jalik surgun qilingan. Jami surgun qilingan 6944 ta xo'jalikdan 159 tasi – Qozog'istonga, 2213 tasi – Shimoliy Kavkazga, 3444 tasi esa – Ukrainaga majburan ko'chirilib joylashtirilgan. 1932-yili o'tkazilgan «tozalash» jarayonida kolxozlardan 3550 nafar «quloq» haydab chiqarilgan, ulardan 306 nafari kolxoz raislari, 756 nafari boshqaruv a'zolari, 425 nafari boshqaruv kotiblari bo'lgan.

1937-yilning mart oylaridan boshlab ayrim o'zbek ziyolilari hibsga olina boshladi. 1937–1938-yillardagi «katta terror» hali boshlanmagan, ammo keyinchalik ma'lum bo'lishicha, O'zbekiston SSR IIXK qora ro'yxatdagi har bir kishini josuslik, aksilinqilobchilik va millatchilikda ayblovchi xufiyanomalarni to'plab, katta qirg'inga hozirlik ko'rayotgan edi.

1937-yil 2-iyulda Siyosiy byuroning «Sovetlarga qarshi unsurlar haqida»-gi qarori e'lon qilindi. 1938-yil mart oyining birinchi yarmida esa «sovetlarga qarshi o'ng trotskiychi blok» ustidan Moskvada sud jarayoni o'tkazilib, SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasining qarori bilan bir qator yirik sovet rahbarlariga «xalq dushmani» va «Vatan xoini» degan ayblar qo'yildi va 1938-yil 15-martda otib tashlandi. Ular orasida O'zbekiston Kompartiyasining birinchi kotibi Akmal Ikromov va O'zbekiston SSR Xalq komissarlari sovetining raisi Fayzulla Xo'jayev ham bor edi.

«Sinfiy dushman»larga qarshi keng miqyosda olib borilgan qatag'on siyosati ommaviy qirg'inga, «katta terrorga» aylanib ketdi.

O'zbekistonda siyosiy qatag'on 1937-yilning yozida, ayniqsa, avjiga chiqdi. XX asr o'zbek adabiyotining ulkan namoyandalaridan Fitrat, Cho'lpon va Abdulla Qodiriy bir kunda – 1938-yil 4-oktabrda Toshkent shahri atrofida otib tashlandi. Qamoqqa olingan ko'plab yurtdoshlarimiz ham shu kuni Toshkent atrofida ommaviy ravishda qatl etildi.

XX asrning 30-yillari o'rtalaridan boshlab ulamolar, ruhoniylar va dindorlarni ham ta'qib qilish kuchaydi. Toshkent, Buxoro, Samarqand, Qo'qon va boshqa shaharlarda 1936–1939-yillarda islom dini vakillarini ham qatag'on qilish avjiga chiqdi. Bir qancha nufuzli ulamolar «aksilsovet millatchi musulmon ruhoniylari tashkilotini tuzganlik»da, sovet hokimiyatiga qarshi turli yo'llar bilan kurash olib borganlik va «panislomizm» g'oyalarini targ'ib

qilganlikda ayblanib, o'lim jazosiga yoki uzoq muddatli qamoq jazosiga hukm qilingan. Shu tariqa sovet rejimi ulamolarning ham katta qismini qatag'on qildi.

O'zbekiston SSRda bu davrda ko'plab madrasalar, masjidlar va xonaqohlar buzib tashlandi. Buzilmay qolgan madrasalar va masjidlar xo'jalik omborlariga aylantirildi, qizil askar garnizonlari uchun manzilgohlar qilib qayta jihozlandi, chetdan kelganlar uchun turar-joy sifatida berildi va turli maqsadlarda foydalanildi. O'zbek xalqi tomonidan 1300-yil davomida yaratilgan qo'lyozma asarlar va boshqa kitoblarning katta qismi yo'q qilindi.

1937–1939-yillarda O'zbekistonda soxta ayblovlar bo'yicha 41000 dan ortiq kishi hibsga olinib, ulardan 37 000 dan ortig'i jazolandi, 6920 kishi esa o'lim jazosiga hukm qilindi. Umuman olganda, 1937–1953-yillarda O'zbekiston SSR IIXK «uchligi» tomonidan 100 000 dan ortiq kishi qatag'on qilindi, ulardan 15000 tasi otib tashlandi. 1936–1940-yillarda faqat boshqaruvchilar, yozuvchilar, shoirlar va olimlardan 5758 kishi qamoqqa olinib, ulardan 4811 kishi otishga hukm qilingan edi. Bu ma'lumotlar sovet hokimiyati tomonidan qizil terror siyosati qanchalik keng miqyosda shafqatsiz ravishda amalga oshirilganligini yaqqol aks ettiradi.

Shu tariqa, XX asrning 30-yillari oxiriga kelib bolsheviklar butun sovet imperiyasi, jumladan, O'zbekistonda yalpi ta'qib va nazorat, zo'ravonlik, shafqatsizlik, huquqsizlik, tuhmat-bo'htonga asoslangan totalitar tuzumni uzil-kesil o'rnatishga erishganlar.

O'zbekiston SSR ikkinchi jahon urushi yillarida. 1917-yilgi davlat to'ntarishi orqali Rossiya imperiyasi boshqaruvini qo'lga olgan bolsheviklar ushbu yuz yillikning o'ttizinchi yillarida o'z hokimiyatini uzil-kesil va o'ta zo'ravonlik bilan o'rnatishga qattiq kirishgan pallada Germaniya boshqaruviga A.Gitler boshliq milliy-sotsializmchilar partiyasi keladi. Saylovlarda nemis xalqi uchun rohat-farog'atda yashash imkonini tug'dirish g'oyasini olg'a surish orqali 1933-yili hokimiyatga kelgan mazkur siyosiy kuch aslida o'zga millat va irqni tan olmaslik, boshqa xalqlar va yurtlarni bosib olish, yahudiylar, kommunistlarni ayovsiz qirib tashlashdek fashistlik tartiblarini o'rnatgan. Kommunistik mafkuraning tayanchi, qo'riqchisi va bayroqchisi bo'lgan sovet hokimiyati ushbu g'oyaga tish-timog'i bilan qarshi A.Gitlerni tan olmasligi, shu munosabat bilan Germaniya bilan hamkorlikni uzishi tabiiy edi. Ichki va tashqi sabablar, eng muhimi, o'z siyosiy manfaatlarini ko'zlagan SSSR 1939-yil 23-avgustda Germaniya bilan kelishuvga boradi. «Germaniya va Sovet Ittifoqi o'rtasida o'zaro hujum qilmaslik to'g'risida» shartnoma

nomi bilan mashhur bo'lgan bu hujjatga tirkalgan maxfiy bayon ham bo'lib, unda ikki tarafning Sharqiy Yevropadagi manfaatlari doirasi belgilab qo'yilgan edi. Unga ko'ra, Latviya, Estoniya, Finlyandiya, Bessarabiya, shuningdek, Polshaning sharqiy viloyatlari SSSR, Litva hamda Polshaning g'arbiy viloyatlari esa Germaniya manfaatlari doirasiga kiritilgan. Shu tariqa, fashistlar va bolsheviklar uchun tanlab olingan yerlarni bosib olish imkoni tug'ilgan.

1939-yil yozining oxirgi kunlarida polshalik harbiylar kiyimini kiyib olgan SSSR askarlari Germaniyaning Polsha bilan tutash chegarasi yaqinida joylashgan Glayvetsdagi radiostansiyasiga hujum qiladilar. Mazkur g'alamislik bahona Gitlerning 1-sentabrdagi buyrug'iga asosan nemis qo'shini Polshaga hujum qiladi. Polshaning ittifoqchilari bo'lgan Angliya, Fransiya va boshqa davlatlar Germaniyaga urush e'lon qiladilar va shu tariqa ikkinchi jahon urushi boshlanadi. Sharqdan – SSSR tomonidan harbiy xavfni bartaraf etgan Gitler birin-ketin atrof mamlakatlarni bosib olishga kirishib, g'arbda Ispaniyagacha bo'lgan katta hududda o'z hokimiyatini o'rnatgan.

Moskva ham qo'l qovushtirib o'tirmay, tilga olingan maxfiy bayonga asoslanib 1940-yili Finlandiyaning bir bo'lagi, Latviya, Estoniya, Bessarabiyaning bir qismini bosib olgan. Qisqasi, 1941-yil yoziga kelib, fashistlar Germaniyasi va sovetlar mamlakati o'zaro chegaradosh bo'lib qolganlari sharoitida ularning o'zaro to'qnash kelishlari ehtimoldan ko'ra voqelikka juda yaqin edi. Boshdan o'q kommunizm g'oyasiga butunlay qarshi bo'lgan, davlat tepkasiga chiqqandan keyin o'tgan muddatni harbiy, iqtisodiy kuch yig'ishga sarflagan A.Gitler 22-iyun kuni SSSRga hujum qiladi.

Kishilik tarixida eng ko'lamli va fojiali deb baholangan ikkinchi jahon urushini o'zbek xalqi chorizm istibdodidan qutulib, bolsheviklar zulmi iskanjasiga tushgan, deyarli chorak asr ichida kechgan o'ta fojiali jarayon – sovet hokimiyatiga qarshi qurolli kurashning shafqatsiz bostirilishi, kuch ishlatib xususiy mulkning tortib olinishi, musulmonchilikning taqiqlanishi, hur fikrli, millatsevar qatlamlar, ayniqsa, ziyolilar, ishbilarmonlar, ulamolarning qirib tashlanishi, qamalishini boshdan kechirgan holda qarshi olgan.

Salkam to'rt yil cho'zilgan urush o'zbek halqiga juda qimmatga tushgan.

Ma'lumotlarga ko'ra, urushga O'zbekistondan 1 951 000 ga yaqin kishi ketgan. Demak, har uch nafar o'zbekistonlikdan bittasi qo'lga qurol olib, fashizmga qarshi jang qilgan. Shuningdek, o'sha davrda «quloq» sifatida boshqa o'lkalarga surgun qilingan 59000 dan ortiq vatandoshimiz ham harakatdagi armiyaga safarbar etilgan. 120000 dan ziyod askar va ofitserlarimiz jangovar davlat mukofotlari bilan taqdirlanganlar. Jumladan, 301 o'zbekis-

tonlik «Sovet Ittifoqi Qahramoni» va 70 tasi uchala darajadagi «Slava» ordeniga sazovor bo'lgan.

538000 o'zbekistonlik urushda halok bo'lgan, 158000 dan ko'proq hamyurtimiz urushda bedarak ketgan.

O'zbekiston xalqi jang maydonlariga katta miqdorda qurol-yarog', oziq-ovqat, kiyim-kechak, dori-darmon va boshqa zarur mahsulotlarni yetkazib bergan. Respublikadagi 300 ga yaqin korxonada harbiy mahsulotlar ishlab chiqarilgan. Shu davrda front hududlaridan O'zbekistonga 151 ta zavod ko'chirib keltirilgan va g'oyat qisqa fursatda ishga tushirilgan.

Urush yillari respublikaning butun ishlab chiqarishi front ehtiyojlariga safarbar etilib, 1941–1945-yillar davomida 2100 ta samolyot, 17342 ta aviamotor, 2318000 dona aviabomba, 17100 ta minomyot, 4 500 ta minalarni yo'q qiluvchi qurol, 60 mingga yaqin harbiy-kimyoviy aparatura, 22 mln dona mina va 560000 dona snaryad, 1000000 dona granata, dala radiostantsiyalari uchun 3000000 radio lampochka, qariyb 300000 ta parashyut, 5 ta bronepoezd, 18 ta harbiy sanitariya va hammom-kir yuvish poezdi, 2 200 ta ko'chma oshxona va boshqa ko'pgina harbiy anjomlar etkazib berilgan. Birgina O'zbekiston Engil sanoat xalq komissarligi korxonalarining o'zi 7518800 ta gimnastyorka, 26367000 ta paxtali nimcha, 28615000 ta armiya etigi tayyorlab bergan. Neft qazib olish 4 barobar, metall ishlash tarmoqlari mahsulotlari 4,8 barobar, mashinasozlik mahsulotlari 13,4 barobar, ko'mir qazib chiqarish 30 barobar, elektrenergiya ishlab chiqarish 2,42 martaga ortgan.

Urush davrida g'allakorlar frontga 82 000 000 pud g'alla, 213 sentner sholi yetkazib bergan. Shuningdek, aholi o'z tashabbusi bilan mudofaa jamg'armasiga jami 649 900 000 rubl pul mablag'i va 22 kg oltin hamda kumush topshirgan.

Urushdan qutulgan hududlar iqtisodiyotini qayta tiklash maqsadida O'zbekistonga yuklatilgan majburiyatlarni bajarish uchun moddiy yordam sifatida Leningradga 120000 rubl, Kursk va Voronejga 250000 rubldan tashqari 31 ta vagonda sanoat mollari, metall buyumlar, kiyim-bosh va oziq-ovqat mahsulotlari yuborilgan.

1943-yil bahorida O'zbekistondan Ukraina va Stavropolga 1595 traktorchi, 50 kombaynchi, 41 mexanik, 30 agronom, 11 hisobchidan tashqari, 1552 ta traktor, 25 ta kombayn, 1138 ta omoch, 379 ta urug' ekish va boshqa texnika yuborilgan. Bundan tashqari, birgina Ukraina aholisi uchun 450 ta vagonda 3000 sentner bug'doy, 8 300 bosh qoramol, 10 000 juft poyabzal,

200 mingta sanoat mollari, oziq-ovqat, kasalxona va maktablar uchun jihozlar yetkazib berilgan.

SSSR g'arbiy hududlaridan O'zbekistonga 1500000 kishi, jumladan, 250000 dan ortiq bola ko'chirib kelingan. Aholi ularni bag'rikenglik bilan qabul qilib, uy-joy, oziq-ovqat va kiyim-bosh bilan ta'minlashda alohida e'tibor qaratdi. Ayniqsa, boquvchisini yo'qotgan bolalarga mehr ko'rsatilib, 1943-yil oxirga kelib, shaharlarda 4672 bola, qishloqlarda esa 870 bola o'zbek oilalari tomonidan tarbiyaga olingan. Aholi tomonidan bolalar foydasi uchun ochilgan bank hisob raqamiga 3500000 rubl o'tkazilgan.

1942-yil oxirida respublika hududida 113 ta ko'chirib kelingan harbiy kasalxona joylashtirilgan. Ularda 100 000 ga yaqin yarador va bemorlardan 88 000 kishi davolanib, 44,6 foizi armiya safiga, 52,2 foizi mehnat frontiga qaytgan. Davolanayotgan jangchilar uchun oziq-ovqatlar orttirilgan karvonlar barcha viloyatlardan jo'natib turilgan. Birgina Andijondan yaradorlarga 7 000 kg ho'l va quruq mevalar, 2 tonna guruch, 1,8 tonna asal, Buxorodan 18 ta vagonda yuborilgan oziq-ovqat ichida 800 bosh qo'y ham bo'lgan.

O'zbekiston SSR urushdan keyingi yillarda. Ikkinchi jahon urushi yillarida aholisining 10 foiziga yaqinini yo'qotgan (halok bo'lgan yoki bedarak yo'qolgan), iqtisodining 60 foizini urush xarajatlariga yo'naltirgan respublika o'ziga kelishga ulgurmay turib, endi paxta «fronti»da jonbozlik ko'rsatishiga to'g'ri kelgan. Moskvaning paxtachilikni rivojlantirish bo'yicha O'zbekiston oldiga juda baland reja qo'yilishi natijasida 1949–1950-yillarda reja topshiriqlari bajarilmadi. To'rtinchi besh yillikda (1948–1952 yy.) paxtachilikka ajratilgan maydon 148 ming gektarga ko'paydi, respublikaning tabiiy va insoniy imkonlarini shafqatsiz ishlatish hisobiga paxtaning yalpi hosili shu davrda keskin oshdi. Kolxozchilarning shaxsiy yer mulklarini va uy-xo'jaliklari hisobidan paxta ekiladigan maydonlarning keskin kengayishi jarayoni amalga oshirildi.

1950-yilda sovet siyosiy rahbariyati tomonidan kolxozlarni yiriklashtirish va ularni mutaxassislar bilan ta'minlash siyosati boshlandi. Mazkur siyosat nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy-mafkuraviy maqsadlarni ham ko'zlagan edi. Kolxozlarning partiya tashkilotlarida ular birlashtirilgandan keyin jiddiy o'zgarishlar ro'y berdi. Mavjud mayda kolxozlar o'rniga yanada yirikroq kolxozlar tuzildi. Sovet hukumati joylardagi partiya idoralari orqali kolxozlar faoliyati ustidan qat'iy nazorat o'rnatdi. Bu O'zbekistonda kolxoz qurilishi jarayonining siyosiy lashtirilganidan dalolat beradi.

Shuningdek, urushdan keyingi yillarda O'zbekistonda xomashyo yetishtirish sohasi jadal sur'atlar bilan rivojlantirildi. Neft, ko'mir qazib olish, elektr energiyasi, mineral o'g'itlar, po'lat ishlab chiqarishni jadal sur'atlarda oshirib borish iqtisodiyotning xomashyoga yo'naltirilganligini yanada mustahkamladi.

Respublika rahbariyati tomonidan «O'zbekistonda yaratilgan mashinasozlik sanoatining asosiy vazifasi bu paxtachilikning kompleks mexanizatsiyasi, sug'orish ishlari va qishloq xo'jaligining boshqa sohalari uchun zarur bo'lgan mashinalarni keng miqyosda ishlab chiqarishni tashkil qilish hisoblanadi», deya ta'kidlandi. Shuning uchun, 1949-yilda respublika sanoat korxonalarida rahbarlari oldiga mashinasozlik korxonalarida mahsulot ishlab chiqarishni 30 foizga oshirishga erishish bo'yicha vazifa qo'yilgan edi. Ya'ni sanoatning o'sishi mazkur davrda va undan keyin ham birinchi navbatda paxtachilik va xomashyo sanoatining rivojlanishi bilan uzviy bog'lab qo'yildi.

Shu bilan birga mazkur davrda sovet tuzumining qatag'on siyosati davom etib, bu jarayon fan va madaniyat namoyandalariga qarshi o'tkazilgan kampaniyalarda o'z aksini topdi. Respublikaning siyosiy rahbariyati uchun «millatchilik sarqitlari, milliy cheklanganlik elementlari» o'zbek adabiyotining ayrim asarlarida, san'atda, maktab darsliklarida, gazeta sahifalarida o'z aksini topganligi «chidab bo'lmaydigan holat», deb baholangan. Markazning ko'rsatmasi bo'yicha, respublika siyosiy rahbariyati ilm-fan, adabiyot va san'atning ba'zi vakillarini «feodal o'tmishni ideallashtirishda va undagi ayrim arboblarning o'zbek halqi tarixidagi roliga «nomarksistik» yondashish orqali baho berganliklari uchun ayblagan edi.

O'zbekiston SSR kommunistik partiyasi markaziy komitetining 1952-yil fevraldagi X plenum qarorlarida bir qator o'zbek olimlari va madaniyat arboblarning ijodlari qattiq tanqid qilindi, xalq og'zaki ijodi asarlariga o'ta salbiy baho berildi. «Alpomish» xalq dostonini esa mutlaqo jaholatparastlikda ayblashdi. Biroz keyinroq «feodal o'tmishni ideallashtirganliklari» uchun Oybek, Maqsud Shayxzoda, Shukrullo, Hamid Sulaymonov va boshqalar qatag'on qilindi.

I.Stalin o'limidan so'ng sovet imperiyasi markazida yuz bergan siyosiy o'zgarishlar natijasida tuzumni siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan isloh qilishga kirishilgan bo'lsa-da, 1960-yillar boshida sanoat ishlab chiqarish sur'atlarining pasayishi kuzatila boshladi. Bu davrda eng og'ir sharoit dehqonchilikda vujudga keldi. Ishlab chiqarishning o'rtacha yillik o'sishi 8 foizni tashkil qilgan 1954–1958-yillardan so'ng ahvol yanada keskinlashdi. Mamlakatda oziq-ovqat mahsulotlarining yetishmasligi keskin sezildi.

Shaharlarda, hatto, non ham yetishmasdi. 1962-yil 1-iyundan hukumat vaqtincha go'sht va yog'ning narxini oshirishga majbur bo'ldi. Bu odamlar, avvalo, ishchilar orasida norozilikni keltirib chiqardi. 1963-yildan boshlab hukumat chetdan g'alla sotib ola boshladi.

Ta'lim sohasida son jihatdan ayrim o'zgarishlar yuz berdi. Xususan, 1958-yildan yetti yillik majburiy ta'limdan o'n yillik umumiy majburiy ta'limga o'tildi. Kasbiy-texnik bilim yurtlarining keng tarmog'i yaratila boshlangan bo'lsa-da, O'zbekistonda mutaxassislar tayyorlash o'zbek xalqi xohish-irodasiga mos tarzda emas, Moskvaning siyosiy, mafkuraviy va iqtisodiy manfaatlarini yo'lida amalga oshiriladi.

Kuchli mafkuraviy va imperiyaparastlik nazorat hukmronligiga qaramay, O'zbekistonda adabiyot, rassomchilik, cholg'uchilik, kino, teatr kabi yo'nalishlarda qator yangi va yirik asarlar yaratildi. Biroq ularda eng asosiy mavzu – o'zbek xalqining siyosiy qaramlik holati, o'zligini to'laqonli namoyon qilish imkoni yo'qligi, o'lkaning xomashyo manbai sifatidagi maqomi yildan-yilga kuchayib borayotgani, qishloqlardagi og'ir mehnat va turmush sharoiti hukm surayotganligi kabilarni nomiga bo'lsa ham ko'tarib chiqish imkoni yo'q edi.

Sovet Ittifoqi boshqaruviga kim kelishidan qat'i nazar, undagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayot asoslari keyingi yillarda o'zgargan emas. Ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarda, ilm-fanda qandaydir alohida natijalarga erishilib, 1970-yillarda «SSSRda rivojlangan sotsialistik jamiyat» qurilgani e'lon qilingan bo'lsa-da, amalda sovet hokimiyati qo'l ostida yashayotgan xalqlarning turmush darajasi dunyoning ilg'or mamlakatlarinikidan ancha orqada qoldi.

1970–1980-yillarning o'rtalaridagi davr O'zbekiston dehqonchiligi uchun juda og'ir kechdi. U sekin rivojlanib, paxta xomashyosi, don va boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish vazifalari bajarilmay qolardi. Chorvachilikdagi ahvol ham qoniqarsiz edi. Sug'oriladigan yerlar samaradorligi past bo'lib, yer jamg'armasini saqlashga yetarli e'tibor berilmadi. Sug'orish uchun suvning nihoyatda taqchilligiga qaramay, undan xo'jasizlarcha foydalanish davom etaverdi. Oqibatda, butun SSSR hududida bo'lgani kabi O'zbekistonda ham qiyin ijtimoiy vaziyat yuzaga keldi.

Biroq ta'limni moliyalashtirishning qoloq tizimi saqlanib qoldi. 1970–1990-yillarda xalq ta'limi uchun davlat tomonidan ajratilgan mablag' 11 foizdan 8 foizga kamayib ketdi. Respublikaning barcha viloyatlaridagi maktablarning 20–60 foizi zarur o'quv qurollari, asbob-anjomlar bilan jihozlanmay qolaverdi, 50 foizdan ortiq maktablarda issiq ovqatlar tashkil etilmadi. Kuni uzaytirilgan guruhlar ishi, ayniqsa, o'lda-jo'lda bo'lib qoldi.

70–80-yillarda 1–8-sinf o'quvchilarining atigi 8–9 foizi bunday guruhlariga jalb etilgan edi, xolos. Umumta'lim maktablarining faoliyati, asosan, «rivojlangan sotsializm» g'oyasini o'quvchilarga singdirish, ularni «komunistik ruhda» tarbiyalashdan iborat bo'ldi.

Natijada, o'zbek o'quvchilarida milliy o'zlikni anglash, urf-odat, milliy an'analariga sodiqlik kayfiyatidan ajralish hollari ro'y bera boshladi. Maktab o'quvchilarining o'quv rejasidagi soatlarni o'zlashtira olmasligi oddiy hol bo'lib qoldi. Bu ularning paxta va boshqa qishloq xo'jalik ishlariga ko'p jalb qilinishi bilan izohlanadi. O'quv yilining to'rt-besh oyi ana shunday majburiy mehnat tadbirlari bilan band qilinardi. Bu esa o'zbek o'quvchisining jahon standartlaridan ortda qolishiga sabab bo'lar va zamonaviy fan sohalarini o'zlashtirishiga imkon bermasdi.

1970–1980-yillari respublikada ruslashtirish siyosati yanada kuchaydi. Bu siyosat o'zbek adabiy tilining rivojlanish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Ammo o'sha davrda bu «yagona sovet xalqi shakllanishidagi qonuniy jarayon» sifatida qabul qilindi.

Umuman, bu davrda ta'lim va fanda son ko'rsatkichlarining o'sishi sifat ko'rsatkichlarida ijobiy o'zgarishlarga olib kelmadi. Buning ustiga, oliy o'quv yurtlarini bitirgan mutaxassislariga yuqori malaka va ilm talab qilmaydigan ekstensiv xarakterdagi iqtisodiyotda ehtiyoj kam edi. 1983–1984-yillardagi islohot ta'limni xalq xo'jaligi ehtiyojlariga moslashtirishni maqsad qildi. Ammo ma'muriy-buyruqbozlik sharoitida bu islohotdan ko'zlangan maqsadga erishilmadi. Oliy o'quv yurtlari sonining oshishi ham ularda ta'lim berish sifatining oshishiga olib kelmadi.

Mafkuraviy tazyiqning kuchayishiga qaramasdan, o'sib borayotgan iqtisodiy inqiroz va maishiy muammolar odamlardagi kelajakka bo'lgan ishonchni so'ndirdi. Jamiyatda paydo bo'layotgan norozilik kayfiyati birinchi navbatda olimlar, yozuvchi va shoirlar faoliyatida, umuman, madaniyatda aks etdi.

1982-yil kuzida uzoq, deyarli yigirma yil SSSRning davlat rahbari bo'lgan L.Brejnev o'limi va uning o'rniga Yu.Andropovning o'tirishi Sovet Ittifoqi deb atalmish ulkan kenglikda so'nggi oltmish besh yil ichida maddalab kelgan «kasal»ning ochiqlanishiga sharoit yaratdi. O'z xalqi – ruslarni hamda turli asrlarda bosib olingan o'lkalar xalqlari, jumladan, o'zbeklarni siyosiy jihatdan haq-huquqsizlikda tutib kelgan sovet imperiyasi qurmoqchi bo'lgan «sotsialistik» tuzumning nochorligi namoyon bo'lib qoldi. Biroq birdan-bir siyosiy hukmron va og'irlashib borayotgan ahvol uchun javobgar kuch – kommunistlar mazkur haqiqatni tan olishlari mumkin emasdi. Shu bois Yu.And-

ropov mavjud barcha muammolar va yo'qotishlarda «aybdorlar»ni topish va ularni «sovet xalqi»ga ko'rsatishga bel bog'ladi. Bunday «aybdorlar» tezda Moskva, Krasnodar viloyati va O'zbekiston SSRda «topildi». Ya'ni bir qator shaxslarga mansabni suiiste'mol qilish, davlat mulkini o'zlashtirish katta miqdorda pora olish ayblari qo'yildi.

1983-yil fevralida Yu.Andropov boshchiligida o'tkazilgan siyosiy byuroda O'zbekiston SSRda paxtachilik sohasini o'rganish maqsadida Toshkentga SSSR Bosh prokuraturasining maxsus guruhini yuborish bo'yicha qaror qabul qilindi. Shu tariqa, o'zbek xalqi tarixida navbatdagi qatag'onlar boshlanib, u sovet bosqinchilari tilida «paxta ishi» deb nomlandi. Moskvaning asl muddaosini yaxshi anglagan Sh.Rashidov navbatdagi «siyosiy tozalashlar» tig'ini qo'lidan kelgancha susaytirishga uringan bo'lsa-da, uni butunlay bartaraf etishga kuchi yetmagani tabiiy. Ustiga-ustak, unga va o'zbek millatiga o'tkazila boshlangan har tomonlama og'ir va uzluksiz tazyiq o'z ishini qilgan – 1983-yil 31-oktabrda u yurak xurujidan vafot etdi.

O'zbek xalqiga qarshi uyushtirilgan so'nggi qatag'on oqibatlari fojiali bo'ldi. Moskvadan yuborilgan T.Gdlyan va V.Ivanov boshchiligidagi maxsus guruh 1983–1990-yillarda jami 40000 kishini tergovdan o'tkazib, 5000 kishi soxta ayblar bilan jinoiy javobgarlikka tortildi. Tergov jarayonida inson huquqlari toptalib, tutqunlarga jismoniy va ruhiy tazyiq o'tkazildi. Ularning oila a'zolari va qarindosh-urug'lari ham qamoqqa tashlandi. O'zbekistonda zo'ravonlik va aldov yo'li bilan katta boylikni noqonuniy tarzda o'zlashtirib olgan T.Gdlyan va V.Ivanov uning bir qismini Moskvadagi «demokratlar va jurnalistlar»ni sotib olishga sarfladilar. Markaziy matbuotda e'lon qilingan maqolalarda butun o'zbek xalqi tekinxo'r, dangasa, poraxo'r, muttaham va o'g'riga chiqarilib, «paxta ishi» ataylab «o'zbeklar ishi»ga aylantirilgan.

Mazkur zo'ravonlik odamlar ruhiyatiga, respublikadagi muhitga ta'sir ko'rsatmasligi mumkin emasdi. Galdagi adolatsizlik va zulmga qarshi kayfiyatning siyosiy lashib ketishi tabiiy edi. Ustiga-ustak, 1985-yili bahorida sovet hokimiyati tepasiga kelgan M.Gorbachyov ko'p yillardan beri yig'ilib, kuchayib kelayotgan o'ta og'ir ijtimoiy-iqtisodiy ahvolni o'zgartirish uchun jamiyatni demokratlashtirish, so'z va matbuot erkinligi, oshkoralikni ta'minlash, saylovlarni muqobillik asosida o'tkazish zaruratini anglab yetgan. «Qayta qurish» deb nom olgan mazkur jarayon butun imperiyada bo'lgani kabi, O'zbekistondagi siyosiy turmushni borgan sari jonlantirdi. Kishilarning ijtimoiy faolligi oshib, siyosiy dunyoqarashi o'zgara boshladi. Ayniqsa, oshkoralik, xususan, sovet totalitar tuzumi o'tmishda amalga oshirgan jinoyatlarning

ochilishi jamiyatni borgan sari qalqitib borib, odamlardagi mavjud rejimga qarshi tura olish ishonchini mustahkamlagan. Eng muhimi, milliy o'lkalarda SSSRning mustamlakachilik negiziga qurilgani, undan xalos bo'lish fursati yetganini anglash boshlangan edi va bu boradagi intilishlar vaqt o'tgan sayin kuchayib boraverdi. O'zbek ziyolilarining katta qismi mustaqillik uchun kurashning oldingi saflarida bo'lishdi.

Sovet hokimiyatining, avvalo, ijtimoiy-iqtisodiy va keyinchalik siyosiy asosiga 1979-yildan beri davom etib kelayotgan «afg'on urushi» ham katta zarba bergan edi. «Baynalmilal yordam» ko'rsatish bahonasi bilan tinch Afg'onistonga bostirib kirish juda qimmatga tushdi: u yerda doim saqlangan 100000 harbiyni oziq-ovqat, kiyim-kechak, qurol-yarog' va boshqa zaruratlar bilan ta'minlash uchun o'n yilda 100000000000 rubldan ortiq mablag' sarflangandi. Eng fojialisi, mazkur g'ayriinsoniy urushda 14500 kishidan ortiq sovet harbiysi, jumladan, 1515 nafar o'zbekistonlik halok bo'ldi, 100000 dan ortiq kishi og'ir yaralandi yoki uyiga nogiron bo'lib qaytdi.

Oqibatda, bu davrga kelib zo'ravonlik, aldov, adolatsizlik, qirg'in asosida qurilgan imperiyaning kuni bitib bordi. Sovet Ittifoqi rahbariyati, ayniqsa, maxsus xizmatlar uning qulashining oldini olish, milliy respublikalarni, jumladan, O'zbekistonni qo'l ostida ushlab turish uchun bor kuchlarni ishga soldilar. Masalan, Farg'ona, Qo'qon, Quvasoy, Guliston, Parkent, Bo'kada millatlararo mojarolar chiqarish orqali odamlar diqqatini chalg'itish, ularni bostirish orqali milliy-ozodlik harakatini so'ndirishga qattiq bel bog'ladilar.

Bu o'ta qaltis va og'ir davrda – 1989-yil 23-iyunda O'zbekiston SSR rahbarligiga Islom Karimovning kelishi davlat mustaqilligini tiklash jarayoniga respublikadagi ilg'or va hur fikrlovchi boshqaruvchilarni ham uyushtirish imkonini tug'dirdi. Negaki, partiya, ijro va vakillik idoralari, kuch ishlatar tizimlarda O'zbekistonni ozod ko'rish, mustaqil rivojlanish yo'liga uzil-kesil o'tish qarashi bilan yongan shaxslar kam emasdi.

Mustaqillik sari maqsadga muvofiq harakat o'z samarasini bera boshladi. 1990-yil 24-martda O'zbekiston SSR Oliy Soveti Islom Karimovni O'zbekiston SSRning Prezidenti etib saylaydi. Shu yilning 20-iyunida Mustaqillik Deklaratsiyasi qabul qilindi. Ushbu tarixiy hujjatning qabul qilinishi davlat mustaqilligimizni tiklash sari qo'yilgan zalvorli qadam bo'ldi.

Bu kabi keskin va ilg'or o'zgarishlar boshqa respublikalarda ham yuz bera boshlagani sharoitida Moskvadagi imperiyaparast kuchlar 1991-yil 19-avgustda davlat to'ntarishi uyushtirish orqali SSSRni saqlab qolishga urinib ko'rdilar. Biroq ushbu xatti-harakat uch kundan oshmay, muvaffaqiyatsizlik-

ka uchradi. O'zbekistonda mustaqillik sari intilishlar yanada avj oldi. O'zbekiston SSR Prezidentining 25-avgustdagi farmoni bilan respublika ichki ishlar vazirligi va davlat xavfsizligi qo'mitasi O'zbekiston SSRning qonuniy tasarrufiga olindi, SSSR Ichki ishlar vazirligining ichki qo'shinlari bevosita O'zbekiston SSR Prezidentiga bo'ysundirildi. Boshqacha aytganda, sovet imperiyasining hayotbaxshligini ta'minlab kelgan zo'ravonlik kuchlari ustidan to'liq nazorat qo'lga olingan edi.

Nihoyat, o'zbek xalqining necha-necha avlodi orziqib kutgan kun keldi. 1991-yilning 31-avgustida O'zbekiston SSR Oliy Sovetining o'n ikkinchi chaqiriq navbatdan tashqari 6-sessiyasida O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to'g'risida Oliy Kengash bayonoti va O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida» qonuni qabul qilindi. Shunday qilib, 1991-yil 31-avgustda o'zbek xalqi 126-yillik qaramlik davridan so'ng o'z milliy davlatchiligini tiklash baxtiga erishdi. Dunyo siyosiy xartidasida juda qadimiy davlatchilik an'alariga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi paydo bo'ldi.

XXII. MUSTAQIL O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TASHKIL TOPISHI

Milliy davlatchilik poydevorining yaratilishi. Mustamlakachalik va kommunistik mafkura asosida qurilgan tuzumni boshdan kechirgan o'zbek xalqi mustaqil rivojlanish davrini boshlar ekan, o'z oldiga demokratiya, davlat hokimiyati taqsimoti, qonun ustuvorligi, bozor iqtisodiyoti va inson haq hamda erkinliklarini ta'minlash singari oliy maqsadlarni qo'ygan. Ushbu jayroning o'ta og'ir kechishi esa oldindan ma'lum edi.

Davlat va jamiyatni qonunlar negizida boshqarish ko'nikmasi, mohiyat e'tibori bilan, o'zbek xalqi uchun yangilik bo'lmagani holda, yangicha sharoitda dunyoning ilg'or tajribasi va milliy xususiyatlarni inobatga olib ish tush taqozo etilardi. Shu munosabat bilan, O'zbekiston Respublikasining ilk Konstitutsiyasini tayyorlash va qabul qilish vazifasi yuzaga chiqqan. Mazkur tarixiy ish bo'yicha komissiya esa Mustaqillik deklaratsiyasi qabul qilingan kun – 1990-yil 20-iyundayoq tuzilgan bo'lib, I.Karimov boshchiligidagi 64 ta a'zodan iborat edi. 1992-yil 2-iyulda a'zolar soni 71 taga yetkazilgan komissiya Konstitutsiyaning birinchi, ikkinchi va uchinchi loyihalarini ishlab chiqqan. Bu borada dunyodagi eng rivojlangan, demokratik jamiyat tamoyillariga asoslangan davlatlar tajribasi o'rganilgan.

Konstitutsiya loyihasi 1992-yil 26-sentabrda va 21-noyabrda umumxalq muhokamasi uchun matbuotda e'lon qilindi. Komissiya tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalar va takliflar ko'rib chiqilib, loyihaga o'zgartirish va tuzatishlar kiritildi hamda Konstitutsiya Oliy Kengash tomonidan 1992-yil 8-dekabrda qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – huquqiy demokratik davlat boshqaruvi tizimini belgilab berdi, fuqarolik jamiyati asoslarini mustahkamladi. Konstitutsiyada xalq – davlat hokimiyatining birdan-bir manbayi ekanligi belgilandi, inson huquq va erkinliklari kafolatlandi, O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy tuzilishi muhrlab qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 4-yanvardagi Qonuni bilan viloyat, tuman va shaharlarda hokimlik institutlari tashkil etildi. Mahalliy o'zini o'zi

boshqarish tizimi – mahalla institutini rivojlantirish va mustahkamlashga e'tibor berila boshlandi.

1991-yilning 6-sentabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni bilan Mudofaa ishlari vazirligi tashkil etildi. Respublika Oliy Kengashi tomonidan 1992-yil 14-yanvar kuni «O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan harbiy qismlar va harbiy o'quv muassasalari to'g'risida» qaror qabul qilinib, qonuniy asosda O'zbekiston hududida joylashgan harbiy tuzilmalar respublika yurisdiksiyasiga o'tkazildi. Mazkur tarixiy hujjat qabul qilingan kun keyinchalik «Vatan himoyachilar kuni» sifatida nishonlanadigan bo'ldi.

Oliy Kengash tomonidan 1992-yil 3-iyulda «Mudofaa to'g'risida», «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida», «Muqobil xizmat to'g'risida» qonunlar qabul qilindi, Harbiy qasamyod matni hamda Harbiy qasamyod qilish tartibi tasdiqlandi. Mazkur hujjatlarning qabul qilinishi mamlakat Qurolli Kuchlarining huquqiy negizini yaratdi hamda davlat armiyasi qurilishi tamoyillarini belgiladi.

1991-yil 29-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi muqobilik asosida o'tkazilib, saylovchilarning 83 foiz ovozi bilan Islom Karimov O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylandi.

1995-yil 26-martda o'tkazilgan referendum asosida Prezident vakolatlari 2000-yilgacha uzaytirildi. 2000, 2007 va 2015-yillarda o'tkazilgan saylovlarda I.Karimov Prezidentlikka qayta saylandi.

Mustaqil rivojlanishning birinchi bosqichida Prezident – davlat, shuningdek, ijro etuvchi hokimiyat boshlig'i – Vazirlar Mahkamasining Raisi sifatida ijro hokimiyat vakolatlari ham samarali amalga oshirilishi uchun mas'ul bo'ldi.

2002-yil 27-yanvarda o'tkazilgan referendum yakunlari asosida ikki palatali parlament tuzilishi xalq tomonidan qo'llab-quvvatlanganligi davlat hokimiyatini tashkil etish yuzasidan yangi qonunlar ishlab chiqishni taqozo etdi. Xususan, hukumat roli va mustaqilligini kuchaytirish, mamlakatda islohotlarni chuqurlashtirish maqsadida 2003-yil 29-avgustda «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida»gi Qonunning yangi tahriri qabul qilindi. Mazkur Qonunda Prezident bir paytning o'zida Vazirlar Mahkamasi Raisi ekanligi to'g'risidagi me'yor bekor qilindi. 2007-yilda esa bu me'yor Konstitutsiyadan ham chiqarildi.

2011-yildagi Konstitutsiyaga davlat hokimiyati tizimini takomillashtirishga qaratilgan o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi. Xususan, Bosh vazir nomzodi Qonunchilik palatasida saylovda eng ko'p deputatlik o'rinlarini

olgan siyosiy partiya yoki teng miqdordagi eng ko'p deputatlik o'rinlarini qo'lga kiritgan bir nechta partiyalar tomonidan ko'rsatilib, parlamentda tasdiqlanadigan bo'ldi. Bu o'zgartishlar kiritilishi davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish, parlament va siyosiy partiyalarning vakolatlarini kengaytirish jarayonlari bilan bog'liq edi.

O'zbekiston tarixida birinchi marta 2015-yil 23-yanvarda Bosh vazir lavozimiga Shavkat Miromonovich Mirziyoyev nomzodi davlat rahbari tomonidan emas, parlament saylovida g'alaba qozongan siyosiy harakat – O'zLiDeP tomonidan ilgari surildi hamda to'rtinchi bor Sh.Mirziyoyev Hukumat raisligiga tasdiqlandi.

Ta'kidlash joizki, 2003–2016-yillar davomida Sh.Mirziyoyev Bosh vazir sifatida Vazirlar Mahkamasining samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minladi hamda barcha sohalaridagi yirik loyihalarni amalga oshirish ishlariga faol rahbarlik qildi.

Tarixiy o'zgarishlar vakillik idoralari tizimini ham chetlab o'tgani yo'q. 1995-yili 250 deputatlik o'rindan iborat bir palatali parlament – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ko'ppartiyaviylik asosida shakllandi. Parlamentda birinchi bor partiyalarning fraksiyalari tashkil etildi. 2000-yilda faoliyatini boshlagan ikkinchi chaqiriq Oliy Majlis deputatligi uchun saylovda beshta siyosiy partiya bilan bir qatorda saylovchilarning tashabbuskor guruhlar ham ishtirok etdi.

1995–2004-yillar davomida deputatlarning yarmidan ko'pi ish joyidan ajralmagan holda yiliga 4 marotaba o'tkaziladigan Oliy Majlis sessiyalarida qonunchilik faoliyati bilan shug'ullanishar edi. Oliy Majlisning muntazam ish faoliyatini doimiy asosda ishlaydigan deputatlar ta'minlab turardi.

2002-yil yanvar oyida o'tkazilgan referendum natijalari unda qonun chiqaruvchi hokimiyatni tubdan isloh qilishning huquqiy asoslarini belgilab berdi. Shuningdek, 2002-yil 12-dekabrda «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida»gi, «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida»gi Konstitutsiyaviy qonunlar qabul qilindi. Prezident vakolatlarining bir qismi Senatga o'tkazildi.

2004-yil dekabr va 2005-yil yanvar oylarida Qonunchilik palatasining 120 deputati to'rt partiya va tashabbuskor guruhlardan ko'rsatilgan mustaqil nomzodlar orasidan saylandi. Oliy Majlisning yuqori palatasi 100 senatordan iborat bo'lib, ularning 84 tasi Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahar va barcha viloyatlar vakillik idoralari a'zolari – deputatlardan oltitadan,

jami 84 kishi saylangan. Senatning qolgan 16 a'zosi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlangan.

2008-yilda saylov qonunchiligiga kiritilgan o'zgarishlar natijasida Qonunchilik palatasidagi deputatlik o'rinlari soni 120 dan 150 tagacha oshirildi. Ushbu o'rinlarning 135 tasi siyosiy partiyalardan, 15 tasi O'zbekiston Ekologik harakatidan saylangan deputatlarga berildi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga navbatdagi saylovlar 2009 va 2014-yillarda o'tkazildi. Shuningdek, 2019-yilda O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Saylov kodeksi asosida saylovlar bo'lib o'tdi.

Ikki palatali parlamentning faoliyati yo'lga qo'yilishi qonun ijodkorligini takomillashtirishga xizmat qildi. Shu bilan birga, Oliy Majlis ishida ijro etuvchi hokimiyat bilan hamkorlikni yanada kuchaytirish, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda parlament ishtirokini faollashtirish kabi masalalar yuzaga keldi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida sudlar tizimi ijro etuvchi hokimiyat organlari ta'siridan chiqarilib, mustaqil hokimiyat tarzida shakllantirildi. Shuningdek, sudlar ixtisoslashtirildi: Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud va Oliy xo'jalik sudi tashkil etildi. Oliy sud tizimida fuqarolik, jinoiy ishlar va harbiy sudlar tashkil qilindi.

1993-yilda «Sudlar to'g'risida»gi Qonunga asosan himoya huquqini ta'minlash, aybsizlik prezumpsiyasi kabi printsiplar mustahkamlandi. Jinoyatlarning tasnifi o'zgartirilib, og'ir va o'ta og'ir toifadagi jinoyatlar qayta ko'rib chiqilib, ularning ma'lum qismi ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar toifasiga o'tkazildi. Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar uchun qamoq va ozodlikdan mahrum qilish jazosi bekor qilindi, o'miga jarima shaklidagi iqtisodiy sanksiya qo'llana boshlandi. Ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan ayrim jinoyatlarga nisbatan yarashtiruv instituti joriy etildi. 2008 yil 1 yanvardan boshlab mamlakatda o'lim jazosi bekor qilindi, fuqarolarni qamoqqa olishga sanksiya berish huquqi prokuraturadan sudlarga o'tkazildi.

Demak, mustaqillikning dastlabki yillaridan davlat boshqaruvi tizimini tubdan yangilash bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirila boshlandi. Xususan, oldingi ma'muriy-buyruqbozlik tizimida bo'lgan va yangi demokratik davlatchilikni barpo etish yo'lida to'siq bo'layotgan ko'plab boshqaruv organlari tugatildi yoki faoliyati qaytadan tashkil etildi. Mamlakatda hokimiyatning uchga bo'linishi (qonun chiqaruvchi, ijro va sud) tamoyiliga asoslangan boshqaruv tizimi qaror topdi. Prezident, Oliy Majlis, Ijro hokimiyati va Sud tizimi konstitutsiyaviy maqomga ega bo'ldi. Shu bilan birga, ayrim kamchi-

liklar va muammolar mavjud edi. Ular orasida eng muhim vazifa – hokiyat bo'g'inlari, birinchi navbatda ijroiya hokimiyat bilan mutanosib ravishda qonun chiqaruvchi tizim faoliyatini mustahkamlash edi.

Yangi O'zbekiston. 2016-yilgi Prezident saylovi va Harakatlar strategiyasi.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov 2016-yil 2-sentabr kuni vafot etdi. O'zbekiston Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma qaroriga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vazifa va vakolatlarini vaqtincha bajarish O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Shavkat Miromonovich Mirziyoyev zimmasiga yuklandi.

Shavkat Mirziyoyev 2016-yil 8-sentabrda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi nutqida O'zbekistonning zamonaviy tarixi mamlakatimizning chinakam mustaqillikka erishishi uchun juda og'ir va mashaqqatli kurash davri bo'lganligini ta'kidlab, jamiyat oldida turgan asosiy vazifa 25 yil davomida qo'lga kiritilgan va samarali amalga oshirilayotgan, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarida demokratik islohotlarni va o'zgarishlarni chuqurlashtirish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari talablarini amalga oshirish, mamlakat suvereniteti, xavfsizligi va hududiy yaxlitligini himoya qilish bo'yicha olib borilayotgan ishlarni davom ettirishdan iborat ekanligini alohida ta'kidladi.

Mohiyat e'tibori bilan aytganda, mazkur sana o'zbek xalqi va davlatchiligi tarixida Yangi O'zbekiston bosqichi boshlangani bilan e'tiborlidir.

2016-yil 4-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga navbatdan tashqari saylovlar bo'lib o'tdi. Markaziy saylov komissiyasi ma'lumotlariga ko'ra, 20461805 saylovchi ro'yxatga olinib, ulardan 17951667 kishi, ya'ni umumiy saylovchilarning 87,73 foizi ovoz berish jarayonida ishtirok etdi. Saylov natijalariga ko'ra, Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan nomzod Sh.M.Mirziyoyevni yoqlab 15906724 saylovchi yoki ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilar umumiy sonining 88,61 foizi ovoz berdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi jarayonida 46 ta davlatdan 600 ga yaqin kuzatuvchi hamda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Butunjahon saylov organlari uyushmasi va Islom hamkorlik tashkiloti kabi xalqaro tashkilotlar ishtirok etdilar. Ushbu saylov jarayonida birinchi marta EXHTning Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosining 32 ta mamlakatdan 200 ga yaqin kuzatuvchilar hay'ati

to'laqonli ishtirok etdi. Xalqaro kuzatuvchilar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sayloviga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish jarayoniga yuqori baho berishdi.

2017-yil 14-yanvarda Shavkat Mirziyoyev Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisida ma'ruza qilib, keyingi besh yil davomida bir qator muhim strategik vazifalarni amalga oshirish masalasini kun tartibiga qo'ydi va tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerakligini ta'kidladi.

Ma'ruzada 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi loyihasi yuzasidan takliflar bildirildi. 18-yanvar kuni esa, Prezidentning O'zbekistonni yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risidagi Farmoni loyihasi muhokama uchun e'lon qilindi. Harakatlar strategiyasi loyihasi jamoatchilik tomonidan keng muhokama qilinib, takliflar bildirildi. 7-fevral kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni bilan davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirish, qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini isloh qilish, iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish, ijtimoiy sohani rivojlantirish hamda jamiyatda xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosatni yuritish kabi besh ustuvor yo'nalishlarni qamrab olgan Harakatlar strategiyasi tasdiqlandi.

Harakatlar strategiyasini amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar har bir yil dasturida o'z ifodasini topdi. 2017-yildan boshlab Prezident tomonidan Oliy Majlisga Murojaatnoma taqdim etiladigan bo'ldi. Murojaatnoma «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili»da amalga oshirilgan asosiy ishlar yakuni hamda 2018-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlandi.

Ushbu tadbirda 2018-yil «Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili» deb e'lon qilindi. Yangidan shakllangan an'anaga ko'ra, 2019-yil «Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili», 2020-yil «Ilm-ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili» deb e'lon qilindi hamda ushbu yo'nalishda tegishli Davlat dasturlari amalga oshirildi. 2021-yil «Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili» deb belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev davlat va jamiyatni erkinlashtirish sharoitida bir qator muhim takliflarni ilgari surdi. Xususan, 2017-yil 12-iyulda parlament palatalari, siyosiy partiyalar, O'zbekiston

Ekologik harakati, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlarining faoliyati tahliliga bag'ishlangan videoselektorda mamlakatdagi siyosiy partiyalar, barcha vakillik organlari – Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasi, viloyatlar, shaharlar, tumanlar, xalq deputatlari Kengashlarining xalq oldida javobgarligini kuchaytirish lozimligini ta'kidladi.

Davlat rahbari ikkala palata faoliyatini yanada takomillashtirish va kengaytirish zarurligini qayd etdi. Prezident tashabbusi bilan parlament nazorati tizimini kengaytirish maqsadida Senat raisi va Qonunchilik palatasi Spikerining birinchi o'rinbosari lavozimi joriy etildi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va mamlakatimiz qonunchiligiga kiritilgan o'zgarishlar qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini yanada demokratlashtirish, siyosiy partiyalar faolligini oshirish, demokratik jamiyatning ajralmas qismi bo'lgan partiyalararo raqobatni kuchaytirishda muhim omil bo'ldi.

Prezident taklifiga binoan, respublika hukumatining yangi rahbari sifatida Abdulla Nig'matovich Aripov tayinlandi hamda Vazirlar Mahkamasining yangi tarkibi tuzildi. Davlatning ustuvor vazifalariga muvofiq ijroiya organlarining samaradorligini oshirish maqsadida bir qator yangi vazirliklar, davlat qo'mitalari tashkil etildi. Xususan, Madaniyat vazirligi, Maktabgacha ta'lim vazirligi, Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi, Turizm va sport vazirligi tashkil etildi.

2017-yildan boshlab barcha darajadagi hokimlar, prokuratura va ichki ishlar idoralari rahbarlarining aholi oldida hisobot berish amaliyoti joriy etildi. Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan ijroiya hokimiyat tuzilishi va unga yuklatilgan vazifalarni sifat jihatdan takomillashtirishga qaratilgan tadbirlar boshlandi. 2019-yilda «Korrupsiyaga qarshi kurashish» to'g'risida qonun qabul qilindi.

2019-yil 22-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga navbatdagi saylov bo'lib o'tdi. Ko'rsatilgan nomzodlar yetarlicha ovoz olmagan 25 ta saylov okrugida 2020-yil 5-yanvar kuni takroriy saylov o'tkazildi. Oliy Majlisdagi deputatlik o'rinlari quyidagicha taqsimlandi. Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi 53 ta o'rin, «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi 36 ta, «Adolat» sotsial-demokratik partiyasi 24 ta, O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi 22 ta va O'zbekiston ekologik partiyasi 15 ta.

2020-yil 24-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasiga navbatdagi

Murojaatnomani yo'lladi. Murojaatnomada, jumladan, qonunchilikda muhim masalalar bo'yicha ham takliflar ilgari surildi. Xususan, davlat rahbari «parlament va xalq deputatlari Kengashlarida davlat organlari rahbarlari va hokimlarning fuqarolar murojaatlarida ko'tarilgan masalalar qay darajada hal qilinayotgani bo'yicha hisobotlarini muntazam eshitish tizimini yaratish to'g'risida»gi tashabbusni kun tartibiga qo'ydi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning bir qator ilg'or qarorlari sud-huquq islohotlarini yanada chuqurlashtirishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 21-oktabrdagi «Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni ushbu sohani sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish, sud hokimiyatining haqiqiy mustaqilligini ta'minlash; fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish, odil sudlovga erishish bo'yicha davlat siyosatining uchta asosiy yo'nalishini belgilab berdi.

Qabul qilingan qonunlar va me'yoriy-huquqiy hujjatlarning samaradorligi, avvalambor, ularning mohiyati hamda ahamiyatini ijrochilar, huquqiy me'yorlarni qabul qiluvchilar, shuningdek, aholining keng qatlamlari va tadbirkorlarga o'z vaqtida yetkazilishini ta'minlash bilan bog'liqdir. Jismoniy va yuridik shaxslarning ushbu masalalardan xabardorligini oshirish maqsadida 2017-yil 8-fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qonun hujjatlarini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori qabul qilindi.

Mamlakatda yagona sud amaliyotini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni bilan Oliy sud va Oliy xo'jalik sudi fuqarolik, jinoiy, ma'muriy va iqtisodiy sud ish yurituvchi yagona oliy organ – O'zbekiston Respublikasi Oliy sudiga birlashtirildi.

Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan tuzilmaviy o'zgarishlar davlat va jamiyat hayotida yangi bosqichni boshlab berdi. Barcha sohalarda amalga oshirilayotgan yangilanishlar jamiyat farovonligining o'sishi bilan birga, mamlakatning xalqaro nufuzini ham oshirishga xizmat qilmoqda.

Fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishi. O'zbekistonda azaliy milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar, demokratik tamoyillar asosida fuqarolik jamiyatini shakllantirish bosib o'tilgan yo'l mohiyati, mazmuni va ahamiyati jihatidan to'rtta asosiy bosqichga bo'linadi.

Birinchi bosqich 1991–2000-yillarni qamrab olib, ustuvor islohotlar bosqichi, o'tish davri o'zgarishlari va milliy davlatchilik asoslarini shakllantirish davri bo'ldi. Bu yillarda fuqarolik jamiyatining tashkiliy-huquqiy asoslari yaratildi, fuqarolik institutlari, shu jumladan, ko'p partiyaviylik tizimi, o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlarining keng tarmog'i yaratildi. Shu bilan birga, mustaqil ommaviy axborot vositalarini shakllantirish va ularning faoliyati uchun shart-sharoitlarni ta'minlash masalalarini tartibga soluvchi qonunchilik bazasi yaratildi.

Islohotlarning ikkinchi bosqichi hisoblanmish 2001–2010-yillarda mamlakatni faol demokratik yangilash va takomillashtirish davrining asosiy vazifasi – bu o'tish davri va milliy davlatchilikni shakllantirish sharoitida kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatiga izchil va bosqichma-bosqich o'tishdir.

Ushbu davrda ikki palatali parlament shakllandi, siyosiy partiyalarning nizomiy faoliyatini moliyalashtirishning milliy tizimi shakllandi. Partiya fraksiyalari, parlament ko'pchiligi va parlament muxolifatining huquqiy maqomi, uning alohida huquqlari va samarali faoliyati kafolatlari aniq belgilab berildi. Qonunchilikka tegishli norma kiritilib, unga muvofiq Qonunchilik palatasida tashkil etilgan siyosiy partiyalar fraksiyalari rahbarlari Oliy Majlis Spikeri o'rinbosari lavozimlarini egallaydigan bo'ldi. Shu bilan birga, siyosiy partiyalarning markazda va joylarda ijro etuvchi hokimiyat organlarini shakllantirish jarayoniga samarali ta'siri uchun tashkiliy-huquqiy sharoitlar yaratildi.

Nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, shu jumladan, ularga davlat grantlari, subsidiyalari va ijtimoiy buyurtmalar ajratish orqali ta'minlash bilan bog'liq masalalar tartibga solindi. Chunonchi, 2008 yilda oliy vakillik organi huzurida nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan maxsus jamg'arma tashkil etildi. Jamg'arma mablag'larini samarali taqsimlashni tashkil etish, shaffoflik va oshkoralikni ta'minlash, ushbu mablag'larning maqsadli ishlatilishini nazorat qilish maqsadida parlament komissiyasi tuzildi.

Shuningdek, O'zbekiston mustaqil bosma ommaviy axborot vositalari va axborot agentliklarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish Jamoat fondi tashkil etildi. Jamg'arma bosma OAV va axborot agentliklarining iqtisodiy mustaqilligi va erkinligini mustahkamlash, ularning moddiy-texnik bazasini rivojlantirish va mustahkamlashga qaratilgan istiqbolli loyihalar va dasturlarni qo'llab-quvvatladi. Hududlarni ijtimoiy rivojlantirish, yordamga muhtoj oilalarni qo'llab-quvvatlash, milliy qadriyatlar va an'analarni mustahkamlash

bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha mahalla organlarining vakolatlari va vazifalari kengaytirildi.

Islahotlarning uchinchi bosqichi 2011–2016-yillarda nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish, ularning mamlakatni demokratik yangilash va takomillashtirishni amalga oshirishdagi o'rni va ahamiyatini kuchaytirish, «Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari» prinsipini izchil, bosqichma-bosqich amalga oshirish davri sifatida tavsiflanadi.

Ushbu bosqichda nodavlat notijorat tashkilotlari soni muntazam ravishda oshib bordi. Agar respublikada 1991-yilda atigi 95, 2010-yilda esa 5431 nodavlat notijorat tashkiloti faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, 2016-yilga kelib, ular soni 8417 taga yetdi.

Bu davrda mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik institutlarining o'rni va ahamiyatini kuchaytirishga hamda fuqarolarning dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal qilishga qaratilgan 200 dan ortiq qonunchilik hujjatlari qabul qilindi.

2015-yili O'zbekiston Respublikasining «Ijtimoiy sheriklik to'g'risida»gi qonuni kuchga kirishi munosabati bilan mamlakatda ijtimoiy ahamiyatga ega dastur va loyihalarni amalga oshirishda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari hamda nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari o'rtasida ijtimoiy sheriklikning prinsipial yangi huquqiy va institutsional asoslari shakllantirildi.

Islahotlarning to'rtinchi bosqichi 2016-yildan hozirgi kungacha – Yangi O'zbekistonni rivojlantirish bosqichi sifatida tavsiflanadi.

Bosib o'tilgan yo'l va to'plangan tajribani xolis baholash, mustaqillik yillarida erishilgan yutuqlar, yo'qotish va kamchiliklarni tahlil qilish asosida hozirgi zamon talablaridan kelib chiqib, ushbu bosqichda eng muhim ustuvor yo'nalishlarni aniqlash, demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va mamlakatni jadal rivojlantirish bo'yicha aniq vazifalar belgilab olindi.

Yangi bosqich xalq va davlat boshqaruvi, saylangan vakillari organlari muloqotining prinsipial jihatdan yangi mexanizmlarini joriy etilishi bilan tavsiflanadi. Fuqarolarning murojaatlari bilan ishlashning institutsional, tashkiliy va huquqiy asoslarini tubdan qayta ko'rib chiqish mamlakat davlatchiligi uchun noyob tajriba bo'ldi. Sh.Mirziyoyevning tarixiy ishlaridan biri 2016-yil 24-sentabrda Bosh vazir virtual qabulxonasining ochilishi bo'lib, u keyinchalik O'zbekiston Prezidentining virtual qabulxonasiga aylantirildi (pm.gov.uz). Hukumat rahbari va xalq o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri muloqot o'rnatildi. Virtu-

al qabulxona davlat organlarining jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlariga munosabatini tubdan o'zgartirdi. 2016-yil 28-dekabrda «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonga muvofiq, davlat hokimiyati tizimida mutlaqo yangi muassasa – O'zbekiston Prezidentining xalq qabulxonalari tashkil etildi. Bundan tashqari, u mamlakatning barcha hududlarida, shu jumladan, tuman va shaharlarda yaratildi. Bir yil o'tib, 2017-yil 12-dekabrda yana bir muhim hujjat qabul qilindi, u aholiga davlat xizmatlarini ko'rsatish milliy tizimini tubdan o'zgartirdi. Adliya vazirligi huzurida Davlat xizmatlari agentligi tashkil etildi.

To'rtinchi bosqichda fuqarolik jamiyati institutlarining mamlakat taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyatini tubdan oshirish, ularning davlat va hukumat organlari bilan o'zaro aloqalarini kuchaytirish maqsadida, 2018-yil 4-may kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha maslahat kengashi, 2019-yil 30-oktabrda Fuqarolik jamiyati shakllanishini monitoring qilish mustaqil instituti Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish markaziga aylantirildi.

Davlatimiz rahbarining 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaat-nomasida jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, davlat va jamiyat o'rtasida yanada yaqinroq aloqalarni o'rnatish uchun O'zbekiston Respublikasi Jamoatchilik palatasini tashkil etish e'lon qilindi. Umuman olganda, «Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlarini bajarishda parlament, hukumat va fuqarolik jamiyati institutlarining amaliy hamkorligini yo'lga qo'yish, bu masala bo'yicha muntazam ravishda parlament va jamoatchilik yeshituvlarini tashkil etish» zarurligi qayd etildi.

Prezidentning 2020-yil 16-apreldagi farmoniga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Jamoatchilik palatasi, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar jamoatchilik palatalari tashkil etildi. Ular faoliyatining asosiy yo'nalishlari etib davlat, fuqarolar va fuqarolik jamiyati institutlarining mamlakatni yanada jadal va har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan sa'y-harakatlarini birlashtiruvchi zamonaviy shakldagi tizimli hamda samarali muloqotini yo'lga qo'yish va ularning ijtimoiy manfaatlarini kelishilishini ta'minlash belgilab olindi. Shu bilan birga, palataning muhim funksiyalaridan biri – bu, fuqarolik jamiyati pozitsiyalarini mustahkamlash bo'yicha ish olib borishdir. Shu munosabat bilan Jamoatchilik palatasi fuqarolik jamiyati institutlarining davlat organlari bilan, ularning mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qo'shgan hissasi, jismoniy va

yuridik shaxslarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha har yili O'zbekistonda fuqarolik jamiyatining holati va rivojlanish tendensiyalari to'g'risida hisobot taqdim etadi.

Farmon bilan fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha vakolatlar takrorlanishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha maslahat kengashi va Markazi tugatildi. Ijtimoiy hayot bilan bog'liq turli masalalar bo'yicha fuqarolar tomonidan takliflarni elektron jamoaviy murojaat shaklida yuborish maqsadida tashkil etilgan «Mening fikrim» veb-portali Jamoatchilik palatasining tasarrufiga o'tkazildi. Unga jamoat nazorati institutining eng muhim elementi bo'lgan «xalq qonunchilik tashabbusi»ni amalga oshirishning bir turi sifatida qaralmoqda.

Davlat rahbarining tashabbusi bilan 2020-yil 18-fevralda Mahalla va oila ni qo'llab-quvvatlash vazirligi tashkil etildi. Ushbu vazirlik oilalar, ayollar va qariyalar, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, shuningdek, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishni qo'llab-quvvatlash sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha vakolatli organ hisoblanadi. Shu bilan birga, O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi va Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha Respublika kengashi hamda «Nuroni» jamg'armasining hududiy bo'linmalari tugatildi. Vazirlar Mahkamasi huzuridagi «Oila» ilmiy-amaliy tadqiqot markazi va «Mahalla» o'quv-uslubiy va ilmiy tadqiqot markazi asosida «Mahalla va Oila» ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etilib, vazirlik tarkibiga o'tkazildi.

Umuman olganda, so'nggi yillarda davlat hokimiyati va fuqarolar o'rtasidagi muloqot butunlay boshqacha bo'lib, rahbarlar va mansabdor shaxslarni aholiga yaqinlashtirdi. «Xalq davlat idoralariga emas, balki davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak» degan tamoyil orqali xalq manfaatlarini ta'minlash islohotlarning asosiy mezoni bo'ldi. Joylarda ijro va vakillik organlarining davlat boshqaruvidagi roli va mas'uliyatini oshirishga alohida e'tibor qaratildi.

Milliy iqtisodiyotning yaratilishi. Davlat mustaqilligi tiklangach, ko'ndalang turgan eng og'ir va qaltis muammolardan biri uzoq vaqt mustamlakachilik, ma'muriy-buyruqbozlik, davlat mulkchiligiga asoslangan iqtisoddan ochiq bozor munosabatlari tizimiga o'tish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan.

Sovet hokimiyati hukmronligi davrida iqtisodiyotining asosiy qismi faqat xomashyo yetkazib berishga ixtisoslashgan O'zbekiston iqtisodini paxta

yakkahokimligi ustuvorlik qilgan agrar tarmoq tashkil etardi. Bunday bir tomonlamalik iqtisodiyotdan tashqari ko'plab ijtimoiy muammolarni keltirib chiqardi. Mustaqillik arafasida aholining 60 foizdan ortig'i to'g'ri keladigan qishloqlarda kambag'allik ortib borgandi. O'zbekistonda mehnatga layoqatli aholining deyarli 15 foizi (boshqa aksariyat respublikalarda bu ko'rsatkich 5,5 foizdan ortmagan) bandligi ta'minlanmagan edi. Yangi bo'z yerlarning o'zlashtirilishi, paxta yetishtirishni ko'paytirish maqsadida sug'oriladigan ekin maydonlarning kengaytirilishi Orol dengizi havzasidagi ijtimoiy-ekologik vaziyatga g'oyat salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Shunday vaziyatda bozor munosabatlariga asoslangan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning o'ziga xos modeli ishlab chiqildi. Ushbu modelning nazariy jihatlarini 1993-yili O'zbekiston Birinchi Prezidenti Islom Karimovning «O'zbekiston – bozor munosabatlariga o'tishning o'z modeli» kitobida bayon qilindi. Uning amalga oshirilishida beshta bosh tamoyilga asoslanildi: iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi; davlat bosh islohotchi; qonun ustuvorligi; kuchli ijtimoiy siyosat; islohotlarning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi.

1991–2016-yillarda hukumatning umumiy siyosati quyidagi maqsadlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan edi: 1) energiya ta'minoti va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishni ko'paytirib, o'zini o'zi ta'minlash yo'li bilan importni qisqartirish orqali iqtisodiy mustaqillikka erishish; 2) iqtisodiyotni xomashyo ishlab chiqarishdan sanoatning yanada raqobatbardosh tuzilmasiga aylantirish; 3) milliy valuta barqarorligiga erishish uchun mamlakatning eksport imkoniyatini oshirish va oltin-valyuta zaxiralarini ko'paytirish; 4) bandlik imkoniyatlarini kengaytirish va aholining turmush darajasini oshirish.

Respublikada 1990-yillar o'rtalariga qadar yangi iqtisodiy munosabatlar shakllanishi murakkab vaziyatni boshidan kechirdi, xususan, 1990-yillar o'rtalariga qadar YalMning 15 foizga pasayishiga olib keldi.

Vaziyat murakkab bo'lishiga qaramasdan, bu davrda mamlakat xalq xo'jaligida bozor munosabatlarini shakllantirish va uning samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga qaratilgan huquqiy bazani yaratishga kirishildi. Xususan, mamlakat hayotining barcha sohalarini qamrab olgan, ayni vaqtda bozor iqtisodiyotining tuzilmaviy asoslari shakllanishiga xizmat qiladigan jami 50 dan ortiq qonun qabul qilindi, o'nlab qaror va farmonlar hayotga joriy etildi. 1994-yil 1-iyulda muhim tarixiy voqea yuz berdi, milliy valuta – so'm muomalaga chiqarildi.

Ayni vaqtda, davlat mulki bosqichma-bosqich xususiylashtirila boshlandi. 1996-yil boshida respublikada 3 million oila shaxsiy tomorqa, 50000 kishi

kichik biznes va 5000 kishi ko'chmas mulkka ega bo'ldi. Keyingi bosqichda o'rta korxonalar bilan bir qatorda yirik korxonalar ham mulk shakllarini o'zgartirib, aksariyati hissadorlik jamiyatlariga aylantirildi. Davlat tomonidan bozor iqtisodiyoti tartiblariga asoslangan idora qilishning boshqa chora-tadbirlari amalga oshirildi. Ular orasida narxlarning bosqichma-bosqich erkinlashtirilishi, sarmoyalar, tovarlar, ishchi kuchlari bozorining shakllantirilishi, yangi iqtisodiy amaliyotga moslashtirilgan mutaxassislar tayyorlash kabi yo'nalishlar bor edi.

Mamlakat iqtisodiyoti inqiroziy holatda bo'lishiga qaramasdan, istiqlolning ilk yillaridanoq dastlabki yutuqlar qo'lga kiritildi. Energetik mustaqillikka erishish bo'yicha o'z vaqtida va aniq bir maqsadda qabul qilingan choralar natijasida 1990-yillar o'rtalarida asosiy mahsulot turlari bo'yicha o'zini o'zi ta'minlashga erishildi. 1995-yilda neft va gaz kondensatining qazib olinishi 7 mln tonnani (1990-yil – 1 mln tonna), neft importi esa – 1991-yildagi 5,5 mln tonna o'rniga 150 ming tonnani tashkil qildi. 1997-yilda tabiiy gazning qazib olinishi uning 1991-yildagi holatiga nisbatan 140 foizni tashkil etdi. Milliy iqtisodiyotning shakllanishi va rivojida uran, oltin va boshqa qimmatbaho metallarni qazib olishning o'sishi ham muhim ahamiyat kasb etdi.

Mustaqillikning ilk yillaridan O'zbekiston rahbariyati tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida eksportni rag'batlantirish, chet el sarmoyalarini jalb qilish, tashqi savdo aloqalarini kengaytirish va mustahkamlashga yo'naltirilgan yagona davlat siyosati maqsad qilib olingan. Lekin amalda, obyektiv va subyektiv sabablarga ko'ra, ushbu rejalar to'la ro'yobga chiqmadi.

Ammo 1990-yillarning ikkinchi yarmida mamlakat iqtisodiyoti jiddiy sinovlarga uchradi. 1996-yilda dunyo bozorida sodir bo'lgan paxta inqirozi ushbu mahsulotga belgilangan jahon narxlarining pasayib ketishiga sabab bo'ldi. Bu respublikada paxta ishlab chiqarishdan olinadigan daromadlarning 15 foizga qisqarishiga olib keldi. Buning ustiga, 1998 va 1999-yillarda paxtadan nisbatan past hosil olindi va 1995–1999-yillarda uning eksporti 25 foizga qisqardi. Bunga javoban mamlakat rahbariyati import o'rni bosadigan ishlab chiqarishni rag'batlantirish va valuta zaxiralarini saqlab qolish (ko'p miqdordagi almashtirish kursini kiritish va joriy hisob raqamlar bo'yicha amaliyotni chegaralash) ko'rinishida chora-tadbirlar (amalda konvertatsiyaning yopilishi) siyosatini qo'lladi.

Milliy iqtisodiyotni chet el raqobatidan himoya qilishga qaratilgan iqtisodiy siyosati va valutani chegaralash mamlakatda bozor tartib-qoidalari qaror topishi va iqtisodiyotda erkinlashtirish jarayoniga hamda kichik biznes

va xususiy tadbirkorlikning rivojiga salbiy ta'sir qildi. Xalq xo'jaligida davlat mavqeyining ortishi, monopolistik faoliyat ko'rsatayotgan tarmoqlarning kuchayishi va raqobat muhitining susayishiga, aholining kichik biznesdagi bandlik darajasi deyarli ikki baravar qisqarishiga olib keldi. Xorijiy sarmoyalarning kirib kelishiga salbiy ta'sir etdi. Shu bilan birga, tadbirkorlikning rivojlanish sur'atlari sekinlashishida davlat nazorat organlari aralashuvining kuchayishi, moliyaviy oqimlarning davlat korxonalari, xususan, qayta taqsimlangan ba'zi tarmoqlar foydasiga yo'naltirilgan sarmoyaviy faoliyat olib borish sabab bo'ldi.

Mavjud qiyinchiliklar va yo'l qo'yilgan xatolarga qaramasdan, O'zbekiston 2001-yilga kelib MDH mamlakatlari ichida birinchi bo'lib iqtisodiy o'sishga erishdi (ya'ni, YaIM o'sish sur'atlari bo'yicha 1991-yil ko'rsatkichlaridan oshdi).

Yangi asr boshida milliy iqtisodiyotda faol rivojlanish kuzatila boshlandi. Iqtisodiy-moliyaviy sohaning erkinlashtirilishi va bozor islohotlarining chuqurlashishi ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'ldi. U, eng avvalo, valuta bozorining (2003 yildan boshlab) qisman liberallashtirilishi, soliqlarning pasayishi, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish boshlanishi bilan izohlanadi. Barqaror o'sishning ta'minlanishida milliy iqtisodiyotdagi o'zgarishlar bilan bir qatorda, jahon bozorlarida xomashyo resurslariga belgilangan narxlar holatidagi ijobiy o'zgarishlar muhim ahamiyat kasb etdi. Bundan tashqari, turlantirish (mahsulot turlarini ko'paytirish, yangilarini ishlab chiqarish, yangi bozorlar topish va boshqalar) jarayonlarining kuchayishi, ishlab chiqarish imkoniyatlari hamda yuqori texnologik tarmoqlarning o'sishi kuzatildi. Agrar sohada fermer xo'jaliklarining rivojlanishi faollashdi.

O'tkazilgan islohotlar davomida to'plangan tajriba natijasida eksportni kengaytirish va import o'rni bosuvchi ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish borasida bir qator muammolar mavjudligi aniqlandi. Geosiyosiy joylashuvi jihatidan O'zbekistonning dengizga to'g'ridan-to'g'ri chiqish yo'li bo'lmaganligi tashqi savdo aloqalarini murakkablashtirardi. Chunki eksport qilinadigan mahsulotlar dengiz portlaridan biriga yetib borishi va rivojlangan davlatlar bozorlariga chiqishi uchun kamida ikkita davlat chegaralarini kesib o'tishi kerak edi.

Sohani atroflicha o'rganish orqali eksportni rivojlantirish va import o'rni bosuvchi ishlab chiqarish bilan bog'liq asosiy muammolar aniqlab olindi. Xususan, eksport hajmlariga ta'sir qilgan jiddiy omil ayrim tovarlarga ichki va jahon narxlarining o'zgarishi bo'ldi. Ishlab chiqarish (eskirgan, sarf-

xarajati yuqori bo'lgan texnologiyalar ta'sirida) xarajatlarining ortib ketishi, yuqori transport narxlari kabi muhim sabablar ba'zi tovarlar bo'yicha no-rentabellikka va eksportning (engil, kimyo, metallurgiya sanoati mahsulotlarining) qisqarishiga olib keldi. Shu bilan birga, ko'plab tarmoqlarda monopoliyaning saqlanishi, eksportni kengaytirishga yo'naltirilgan raqobatbardosh ishlanmalarni moliyalashtirish uchun imtiyozli kreditlash mexanizmining yetarli emasligi, eksport mahsulotini sertifikatlash va sifatini nazorat qilish tizimlarining rivojlanmaganligi kabi omillar mamlakat iqtisodiyotining keyingi rivojlanish bosqichlarida ham o'z salbiy ta'sirini o'tkazib keldi.

Xorijiy sarmoyadorlarga yengilliklar yaratilgan holda, davlat ularning sarmoyalarini manfaatli sohalarga jalb qilishga, ya'ni asosan, iqtisodiyotning real tarmog'ida foydalanishga intildi. Bunda davlat kafolati bilan ta'minlangan xorijiy sarmoyalar va texnologiyalar muhim o'rin tutdi. Ushbu kafolatlangan yirik moliyaviy tushumlar yordamida respublika iqtisodiyotida sanoatning avtomobilsozlik, neft-gaz kimyosi, neft-gaz mashinasozligi, zamonaviy qurilish materiallari sanoati, temiryo'l mashinasozligi, maishiy elektronika, dori-darmonchilik, zamonaviy oziq-ovqat hamda to'qimachilik sanoati kabi qator, mutlaqo yangi tarmoqlar ham yaratildi.

Iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar avvallari umuman qayd etilmagan mahsulotlarning (avtomobillar, televizorlar, turli elektron texnikalar) ishlab chiqarilishini ta'minladi. Ular ichida avtomobilsozlik alohida o'rin egallaydi. 1996-yilda Janubiy Koreyaning «Daewoo Motors» korporatsiyasi bilan birgalikda Andijon viloyati Asaka shahrida yengil avtomashinalarni ishlab chiqarish zavodi foydalanishga topshirildi. Keyinchalik Samarqand shahrida «Isuzu» (Yaponiya), «MAN» (Germaniya) kompaniyalari bilan hamkorlikda avtobuslar, yuk avtomobillari ishlab chiqarilishi yo'lga qo'yildi.

Sanoatni takomillashtirish va turlantirishga qaratilgan siyosat O'zbekistonning Navoiy va Olmaliq tog'-metallurgiya, Bekobod metallurgiya kombinati kabi Markaziy Osiyodagi (ushbu atama XX asrning 90-yillaridan ishlatila boshlandi) eng yirik korxonalari hamda qishloq xo'jalik mashinasozligi, sement sanoati kabi ishlab chiqaruvchilarning faoliyatini nafaqat saqlab qoldi, balki ularning rivojini ham ta'minladi.

O'zbekistonda bozor munosabatlariga asoslangan, sanoat jihatdan rivojlangan davlatlar tajribasi va ular amaliyotidan kelib chiqqan holda iqtisodiy siyosatda kichik biznes taraqqiyotiga hamda mamlakat YalMda uning ulushini oshirishga alohida e'tibor qaratildi. Agar 1990-yillar oxiriga kelib kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tartibga soluvchi davlat

tuzilmalarining ortiqcha aralashuvi va boshqa muammolar ta'siri natijasida tadbirkorlik subyektlari soni qisqarib ketgan bo'lsa, 2000-yillar boshlaridan xususiy mulk rolini oshirish va himoyalash, ishbilarmonlik muhiti holatini va biznesni olib borish sharoitlarini yaxshilash borasidagi tadbirlar tadbirkorlik faoliyatida ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Jumladan, 2016-yilga kelib ularning umumiy soni qariyb 200 mingtani tashkil etdi. Bu esa 2000-yilga nisbatan ikki marta ko'pdir. Tadbirkorlik subyektlarining YalMdagi ulushi 2000-yildagi 31 foizdan 56 foizga yetdi. Agrar islohotlar tufayli O'zbekiston qishloq xo'jaligi va agrosanoat majmuasining boshqa tarmoqlarida ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar ro'y berdi. Xo'jalik yuritishning iqtisodiy, moliyaviy va huquqiy sharoitlari yangilandi, ko'p yo'nalishli agrar tarmoq shakllantirildi. Fermerlik harakati dehqonchilik mahsulotlarining asosiy ishlab chiqaruvchisiga aylandi. Masalan, 2014-yilda fermer xo'jaliklari soni 73 mingdan oshdi, ekin maydonlarining 85 foizi ular hissasiga to'g'ri keldi.

Paxta ekin maydonlarining asta-sekin qisqarishi va bu maydonlarda don, sabzavot, poliz, kartoshka, yem-xashak ekinlarining joylashtirilishi, respublika aholisini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashni kafolatlab hamda narxlar asossiz ravishda oshib ketishiga yo'l qo'ymadi. Xususan, birgina 1991-yildan 2014-yilga qadar kartoshka hosili 6,4 marta, sabzavot 2,6 marta, mevalar 4,4 marta, uzum 2,8 marta, poliz ekinlari 1,7 marta o'sdi. Agar 1990-yillar boshlarida O'zbekistonda qariyb 5 mln tonna meva-sabzavot yetishtirilgan bo'lsa, 2015-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 16 mln tonnadan oshdi. Bu esa ichki bozor ehtiyojlarini qondirishdan tashqari, ularni eksportga yo'naltirishga ham imkon berdi.

Shunday qilib, dastlabki chorak asr davomida iqtisodiy islohotlar natijasida respublika xalq xo'jaligi tarkibida, ayniqsa, ishlab chiqarish tarmoqlarida bir qator o'zgarishlar yuz berdi. Sanoatning yangi tarmoqlari vujudga keldi, yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarila boshlandi. Ammo islohotlar boshida ko'zlangan maqsadlarga to'la erishilmadi va samarali faoliyat ko'rsatadigan bozor munosabatlari qaror topmadi hamda innovatsion iqtisodiy tizim yaratilmadi. Hatto yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan ayrim sanoat tarmoqlari, jumladan, samolyotsozlik tarmog'i inqirozga yuz tutib, tugatildi.

Mazkur xato va kamchiliklar negizida nafaqat sovet davridan qolgan meros va o'tish davri bilan bog'liq obyektiv muammolar, balki yangi iqtisodiy munosabatlarning bosh sharti – mulk masalasi to'la o'z yechimini topmaganligi yotardi. Shu bilan birga, xususiy mulkni rivojlantirish yo'lidagi byurokratik to'siqlar, davlat va nazorat qiluvchi organlarning tadbirkorlik subyektlari

moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga noqonuniy aralashish holatlari to'liq bartaraf etilmadi. Tashkil etilgan yirik kompaniyalar, konsernlar va shu kabi yirik korxonalar mazmunan nodavlat sektori hisoblansa-da, mohiyatan davlat nazorati ostidagi xo'jalik yurituvchi subyektligicha qoldi va xalq xo'jaligida monopol mavqeyini kuchaytirdi.

Davlatning iqtisodiyotdagi o'rni ortib borgan sari ijtimoiy-iqtisodiy hayotda korrupsiyaning kuchayishiga olib keldi. Aynan shu holat mamlakat iqtisodiyotining jahon xo'jalik tizimiga kirib borishini qiyinlashtirdi, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy sarmoyalarning kirib kelishi uchun yetarli sharoit yaratmadi. Asosan, XXI asr boshlaridan O'zbekiston rahbariyati Markaziy Osiyodagi qo'shni respublikalar bilan munosabatlarda ko'proq yopiq siyosat olib borilishi hamda geosiyosiy manfaatlar to'liq hisobga olinmaganligi oqibatida qardosh mamlakatlar bilan iqtisodiy hamkorlik ko'rsatkichlari quyi darajaga tushib qoldi.

Natijada, respublika xalq xo'jaligiga jalb etilgan xorijiy sarmoyalarning hissasi, yuqori texnologiyalarga asoslangan korxonalar ulushi pastligicha qolaverdi. Mamlakat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar, xususan, iste'mol mahsulotlari sifatining talab darajasida emasligi, ularning ichki va tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligi pasayishiga sabab bo'ldi. Agrar tarmoqda paxtachilik sohasining mavqei pasaymadi, qishloq xo'jaligida qo'l mehnati ulushining yuqoriligi sababli majburiy mehnatdan to'liq voz kechilmadi. Iqtisodiyotda yig'ilib kelgan xato va kamchiliklar, o'z navbatida, mavjud ijtimoiy muammolarni keskinlashtirdi.

Ijtimoiy turmush. 1991–2016-yillarda O'zbekiston aholisi, taxminan, 11500000 kishiga ko'paydi va 32121000 kishiga yetdi. Aholining o'rtacha o'sish sur'atlari bu davrda 1,7 foizni tashkil qildi, o'rtacha mutlaq o'sish esa 400 ming kishidan oshdi.

O'tish davri aholining ijtimoiy zaif qatlamlari, ayniqsa, ko'p bolali va budget daromadlari hisobiga kun kechiruvchi oilalarning real daromadlariga salbiy ta'sir ko'rsatdi. O'zbekistonda amalga oshirilgan keng miqyosli islohotlar natijasida budget qiyinchiliklari bilan bog'liq muammolar kelib chiqdi. 1990-yillar oxirlarida o'qituvchilarning ish haqi darajasi mamlakatdagi o'rtacha ko'rsatkichning atigi 60–65 foizini tashkil qilardi. Pensiya va nafaqalarning o'z vaqtida berilmasligi muammosi paydo bo'ldi. Respublika ijtimoiy sug'urta jamg'armasi tomonidan pensiya va nafaqalarni moliyalashtirishda muammolar vujudga keldi. Bunga bank kassalarida naqd pul mablag'larining yetarli emasligi sabab bo'ldi. Bu jarayon yangi asrning ilk yillarida ijtimoiy hayotning boshqa sohalarida ham kuzatildi.

Og'ir demografik vaziyat o'tish davri iqtisodiy muammolari bilan birga, mustamlaka davridan davom etib kelayotgan bandlik muammosini keskinlashtirdi. Aholi sonining 1960–1980-yillardagi keskin o'sishi 1990-yillarda hamda 2000-yillar boshlarida mehnatga layoqatli aholi soni va sifatiga nihoyatda salbiy ta'sir ko'rsatdi hamda bandlik muammosini keskinlashtirdi. Masalan, 2016-yilga kelib, iqtisodiyotda band bo'lgan mehnatga layoqatli aholi ulushi 1991-yilga nisbatan tashvishlanarli darajada – 78 foizdan 67 foizgacha kamaydi.

1991–2016-yillar davomida umumiy aholi soni 1,5 barobarga o'sgan bo'lsa, mehnatga layoqatli aholi sonining o'sishi 1,8 barobarni tashkil qildi. Tabiiyki, mamlakat aholisi demografiyasining o'ziga xosligini hisobga olinadigan bo'lsa, o'sish, asosan, qishloqlardagi ko'payish hisobiga sodir bo'ldi. Bu esa bandlik muammosini keskinlashtirdi.

Ish bilan band bo'lganlar umumiy sonining qisqarishiga quyidagi omillar: ko'plab korxonalarining turli mulk va xo'jalik yuritish shakllariga o'tishi, ishlab chiqarish hajmlarining qisqarishi, sifat jihatdan bozor iqtisodiyoti tizimiga va xo'jalik-iqtisodiy tuzilmasiga mos kelmaydigan aksariyat muassasa va tashkilotlar tugatilishi sabab bo'ldi. Tadbirkorlik subyektlarining samarali faoliyat olib borishiga to'g'anoq bo'lgan omillar ham ishsizlik muammosini yanada murakkablashtirdi. Ma'lumotlarga ko'ra, 2000-yilda iqtisodiyotda ish bilan band bo'lganlar hissasi 1991-yilga nisbatan – 78 foizdan 72 foizgacha pasaydi, 2016-yilga kelib bu ko'rsatkich 65 foizni tashkil qilganligi qayd etilgan.

Iqtisodiyotdagi xastaliklar ijtimoiy-demografik muammolarni keskinlashtirdi. Mehnatga layoqatli aholi tarkibida norasmiy mehnat faoliyati bilan shug'ullanayotgan kishilar salmog'ining ortishiga va u mehnat migratsiyasi shaklida namoyon bo'lishiga zamin yaratdi. XX asr 90-yillarining birinchi yarmida migratsiya, asosan o'zining tarixiy vataniga qaytgan rusiyzabon va boshqa kichik millatlarni qamrab olgan bo'lsa, 1990-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab migratsiya yaqqol iqtisodiy xususiyatga ega bo'ldi, ya'ni odamlarning moddiy ahvolini yaxshilash maqsadidagi ko'chishlarda kuzatildi. Yangi asr boshiga kelib esa, tashqi, ayniqsa, norasmiy mehnat migratsiyasi ko'lami kengaydi.

Davlat mehnat migratsiyasini tartibga solishga harakat qildi. 1995-yilda Mehnat vazirligi huzurida Tashqi mehnat migratsiyasi masalalari bo'yicha Agentlik tashkil etildi. Ammo Agentlik faoliyatida qonunbuzilishlar va korrupsiya holatlari kuzatilgani hamda bu borada boshqa davlatlar bilan hamkor-

lik masalalari o'z yechimini topmaganligi sababli rasmiy migrant-mehnat-kashlarning ulushi pastligicha qolaverdi. Bu davrda Agentlikning mehnat migratsiyasi bo'yicha asosiy hamkori Koreya Respublikasi bo'ldi. Agentlik va Koreya tadbirkorlar Assotsiatsiyasi bilan imzolagan shartnomaga muvofiq, 1995–2008-yillarda O'zbekistondan atigi 24 mingdan ortiq kishi Koreya Respublikasida ishlab qaytdi.

Ko'p yillar davomida O'zbekistondan tashqi mehnat migratsiyasining asosiy yo'nalishi Rossiya Federatsiyasiga qaratilganligi uchun pul mablag'lari jo'natmalarining aksariyati ham ushbu davlat hissasiga to'g'ri keladi. Jahon banki ma'lumotlari bo'yicha o'zbekistonlik mehnat migrantlarining har yilgi pul o'tkazmalari 2006-yilda deyarli 1 mlrd AQSH dollari, 2009-yilda esa, ba'zi bir baholashlar bo'yicha 2 mlrd AQSH dollari, 2010-yilda esa 2,5 mlrd AQSH dollaridan oshdi. 2013-yilga kelib Rossiyadan O'zbekistonga yuborilgan pul o'tkazmalari cho'qqi darajani qayd etdi va 6,63 mlrd dollarga teng bo'ldi.

O'zbekiston hukumati mustaqillikning ilk davridanoq ijtimoiy-iqtisodiy sohada oldingi davrdan qolgan salbiy holatlarni bartaraf qilish, jamiyatni tubdan qayta qurish, bozor iqtisodiyoti bilan bog'liq vujudga kelayotgan yangi muammolarni hal qilish, aholini ijtimoiy jihatdan himoyalash bo'yicha keskin chora-tadbirlar majmuyini ishlab chiqishga va hayotga tatbiq etishga harakat qildi.

Shu maqsadda, ijtimoiy siyosat dasturi ishlab chiqilib, uning asosida bosqichma-bosqich islohotlar o'tkazildi. Masalan, mustaqillikning dastlabki eng og'ir yillarida iste'mol tovarlarining aksariyati chetdan keltirilib, inobatga olib, ularni aholiga arzonlashtirilgan tarzda yetkazib berdi. 1992-yilda respublikada ishlab chiqarilgan 100 ming tonna go'sht va 350 ming tonna chetdan keltirilgan go'sht, uning xarid narxi 750 rublni tashkil qilgan bo'lsa-da, 1 kg uchun 400 rubldan sotildi. Bundan tashqari, 1 kg uchun narxi 350 rubldan keltirilgan qand (shakar) 200 rubldan sotildi, 1 kg bug'doy 105 rubldan sotib olindi, un esa 1 kg uchun 30 rubldan sotildi. Mahsulotlarni sotib olish va sotishdan kelgan zarar davlat tomonidan qoplandi va bu aholi uchun eng zarur mahsulotlarni iste'mol qilish uchun ishonchli ijtimoiy kafolatni ta'minlab berdi.

Shu bilan birga, aholining kam ta'minlangan va himoyalalmagan tabaqalari uchun ijtimoiy imtiyozlarning bir butun majmuyi amalga oshirildi: boshlang'ich sinflar o'quvchilari va pensionerlar uchun bepul nonushtalar tashkil qilindi, bepul oziq-ovqat berildi, o'quvchilar va talabalar uchun pasaytirilgan

narxlarda tushliklar tashkil qilindi. Fuqarolarning ba'zi bir toifalari uchun uy-joy bepul xususiylashtirildi, kommunal xizmatlar va budjetning ma'lum turlariga to'lovlarni amalga oshirish uchun imtiyozlar joriy qilindi.

Faol ijtimoiy siyosat o'tish davrining ziddiyatlarini hisobga olgan holda, nafaqat aholini qo'llab-quvvatlash, balki uning moddiy ehtiyojlarini ta'minlashdan ham iborat bo'ldi. Davlatning e'tibori sog'liqni saqlash, ta'lim, madaniyat, san'at, fan va boshqa shu kabi muhim tarmoqlarida turgan edi. Ushbu tarmoqlarni qo'llab-quvvatlash, ularda ishlayotgan odamlar mehnatini munosib tarzda baholash, kuchli ijtimoiy himoyalash hamda ijodiy imkoniyatlarini ochish uchun sharoitlarni yaratish lozim edi.

Bozor munosabatlariga o'tish jarayonida O'zbekiston manzilli ravishda aholini himoya qilishning yo'llarini belgilab oldi. Bu yo'nalishdagi faoliyatni samaraliroq tarzda amalga oshirish uchun 1990-yillar o'rtalaridan boshlab har yili («Inson manfaatlar yili», «Oila yili», «Sog'lom avlod yili» kabi nomlar ostida) keng miqyosli dasturlar ishlab chiqildi. Dasturlarda ko'zda tutilgan maqsadlar qo'shimcha ijtimoiy choralar sifatida amalga oshirildi. Bu ishlarga keng jamoatchilik, davlat va nodavlat organlari, shuningdek, maxsus dasturlar asosida xalqaro nufuzli tashkilotlarning mablag'lari jalb qilindi.

Qayd etish kerakki, aholini ijtimoiy himoyalash bir maromda kechmadi. Ushbu tizimdagi mavjud muammolar – qamrov darajasining pastligi, moddiy to'lov bilan cheklanganligi, ijtimoiy-psixologik ehtiyojlar hisobga olinmaganligi, ijtimoiy zaif qatlamga mansublikni belgilashning mezonlari yo'qligi, nafaqalarning kamligi, aksariyat kam ta'minlangan oilalarning nafaqa olmasligi va uni tayinlashning murakkabligi, moliyalashtirish manbalarining yetishmasligi, yordam pulini tayinlash va to'lash jarayoni o'z vaqtida o'rganib borilmagani va hokazolar misoldir.

2017-yil arafasida O'zbekiston hukumati oldida mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi jarayonlarni chuqurlashtirish va mavjud muammolar yechimini topish borasida yangi vazifalar turganligi aniqlandi. Ulardan eng dolzarblari – demografik holat, bandlik, mehnat migratsiyasi va eng muhimi, ko'p yillar davomida aholini muntazam daromad bilan ta'minlab turuvchi tizim to'la shakllanmaganligi va mavjud muammolar yashirib kelinganligi oqibatida kambag'allik muammosi kun tartibiga chiqdi.

O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida yangi bosqichning boshlanishi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi sifat jihatidan yangi bosqich Prezident Shavkat Mirziyoyev faoliyati bilan bog'liqdir. Davlat rahbari o'zining ilk chiqishlaridayoq, «g'alaba raportlari» va qilingan ishga doir hisobotlarga be-

rilmasdan, asosiy diqqat-e'tiborni mavjud kamchiliklar va ularning ildizlarini puxta tahlil qilishga qaratish zarurligini aytdi. Shuningdek, «mamlakat Prezidenti va hukumati darajasida yechiladigan aniq takliflar va muammoli masalalarga e'tibor berish shart», deb alohida ta'kidladi.

Darhaqiqat, yuqorida aytilgan fikrlardan maqsad 1991–2016-yillarda mamlakat iqtisodiy rivojlanishida va ijtimoiy sohada to'planib kelgan muammolarni hal etish hamda O'zbekistonni tez va barqaror rivojlanayotgan mamlakatlar qatoriga olib chiqishga yo'naltirilgan islohotlarning yangi yo'llarini izlab topishga e'tiborni qaratish edi. Mazkur vazifani amalga oshirish yo'lida aholining keng qatlamlari, jamoatchilik va ishbiarmon doiralar vakillari, davlat organlarining rahbarlari hamda mutaxassislari bilan amaliy suhbat hamda muhokamalar olib borildi. Shuningdek, amaldagi qonun hujjatlari, milliy va xalqaro tashkilotlarning axborot-tahliliy hujjatlari, ma'ruzalari, tavsiyalari va sharhlari o'rganildi, rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi tahlil qilindi.

Kelib tushgan takliflarni jamlash, chuqur o'rganish hamda umumlashtirish asosida 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi qabul qilindi.

Harakatlar strategiyasining «Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberalashtirish» deb nomlangan uchinchi yo'nalishida belgilangan chora-tadbirlarni ro'yobga chiqarish uchun milliy valuta va narxlarning barqarorligini ta'minlash, valutani tartibga solishning zamonaviy bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish, tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, tadbirkorlikni rivojlantirish hamda xorijiy sarmoyadorlar uchun sarmoyaviy jozibadorlikni oshirish, soliq ma'murchiligini yaxshilash, bank faoliyatini tartibga solishning zamonaviy printsiplari va mexanizmlarini joriy etish, ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini rivojlantirish, shuningdek, turizm industriyasini jadal rivojlantirish kabi masalalar doirasida islohotlar olib borish belgilandi.

«Ijtimoiy sohani rivojlantirish» deb nomlangan to'rtinchi yo'nalish aholi bandligini oshirish, fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish va ularning salomatligini saqlash, yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya hamda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish hamda modernizatsiyalash, aholini elektr energiyasi va gaz bilan ta'minlashni yaxshilash, aholining muhtoj qatlamlariga ko'rsatiladigan ijtimoiy yordam sifatini oshirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi maqomini oshirish, sog'liqni saqlash sohasini isloh qilish kabi muhim masalalarni o'z ichiga qamrab oldi.

XX asr oxiri – XXI asr boshlarida, asosan, bozor munosabatlariga o'tishga qaratilgan, ammo o'z mantiqiy yakuniga yetkazilmagan iqtisodiy islohotlar

natijasida O'zbekiston kishi boshiga tushadigan yalpi mahsulot ulushi bo'yi-cha dunyoning ikkinchi yuztaligidagi davlatlar orasidan o'rin topdi, mehnat resurslarining uchdan biri – qishloq xo'jaligida bandligicha qoldi. Sanoatda, qishloq xo'jaligida, xizmat ko'rsatish sohalarida mehnat unumdorligi pastligicha qoldi va taraqqiy etgan davlatlarnikiga solishtirganda, bu ko'rsatkich o'n barobarga farqlanishi aniqlandi.

Istiqlolning ilk yillaridan va'da qilib kelingan, mamlakat iqtisodiyoti oldiga qo'yilgan ulkan marralarga erishilmadi.

Qabul qilingan va amalga oshirishga kirishilgan bosh mo'ljal doirasida, birinchi navbatda, ko'p yillar mobaynida iqtisodiyotda ziddiyatli holatlarga sabab bo'lgan, uning rivojiga to'sqinlik qilgan, eng asosiysi, aholi yashash darajasining pasayishiga olib kelgan, ayni vaqtda iqtisodiyotning qon-tomiri hisoblangan – bank-moliya tizimini isloh qilishga kirishildi. Shu maqsadda, Prezident Shavkat Mirziyoyev topshirig'iga ko'ra olib borilgan deyarli to'qqiz oylik tayyorgarlikdan so'ng 2017-yil 2-sentabrdan O'zbekiston Respublikasining Prezidenti bo'lgan jismoniy shaxslarga chet el valutasini tijorat banklarining valuta ayirboshlash shoxobchalariga erkin sotish va konversion bo'limlaridan sotib olish va chet elda hech qanday cheklolovsiz ishlatish huquqi berildi. Shuningdek, milliy valutaning yagona to'lov vositasi sifatidagi mavqeyini mustahkamlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi hududida tovar va xizmatlar (ishlar) uchun chet el valutasida to'lovlarni amalga oshirish taqiqlandi. Valuta siyosatini liberallashtirish natijasida 2017–2020-yillar davomida ichki valuta bozorida ishtirokchilar soni o'sishi kuzatildi. Xususan, xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan sotib olingan jami valuta hajmi 2020-yilda 2017-yilga nisbatan 2,3 barobarga, sotilgan valuta hajmi esa 2,1 barobarga oshdi.

Harakatlar strategiyasi hamda uning doirasida ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan chora-tadbirlar rejasi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va global iqtisodiy jarayonlarning faol ishtirokchisiga aylanishiga zamin yaratdi. Ushbu tarixiy qadam «Fitch Ratings» tashkiloti «O'zbekiston makroiqtisodiy barqarorlik va o'sish istiqbollari yaxshilashga, shuningdek, davlat tomonidan katta darajada nazorat qilinadigan iqtisodiyotda tuzilmaviy va boshqaruvdagi kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan ulkan va keng qamrovli islohotlar dasturini amalga oshirishga kirishdi» deya e'tirof etdi.

Xususan, O'zbekiston o'z tarixida ilk bor mamlakatda olib borilayotgan makroiqtisodiy islohotlar to'g'risida xorijiy sarmoyadorlar, xalqaro ko'rsatkich kompaniyalari va moliyaviy tashkilotlarni xabardor qilib bo-

rishni yo'lga qo'ydi. 2018-yilning oktabr oyida o'z tarixida birinchi bor O'zbekiston suveren kredit ko'rsatkichini oldi va 2019-yilda Xalqaro valuta jamg'armasining asosiy statistik ma'lumotlar platformasi – «Xalqaro moliyaviy statistika» tizimida O'zbekiston Respublikasining sahifasi ochildi. 2020-yilda O'zbekiston Open Data Inventory (ODIN) – Ochiq ma'lumotlar ko'rsatkichida 63 ball to'plab, jahon bo'yicha 44-o'rinni, Markaziy Osiyoda esa 1-o'rinni egalladi. Ochiq ma'lumotlar ko'rsatkichida O'zbekiston Osiyo davlatlari orasida eng katta o'sish kuzatilgan mamlakat bo'lib, birato'la 125 o'ringa yuqoriladi. Bundan tashqari, 2019-yilda O'zbekiston Respublikasining ilk xalqaro yevro obligatsiyalari London birjasida joylashtirildi va bu bilan respublikaning xalqaro moliyaviy bozorga kirib kelishi ta'minlandi. 2020-yilning 19-noyabr kuni Moliya vazirligi tomonidan umumiy hajmi 750 mln dollar miqdoridagi suveren xalqaro obligatsiyalar London qimmatbaho qog'ozlari bozorida (London Stock Exchange) muvaffaqiyatli joylashtirildi va ushbu amaliyot «JP Morgan Development Finance Institution» tuzilmasida yuqori darajada baholandi.

Qayd etilgan ushbu o'zgarishlar, xususan, O'zbekistonning xalqaro hamjamiyatga «ochilishi» va xalqaro hamkorlik kuchaytirilishi hamda olib borilgan islohotlar xalqaro hamjamiyatning mamlakatga nisbatan munosabati va ishonchi ortishiga omil bo'ldi. Xususan, 2020-yilda O'zbekiston birinchi marta Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT)ning to'g'ridan-to'g'ri xorijiy sarmoyalari bo'yicha me'yoriy cheklovlar indeksiga kiritildi va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy sarmoyalar uchun iqtisodiyotning ochiqligi bo'yicha Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida yetakchi o'rinni egalladi.

Umuman 2017–2020-yillarda bu borada olib borilgan sa'y-harakatlar natijasida O'zbekistonda xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari bilan hamkorlikda ko'plab loyihalar amalga oshirildi. Xususan, 2017–2020-yillarda xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari ishtirokidagi 327 ta sarmoyaviy loyihalar doirasida 10,26 mlrd dollar kredit mablag'lari o'zlashtirilib, qator sohalarni rivojlantirishga, shu jumladan, aholi farovonligiga yo'naltirildi.

Masalan, mablag'lar «Obod qishloq» va «Obod mahalla» dasturlarini moliyalashtirishga yo'naltirilishi natijasida 2020-yilga kelib, qishloq joylarda – 17 ming 100 ta, shaharlarda – 17 ming 600 ta, jami 34 ming 700 ta yoki 2016-yilga nisbatan salkam 3 barobar ko'p arzon uylar qurildi.

Kam ta'minlangan va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj 5 mingta oilaga, jumladan, nogironligi bo'lgan ayollarga ipoteka krediti asosida ar-

zon uy-joy sotib olish uchun 116 milliard so'mdan ziyod boshlang'ich badal to'lab berildi.

Islohotlarning navbatdagi strategik yo'nalishi mamlakatda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va sarmoyadorlar uchun qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan soliq islohotlaridir. Shu maqsadda 2018-yildan boshlab respublikada soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi qabul qilindi. Unga ko'ra, 2019-yildan mamlakatda tub soliq islohotlari amalga oshirildi, jumladan, jismoniy shaxslar daromad solig'i stavkasi 22,5 foizdan 12 foizga tushirildi, sug'urta badali va davlat jamg'armalariga maqsadli ajratmalar bekor qilindi. Qo'shimcha qiymat soliq stavkasining 20 foizdan 15 foizgacha pasaytirilishi aylanma mablag'larning korxonalaridan chetlanishini hamda oxirgi iste'molchiga egri soliq bosimini kamaytirdi.

Oxirgi besh yil davomida tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida eksport tarkibi va geografiyasini kengaytirish, tashqi savdo faoliyatini erkinlashtirish, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarning eksport salohiyatini kengaytirish kabi yo'nalishlarda muhim o'zgarishlar yuz berdi. Xususan, O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayonini faollashtirish doirasida tashqi savdo rejimini liberallashtirish borasidagi sa'y-harakatlar kengaytirildi.

O'zbekiston mintaqaviy integratsion tashkilot hisoblangan Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi (EOII) bilan hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'ydi va 2020-yildan kuzatuvchi maqomini oldi.

O'zbekiston tashqi savdo faoliyatida 2017–2020-yillarda tashqi savdoni liberallashtirish va respublika eksport salohiyatidan yanada samarali foydalanish natijasida o'zgarishlar yuz berdi. Xususan, eksport qilinadigan barcha tovarlar va xizmatlar uchun bojxona to'lovlari bekor qilindi, litsenziyalash va eksport tizimi soddalashtirildi. Tovarlarining 60 foizdan ortiq turlari uchun bojxona to'lovlarning «nol» darajasi belgilandi. Shuningdek, O'zbekistonda bojxona to'lovi stavkasi 6,45 foizgacha pasaytirildi. «Yagona darcha» tamoyili bo'yicha eksport va import operatsiyalarini elektronlashtirish va boshqa imtiyozlarning joriy etilishi bilan hujjatlarni rasmiylashtirishning umumiy vaqti 174 soatdan 96 soatgacha kamaydi. Tashqi savdoning liberallashtirishi natijasida O'zbekistonning tashqi savdo aylanmasi hajmi 2020-yilda (2020-yildagi pandemiya oqibatlariga qaramay) 2016-yilga nisbatan 1,5 baravarga oshdi.

O'tgan qisqa vaqt davomida milliy iqtisodiy tizimning barqaror rivojida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasiga ham jiddiy e'tibor qaratildi.

Tadbirkorlik rivojlanishiga g'ov bo'layotgan to'siqlar bosqichma-bosqich bartaraf etib borildi. Zero, «bundan keyin tadbirkorlikni rivojlantirishga to'sqinlik qilish – davlat siyosatiga, Prezident siyosatiga to'sqinlik qilish», deb baholanadi.

Yangi bosqichda tadbirkorlik sohasida yillar davomida yig'ilib qolgan muammo va qiyinchiliklarni zudlik bilan bartaraf etish yuzasidan amaliy tadbirlarga kirishildi. Natijada, mamlakatga sarmoyadorlarni jalb qilish faollashdi. Albatta, bu borada so'nggi besh yil davomida samarali ishlar amalga oshirilayotgani e'tiborga sazovordir. Jumladan, iqtisodiy salohiyati, qulay sarmoyaviy va infratuzilma sharoitlari hamda mehnat resurslari bilan mamlakat iqtisodiyotida yetakchi o'rin egallaydigan birgina Toshkent shahrida keyingi uch yilda yuksalish kuzatildi. Jumladan, 2019-yil o'rtalariga kelib, shaharda 73 mingdan ziyod kichik tadbirkorlik subyekti ro'yxatga olingan bo'lib, bu korxonalar umumiy sonining 87,9 foizini tashkil etadi. Kichik biznes subyektlarining yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi 62,2 foiz, mahalliy budjetdagi hissasi esa 14 foizga teng bo'ldi. Bu ijobiy o'zgarishlar xalqaro ko'rsatkich tashkilotlari tomonidan ham e'tirof etildi. Xususan, O'zbekistonning «Doing Business» – Biznes yuritish ko'rsatkichidagi «xalqaro savdo» indikatori ko'rsatkichlari 2016-yildagi 44,3 balldan 2020-yilda 58,2 ballga yaxshilanishiga erishildi.

Qulay sarmoyaviy muhit yaratilishi mamlakatda ishlab chiqarish korxonalarini taraqqiyoti uchun zamin bo'lib xizmat qildi. 2021-yil boshida O'zbekistonda 23 ta erkin iqtisodiy va 348 ta kichik sanoat zonasi tashkil etildi. Erkin iqtisodiy zonalarda umumiy qiymati 2,6 mlrd dollarlik 453 ta loyiha amalga oshirilib, 36 mingga yaqin ish o'mi yaratildi. Kichik sanoat zonalarida esa 5 trln so'mlik 1497 ta loyiha ishga tushirilib, 36 mingdan ziyod kishining bandligi ta'minlandi. Biroq mazkur zonalarda mahalliy va xorijiy sarmoyadorlar o'z faoliyatini to'laqonli boshlashi uchun bir qator tashkiliy, jumladan, infratuzilma masalalari bilan bog'liq muammolar kuzatildi. Ushbu muammolarni hal etish maqsadida 2021-yil oxiriga qadar erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalarini infratuzilmasini yaxshilash uchun 1,6 trln so'm mablag' ajratildi.

Dehqonchilik fermer va dehqonlarning manfaatdorligini oshirish borasida sohaga ilg'or texnologiyalar, jumladan, Fransiya va Niderlandiya kabi ilg'or davlatlar qishloq xo'jaligida samarali faoliyat ko'rsatayotgan klaster tizimi joriy etila boshlandi. Klaster tizimi ikkita yo'nalishda tashkil qilindi. Birinchisi, fermerlar va to'qimachilik korxonalarini o'rtasida bevosita shartnoma. Ikkinchi, salmog'i yuqori bo'lgan to'qimachilik korxonalarini fermerlikni o'zi

shakllantira boshladi. 2020-yildan boshlab 100 ga yaqin paxta-to'qimachilik ishlab chiqarish klasterlari faoliyat boshladi. Muhimi, paxta xomashyosi ishlab chiqarish va majburiy sotish rejasi, uning narxini davlat tomonidan belgilash amaliyoti bekor qilina boshlandi. Shuningdek, davlatga majburiy g'alla sotish hajmi 25 foizga kamaytirilishi belgilandi.

Ma'lumki, O'zbekiston turizm sohasida ulkan imkoniyatlarga ega. Xususan, mamlakatda 500 tadan ortiq madaniy meros obyektlarida turistlar tashrifi uchun sharoit tashkil qilingan hamda ular turizm yo'nalishlariga kiritilgan. Shuningdek, 8 ta qo'riqlanadigan hudud, 3 ta milliy tabiat bog'lari, 6 ta davlat tabiat yodgorliklari, 11 ta davlat buyurtmaxonalari mavjud.

Yangi bosqichda mamlakatda turizm sohasining keng quloch yozishiga jiddiy e'tibor qaratildi va unga milliy iqtisodiyotning bosh tarmoqlaridan biri sifatida qarala boshlandi. Xususan, O'zbekiston Prezidentining 2016-yil 2-dekabrda «O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni asosida turizmga iqtisodiyotning strategik yo'nalishi maqomini berish, ushbu sohada barcha hududlarni va o'zaro bog'liq tarmoqlarni kompleks ravishda jadal rivojlantirishning yetakchi kuchiga aylanishi uchun lozim bo'lgan iqtisodiyotni turlantirish, tarkibiy o'zgartirish va barqaror rivojlanishning qudratli vositasiga aylantirish, mamlakat yalpi ichki mahsulotida, mahalliy budjet daromadlarida turizmning ulushini ko'paytirish, ish bilan bandlikni ta'minlash orqali aholining turmush darajasi va sifatini oshirish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar ko'rish belgilandi.

Masalan, mamlakat rahbarining sohaga bo'lgan e'tibori va tashabbusi bilan viza rejimi tubdan soddalashtirildi. Xususan 2019-yilda qo'shimcha ravishda 45 ta mamlakatga viza rejimi bekor qilindi va vizasiz rejim joriy qilingan mamlakatlar soni 65 taga yetdi. Ayni vaqtda 75 mamlakat fuqarolari uchun sayyohlik vizalarini olishning soddalashtirish tartibi amal qila boshladi. 2018-yil iyul oyidan elektron vizalar, 16 yoshgacha bo'lgan chet el fuqarolari uchun vizasiz tartib va 54 mamlakatdan tashrif buyuruvchi tranzit aviayo'lovchilar uchun besh kunlik vizasiz tartib yo'lga qo'yildi. Bundan tashqari, 2018-yilning 15-martidan e'tiboran amal qilish muddati 30 kun bo'lgan ikki martalik va ko'p martalik elektron kirish vizalari joriy etildi. Mamlakatning 1000 taga yaqin elektron joylashtirish vositalarini bir-lashtirgan «E-MENMON» avtomatlashtirilgan tizimi to'liq ishga tushirilib, xorijiy va mahalliy fuqarolar hisobini olib borish jarayoni va bu boradagi hisobotlar elektron shaklga o'tkazildi.

Mamlakatda jahon standartlari darajasidagi turizm infratuzilmasini yaratish maqsadida, eng avvalo, joylashtirish vositalari soni va ular tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, mehmonxona xizmatlarini litsenziyalash tartibi bekor qilindi, mehmonxonalar tashkil etish uchun O'zbekiston tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari hisobidan imtiyozli kreditlar berish, shuningdek, 3 va 4 yulduzli mehmonxonalar tashkil etish uchun tegishli shartlar asosida sarmoya xarajatlarining bir qismini davlat budjeti mablag'lari hisobidan qoplab berish mexanizmi joriy etildi.

2017-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, mehmonxonalar soni 750 tani tashkil qilgan bo'lsa, 2019-yil o'rtalariga kelib, 966 taga yetdi. Agar 2017–2018-yillarda mehmonxona o'rinlari soni mos ravishda 4 va 5 foizga ortgan bo'lsa, 2019-yilda bu ko'rsatkich 30 foizdan ortdi.

Xullas, o'tgan qisqa vaqt davomida mamlakatning turizm va u bilan bog'liq soha va tarmoqlarida yuz bergan o'zgarishlar o'zining ijobiy natijalarini berdi. O'zbekistonga tashrif buyurayotgan turistlar soni 2017–2019-yillarda 2,69 mln dan 6,7 mln ga – 2,5 marta ortdi.

Yangi bosqichda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning ijtimoiy samarasi, birinchi navbatda, aholining moddiy ahvoli va farovonligini, uning hayot darajasi va sifati oshishiga ta'sir ko'rsatdi. Shu maqsadda ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiyalar miqdorini bosqichma-bosqich oshirib borish bo'yicha aniq chora-tadbirlar rejalashtirildi va amalga oshirildi. Aholining qo'shimcha daromad manbayini ko'paytirishga ham e'tibor berildi.

2018-yildan boshlab fan va oliy ta'lim sohasi xodimlarining ijtimoiy hi-moyasini yanada kuchaytirish, o'qituvchi kasbi obro'si va nufuzini oshirish, malakali mutaxassislarni ilmiy va pedagogik faoliyatga jalb etish uchun mehnatga haq to'lash, moddiy rag'batlantirishning munosib shart-sharoitlarini yaratish, shuningdek, olimlar va o'qituvchilarning iqtisodiyot va ijtimoiy soha tarmoqlarida keng ko'lamli tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishda ishtirokini ta'minlashga qaratilgan davlat siyosati mamlakat taraqqiyotiga xizmat qilayotgan ziyolilar farovonligi yaxshilanishida tub burilish yasadi.

Jumladan, Prezidentning 2018-yildagi maxsus qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hisobidan fundamental, amaliy tadqiqotlar ilmiy-texnik dasturlarini va innovatsiya ishlarini amalga oshirishda ishtirok etayotgan ilmiy-tadqiqot muassasalari rahbar va ilmiy xodimlari, shuningdek, oliy ta'lim muassasalari rahbar xodimlari hamda profes-sor-o'qituvchilar tarkibining bazaviy lavozim maoshlari miqdorlari 2018-yil

1-sentabrdan boshlab 2020-yil boshiga qadar tabaqalashtirilgan holda oshirildi. Eng muhimi, so'nggi uch yil ichida ilmiy xodimlar ish haqi uch marta oshirildi. Bundan tashqari, ilmiy faoliyatni rag'batlantirish maqsadida ularga 30 va 60 foizlik ustama haq to'lash tartibi kiritildi. Davlat ilmiy dasturlari doirasida ilmiy loyihalarni e'lon qilish ham saqlab qolindi. Shu tariqa, ilmiy xodimlarni moddiy ta'minoti har qachongidan ko'ra keskin yaxshilandi.

Harakatlar strategiyasi doirasida, sog'liqni saqlash va dori-darmonchilik sohasidagi mavjud vaziyat tahlil etildi. Sohadagi eng dolzarb muammo – hududlarda birlamchi sog'liqni saqlash darajasining pastligidir. Tibbiyot sohasi mutaxassislari yetishmasligi tufayli aksariyat fuqarolar malakali tibbiy yordam olish uchun katta shaharlarga yoki poytaxtga kelishga majbur bo'lishar edi.

Bu muammoni bartaraf etish maqsadida tuman va viloyatlardagi tibbiyot muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash jarayoni boshlandi, joylarda shifokorlar jamoalarini shakllantirish, aholiga tibbiy yordam ko'rsatish darajasini oshirish maqsadida viloyatlarga 134 ta tajribali rahbar xodimlar yuborildi.

Tibbiyot xodimlarini tayyorlash va ularni attestatsiyadan o'tkazish borasida ham islohotlar boshlandi. Yuqori malakali shifokor xodimlarni tayyorlash uchun o'quv davri xalqaro standartlarga mos ravishda o'rtacha 1 yilga qisqartirildi. Xorijda ishlayotgan malakali shifokorlarni vatanga qaytishiga imtiyozlar yaratildi. Natijada, mamlakatga 50 ga yaqin yuqori malakali va tajribali mutaxassislar qaytib keldi.

Tibbiyot sohasida transport vositalari taqchilligini bartaraf etish uchun davlat tez tibbiy yordam stantsiyalari faoliyati tubdan yaxshilandi. Natijada, 2020-yil boshiga kelib ularning soni 2,5 martaga ko'payib, 806 tadan 2100 tagacha oshdi.

Dori-darmon taqchilligi va narx-navo balandligi muammosini hal qilish uchun dori-darmonchilik sanoatini rivojlantirishga 250 million dollar kredit mablag'lari ajratilib, 70 taga yaqin sarmoyaviy loyiha amalga oshirilmoqda.

Yana bir asosiy yo'nalish – reproduktiv salomatlikni, onalik va bolalikni muhofaza qilish bo'yicha milliy dasturlar doirasida hududlarimizdagi bolalar davolash muassasalarida ilgari mavjud bo'lmagan neonatal xirurgiya, kardi-xirurgiya, inyaziv xirurgiya, qizlar ginekologiyasi kabi yangi bo'limlarda murakkab davolash amaliyotlari o'tkazila boshlandi.

Tarmoqda xususiy sektor ulushini oshirish, davlat-xususiy sheriklik hamda institutsional va huquqiy mexanizmlarning yaratilishi, ularga keng imtiyoz-

lar taqdim etilayotgani natijasida bu yo'nalishdagi shifoxonalar soni 2019-yil noyabr oyiga kelib 6500 tadan oshdi. Shuningdek, qisqa vaqt ichida AQSH, Rossiya, Xitoy, Germaniya, Hindiston, Turkiya, Janubiy Koreya, Istevil kabi xorijiy davlatlar bilan hamkorlikda 110 dan ortiq zamonaviy xususiy kasalxonalar ish boshladi. Ayni paytda mamlakat oliy tibbiy va o'rta tibbiy ta'lim dargohlarida ham yangilanishlar jarayoni kuzatila boshlandi.

Fundamental o'zgarishlar bandlik va migratsiya masalalarini hal etishga ta'sir ko'rsatdi. 2017-yildan boshlab demografik muammolarni hal etish va uning O'zbekiston iqtisodiyotiga bo'lgan yukini kamaytirishda yangi bosqich boshlandi. Sh.M. Mirziyoyev tashabbusi bilan xorijda qonuniy mehnat qilib, ta'lim olayotgan fuqarolarga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi. O'zbekistonlik migrant ishchilar muammolari hal etilib, Rossiya, Qozog'iston va uzoq xorij mamlakatlari bilan migratsiya sohasida bitimlar imzolandi.

Shunday qilib, Harakatlar strategiyada belgilangan vazifalarni amalga oshirish jarayonida, tarixan qisqa vaqtda, mamlakat iqtisodiy va ijtimoiy hayotida katta ijobiy o'zgarishlarga zamin yaratildi. Erkinlashtirish xo'jalik subyektlari faoliyatini jonlantirdi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini mamlakat xo'jalik hayotida nufuzi ortdi. Tashqi iqtisodiy munosabatlarda «ochiq eshiklar» siyosatining yo'lga qo'yilishi katta miqdorda xorijiy sarmoyalar va texnologiyalarning kirib kelishiga, bozor munosabatlari sharti bo'lgan raqobatning kuchayishiga sabab bo'ldi. Aholi farovonligini oshirishga qaratilgan ijtimoiy siyosat izchil yo'lga qo'yildi.

Diniy bag'rikenglik. Mustaqillikka erishish arafasida O'zbekistonda vijdon erkinligiga alohida e'tibor qaratilib, diniy qadriyatlar tiklana boshladi. 1990-yildan boshlab musulmonlar haj ziyoratini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lishdi. Ro'za va Qurbon hayitlari bayram sifatida nishonlanishi belgilanib, hayitlarning birinchi kunlari – dam olish kuni, deb e'lon qilindi.

1992-yili Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita tashkil etildi. 2004-yildan uning huzurida Konfessiyalararo kengash faoliyat olib bormoqda. Hozir O'zbekistonda 16 konfessiyaga mansub ikki mingdan ortiq diniy tashkilot faoliyat ko'rsatmoqda. Ularning eng yiriklari sifatida O'zbekiston musulmonlari idorasi, Rus Pravoslav cherkovining Toshkent va O'rta Osiyo Eparxiyasi, Evangel xristian-baptistlari cherkovi, Rim-katolik cherkovi, To'liq Injil xristianlari cherkovi, O'zbekiston Injil jamiyatini ko'rsatish mumkin. Islom tashkilotlari bilan bir qatorda, mamlakatda 168 ta xristian cherkovi, 7 ta yahudiy sinagogasi, 7 ta bahoiylar uyushmasi, 2 ta Krishna jamiyati, 1 ta Budda ibodatgohi mavjud. O'n beshta diniy ta'lim

muassasasi ichida 1 ta pravoslav va 1 ta xristian protestant seminariysi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

O'zbekiston radikalizmning turli ko'rinishlari, jumladan, diniy xurujlarga qarshi tura oldi. Buzg'unchi kayfiyatdagi ekstremistik guruhlarining barcha urinishlariga qaramasdan, dunyoviy va diniy qadriyatlar o'rtasidagi yangi bunyodkor nisbatni shakllantirishga yo'naltirilgan amaliy ishlar jamiyatning mutlaq ko'pchiligi tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

Diniy e'tiqodning muhim ijtimoiy o'rnidan kelib chiqib, dahriylik mafkurasiga asoslangan sovet davrida qarovsiz qolgan yoki boshqa maqsadlarda ishlatilgan yuzlab masjidlar ta'mirlandi, ular qaytadan ibodatgohlarga aylantirildi, ehtiyoj bo'lgan joylarda yangilari qurildi. Sovet zamonida O'zbekistonda atigi to'qsontaga yaqin masjid qolgan bo'lsa, hozirda Toshkent shahrining o'zidagina yuzdan ziyod masjid faoliyat yuritmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 22-avgustdagi 364-Qaroriga muvofiq, o'rta-maxsus islom bilim yurtlari bitiruvchilariga davlat ta'lim muassasalarining diplomlariga tenglashtirilgan shahodatnomalar berilmoqda. Xalqning muqaddas e'tiqodi – islom ta'limoti bilan bog'liq boy merosni asrab-avaylash, yurtdan chiqqan buyuk olimlarining ilmiy g'oyalari va asarlarini chuqur o'rganish, zamon talablari darajasidagi malakali mutaxassislar tayyorlashni ta'minlash maqsadida 1999-yil Toshkent islom universiteti tashkil etildi.

Mustaqillik davrida islomning muqaddas kitobi Qur'oni karim ma'nolari o'zbek tilida ikki marta tafsir qilindi. Shuningdek, islom dinining Qur'ondan keyingi ikkinchi yozma manbasi bo'lgan hadislarning eng mashhur ikki to'plami – Imom Buxoriyning «al-Jomi' as-sahih»i va Imom Termiziyning «Sunan at-Termiziy» to'plamlari o'zbek tiliga tarjima qilindi.

Istiqlol yillarida ommaviy tarzda nishonlangan Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Dorimiy Samarqandiy, Abd ibn Humayd Keshiy, Abu Hafsi Kabir Buxoriy, Qaffol Shoshiy, Imom Moturidiy, Abu Lays Samarqandiy, Burhoniddin Marg'inoniy, Hakim Termiziy, Abu Bakr Kalobody, Mustamliy Buxoriy, Abduxoliq G'ijduvoni, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshband, Xoja Ahror kabi diniy allomalarning tavallud sanalari mamlakatimiz madaniy-ma'naviy va ijtimoiy-siyosiy hayotidagi muhim voqealarga aylandi.

1996-yilda O'zbekiston umummusulmon ko'p tomonlama hamkorligining eng nufuzli instituti bo'lgan va o'zining siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma'naviy salohiyati bilan muhim o'rin tutadigan Islom Konferentsiyasi Tashkilotiga (2011-yildan – Islom hamkorlik tashkiloti) a'zo bo'ldi. Shuningdek,

2003-yilda O'zbekiston IHTning ixtisoslashtirilgan moliyaviy tuzilmasi va rivojlantirish instituti – Islom taraqqiyoti bankiga a'zo bo'ldi. Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan ishlar e'tirofi sifatida Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha Islom tashkiloti – ISESSO 2007-yilda Toshkent shahrini «Islom madaniyati poytaxti» deb e'lon qildi.

Yangi O'zbekiston bosqichida diniy hayotni tartibga solish bilan bog'liq davlat siyosatini amalga oshirishning yangi ta'sirchan mexanizmlarini yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2016-yil 18–19-oktabr kunlari Toshkentda o'tkazilgan Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashining 43-sessiyasida olg'a surilgan taklifiga ko'ra, 2017-yili O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tashkil etildi. Keyinchalik yana bir islomshunoslik muassasasi – Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markaziga asos solindi. 2017-yilning 23-iyunida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O'zbekistondagi Islom madaniyati markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risidagi qaror qabul qilindi. Davlat boshlig'i g'oyasiga ko'ra, Markaz mohiyatini ajdodlar tomonidan islom sivilizatsiyasiga qo'shilgan benazir hissaning barcha qirralari, jumladan, islom dini ravnaqi, ilm-u fan taraqqiyoti, ma'naviy kamolot yo'lidagi sa'y-harakatlarni o'zida mujassam etgan yaxlit bir jism bo'lmog'i lozim.

Keyinchalik «O'zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazi» nomi berilgan mazkur muassasa respublika ilmiy-ma'rifiy infratuzilmasidagi yetakchi segmentlardan biriga aylanib bormoqda. Jumladan, Markaz tomonidan qator yirik ilmiy loyihalar amalga oshirilmoqda, nashrlar tashkil etilmoqda, xalqaro anjumanlar o'tkazilmoqda, xalq qo'lida saqlanayotgan nodir qo'lyozmalarni jamlash ishlari yo'lga qo'yilmoqda. O'tgan qisqa muddatda Markaz xorijiy mamlakatlardagi o'ttizdan ortiq ilmiy, o'quv va boshqa madaniy-ma'rifiy tuzilmalar bilan hamkorlik shartnomalari imzoladi hamda ularni hayotga tatbiq etishni boshladi. Alohida ta'kidlash lozimki, bugungi O'zbekistonda barpo etilayotgan Islom sivilizatsiyasi markazi, hech bir mubolag'asiz, ellik, hatto, yuz yilda bir marta amalga oshiriladigan loyihalar sirasiga kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2017-yil 19-sentabr kuni BMT Bosh Assambleyasi sessiyasida so'zlagan tarixiy nutqi, unda ko'tarilgan islom dini, global xavfsizlik, yoshlar tarbiyasi, ilmiy-ma'naviy meros bilan bog'liq dolzarb masalalar O'zbekistonda olib borilayotgan din sohasidagi siyosatning mazmun-mohiyatini xalqaro hamjamiyatga yetkazilishida hal qiluvchi qadam bo'ldi.

Oxirgi uch-to'rt yil davomida O'zbekistondagi diniy ta'lim muassasalari tizimida jiddiy sifat o'zgarishlari yuz berdi. Jumladan, Prezident tashabbusi bilan Buxorodagi Mir Arab madrasasiga oliy ta'lim muassasasi maqomi berildi. Samarqand viloyatidagi Imom Buxoriy yodgorlik majmuasi tarkibida Hadisshunoslik oliy maktabi ochildi. Marg'ilonida – fiqh, Samarqandda – kalom, Buxoroda tasavvufni o'rganishga ixtisoslashgan o'quv-tadqiqot markazlariga asos solindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan 2018-yili tashkil etilgan O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi ko'p qirrali ta'lim beruvchi, ma'naviy-ma'rifiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi va ilmiy-tadqiqot markaziga aylanib bormoqda. Unda dunyoviy va diniy bilimlarni hamda xorijiy tillarni puxta o'zlashtirgan, ma'rifatparvar islomni xalq orasida targ'ib eta olish salohiyatiga ega mutaxassislarni tayyorlovchi tizim shakllanmoqda, qiyosiy dinshunoslik va islomshunoslik sohalarida magistrlik va doktorlik izlanishlari olib borilmoqda.

2018-yilning 12-dekabrida O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyevning tashabbusi bilan qabul qilingan BMT Bosh Assambleyasining «Ma'rifat va diniy bag'rikenglik» rezolyutsiyasi savodsizlik va jaholatga barham berish zaruratidan tashqari, diniy sohadagi erkinliklar, dinga e'tiqod qiluvchilar huquqlarini himoya qilish, ularni kamsitishga yo'l qo'ymaslikni nazarda tutadi. Lotin Amerikasi, Osiyo, Afrika va boshqa qit'alarga mansub ellikdan ortiq mamlakat O'zbekiston tomonidan kiritilgan ushbu hujjatga hammuallif bo'lish istagini bildirgani ham diqqatga sazovordir. Undagi madaniyatlararo va konfessiyalararo uyg'unlikka qaratilgan har qanday tashabbusni qo'llab-quvvatlash hamda har qanday ko'rinisdagi kamsitishlarning oldini olishga da'vat mazkur hujjatning xalqaro ko'lamda qizg'in qo'llanishi garovi bo'lib xizmat qildi.

Islom sivilizatsiyasi yutuqlarini ommalashtirish yo'lida oxirgi yillarda O'zbekistonda olib borilayotgan ishlarning e'tirofi sifatida 2020-yilda Buxoro shahri «Islom madaniyati poytaxti» degan yuksak sharafga muyassar bo'ldi. Bugungi kunda mamlakatdagi masjidning umumiy soni 2091 tani tashkil etib, ularning 2016 tasi jome masjididir.

Ta'lim, ilm-fan va innovatsion rivojlanish. Mustaqil taraqqiyot yo'liga qadam qo'yilgach, ko'ndalang turgan eng muhim vazifalardan biri ta'lim tizimini isloh qilish bilan bog'liq edi. Bu borada 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan «Ta'lim to'g'risida»gi qonun alohida ahamiyat kasb etadi. Unga ko'ra, ta'lim tizimi maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus,

kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim, mutaxassislar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta'lim kabi turlarni qamrab olishi belgilandi. Qonun bilan bir vaqtda yangi tizimni ro'yobga chiqarish va ta'lim sohasidagi ishlarni samarali tashkilotchi maqsadida «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» ham qabul qilindi.

Dastur 3-bosqichdagi islohotlar asosida amalga oshirila boshlandi. Unda I bosqich – 1997–2001-yillarni qamrab olib, huquqiy-me'yoriy, ilmiy-metodik, moliyaviy-moddiy shart-sharoitlar yaratilishi, 2-bosqich – 2001–2005-yillarni o'z ichiga olib, milliy dastur keng miqyosda joriy etilishi, 3-bosqich – 2005-yildan boshlangan bo'lib, ta'lim tizimini yanada takomillashtirish nazarda tutildi.

Mazkur tizimning ilk bo'g'ini – maktabgacha ta'lim sohasida bolalar yashilari, bog'chalari, yasli bog'chalar, sog'lomlashtirish, xonadon, mavsumiy bog'chalar va boshqa turlari faoliyat olib bordi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 24-iyundagi «Davlatga qarashli bo'lmagan maktabgacha bolalar muassasalari tarmog'ini tashkil etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 313-Qaroriga muvofiq tijorat asosida faoliyat yuritadigan va yuqori sifatli xizmat ko'rsatilishini ta'minlaydigan davlatga qarashli bo'lmagan maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'i yuzaga keldi.

Ta'limning barcha bosqichlarida yangi o'quv dasturlari, davlat ta'lim andazalari yaratildi. Maktab darsliklari yangilanib, takomillashtirib borildi. 2004-yil 21-mayda tasdiqlangan «2004–2009-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturi» doirasida yangi maktablar qurildi, boshqalari kapital ta'mirlandi; aniq va tabiiy fanlardan o'quv laboratoriyalar zarur uskunalar bilan jihozlandi.

Shuningdek, maktabning majburiy bo'lmagan ikki yillik (10–11-sinflar) yuqori o'rta bosqich o'rniga uch yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini qamrab oluvchi va 9+3 tamoyili asosidagi 12 yillik majburiy ta'lim joriy etildi. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida esa 1500 tadan ziyod akademik litsey va kasb-hunar kolleji faoliyati yo'lga qo'yildi.

Oliy ta'lim tizimida qator oliy ta'lim muassasalarining maqomi va dasturlari o'zgartirildi, oliy ta'limga qabulning umummilliy sinov tizimi joriy etildi, respublika uchun yangi ixtisosliklar bo'yicha mutaxassislar tayyorlanishi yo'lga qo'yildi. Oliy ta'lim tizimi 4 yillik bakalavriat va 2 yillik magistratura bosqichlaridan iborat ikki pog'onali tizimga o'tdi.

1992-yili 7 ta viloyat pedagogika institutiga universitet maqomi berildi. Mudofaa vazirligi qoshida Qurolli Kuchlar akademiyasi, Ichki ishlar vazirli-

gi qoshida Ichki ishlar akademiyasi, Bank-moliya akademiyasi, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti, Navoiy davlat konchilik instituti, Milliy rassomlik va dizayn instituti, Toshkent stomatologiya instituti kabi o'nlab yangi o'quv muassasalari tashkil etildi. 1995-yili O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Davlat va jamiyati qurilishi (hozirgi Davlat boshqaruvi) akademiyasi ta'sis etilib, rahbarlarni tayyorlash yo'lga qo'yildi. Keyinchalik, bir yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalari birlashtirildi, yangi OTMLar ish boshladi. 2005-yili poytaxtimizdagi ikkita tibbiyot oliy ta'lim muassasasi negizida Toshkent tibbiyot akademiyasi, 2012-yili O'zbekiston davlat san'at va Toshkent davlat madaniyat institutlari negizida O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti qayta tashkil etildi.

2000-yil 28-yanvarda Toshkent davlat universitetiga «Milliy universitet» maqomi berildi va u Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, deb atala boshladi.

2002-yilda Buyuk Britaniyaning Xalqaro Vestminster va G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universitetlarining, 2006-yil M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetining Toshkent shahridagi filiallari, 2007-yil I.M.Gubkin nomidagi Rossiya neft va gaz davlat universiteti, 2008-yil Singapur menejmentni rivojlantirish instituti, 2009-yil Italiyaning Turin politexnika va 2014-yil Janubiy Koreyaning Inxa universitetlarining filiallari ochildi.

1992-yil 31-martda ilmiy mutaxassislar tayyorlanishini tashkil etuvchi vakolatli organ – Oliy attestatsiya komissiyasi tashkil etildi. E'tiborli jihati shundaki, mamlakatda mavjud salohiyatdan foydalangan holda ilmiy kengashlar ochildi va ularda nafaqat O'zbekiston, balki xorijlik olimlar o'z dissertatsiyalarini himoya qilishdi.

Shu bilan birga, ta'lim sohasidagi qator tizimli muammolar hal etilmadi. Masalan, ta'lim tizimining birlamchi va eng muhim bosqichi sanalmish maktabgacha ta'lim e'tibordan chetda qolganidan tashqari, 1997–2016-yillar davomida maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni 45 foizdan ko'pga kamayib ketdi. Bunday qisqarish tug'ilish darajasi yuqori bo'lgan Andijon, Farg'ona, Surxondaryo va Toshkent viloyatlari kabi hududlarda keskin kuzatildi.

Shuningdek, ta'lim tizimida mustamlakachalik davridan meros bo'lib qolgan poraxo'rlik, tanish-bilishchilik, budjet mablag'larini o'zlashtirish, majburiy mehnat singari illatlarni yo'qotish o'miga, ularning yanada avj olishi uchun shart-sharoit yaratib berildi. Oqibatda, ta'lim tizimidagi inqiroz davlat va jamiyat hayotining boshqa barcha tarmoqlariga o'ta salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Boshqa sohalarga qaraganda e'tibordan chetda qolgan muhim yo'nalishlardan yana biri ilm-fandir. To'g'ri, «Ilm-fanni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash va innovatsiya faoliyatini rivojlantirish to'g'risida» (1992), «Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish to'g'risida» (2002), «Fan va texnologiyalar rivojlanishining muvofiqlashtirish va boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» singari farmon va qarorlar qabul qilindi, Vazirlar Mahkamasi huzurida Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo'mitasi tashkil etildi. 2011-yilda Fanlar akademiyaning Fizika-texnika institutida «Qayta tiklanadigan energiya manbalari» ilmiy-o'quv markazi, 2012-yilda Immunologiya institutida «Biotibbiyot» ilmiy-ta'lim innovatsion markazi ish boshladi. Shu yili Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, Fanlar akademiyasi Buyuk Britaniyaning Kembrij universiteti bilan hamkorlikda yuqori texnologiyalar o'quv-tajriba markazi tashkil etildi.

Shu bilan birga 2012 va 2014-yillarda Fanlar akademiyasi tuzilmasini maqbullashtirish hamda akademik fan va oliy ta'limning uzviy bog'liqligini mustahkamlash maqsadida 7 ta institut, 4 ta mintaqaviy ilmiy markaz bo'linma tarzida qayta tashkil etilib, yo'nalishi va ixtisosliklariga ko'ra tegishli oliy ta'lim muassasalariga o'tkazildi, qator institutlar Fanlar akademiyasi tizimida birlashtirildi. Biroq islohotlarning bir qismi amalda o'zini oqlamadi. Fan natijalarining ishlab chiqarishga tatbiq etish, fan va ta'lim uzviy bog'liqligi tizimli yo'lga qo'yilmaganligi, salohiyatli mutaxassislar tanqisligi, moddiy-texnika bazasi eskirganligi, ajratilayotgan mablag'larning yetishmasligi qator muammolarni yuzaga keltirdi.

Shunga qaramay, olimlar ma'lum yutuqlarga erishdi. Xususan, 2000-yili Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar jamg'armasi (hozirgi Sharq qo'lyozmalari markazi) dunyoning eng boy qo'lyozmalar xazinasidan biri sifatida YUNESKO madaniy merosi ro'yxatiga kiritildi.

2007-yil oktabr oyida Maydanak rasadxonasida astronomlar quyosh tizimida yangi kichik sayyorani aniqlashdi. 2009-yili Harvard kichik planetalar markazi unga 210271-raqamini berdi. 2010-yilda Mirzo Ulug'bekning butun dunyoga mashhur Samarqand astronomiya maktabi sharafiga «Samarqand» deb nom berildi.

Arxeologlar tomonidan Obirahmat g'oridan neandertal va zamonaviy kishilar qiyofasining qoldiqlari topilishi Markaziy Osiyo mintaqasi ham O'rta Yer dengizi, Xitoy kabi ilgari ma'lum bo'lgan qadimgi dunyo markazlari qatoriga kirishini ko'rsatdi.

O'simlik moddalari kimyosi instituti tomonidan tayyorlangan 10 jildlik «Tabiiy birikmalar» (O'simlik zaxiralari, tuzilishi va xossalari) nomli noyob ma'lumotnoma ingliz tilida Londondagi Shpringer nashriyotida chop etildi.

Ammo umumiy holda ilm-fanni davlat va jamiyat ehtiyojlari, milliy taraqqiyot talablariga mutanosib tarzda rivojlantirish bo'yicha samarali davlat siyosati ishlab chiqilmadi.

Yangi O'zbekiston bosqichida ta'lim, ilm-fanga munosabat tubdan o'zgaradi. Avvalo, maktabgacha ta'lim sohasini tubdan rivojlantirishga e'tibor qaratildi. Prezidentning 2016-yil 29-dekabrda «2017–2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori qabul qilindi. Bu qaror asosida bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun ilg'or xorijiy tajribalarni inobatga olgan holda zarur shart-sharoitlar yaratish, maktabgacha ta'lim muassasalari uchun pedagog mutaxassislarini tayyorlash va malakasini oshirish, 2200 ta maktabgacha ta'lim muassasasining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, tizimda 50 ta yangi muassasa qurish hamda mavjud muassasalarning 1167 tasini rekonstruksiya qilish, 983 tasini mukammal ta'mirlash orqali kengaytirish, bolalarning maktabgacha ta'limga qamrovini 1,5 barobar oshirish kabi kompleks tadbirlarni amalga oshirish belgilangan edi.

Prezident tomonidan 2017-yil 9-sentabrda «Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» Qaror, 30-sentabrda «Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» Farmon qabul qilindi. Prezidentning 2019-yil 8-maydagi Qarori bilan O'zbekiston Respublikasining maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha bo'lgan davrda rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlandi va unda mas'ul tuzilmalarning asosiy vazifalari belgilab qo'yildi. 2019-yili O'zbekiston Respublikasining «Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida» Qonuni qabul qilindi.

Hozirda maktabgacha ta'lim tizimida qator islohotlar amalga oshirilmoqda, ularning barchasi bolalar va pedagoglar manfaatlarini yo'lida xizmat qilishiga, shuningdek, maktabgacha ta'lim sifatini yaxshilashga yo'naltirilgan. Xususan, YUNISEFning xalqaro ekspertlari bilan birgalikda Janubiy Koreyaning ilg'or xorijiy amaliyoti va tajribalari asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish bo'yicha Davlat talablari va «Ilk qadam» maktabgacha ta'lim muassasasining davlat o'quv dasturlari tasdiqlandi.

Maktab ta'limiga ham alohida e'tibor qaratilmoqdi. O'tgan yillarda o'zini har tomonlama oqlamagan to'qqiz yillik umumiy o'rta ta'limdan voz kechilib,

2017–2018-o'quv yilidan boshlab o'n bir yillik maktab ta'limining tiklanishi jamoatchilik tomonidan g'oyatda qo'llab-quvvatlandi.

Jamiyatda o'qituvchi mavqeyini oshirish hamda o'quv jarayonida qo'z-bozlikni bartaraf etish yuzasidan chora-tadbirlar ko'rildi. Ta'lim tizimining mazkur bo'g'inida ham sohani rivojlantirish bo'yicha islohotlarni tashkil etadigan me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Ta'kid etish kerakki, iqtidorli bolalarni aniqlash, ularni o'qitish va tarbiyalash bo'yicha yaxlit tizim yaratish – davlat siyosatining muhim yo'nalishiga aylandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2019-yil 20-fevralda «Prezident maktablarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarorni imzoladi. Prezident maktablarida ta'lim «STEAM» (tabiiy fanlar, texnologiyalar, texnik ijodkorlik, san'at, matematika) dasturi asosida 5-sinf-dan boshlab ingliz tilida olib boriladi. Shuningdek, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yo'nalishiga oid fanlarni chuqurlashtirib o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktab, Mirzo Ulug'bek nomidagi ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktab-internati va Abu Ali ibn Sino nomidagi yosh biologlar va kimyogarlar ixtisoslashtirilgan maktab-internati, Muhammad Rizo Ermiyozbek o'g'li Ogahiy, Ishoqxon Ibrat, Abdulla Qodiriy, Hamid Olimjon va Zulfiya, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Halima Xudoyberdiyeva, Muhammad Yusuf, Ibroyim Yusupov kabi madaniyatimiz namoyandalari nomida ijob maktablari tashkil etildi. Shu munosabat bilan Prezidentning 2019-yil 9-sentabrdagi Farmoniga binoan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi tashkil etildi.

2020-yili matematika yo'nalishida 56 ta kimyo-biologiya yo'nalishida 27 ta maktab tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-martdagi «Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori bilan 28 ta tayanch va 175 ta fizika fani chuqurlashtirib o'qitiladigan maktab (sinf)lar tashkil etilishi belgilandi. Jumladan, 2021-yil 1-aprel kuni Mirzo Ulug'bek tumanidagi Yadro fizikasi instituti joylashgan Ulug'bek shaharchasida fizikaga ixtisoslashgan tayanch maktabining rasmiy ochilish marosimi bo'lib o'tdi.

2020-yildan axborot texnologiyalariga ixtisoslashgan maktablar ham tashkil etila boshlandi. 2023-yilga kelib, respublikaning barcha shahar va tumanlari axborot texnologiyalariga ixtisoslashgan maktablar tarmog'i bilan qamrab olindi. Shuningdek, 2018–2020-yillarda xususiy ta'lim muassasalari soni ham 6 barobarga oshib, 140 taga yetdi.

Prezidentning 2018-yil 25-yanvardagi «Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni professional ta'lim tizimida keng ko'lamli islohotlarni boshlab berdi. Ta'lim tizimini iqtisodiyot rivojining muhim bo'lagiga aylantirish maqsadida kollejlarda vazirliklar, idoralar, xo'jalik birlashmalari, tijorat banklari va yirik korxonalariga birlashtirilishi belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2017-yil 27-iyuldagi «Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, Qarori, 2018-yil 5-iyundagi «Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarori, 2019-yil 11-iyuldagi «Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori, 2019-yil 8-oktabrdagi «O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi farmoni oliy ta'lim tizimida tubdan islohotlarni amalga oshirishning me'yoriy-huquqiy asosi bo'ldi.

So'nggi yillarda mavjud oliy ta'lim muassasalari negizida O'zbekiston Xalqaro islom akademiyasi, O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi, Transport universiteti tashkil etildi, O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, «Ipk yo'li» xalqaro turizm universiteti, Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti, Qo'qon universiteti, Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti kabi yangi oliy ta'lim muassasalari faoliyati yo'lga qo'yildi, Toshkent shahridagi MMFI (Moskva muhandislik fizikasi instituti) Milliy yadro tadqiqotlari universitetining filiali, Toshkent shahar Puchon universiteti ish boshladi. Natijada, O'zbekistondagi oliy ta'lim muassasalarining soni 141 taga yetdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-fevraldagi «Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida»gi Farmoni ilmiy-tadqiqot sohasida tub burilish yasagan hujjat hisoblanib, unda qator xorijiy mamlakatlarning xalqaro amaliyotiga muvofiq 2017-yilning 1-iyulidan boshlab oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limning ikki pog'onali: dissertatsiya himoya qilish va tegishli fan tarmog'i bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini berishni nazarda tutuvchi tayanch doktorantura; dissertatsiya himoya qilish va tegishli fan tarmog'i bo'yicha fan

doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasini berishni nazarda tutuvchi doktorantura tizimi joriy etildi.

Har yili respublika miqyosida barcha ixtisosliklar bo'yicha tayanch doktorantura va doktoranturaga davlat budjeti hisobidan qabul ulushlari 10 foizga oshirib borilmoqda.

Ta'lim tizimidagi islohotlarning bari mamlakatda raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash, dunyo tajribasidagi ta'lim-fan ishlab chiqarishga asoslangan «Universitet 3.0» konsepsiyasini ro'yobga chiqarish, pirovardida yoshlarning farovon kelajagini ta'minlashga yo'naltirilgan.

Nufuzli xorijiy nashrlarda muntazam maqolalar chiqarib kelayotgan, shuningdek, shogirdlari ilmiy ishlarini o'z vaqtida va sifatli himoya qilgan ilmiy rahbarlarga 2021-yilgacha 3 tagacha doktorant va mustaqil izlanuvchi olishi mumkin bo'lgan bo'lsa, keyingi yildan 5 tagacha doktorant va 3 tagacha mustaqil izlanuvchi olish huquqi beriladi.

Shavkat Mirziyoyev boshchiligida mamlakatda har bir sohani rivojlantirishda avvalo, uning ilmini kuchaytirishga e'tibor berildi, fan va olimlarni qo'llab-quvvatlash – davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. 2019-yili O'zbekiston tarixida birinchi bor «Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida»gi qonun, Prezidentning 2020-yilning 29-oktabrdagi «Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi farmonining qabul qilinishi mamlakat ilm-fan tizimini rivojlantirishda katta voqea sanaladi.

Prezidentning 2017-yil 17-fevraldagi «Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori ilm-fan rivojlanishiga xizmat qiladigan islohotlarni boshlab berdi. Unga muvofiq 9 ta ilmiy muassasa oliy ta'lim tizimidan Fanlar akademiyasiga qaytarildi. Prezident tomonidan S.Yu.Yunusov nomidagi O'simlik moddalar kimyosi instituti, V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti, Yadro fizikasi instituti faoliyatini takomillashtirish bo'yicha, shuningdek, immunologiya va inson genomikasi, matematika, kimyo va biologiya, fizika bo'yicha ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish yuzasidan qarorlar qabul qilindi. Shuningdek, Toshkent muzeyi, Davlat va huquq instituti tashkil etildi. Fanlar akademiyasi tizimidagi ilmiy tashkilotlarda GMP (Good management practice) talablari asosida dori vositalari substansiyalarini ishlab chiqarish texnologiyasini yo'lga qo'yish bo'yicha Ilmiy-texnik markaz, Biotibbiy texnologiyalarni muvofiqlashtirish markazi, Fitovirusologiya, Tibbiyot kimyosi va nozik organik sintez laboratoriyalari,

Sotsiolingvistika bo'limi ochildi. Botanika instituti markaziy gerbariysiga «O'zbekiston Milliy gerbariysi» maqomi berildi.

2017-yili Fanlar akademiyasining yangi a'zolari saylovi bo'lib o'ldi hamda 32 nafar olim akademiklikka tasdiqlandi. Bundan avvalgi saylov 2-yil oldin o'tkazilgan edi. Akademiklar uchun to'lovlar uch barobarga oshirildi. Prezidentning 2017-yil 1-noyabrdagi «Ilmiy-tadqiqot muassasalarining infratuzilmasini yanada mustahkamlash va innovatsion faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori bilan ilmiy-tadqiqot muassasalarining bino va inshootlarini rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash ishlari olib borildi, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish boshlandi. 2020-yildan boshlab bazaviy moliyalashtirishga o'tkazildi. Umuman, davlat budjetidan to'g'ridan-to'g'ri moliyalashtirish 2016-yilga nisbatan 7 baravarga oshdi.

Tizimda olib borilayotgan islohotlar natijasida 2021-yilga kelib, Fanlar akademiyasi tizimida 2016-yilga nisbatan fan doktorlari soni 2 barobarga (203 nafardan 428 ga), fan nomzodlari, falsafa doktorlari soni 1,5 barobarga (530 dan 797 nafarga) oshdi, stajyor-tadqiqotchi instituti joriy etildi.

Fanlar akademiyasi «Bir kamar, bir yo'l» tashabbusi doirasida xalqaro ilmiy tashkilotlar uyushmasining ta'sislaridan biriga aylandi. O'zbekiston bioxilma-xillik bo'yicha Global axborot portali assotsiatsiyasi a'zosi bo'ldi va Botanika instituti, Botanika bog'i bu yo'nalishdagi ishlarning asosiy ijrochisiga aylandi. O'zbekiston 2020-yilda Yadro birlashgan instituti a'zoligiga qayta tiklandi.

Rossiya, Belorussiya, Germaniya, Xitoy bilan hamkorlikdagi 4 ta xalqaro dastur doirasida 30 ta qo'shma ilmiy loyiha amalga oshirildi. Shuningdek, YUNESKO, MAGATE, MAAN, TWAS xalqaro tashkilotlari, Milliy Fanlar akademiyalari, «Rosatom» Davlat atom energetikasi korporatsiyasi, Ummon sultonligi Milliy qo'lyozmalar arxivi, Koreya Respublikasi Madaniy meros jamg'armasi bilan hamkorlik qilmoqda.

2018-yili o'zbekistonlik arxeologlar Samarqandda zardushtiylik davriga oid va to'rt qatorda jami 46 ta inson qiyofalari chizilgan yog'och pannoni topishdi. Uning ahamiyati shundaki, Markaziy Osiyo tarixida bunday ko'rinishdagi badia birinchi bor topildi.

Fanning boshqa sohalarida ham salmoqli yutuqlarga erishildi. Xususan, dori-darmonchilik sohasida «Rutan» vositasi, Qizil kitobning 2-jildli yangi nashrini qayd etish zarur.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-noyabrdagi Farnoni bilan dunyo fanining zamonaviy yutuqlari, innovatsion g'oyalar, ishlan-

malar va texnologiyalar asosida iqtisodiyotning barcha tarmoqlari va ijtimoiy sohani innovatsion rivojlantirish, mamlakatning intellektual va texnologik salohiyatini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanish vazirligi tashkil etildi. 2020-yilda «Innovatsion faoliyat to'g'risida» Qonun qabul qilindi.

Ilmiy-tadqiqot ishlariga davlat buyurtmasining yangi tartibi ishlab chiqilib, davlat dasturlari doirasida 2018–2020-yillarda 16 ta fan yo'nalishi bo'yicha umumiy qiymati 765,7 mlrd so'm bo'lgan jami 498 ta mavzudagi amaliy hamda innovatsion loyihalar tanlovlari e'lon qilindi. Respublikada 31185 nafar xodim ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari bilan band bo'lib, ularning 10726 nafari yoki 28,8 foizi ilmiy darajaga ega, shundan 2553 nafar fan doktori, 7472 nafar fan nomzodlari (PhD) turli ilmiy-tadqiqot muassasalari va ilmiy markazlarda faoliyat ko'rsatmoqda.

Ilk bor startap loyihalarni qo'llab-quvvatlash va moliyalashtirish tizimi yo'lga qo'yildi hamda 35 ta startap loyihalar moliyalashtirildi, «CAT Science Accelerator» ilmiy startaplar platformasi tashkil etildi. «Skolkovo» bilan hamkorlik doirasida o'zbekistonlik 25 ta startap «Softlending» dasturida ishtirok etdi. Ilg'or texnologiyalar markazida mavjud infratuzilma, xonalar, laboratoriya va asbob-uskunalar bilan ta'minlangan holda yuqori texnologiyali, kichik kompaniyalar uchun startap-akselerator va startap-inkubator yaratildi.

Xalqaro ilmiy hamkorlik doirasida Germaniya, Rossiya va Belarus Respublikalari bilan jami 44 ta qo'shma ilmiy loyiha amalga oshirilishi moliyalashtirildi. Shuningdek, yuqori texnologik mahsulotlarni ishlab chiqarishga qaratilgan va innovatsiyalarga asoslangan sarmoya loyihalari amalga oshirildi.

Prezidentning 2021-yil 1-apreldagi «Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo'yicha davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi Farmoni asosida hududlarda vazirlikning boshqarmalari tashkil etildi. 6 ta yo'nalish (Robototexnika va mexatronika, Uchuvchisiz parvoz etuvchi qurilmalar, 3D prototiplashtirish, Aerokosmik, Sanoat sohasidagi internet buyumlari va 5G yangi avlod tarmoqlari laboratoriyalari) bo'yicha ilg'or texnologiyalar bilan jihozlangan laboratoriyalar, klinik biokimyoviy tahlil uchun reaktiv to'plamlarni ishlab chiqaradigan «BioTesLab» korxonasi, telemeditsinaga asoslangan «Muynoq telemedicine clinic» zamonaviy innovatsion kasalxonasi, Xalqaro molekulyar allergologiya markazi tashkil etildi.

Agrar sohaga innovatsiyalarni joriy etish va «Aqlli qishloq xo'jaligi» texnologiyalarini amaliyotga tatbiq etish urug'chilikka asoslangan klasterlar,

MCHJlar tashkil etildi. Polizchilik, bog'dorchilik va ko'kalamzorlashtirish ishlari samaradorligini oshirish maqsadida Orolbo'yi xalqaro innovatsiya markazi tomonidan «Mo'ynoq» va «Samanbay» ilmiy uchastkalarida 67 turdagi noyob qovun navlari, 20 turdagi dorivor o'simliklar, shuningdek, mevali va manzarali daraxtlarni iqlimlashtirish ishlari olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasini 2019–2021-yillarda innovatsion rivojlantirish strategiyasi qabul qilindi. Strategiyaning bosh maqsadi – inson kapitalini rivojlantirish, 2030-yilgacha Global innovatsion indeks ko'rsatkichi bo'yicha jahonning 50 ta ilg'or mamlakati tarkibiga kirish etib belgilandi. 2020-yilda O'zbekiston mazkur ko'rsatkichda 29 pog'ona ko'tarilib, 93-o'rinni qayd etdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining yigirma to'qqiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida «Xalqimizning ulug'vor qudrati jo'sh urgan hozirgi zamonda O'zbekistonda yangi bir uyg'onish – Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda», deb ta'kidlagan edi. Albatta, bunda ta'lim, ilm-fan va innovatsiyalar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan yangi tizimli islohotlar mazkur maqsadga xizmat qilishi tabiiy.

Yoshlarga oid davlat siyosati. O'zbekistonda mustaqillikning ilk kunlaridanoq yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalash, ularning hayotga mustaqil qadam qo'yishlari uchun barcha zarur sharoitlarni yaratishga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Respublika davlat mustaqilligini qo'lga kiritgach, birinchilardan bo'lib, 1991-yil 20-noyabrda «O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida»gi qonun qabul qilinganligi bejiz emas.

Keyingi yillarda ham yoshlar masalalari davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib keldi. O'zbekiston hukumati tomonidan eng yirik davlat dasturlari – Yoshlar yili, Barkamol avlod yili, Oila yili, Sog'lom ona va bola yili hamda boshqa bir qator dasturlar qabul qilindi va ularda yoshlar uchun munosib jamiyatni yaratish borasida belgilangan tadbirlar izchil, tizimli amalga oshirib kelinmoqda.

O'zbekiston Konstitutsiyasiga muvofiq, har kim bilim olish huquqiga ega, bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Shuningdek, Aso-siy Qonunda davlat yoshlar tashkilotlarining erkin faoliyat yuritishini kafolatlashi, yosh avlod huquqlari va qonuniy manfaatleri rioya etilishini ta'minlashi belgilab qo'yilgan.

O'tgan vaqt davomida mamlakatda yoshlarga g'amxo'rlik qilish, ularning farovon hayoti, yorqin kelajagi, orzu-intilishlariga ko'maklashish borasidagi ishlarga mustahkam huquqiy asos yaratildi, yoshlar bilan ishlashning o'ziga xos mexanizmi shakllantirildi va amaliyotga tatbiq etildi.

2016-yilga kelib, O'zbekistonda yoshlar sohasidagi ishlar holati va ularning tahlili yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish, jumladan, yoshlarning bandligini ta'minlash va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, jamiyat hayotidagi ishtiroki va faolligini oshirishga qaratilgan tizimli ishlarni amalga oshirish zarurligini ko'rsatdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning bevosita tashabbusi va amaliy ko'magi asosida mamlakatimizda yoshlar siyosati mutlaqo yangi bosqichga olib chiqildi. Shu maqsadda, 2016-yili «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi Qonuni qabul qilindi. Bu qonun zamon talablaridan kelib chiqqan holda yoshlarga oid davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilab berdi. Ushbu hujjat asosida yoshlar bilan ishlashning yangi usullari hayotga keng tatbiq etilmoqda.

Qonunda, yoshlarning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy hamda boshqa huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning sifatli bilim olishini ta'minlash, jismoniy, intellektual va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko'maklashish, bandligini ta'minlash, iqtidorli yoshlar va yosh oilalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash kabi sohalar yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari etib belgilangan.

Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish jarayonida ishtirok etuvchi organlar va tashkilotlarning vazifalari, vakolatlari hamda majburiyatlari belgilab berilgan. Ushbu siyosatni amalga oshirishda jamoat tashkilotlari, birinchi navbatda, yoshlar tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va ommaviy axborot vositalarining o'mi va ahamiyatini oshirishga qaratilgan qoidalar aks ettirilgan.

2017-yilning fevral oyida qabul qilingan «2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi» yoshlarga oid davlat siyosatini yanada takomillashtirishning asosiy yo'nalishlarini belgilab berdi.

Harakatlar strategiyasini amalga oshirish jarayonida yoshlarga oid davlat siyosati yangi darajaga ko'tarildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan mamlakat tarixida ilk bor 30 iyun «Yoshlar kuni» deb e'lon qilindi. «O'zbekiston Respublikasi yoshlari kunini belgilash to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni-

ning qabul qilinishi mamlakatimizda yoshlar masalasi ustuvor vazifa ekanini yana bir bor tasdiqladi.

2016–2020-yillar davomida yoshlar siyosatiga doir jami 70 dan ortiq qonun va qonunosti hujjatlari qabul qilindi.

O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi, 2019–2023-yillarga mo'ljallangan «Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish konsepsiyasi», 2020–2025-yillarga mo'ljallangan «Kitobxonlikni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturi» shular jumlasidandir.

Mahallalarda jamoatchilik asosida faoliyat yuritadigan fuqarolar yig'ini raisining o'rinbosari – yoshlar masalalari bo'yicha maslahatchi lavozimlari joriy etildi. Bu esa yoshlarga oid davlat siyosatining eng quyi bo'g'inglarda ham izchillik bilan amalga oshirish, mahallalarda istiqomat qilayotgan uyushmagan yoshlar bilan ishlash tizimini takomillashtirishga zamin yaratdi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda ishtirok etuvchi vakolatli idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish, O'zbekiston Respublikasining «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi Qonunini hayotga to'laqonli joriy etish maqsadida Yoshlar masalalari bo'yicha respublika idoralararo kengashi tashkil etildi.

O'z navbatida Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi raisi, viloyatlar, Toshkent shahri, tumanlar va shaharlar hokimlari raicligida Yoshlar masalalari bo'yicha hududiy idoralararo kengashlar faoliyati yo'lga qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatida Yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi, Qonunchilik palatasida Yoshlar masalalari bo'yicha komissiya tashkil etildi.

Bu yo'nalishdagi ishlar davom ettirilib, Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasi qoshida Yoshlar parlamentlari, Innovatsion rivojlanish vazirligi qoshida Yoshlar akademiyasi tashkil etildi.

Yoshlarni qiziqtirayotgan dolzarb masalalar bo'yicha fikr almashish, ularning taklif va tavsiyalarini o'rganish, mavjud muammolarga amaliy yechim topish maqsadida «Yoshlar press klubi» faoliyati yo'lga qo'yildi.

2017-yilning 30-iyun kuni «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining navbatdagi qurultoyida respublika yoshlari tashabbusi bilan O'zbekiston Yoshlar ittifoqi tashkil topdi. Bu tashkilot 11 milliondan ortiq yoshlarni o'z atrofida birlashtirishga muvaffaq bo'ldi.

Yoshlarga oid davlat siyosatini bosqichma-bosqich, samarali tashkil etish masalalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyulda-

gi «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi Farmonida o'z aksini topdi.

O'zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi qoshida yoshlarning xohish va intilishlaridan kelib chiqib, 26 ta nodavlat-notijorat tashkilotlari tashkil etildi.

O'zbekiston yoshlar ittifoqining Respublika bo'yicha 19875 mingdan ziyod boshlang'ich tashkilotlari faoliyati yo'lga qo'yildi.

O'zbekiston yoshlari umumjahon assotsiatsiyasi, Imkoniyati cheklangan bolalar va yoshlar markazi, Respublika yosh olimlar kengashi, Yosh ijodkorlar kengashi, Yosh kinoijodkorlar kengashi, Yosh fermerlar kengashi, Yoshlar turizmi agentligi, Yoshlar media markazi, Yoshlar nashriyot uyi kabilar shular jumlasidandir.

Shuningdek, yoshlarni o'ylantirayotgan dolzarb masalalarni tizimli o'rganish, ularning tashabbus va intilishlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida O'zbekiston yoshlar ittifoqi tizimida «Yoshlar qabulxonalarini» tashkil etildi.

2017-yildan boshlab, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar, Toshkent shahri, tumanlar va shaharlar hokimlarining yoshlar masalalari bo'yicha o'rinbosari lavozimi 2018-yildan boshlab, oliy ta'lim muassasalarida yoshlar bilan ishlash bo'yicha prorektor lavozimi joriy etildi.

Mamlakatimizda yoshlarning malakali mutaxassis bo'lib yetishishi, jumladan, xorijdagi nufuzli oliy o'quv yurtlarida tahsil olishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish borasida ham bir qator ishlar amalga oshirildi.

Yosh rahbarlar masalasiga mamlakat taraqqiyotining muhim omillaridan biri sifatida qaralishi natijasida, 2021-yilga kelib, davlat hokimiyati va xo'jalik boshqaruvi organlaridagi rahbar lavozimlarda 4103 nafar tashabbuskor va iste'dodli yosh rahbarlar (897 tasi xotin-qizlar) faoliyat yuritishiga erishildi.

Amalga oshirilgan ishlar natijasida yoshlarning siyosiy faolligi ham sezilarli darajada oshdi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasiga o'tkazilgan saylovlarda 9 nafar (6 foiz) yoshlar deputat etib saylangan bo'lsa, mahalliy kengashlar deputatlarining 10 foizini yoshlar tashkil etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25-sentabrdagi Farmonga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo'yicha «El-yurt umidi» jamg'armasining tashkil etilishi ana shunday ezgu maqsad yo'lidagi muhim qadamlardan biri bo'ldi.

2018–2021-yillarda Jamg'arma tomonidan dunyoning rivojlangan 35 ta davlatidagi 200 dan ziyod universitet va ilmiy markazlar bilan hamkorlikda mingdan ortiq yigit-qizlarning magistratura hamda doktorantura ta'lim dasturlarida malaka oshirish, stajirovka o'tash amaliyoti yo'lga qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-iyundagi «O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni, «O'zbekiston Respublikasi yoshlar ishlari agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi Qarori yoshlar siyosatini yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan muhim qadamlardan bo'ldi.

Yoshlar ishlari agentligi yoshlarga oid davlat siyosatini ishlab chiquvchi va amalga oshiruvchi, shuningdek, yoshlarning intellektual, ijodiy va boshqa yo'nalishdagi salohiyatini kamol toptirish uchun sharoitlar yaratishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy chora-tadbirlarni tizimli ravishda amalga oshiruvchi davlat boshqaruv organi hisoblanib, o'z vakolati doirasida qabul qilgan qarorlari yoshlarga oid davlat siyosatini ro'yobga chiqarishda ishtirok etuvchi barcha davlat organlari va tashkilotlar, mansabdor shaxslar uchun majburiyligi belgilab qo'yildi.

Yoshlar bilan doimiy muloqot hamda hokimlar, sudlar, prokuratura, ichki ishlar organlari, sog'liqni saqlash va xalq ta'limi tashkilotlari rahbarlarining yoshlar oldida hisobot berish amaliyotining joriy etilgani yurtimiz taraqqiyotining yangi bosqichidagi yoshlarga oid davlat siyosatining o'ziga xos jihati bo'ldi.

O'n bir yillik ta'lim tizimiga o'tilishi munosabati bilan respublikamizning tuman va shaharlarida bo'shab qolgan kollejar bazasida 46 ta «Yoshlar markazlari» faoliyati yo'lga qo'yildi. Ularning negizida kutubxona va kitob do'konlari, yoshlar kinoteatrlari, to'garaklar, shuningdek yoshlarni, ayniqsa, ularning uyushmagan qismini 6 oygacha bo'lgan muddatda kasb-hunarga bepul o'qitish markazlari tashkil etildi.

Adashib jinoyat yo'lga kirib qolgan yoshlarni ijtimoiy faol hayotga qaytarish bo'yicha ham bir qator yangi tashabbuslar amalga oshirildi. Jumladan, sodir etgan jinoiy qilmishidan chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan 969 nafar yoshlar «Yoshlar kafilligi» asosida sud zalidan ozod qilindi.

1999-yili mamlakatimizda «Zulfiya» nomidagi davlat mukofotining ta'sis etilishi, qizlarni barkamol qilib tarbiyalash, ularning ijtimoiy va ijodiy faolligini oshirish hamda tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan muhim qadam bo'ldi. 1999–2020-yillar davomida ushbu mukofot bilan 322 nafar yosh xotin-qizlar munosib taqdirlandi.

O'zbekistonda faol, tashabbuskor va fidoyi yoshlarni rag'batlantirish maqsadida 2003-yili «O'zbekiston belgisi» ko'krak nishoni ta'sis etilgan edi. Mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etayotgan yoshlarni rag'batlantirish «Kamolot» YOIH Markaziy Kengashi tomonidan amalga oshirila boshlandi. 2003–2020-yillar davomida ushbu mukofot bilan 1000 nafardan ortiq yoshlar taqdirlanganligini alohida ta'kidlash lozim.

2016-yildan boshlab bu masalaga yanada jiddiy e'tibor qaratila boshlandi. Respublikada turli soha va tarmoqlarda yuksak natija va yutuqlarga erishayotgan yigitlarni taqdirlash maqsadida «Mard o'g'lon» davlat mukofoti, shuningdek, yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish, o'qish, mehnat va jamoat ishlarida har tomonlama faol ishtirok etayotgan yoshlarni taqdirlash maqsadida «Kelajak bunyodkori» medali ta'sis etildi.

Mamlakatimizda yosh oilalarning ijtimoiy-maishiy muammolarini hal etish masalalari ham ustuvor vazifaga aylandi. 2014–2020-yillar davomida respublikamizda istiqomat qilayotgan jami 8117 ta yosh oila imtiyozli asosda uy-joy bilan ta'minlandi.

Bunday uy-joy va xonadonlar birinchi navbatda imkoniyati cheklangan yoshlar, ijod, fan bilan mashg'ul, yoshlarga oid turli loyihalarda faol ishtirok etayotgan yigit-qizlarga imtiyoz asosida xarid qilib olishi uchun berildi.

Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 23-sentabrdagi «Mamlakat ijtimoiy hayotida faol ishtirok etayotgan yosh oilalarni uy-joy bilan ta'minlashda qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida», 2019-yil 11-sentabrdagi «Mamlakat ijtimoiy hayotida faol ishtirok etayotgan yosh oilalarni uy-joy bilan ta'minlashni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarorlari yosh oilalarni uy-joy bilan ta'minlashning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2020-yil 8-oktabr kuni kengaytirilgan tarzda o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan uyushmagan, ishsiz va yordamga muhtoj yoshlar bilan ishlashda yangicha tartib – «Yoshlar daftari» joriy etildi.

Shu maqsadda Respublikaning 9168 ta mahallada 18–30 yoshdagi 5,5 millionga yaqin yoshlar bilan birma-bir muloqotlar o'tkazildi. Har bir viloyat, tuman (shahar) va mahalla kesimida «Yoshlar balansi» shakllantirildi. O'rganish natijalari bo'yicha, yoshlarning ehtiyojlari va qiziqishlaridan kelib chiqib, ularni kasb-hunarga o'qitish, bandligini ta'minlash, biznes tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va muammolarini hal etish bo'yicha «Yoshlar dasturlari» ishlab chiqilib, ijrosi nazoratga olindi.

2021-yilning birinchi yarim yilligi yakuniga ko'ra, o'n sakkiz yoshga to'lgan va o'ttiz yoshdan oshmagan ijtimoiy himoyaga, iqtisodiy va psixologik qo'llab-quvvatlashga muhtoj, uyushmagan va ishsiz 559700 yoshlar mahallalar kesimida «Yoshlar daftari»ga kiritildi.

Bundan tashqari, «Yoshlar daftari» tizimini elektron yuritish maqsadida 9 ta davlat organlarining yoshlarga oid 17 ta axborot resurslariga integratsiya qilingan www.daftar.mehnat.uz elektron platformasi ishga tushirildi.

«Yoshlar daftari»ga kiritilgan yoshlar tadbirkorlik va kasb-hunarga o'qitilishi, ish bilan ta'minlanishi, yetakchi tadbirkor va usta hunarmandlarga birlashtirilishi, ularga mikrokreditlar ajratilishi, «Yoshlar daftari» jamg'armasi tomonidan moliyaviy, tibbiy, huquqiy va psixologik yordam ko'rsatilishi, shuningdek, qishloq hududlarida istiqomat qilayotgan ishsiz yoshlarga dehqonchilik uchun 1 gektargacha yer maydonlari ajratilishi belgilab qo'yildi.

2021-yildan hududiy va mahalliy hokimliklar qoshida «Yoshlar daftari»ga kiritilgan yoshlarning muammolarini hal qilishga ko'maklashish maqsadida «Yoshlar jamg'armalari» tashkil etildi.

Respublikaning barcha hududlarida yoshlarning muammolari, taklif va istaklarini «mahallabay» o'rganish tizimi joriy etildi.

Respublikaning 206 ta tuman (shahar)larida yoshlar bilan ishlashning yangicha tizimini joriy etish bo'yicha mahalliy hokimliklar tomonidan Yoshlar dasturlari tasdiqlanib, ijrosi bo'yicha alohida elektron platforma ishga tushirildi va monitoringi yo'lga qo'yildi.

2020-yil 25-dekabr kuni ilk bor O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ishtirokida «O'zbekiston yoshlari forumi» o'tkazilib, unda 30 ming nafardan ortiq yoshlar ishtirok etdi. Forumda davlat rahbari tomonidan yoshlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha 2 ta asosiy yo'nalishda – yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, ularni kasb-hunarga o'qitish orqali bandligini ta'minlash; yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha 34 ta ustuvor vazifalar belgilab berildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasiga muvofiq 2021-yil – «Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili» deb e'lon qilindi.

2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini «Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturi qabul qilindi.

Ushbu Davlat dasturining 28 ta bandida yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan vazifalar belgilab berildi.

2021-yilning yanvar va aprel oylarida yoshlar bilan ishlash samaradorligini tubdan oshirish, ishsiz yoshlarning bandligini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2 marotaba kengaytirilgan tarzda videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.

Yig'ilishlarda Davlat rahbari tomonidan ishsiz yoshlarning bandligini ta'minlash va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga qaratilgan amaliy chora-tadbirlar ijrosi tanqidiy ko'rib chiqildi va hal etilishi zarur bo'lgan dolzarb vazifalar belgilab berildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 20-apreldagi «Yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va bandligiga ko'maklashish, ularni ijtimoiy himoya qilish hamda bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'risida»dagi Farmoni hamda 2021-yil 21-apreldagi «Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari faoliyatini tashkil etish hamda yoshlarning tadbirkorlikka oid tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida»dagi Qarori yoshlar sohasida hal etilishi zarur bo'lgan dolzarb vazifalar ijrosini ta'minlashda muhim huquqiy asos bo'ldi.

Mamlakatimizda mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab, yoshlar bilan olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar, ularning ma'naviy kamoloti, axloqiy tarbiyasi masalalariga yoshlarga oid davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri sifatida qarab kelinmoqda.

Ushbu dolzarb vazifalarni samarali hal etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-iyuldagi «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida»gi Qarori bilan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tashkil etildi.

Bugungi kunda Markaz O'zbekiston Respublikasi Prezidenti raisligidagi Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining ijro organi hisoblanadi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hamda barcha tuman (shahar)larda hokimlar rahbarligidagi Ma'naviyat va ma'rifat kengashlari faoliyat yuritmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi faoliyatini yangi bosqichga ko'tarish borasida muhim qadam bo'ldi. Markaz huzurida Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti tashkil etildi.

2021-yil 1-apreldan boshlab talabalar soni va idoraviy bo'ysinuvchi qat'iy nazar, barcha oliy ta'lim muassasalari va ularning filiallarida ma'naviy-ma'rifiy va yoshlar ishlari bo'yicha prorektor lavozimi joriy etildi.

Respublikadagi 10 mingta umum ta'lim maktablarida ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchi lavozimi joriy etilib, bu ishlarga shoir, yozuvchi va jurnalistlar jalb qilindi.

Davlat tomonidan tadbirkorlikka berilayotgan e'tibor va sohada amalga oshirilayotgan islohotlar tufayli ularning soni yildan-yilga sezilarli darajada o'sganligiga qaramasdan, yoshlarni ish bilan ta'minlash muammosi keskinligicha qolgan edi.

2016-yilga kelib mamlakatda yoshlar o'rtasidagi ishsizlik darajasi sezilarli darajada ortdi. O'zbekistonda bu muammoni yechish vazifasi dolzarb masalaga aylandi.

2016-yildan boshlab, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan yoshlarni tadbirkorlikka jalb etish orqali bandligini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratildi va bu boradagi ishlar tizimli tashkil etildi.

2018-yil 27-iyun kuni yoshlarni kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng jalb etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yoshlar – kelajagimiz» davlat dasturi to'g'risida»gi Farmoni qabul qilindi. Ushbu hujjat asosida yosh tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tashkil etildi.

«Yoshlar – kelajagimiz» Davlat dasturi ijrosini ta'minlash bo'yicha o'tgan davr mobaynida bir qator ishlar amalga oshirildi.

Xususan, 2018–2020-yillar davomida Davlat dasturi doirasida yoshlarning 8635 ta biznes loyihalariga jami 1 trln 830 mlrd so'm miqdorida imtiyozli kredit mablag'lari ajratish orqali 42421 tadan ortiq yangi ish o'rni yaratishga erishildi.

Bundan tashqari, hududlarda jami 20 ta «Yosh tadbirkorlar» kovorking-markazlari hamda 212 ta «Yoshlar mehnat guzari» komplekslari foydalanishga topshirildi hamda ularda jami 2 380 ta yangi ish o'rinlari yaratildi.

Yoshlarning startap g'oyalari va loyihalarini qo'llab-quvvatlash, yoshlarga startap loyihani ishlab chiqish, loyihani amaliyotga tatbiq qilish jarayonlarini o'rgatish, yoshlarning istiqbolli startap loyihalariga grant mablag'lari ajratish maqsadida «Startap tashabbuslar»i dasturi amalga oshirila boshlandi.

«Bir million dasturchi» loyihasi doirasida yoshlar bepul o'qitilib, ularning 168 ming nafardan ortig'i o'qishlarni muvaffaqiyatli yakunladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019-yilning mart oyida yoshlarni ma'naviy-madaniy, intellektual va jismoniy jihatdan kamolga yet-

kazish hamda ularning bandligini ta'minlash borasida ilgari surilgan beshta muhim tashabbus yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish yo'lida yangi qadam bo'ldi.

Besh muhim tashabbus dastlab Bo'ka, Quyichirchiq va Uchtepa tumanlarida tajriba sifatida joriy etildi. Shuningdek, 42 ta tuman (shahar)larning 168 ta olis va og'ir ahvoldagi mahallalarida bu tajriba muvaffaqiyatli amalga oshirildi.

Tuman va shaharlar kesimida besh muhim tashabbusni joriy etish bo'yicha aniq va samarali chora-tadbirlar belgilab olindi. Har bitta viloyat va tuman? shahar hokimlari tomonidan besh tashabbus bo'yicha qarorlar qabul qilindi.

O'zbekiston yoshlar ittifoqi qoshida «5 tashabbus loyiha ofisi» nodavlat notijorat tashkiloti faoliyati yo'lga qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyani qabul qilish taklifi bilan chiqdi. Globallashuv va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanib borayotgan bugungi sharoitda yoshlarga oid siyosatni shakllantirish va amalga oshirishga qaratilgan xalqaro huquqiy hujjat jahon hamjamiyati tomonidan ma'qullandi.

Davlat rahbarining bu tashabbusi yoshlar masalalari O'zbekiston Respublikasining nafaqat ichki, balki tashqi siyosatida ham ustuvor ekanligini yana bir bor tasdiqladi.

Respublika Prezidentining yoshlar masalalari bo'yicha izchil siyosati 2021-yil 30-iyunda Toshkentda «Yangi O'zbekiston yoshlari, birlashaylik!» shiori ostida o'tgan «Talaba va yoshlar Forumi»da yana bir bor namoyon bo'ldi. Davlat rahbari ushbu forumda yoshlar orasidan yangi avlod Beruniylarini, Ibn Sino va Ulug'beklarini, Xorazmiy va Farg'oniylarini tarbiyalab, voyaga yetkazish, bundan buyon har qanday sarmoyaviy loyihaning bosh maqsadi, avvalo, yoshlar bandligi masalasini hal etishga qaratilishi kerakligi, bu hamma joyda o'zgarmas qoidaga aylanishi zarurligini ta'kidlab, yosh avlodning dunyo hamjamiyatida raqobatbardosh bo'lib voyaga yetishlari uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish borasida davlat va jamiyat oldida turgan dolzarb vazifalarni kun tartibiga qo'ydi.

Madaniy hayot. Mustaqillikning dastlabki yillaridayoq milliy o'zlikni anglash, xalqning ma'naviy merosini tiklashga intilish kuchaydi. 1991-yilning sentabr oyida Toshkent shahrida Alisher Navoiy tavalludining 550-yilligi keng nishonlandi. Keyinchalik O'zbekiston, mintaqa, umuman, jahon sivilizatsiyasiga munosib hissa qo'shgan buyuk vatandoshlarimiz va madaniyat

namoyandalarining hamda ko'ha shaharlarimizning yubileyleri nishonlandi. Mazkur tadbirlar O'zbekiston 1993-yilda BMTning YUNESKO tashkilotiga a'zo bo'lganidan keyin o'zaro hamkorlikda tashkil etiladigan bo'ldi. Xususan, 1994-yilda Mirzo Ulug'bek tavalludining 600 yilligi, 1996-yil Amir Temur tavalludining 660 yilligi Parijda ham o'tkazildi. 1996-yilda Temuriylar tarixi davlat muzeyi tashkil etildi.

Tarixiy shaxslar va Samarqand shahrining 2750 yilligi, Shahrisabz va Qarshi shaharlarining 2700 yilligi, Buxoro, Xiva, Termiz shaharlarining 2500 yilligi, Toshkentning 2200 yilligi, Marg'ilon va Qo'qonning 2000 yilligi nishonlanishi barobarida qator me'moriy yodgorliklar ta'mirlandi. Xususan, Registon maydoni, Amir Temur maqbarasi, Shohizinda, Doruttilovat, Dorus-sodat ansambllari, Shayx Shamsiddin Kulol maqbarasi, Kalta minor kabi madaniy meros obyektlarida ta'mirlash ishlari olib borildi. 1991-yilda Xiva, 1994-yilda Buxoro, keyinchalik, Shahrisabz – Butunjahon tarixiy-madaniy merosi ro'yxatiga, 2001-yili Samarqand «Shahar – madaniyatlar chorrahasi» deb nomlangan ro'yxatga kiritildi. Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha Islom tashkiloti – ISESCO 2007-yil Toshkent shahrini «Islom madaniyati poytaxti» deb e'lon qildi.

Xalqimiz o'tmishidagi tarixiy haqiqatni tiklash hamda qatag'on qilingan vatandoshlarimizning xotiralarini abadiylashtirish yo'nalishida tadbirlar amalga oshirildi. 2002-yildan 31-avgustda Qatag'on qurbonlarini xotirlash kuni sifatida nishonlana boshlandi va shu yili Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyi ochildi.

O'zbekiston Respublikasi YUNESKOning «Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish konvensiyasi»ni ratifikatsiya qildi. YUNESKO tomonidan yuritiladigan insoniyatning nomoddiy madaniy merosi Reprerentativ ro'yxatidan Shashmaqom (2008), Boysun madaniy muhiti (2008), Navro'z (2009), Katta ashula (2009), Askiya (2014) o'rin oldi.

Moddiy va nomoddiy madaniy merosni saqlab qolish, dunyo hamjamiyatiga O'zbekiston madaniyatini tanitishda 1996-yilda «Yodgorlik» va boshqa jamg'armalar negizida tashkil etilgan xalqaro «Oltin meros» xayriya jamg'armasi faoliyatini ham qayd etish joiz. Xususan, bu tashkilot tomonidan Shodmalik ota kabi yodgorlik majmualari bunyod etildi, hunarmandlik sohasi qo'llab-quvvatlandi.

Mustaqillik yillarida an'anaviy madaniyatga e'tibor kuchaydi. Prezidentning 1997-yil 31-martdagi «Xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san'atini yanada rivojlantirishni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash chora-tad-

birlari to'g'risida»gi Farmonida amaliy bezak san'ati ahamiyatini oshirish, qo'lda badiiy buyumlarni tayyorlashni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralari belgilandi. Jumladan, «O'zbekiston Respublikasi xalq ustasi» faxriy unvoni ta'sis etildi, «Hunarmand» uyushmasi tashkil qilindi. Hunarmandlar daromad solig'idan ozod etildi. Bu tadbirlar badiiy kulollik, kandakorlik, zargarlik, zardo'zlik, gilamdo'zlik, yog'och va ganch o'ymakorligi, naqqoshlik, lakli miniatyura kabi turlarini rivojlanishiga qulay shart-sharoit yaratdi. Nurota kashtachiligi, Marg'ilon va Qo'qonning qo'lda ipak matolar to'qish an'analari qayta tiklana boshlandi.

XX asrning 90-yillari boshlaridan mustaqillik g'oyasining tarkibiy qismi sifatida yangi estetika shaharsozlikda va respublika shaharlarining memoriy qi-yofasida, shuningdek, monumental san'atda o'z aksini topdi. O'rta asr namunalariga o'xshatib qurilgan gumbazlar bilan bezatilgan zamonaviy binolar bilan bir qatorda, jahon me'morchiligining yetakchi tendentsiyalarini o'zida mujassam etgan banklar, mehmonxonalar va ofislarning ko'p qavatli binolari qad ko'tardi.

O'zbekiston mustaqillikka erishishi bilan tasviriy san'at falsafasi va kontsepsiyasida yangi burilish yuz berdi. Milliy o'ziga xoslikni izlash rang-tasvir-da yangi mavzular repertuarini shakllantirib, yangi ijodiy yo'nalish va dunyo-qarashdagi o'zgarishlarga olib keldi.

O'zbekiston zamonaviy tasviriy san'ati muayyan uslubiy ustuvorliklar almashinuvini – realistik rassomlik an'analarini qayta ishlash va sharq miniatyuralari an'analarini turli xil talqinlaridan, to avangard loyihalariga qadar o'zgarishni boshdan kechirdi.

1997-yili O'zbekistonda birinchi bor Badiiy akademiya tashkil etildi. 2002-yili Toshkent foto uyi, 2004-yili O'zbekiston tasviriy san'at galereyasi, 2005-yili O'zbek liboslari galereyasi, 2006-yili Madaniyat va san'at ko'rgazmasi ish boshladi.

O'zbekistonning zamonaviy tasviriy san'atida, ayniqsa, tarixiy janr nihoyatda ommaviylashdi. Natijada, Amir Temur, Bobur, Ulug'bek va boshqa tarixiy shaxslarning ko'p sonli portretlari, tarixiy kompozitsiyalar yaratildi. Milliy namoyandalar – hukmdorlar, shoirlar, mutafakkirlar va olimlarga atab haykallar o'rnatildi.

O'zbekiston mustaqillikka erishilgach, badiiy ifoda erkinligi va ijodkorlik ustidan davlat senzurasini bekor qilindi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar simbiozi yangi madaniy siyosatning asosiy tamoyillardan biri sifatida qaror topdi – bu ikki komponent O'zbekiston badiiy san'atidagi zamonaviy estetik izlanishlarga o'ziga xoslik bag'ishladi.

Mustaqillik yillarida kompozitorlikning rivojlanishida, musiqiy asarlar mavzu palitrasining kengayishi kuzatilib, ular tarixiy, fantastika, zamonaviy va davrimizning dolzarb muammolar doirasini qamrab oladi. Shuningdek, o'zbek kompozitorlarining Yaponiya, Janubiy Koreya, Turkiya, Germaniya, Fransiya'dagi hamkasblari va musiqiy guruhlari bilan ijodiy muloqot o'rnatishlari ham ular ijodiga samarali ta'sir ko'rsatib, yangi ohanglar va mavzular bilan boyitdi.

1996-yildan «O'zbekiston – Vatanim manim» mavzusida qo'shiqlar ko'rik-tanlovi o'tkazila boshlandi. An'anaviy o'tkazilib kelinayotgan «Navro'z sadolari» milliy cholg'u ansambllari va orkestrlarining respublika festivali 2015-yilga kelib, ko'p ovozli xalq cholg'ulari ansambli va orkestrlarining xalqaro musiqa ko'rik-festivali darajasiga ko'tarildi.

Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 11-martdagi qabul qilingan Qarori bilan har ikki yilda bir marotaba Samarqand shahrida «Sharq taronalari» xalqaro musiqa festivali o'tkazila boshlandi.

Prezidentning Qaroriga muvofiq 1997-yili Toshkent davlat milliy raqs va xoreografiya oliy maktabi tuzildi. 2002-yili esa Toshkent davlat konservatoriyasi O'zbekiston davlat konservatoriyasiga aylantirildi.

Prezidentning Qarori bilan qabul qilingan Bolalar musiqa va san'at maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada yaxshilash bo'yicha davlat dasturi ham muhim o'rin tutib, qaror doirasida 2009–2014-yillarda mamlakat hududlarida 278 ta musiqa va san'at maktabi foydalanishga topshirildi.

Mustaqillikning dastlabki davrida teatr san'atini inqirozdan saqlab qolish va rivojlantirish maqsadida qator qarorlar qabul qilindi. Bu imkoniyat teatrlarni yo'qolgan repertuar va an'analarini tiklab olishlari uchun g'oyatda muhim va zarur shart-sharoitlarni yaratib berdi. Bu yillarda qo'g'irchoq teatrlari tarmog'i kengayib bordi. 2001-yil 21-sentabrda Prezident Farmoni bilan O'zbek davlat akademik drama teatriga «Milliy teatr» maqomi berildi.

Shuningdek, 1993-yil «Turkiston» saroyi, 2009-yil «O'zbekiston» xalqaro forumlar saroyi, 2011-yil Simpoziumlar saroyi va Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasidan tashkil topgan Ma'rifat markazi majmuasi, 2014-yil Farg'ona viloyatida Teatr-konsert saroyi ochildi.

Mustaqillik o'zbek teatrlari va san'atkorlarining dunyo sahnasiga chiqishi uchun yo'l ochdi. Poytaxtdagi respublika teatrlari qatorida viloyat jamoalari ham xalqaro madaniy munosabatlarda qatnasha boshladi.

O'zbekiston akademik katta teatri, O'zbek davlat drama teatri kabi jamoalar shu jihatdan ma'lum yutuqlarga erishdilar.

O'zbekistonda «Navro'z», «Teatr: Sharq va G'arb», «Humor» kabi xalqaro, an'anaviy qo'g'irchoq teatrlari festivali, «Debyut», «Seni kuylaymiz, zamondosh!» kabi respublika festivallari va tanlovlari o'tkazildi.

«Competizione dell' Opera» italyan operasi ijrochilari xalqaro tanlovi-da O'zbekiston vakillari ikki bor oliy o'ringa munosib deb topildi. 2014-yili O'zbekiston XIV tanlovga mezbonlik qildi.

Imom Buxoriy, Ahmad Farg'oniy, Mirzo Ulug'bek, jadidlar, Oybek singari siymolarning faoliyatiga oid tarixiy-biografik asarlar, milliy mumtoz adabiyot namunalari, ayniqsa, Alisher Navoiy dostonlari asosidagi spektakllar sahna-lashtirildi. Folklor-etnografik manbalar asosidagi pyesalar dramaturgiyaning alohida yo'nalishini tashkil qildi. Zamonaviy mavzudagi teatrlar maishiy mavzudagi kassabop komediyalarga ko'p murojaat qildi, keyinchalik, yoshlar hayoti, ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi mavzusidagi asar-lar salmog'i ortib bordi.

Televideniye tizimi ham mustaqillik yillarida ko'p kanalli tarmoq dara-jasiga ko'tarildi. 2011-yildan boshlab yuqori texnologiyalarga asoslangan raqamli telekanallar tashkil etila boshlandi.

Milliy taraqqiyotning Yangi O'zbekiston bosqichi mamlakat madaniy hay-otida ham tub o'zgarishlarga katta yo'l ochib berdi. Prezidentning 2017-yil 15-fevraldagi «Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yana-da takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni va 2018-yil 19-dekabr-dagi «Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish so-hasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori bilan O'zbekistonda madaniy meros va badiiy madaniyatni rivojlanti-rishdagi tizimli islohotlar davri boshlandi. Shuningdek, 2019-yili «Metsenat-lik to'g'risida» qonun qabul qilindi.

2019-yilda tasdiqlangan «Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxati»ga muvofiq O'zbekiston hududida 8208 mod-diy-madaniy meros obyektlari bo'lib, ulardan 4748 tasi arxeologiya, 2250 tasi arxitektura, 678 tasi monumental san'at yodgorliklari, 538 ta diqqatga sa-zovor joylar hisoblanadi. Muzeylarda 2 yarim milliondan ortiq eksponatlar saqlanmoqda. Mustaqillik yillarida yodgorliklarni ta'mirlash borasida shakl-langani maktablarni rivojlantirishga e'tibor susaydi. Keyingi besh yilda bu so-hani rivojlantirish choralari ko'rildi.

Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi tomonidan ham qator loyihalar amalga oshirildi. Xususan, jamg'arma tomonidan Luvr muzeyi mu-taxassislarini jalb qilingan holda Katta Langar Qur'onini ta'mirlash ishlari 2021-yilda yakunlandi.

O'zbekistondan olib chiqib ketilgan madaniy boyliklarni qidirib topish va qaytarib keltirish chora-tadbirlarini amalga oshirishda 2017-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori bilan tashkil etilgan Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekistonga oid xorijdagi madaniy boyliklarni tadqiq etish markazining faoliyati ahamiyatli bo'ldi.

2017-yilda Prezidentning hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan 2 ta Farmoni hamda 2019-yilda qabul qilingan Qarori bilan usta-shogird maktablari faoliyatini takomillashtirish, hunarmandchilikning noyob turlarini tiklash, mahsulotlari eksportini har tomonlama rag'batlantirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar belgilandi. 2020-yilda Toshkentda noyob zargarlik buyumlarini ishlab chiqarish bo'yicha birinchi yirik korxonalar tashkil etildi.

2019-yili Qo'qon shahrida birinchi xalqaro hunarmandchilik festivali o'tkazildi. Festivalda 78 ta davlat hunarmandlari ishtirok etdi. Festival arafasida MDHda birinchi bo'lib Qo'qon shahriga Jahon hunarmandlar kengashi tomonidan «Jahon hunarmandlari shahri» degan unvon berilgani o'zbek xalq amaliy san'atining xalqaro miqyosdagi yuksak e'tirofi bo'ldi.

XII asrda Turkistondan Toshkentga ko'chib kelgan yirik ilohiyotchi olim va hunarmandlarning homiysi Suzuk ota (Ahmad Yassaviyning nabirasi) maqbarasi va masjidi 1990-yilda xaroba holida mahalla ixtiyoriga berilgan edi. 2019-yilda bu yerda ta'mirlash ishlari olib borilib, hududiga hunarmandlar shaharchasini ham qamrab olgan yagona majmua tarkibidagi Suzukota masjidi, madrasasi foydalanishga topshirildi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 22-oktabrdagi «O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni davlat tilini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Xususan, 21-oktabr – O'zbek tili bayrami kuni sifatida nishonlana boshlandi. Vazirlar Mahkamasi tarkibida davlat tilini rivojlantirish departamenti tuzildi, o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish bo'yicha kontsepsiya ishlab chiqilishi belgilandi.

2017-yil 31-avgust kuni O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev «Shahidlar xotirasi» xiyoboniga tashrif davrida bildirgan taklifi asosida har bir viloyatda Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyining filiali universitet va institutlar qoshida tashkil etildi. Prezidentning 2020-yil 8-oktabrda qabul qilingan «Qatag'on qurbonlarining merosini yanada chuqur o'rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» far-moyishi har bir hudud bo'yicha ishchi guruhlar tuzilib, qatag'on qurbonlarini nomma-nom aniqlash ishlari boshlandi.

Prezident tashabbusi bilan Ikkinchi jahon urushi davrida xalqimiz ko'rsatgan jasorati, oliyjanoblighi, matonati va irodasini abadiylashtirish yo'lida 2020-yil «G'alaba bog'i» yodgorlik majmuasi va uning tarkibida «Shon-sharaf» davlat muzeyi ochildi, birinchi bor «O'zbekiston xalqining fashizm ustidan qozonilgan g'alabaga qo'shgan hissasi» nomli kitob-albom chop etildi, «Ilhaq» «101» badiiy filmlari, «Xalq jasorati» hujjatli filmi suratga olindi. Amalga oshirilayotgan bu ishlar yubileyi doirasida bo'lib qolmay, balki ular doimiylik xarakteriga ega. Buning dalili sifatida 2020-yil 9-sentabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «G'alaba bog'i» yodgorlik majmuasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarorini keltirish mumkin.

2017-yildan boshlab O'zbekistonning shaharsozlik va arxitektura amaliyoti rivojida yangi bosqich boshlanib, uning o'ziga xos xususiyatlari shahar, tuman, qishloq va mahallalarning tuzilmasini takomillashtirish, turar joy binolarini obodonlashtirish va aholining farovon, ekologik xavfsiz muhitda yashashini ta'minlaydigan, dunyo andazalari darajasiga yetkazishdir. Me'morchilikdagi innovatsion yondashuvlar Toshkentdagi «Siti» majmuasini yaratishda aniq namoyon bo'lib, u o'z ichiga biznes xoll, ko'p qavatli turar joylar, tematik parklar va poytaxt aholisi uchun dam olish joylarini o'z ichiga olgan. 2019-yilda Xalqaro biznes markazi tarkibida yirik tadbirlar va oliy darajadagi forumlarni o'tkazish uchun mo'ljallangan hamda me'moriy dizayni jihatidan o'ziga xos, texnologik jihatdan innovatsion va dunyo servis talablariga javob beradigan Tashkent Citi Xalqaro kongresslar markazi ochildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-avgustdagi «Milliy kinematografiyani yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori, 2021-yil 7-apreldagi «Kino san'ati va sanoatini yangi bosqichga olib chiqish, sohani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida» Farmoni milliy kinoindustriyani yanada rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etdi. «O'zbekkino» Milliy agentligi – O'zbekiston Respublikasi kinematografiya agentligi etib qayta nomlanib, kinoindustriya istiqboliga oid qator islohotlar ilgari surildi. Xususan, «Ipak yo'li durdonasi» Toshkent xalqaro kinofestivalining ta'sis etilishi, nodavlat va notijorat asosdagi «Milliy kinematografiyani rivojlantirish markazi» hamda Kinematografiya akademiyasining tashkil etilishi kinoijodkorlarning ijtimoiy mavqeyini yuksaltirish, sohani sifatli mutaxassislar bilan ta'minlashga hizmat qiladi.

Milliy kinematografiyaning izchil rivojlanishi uchun uni ijodiy yutuqlar va tajriba almashish, shuningdek, jahon kinematografiyasining ijobiy amaliyoti va mo'ljallarini anglash kabi yalpi jarayonga kiritish imkoniyatiga ega

bo'lishi alohida ahamiyatga ega. O'zbekiston kinosi ushbu jahon badiiy jarayoniga tobora ishonchli tarzda kirib kelmoqda.

2020-yil 20-noyabrda yangi ta'mirlangan «O'zbekfilm» kinostudiyasida O'zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning kino ijodkorlar bilan bo'lib o'tgan uchrashuvida oldinga surgan tashabbusiga asosan «O'zbekistonning 100 ta eng sara filmlari» oltin to'plami yaratilganligi quvonarli holdir. Xronologik tartibda tuzilgan ushbu to'plam O'zbekiston kinematografiyasining rivojlanish tarixidagi har bir bosqichning xususiyatlarini aks ettiradi.

O'zbekiston Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi «O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori milliy madaniyatni asrash va rivojlantirishga muhim zamin bo'ldi. Mazkur qarorga asosan o'zbek maqom san'atini chuqur o'rganib, o'ziga xos ijro maktablari va an'analarni yangi bosqichda ravnaq toptirish, uning «oltin fondi»ni yaratish va boyitish, xalqaro nufuzini oshirish va keng targ'ib qilish maqsadida davlat muassasasi shaklida O'zbek milliy maqom san'ati markazi tashkil etildi. Shuningdek, 2019-yilda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori bilan O'zbek milliy maqom san'ati markazi huzurida Marg'ilon shahar musiqali maqom teatrini tashkil etilishida ham, avvalo, maqom ijrochiligi yo'nalishida ustoz-shogird an'alarini rivojlantirishga, iste'dodli yoshlarni tarbiyalashga va ijodiy salohiyatini oshirishga ko'maklashish, shuningdek, bu sohada o'zaro manfaatli xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish kabi maqsadlar ko'zda tutildi.

2018-yil Shahrisabzda Xalqaro maqom san'ati forumi o'tkazildi va Oqsaroy maydonida Maqom muzeyi ochildi. Shuningdek, 2019-yil Marg'ilonda «Buyuk ipak yo'li» xalqaro folklor musiqasi, Termizda xalqaro baxshichilik festivallari o'tkazildi.

Respublikadagi muzeylarning jahon andazalari darajasida bo'lishi uchun tegishli choralar amalga oshirilib kelinmoqda. Muzey sohasi rivoji uchun yaratilgan shart-sharoitlar O'zbekistonning tarixiy-madaniy turizm salohiyatini oshirishga, xalqaro madaniy hamkorlikni o'sishiga xizmat qiladi.

Yangi O'zbekistonda madaniy merosni muhofaza qilish, umuman, madaniyatning iqtisodiy ta'minotiga katta e'tibor berilib, tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Albatta, bu jarayonlarning bari tarixiy meros va milliy madaniyatning o'ziga xosligi saqlab qolinishi, madaniyat namoyandalarining yangi avlod to'liqini yuzaga kelishiga xizmat qiladi.

Jismoniy tarbiya va sport. Mustaqillikning dastlabki yillaridayoq, ya'ni 1992-yil 5-fevralida O'zbekiston Respublikasining «Jismoniy madaniyat va

sport to'g'risida» Qonuni qabul qilindi. 1992-yil yanvarida Milliy Olimpiya qo'mitasi tashkil etildi. 1993-yil sentabrda tashkilot Xalqaro Olimpiya qo'mitasi tomonidan rasman tan olindi. 1996-yil 14-avgustida Toshkentda «Olimpiya shon-shuhrati» muzeyi ochildi.

1994-yili O'zbekiston FIFAga a'zo bo'ldi. Shu yili futbol bo'yicha O'zbekiston terma jamoasi Osiyo o'yinlarida chempionlikka erishdi.

Mustaqillik yillarida tennis kortlari, futbol maydonlari va stadionlar, basseymlar qurildi. Xususan, xalqaro miqyosdagi Yunusobod va Jar sport majmualari bunyod etildi. 2012-yil 28-sentabrda 7 ta maydon, bolalar-o'smirlar futbol maktabi va boshqa inshootlardan iborat «Bunyodkor» stadioni tantanali ochildi.

Maktab o'quvchilari uchun «Umid nihollari», litsey va kollej o'quvchilari uchun «Barkamol avlod» hamda talabalar Universiadasi iborat uch bosqichli sport musobaqalari tizimi yuzaga keldi. Mazkur musobaqalarda yuz minglab yoshlar ishtirok etishdi. 2002-yili Bolalar sportini rivojlantirish fondi tashkil qilindi.

1991–2012-yillarda Olimpiya va Osiyo o'yinlarida, jahon, Osiyo chempionatlarida hamda boshqa xalqaro tanlovlarda ishtirok etgan O'zbekiston sportchilari 6700 dan ortiq medal qo'lga kiritdilar.

1996-yil Olimpiya o'yinlaridan 2012-yil Olimpiya o'yinlarigacha, 1994-yil Qishki Olimpiya o'yinlaridan 2014-yildagi Olimpiya o'yinlarigacha o'zbek sportchilari 6 ta oltin, 5 ta kumush, 10 ta bronza medalga sazovor bo'lishdi. 1994-yili Lina Cheryazova fristaylning akrobatika turi bo'yicha qatnashib, O'zbekistondan birinchi olimpiada chempioni bo'ldi. Hozirga qadar Qishki Olimpiya o'yinlarida o'zbekistonlik sportchilarning ishtirokiga qaramay L.Cheryazovaning medali yagona mukofot bo'lib qoldi.

2000-yili Muhammadqodir Abdullayev yozgi Olimpiya o'yinlarida oltin medalni qo'lga kiritgan ilk o'zbek sportchisi sifatida tarixga kirdi.

2016-yili Rio-de-Janeyroda o'tkazilgan XXXI yozgi olimpiya o'yinlarida O'zbekiston terma jamoasi birinchi bor 13 ta medal (4 ta oltin, 2 ta kumush, 7 ta bronza) bilan qaytdi. Shundan 7 medal boks bo'yicha terma jamoa a'zolariga tegishli bo'lib, olimpiada yakunida dunyo bo'yicha birinchilikni egalladi.

Olimpiya o'yinlarida gimnastika turi bo'yicha Oksana Chusovitina 7 bor ishtirok etdi hamda mazkur ko'rsatkich bilan Ginnes rekordlar kitobiga kiritildi.

O'zbekiston terma jamoasi turli yillarda bo'lib o'tgan yozgi olimpiya o'yinlarida jami 31 ta medalni qo'lga kiritdilar. Jumladan, 1996-yilda (Atlanta) 2 ta (1 ta kumush, 1 ta bronza), 2000-yilda (Sidney) 4 ta (1 ta oltin,

1 ta kumush, 2 ta bronza), 2004-yilda (Afina) 5 ta (2 ta oltin, 1 ta kumush, 2 ta bronza), 2008-yilda (Pekin) 4 ta (1 ta kumush, 3 ta bronza), 2012 yilda (London) 3 ta bronza, 2016-yilda (Rio-de-Janeyro) 13 ta (4 ta oltin, 2 ta kumush, 7 ta bronza), jamoaviy hisobda 7 ta oltin, 6 ta kumush va 18 ta bronza medallarini olishga sazovor bo'ldilar.

2016-yili Paralimpiya o'yinlarida milliy jamoani 32 nafar a'zosi ishtirok etib, 8 ta oltin, 6 ta kumush, 17 ta bronza medalini qo'lga kiritdi. Jamoa vakillari 6 ta jahon, 7 ta paralimpiya va 12 ta Osiyo rekordlarini yangiladi.

O'zbekiston sporti tarixida milliy kurashni tiklash ishlari olib borildi. 1999-yili Toshkentda kurash bo'yicha birinchi jahon chempionati o'tkazilib, unda 50 mamlakat vakillari qatnashdi. Kurash Osiyo o'yinlari dasturiga kiritildi, Kurash bo'yicha xalqaro assotsiatsiya tuzildi hamda u 2002-yili xalqaro sport tashkiloti tomonidan a'zolikka qabul qilindi. Har ikki yilda milliy kurash bo'yicha Amir Temur va Hakim at-Termiziy xotirasiga bag'ishlab xalqaro musobaqalar o'tkazilmoqda. Shuningdek, 1994–2002-yillar davomida tennis bo'yicha «O'zbekiston Prezidenti kubogi» xalqaro turniri o'tkazildi. Yana O'zbekiston boks bo'yicha Osiyo, taekvondo bo'yicha Osiyo va Okeaniya chempionatlari, «A» toifasidagi erkin kurash bo'yicha xalqaro turnir va boshqa musobaqalarga mezbonlik qildi.

Tennis bo'yicha Iroda To'laganova 1999-yili o'smirlar o'rtasidagi Uimbldon turniri g'olibi bo'ldi, shuningdek, yetti bor WTA turnirlarida zafar qozondi.

2011-yilda Osiyo chempionatida futbol bo'yicha O'zbekiston terma jamoasi yarim finalga, o'smirlar terma jamoasi chorak finalga chiqdi.

2012-yili 16 yoshgacha bo'lgan o'smirlar o'rtasidagi Osiyo chempionatida O'zbekiston terma jamoasi g'olib bo'ldi.

O'zbekiston Futbol federatsiyasining xalqaro toifadagi hakami Ravshan Ermatov bosh hakamlik qilgan matchlar soniga ko'ra (jami 9 ta) rekord o'rnatgan. U o'n bora O'zbekistonning eng yaxshi hakami, besh bor Osiyoning eng yaxshi hakami, «Dunyo bo'yicha yilning eng yaxshi hakami» nominatsiyasi bo'yicha Global Soccer Awards mukofoti sohibi. R.Ermatov Braziliya (2014) va Rossiya (2018) da o'tkazilgan jahon chempionatida hakamlik qilgan. 2013-yili gandbol bo'yicha O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi Xalqaro gandbol federatsiyasining nufuzli «Challenge Trophy» kubogida birinchi o'ringa sazovor bo'ldi. 2013-yili Xalqaro gandbol federatsiyasining XXXIV kongressida O'zbekiston gandbol federatsiyasi 2009–2013-yillarda xalqaro miqyos-

da erishgan yutuqlarini hisobga olib, «Osiyoning eng faol federatsiyasi» deb e'tirof etildi.

2015-yilda esa O'zbekistonda xokkey o'yini tiklandi. «Binokon» jamoasi qayta tashkil qilinib, qo'shni mamlakatlarda bo'lib o'tadigan xalqaro turnirlarda ishtirok eta boshladi. Oradan bir yil o'tib esa mustaqil O'zbekistonda ilk marotaba xokkey bo'yicha xalqaro o'yin o'tkazildi.

Prezidentning 2017-yil 15-fevraldagi «Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni bilan Jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitasi tashkil etildi.

Prezidentning 2018-yil 5-martdagi Farmoni bilan O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi hamda uning 203 ta tuman (shahar) bo'limlari tashkil etildi. 1991-yilda Respublikada 52 ta sport turi mavjud bo'lsa, 2021-yilda ular soni 104 tani tashkil qildi.

Prezidentning 2020-yil 24-yanvardagi Farmoni bilan O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilindi. Sport sohasida obyektlardan samarali foydalanish, infratuzilmani jadal rivojlantirish, aholiga yetarli sharoitlar yaratish maqsadida 2021-yilda vazirlik Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi bilan birlashtirilib, Turizm va sport vazirligi tashkil etildi.

So'nggi yillarda 184 ta sport inshooti yangidan qurilib foydalanishga topshirildi. Jumladan, «Humo Arena» ko'p tarmoqli muz arenasi (12500 o'rinni) ish boshladi. Mazkur nufuzli inshoot qishki sport musobaqalariga tayyorgarlik ko'rish jarayonini jahon talablari darajasida o'tkazilishini ta'minladi, mamlakatimizda yirik xokkey va boshqa sport musobaqalarini o'tkazish imkonini berdi.

Yangidan 25 ta bolalar-o'smirlar sport maktablari tashkil etilib, ularning soni 306 taga yetkazildi. Jismoniy tarbiya va sport sohasida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash maqsadida O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya instituti negizida O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti tashkil etildi. Toshkent, Nukus, Samarqand va Farg'ona shaharlarida Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni ilmiy-metodik ta'minlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazlarining, shuningdek, vazirlik tizimida 14 ta futbol mahorat maktablarining faoliyati yo'lga qo'yildi.

Sohada olib borilayotgan islohotlar samarasi sifatida 2017-yildan boshlab sportchilar respublika va xalqaro sport musobaqalarida 483 ta oltin, 394 ta kumush, 536 ta bronza, jami 1413 ta medalni qo'lga kiritishdi.

Jismoniy tarbiya va sport sohasida qisqa muddatda 20 ga yaqin hujjatlar qabul qilinishi, boshqaruvni takomillashtirishga qaratilgan o'zgarishlar nafaqat sohani rivojlantirish uchun sharoitlar yaratishga, qolaversa, aholini ommaviy sport bilan qamrab olishga, pirovardida, har tomonlama barkamol avlod shakllanishiga xizmat qiladi. Shunday qilib, so'nggi yillarda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish – umummilliy harakatga aylandi.

Jamiyat hayotida sog'lom turmush tarzini barqaror, tizimli yo'lga qo'yish, jismoniy tarbiya va sportni aholi o'rtasida yanada ommalashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Davlat tomonidan korxonalar, tashkilotlar, muassasalarning sport inshootlari (stadionlar, futbol maydonlari, sport zallari)da jismoniy mashqlarning turlari bo'yicha shug'ullanish uchun shart-sharoitlar yaratildi. Bunda yurish, yugurish, minifutbol, velosport, badminton, stritbol, Workout (mahalla va ko'cha fitnesi) sport turlari sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etishda ustuvor etib belgilandi. Ommaviy sportni rivojlantirish yo'lida olib borilayotgan amaliy chora-tadbirlar tufayli aholining sport bilan shug'ullanuvchi qismi 14,7 foizdan 19 foizga, shu jumladan, 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar o'rtasida 20,8 foizdan 28,5 foizga oshdi. Shuningdek, bu borada iqtidorli sportchilarni aniqlash va yoshlar terma jamoalariga zaxirani shakllantirish maqsadida sport maktablari o'quvchilari o'rtasida «Bolalar sport o'yinlari», oliy ta'lim tizimida «Talabalar sport o'yinlari» tashkil etilganligi, «Jismoniy tayyorgarligi rivojlangan muassasa» ko'rik-tanlovi o'tkazilishi belgilanganligini e'tirof etish lozim.

Tashqi siyosat. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining shakllanishi va uning ustuvor yo'nalishlari. Mustaqillik qo'lga kiritilganidan so'ng O'zbekiston Respublikasi o'zining xalqaro aloqalarini o'rnatish va amalga oshirishni boshladi. O'zbekiston dunyoning 130 dan ortiq davlati bilan diplomatik aloqalarni yo'lga qo'ydi. Toshkentda 40 dan ortiq davlat va 20 dan ortiq yirik xalqaro tashkilotning, shuningdek, xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlarda o'nlab diplomatik va konsullik vakolatxonalar faoliyat olib bormoqda.

O'zbekistonning ko'plab xorijiy mamlakatlari bilan keng munosabatlari rivojlanib bordi. O'zbekistonning Rossiya Federatsiyasi bilan munosabatlari tashqi siyosatining muhim yo'nalishlaridan biridir. O'zbekiston Rossiya bilan 1992-yilda diplomatik munosabatlar o'rnatdi.

O'zbekiston va Xitoy Xalq Respublikasi o'rtasida hamkorlik barcha sohalarni qamrab oladi va o'zaro manfaatli xususiyatga egadir.

Rivojlangan G'arb davlatlari bilan hamkorlik sharoitida Amerika Qo'shma Shtatlari (AQSH) bilan aloqalar O'zbekiston uchun muhimdir. AQSH G'arb davlatlari orasida birinchilardan bo'lib O'zbekiston mustaqilligini tan oldi va u bilan diplomatik aloqalar o'rnatdi.

O'zbekiston va Yevropa Ittifoqi (EI) aloqalari ustuvor ahamiyatga ega. 1990-yil boshida O'zbekiston va Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi munosabatlar iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan "TA'SIS" dasturi amalga oshirila boshlandi. 1996-yilda Yevropa Ittifoqi va O'zbekiston 1999-yilda kuchga kirgan sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi bitimni imzoladilar. O'zbekiston va Yevropa Ittifoqi o'rtasida o'zaro hamkorlikning ikki tomonlama va ko'p tomonlama organlari, shu jumladan, Hamkorlik Kengashi va boshqalar shaklida mustahkam institutsional baza yaratildi. Yevropa Ittifoqining O'zbekistondagi diplomatik vakolatxonasi 2012-yilda ochildi.

O'zbekiston «Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi» va «O'zbekiston – Yevropa Ittifoqi» formatidagi mintaqalararo muloqot doirasida o'tkaziladigan tadbirlarda faol ishtirok etmoqda.

Yaponiya O'zbekiston uchun ishonchli va strategik, ilmiy-madaniy munosabatlarida muhim ahamiyatga ega bo'lgan davlatdir. Yaponiya O'zbekiston mustaqilligini 1991-yil 28-dekabrda tan oldi va 1992-yil 26-yanvarda diplomatik munosabatlar o'rnatildi. Ikki davlatning o'zaro munosabatlari «Markaziy Osiyo + Yaponiya» muloqoti doirasida ham faol rivojlanib bormoqda.

O'zbekiston Yaponiya bilan faol iqtisodiy hamkorlik aloqalarini o'rnatgan. Yaponiya hukumati tomonidan ishlab chiqilgan «Taraqqiyotga rasmiy yordam» doirasida O'zbekistonga qiymati 140 milliard iendan ziyod kreditlar taqdim etildi, 22 milliard iendan ortiq beg'araz yordam ko'rsatildi, umumiy qiymati 13 milliard iendan ziyod texnik hamkorlik loyihalari amalga oshirildi.

Koreya Respublikasi 1991-yil 30-dekabrda O'zbekiston Respublikasining mustaqilligini tan oldi, 1992-yil 29-yanvarda diplomatik munosabatlar o'rnatildi. Ikki tomonlama hamkorlikning huquqiy asoslari davlatlarning turli sohalardagi o'zaro munosabatlarini tartibga soluvchi 200 dan ortiq hujjatdan iborat. Ulardan eng muhimi 2006-yil mart oyida imzolangan O'zbekiston Respublikasi va Koreya Respublikasi o'rtasidagi strategik sheriklik to'g'risidagi qo'shma deklaratsiyadir.

1991-yil 26-dekabrda Hindiston O'zbekiston Respublikasining mustaqilligini tan oldi va 1992-yil 18-martda diplomatik aloqalarni o'rnatish to'g'risida O'zbekistonning yirik xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bilan o'zaro aloqa-

lari – mamlakat ko'p tomonlama diplomatiyasining muhim yo'nalishi bo'ldi. Jumladan, O'zbekiston 1992-yil 2-mart kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)ga a'zo bo'ldi. O'zbekiston BMT doirasida xalqaro va mintaqaviy muammolarni muhokama qilish va ularni yechishda faol ishtirok etmoqda. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov BMTning 48- (1993-yil sentabr), 50- (1995-yil oktabr), 55- (2000-yil sentabr) va tashkilot Bosh Assambleyasining «Mingyillik rivojlanish maqsadlari» sammitida (2010-yil) ma'ruza qildi. U o'z nutqlarida O'zbekiston nomidan Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik va barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan taklif va tashabbuslarni ilgari surdi.

2002-yilda tashkilotning Bosh kotiblari Kofi Annan, 2010, 2015-yillarda Pan Gi Mun va 2015, 2017-yillarda Antoniu Guterrish O'zbekistonga tashrif buyurdi.

1993-yil oktabr oyida Parijda O'zbekiston YUNESKO a'zosi bo'ldi. O'zbekistonga turli yillarda YUNESKO Bosh direktorlari Federiko Mayor (1995, 1998), Koichiro Matsuura (2000, 2006), Irina Bokova (2013) shuningdek, O'zbekiston Prezidenti I.Karimov (1996) YUNESKOga tashrif buyurdi.

O'zbekistonda 46 ta o'quv muassasasi, shundan, 41 ta umumta'lim maktabi va 5 ta kasb-hunar kolleji hamda akademik litseylari YUNESKoning Birlashgan maktablar tarmog'iga a'zo bo'ldi, oliy ta'lim muassasalarida YUNESKO kafedralari tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi va YUNESKO hamkorlik aloqalari natijasida bir qator qadimiy shaharlar, buyuk allomalar, tarixiy shaxslar, milliy qadriyatlarning yubiley sanalari xalqaro miqyosda nishonlandi, ular xalqaro madaniy ro'yxatlarga kiritildi.

Markaziy Osiyo mintaqasining Yevropa bilan o'zaro aloqalarida Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti (EXHT) alohida ahamiyat kasb etdi. 1992-yil 26-fevralda O'zbekiston EXHT a'zosi bo'ldi. EXHT bilan hamkorlikning asosiy ustuvor yo'nalishi iqtisodiy, texnologik, gumanitar va ekologik sohalarda a'zo davlatlar o'rtasida tizimli siyosiy muloqot uchun sharoit yaratish, aloqalarni rivojlantirishga ko'maklashadigan mintaqaviy xavfsizlik sohasidir. 1995-yilda mintaqamamlakatlari bilan o'zaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida Toshkentda EXHTning Markaziy Osiyo bo'yicha byurosi ochildi.

O'zbekiston Shanxay hamkorlik tashkiloti (SHHT)da faol ishtirok etdi. O'zbekiston SHHT doirasida mintaqada barqarorlik, o'zaro iqtisodiy va madaniy aloqalar borasida hamkorlik olib bordi. O'zbekiston mazkur

xalqaro tashkilot faoliyatida 2001-yil iyun oyidan ishtirok etib kelmoqda. SHHTning ochiqlik, boshqa davlatlar va bloklarga qarshi bo'lmazlik, xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga tayyor turish kabi tamoyillarini izchil amalga oshirish tarafdoridir. 2004-yil 1-yanvardan SHHT kotibiyati Pekin shahrida, Mintaqaviy aksiterror tuzilmasi (MATT) ijroiya qo'mitasi Toshkent shahrida faoliyat olib boradi.

O'zbekiston tashkilot vujudga kelgan davrdan boshlab 2003–2004, 2009–2010 yillar va 2015–2016-yillarda unga uch marotaba raislik qildi. Jumladan, 2016-yilning 23–24-iyun kunlari Toshkent shahrida O'zbekiston raisligida SHHTga a'zo davlatlar rahbarlari Kengashining navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi. Hindiston Respublikasi va Pokiston Islom Respublikasining SHHTga a'zo davlat maqomini olish yo'lidagi majburiyatlari to'g'risidagi memorandumlar imzolangan Toshkent sammitining muhim voqealaridan bo'ldi.

Osiyo taraqqiyot banki (OTB) ko'ptarmoqli moliyaviy muassasa bo'lib, u 1966 yil dekabridan boshlab faoliyat olib boradi. O'zbekiston 1995-yil avgust oyidan buyon OTBning a'zosidir. O'zbekistonda 1998-yil Toshkentda OTBning vakolatxonasi tashkil etildi. OTB O'zbekiston bilan iqtisodiy sohada hamkorlik olib borayotgan xalqaro moliyaviy muassasalar ichida birinchi o'rinda turadi. Shuningdek, O'zbekiston tashkilotga a'zo mintaqaviy mamlakatlar orasida 15-, barcha a'zolar orasida 22-o'rinni egallasa, tashkilotdan kredit oluvchi mamlakatlar orasida 14-o'rinda turadi.

OTBning Tollimarjon GES, avtomobil yo'llarini qurish va rekonstruktsiya qilish, Surgil koni negizidagi Ustyurt gaz-kimyoy majmuasini qurish, qishloq joylarda namunaviy tipdagi turar-joy binolarini barpo etish, Samarqand shahrida muqobil energiya olish, temiryo'l va avtomobil yo'llari tarmog'ini rivojlantirish kabi yirik loyihalar amalga oshirildi. 2010-yil 3-may kuni Toshkentda OTB Boshqaruvchilar kengashining 43-yillik majlisi bo'lib o'tdi. Yig'ilishda OTBning o'sha vaqtdagi Prezidenti Xaruxiko Kuroda ishtirok etdi.

O'zbekiston Iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga 1992-yil noyabrda a'zo bo'ldi. IHT doiralaridagi hamkorlikning muhim yutug'i 1996-yilning may oyida Yevropa va Osiyoni eng qisqa yo'l orqali birlashtiradigan «Saraxs-Tajan-Mashhad» Transosiyo temir yo'lining ochilishi bo'ldi.

1997-yilda esa Transosiyo magistral temir yo'lining «Saraxs-Tajan-Mashhad» uchastkasi 700 kilometrli «Bafa-Bandar-Abbos» liniyasi bilan tutashtirildi. Natijada, bir tarafdin, Xitoyning sharqiy sohilidagi Lyanyungan dengiz porti Urumchi, Olmaota, Toshkent va Tehron temir yo'li orqali Fors

ko'rfazidagi «Bandar Abbos» Eron porti bilan bog'lanib, mintaqa mamlakatlarning dengizlarga chiqish imkoniyati ta'minlandi. IHT doirasida O'zbekiston, Eron, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston temir yo'llari vakillari xalqaro yuk tashishlarni tashkil qilishdagi o'zaro hamkorlik masalalari bo'yicha ishchi uchrashuvlarini muntazam tashkil etib kelmoqda.

Demak, O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritgandan so'ng xalqaro jarayonlarda o'z o'rni va rolini belgiladi. Rossiya, Xitoy, AQSH, Yevropa Ittifoqi, Yaponiya, Koreya Respublikasi, Hindiston va boshqa ko'plab davlatlari hamda BMT, SHHT, EXHT, OTB, ITB, IHT va xalqaro tashkilotlar bilan siyosiy, iqtisodiy, madaniy va boshqa sohalarda davlatlararo munosabatlarni o'rnatdi.

Yangi O'zbekiston xalqaro munosabatlari. O'zbekistonni 2017–2021-yillarda yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida chuqur o'ylan-gan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish, mamlakatning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo'shnichilik muhitini shakllantirish, mamlakatimizning xalqaro nufuzini mustahkamlash masalalariga asosiy ustuvor yo'nalishlar sifatida e'tibor qaratilgan. O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, mamlakat tashqi siyosati «o'zaro ishonch va manfaatlarni hisobga olish asosida xorijiy davlatlar, eng avvalo, qo'shni davlatlar, shu bilan birga, xalqaro institutlar bilan yaqindan hamkorlik qilish bugungi kun talablari darajasida» olib borilmoqda. Shunga asosan, Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan o'zaro manfaatli aloqalarni mustahkamlash O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishi sifatida belgilanadi.

O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev mintaqa davlatlari bilan aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan aniq qadamlarni amalga oshirdi. Qo'shni mamlakatlar bilan siyosiy muloqotni yuqori darajada faollashtirish bo'yicha O'zbekiston davlat chegaralarini delimitatsiya va demarkatsiya qilish, savdo-iqtisodiy, transport-kommunikatsiya va madaniy-gumanitar sohalarda amaliy natijalarni ko'rsatgan tashabbuslarni ilgari surdi.

O'zbekiston Prezidentining 2017–2021-yillardagi Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari bilan o'nlab rasmiy, norasmiy va ishchi uchrashuvlari buning amaliy tasdig'idir. Jumladan, O'zbekiston Prezidentining BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasida ilgari surilgan tashabbusi asosida 2017-yil sentabr oyida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining muntazam Maslahat uchrashuvlari tashkil etildi. Birinchi Maslahat uchrashuv 2018-yil Nur Sultonda, ikkinchisi 2019-yil Toshkentda bo'lib o'tdi. Unda Markaziy Osiyo davlatlarining siyosiy, iqtisodiy, transport-kommunikatsiya, madaniy-gumanitar va bosh-

qa sohalardagi aloqalarini kengaytirish, mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta'minlashning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

O'zbekistonning qo'shni davlatlar bilan yuqori darajadagi siyosiy muloqotlarni faol olib borishi mintaqada hamda xalqaro miqyosda salmoqli natijalarga erishishga imkon berdi.

O'zbekiston tashabbusi bilan va Markaziy Osiyo mamlakatlari hamkorligida quyidagi maxsus rezolyutsiyalar qabul qilindi:

2018-yil 22-iyun kuni BMT Bosh Assambleyasining «Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, barqarorlik va izchil taraqqiyotni ta'minlash bo'yicha mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash»;

2018-yil 12-dekabrda «Ma'rifat va diniy bag'rikenglik»;

2018-yil 19-dekabrda «Markaziy Osiyoda barqaror turizm va barqaror rivojlanish».

2021-yil 18-mayda «Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududiga aylantirish to'g'risida».

BMTning Markaziy Osiyo bo'yicha rezolyutsiyasi – mintaqa davlatlarining xalqaro hamjamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlanishiga misoldir, chunki dunyoning ko'plab mamlakatlari ushbu hujjatning hammualliflari hisoblana-di. Shuningdek, 2018-yil noyabr oyida BMT shafeligida Orolbo'yi mintaqasi uchun Inson xavfsizligi bo'yicha ko'p tomonlama sheriklik asosida trust fondi tashkil etildi.

Markaziy Osiyoda davlatlararo va ko'p tomonlama munosabatlarni shakllantirish jarayoni muhim masala bo'lib qolmoqda. Mintaqa respublikalari birgalikda «Markaziy Osiyo – yadro qurolidan xoli zona» g'oyasini amalga oshirishdi, Orolni qutqarish bo'yicha Xalqaro jamg'armani tashkil etishdi. Shu bilan birga, mintaqalararo savdo darajasini kengaytirishga ehtiyoj ortib bormoqda, suvdan foydalanish, davlatlararo chegaralarning ayrim qismlarini delimitatsiya va demarkatsiya qilish masalalari va boshqalar to'liq hal qilinishi dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Shu munosabat bilan, bugungi kunda Markaziy Osiyo mintaqasining barqaror rivojlanish konsepsiyasini shakllantirish ekologik muammolarni hal qilishda yangi integratsiyalashgan yondashuvni va xalqaro huquq tamoyillariga muvofiq birgalikda harakatlaniшни talab qiladi.

So'nggi yillarda O'zbekiston va mintaqa mamlakatlari munosabatlari barcha sohalarda ijobiy rivojlandi. Jumladan, agar 2016-yilgacha O'zbekiston va mintaqa mamlakatlari yillik savdosi o'rtacha 100–150 million dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2019-yil oxiriga kelib tovar aylanmasi o'rtacha 50 foizdan oshdi.

O'zbekiston mintaqaviy va xalqaro xavfsizlikni mustahkamlash bilan bog'liq masalalarda muhim ahamiyatga ega mamlakat, chunki zamonaviy dunyoda Markaziy Osiyo xavfsizligi global xavfsizlikning ajralmas qismi hisoblanadi. O'zbekistonning muhim tashabbuslari BMT hamkorligida Samarqanddagi «Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo'lidagi hamkorlik» (2017), Toshkentdagi Afg'oniston bo'yicha «Tinchlik jarayoni, xavfsizlik sohasida hamkorlik va mintaqaviy sheriklik» (2018) xalqaro yig'ilishlarida namoyon bo'ldi.

Afg'onistonda barqarorlikni ta'minlanishi O'zbekiston tashqi siyosatida muhim ahamiyatga ega. Chunki Afg'oniston O'zbekistonni Janubiy Osiyo mamlakatlari bilan ko'prik vazifasini bajaradi. O'zbekiston Afg'onistondagi turli siyosiy guruhlarining o'zaro muloqoti tarafdori sifatida aloqalarni rivojlantirmoqda. Hozirda O'zbekiston Afg'onistonga elektr energiyasi va oziq-ovqat mahsulotlarini eksport qilmoqda, transport kommunikatsiyalarini qurishda (temir yo'l) o'z hissasini qo'shmoqda.

2020–2021-yillarda koronavirus pandemiyasi va uning mamlakat iqtisodiyotiga salbiy ta'sirini kamaytirish yo'lida ham xorijiy davlatlar bilan yaqindan hamkorlik qilindi. Xususan, 57 ta loyiha asosida O'zbekistonga Buyuk Britaniya, Germaniya, Italiya, Xitoy, Singapur, Ukraina kabi mamlakatlardan tibbiy asbob-uskunalar olib kelindi. Shu bilan birga, 9 ta mamlakatga (Ozarbayjon, Belarus, Rossiya, XXR, Eron, Vengriya, Qirg'iziston, Tojikiston, Afg'oniston) O'zbekistonning gumanitar yuklari yetkazildi.

Prezident Sh.Mirziyoyev rahbarligida Yangi O'zbekiston dunyo mamlakatlari, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlari bilan keng munosabatlarni rivojlantirishga alohida ahamiyat berildi. Jumladan, 2017-yil dekabr oyida O'zbekiston Prezidenti Sh. Mirziyoyevning Rossiya Federatsiyasiga davlat tashrifi o'zaro hamkorlikni rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tardi. Tashrif asosida mintaqalararo hamkorlikni rivojlantirish, sog'liqni saqlash, fan va ta'lim, turizm, iqtisodiyot tarmoqlari va boshqa sohalarga oid 16 milliard dollarlik 50 dan ortiq hujjat imzolandi. Shundan so'ng, 2018-yil Rossiya Prezidenti V.Putin davlat tashrifi bilan mamlakatimizda bo'ldi. O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev va Rossiya Prezidenti V.Putin Qo'shma bayonotni imzoladilar. Tashrif davomida 2019–2024-yillarga mo'ljallangan iqtisodiy hamkorlik dasturi, 2019–2021-yillarda madaniy-gumanitar sohadagi hamkorlik dasturi, fan, ta'lim, to'qimachilik sanoatida hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha qator hujjatlar imzolandi.

Rossiya – O'zbekistonning asosiy sarmoya va savdo sheriklaridan biridir. Asosiy sarmoyalar yoqilg'i-energetika majmuasiga yo'naltirilgan. 2019-yil Rossiyaning O'zbekiston tashqi savdo aylanmasi umumiy hajmidagi ulushi 15,7 foizni tashkil etgan va asosiy savdo sheriklari orasida ikkinchi o'rinni egalladi. O'zaro jami savdo aylanmasi 2016-yilga nisbatan qariyb 60 foizga o'sdi hamda 2019-yilda 6,6 milliard dollardan oshdi. Mamlakatda Rossiya kapitali ishtirokida 1,5 mingdan ziyod korxonalar va Rossiya hududida 600 dan ortiq o'zbek xo'jalik subyektlari mavjud.

O'zbekiston Prezidenti Sh. Mirziyoyev 2017-yil may va 2019-yil aprel oyida Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpinning taklifiga binoan Xitoyga davlat tashriflari bilan bordi. Tashrif doirasida siyosiy va iqtisodiy sohalar-da muhim kelishuvlarga erishildi, ikki tomonlama hamkorlikning istiqbolli yo'nalishlari bo'yicha muhim hujjatlar imzolandi. Ikki tomonlama samarali hamkorlik Xitoyning «Bir makon, bir yo'l» tashabbusi doirasida ham amalga oshirilmoqda.

XXR O'zbekistonning savdo sheriklari orasida yetakchi o'rinni egallaydi. O'zbekiston hududida Xitoy kapitali ishtirokidagi 700 dan ortiq kompaniya va korxonalar faoliyat yuritmoqda. 2019-yil yakunlari bo'yicha o'zaro tovar ayirboshlash hajmi 7,6 milliard dollardan ziyodni (2020-yilda 6 432,2 mln AQSH doll.) tashkil etib, 2016-yilga nisbatan 80 foizga o'sdi.

2017-yil sentabrda BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasi doirasida O'zbekiston Prezidenti Sh. Mirziyoyevning AQSHga tashrifi davomida 100 dan ortiq kompaniyalar ishtirokida o'zbek-amerika biznes forumi asosida 2,6 milliard dollarlik hujjatlar to'plami imzolandi.

O'zbekiston Prezidenti Sh. Mirziyoyev 2018-yil 15–17 may kunlari AQSH Prezidenti Donald Tramp taklifiga binoan AQSHga rasmiy tashrifi bilan keldi. Muzokaralar natijasida «O'zbekiston va Amerika Qo'shma Shtatlari: yangi strategik sheriklik davri boshlanishi» nomli davlat rahbarlarining Qo'shma bayonoti, turli sohalar-da, o'zaro manfaatli aloqalarni yanada mustahkamlashga qaratilgan hujjatlar imzolandi. Ikki mamlakat o'rtasidagi o'zaro savdo hajmi 2019-yil oxirida 596,2 mln AQSH dollari tashkil etdi.

O'zbekiston Prezidenti Sh. Mirziyoyev 2018-yil 8–9 oktabr kunlari rasmiy tashrif bilan Yevropa Ittifoqining Fransiya, 2019-yil 20 yanvarda Germaniya kabi mamlakatlarida bo'ldi. Yevropa Ittifoqi – O'zbekiston Respublikasining eng yirik savdo sherigidir. 2018-yil yakunlari bo'yicha O'zbekiston va Yevropa Ittifoqi mamlakatlari o'rtasidagi o'zaro tovar ayirboshlash hajmi 3,7 milliard AQSH dollarini tashkil etdi (2016-yilda – 1,8 milliard AQSH dollari).

Respublika hududida Yevropa sarmoyasi ishtirokida iqtisodiyotning turli sohalarda, shu jumladan avtomobilsozlik, dori-darmonchilik, neft-gaz, kimyo, to'qimachilik va boshqalarda 900 dan ortiq korxonalar mavjud. Jumladan, Germaniya O'zbekistonning Yevropadagi asosiy savdo-iqtisodiy sherigidir. O'zbekiston Germaniyaning Markaziy Osiyodagi ikkinchi yirik sherigidir. 2019-yil oxirida O'zbekiston – Germaniya savdo hajmi 980,1 mln dollarga (2016-yilda 520,0 million dollar) (2020-yilda 829,0 mln AQSH dollar) yetdi. O'zbekistonda Germaniyaning «MAN», «Claas», «Knauf», «Papenburg», «Volkswagen» va «Viessmann», «Siemens», «Bosch» kabi kompaniyalari faoliyat olib bormoqda. O'zbekiston universitetlari, ilmiy-tadqiqot institutlari Yevropa Ittifoqining loyihalarida ishtirok etmoqdalar.

Dunyo iqtisodiyotida katta nufuzga ega bo'lgan Yaponiya bilan o'zaro munosabatlarni yanada rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev 2019-yilda Yaponiyaga tashrif buyurdi.

2020-yilda har ikki davlat o'rtasida o'zaro tovar ayirboshlash, eksport va import hajmi oshdi. O'zbekistonda bir qator qo'shma korxonalar faoliyat olib bormoqda. Jumladan, «Isuzu Motors Ltd.», Sho'rtan gaz-kimyo majmuasi va «Ko'kdumaloq» konida kompressor stantsiyasini qurish, Farg'ona neftni qayta ishlash zavodini rekonstruksiya qilish, Toshg'uzor – Boysun – Qumqo'rg'on temir yo'lini bunyod etish, Samarqand, Buxoro va Urganch xalqaro aeroportlarini modernizatsiyalash bo'yicha amalga oshirilgan yirik loyihalar ulkan samaralar bermoqda. O'zbekistonda «Marubeni», «Mitsubishi Motors», «Japan Oil», «Toyota Tsusho», «Itochu», «Isuzu Motors Ltd.», «Gas and Metals National Corporation (JOGMEC)» va boshqa mashhur yapon kompaniyalari ish yuritmoqda.

Koreya Respublikasi Prezidenti Mun Chje Inning taklifiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2017-yil noyabr oyida ushbu mamlakatga davlat tashrifi ikki tomonlama munosabatlarni yanada rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Tashrif doirasida O'zbekiston Prezidenti Koreya Respublikasi Prezidenti, turli rasmiy kishilar, shuningdek, BMTning sobiq Bosh kotibi Pan Gi Mun bilan uchrashdi. Shundan so'ng, 2019-yil aprel oyida Koreya Prezidenti Mun Chje In, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan, davlat tashrifi bilan mamlakatimizda bo'lgan. Ushbu tashriflar savdo-iqtisodiy, sarmoyaviy, madaniy-gumanitar va boshqa sohalardagi hamkorlikni yanada rivojlantirishga xizmat qildi.

O'zbekistonda Janubiy Koreyaning yetakchi kompaniyalari «Lotte grupp», «Lotte Kemikal», Koreya gaz korporatsiyasi, «Xanjin grupp», «Korean Eyr»,

«Union Korea Pharm» va boshqalar faoliyat olib bormoqda. Xususan, Koreya gaz korporatsiyasi, «Lotte Kemikal» va «Es-Ti-Iks Enerji» kompaniyalari konsortsiumi ishtirokida Surgil koni asosida yiliga 4,5 milliard kubometr gazni qayta ishlashga mo'ljallangan Ustyurt gaz-kimyo majmuasi ishga tushirildi. Navoiy intermodal logistika markazida zamonaviy texnologiyalar va Korean Eyr kompaniyasi boshqaruv tizimi joriy etildi.

O'zbekiston va Janubiy Koreya iqtisodiyot, madaniyat, ta'lim va fan, turizm sohasida, axborot va telekommunikatsiya texnologiyalari, transport, qurilish va boshqa sohalarda tajriba almashish maqsadida «Koreya – Markaziy Osiyo» ko'p tomonlama hamkorlik forumi tashkil etilgan.

O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari va ilmiy tashkilotlari Janubiy Koreyadagi o'ttizdan ortiq universitetlar va ilmiy-ishlab chiqarish tashkilotlari bilan hamkorlik olib bormoqda.

2018-yil 30-sentabr – 1 oktabr kunlari O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev davlat tashrifi bilan Hindistonda bo'ldi. Tashrif siyosiy, iqtisodiy, sarmoyaviy, innovatsion, energetika, transport, madaniy-gumanitar sohalarda o'zro manfaatli hamkorlikni rivojlantirishga zamin yaratdi.

O'zbek-hind hamkorligini mustahkamlash bo'yicha boshlangan muloqotning mantiqiy davomi sifatida Hindiston Bosh vaziri Narendra Modining taklifiga binoan 2019-yil 17–18-yanvar kunlari O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Hindistonda bo'ldi. Tashrif davomida O'zbekiston rahbari Narendra Modi bilan muzokaralar o'tkazdi va 285 rasmiy delegatsiyalar va dunyoning 26 893 kompaniyalari ishtirok etgan «Jo'shqin Gujarat – 2019» IX Xalqaro sarmoya sammitining asosiy mehmoni sifatida qabul qilindi. O'zbekiston va Hindiston madaniy-gumanitar aloqalari rivojlanib bormoqda.

Yangi O'zbekiston tashqi siyosatida global universal tashkilot BMT bilan munosabatlar muhim ahamiyatga ega. 2017-yil sentabr oyida O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasida nutq so'zlab, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar, demokratiya, inson huquqlari, yoshlar, diniy bag'rikenglik, xalqaro va mintaqaviy xavfsizlik, mintaqaviy hamkorlik, ekologiya va boshqa hozirgi zamonning eng dolzarb mavzulariga to'xtalib o'tdi.

O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2019-yil 23-sentabr kuni BMT Bosh Assambleyasi 75-sessiyasida ilk marotaba o'zbek tilida nutq so'zladı. O'zbekiston Prezidentining nutqi haqqoniy va hayotiyligi bilan alohida ahamiyat kasb etdi. Jumladan, bu nutq uch muhim qismdan – mahalliy, min-

taqaviy va xalqaro darajadagi masalalarga jahon jamoatchiligi e'tiborini qaratish va amaliy tashabbuslarni ilgari surishdan iborat bo'ldi.

2020-yil oktabrida O'zbekiston ilk bor BMTning Inson huquqlari kengashiga ko'pchilik ovoz bilan tarixda birinchi marta uch yillik muddatga saylandi.

2018-yil YUNESKO Bosh direktori Odri Azule O'zbekistonga tashrif buyurdi va o'z navbatida 2018-yilda O'zbekiston Prezidenti Sh. Mirziyoyev YuNESKOga tashrif buyurdi.

2021-yilgacha O'zbekistonda EXHTning respublika muassasalariga ularning institutsional salohiyatini rivojlantirishda texnik yordam ko'rsatish, xavfsizlik, barqaror iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy rivojlanish kabi masalalarga qaratilgan umumiy qiymati 15 mln yevrodan ortiq 170 dan ortiq loyihalari amalga oshirildi.

Yangi O'zbekiston va xalqaro mintaqaviy tashkilot Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi munosabatlari tubdan o'zgardi. 2017-yilning oktabr oyida Sochi shahrida bo'lib o'tgan uchrashuvda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Hamdo'stlik mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiyot, sarmoya, transport, turizm, ilm-fan, ta'lim va xavfsizlik sohalaridagi hamkorlikni rivojlantirishdan manfaatdorligini, MDHga a'zo mamlakatlar o'rtasida o'zaro ishonch va hamkorlikni mustahkamlash, yangi, aniq loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish zarurligini qayd etdi.

O'zbekiston MDHning 84 ta turli organlaridan o'z manfaatlarga javob beradigan 40 dan ortig'ida ishtirok etmoqda. Shuningdek, so'nggi 2017–2020-yillarda O'zbekiston MDH Iqtisodiy kengashi, Hamdo'stlik Parlamentlararo Assambleyasi va MDHning 18 ta sohaviy organiga qo'shildi. 2020-yilda O'zbekiston MDHga raislik qildi.

O'zbekiston tashkilotga raisligi davrida Hamdo'stlikni mintaqaviy davlatlararo tashkilot sifatida yanada mustahkamlash va rivojlantirish, MDHning xalqaro maydondagi nufuzini hamda Tashkilotning ko'p tomonlama hamkorlikning dolzarb masalalarini hal qilishdagi rolini oshirish, MDH erkin savdo zonasining rivojlanishi va to'laqonli faoliyat ko'rsatishi, iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish, transport kommunikatsiyalarini yanada takomillashtirish, terroristik va ekstremistik kuchlar, narkotrafik, jinoyatchilik, kiber tahdidlarga qarshi kurashish, ilmiy-texnik va innovatsion, madaniy-gumanitar aloqalar, turizm sohasidagi hamkorlikni kengaytirish masalalariga e'tibor qaratildi.

Ma'lumki, Shanxay hamkorlik tashkilotiga 2021-yil holatiga ko'ra, sakkiz davlat – Xitoy, Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, O'zbekiston, Hindiston va Pokiston a'zo, Mo'g'uliston, Eron, Afg'oniston kuzatuvchi, Belarus, Shri-Lanka hamda Turkiya «Muloqot bo'yicha sheriklar» maqomida SHHTga a'zo davlatlarning umumiy maydoni 40 mln kv.km, ya'ni dunyo hududining 26,6 foizini egallaydi. Ushbu davlatlar aholisining soni 3 mlrd kishi yoki dunyo aholisining taxminan 44 foizini tashkil etadi.

2018-yil iyunda Xitoyning Tsindao shahrida SHHTga a'zo mamlakatlar davlat rahbarlari kengashida O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev nutq so'zladi. Shuningdek, O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2020-yil 10-noyabr kuni SHHTga a'zo davlatlar rahbarlari kengashining onlayn shaklida o'tgan navbatdagi majlisida ishtirok etib nutq so'zladi. O'zbekiston Prezidenti o'z nutqida ushbu tashkilot o'z taraqqiyotining prinsipial jihatdan yangi bosqichida turganini alohida qayd etib, «Umumiy qadriyatimiz, birgalikda rivojlanishga intilishimiz, madaniyatlar xilma-xilligiga hurmatimiz ifodasi bo'lgan ko'p tomonlama hamkorlikning noyob tajribasi – «Shanxay ruhini» mustahkamlash bugun har qachongidan muhim» ekanini ta'kidladi.

Turkiy tilli davlatlar kengashi 2009-yilda Ozarbayjonda Naxichevan bitimi asosida Turkiya, Ozarbayjon, Qozog'iston va Qirg'iziston davlatlari tomonidan ta'sis etilgan. Ushbu tashkilot turkiy tilli mamlakatlarning tarixiy, milliy va etnolingvistik birligi asosida vujudga kelgan. Tashkilot Kotibiyati Istanbulda joylashgan. Turkiy tilli davlatlar kengashiga 2021-yil holatiga ko'ra 5 ta davlat a'zo (Turkiya, Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston va O'zbekiston), 1 ta davlat (Vengriya) kuzatuvchi maqomida bo'lib, tashkilotga a'zo davlatlarning umumiy maydoni 4242,3 km kv ni aholisi 152 milliondan ortiqni tashkil etadi.

O'zbekiston 2019-yil 15-oktabr kuni Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashiga a'zo bo'ldi. O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2018, 2019 va 2020-yillarda Turkiy kengashning nufuzli yig'ilishlarida nutq so'zlab, tashkilot doirasida qator muhim tashabbuslarni ilgari surdi. 2020-yilda ko'hna Xiva shahri «Turkiy dunyo madaniyati poytaxti» deb e'lon qilindi.

O'zbekistonning Turkiy kengashda ishtiroki Markaziy Osiyo, Kavkaz va Yevropa mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiyotini yanada rivojlantirish, a'zo davlatlar o'rtasida transport-logistika sohasini takomillashtirish, yangi bozorlarga chiqish, transport yo'laklarini turlantirish hamda madaniy-gumanitar aloqalarni yuksaltirishga xizmat qiladi.

2017-yil 3-mart kuni O'zbekistonga OTB Prezidenti Takexiko Nakao tashrif buyurdi va shu tashrif doirasida bankning 573 million dollarlik mablag'ini jalb qilgan holda kichik biznes, meva-sabzavotchilik sohalari, suv ta'minoti tizimi va avtomobil yo'llari infratuzilmasini rivojlantirishga doir loyihalarni amalga oshirish bo'yicha kelishuvlar imzolandi.

Shunday qilib, hozirgi kunga qadar O'zbekiston dunyoning 170 ga yaqin davlatlari tomonidan tan olindi, ularning 137 tasi bilan diplomatik aloqalar yo'lga qo'yildi. O'zbekiston 100 dan ortiq xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar a'zosisidir.

Dunyoda yuz berayotgan o'zgarishlarning xilma-xilligi doirasida davlatlararo, mintaqalararo va sivilizatsiyalararo munosabatlarning turli xil dinamikasi kuzatilmoqda. O'zbekiston muhim geosiyosiy mintaqaning markazida joylashgan bo'lib turli mamlakatlar bilan ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirib, yirik xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bilan faol hamkorlik qilmoqda. Zamonaviy Ipak yo'lini tiklash maqsadida xorijiy davlatlar, mintaqaviy va xalqaro institutlar bilan faol munosabatlarni olib bormoqda.

Yangi O'zbekiston tashqi siyosatida Markaziy Osiyo ustuvorligi amaliyotda namoyon bo'ldi, respublikalar o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy munosabatlar kengayib bormoqda, shu bilan birga Markaziy Osiyoda barqaror taraqqiyotni mustahkamlaydigan ikki tomonlama va ko'p tomonlama sheriklik rivojlanmoqda.



MUNDARIJA

So'zboshi	4
Eng qadimgi davr	10
Ahamoniylar istilosi	58
Yunon-makedon istilosi	72
Kushoniylar boshqaruvi davri.....	90
Eftaliylar boshqaruvi davri	105
Ashinaliylar boshqaruvi davri.....	111
Arablar istilosi	121
Somoniylar boshqaruvi davri.....	136
Qoraxoniylar boshqaruvi davri	147
G'aznaviylar boshqaruvi davri.....	153
Saljuqiylar boshqaruvi davri.....	159
Anushteginiylar boshqaruvi davri.....	167
Mo'g'ullar istilosi	181
Temuriylar boshqaruvi davri.....	199
Shayboniylar boshqaruvi davri	229
Ashtarxoniylar boshqaruvi davri.....	246
Mang'itlar boshqaruvi davri	258
Minglar boshqaruvi davri.....	274
Qo'ng'irotlar boshqaruvi davri	293
Rossiya imperiyasi istilosi	311
Sovetlar hukmronligi davri	354
Mustaqil O'zbekiston Respublikasining tashkil topishi	380

O‘ZBEKISTON TARIXI

(Eng qadimgi davrlardan
bugungi kungacha)

I jild

(O‘zbekiston tarixi va manbalari)

Muharrir *M. Bo‘ronov*
Badiiy muharrir *B. Zufarov*
Texnik muharrir *Sh. Sohibov*
Musahhah *Sh. Nazarova*
Sahifalovchi *B. Tuxtarov*

© «Ma’naviyat» nashriyoti. 2023. Litsenziya raqami AI № 189, 10.05.2011 yilda berilgan.
Bosishga 19.09.2023 yilda ruxsat etildi. Bichimi 70x100 1/16. «Times New Roman» garniturasida
Ofset bosma usulida bosildi. Sharhli bosma tabog‘i. 36,76. Nashriyot hisob tabog‘i 32,35.
10 000 nusxa. Buyurtma № 2781. Narxi shartnoma asosida.

«Kolorpak» MChJ bosmaxonasida chop etildi.
100206, Toshkent shahar, Yunusobod tumani, Yangishahar ko‘chasi, 1a-uy.

@tarixchi_kutubxonasi



ISBN 978-9943-04-458-6



9 789943 044586